

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**RASHIDOV OKTAM YUNUSOVICH,
TOYMUHAMEDOV IBROXIM RIXSIBOEVICH,
ALIMOV IL'XOMJON IKROMOVICH,
TOJIEV RAXMATULLO RAXMONOVICH**

**PUL, KREDIT VA
BANKLAR**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar
ta'lim o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini
Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan "Bank ishi" ta'lim
Yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan

Toshkent 2009

Rashidov O.YU., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., Tojiev R.R. Pul, kredit va banklar: Darslik. –T.: TDIU, 2009. - 439 b.

Darslikda quyidagi pul, kredit moliya nazariyalari to'g'risida batafsil Yozilgan, bundan tashqari moliya tizimi, korxonalar moliyasi, inflyatsiya, bank tizimi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va sug'urta ishi keng Yoritilgan.

Ushbu darslik oliy ta'lim talabalari, kollej o'quvchilari va tijorat banklari xodimlariga tavsiya etiladi.

Ma'sul muxarrir prof. B.YU. Xodiev.

**Taqrizchilar: i.f.d. prof. Iminov O.K.,
i.f.n. dots. Ismatullaev I.**

Rashidov O.YU., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., Tojiev R.R. Den'gi, kredit i banki: Uchebnik. –T. TGEU, 2009 g. –439 c.

V uchebnike rassmatrivaetsya teoriya deneg, teoriya kredita, finansi i finasovaya sistema, finansi predpriyatiy, inflyatsiya, bankovskaya sistema i funktsii bankov, mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya, osobennosti organizatsii straxovogo dela.

Uchebnik prednaznachen studentam visshix uchebnix zavedeniy, uchashimsya kolledjey i prakticheskim rabotnikam kommercheskix bankov i finansovix organov.

Otvetstvenniy redaktor prof. B.YU. Xodiev.

**Retsenzi: d.e.n., prof. Iminov O.K.,
k.e.n., dots. Ismatullaev I.**

Rashidov O.Yu., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., Tojiyev R.R. Money, credit and finance: Texbook. –T.: TSEU, 2009. - 439 r.

In this textbook there are discussed theories of money and credit, finance and financial system, finance of organizations, inflation, banking system and functions of banks, international monetary and credit relations and some specifics of insurance.

The textbook provides good guidance to students of economic universities, colleges and specialists in the sphere of banking systems.

Editor-in-chief prof. Xodiev B.Yu.

**Reviewers: p.h.d., prof. Iminov O.K.
p.h.d., prof. Ismatullaev I.**

©- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2009.

MUNDARIJA

KIRISH.....	9
I-bob. Pul nazariyasi.....	11
1.1. Pullarning kelib chiqishi, mohiyati va turlari	11
1.2. Bozor iqtisodiyotida pullarning funktsiyalari	21
1.3. Pulning nazariyalari	30
1.4. Pul agregatlari va pul mul'tiplikatorini.....	38
1.5. Pul muomalasi va pullarning aylanishi.....	44
II-bob. Kredit nazariyasi.....	59
1.1. Kredit zarurligi va mohiyati	59
2.2. Ssuda kapitali manbasi va xarakat kilish shakllari.....	71
2.3. Kreditning asosiy funktsiyalari va tashkil kilish asoslari.....	72
2.4. Kreditning asosiy tamoyillari.....	77
2.5. Ssuda foizi: mohiyati, turlari va ularga ta'sir kiluvchi omillar.....	84
2.6. Kreditning asosiy shakllari va turlari.....	84
2.7. Kredit nazariyalari tankidi.....	89
3-bob. Moliya va moliya tizimi.....	93
3.1. Moliyaning ijtimoiy iqtisodiy mohiyati.....	93
3.2. Moliyaning funktsiyalari.....	101
3.3. Moliya siyosatining mohiyati va mazmuni.....	110
3.4. Moliya siyosatini amalga oshirishda moliya mexanizmining mohiyati va o'rni.....	115
3.5. Moliya tizimi va uning bo'g'inlariga tasnif.....	119
3.6. Moliyani boshqarishning hozirgi zamon tizimi.....	125
3.7. Moliyaviy boshqaruvda moliyaviy nazoratning modellari, shakllari va usullari.....	135
3.8. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	141
3.9. Byudjet tuzilmasi va byudjet tizimi.....	148
3.10. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari.....	151
3.11. Soliq tushunchasi va uning ob'ektiv zarurligi.....	156
3.12. Soliqlarning funktsiyalari.....	161
3.13. Soliqlarning turlari va ularga tasnif.....	165
3.14. Soliq elementlari va ularga tasnif.....	171
IV bob. Korxonalar moliyasi.....	179
4.1. Korxonalar moliyasining mohiyati.....	179
4.2. Korxonalar moliyasining tashkil etishning tamoyillari.....	184
4.3. Korxonaning moliya resurslari.....	188
4.4. Korxonaning asosiy faoliyatining tahlili.....	192
4.5. Korxonaning moliyaviy natijalarining tahlili.....	196
4.6. Korxonalarda moliya ishlarini tashkil etishning xususiyatlari.....	201

V-bob. Banklar va ularning operatsiyalari.....	206
5.1. Banklarning mohiyati va asosiy funksiyalari.....	206
5.2. Bank tizimi va uning operatsiyalari.....	214
5.3. Markaziy bank va uning funksiyalari.....	220
5.4. O'zbekiston banklarning rivojlanish yullari va isloxlari.....	226
VI Bob. Qimmatli qog'ozlarning mohiyati va shakllari.....	233
6.1. Qimmatli qog'ozlarning mohiyati va ularning asosiy turlariga tasnif.....	233
6.2. Qimmatli qog'ozlarning hosilalari va ularning turlari.....	246
6.3. Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati va uning tarkibiy tuzilmasi.....	255
6.4. Fond birjasi – bozor iqtisodiyotining eng muhim instituti sifatida.....	267
6.5. Listing va delisting jarayonlari hamda ularga qo'yiladigan talablar.....	278
VII bob. Inflyatsiya.....	286
7.1. Inflyatsiyaning mohiyati va uning yuzaga chiqish shakllari.....	286
7.2. Inflyatsiyaning shakllari va turlari.....	288
7.3. Inflyatsiya nazariyalari.....	292
7.4. Inflyatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini.....	296
7.5. Inflyatsiyaning barqarorlashtirish usullari.....	298
VSH-bob. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimi.....	306
8.1. Valyuta munosabatlari va valyuta tizimi.....	306
8.2. Valyuta kursi.....	324
8.3. To'lov va hisob-kitob balanslari.....	333
8.4. Valyuta siyosati.....	346
8.5. Xalqaro hisob-kitoblar, ularning shakllari	353
8.6. Xalqaro kredit munosabatlari.....	368
IX – bob. Sug'urtalash va sug'urta ishi.....	383
9.1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, uning zarurligi funksiyalari.....	383
9.2. Majburiy va ixtiyoriy sug'urtani tashkil qilish tamoyillari.....	385
9.3. Sug'urtalash turlari va ularni takomillashtirish Yo'llari.....	389
9.4. O'zbekiston Respublikasi sug'urta qonunchiligi.....	392
Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.....	402

ОГЛАВЛЕНИЕ

Vvedenie.....	9
Glava I. Teoriya deneg.....	11
§ 1. Osnovi teorii deneg i ego osobennosti	11
§ 2. Funktsii deneg	21
§ 3. Teoriya deneg	30
§ 4. Denejnie agregati i denejniy mul'tiplikator.....	38
§ 5. Sovremennaya organizatsionnaya struktura denejnoy massi.....	44
Glava II. Teoriya kredita.....	59
§ 1. Neobxodimost' i sumnost' kredita.....	59
§ 2. Istochniki ssudnogo kapitala i formi ego dvizheniya.....	71
§ 3. Osnovnie funktsii kredita i osnovi organizatsii.....	72
§ 4. Osnovnie printsipi kredita.....	77
§ 5. Ssudniy protsent: sumnost' vidi i faktori vliyayushchie na nego.....	84
§ 6. Osnovnie formi i vidi kredita.....	84
§ 7. Kritika teorii kredita.....	89
Glava III. Finansi i finansovaya sistema	93
§ 1. Sumnost' i funktsii finansov	93
§ 2. Finansovaya sistema i eYo osnovnie zven'ya.....	101
§ 3. Finansovaya politika gosudarstva.....	110
§ 4. Byudjetnaya sistema gosudarstva, funktsiya byudjeta.....	115
§ 5. Mejbyudjetnaya sistema otnosheniy.....	119
§ 6. Sovremennaya sistema upravleniya finansami	125
§ 7. Modeli, formi i metodi finansovogo kontrolya v finansovom upravlenie.....	135
§ 8. Sotsial'no ekonomicheskaya sumnost' i znachenie gosudarstvennogo byudjeta.....	141
§ 9. Struktura byudjeta i byudjetnaya sistema.....	148
§ 10. Dohodi i rasxodi gosudarstvennogo byudjeta.....	151
§ 11. Sumnost' naloga i ego ob`ektivnaya neobxodimost'	156
§ 12. Funktsii nalogov.....	161
§ 13. Vidi nalogov i ix xarakteristika.....	165
§ 14. Elementi naloga i ix xarakteristika.....	171
Glava IV. Finansi predpriyatiy i organizatsiy	179
§ 1. Osnovi organizatsii finansov predpriyatiy.....	179
§ 2. Printsipi organizatsii finansov predpriyatiy.....	184
§ 3. Finansoviy otchet – kak istochnik polucheniya svedeniy o xozyaystvuyushix sub`ektov.....	188
§ 4. Denejnie sredstva predpriyatiy.....	192
§ 5. Otchet o pribilyax predpriyatiy.....	196
§ 6. Dvizhenie denejnix sredstv.....	201
Glava V. Banki i ix operatsii.....	206
§ 1. Sumnost' i osnovnie funktsii bankov.....	206

§ 2. Sistema bankov i ego opreatsii.....	214
§ 3. TSentral'niy bank i ego funktsii.....	220
§ 4. Etapi razvitiya i reformirovaniya bankov Uzbekistana.....	226
Glava VI. Sumnost' i vidi tsennix bumag.....	233
§ 1. Sumnost' tsennix bumag i ix xarakteristika.....	233
§ 2. Proizvodnie tsennie bumagi i ix raznovidnost'.....	246
§ 3. Sumnost' i struktura rinka tsennix bumag.....	255
§ 4. Fondovaya birja – kak neobxodimiy institut v rinochnix otnosheniy.....	267
§ 5. Protseduri listinga i delistinga.....	278
Glava VII. Inflyatsiya.....	286
§ 1. Sumnost' inflyatsii i prichini eYo vzniknoveniya.....	286
§ 2. Vidi i formi poyavleniya inflyatsii.....	288
§ 3. Ekonomicheskie i sotsial'nie posledstviya inflyatsii.....	292
§ 4. Metodi stabilizatsii inflyatsii.....	296
Glava VIII. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya.....	306
§ 1. Valyutnie otnosheniya i valyutnaya sistema.....	306
§ 2. Platejniy balans.....	324
§ 3. Osnovnie metodi regulirovaniya platejnogo balansa.....	333
§ 4. Ponyatie valyutnogo kursa.....	346
§ 5. Mejdunarodnie rascheti.....	353
§ 6. Mejdunarodnie kreditnie otnosheniya.....	368
Glava IX. Straxovanie i straxovoe delo.....	383
§ 1. Ekonomicheskaya sumnost' straxovaniya, eYo neobxodimost', funktsii.....	383
§ 2. Printsipi organizatsii obyazatel'nogo i dobrovol'nogo straxovaniya.....	385
§ 3. Vidi straxovaniya i puti ego razvitiya.....	389
§ 4. Straxovoe zakonodatel'stvo Respubliki Uzbekistan.....	392
Ispol'zovannaya literatura.....	402

Contens

Introduction.....	9
I. The theory of money.....	11
1.1. An origin of money, their kinds and value.....	11
1.2. Functions of money in market economy.....	21
1.3. Monetary theories.....	30
1.4. Monetary aggregates and the monetary animator.....	38
1.5. Monetary circulation.....	44
II. The theory of the credit.....	59
2.1. Necessity of the credit and its value.....	59
2.2. Sources of the loan capital and kinds of its movement.....	71
2.3. The basic functions of the credit and a basis of their organization.....	72
2.4. Main principles of crediting.....	77
2.5. Loan percent: value, kinds and the factors influencing it.....	84
2.6. The basic kinds of the credit.....	84
2.7. Criticism of theories of the credit.....	89
III. The finance and a financial system.....	93
3.1. Social and economic value of the finance.....	93
3.2. Functions of the finance.....	101
3.3. The maintenance and value of financial policy.....	110
3.4. Value and a place of the financial mechanism in realization of financial policy.....	115
3.5. The Financial system and classification of its parts.....	119
3.6. A modern control system of the finance.....	125
3.7. Methods, kinds and models of the financial control over a finance administration.....	135
3.8. A social and economic role and value of the state budget.....	141
3.9. Budgetary process and budgetary system.....	148
3.10. Incomes and charges of the state budget.....	151
3.11. Concept of taxes and their objective necessity.....	156
3.12. Functions of taxes.....	161
3.13. Classification and kinds of taxes.....	165
3.14. Classification elements of taxes.....	171
IV. The finance of the enterprises.....	179
4.1. Value of the finance of the enterprises.....	179
4.2. Principles of the organization of the finance of the enterprises.....	184
4.3. Resources of the finance of the enterprises.....	188
4.4. The analysis of primary activity of the enterprise.....	192
4.5. The analysis of financial results of activity of the enterprise.....	196
4.6. Features of the organization of the financial enterprise.....	201
V. Banks and their operations.....	206
5.1. Values and the basic functions of banks.....	206
5.2. Bank system and its operations.....	214

5.3. The Central bank and its functions.....	220
5.4. Development and reform of banks of Uzbekistan.....	226
VI. Kinds and value of securities.....	233
6.1. Value of securities and their classification.....	233
6.2. Derivative securities and their kinds.....	246
6.3. Value of a securities market and its structural structure.....	255
6.4. Stock exchange as the important institute of market economy.....	267
6.5. Processes of listing, delisting and the requirements shown to them.....	278
VII. Inflation.....	286
7.1. Value of inflation and the reason of its occurrence.....	286
7.2. Kinds and types of inflation.....	288
7.3. Theories of inflation.....	292
7.4. Social and economic consequences of inflation.....	296
7.5. Methods of stabilization of inflation.....	298
VIII. The international currency-credit relations and currency system.....	306
8.1. Currency system and currency attitudes.....	306
8.2. The Rate of exchange.....	324
8.3. Payment and trading balances.....	333
8.4. The currency policy.....	346
8.5. International payments and their kinds.....	353
8.6. International credit relations.....	378
IX. Insurance and insurance business.....	383
9.1. Economic value of insurance, its necessity and functions.....	383
9.2. Principles of the organization.....	385
9.3. Types of insurance and ways of development.....	389
9.4. Insurance legislation in Republic of Uzbekistan.....	392
Literature.....	402

Kirish

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari va mamlakatimizni Evro Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lishi hamda Umumjahon savdo tashkilotlari bilan olib borilgan aloqalari bevosita amalga oshirilgan pul-kredit siyosatiga bog'liq. Chunki pul-kredit tizimi mamlakat iqtisodiyotini mablag' bilan ta'minlovchi va iqtisodiy islohotlarning samarasini belgilovchi infratuzilma bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz pul-kredit tizimi faoliyatiga o'zining doimiy e'tiborini qaratib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.A.: "Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lam va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq" deb alohida ta'kidlagan¹.

Shuning uchun «oldimizda turgan vazifalarni bajarish, iqtisodiyotimizda mavjud bo'lgan ko'pgina muammolarni echish uchun bank tizimida olib borilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishimiz va kengaytirishimiz darkor»². Ushbu muammolarni hal etish bevosita «Pul, kredit, banklar» fanini o'rganishga bog'liq. «Pul, kredit, banklar» fani «Bank ishi» Yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. Bu fan orqali talabalar zamonaviy pul, bank nazariyasi va moliyaviy boshqaruv, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, banklar tomonidan pul muomalasini boshqarishning nazariy asoslarini va amaliy uslublarini o'rganadilar. Bundan tashqari zamonaviy moliya-kredit nazariyasida O'zbekiston respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari bo'yicha qabul qilingan qarorlar samaradorligini baholashning yo'llari va metodlari ko'rib chiqiladi.

¹ И.Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: "Ўзбекистон", 2009. 6 б.

² И.Каримов. Янгилашни ва барқарор таракқиёт йулидан изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шартини яратиш- асосий вазифамиздир. «Халқ сузи» 13 февраль 2007 йил.

“Pul, kredit, banklar” fanini maqsadi talabalarni pul-kredit sohasi qonuniyatlari, uni ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi tutgan o’rnini o’rgatishdan iborat. Shu bilan birga «Pul, kredit, banklar» fanining vazifalari bo’lib talabalarga zamonaviy pul, kredit va moliya nazariyasini o’rgatish; pul-kredit munosabatlarini va rivojlanish Yo’nalishlarini o’rgatish; hozirgi zamon pul-kredit tizimi qonuniyatlarini tahlil etish; inflyatsiya va uni keltirib chiqaruvchi omillarni o’rganish va ularni boshqarishni ko’rsatib berish hisoblanadi.

“Pul, kredit, banklar” fani o’quv rejasidagi gumanitar fanlar bilan, jumladan, «Iqtisodiy nazariya» kabi fanga uzviy bog’liq va maxsus fanlar, masalan «Bank ishi», «Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari», «Xalqaro moliya» kabi fanlar uchun esa asos bo’lib xizmat qiladi.

Mazkur darslikda mualliflar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar hisoblanadi, shuning uchun mazkur darslik kamchiliklardan holi emas. Kitobxonlar bildirgan taklif va mulohazalar mualliflar tomonidan keyingi nashrda albatta inobatgan olinadi.

Manzilimiz: Toshkent -700003, O’zbekiston shoh ko’chasi 49

I-bob. Pul nazariyasi

1.1. Pullarning kelib chiqishi, mohiyati va turlari

Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul ayirboshlash, to'lov, qiymatni o'lchash, boylikni to'plash vositasi funktsiyalarini bajaradigan noYob tovardir. Hozirgi iqtisodiyotda pul muomalasi amalda tovarlarning hamma turlari muomalasining o'zgarmas sharti hisoblanadi. Pul tufayli tovarlarni qiYoslash, ayirboshlashda zarur bo'ladigan qiymatning yagona mezoniga ega bo'lish mumkin.

Pul– bu boshqa ne`matlarning qimmatini o'lchash vositasi (umumiy ekvivalent) Yoki ayirboshlashda hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi (ayirboshlash vositasi) funktsiyalarini bajaruvchi ne`matdir. Pul – bu mutloq likvidlikka ega bo'lgan ne`matdir. Pul – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar unda namoYon bo'ladi va uning Yordamida quriladi. Pulning maqsadi bozorga oid o'zaro harakatlarning transaktsion xarajatlarini tejashdan iborat.

Avvalo, sotib olinadigan ne`matlarning turlari va miqdorini, bitimni amalga oshirish vaqti va joyini, shuningdek, bitim bo'yicha kontragentlarni tanlashdagi chiqimlarni tejashga pullar Yordamida erishiladi. Barterli (mavozali) iqtisodiyotda bunday chiqimlar shunchalik ko'p bo'lishi mumkin ediki, bu amalda har qanday ayirboshlash harakatlarini amalga oshirishni istisno qilib, mehnat taqsimoti eng kam miqYos kasb etgan bo'lardi va faoliyatning ko'pgina turlari aslida vujudga kelmas edi. Aks holda shunday bir iqtisodiYot tashkil topgan bo'lardiki, unda, masalan, sochini oldirmoqchi bo'lgan iqtisodchi iqtisodiYot bo'yicha ma`ruza tinglamoqchi bo'lgan sartaroshni izlashiga to'g'ri kelardi. Aytaylik, yangi pal'to tikdirmoqchi bo'lgan akter buning uchun uning fil'mlarda o'ynagan rollari bilan qiziquvchi tikuvchini topishi kerak bo'lardi va hokazo. Pullar potentsial sheriklar xohish-istaklarining shu tarzda juftlik

holdagi mos kelishi zaruratini bartaraf etadi va bitimlarni amalga oshirish joyi va vaqtini, ayirboshlanadigan ne`matlar sifati va miqdorini, bitim bo'yicha sheriklarni qayishqoqlik bilan tanlashga imkon beradi va hokazo.

Ne`matlar qimmatini o'lchashdagi chiqimlarning katta qismi pullar Yordamida tejaladi. Umumiy ekvivalent xususida kelishuvga erishilgan iqtisodiyotda individlar ayirboshlanadigan proporsiyalarni osonlik bilan tuzishi mumkin. Agar ikkita tovarning narxi ma`lum bo'lsa, unda ularning nisbiy qimmati ham aniq bo'ladi.

SHuni ta`kidlash zarurki, tovar ayirboshlash munosabatlari ular paydo bo'lgan vaqtdan boshlab bozorda umumiy ekvivalent bo'la oladigan, hamma uchun maqbul qulay tovarni izlashni ob`ektiv ravishda taqozo etgan. Ma`lumki, turli davrlarda metallar – bronza, temir, mis, kumush, oltin ana shunday ekvivalent bo'lgan. Oldiniga ular taqinchoqlar, qurollar, mehnat qurollari va ko'pincha tasodifiy shakldagi va miqdorlardagi kam ishlov berilgan metall parchalari shaklida qo'llanilgan. Ular brusoklar, novdalar, plastinalar va Yombilardan iborat bo'lgan. Yombilar bilan hisob-kitob qilish uchun ularni tarozida tortishga to'g'ri kelgan, lekin ko'pincha Yombilarni birmuncha kichikroq bo'laklarga bo'lish zarurati vujudga kelgan.

Universal hisob-kitob ekvivalentiga bo'lgan ehtiyoj eramizdan oldingi VIII asrda yoq kafolatlangan vaznli va tarkibli standartlashtirilgan Yombilar paydo bo'lishiga olib keldi. Birmuncha keyingi davrlardagi Yombilarning ayrim turlari ularni bo'laklarga bo'lishda qulay bo'lishi uchun belgili kertiklar bilan yasalgan. Biroq, bunday takomillashtirishlar baribir savdogarlarni hisob-kitoblarni amalga oshirishda Yombilar va ularning bo'laklarini tortib ko'rish zaruratidan xalos etmagan.

Tovar ishlab chiqarishning o'sishi va tovar ayirboshlashning kengayishi, bunday jaraYonlarga ko'p sonli hunarmandlar va boshqa qatnashchilarning jalb etilishi metall pullarning keyingi standartlashtirilishiga va ular miqdorlarining chakana savdo ehtiyojlariga moslashtirilishiga olib keldi. Taxminan eramizdan

oldingi XII asrda Xitoyda, VII asrda esa O'rta er dengizi davlatlari – Lidiya va Eginada vazni, miqdori va qotishmalarining tarkibiga ko'ra bir xildagi metall pullar paydo bo'ldi. Ular sekin-asta ishlab chiqarish va foydalanish uchun qulay bo'lgan dumaloq shaklga ega bo'ldi. Ular an'anaviy Yombilardan birmuncha kichik o'lchamlari bilan, shuningdek, ularning to'lovga qobiliyatligi va asosiy parametrlari (miqdori, qotishmalar tarkibi, vazni) u Yoki bu darajada davlat tomonidan kafolatlanishi va muhofaza qilinishi bilan ajralib turardi. SHunday qilib, shu davrdan e'tiboran metall pullar hukmronligining uzoq davri boshlandi.

Bunday pullarda nominallar – metall pulning muayyan vaznli standartini ifodalovchi va pullarning nomlari sifatida muhim o'rin olgan tushunchalarning paydo bo'lishi, ushbu pullar evolyutsiyasining eng muhim natijalaridan biri edi. Asrlar qa'ridan bizgacha etib kelgan tangalarning nomlari – draxmalar, franklar, markalar, talerlar va boshqa ko'plab tangalar nomlari – metall pullarning muayyan vaznli mohiyatlarini anglatardi.

Pullarning Yombilarda bo'lmagan yangi sifatlari hisob-kitoblarni amalga oshirishda ularni shunchaki oddiy qayta hisoblashga va vaqti kelib ularni tortib ko'rishdan voz kechishga imkoniyat yaratdi. Belgilar va Yozuvlar shunday sifat belgilari bo'lib, ular oldiniga pul birliklarining bir tomoniga, keyinchalik – ikkala tomoniga ham bosilgan. Eramizdan oldingi V asrdan boshlab esa ularning majburiy atributlari tusini olgan¹.

Muomalaga kirgan pullar «moneta» («tanga») degan nomni YUnonaning nomlaridan biri (Juno Moneta – Ogohlantiruvchi YUnona) sharafiga qabul qilingan bo'lib, uning Rimdagi Kapitoliy tepaligidagi YUnona saroyida ushbu antik davlatning yangi zarbxonasi joylashgan bo'lgan. Tangalarning paydo bo'lishi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Metall pulning eng muhim xususiyatlaridan biri - qiymat ana shu voqeada o'z aksini topgan. Ular muomala uchun Yombilarga qaraganda ancha qulay bo'lib, qisqa davr ichida butun dunYoda keng ommalashib ketdi.

¹ Қаранг: Юрьев А.В., Герасимов В.М. Монета вчера и сегодня. // Деньги и кредит. 1999. №2.

Tanganing ko'p asrlik tarixida uning turlari ko'p marta o'zgardi, har bir davr unda o'z «tamg'asi»ni qoldirdi. Masalan, eramizdan ilgarigi VII-V asrlardagi eng qadimgi tangalarda faqat bir necha oddiygina chuqurchalarni ko'rish mumkin. V asrdan boshlab ularda shaharlar nomlarining boshlang'ich harflari, keyinroq - shaharlar nomlari va hukmdorlar ismlarining qisqacha nomlari paydo bo'ldi. qadimgi Rimdagi tangalardagi ayrim raqamlar va harflar tangalarning nominallarini bildirgan. Masalan, 1 raqami bir assni (bir rim funtiga, ya'ni misning 12 untsiyasiga teng bo'lgan og'irlik o'lchamini), S harfi 1/2 asosni anglatgan. Antik Eginaning ilk kumush draxmalarida toshbaqalar, fors shohi Dariyning (eramizdan oldingi VI-V asrlar) oltin tangalarida esa - Yoydan o'q uzaYotgan shoh tasvirlangan. qadimgi Rim tangalarida majusiylar xudolari, qahramonlari va imperatorlari aks ettirilgan. Keyingi davrlar ularning o'rniga qirollar, shohlar va cherkov ierarxlari suratlari tasvirlangan. Burjua respublikalari tangalarida podshohlar va avliyolar tasvirlari o'rniga davlat gerblari, turli belgilar va yangi tarixiy hodisalar manzaralari aks ettirilgan.

Ko'p asrlar davomida, deyarli XIX asrning boshiga qadar ko'pchilik mamlakatlarning pul tizimlarida bir xildagi maqomga ega bo'lgan oltin va kumush tangalar parallel ravishda amal qilib kelgan. Bunda oltin bilan kumush o'rtasidagi narxga oid o'zaro nisbat rasman belgilanmagan, balki bozor mexanizmlari bilan belgilangan. Ayrim mamlakatlarda esa to'laqonli oltin va kumush tangalarning amal qilishi oltin bilan kumush o'rtasidagi davlat tomonidan belgilangan narxga oid o'zaro nisbatga ko'ra yuritilgan.

1816 yildan 1900 yilgacha mamlakatlarning ko'pchiligi oltin Yoki oltin tangali standartga o'tganlar: bu standartda mamlakatning asosiy pul birligi to'laqonli muomalada bo'ladigan oltin tangada zarb qilingan. Uning nominali uning tarkibidagi oltin qiymatiga teng edi. Bu davrda banknotalarning oltin tangalarga hech qanday to'siqsiz ayirboshlanishi ta'minlangan. Kumush va mis tangalar esa mayda pul rolini o'ynardi. Bunda mayda pullarning metall qiymati ham, odatda, u Yoki boshqa darajada oltin tangaga bog'lanar edi. XX asr

boshiga kelib tovar ishlab chiqarish katta miqdorlarga erishdi va tovar massasining oshib borayotgan hajmlariga xizmat ko'rsatish uchun tobora ko'proq miqdordagi pullar talab qilingan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshida yirik mashinali ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan tovarlarning keskin ortib borayotgan massasi bilan oltin standart shartlariga ko'ra amalda mavjud bo'lishi cheklangan metall pullarning miqdori o'rtasida jiddiy disproportsiyalar vujudga keldi. Lekin oltin standart aksariyat ko'pchilik davlatlarda birinchi jahon urushigacha amal qilib turdi. Birinchi jahon urushi boshlangan vaqtga kelib amalda barcha mamlakatlar harbiy strategik zaxiralarni shakllantirish maqsadlarida oltin va kumush tangalarni muomaladan olib tashlashdi. Pul muomalasida ularning o'rnini ta'minlanmagan banknotalar va mayda pullar egalladi. SHu munosabat bilan printsiptial jihatdan yangi pul tizimlari paydo bo'ldiki, ular o'zining tovar qiymatiga ega bo'lgan real pullardan shakllantirilmasdan, balki ularning surrogatlariga asoslangan edi. Bunday pul surrogatlari oltin bilan ta'minlanmagan pul belgilari – banknotalar, g'azna biletlari, arzon qotishmalardan yasalgan tangalar nomini oldi. To'laqonli oltin tangadan farqli ravishda bunday pul surrogatlari tovar bozorida o'zining qiymatiga ega emas edi, chunki bunday qiymat juda kam bo'lib, faqat ularni tutib turuvchining bunday pullarni almashtirganda muayyan qiymatni olish huquqidan guvohlik berardi. Bunday holda pul belgilari faqat qiymatning vositachi vakillari rolini bajarardi.

Birinchi jahon urushi haddan ortiq moddiy zararlar keltirib, xo'jalik faoliyatini izdan chiqargani sababli, dunyodagi barcha mamlakatlarning hukumatlari real qimmatga ega bo'lmagan juda katta miqdordagi pul belgilarini chiqarishga kirishdi. Buning natijasida urush tugaganidan keyin bu mamlakatlarda qadri tushib ketgan pullar miqdori ko'payib qoldi. Inflyatsiya jaraYonlari 1930-yillargacha ko'pgina davlatlarni o'z girdobiga tortdi. Bunday jaraYonlar sababli iqtisodiy va moliyaviy sohalarda yuz bergan deformatsiyalar

shunchalik jiddiy ediki, Evropada urushdan keyin bir qator mamlakatlarda oltin standartni yana qaytadan tiklashga bo'lgan urinishlar kerakli natija bermadi.

XX asrning 70-yillarida oltinning denominallashuvi yuz berib, buning natijasida oltin oldiniga mamlakatning ichki aylanishida muomala va to'lov vositasi funksiyalarini, so'ngra 1976 yildan boshlab jahon pullari funksiyasini ham bajarmay qo'ydi. Ichki aylanishda va jahon bozorida ham qog'oz va kredit pullari oltinni siqib chiqarib tashladi.

Qog'oz pullar - to'laqonli pullarni taqdim etuvchi pul belgilaridir. Tarixiy jihatdan olganda, qog'oz pullar metall pullar muomalasi asosida kelib chiqqan. Ular bundan oldin muomalada bo'lgan kumush Yoki oltin tangalarining o'rniga tatbiq etilgan. Pullar tovarlarning ayirboshlanishida vositachi bo'lib hisoblanadigan voqelikning o'zi, pullarning muomala vositasi sifatida faoliyat yuritishi ob'ektiv tarzda to'laqonli pullar o'rniga chiqarilgan pul belgilarining muomalasi mumkin ekanligini tasdiqladi. Kumush va oltin tangalar ishlatib kelingan ko'p asrlik tarix mobaynida siyqasi chiqqan va o'z shaklini Yo'qotgan, ya'ni real og'irligi kamroq bo'lgan tangalar muomalada to'laqonli tangalar bilan bir qatorda amal qilishi va xuddi shunday qiymatni ifodalashi qayd qilindi. Bu metall tangalarni amalda hech qanday qiymatga ega bo'lmagan qog'oz pullar bilan almashtirish haqidagi fikrga olib keldi. Ilk qog'oz pullar eramizning XII asrida Xitoyda, Evropa va Amerikada esa – faqat XVII-XVIII asrlarda paydo bo'ldi. Rossiyada qog'oz pullar (assignatsiyalar) 1769 yilda joriy etilgan.

Qog'oz pullarning mohiyati shundan iboratki, ular pul belgilari hisoblanadi va odatda metallga ayirboshlanadi. SHuning uchun qog'oz pullar muomalada vakillik qiymatiga ega bo'ladi va xarid qilish va to'lov vositasi rolini bajaradi.

Qog'oz pullarni kim chiqarish huquqiga ega? Davlatning moliya muassasasi Yoki markaziy banklar qog'oz pullarning emitentlari bo'lishadi. Davlatning moliya muassasasi qog'oz pullarni chiqarishdan bevosita o'z xarajatlarini qoplash uchun foydalanadi. Markaziy banklar esa bu ishni bilvosita bajaradi, ya'ni ular almashtirilmaydigan banknotalarni chiqarishadi va ularni

davlatga ssudaga taqdim etadi, davlat bunday banknotalarni o'zining byudjet xarajatlari uchun Yo'naltiradi.

SHuni qayd qilish zarurki, qog'oz pullarning iqtisodiy tabiatiga ko'ra ularga muomalaning beqarorligi va qadrsizlanish xosdir.

Qog'oz pullar emissiyasi miqdorlari, afsuski, tovar va to'lov aylanishlarining pullarga bo'lgan ehtiYoji bilan bog'liq emas. Ular, odatda, davlat xarajatlarini moliyalashtirish, byudjet taqchilligini qoplash uchun chiqariladi. Bu shuni anglatadiki, pullarning aylanishiga doimiy ehtiYoj bo'lganida Yoki hatto u kamayganida ham davlatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiYojlari u Yoki boshqa sababga ko'ra o'sishi mumkin. Bunday holda qog'oz pullar massasining ko'payishi qog'oz pullarning haddan ortiq chiqarilganligini bildiradiki, bu pullarning qadrsizlanishiga olib keladi. Qog'oz pullarning haddan tashqari ko'p emissiyasi bilan bog'liq bo'lgan bunday pullarning inflyatsion qadrsizlanishi buning tipik ko'rinishidir. Qog'oz pullarning qadrsizlanishi, to'lov balansining yaxshi emasligi (mamlakat chet ellardan o'zi amalga oshirgan to'lovlarga nisbatan kamroq to'lovlarni olgan), milliy valyuta kursining pasayishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Buning oqibatida qog'oz pullarga ularning tabiatiga ko'ra beqarorlik xos bo'ladi. Bunday sharoitda qog'oz pullar, shubhasiz, g'azna funktsiyasini bajarishga yaroqsiz bo'ladi.

Qog'oz pullarga xos bo'lgan kamchiliklar kredit pullarning qo'llanilishi tufayli birmuncha bartaraf etilishi mumkin.

Kredit pullar. Xo'jalik yuritish amaliYotida tovar munosabatlari umumiy tus olgan sharoitda tijorat va bank krediti qo'llanilishining kengayishi shunga olib keldiki, o'z funktsiyalari, muomala sohasi (chegaralari), kafolatlari va shu kabilarga ko'ra oddiy pullardan farq qiladigan va mutlaqo boshqacha qoidalar bilan boshqariladigan kredit pullar umumiy tovar bo'lib qoladi. Kredit pullar ijtimoiy-iqtisodiy jaraYonning birmuncha rivojlangan, oliy sohasiga xosdir. Ular kapital ishlab chiqarishni to'liq egallagan va unga oldingisidan boshqacha, o'zgartirilgan va o'ziga xos shaklni berganida vujudga keladi.

Tovar-pul muomalasining rivojlanishiga qarab to'lovning pul shakli tobora o'tkinchi bo'lib boraveradi. Ayni bir vaqtda tovarlarning hammasi tobora ko'proq nafaqat pullar orqali, balki bevosita ishlab chiqarish jaraYonida ijtimoiy e'tirofga sazovor bo'ladi. SHu munosabat bilan kredit pullar kapitalistik formatsiyagacha bo'lgan davrdagi kabi tovar-pul shaklida muomaladan emas, balki ishlab chiqarishdan, kapitalning aylanishidan o'sib chiqadi. Pul kapital, binobarin, kredit pullar shaklida ish yuritadi.

Kredit pullari evolyutsiyasi: veksel', banknota, elektron pullar, kredit kartochkalari.

Veksel' - qarzdorning Yozma majburiyati (oddiy veksel') Yoki kreditorning qarzdorga vekselda Yozilgan summani muayyan muddatdan keyin to'lash to'g'risidagi buyrug'i (o'tkazma veksel' – tratta). Oddiy va o'tkazma veksellar – bular tijorat vekseli, ya`ni savdo bitimi asosida vujudga keladigan qarz majburiyatining turlaridir. SHuningdek, *moliyaviy veksellar*, ya`ni muayyan summadagi pullarni qarzga berishda kelib chiqadigan qarz majburiyatlari ham amal qiladi. *G'azna veksellari* ularning bir turidir. Bunday veksel' hukumatning qisqa muddatli qog'ozi bo'lib, uning amal qilish muddati bir yildan oshmaydi (odatda 3-6 oy bo'ladi). Bu erda davlat qarzdor rolini bajaradi. *Do'stona veksellar* – pulsiz, real tijorat bitimi bilan bog'liq bo'lmagan, kontragentlar tomonidan bunday veksellarni banklarda hisobga olish Yo'li bilan pullarni olish maqsadida bir-biriga Yozib beradigan veksellardir.

Vekselning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- a) abstraktlik (vekselda bitimning aniq turi ko'rsatilmagan);
- b) munozarasizlik (notariusning norozilik haqidagi dalolatnomani tuzganidan keyin to majburlovchi choralarni qo'llashgacha qarzning majburiy ravishda to'lanishi);
- v) aylanishlik (vekselning to'lov vositasi sifatida uning orqa tomonida berish haqidagi Yozuvni Yozib (jiro Yoki indossament) boshqa shaxslarga

berilishi. Bu veksel majburiyatlarining o'zaro hisobga olinish imkoniyatini yaratadi).

Banknota – bu bankning qarz majburiyatidir. Hozirgi vaqtda banknota markaziy bank tomonidan veksellarni qayta hisoblash, turli kredit tashkilotlari va davlatni kreditlash Yo'li bilan chiqariladi.

Banknotalarning – kredit pullarning shunday turining – muomalaga chiqarilishini odatda banklar turli xo'jalik jaraYonlari munosabati bilan amalga oshirilaYotgan kredit operatsiyalarini bajarishda o'tkazishadi. Ularning aylanishdan olib qo'yilishi davlatning xarajatlarni amalga oshirishi va daromadlarni olishida emas, balki xo'jalik jaraYonlari munosabati bilan amalga oshirilaYotgan kredit operatsiyalari asosida amalga oshiriladi.

Kredit pullarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning muomalaga chiqarilishi muomalaning haqiqiy ehtiYojlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, kredit operatsiyalari ishlab chiqarishning real jaraYonlari va mahsulotlarning sotilishi munosabati bilan bajariladi. Ssuda, odatda, zaxiralarning muayyan turlari ta`minot bo'lib xizmat qiladigan ta`minot asosida beriladi. Bu qarzdorlarga beriladigan to'lov vositalarining hajmini muomalaning pullarga bo'lgan haqiqiy ehtiYoji bilan bog'lashga imkon beradi. Ayni shu xususiyat kredit pullarining eng muhim afzalligidir.

Kredit pullar (banknotalar) bilan qog'oz pul belgilari o'rtasidagi eng muhim tafovut ularning muomalaga chiqarilishidagi o'ziga xos xususiyatlaridadir. Agar banknotalar ishlab chiqarishning real jaraYonlari va mahsulotlarning sotilishi munosabati bilan bajariladigan kredit operatsiyalari munosabati bilan muomalaga chiqariladigan bo'lsa, qog'oz pullar muomalaga bunday bog'lanishsiz chiqariladi.

Tijorat banklarining tashkil etilishi va erkin pul mablag'larining joriy hisobvaraqlarda to'planishi bilan **chek** sifatidagi muomalaning kredit vositasi paydo bo'ldi. CHek – bu omonatchining tijorat Yoki markaziy bankka Yozib beradigan o'tkazma vekselining bir turidir. CHek joriy hisobvaraq egasining

bankka chekni tutib turuvchiga muayyan summadagi pullarni to'lash Yoki bunday summani boshqa joriy hisobvaraqqa o'tkazish haqidagi Yozma buyrug'idir. CHeklar birinchi marta 1683 yilda Angliyada paydo bo'lgan.

CHekda Yozib qo'yilgan buyruq huquqi va uning bajarilishi majburiyati bank bilan mijoz o'rtasidagi chek shartnomasiga asoslanadi. Ushbu shartnomaga muvofiq mijozga o'zining va qarzga olingan mablag'laridan foydalanish ruxsat etiladi. Bank taqdim qilingan cheklarga naqd pullar bilan Yoki mablag'larni chekni beruvchining ushbu Yoki boshqa bank muassasasidagi hisobvarag'idan o'tkazish Yo'li bilan haq to'laydi. CHek qisqa muddatda amal kiladigan vosita sifatida to'lov vositasi maqomiga ega bo'lmaydi va pullar emissiyasidan farqli ravishda muomaladagi cheklar soni qonunlar bilan tartibga solinmaydi, balki butunlay tijorat muomalasining ehtiYojlari bilan belgilanadi. SHuning uchun cheklar bilan hisob-kitob qilish shartli tusga ega bo'ladi: qarzdorning chekni taqdim etishi uning kreditor oldidagi majburiyatini uzdi degani emas – bunday majburiyat faqat bankning chekning haqini to'lagan paytida uziladi.

SHunday qilib, chekning iqtisodiy mohiyati shundaki, u bankdan naqd pullarni olish vositasi bo'lib xizmat qiladi, muomala va to'lov vositasi bo'ladi va, nihoyat, naqd pullarsiz hisob-kitoblar vositasi hisoblanadi. Aynan shu cheklar asosida o'zaro e'tirozlarning asosiy qismi naqd pul ishtirokisiz uziladigan naqd pullarsiz hisob-kitoblar tizimi vujudga keldi.

CHeklar mkomalasining jadal rivojlanishi, cheklar inkassatsiyasiga doir operatsiyalarning ko'payishi ular bilan ishlash xarajatlarining ancha oshib ketishiga olib keldi. Keyinroq, bank sohasiga fan-texnika taraqqiYoti yutuqlarining tatbiq etilishi tufayli cheklar bilan ishlash va joriy hisobvaraqlarning yuritilishi EHMLardan foydalanish asosida bajariladigan bo'ldi. Naqd pullarsiz hisob-kitoblar amaliYotining kengayishi, bank operatsiyalarining mexanizatsiyalashuvi va avtomatlashuvi, EHMLarning ancha mukammal turlaridan keng foydalanishga o'tish qarzni **elektron pullarni**

qo'llagan holda uzish Yoki berishga doir yangi uslublarning vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Elektron pullar – bu banklarning komp'yuteri xotirasidagi hisobvaraqlardagi pullar bo'lib, ularning tasarruf qilinishi maxsus elektron qurilma Yordamida amalga oshiriladi. Elektron asosdagi to'lovlar tizimining ommalashuvi pul muomalasi evolyutsiyasining sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tishni tasdiqladi.

Bank ishida EHMLarning ommalashuvi asosida cheklarni **plastik kartochkalar** bilan almashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Plastik kartochkalar hisob-kitoblarning naqd pullar va cheklarning o'rnini bosadigan, shuningdek, uning egasiga bankdan qisqa muddatli ssudani olishiga imkon beradigan vositasidir. Plastik kartochkalari chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida eng ko'p qo'llanilmoqda.

1.2. Bozor iqtisodiyotida pullarning funktsiyalari

Pullarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati ularning ichki mazmunini ifodalaydigan funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Pullar quyidagi beshta funktsiyani bajaradi: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, to'lash va jamg'arish vositasi, jahon pullari.

Pulning qiymati o'lchovi sifatidagi funktsiyasi. Pullar umumiy ekvivalent sifatida hamma tovarlarning qiymatini o'lchaydi. Tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zarur mehnat ularni tenglashtirish uchun sharoit yaratadi. Hamma tovarlar ijtimoiy zaruriy mehnat mahsuli hisoblanadi, shuning uchun o'zi qiymatga ega bo'lgan haqiqiy pullar (kumush, oltin) boshqa barcha tovarlar qiymatining o'lchovi bo'lishi mumkin. Bunda tovarlar qiymatining pullar vositasida o'chanishi ideal tarzda yuz beradi, ya'ni tovar egasida naqd pullarning bo'lishi shart emas.

SHunday qilib, pullar qiymat o'lchovidan iborat bo'ladi. Jamiyat pul birligidan turli xil ne'matlar va resurslarning nisbiy qiymatlarini solishtirish

uchun masshtab sifatida foydalanishni qulay deb hisoblaydi. Masofani metrlar va kilometrlarda Yoki vazni grammlar va kilogrammlarda o'lhaganiga o'xshatib ne`matlar va xizmatlarning qiymati ham pul ifodasida solishtiriladi. Bu shubhasiz afzalliklarga ega. Pul tizimi tufayli har bir mahsulotning narxini uni almashtirish mumkin bo'ladigan boshqa hamma mahsulotlar orqali ifodalashga zarurat qolmaydi. Pullarning umumiy ekvivalent sifatida foydalanilishi shuni anglatadiki, har qanday tovarning narxini faqat pul birligi orqali ifodalash etarli bo'ladi. Pullarning shu tarzda ishlatilishi bitim qatnashchilariga har xil tovarlar va resurslarning nisbiy qiymatini osonlik bilan solishtirish imkonini beradi.

Hozirgi dunYoda turli ne`matlarning qiymati bir xildagi pul birliklarida – bir-biriga engillik bilan o'tkaziladigan (konvertatsiya qilinadigan) dollarlar va shu kabilarda ifodalanadi. Tovarning pullarda ifodalangan qiymati **narx** deyiladi.

Narx tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur ijtimoiy mehnat xarajatlari bilan belgilanadi. Tovarlarining narxi va ularning harakati negizida **qiymat qonuni** Yotadi. Tovarining narxi bozorda shakllanadi va tovarlarga talab va taklifning teng bo'lganida bunday narx tovarning qiymati va pullarning qiymatiga bog'liq bo'ladi. Bozordagi talab va taklif bir-biriga muvofiq kelmaganida tovarning narxi muqarrar ravishda uning qiymatidan chetga tebranib o'zgaradi. Narxlarning tovarni ishlab chiqaruvchining qiymatidan yuqoriga va pastga o'zgarishlari qanday tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilgani, qaysilarining - kam ishlab chiqarilganidan dalolat beradi.

Qiymatiga ko'ra turlicha bo'lgan tovarlarning narxlarini solishtirish uchun ularni bir masshtabga keltirish, ya`ni ularni bir xildagi pul birliklarida ifodalash zarur. Metall pullar muomalasida *narxlar masshtabi* deb ushbu mamlakatda pul birligi qilib qabul etilgan va boshqa barcha tovarlarning narxlarini o'lchash uchun xizmat qiladigan pullik metallning vazni miqdoriga aytiladi.

Oltinning muomalada bo'lgan sharoitida narxlarning masshtabi oltinning muayyan miqdoriga tenglashtirilgan pul birligining belgilanishini nazarda tutardi. XX asrda pullarning xaridchilik qobiliyatining pasayishi kuzatildiki, bu pul birligidagi oltinning kamayganligida o'z ifodasini topdi. Masalan, 1900 yilda AQSH dollari 1,50463 grammga, 1934 yilda – 0,888671 grammga, 1973 yilda – 0,736 grammga teng bo'ldi. Rossiyada moliya vaziri S.YU.Vitening (1895-1897 yillar) islohoti bo'yicha rublning tarkibidagi oltin 0,774234 gramm qilib belgilandi. 1950 yilda bunday tarkib 0,222169 grammni, 1961 yilda esa (narxlar masshtabi o'zgarishi bilan) – 0,987412 gramm bo'ldi.

1976-1978-yillarda joriy qilingan YAmayka valyuta tizimi oltinning rasmiy narxini va Xalqaro valyuta fondiga (XVFga) a'zo bo'lgan mamlakatlar pul birliklarining oltin tarkibini bekor qildi. Hozirgi vaqtda bu mamlakatlardagi narxlarning rasmiy masshtabi tovarlar qiymatini narx vositasida solishtirish Yo'li bilan bozorda ayirboshlash jaraYonida stixiyali tarzda shakllantiriladi. Rossiyada ham 1992 yildan boshlab rubl' bilan oltinning rasmiy o'zaro nisbati nazarda tutilmagan.

Pullarning muomala vositasi sifatidagi funktsiyasi. Pullardan tovarlar va xizmatlarni xarid qilish va sotishda foydalanish mumkin. Pullar muomala (Yoki ayirboshlash) vositasi sifatida jamiyatni barterli (mavozali) ayirboshlashning noqulayliklaridan xalos qiladi. Pullar hamma joyda va osonlik bilan to'lov vositasi sifatida qabul qilinadi. Ushbu ijtimoiy ixtiro resurslarning egalariga va ishlab chiqaruvchilarga alohida «tovar» (pullar) bilan haq to'lashga imkon beradiki, bunday alohida tovar keyinchalik bozorda mavjud bo'lgan har qanday tovarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Pullar tovarlar bilan ayirboshlashning qulay usuli bo'lish bilan jamiyatga mintaqaviy ixtisoslashuv va odamlar o'rtasidagi mehnat taqsimotining mahsullaridan foydalanish imkonini beradi. Tovarlarni muomalaga kirishishigacha pullarda ideal baholanadigan birinchi funktsiyadan farqli ravishda pullar tovarlar muomalasida real ishtirok etishi kerak. Pullarning muomalada real ishtirok etishi va ularning

ayirboshlashdagi ishtirokining o'tkinchiligi muomala vositasi sifatidagi pullarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, SHu sababli to'laqonli bo'lmagan pullar - qog'oz va kredit pullar ham muomala vositasi funksiyasini bajarishi mumkin. Hozirgi vaqtda kredit pullar deb ataladigan pullar: veksellar, banknotalar, cheklar, banklarning kredit kartochkalari pul muomalasida hukmron vaziyatni egallab turibdi.

Pullarning to'lov vositasi sifatidagi funksiyasi. Pullarning bu funksiyasi kapitalistik xo'jalikda kredit munosabatlarining rivojlanishi tufayli vujudga keldi. Pullar tovarlarning kreditga sotilishida to'lov vositasi sifatida foydalaniladi, buning zarurligi tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning shart-sharoitlari bir xilda emasligi, ularni ishlab chiqarish va muomalasi muddatining turli xilligi, ishlab chiqarishning mavsumiy tusdaligi, shuningdek, ishchilar va xizmatchilarga ish haqining to'lanishida foydalaniladi.

To'lov aylanishida *elektron pullarning* joriy qilinishi to'lovlarning tezlashishi, muomala xarajatlarining kamayishi va korxonalar rentabelligining oshishiga Yordam beradi. Bunday tizim AQSHda 70-yillardan boshlab to'lov munosabatlari mexanizmiga ayniqsa tez sur'atlar bilan joriy qilindi. Avtomatlashtirilgan hisob-kitob palatalari, avtomatlashtirilgan kassir tizimi va xarid qilish punktida o'rnatilgan terminallar tizimi ularning asosiy elementlari hisoblanadi. Elektron pullar negizida *kredit kartochkalari* paydo bo'ldi. Ular to'lovlarning naqd pullar bilan bajarilishini qisqartirishga Yordam berib, naqd pullar va cheklarning o'rnini bosadigan hisob-kitoblar vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kredit kartochkalarining ahamiyati shundaki, ulardan foydalanish naqd pullar ishlatiladigan sohani toraytiradi, tovarlar va xizmatlarni sotishda va iqtisodiyotdagi tanazzul holatlarini bartaraf etishda kuchli stimuly bo'lib hisoblanadi.

Pullarning to'plash va jamg'arish vositasi sifatidagi funksiyasi. Pullar ularning egasiga har qanday tovarni olish huquqini ta'minlash bilan ijtimoiy boylikning umumiy timsoli hisoblanadi. SHuning uchun odamlarda ularni

to'plash va jamg'arishga intilish paydo bo'ladi. Iqtisodiy sub`ekt o'z mahsulotiga haq to'lanishi evaziga pullarni olish bilan muayyan «sof boylik zaxirasi»ni yaratadi. Bunday zaxira qisqa muddatli (agar individ boshqa tovarni sotib olish bilan pullarini shu erning o'zida Yoq sarflasa) Yoki uzoq muddatli (agar individ pullarini kelgusida xarid qilish Yoki qarzini to'lash uchun saqlab qo'ysa) bo'lishi mumkin.

Pullar jamg'arma vositasi funksiyasini bajaradi, shuning uchun ular buni eng qulay shaklda jamg'arishga imkon beradi. Pullar eng likvidli, ya`ni sarflash uchun eng oson tovar bo'lganligi sababli ular boylikni saqlashning eng qulay shakli hisoblanadi. Bunda shuni qayd qilamizki, inflyatsiya sharoitida bunday afzallik muayyan tarzda Yo'qoladi va pullarni qadrsizlanishini hisobga olish zarurati vujudga keladi. Pullarga egalik qilish, ularni saqlash, qimmatli qog'ozlarni (aktsiyalar, obligatsiyalar va shu kabilarni) saqlashdagi kabi miqdorda pul daromadini olib kelmaydi. Biroq pullar shunday afzallikka egaki, ular korxonadan Yoki uy xo'jaligida har qanday moliyaviy majburiyatni qondirish uchun hech qanday to'siqsiz ishlatilishi mumkin.

Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan pullarning to'plash va jamg'arish vositasi sifatidagi funksiyasi ham oshib boradi. To'plash va jamg'arishsiz takror ishlab chiqarish jaraYonini amalga oshirib bo'lmaydi. Ko'proq foyda olishga bo'lgan intilish tadbirkorlarni pullarni g'azna sifatida saqlamaslik, balki ularni aylanishga sarflashga majbur qiladi.

Metall pullar muomalasi sharoitida markaziy emissiya banklari ichki pul muomalasining zaxiralari shaklida oltin zaxiralarga, banknotalarni oltinga almashtirish va xalqaro to'lovlar uchun zaxiralarga ega bo'lishi shart edi. Hozirgi vaqtda oltinning muomaladan chiqarilganligi, banknotalarning oltinga almashtirilishi to'xtatilganligi va oltin paritetlarning bekor qilinganligi, ya`ni asl metallning xalqaro aylanishdan chiqarilganligi sababli markaziy bank oltin zaxirasining barcha bunday funksiyalari bekor bo'ldi. SHu bilan birga, oltin strategik zaxira sifatida markaziy banklarda saqlanishda davom etmoqda.

Jahon pullari funktsiyalari. Tashqi savdo aloqalari, xalqaro qarzlarni, tashqi sherikka xizmatlar ko'rsatilishi jahon pullarining paydo bo'lishini taqozo etdi. Ular umumiy to'lov vositasi, umumiy xarid qilish vositasi va ijtimoiy boylarning umumiy moddiylashtirilishi sifatida faoliyat yuritishadi.

Pullarning barcha beshta funktsiyasi pullarning tovarlar va xizmatlarning umumiy ekvivalenti sifatidagi yagona mohiyatini namoyon qiladi. Ular chambarchas bog'liqlikda va birlikda bo'ladi. Mantiqan va tarixiy jihatdan har bir navbatdagi funktsiya bundan oldingi funktsiyalarning muayyan rivojlantirilishini nazarda tutadi.

Pullarning sanab o'tilgan funktsiyalarni bajarishi tufayli ular, ayniqsa, bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarishning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Pullarning iqtisodiy tizimdagi ijtimoiy roli shundan iboratki, ular mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi bog'lab turuvchi bo'g'in, shuningdek, tovar xo'jaligidagi ijtimoiy mehnatni hisobga olish vositasi hisoblanadi. Pullar tovarlarga narxlarni belgilashda qatnashadi.

Pullar ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarilishiga xizmat ko'rsatadi, ularning Yordamida milliy daromadning davlat byudjeti, soliqlar va qarzlarni orqali hosil qilinishi, taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi va ishlatilishi amalga oshadi. Pullar korxonalarining xo'jalik faoliyatida, davlat organlarining faoliyat ko'rsatishida, odamlarning ishlab chiqarishning rivojlanishi va samaradorligining oshishidan, resurslarning tejab ishlatilishidan manfaatdorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Pullarning sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotini pul-kredit orqali tartibga solish pullarning monetaristik nazariyasiga asoslangan sharoitdagi roli g'oyat katta. Bunday mamlakatlarda har yili pul massasini o'zgartirish uchun pul Yo'nalishi belgilanadi va unga muvofiq markaziy bankning kredit vositalari Yordamida ushbu massaning tartibga solinishi amalga oshiriladi. Rossiyada iqtisodiyotning beqaror rivojlanishi oqibatida pul massasini o'zgartirishning Yo'nalishli ko'rsatkichi bir oyga belgilanadi. Bunday

pul-kredit orqali tartibga solishning maqsadi – pul massasining o'sishini tutib turish, agar inflyatsiyaga Yo'l qo'yilgan bo'lsa, uni bartaraf qilish Yoki paydo bo'laYotgan inflyatsiya jaraYonlarini tutib turish, mamlakatdagi ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantirish.

Pullar umumiy ekvivalent sifatida barcha tovarlarning qiymatini o'lchaydi. Hamma tovarlar ijtimoiy zaruriy mehnat mahsuli ekanligi sababli o'zi qiymatga ega bo'lgan real pullar boshqa barcha tovarlar qiymatining o'lchovi (etaloni) bo'lishi mumkin. Bunda tovarlar qiymatining pullar vositasida o'chanishi ideal tarzda, ya'ni naqd pullar ishtirokisiz yuz beradi.

SHunday qilib, pullar qiymat o'lchovidan iborat bo'ladi. SHubhasiz, pul birligidan turli xil ne'matlar va xizmatlarning nisbiy qiymatlarini solishtirish uchun masshtab sifatida foydalanish qulay hisoblanadi. Ne'matlar va xizmatlarning qiymati masofani kilometrlarda Yoki vazni kilogrammlarda o'lchaganiga o'xshatib solishtiriladi.

Pullarning umumiy ekvivalent sifatida foydalanilishi shuni anglatadiki, har qanday tovarning narxini faqat pul birligi orqali ifodalash etarli bo'ladi. Bunda tovarning pullarda ifodalangan qiymati tovarning narxi deyiladi.

Tovarlarning narxi va ularni o'lchash negizida qiymat qonuni Yotadi. Tovarning narxi bozorda shakllanadi va tovarlarga talab va taklifning teng bo'lganida bunday narx tovarning qiymati va pullarning qiymatiga bog'liq bo'ladi. Bozordagi talab va taklif bir-biriga muvofiq kelmaganida tovarning narxi muqarrar ravishda uning qiymatidan chetga tebranib o'zgaradiki, bu muayyan tovarlarning ortiqcha ishlab chiqarilgani Yoki kam ishlab chiqarilganidan dalolat beradi.

Pullar muomala (Yoki ayirboshlash) vositasi sifatida jamiyatni barterli (mavozali) ayirboshlashning noqulayliklaridan xalos qiladi. Pullar hamma joyda va osonlik bilan to'lov vositasi sifatida qabul qilinadi. Ushbu ijtimoiy ixtiro

ishlab chiqaruvchilarga alohida tovar (pullar) bilan haq to'lashga imkon beradiki, bunday alohida tovar keyinchalik bozorda mavjud bo'lgan har qanday tovarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Pullar tovarlar bilan ayirboshlashning qulay usuli bo'lish bilan jamiyatga mintaqaviy ixtisoslashuv va jamiyatdagi mehnat taqsimotining mahsullaridan foydalanish imkonini beradi. Tovarlar muomalaga kirishishigacha pullarda ideal baholanadigan birinchi funktsiyadan farqli ravishda pullar tovarlar muomalasida real ishtirok etishi kerak. Pullarning muomalada real ishtirok etishi va ularning ayirboshlashdagi ishtirokining o'tkinchiligi muomala vositasi sifatidagi pullarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, shu sababli to'laqonli bo'lmagan pullar - qog'oz va kredit pullar ham muomala vositasi funktsiyasini bajaraverishadi. Hozirgi vaqtda kredit pullar: vekselar, banknotalar, cheklar, banklarning kredit kartochkalari pul muomalasida hukmron vaziyatni egallab turibdi.

Pullarning ushbu funktsiyasi kredit munosabatlarining rivojlanishi tufayli vujudga keldi.

Pullar ikki holatda to'lov vositasi sifatida foydalaniladi:

1) tovarlarning kreditga sotilishida; bunday holatning zarurligi tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning shart-sharoitlari bir xilda emasligi, ularni ishlab chiqarish va muomalasi muddatining turli xilligi, ishlab chiqarishning mavsumiy tusdaligi va shu kabilar bilan bog'liqdir.

2) ishchilar va xizmatchilarga ish haqining to'lanishida.

SHubhasiz, to'lov vositasi funktsiyasini bajarishda pullar ularning muomala vositasi tarzidagi harakatidan farq qiladigan o'ziga xos harakat shakliga ega bo'ladi.

Agar pullarning muomala vositasi sifatida amal qilishida pullar va tovarlarning muqobil harakati mavjud bo'ladigan bo'lsa, unda ulardan to'lov vositasi sifatida foydalanishda bunday harakatda uzilish yuz beradi, ya'ni tovarni kreditga sotib olishda qarzdor sotuvchiga faqat muayyan (kelishilgan) muddatdan keyin haqi to'lanadigan qarz majburiyatini beradi.

To'lov aylanishida elektron pullarning joriy qilinishi to'lovlarning tezlashishi, muomala xarajatlarining kamayishi va korxonalar rentabelligining oshishiga Yordam beradi. Avtomatlashtirilgan hisob-kitob palatalari, avtomatlashtirilgan kassir tizimi va xarid qilish punktida o'rnatilgan terminallar tizimi ularning asosiy elementlaridir. Elektron pullar negizida kredit kartochkalari paydo bo'ldi. Ular to'lovlarning naqd pullar bilan bajarilishini qisqartirishga Yordam berib, naqd pullar va cheklarning o'rnini bosadigan hisob-kitoblar vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kredit kartochkalarining ahamiyati shundaki, ulardan foydalanish naqd pullar ishlatiladigan sohani toraytiradi, tovarlar va xizmatlarni sotishda stimuly bo'lib hisoblanadi.

Pullar ularning egasiga har qanday tovarni (xizmatlarni) olish huquqini ta'minlash bilan ijtimoiy boylik timsoli bo'ladi. SHuning uchun odamlarda ularni to'plash va jamg'arishga intilish paydo bo'lishi muqarrar. Odamlar o'z mahsulotiga haq to'lanishi evaziga pullarni olish bilan ular muayyan zaxirani yaratishadi. Bunday zaxira qisqa muddatli Yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Pullar jamg'arma vositasi funksiyasini bajaradi, chunki ular eng likvidli tovar bo'lganligi sababli eng qulay shaklda jamg'arishga imkon beradi. SHuni qayd qilish zarurki, inflyatsiya sharoitida bunday afzallik muayyan tarzda Yo'qoladi va pullarni qadrsizlantirish zarurati vujudga keladi.

Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan pullarning to'plash va jamg'arish vositasi sifatidagi funksiyasi ham oshib boradi. To'plash va jamg'arishsiz takror ishlab chiqarish jaraYonini amalga oshirib bo'lmaydi, chunki ko'proq foyda olishga bo'lgan intilish tadbirkorlarni pullarni g'azna sifatida saqlamaslik, balki ularni aylanishga sarflashga undaydi.

Metall pullar muomalasi sharoitida markaziy emissiya banklari ichki pul muomalasining zaxiralari shaklida oltin zaxiralarga, banknotalarni oltinga almashtirish va xalqaro to'lovlar uchun zaxiralarga ega bo'lishi shart edi. Hozirgi vaqtda oltinning muomaladan chiqarilganligi sababli Markaziy bank oltin zaxirasining barcha bunday funksiyalari bekor bo'ldi.

SHu bilan birga, oltin strategik zaxira sifatida markaziy banklarda saqlanishda davom etmoqda.

1.3. Pulning nazariyalari

XX asr boshigacha pullarning iqtisodiy nazariyasida quyidagicha ikki masala: 1) pullarning kelib chiqishi va mohiyati haqidagi va 2) pullarning qiymati va xarid qilish kuchi haqidagi masalalar markaziy o'rin egallab kelgan. Birinchi masala bo'yicha siYosiy iqtisodda ikkita Yo'nalish – pullarning metallistik va nominalistik nazariyalari amal qilgan.

Pulning metallistik nazariyasi

G'arbiy Evropada boshlang'ich kapital jamg'arish davrida savdo burjuaziyasining manfaatlarini ob`ektiv aks ettiradigan pullarning metallistik nazariyasi vujudga keldi. Metallistik nazariya tarafdorlari – U.Stafford (1554-1612), T.Men (1571-1641), D.Nors (1641-1691) va boshqalar – tangalarning ishdan chiqishiga qarshi bo'lib, metallarning barqaror muomalada bo'lishini Yoqlab chiqishdi. Ularning nazariyasi uchun davlatning boyligini pullar bilan, pullarning o'zini esa – asl metallar bilan bir xil deb tushunish xarakterli edi. Ular pullarning mohiyatini asl metallarning ijtimoiy xususiyatlari emas, balki tabiiy xususiyatlari bilan bog'lashgan, pullarga ijtimoiy, ishlab chiqarish munosabati sifatida qarashmagan, balki ularni buyum deb bilishgan. SHuning uchun ular pullarning to'laqonli tangalarni talab qiladigan funktsiyalarini, ayniqsa, jahon pullari va g'aznalar funktsiyalarini mutloqlashtirishgan.

Pulning nominalistik nazariyasi

Rimlik va o'rta asrlik yuristlar klassik nominalizmning yaratuvchilari edi. Nominalizmning «ikkinchi bor o'zini o'nglab olishi» merkantilistlarning metallistik nazariyasi tanqidi bilan bog'liqdir. Nominalistlar shunga asoslanadiki, ularning fikricha, pullar – bu faqat tovarlar ayirboshlashiga xizmat qiladigan ideal hisob birliklari, mahsulot, davlat hokimiyatining natijasi hisoblanadi. XVII-XVIII asrlarda amal qilgan o'lchovning ideal pul birligi nazariyalari o'z mohiyatiga ko'ra nominalistik tusda bo'lgan. Bu nazariya

tarafdorlari – J.Lokk (1632-1704), J.Berkli (1685-1753), J.Styuart (1712-1780) – pul birliklarining nomlari (funt sterling, taler, frank) «qiymatning ideal atomlari»ni ifodalaydi, deb faraz qilishgan.

Tovarlarning qiymati ijtimoiy zarur ish vaqtining muayyan sonli soatlarini o'zida mujassam etadi. SHuning uchun ayrim iqtisodchilar, jumladan, D.Grey (1798-1850), tovarlar qiymatini bevosita ish vaqti soatlarida, o'ziga xos «ishchi pullarda» ifodalash zurligini asoslashga urinishgan. D.Greyning fikricha, tovar ishlab chiqaruvchilar bankka o'z mehnati mahsulotlarini topshirishi va ular uchun «ishchi pullar»ning muayyan miqdorini olishlari kerak bo'lgan, ular ana shu «ishchi pullari» Yordamida ushbu bankda o'zlariga zarur tovarlarni sotib olishi mumkin edi. XIX asrning 20-yillari oxiri – 40-yillarida «ishchi pullari» g'oyasini amalga oshirishga urinishlar bo'lgan. 1829 yilda Marselda advokat Matsel' «ayirboshlash banki»ni tashkil qilgan; 1832-1834 yillarda sotsialist-utopist R.Ouenning tashabbusiga ko'ra Angliyada «adolatli ayirboshlash bozorlari» ochilgan; 1849 yilda mayda burjua iqtisodchisi P.J.Prudon shunga o'xshagan «xalq banki»ni ta'sis etgan. Biroq bu muassasalarning hammasi bir xilda yakun topib, inqirozga uchragan. Buning sababi shunda ediki, «adolatli ayirboshlash» banklari na ijtimoiy zarur vaqtning miqdorini, na ijtimoiy ehtiyojning miqdorini to'g'ri belgilay olishmasdi. Ularning tashkilotchilari tovarni yaratuvchi mehnat tabiatini tushunishmagan. Ular tovar ishlab chiqaruvchilarning mehnati faqat xususiy tusga egaligini va faqat ayirboshlash jaraYonida bunday mehnat o'zining ijtimoiy tabiatini namoyon qilishini unutishgan. Bunday banklar negizini alohida xususiy ishlab chiqaruvchilar tashkil etadigan ishlab chiqarish sohasiga dahl qilmasdan muomala sohasini umumlashtirishga harakat qilishgan.

Pulning miqdoriy nazariyasi va uning evolyutsiyasi

Iqtisodiy adabiyotlarda hali ham pullarning miqdoriy nazariyasi ommaviy hisoblanadi. Agar metallistik va nominalistik nazariyalar pullarning mohiyati haqidagi masalani talqin qilishgan bo'lsa, pullarning miqdoriy nazariyasi

tovarlarning nisbiy qiymati, pullarning xaridchilik qobiliyati va uning o'zgarishi sabablari haqidagi savolga javob berishga harakat qiladi. Ushbu kontseptsiya asoslarini J.Lokk asarlarida, lekin yanada tugallangan shaklda – J.Vanderlint (1740 yilda vafot etgan), SH.Montesk'e (1689-1755) va D.YUm (1711-1776) asarlarida topish mumkin. D.Rikardo (1772-1823) ham pullarning miqdoriy nazariyasi tarafdori bo'lgan.

Agar merkantilistlar mamlakatda pullar qancha ko'p bo'lsa, bu shuncha yaxshi, chunki bunday hol savdo va sanoatning ravnaqini taqozo etadi, deb hisoblashgan bo'lishsa, unda Devid YUm muomaladagi pullar sonining ko'payishi mamlakat boyligini ifodalamaydi, balki faqat tovarlar narxlarining o'sishiga olib kelishini isbotlashga uringan. SHuning uchun u pullarning qiymati muomalada yurgan pullarning soni bilan belgilanadi va mutlaqo fiktiv miqdordan iborat bo'ladi, deb hisoblagan¹.

Evropada XVI-XVII asrlarda yuz bergan «narxlar revolyutsiyasi» pullarning miqdoriy nazariyasi vujudga kelishining bevosita sababi edi. Evropaga Amerikaning arzon oltini va kumushining olib kelinishi va ularni qazib olish qiymatining pasayishi tovarlar narxlarining jadal o'sishiga olib keldi. D.YUm bunday favqulodda shart-sharoitlarni tipik deb hisoblagan, lekin ilmiy tahlil butunlay teskari Yondashuvni talab qilgan. D.YUm ham pullarning miqdoriy nazariyasining shundan keyingi tarafdorlari (D.Rikardo, J.Mill' va boshqalar) singari oltin tangali standart sharoitida muomalada yurgan pullarning miqdori avvalo sotiladigan tovarlarning qiymatiga va, yanada aniqroq qilib aytganda, ular narxlarining summasiga bog'liq bo'lishini tushunishmagan.

SHunday qilib, klassik miqdoriy nazariya uchun uchta qoida:

- 1) sabablilik (narxlar pullarning massasiga bog'liq bo'ladi);
- 2) mutanosiblik (narxlar pullar miqdoriga mutanosib ravishda o'zgaradi)
- 3) universallik (pullar miqdorining o'zgarishi hamma tovarlarning narxlariga bir xilda ta'sir qiladi) xos bo'lgan.

¹ Қарағ: Юм Д. ОПЫТЫ. М., 1896. С.37.

Pullar shakllarining rivojlanishiga qarab pullar massasi turli xildagi miqdordan iborat bo'ladi va nafaqat naqd pullarni, shu bilan birga turli shakllardagi bank omonatlarini ham o'z ichiga oladi. Narxlari turli tusda oshib boradigan tovarlarning har xil guruhlari ham pul massasining ko'payishiga turlicha munosabatda bo'ladi. SHuning uchun pullarning miqdoriy nazariyasining shundan keyingi rivojlanishi unga ekonometrik tahlil apparati va narxlar bo'yicha mikroiqtisodiy nazariya elementlarining qo'shilishi bilan bog'liq.

SiYosiy iqtisod matematik maktabining yirik vakili, Xalqaro iqtisodiy jamiyat asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti (1931-1933) **Irving Fisher** (1867-1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo'shdi. U «Pullarning xarid qilish kuchi. Uning belgilanishi va kredit, foizlar va tanazzullarga munosabati» asarida (1911) pullar massasi bilan tovarlar narxlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni formallashtirishga harakat qilgan. Tovarlar uchun to'langan pullar soni va sotilgan tovarlar narxlari summasi teng bo'lgani uchun buni I.Fisher tarozi bilan o'xshatmoqchi bo'ladi.

Matematik shaklda ayirboshlash tenglamasini quyidagi formula shaklida tasavvur etish mumkin:

$$M V = \sum PQ,$$

bunda: \sum – (Expenditure) – pul muomalasining umumiy hajmi, ya'ni mazkur jamiyatda shu yil davomida tovarlarni sotib olish uchun sarflanadigan pullar summasi; M (Money) – ushbu jamiyatda yil davomida muomalada yurgan pullarning o'rtacha miqdori;

$$V = \frac{\sum PQ}{M}$$

(Velocity) – ne'matlarga ayirboshlashdagi pullar aylanishlarining o'rtacha soni; P – (Price) – ushbu jamiyatda sotib olinadigan har qanday alohida tovarning o'rtacha sotish narxi; Q – (Quantity) – tovarlarning jami xarid qilingan soni.

Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to'g'ri bo'lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan qog'oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadi. Bunday sharoitda pul massasining o'zgarishi, garchi I.Fisher tovarlar narxlarining mutloq elastikligini nazarda tutib, narx mexanizmini ma'lum ma'noda ideallashtirsa-da, lekin tovarlar narxlari darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqa neoklassiklar kabi Fisher ham mukammal raqobatchilikka asoslanadi va o'z xulosalarini monopoliyalar hukmronlik qiladigan va narxlar oldingi elastikligini jiddiy Yo'qotgan jamiyatga tegishli deb biladi.

Ko'pgina hozirgi iqtisodchilar ayirboshlash tenglamasini bir xillik, ya'ni $MV=PQ$ sifatida tavsiflashadi. Gap shundaki, bu tenglama D – T ayirboshlash harakatini tovarlarning jami massasiga daxldor deb ifodalashga urinadi, ya'ni tovarlar sotib olingan pullar summasi sotib olingan tovarlar narxlari summasiga teng (bir xil). Bu tautologiyadir va shuning uchun ayirboshlash formulasi narxlarning umumiy (mutloq) darajasini izohlash uchun xizmat qila olmaydi.

Miqdoriy nazariya tarafdorlarining faraz qilishicha, ayirboshlash formulasi mutloq kattalikni EQ_0 ni izohlaydi (ayni bir vaqtda talab va taklif mexanizmi undan nisbiy tebranishlarni izohlaydi).

I.Fisher va uning izdoshlari shunday nuqtai nazarga amal qilishgan. Ular pullarning aylanish tezligi (V) va ishlab chiqarish darajasi (Q) muomalada yurgan pullar miqdoriga (M) va narxlar darajasiga (P) bog'liq bo'lmasligini asoslashga urinishgan. Ular pullarning aylanishi tezligi avvalo demografik (aholining zichligi va hokazo) va texnik (transport vositalarining soni va sifati va hokazo) parametrlarga bog'liq bo'ladi, deb faraz qilishgan. Ishlab chiqarish darajasi esa asosan mehnat bozorida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlar bilan belgilanib, narxlar darajasi va muomalada yurgan pullar soniga bog'liq bo'lmaydi. SHubhasiz, bozor xo'jaligi hukmronlik qiladigan sharoitda bunday qoidalar yaqqol noreal tus kasb etadi.

Pulning Djon Meynar Keyns nazariyasi

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tanazzulga qarshi kredit-pul vositalari Yordamida tartibga solish xususida ikkita bir-biriga zid keladigan Yondashuv mavjud. Ularning biri neoklassik doktrina bilan bog'liq. An'anaviy neoklassik Yo'nalish stixiyali bozor mexanizmini ideallashtirgan. U to'liq bandlikka asoslanadi va pul massasining o'sishi narxlarning o'sishida ifodalanadi, deb faraz qiladi. Natijada pul birligining xarid qilish kuchi pasaydi va pullarning o'sishi aylanish girdobida qolib ketdi. SHunday qilib, narxlarning yangi, birmuncha yuqori darajasida pullar zaxirasining oldingi qiymati yana qayta tiklandi. Bunday rivojlanish modeli amalda kapitalizmga tanazzullar va ishsizlikni istisno qildi.

Neoklassiklarning Yondashuvi kapitalistik voqelikka zid keldi va bu hol 1929-1933 yillardagi «buyuk depressiya» jaraYonida alohida namoYon bo'ldi. Ahvolni tuzatish ishi J.M.Keynsning zimmasiga tushdi. U «Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi» asarida (1936) pullarning aylanishdan chiqib ketishi sabablarini aniqlashga urinadi, chunki, uning fikricha, buning natijasida yalpi to'lovga qobiliyatli talab hajmi qisqaradiki, bu ishlab chiqarish rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. J.M.Keynsning fikricha, pullarning chiqib ketishining bosh sabablari «uchta fundamental psixologik omillar»: iste'molga moyillik, likvidlilikni afzal ko'rish va kapital aktivlardan keladigan bo'lg'usi daromad taxmini bilan bog'liq.

Pullarga yalpi talab quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$M = M_1 + M_2 = L_1(Y) + L_2(r),$$

bunda: M_1 – transaksion talab; M_2 – spekulyativ talab; Y – milliy daromad; r – foiz normasi; L_1, L_2 – likvidlilik funksiyalari.

Neoklassiklar va Keynes pullar takror ishlab chiqarish jaraYoniga ta'sir qiladi, deb hisoblashadi. Biroq neoklassiklar bunday ta'sirni narxlar orqali, Keynes esa – foiz normasi orqali ko'rsatadi. Keynesning fikricha, foiz normasi investitsiyalarga ta'sir ko'rsatadi, investitsiyalar esa milliy daromad o'sishining muhim omili hisoblanadi.

Keynsning kapitalizmning o'zini o'zi tartibga soladigan tizim sifatidagi tanqidi qayishqoq pullarni – neoklassik nazariyaning asosiy barqarorlashtiruvchi omilini to'xtatib qo'yish Yo'li bilan erishiladi. Keyns shu maqsadda barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni ish haqining o'zgarmas kattaliklarida ifodalaydi. Lekin narx omilidan abstraktsiyalashtirish, o'z mohiyatiga ko'ra, ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin keskinlashgan inflyatsiya muammosini istisno etdi. Bu keynschilikning keskin tanqidga uchrashini oldindan belgilab berdi va pullarning neoklassik nazariyasi vujudga kelishining muhim sharti bo'ldi.

Hozirgi monetarizm nazariyasi

Keynsning bevosita davlat investitsiyalarining roliga va kon'yunkturani tartibga solishning byudjet uslublariga ortiqcha baho berib yuborgan tavsiyalarining qo'llanib bo'linmasligi inflyatsiya fenomenini «sof pullik asosda» izohlashga urinishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday Yondashuv Milton Fridmen (1912 yilda tug'ilgan) boshchiligidagi hozirgi monetaristlar asarlarida amalga oshirildi. 60-70-yillarda uning «Kapitalizm va erkinlik», «Qo'shma SHtatlarning monetar tarixi. 1867-1970» (A.SHvarts bilan birgalikda), «Pozitiv iqtisodiy fan ocherklari», «Dollar va defitsit», «Pul nazariyasidagi kontrrevolyutsiya» va boshqa asarlari chop etiladi. 1976 yilda M.Fridmenga Nobel' mukofoti berildi.

Monetaristlar pullarning miqdoriy nazariyasining yangicha talqinini taklif etishdi. M.Fridmen statistik tahlil asosida quyidagicha formulani taklif qildi:

$$MV = Py,$$

bunda: M – pul massasi; V – daromadning aylanish tezligi; P – narxlar darajasi; y – real daromad normasi (oqimi).

Pullarni monetaristlar takror ishlab chiqarishning hal qiluvchi omilli sifatida ko'rib chiqishadi, shuning uchun davlatning pul-kredit sohasini noto'g'ri tartibga solishi, ularning fikricha, iqtisodiy tanazzulni keltirib chiqarishi mumkin.

So'nggi yillarda paydo bo'lgan va 2008 yilda yuza chiqqan jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozining sabablariga o'z e'tiborini qaratgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimov I.A.:" Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jaraYonlari deyarli butun dunYoni qamrab olaYotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda³" deb alohida ta'kidlab o'tdi..

Bunday tanazzulning oldini olish uchun, birinchidan, pul massasining o'sishi sur'atlarini yiliga 3-4% gacha pasaytirish zarur (bu AQSH milliy daromadining o'rtacha o'sish sur'atlariga to'g'ri keladi). SHunisi xarakterliki, bunday sur'atlar iqtisodiy kon'yunkturaning joriy holatidan qat'i nazar tavsiya etiladi, chunki, monetaristlarning fikricha, qabul qilingan qarorlarning ta'siri jiddiy kechikadi va ularning boshlang'ich maqsadiga putur etkazadi. Ikkinchidan, davlatning iqtisodiy funktsiyalarini cheklash: davlat sektori miqdorlarini kamaytirish, davlat xarajatlarini, shu jumladan, ijtimoiy ehtiYojlarga xarajatlarni qisqartirish kerak (bu yirik biznesning manfaatlariga ob`ektiv xizmat qiladi).

1969-1970-yillarda va 70-yillarning ikkinchi yarmida AQSH, Angliya, GFR, YAponiyada va boshqa ayrim mamlakatlarda monetaristik tavsiyalarni amalda qo'llanishga urinishlar bo'ldi. Hisobga olish stavkasi jiddiy oshirildi (17-20%gacha), ilgari natsionalizatsiya qilingan korxonalarining qisman qaytadan xususiy lashtirilishi va shu kabi tadbirlar amalga oshirildi. Biroq inflyatsiya bilan kurashda erishilgan shubhasiz yutuqlarga qaramasdan kapitalizmning rivojlanishidagi tanazzulli pasayishlarning to'liq oldini olib bo'lmadi – 1980-1982-yillardagi tanazzul shundan yaqqol dalolat berdi. Bir qator mamlakatlarda

³ И.Каримов. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. Т.: “Ўзбекистон”, 2009. 5 б.

ushbu tanazzul urushdan keyingi davrdagi nafaqat eng uzoq davom etgan, shu bilan birga eng teran tanazzul bo'ldi. Monetaristik chora-tadbirlar, shubhasiz, mehnatkashlar real daromadlarining harakatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. SHunday qilib, hozirgi monetarizm qo'yilgan vazifani to'liq hal qila olmadi. Bu shuning uchun yuz berdiki, monetarizm kapitalistik ishlab chiqarishning tub muammolaridan, avvalo va asosan kredit-pul muomalasi sohasidan ajratib abstraklashtirildi.

1.4. Pul agregatlari va pul mul'tiplikatori

Pul agregatlari pul massasini o'lchovchilardan (ko'rsatkichlaridan) iborat. Pul agregatlari statistikada pullar harakatining muayyan sanaga bo'lgan Yoki muayyan vaqt davridagi o'zgarishini tahlil etish uchun qo'llaniladi.

Pul agregatlarini qurish uchun moddiy ne'matlarning likvidliligi darajasiga qarab ularning bosqichma-bosqich joylashtirilishi asos qilib olingan. Moddiy ne'matlarning likvidliligi deganda ushbu ne'matlarning tez va unchalik ko'p zararlarsiz pulga aylanishi qobiliyati tushuniladi. Moddiy ne'matlarning likvidliligi vaqt bilan o'lchanadi. Moddiy ne'matni pulga aylantirish uchun qanchalik kam vaqt talab qilinsa, uning likvidliligi shunchalik yuqori bo'ladi. Naqd pullar mutloq likvidlilikka ega, chunki ularni pulga aylantirish uchun zarur bo'ladigan vaqt nulg tengdir.

Muomaladagi naqd pullar M^0 agregatini tashkil etadi. Naqd pullar banknotalar, g'azna pattalari (biletleri) (agar mamlakatda ikkita emissiya markazi mavjud bo'lsa) va metall tangalardan iborat bo'ladi. Metall tangalar naqd pullarning juda kam qismini (rivojlangan mamlakatlarda 2%-3% ni) tashkil qiladi. Ularni keyinchalik Yombiga aylantirib sotishga Yo'l qo'ymaslik uchun odatda arzon metallardan zarb qilinadi. SHuning uchun tanganing real qiymati nominal qiymatidan birmuncha pastroq bo'ladi.

M^0 agregatini pul bazasidan farqlash zarur. Pul bazasi tarkibiga tijorat banklarining markaziy bankdagi majburiy zaxiralari kiradi. M^0 agregatining

tarkibiga tijorat banklarining markaziy bankdagi majburiy zaxiralari rasman kirmaydi.

M^0 agregatiga kamroq likvidli mablag'larni izchillik bilan qo'sha borish bilan $M^1, M^2, M^3 \dots M^N$ gacha bo'lgan agregatlar olinadi.

Pul agregatlarining soni va tarkibi mamlakat kredit tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tuzilishiga hamda uning moliya bozorlarining rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Pul massasi alohida elementlardan iborat bo'lib, bunday elementlar pul massasining holatini baholash jaryonida qo'llaniladi va uni tartibga solish uslublari va hajmlarini birmuncha aniqroq tanlashga imkon beradi.

Ushbu pul agregatlari asosan to'lovning turli shakllarda ifodalangan u Yoki boshqa vositalarini hisobga olish asosida ajratiladi. Odatda, har bir agregat nominal raqamga ega bo'ladi. Raqamning o'sib borishi bilan ushbu agregat Yordamida hisobga olinadigan vositalar soni ham oshadi. SHunday qilib, katta sonli koeffitsientli agregat kichik indeksli (raqamli) agregatlarda hisobga olingan barcha pul mablag'larini o'z ichiga oladi. Faqat muomalada bo'lgan naqd pul mablag'larini hisobga oladigan M^0 pul agregati o'z ma'nosi va mohiyatiga ko'ra birinchi bo'lib hisoblanadi.

M_1 – muomaladagi naqd pul mablag'lari (ya'ni, M^0 agregati), korxonalarining hisob-kitob, joriy va maxsus hisobvaraqlaridagi mablag'lari, sug'urta kompaniyalari mablag'lari, aholining tijorat banklaridagi «talab qilib olingungacha» hisobvaraqlaridagi depozitlari.

M_2 – M_1 agregati + aholining banklardagi muddatli omonatlari.

M_3 – M_2 agregati + davlat zaYomlarining sertifikatlari va obligatsiyalari.

M_4 – M_3 agregati + xorijiy valyutadagi depozitlar.

SHuni hisobga olish kerakki, bunday agregatlarning belgilanishi turli mamlakatlarda turlicha amalga oshiriladi. Ushbu agregatlar o'z holicha mamlakat to'lov oboroti sohasida yuz beradigan jaryonlar, jamg'armalar hajmlari, shuningdek, ushbu jamg'armani amalga oshirishda qo'llanilgan

vositalarning sonli ifodasi vositalari hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning joriy holatini belgilashga imkon beradi va keyingi vaziyatni prognoz qilishda ko'maklashadi.

Pul massasi agregatlari, iqtisodiyot monetizatsiyasi koeffitsientini hisobga olish Yordamidagi hisob-kitob eng namunali hisob-kitobdir. Monetizatsiya koeffitsienti iqtisodiyotning pullar bilan ta'minlanishi darajasi Yoki tovar aylanishining to'lov vositalari bilan ta'minlanishi darajasini aks ettiradi. Bunday koeffitsient M2 pul agregati summasi va ushbu iqtisodiyotda mavjud bo'lgan xorijiy valyutadagi depozitlarning YAMI hajmiga o'zaro nisbati sifatida hisoblab chiqiladi. Ushbu koeffitsientni hisob-kitob qilishda suratga birdaniga M2 agregatini va xorijiy valyutadagi depozitlarni o'z ichiga oladigan M4 pul agregatini qo'yish qulayroq bo'ladi. Ushbu koeffitsient mohiyati idealda birga teng bo'ladi. Shunga qaramasdan, 0,7 Yoki 0,8 darajasidagi natijalar Yo'l qo'yilishi mumkin mohiyatlar deb hisoblanadi.

Naqd pullar emissiyasi. Pul mul'tiplikatori.

Pullar markaziy emissiya banki faoliyati natijasida yaratiladi. Pullarni yaratish jaraYoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi.

Pullarni yaratish jaraYonining **birinchi bosqichida** markaziy emissiya banki asosiy Yo'nalishlar bo'yicha, shu jumladan, hukumatga, tijorat banklari, chet mamlakatlar, alohida korxonalariga bevosita kreditlarni berish Yo'li bilan (agar amaldagi qonunlarda shunday tartib nazarda tutilgan bo'lsa), shuningdek, rasmiy oltin va valyuta zaxiralarini ko'paytirish orqali o'z aktivlarini ko'paytiradi.

Markaziy emissiya banki aktivlarining ko'paytirilishi ayni bir vaqtda uning passivlarining ham tegishlicha o'sishini anglatadi, ya'ni pul bazasining tashkil etilishiga olib keladi.

Pul bazasi muomaladagi naqd pullardan, shuningdek, tijorat banklarining mamlakat Markaziy bankidagi majburiy va majburiy bo'lmagan (ixtiYoriy va ortiqcha) zaxiralaridan iborat bo'ladi.

Umuman olganda, tijorat banklarining zaxiralari deganda, mabodo bank omonatchilari to'satdan katta miqdordagi to'lov talablarini qo'ygani holda, uning tezkorlik bilan muomalaga kiritadigan aktivlari tushuniladi. Tijorat banklarining Markaziy bankdagi zaxiralari majburiy va majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralardan tarkib topadi.

Majburiy zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi omonatlari (depozitlari)ning qonuniy tartibda belgilab qo'yiladigan eng kam normasi tushuniladi.

Majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy, ortiqcha) zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlarida majburiy zaxiralarning belgilangan normasidan ortiq miqdorda saqlanaYotgan mablag'lari tushuniladi. Tijorat banklari majburiy bo'lmagan zaxiralar miqdorlarini o'z xohishiga ko'ra o'zgartirishi mumkin. SHu munosabat bilan e`lon qilinadigan statistikada pul bazasini belgilashda bunday zaxiralarni muomaladagi naqd pullar tarkibida yuribdi deb hisoblab, ular ajratib ko'rsatilmaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul bazasining quyidagicha ta`rifini beradi:

Pul bazasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga chiqargan naqd pullar va tijorat banklarining majburiy zaxiralarini o'z ichiga oladi.

Pullarni yaratish jaraYonining **ikkinchi bosqichida** tijorat banklari o'z mijozlari – korxonalar, tashkilotlar, aholini kreditlash uchun markaziy emissiya bankidan olgan kreditlardan foydalanadiki, bu pul massasining yaratilishiga olib keladi.

Pul massasi tijorat banklari tizimidagi pul bazasining oshishi natijasida vujudga keladi va muomaladagi naqd pullardan va mijozlar hisobvaraqlaridagi pullar qoldiqlaridan iborat bo'ladi. Bank mul'tiplikatori pullarning bir tijorat bankidan boshqa tijorat bankiga harakati davrida tijorat banklarining depozit hisobvaraqlaridagi pullarning ko'payishi jaraYonidan iborat. Pul massasini ko'paytirishning ushbu mexanizmi faqat ikki darajali bank

tizimi (markaziy va tijorat banklari) amal qiladigan va to'liq faoliyat yuritadigan sharoitda ishlashi mumkin. Bank mul'tiplikatori mexanizmining amal qilishi jaraYonida banklar mijozlarining hisobvaraqlarida pul mablag'larining to'planishi yuz beradi. Ushbu mexanizmning amal qilishi intensivligini hisob-kitob qilish uchun bank mul'tiplikatori koeffitsientini hisob-kitob qilish formulasi qo'llaniladi:

1-R x 100% Yoki pul massasi - R, bunda: R – markaziy bank belgilab qo'ygan majburiy zaxiralash normasi.

Bank mul'tiplikatori mexanizmi quyidagi usulda faoliyat yuritadi: Markaziy bank qandaydir tijorat bankiga kredit beradi va o'z navbatida ushbu tijorat banki o'zining mijoziga kredit beradi. Mijoz ushbu taxminan 10 ta birlikdan iborat kreditdan o'z majburiyatlarini to'lash uchun foydalanadi. Pul mablag'lari boshqa iqtisodiy sub`ektga borib tushadi va u bu mablag'larni o'zining tijorat bankidagi depozitli hisobvarag'ida joylashtiradi. Bankning ikkinchi mijozining hisobvarag'ida 10 ta birlik mavjud. Bank ushbu summadan majburiy zaxiralash fondiga muayyan foizni ajratadi. Bankda, masalan, erkin mablag'larning 8 ta birligi qoladi va u ushbu mablag'larni yana kreditga beradi. Bu operatsiya faqat shunday farq bilan takrorlanadiki, to'rtinchi mijozning hisobvarag'ida endi 8 ta birlik mavjud bo'ladi. Bunday operatsiya muayyan muddat davomida takrorlanadi va natijada mijozlarning banklardagi hisobvaraqlarida Markaziy bank birinchi marta bergan bergan 10 ta birlikdan oshadigan summa (10+8+ va hokazo) paydo bo'ladi. SHunday qilib, mazkur mexanizm iqtisodiYotga taqdim etilgan pul massasini muayyan summagacha naqd pulsiz shaklda ko'paytirishga imkon beradi, ushbu holatda belgilab qo'yilgan majburiy zaxiralash normasi qanchalik yuqori bo'lsa, kreditning aylanishi shunchalik tez tugaydi va bu mexanizmning amal qilishi natijasida qo'shimcha ravishda iqtisodiYotda shunchalik kam miqdordagi pullar paydo bo'ladi.

Pul massasi bilan pul bazasi o'rtasidagi nisbat pul mul'tiplikatori deb ataladi.

$$\text{Пул мультипликатори} = \frac{\text{Пул массаси}}{\text{Пул базаси}}$$

Tijorat banklarining o'z mijozlariga (iqtisodiyotga) kreditlari bilan Markaziy bankning tijorat banklariga kreditlari o'rtasidagi nisbat kredit mul'tiplikatori deb ataladi.

$$\text{Кредит мультипликатори} = \frac{\text{Тижорат банклари томонидан берилган кредитлар}}{\text{Марказий банк томонидан тижорат банкларига берилган кредитлар}}$$

Muomaladagi pullar miqdorining o'sishi to'laligicha Markaziy bankning kredit emissiyasi bilan oldindan belgilanadi va har qanday Yo'nalish bo'yicha muqarrar tarzda pul bazasining o'sishiga va mul'tiplikatorning ta'sirida pul massasining ko'payishiga olib keladi. Pul massasining ko'payishi inflyatsiya sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi.

Naqd pul mablag'larining emissiyasi emissiyaning naqd pulsiz shakldagi pullar emissiyasidan kelib chiqadigan ikkilamchi turidir. Emissiyaning bu turi Markaziy bank tomonidan o'tkaziladi. Emissiyaning ushbu shakli markazlashtirilmagan shaklda bo'ladi va mintaqaviy MTMlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu kassalar qabul qilgan mablag'larning ortiqcha hajmi, ya'ni MTM bergan pullar miqdori tashkilotlar va banklarning MTMga qaytargan mablag'lar summasidan ortiq bo'lishi kerak. Naqd pullar depozit hisobvaraqlarida turgan naqd pulsiz shakldagi pul mablag'laridan hosil bo'ladi va tijorat bankining bank mul'tiplikatori mexanizmining amal qilishi natijasida yaratgan pul massasining tarkibiy qismidan iborat bo'ladi.

1.5. Pul muomalasi va pullarning aylanishi

Pul muomalasi – bu pullarning mamlakatning ichki iqtisodiy aylanishi, tashqi iqtisodiy aloqalar tizimidagi, tovarlar va xizmatlarning sotilishiga, shuningdek, uy xo'jaligidagi tovarsiz to'lovlarga xizmat ko'rsatadigan naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi harakatidir. Tovar ishlab chiqarish pul muomalasining ob'ektiv negizi bo'lib, undagi tovar olami tovarlarning ikki turiga: tovarlarning o'ziga va tovar-pullarga bo'linadi. Naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pullar Yordamida tovarlar, shuningdek, ssuda va fiktiv kapitallarning muomalasi jaraYoni amalga oshiriladi.

SHunday qilib, pul muomalasi jaraYonlaridan pul aylanishi tushunchasini ajratib olish mumkin.

Pul aylanishi - naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat jaraYonidir. Qiymatning o'zidan ajralganlik hozirgi pul aylanishining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hozirgi pul aylanishi metall pullar muomalasi sharoitidagi kabi qiymatli emas, chunki pul belgisining qiymati nominaldan ancha kam va uning ahamiyati bo'lmasligi mumkin.

Pul aylanishi pul mablag'lari harakatining muayyan Yo'llaridan tarkib topadi:

1. mablag'larning markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bunday harakat pul mablag'lari emissiyasi jaraYonlari va tijorat banklari mablag'larining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralash fondiga ko'chirilishi bilan bog'liq. Tijorat banklarining kreditlash jaraYonlari munosabati bilan pul mablag'larining ko'chirilishini ham shunga kiritish mumkin;

2. pul mablag'larining tijorat banklari o'rtasidagi harakati. Bu holda ushbu banklarning mijozlariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq pul ko'chirishlar Yoki tijorat banklarining o'zaro kreditlashlari nazarda tutiladi;

3. firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu iqtisodiy sub`ektlar o'rtasidagi harakati tovarlar aylanishi va bunday tovarlar aylanishidagi, shuningdek, o'zaro talablarni hisobga olishdagi haq to'lash jaraYonlari bilan bog'liq;

4. banklar, firmalar va tashkilotlar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu sub`ektlar o'rtasidagi harakati asosan kreditlash va qarz majburiyatlarini hisobga olish operatsiyalari, shuningdek, pul mablag'larini saqlash va ko'chirishga doir operatsiyalar bilan bog'liq;

5. banklar va aholi o'rtasidagi harakat. Pul mablag'lari iste`molchilik kreditini berish va pul mablag'larining aholining daromadlarini saqlash va ko'paytirish maqsadlaridagi harakatiga doir faol jaraYon sababli ko'chiriladi;

6. firmalar, tashkilotlar va aholi o'rtasidagi harakat. Pullar harakatining bu Yo'li mablag'larning tovar aylanishi operatsiyalariga haq to'lash va uy xo'jaliklarining xodimlar mehnatiga haq to'lashi munosabati bilan ko'chib yurishidan iborat bo'ladi;

7. banklar va moliya institutlari o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining ushbu iqtisodiy munosabatlar sub`ektlari o'rtasidagi harakati o'zaro kreditlash operatsiyalari va iqtisodiy foyda olishga Yoki uchinchi sub`ektlarning muayyan operatsiyalarini rasmiylashtirishga Yordam beruvchi boshqa moliyaviy harakatlar doirasida amalga oshiriladi;

8. moliya institutlari va aholi o'rtasidagi harakat. Pul mablag'larining bu holdagi harakati aholining, odatda, o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida muayyan moliya operatsiyalarini bajarishi bilan bog'liq;

9. jismoniy shaxslar o'rtasidagi harakat. Pul mablag'lari harakatining bu Yo'li eng sezilmaydigan, lekin pul mablag'larining qayta taqsimlanishi tizimidagi eng muhim Yo'llardan biri hisoblanadi, chunki u mablag'larning aholi o'rtasida ko'chib yurishidan iborat. Odatda, bunday ko'chib yurishning maqsadi maishiy masalalarni hal etish va o'z oilasi a`zolari farovonligining muayyan darajasini tutib turishdir.

Pul mablag'lari harakatining har biri bo'yicha muqobil harakat ham amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, pullarning aylanishi ko'p Yo'nalishli bo'ladi va xo'jalik faoliyati sub`ektlarini qamrab oladi.

To'lov aylanishi ushbu mamlakatda amal qiladigan to'lov vositalarining uzluksiz harakat qilish jaraYonidir. Boshqacha aytganda, pul aylanishi deganda to'lov vositalarining shaklidan qat`i nazar bunday barcha vositalarning majmui tushuniladi. Bevosita pul mablag'larining harakati va cheklar, depozit sertifikatleri va veksellarning ko'chib yurishi shunga kiradi. Pul aylanishi to'lov aylanishining bir qismidir.

Pul aylanishi naqd pullik va naqd pulsiz shakllardagi pul belgilarining uzluksiz harakat qilish jaraYonidir.

O'z navbatida pul aylanishi to'lov vositalari muomalasining ikki shakliga: pul muomalasi (Yoki naqd pullar aylanishi) va pul-to'lov aylanishiga bo'linadi.

Pul muomalasi pul aylanishining naqd pul mablag'lari muomalasi, pul belgilarining bir yuridik Yoki jismoniy shaxslardan boshqa shaxslarga doimiy tarzda o'tib yurishi bilan bog'liq qismidir. Boshqacha aytganda, bu iqtisodiy sub`ektlar o'rtasidagi muomalada qatnashadigan bevosita naqd pul massasidir. SHu tufayli pul muomalasini ba`zan naqd pullarning aylanishi deb ham atashadi.

Pul-to'lov aylanishi pul aylanishining bir qismi bo'lib, unda pullar qanday shaklda taqdim etilganidan qat`i nazar to'lov vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Boshqacha aytganda, bunday holda iqtisodiy sub`ektlar o'rtasida naqd pullik va naqd pulsiz shaklda ayirboshlash vositasi sifatida amal qiladigan pul mablag'lari ko'rib chiqiladi.

SHuni hisobga olish kerakki, iqtisodiYotda pul muomalasi umumiy pul aylanishida kam qismni egallashi kerak, lekin u katta ahamiyat kasb etadi, chunki aholi daromadlarining katta qismining olinishi va sarflanishiga xizmat ko'rsatadi. Lekin shunga qaramasdan, ishlarning bunday ahvoli faqat Rossiya iqtisodiYoti kabi o'tish Yoki etarli rivojlanmagan iqtisodiYotlarda kuzatiladi. Bu shu bilan bog'liqki, rivojlangan iqtisodiYotlarda elektron pullar tobora

ko'proq ommalashgan bo'ladi. Bunday pul vositalari mijozlarning bank muassasalaridagi hisobvaraqlari bo'yicha faqat texnik uskunalarda Yordamida ishlatish mumkin bo'lgan elektron uzatmalardagi Yozuvlardir. Bunda ushbu Yozuvlar tabiiy ravishda mijozlarning hisobvaraqlaridagi naqd pulsiz mablag'lar hisoblanadi. Plastik karta va axborotni o'qish hamda bank bo'limi bilan aloqa tizimi texnik vositalar hisoblanadi. Amalda tovarlar va xizmatlar uchun haq to'lash vositasi sifatida plastik kartochkalarni qabul qilish va hisobga olish vositalarining hamma joyda ommalashuvi iqtisodiyotdagi naqd pul mablag'lari hajmining kamayishiga va naqd pulsiz aylanish rolining yalpi oshishiga olib kelmoqda. SHunday qilib, bank xizmatlari bozori ravnaq topgan sharoitda bunday holat buziladi va naqd pullarning aylanishi asosiy omil bo'lmay qoladi.

Naqd pulsiz pul aylanishi – banklarda pul mablag'larini to'lovchilar va oluvchilarning hisobvaraqlari bo'yicha Yozuvlar Yordamida Yoki o'zaro talablarni hisobga olish Yo'li bilan amalga oshiriladigan pul aylanishidir. SHunday qilib, naqd pulsiz pul aylanishi bevosita pul belgisining bo'lmasligini nazarda tutadi va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishga, tegishlicha, naqd pulsiz aylanishni shakllantirishga imkon beradigan rivojlangan bank tizimi amal qilmay turib bunga erishib bo'lmaydi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyati iqtisodiyotda naqd pulsiz pul aylanishi amal qilishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tamoyillari:

1) ular mijozlarga mablag'larni saqlash va o'tkazish uchun ochiladigan bank hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshiriladi;

2) hisobvaraqlardan to'lovlar banklar tomonidan hisobvaraqlar egalarining farmoyishi bo'yicha to'lovlarning ular belgilagan navbatlilik tartibida va hisobvaraqdagi mablag'larning qoldig'i doirasida amalga oshirilishi lozim;

3) banklar mijozlarning shartnomali munosabatlariga aralashmaydi;

4) to'lovning shartnomalarda, Moliya vazirligi Yo'riqnomalarida nazarda tutilgan muddatlar asosidagi muddatliligi;

5) to'lovning ta'minlanganligi, to'lovchida (Yoki uning kafilida) pullarni oluvchi oldidagi majburiyatlarni uzish uchun qo'llanilishi mumkin likvidli mablag'larning mavjudligi.

SHunday qilib, naqd pulsiz aylanish to'lovning ushbu tamoyillari va shartlarining bajarilishini nazarda tutadi. Iste'molchilar bilan sotuvchilar o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitobning amal qilishiga ehtiyojning oshib borayotganligini qayd qilish kerak. Bu tovar aylanishi jaryonida tobora ko'proq qo'llanilayotgan naqd pulsiz hisob-kitob shakllarining qulayligini nisbatan xavfsizligi bilan bog'liqdir. Yana shunga ham e'tiborni qaratish kerakki, naqd pulsiz aylanishning o'zida ham ayrim o'zgarishlar yuz berdi va hozirgi vaqtda u nafaqat bank mijozlarining hisobvaraqlari bo'yicha Yozuvlardan, shu bilan birga bankning komp'yuterdagi ma'lumotlar bazasida u Yoki boshqa hisobvaraqdagi holatga tegishli Yozuvlardan ham iborat. Bunday evolyutsiya naqd pulsiz aylanish shakli sifatidagi elektron pul vositalarining keng qo'llanilishi bilan bog'liq. Bunday holda pullar aynan ma'lumotlar bazasidan iborat bo'lib, unga faqat texnik vositalar Yordamida kirib olish mumkin. Naqd pulsiz aylanish hozirgi vaqtda nafaqat korxonalar, shu bilan birga uy xo'jaliklari va davlatlarni ham qamrab olgan. SHunday qilib, aytish mumkinki, naqd pulsiz aylanish iqtisodiy munosabatlarning har qanday sub`ektining pul aylanishiga nisbatan etakchi pozitsiyani egallaydi.

Naqd pulsiz aylanishning to'laroq faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarga rioya etish zarur:

1) ushbu operatsiyaning legitimligi xususidagi qonuniy kafolatlarning mavjudligi;

2) pul mablag'larini tez va xavfsiz o'tkazishga zaruriyatning bo'lishi (ya'ni, tovar munosabatlarning etarli rivojlanganligi);

3) rivojlangan bank tizimining mavjud bo'lishi (banklar filiallari, bo'limlari va ular o'rtasidagi vakillik munosabatlarning mavjudligi);

4) xo'jalik sub`ektlarining o'z qarorlarini erkin qabul qilishi imkoniyati.

SHunday qilib, naqd pulsiz pul aylanishi iqtisodiyotning muayyan rivojlanish darajasiga erishganligidan dalolat beradi va yanada ravnaq topish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi.

Davlatning pul aylanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Pul aylanishi tuzilmasi turli belgilar bo'yicha belgilanadi:

1) unda pullarning faoliyat yuritishi shakliga qarab. Ushbu belgiga qarab naqd pulsiz va naqd pullik pul aylanishini ajratish mumkin, chunki barcha pul belgilari u Yoki boshqa shaklga ega bo'ladi;

2) ushbu pul aylanishi xizmat ko'rsatadigan munosabatlar tusiga qarab. Bu erda pul-hisob-kitob aylanishi, pul-kredit aylanishi, pul-moliya aylanishi ajratib ko'rsatiladi;

3) pul mablag'larining harakati yuz beradigan sub'ektlarga qarab. Ushbu tasnif bo'yicha quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: pul mablag'larining yuridik shaxslar o'rtasida banklararo, banklarda aylanishi, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi aylanish va, nihoyat, pul mablag'larining faqat jismoniy shaxslar o'rtasidagi aylanishi.

SHunga tegishli, iqtisodiyotda qo'llaniladigan pul aylanishi hajmiga ta'sir qiladigan omillarning muayyan guruhini ham ajratish mumkin. Barcha omillarni siyosiy, iqtisodiy va texnik omillarga ajratish mumkin. Tabiiyki, pul aylanishi tuzilmasini shakllantirishning iqtisodiy omillari asosiy ahamiyatga va bevosita ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Bunday omillarga iqtisodiyotda ishlatiladigan pullar turlari, pul muomalasi tezligi, tovar aylanishi miqdori va shu kabilar kiradi. Binobarin, mavjud pul aylanishi miqdorlarini vujudga keladigan ehtiyojlarga muvofiq o'zgartirishga Yoki pul aylanishining mavjud hajmlarini tovar aylanishining real ehtiyojlariga muvofiqlashtirishga faqat iqtisodiy uslublar vositasida pul aylanishi hajmiga ta'sir ko'rsatadigan ushbu omillar orqali ta'sir qilish mumkin.

Iqtisodiyotda faoliyat yuritadigan, faqat hukumatning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan va iqtisodiyotning ehtiyojlaridan mustaqil pul mablag'lari miqdoridagi o'zgarishlar siyosiy omillar hisoblanadi.

Texnik omillar pul aylanishi tuzilishi va hajmiga faqat bilvosita ta'sir ko'rsatadi, lekin shunga qaramasdan, ularni hisobga olish zarur. Bunday omillarga u Yoki boshqa hisob-kitobni o'tkazish uchun talab etiladigan vaqtni kamaytirish Yoki hisob-kitobning o'zini amalga oshirishga imkon beradigan hisob-kitoblarning texnik vositalari kiradi. Masalan, bank plastik kartalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik vositalarning keng ommalashganligi aholi o'rtasida ushbu to'lov vositasining ommalashuviga va, binobarin, naqd pulsiz pul mablag'larining qo'llanilishining oshishiga olib keladi. Naqd pulsiz pul mablag'lari qo'llanilishi chastotasining ko'payishi pul muomalasining umumiy tarkibida naqd pullarning kamayishiga va davlatning pul aylanishini tartibga solish asosiy uslublarining o'zgarishiga olib keladi.

Pul muomalasining tezligi pul aylanishining muhim tavsifnomasi hisoblanadi. Bu shu bilan bog'liqki, muayyan vaqt davomida (masalan, yil davomida) har bir pul birligi aylanishining soni qanchalik ko'p bo'lsa, iqtisodiyotning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining miqdori shunchalik kam bo'ladi. Amalda pul massasi muomalasining tezligi daromad muomalasining tezligini ko'rsatadi.

Tijorat banki o'z mijozlariga turli xildagi xizmatlarni ko'rsatadi. Lekin baribir, agar har qanday tijorat banki o'z mijoziga ochmoqchi bo'lgan aniq hisobvaraqlar haqida gapiriladigan bo'lsa, unda variantlar ro'yxati keskin kamayadi. Barcha bank hisobvaraqlari besh tipga: muddatli Yoki depozitlar, talab qilib olinadigan hisobvaraqlar va yuridik shaxslarning maxsus tijorat hisobvaraqlariga bo'linadi. Yuridik shaxslarning maxsus tijorat hisobvaraqlari talab qilib olinadigan hisobvaraqlar shaklida va ushbu hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblarning maxsus shartlariga ega hisobvaraqlar shaklida ham bo'lishi

mumkin. Lekin baribir, hisobvaraqlarning asosiy ko'pchiligi depozitlar Yoki talab qilib olinadigan hisobvaraqlardan iborat.

Mazkur bankda aniq muddat davomida, muayyan foiz bilan tutib turiladigan va ushbu hisobvaraqdagi mablag'lardan foydalanish yuzasidan cheklanishlar amal qiladigan hisobvaraqlar depozitlar deyiladi. Odatda, ushbu hisobvaraqlarning bankda saqlanishi yuzasidan taxmin qilinaYotgan muddatga qarab bu omonat turi bo'yicha foizli stavka miqdori belgilanadi. Biroq amalda hamisha ham shunday bo'lavermaydi. Ko'pincha banklar muddatga mutanosib ravishda oshib boradigan foizlarni belgilashadi. SHunday qilib, omonatlar turlari orasidagi tafovut Yo'qoladi, chunki mijoz ayni bir xildagi muddat uchun foiz sifatida bir xil miqdordagi daromadni oladi. Talab qilib olinadigan hisobvaraqlar bilan depozitlar orasidagi farqning ma'nosi ushbu hisobvaraqda qo'yilgan pul mablag'laridan foydalanish imkoniyatidan iboratdir.

Talab qilib olinadigan hisobvaraqlar amalda hech qanday foyda keltirmaydi, lekin bankdan har qanday vaqtda ushbu pul mablag'larini talab qilib olish imkoniyatini beradi. Odatda, barcha plastik kartochkalar pul mablag'larini talab qilib olinadigan hisobvaraqlarga joylashtirishning elektron variantidir, chunki bankdan har qanday vaqtda ushbu pul mablag'lari talab qilib olinishi mumkin. SHunga tegishlicha, bank joylashtirilgan mablag'larning birdaniga Yo'qotilishi mumkinligini kompensatsiya qilishga urinadi va juda past narxlarni nazarda tutadi. Bu ob`ektiv zaruriyat bilan bog'liq. Bankning hisobvarag'i bo'yicha foiz bankning o'zi unda joylashtirilgan pul mablag'lari joylashgan muddat davomida undan qancha daromad olishi mumkinligiga bog'liq bo'ladi. Bunday holda mijoz pullarni joylashtirish muddatining ko'p bo'lmasligini, binobarin, bankning o'zi orttiradigan va o'z mijozlariga to'laydigan potentsial foizlarning ham yuqori bo'lmasligini oldindan biladi. Mablag'larning depozit omonatlariga joylashtirilishi holatida esa mijozning pul mablag'larini qaytarib olishi muddati omonatga doir shartnomada oldindan aytib o'tilgan bo'ladi, shuning uchun bank bu pul mablag'larini to'la ishonch bilan

tasarruf qilishi mumkin va bunda mijoz daromadining miqdori faqat mazkur bankning mijozning pul mablag'laridan foydalanish evaziga daromad olishiga doir imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Bank bilan pul mablag'larini joylashtirish uchun shartnoma tuzilishida bankning va omonatchining huquqlari va majburiyatlarini tasdiqlaydigan bir qator hujjatlar rasmiylashtiriladi. Bank hisobvarag'iga doir bunday shartnomada kontragentlarning to'liq nomlari va ushbu bitimning barcha shartlari Yozib qo'yiladi. Bunday shartlarga: omonatni saqlash muddatlari, foizlarni hisoblash va foydalanish shartlari, mazkur shartnomaning amal qilish muddatlarini o'zgartirish Yoki uzaytirish mumkinligi kiradi.

Hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi bitimlarning amalga oshirilishidagi eng ko'p qo'llaniladigan shakldir. Bu naqd pulsiz hisob-kitoblarning hisob-kitobni amalga oshirishdagi xavfsizligi va pul mablag'larini tashish uchun transaksion xarajatlarning qisqarishi (chunki bunda ushbu mablag'larning o'zi bo'lmaydi) kabi jihatlari bilan bog'liqdir. Naqd pulsiz hisob-kitoblar bank tashkilotlari vositachiligida amalga oshiriladi, ular bir iqtisodiy sub`ektdan boshqa sub`ektga pul mablag'larini etkazishning ushbu shakli bo'yicha barcha operatsiyalarni bajaradilar. Bunday operatsiyalarni faqat turli bank tuzilmalari o'rtasida vakillik munosabatlari o'rnatilgan sharoitda amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, banklar mijozning amalga oshirilgan bitim uchun hisob-kitob qilishi kerak bo'lgan amaliy sherigiga yaqin joyda o'z filiallari Yoki bo'limlariga ega bo'lsa, hisob-kitoblarni bunday sur`atlarda bajarishi mumkin. Naqd pulsiz hisob-kitoblar bir davlatning iqtisodiy sub`ektlari o'rtasida va turli mamlakatlar korxonalarida o'rtasida ham amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha aytganda, hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli xalqaro amaliyotda faol qo'llanilmoqda. Naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllari deganda ushbu to'lovni amalga oshirishning mavjud usullari va uni amalga oshirishda qo'llaniladigan vositalar turkumi tushuniladi. Iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi

naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) inkasso operatsiyalari vositasidagi hisob-kitoblar;
- 2) akkreditivlar Yordamidagi hisob-kitoblar;
- 3) bo'nak to'lovlari shaklidagi hisob-kitoblar;
- 4) ochilgan hisobvaraq bo'yicha amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;
- 5) vekselar va cheklar shaklida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

CHek, veksel', bank trattasi va pul o'tkazmasi naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishning asosiy vositalaridir.

SHunday qilib, naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy kontragentlar o'rtasida har bir muayyan vaqt oralig'ida hisob-kitoblarni amalga oshirishning eng qulay uslubini tanlashga imkon beradigan turli-tuman shakllari mavjud. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining eng qulay uslubini belgilash mavjud shart-sharoitlarni baholash Yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan, tovar turining o'zini hisobga olish zarur, chunki bu tovarga haq to'lash uslublarining qaysi biri sotuvchiga va qaysinisi xaridorga ko'proq foydali bo'lishiga shunga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim tovarlar haq to'lashning faqat bir usulini amalga oshirish bo'yicha ob'ektiv imkoniyatni nazarda tutadi, chunki boshqacha bo'lsa, bunday tovarni ishlab chiqarish Yoki tashish jaraYonini bajarish mumkin bo'lmaydi. Bitim ob'ektini hisobga olish naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uslubini tanlashga ta'sir qiladigan yana bir zarur omil bo'lib, u hisob-kitobning potentsial ehtimol tutilgan shakllari ro'yxatiga va ushbu operatsiyani amalga oshirish muddatlariga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, bozorda ushbu tovarga mavjud bo'lgan talab va taklif darajasi ham naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uslubini tanlashga ta'sir qiladigan yana bir muhim omildir. Bunday omil bitim qatnashchilaridan qaysi biri – etkazib beruvchi Yoki xaridorning bitimni tuzishda o'z shartlarini o'tkazishi mumkinligini belgilaydi. SHunga tegishlicha, naqd pulsiz hisob-kitoblarning bitimning u Yoki boshqa qatnashchisiga ko'proq foydali bo'ladigan shakli tanlanadi.

Hozirgi vaqtda naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllari tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotning boshqa sub`ektlari bilan savdo-sotiq Yoki resurslarni xarid qilish borasida munosabatlarga kirishadigan korxonalar uchun nafaqat qulay va ishonchli bo'ladigan, shu bilan birga pul oqimlarini nazorat qilish, shuningdek, pul mablag'larini o'tkazish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni kamaytirishga imkon beradigan hisob-kitob vositasini topish ayniqsa muhimdir. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'tkazish variantlaridan biri – to'lov topshiriqnomalari orqali hisob-kitob qilish hisoblanadi.

To'lov topshiriqnomalari orqali hisob-kitoblar – naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'lib, bunda to'lovchi unga xizmat ko'rsatadigan bank muassasasiga o'zining hisobvarag'idan mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga muayyan summani o'tkazish haqidagi topshiriqni o'z ichiga oladigan hisob-kitob hujjatini taqdim qiladi. SHunday qilib, hisob-kitobning bunday shaklini amalga oshirish uchun banklar o'rtasida vakillik aloqalari Yoki hamkorlik qilish uchun potentsial imkoniyat mavjud bo'lishi kerak va korxonalar, odatda, doimiy tarzda amal qiladigan o'z hisobvarag'iga ega bo'lishi lozim. SHuni qayd qilish kerakki, bunday uslub korxonalarga pul mablag'larini o'tkazish shartlari va ularning muddatlari xususida banklarni bu ishga aralashtirmasdan o'zaro kelishib olish imkoniyatini beradi. Masalan, bitim qatnashchilari tovarni etkazib berishdan keyin haq to'lash Yoki tovarning xaridorga bevosita etib kelishigacha, shuningdek, bitim imzolanishi hamon haq to'lash to'g'risida kelishishlari mumkin. Bu shu bilan bog'liqki, bank sheriklarning harakatlarini nazorat qilmaydi, balki o'z mijozining pul mablag'larini uning bevosita topshirig'iga binoan ko'rsatilgan hisobvaraqa o'tkazadi.

Lekin shunga qaramasdan, to'lovning ushbu turini amalga oshirishga nisbatan muayyan talablar ham amal qiladiki, ular bankning harakatlarini va ushbu hisob-kitob uslubi Yordamida to'lovni amalga oshiruvchi biznesdagi sheriklarning xohish-istaklarini tartibga soladi. To'lov topshiriqnomalari orqali hisob-kitoblar haqidagi asosiy qoidalar quyidagichadir:

1) to'lov topshiriqnomalari orqali hisob-kitoblarda bank to'lovchining topshiriqnomasi bo'yicha hisobvaraqa turgan mablag'lar hisobiga to'lovchi ko'rsatgan shaxsning ushbu Yoki boshqa bankdagi hisobvarag'iga qonunda ko'rsatilgan muddatda Yoki mabodo bank hisobvarag'iga doir shartnomaga binoan Yoxud bank amaliyotida qo'llaniladigan amaliy aylanish odatlariga ko'ra birmuncha qisqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa qonunga ko'ra belgilangan muddatlarda muayyan pul summasini o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;

2) ushbu paragraf qoidalari, mabodo qonunga ko'ra Yoki qonunga binoan belgilangan bank qoidalariga muvofiq boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa Yoki munosabatlar mohiyatidan boshqacha qoida kelib chiqmasa, pul mablag'larini ushbu bankda hisobvaraqa ega bo'lmagan shaxsning bu bank orqali o'tkazishi bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi;

3) to'lov topshiriqnomalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi qonun bilan Yoki qonunga binoan belgilangan bank qoidalariga va bank amaliyotida qo'llaniladigan amaliy aylanish odatlariga ko'ra tartibga solinadi.

Bu o'rinda shuni qayd qilish kerakki, bu to'lovni amalga oshirish muddatlarini belgilaydigan normalar turli mamlakatlarda qaror topgan an'analarga muvofiq turlicha bo'lishi mumkinki, bu xorijlik kontragentga to'lovni amalga oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

To'lov talabnomalari-topshiriqnomalari Yordamidagi hisob-kitob iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning yana bir uslubi hisoblanadi. Ushbu hisob-kitob shakli kamida uchta sub`ekt: etkazib beruvchi, xaridor va ushbu sub`ektlar o'rtasidagi hisob-kitobni amalga oshiradigan bankning mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bundan tashqari, agar korxonalar turli banklarning xizmatlaridan foydalanadigan bo'lsa Yoki hududiy jihatdan turli mamlakatlarda joylashgan bo'lsa, unda sub`ektlar-bitim qatnashchilari soni pul mablag'larini etkazib beruvchining bankiga etkazish uchun zarur banklar soniga ko'payadi.

Hisob-kitoblarning bu shakli shuni nazarda tutadiki, bank bitim qatnashchilari o'rtasidagi shartlarning barcha jihatlari ko'rsatilgan hujjatlarga ega bo'ladi. SHunday qilib, korxonalar bankka oddiy topshiriqnomani berishdagi kabi haq to'lash muddatlarini tanlashda unchalik erkin bo'lishmaydi. Bunday holda bitimga doir muayyan kafolat afzallik hisoblanadi, chunki bank odatda ushbu bitimning imkoniyatlarini tekshiradi va to'lovni eng qulay tarzda amalga oshiradi: etkazib beruvchi bilan to'lovchi o'rtasidagi rasmiylashtirilgan shartnomaga binoan naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli – to'lov talabnomalari-topshiriqnomalarini rasmiylashtiradi.

Ushbu operatsiyani bajarishda bank samaradorligining katta rol' o'ynashi natijasida bank xatolaridan himoyalani bo'yicha muayyan tizim qaror topadi. Bunday tizim mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha bank operatsiyalarini nazorat qilish va noinsoflikdan himoya qilish uchun zarur. Bank Fuqarolik kodeksiga muvofiq topshiriqnomaning ijro etilmasligi Yoki lozim darajada ijro etilmasligi uchun quyidagicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi:

1) bank mijozning topshirig'ini ijro qilmaganida Yoki lozim darajada ijro qilmaganida qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha va miqdorlarda javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

2) mijozning topshirig'i ijro qilinmasligi Yoki lozim darajada ijro qilinmasligi hollari to'lovchining topshirig'ini ijro etish uchun jalb etilgan bank hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini buzganligi bilan bog'liq bo'lgan hollarda, buning uchun javobgarlik sud tomonidan shu bank zimmasiga yuklanganida;

3) agar bankning hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini buzishi pul mablag'larining noqonuniy ushlab qolinishiga olib kelsa, unda bank qonunda nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda foizlarni to'lashi shart.

SHunday qilib, bank o'z majburiyatlarini bajarmagan, deb e'tirof qilinishi mumkin va bunday holda pul mablag'larini qaytarilishini Yoki zararining o'rnini qoplashni kafolatlaydi.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblar

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning eng ko'p qo'llaniladigan shakllaridan biri inkasso bo'yicha hisob-kitoblardir. Bunday shakl kamida uchta iqtisodiy kontragent: xaridor, sotuvchi va ushbu operatsiyani amalga oshiradigan tijorat bankining mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Agar xalqaro bitim (ya'ni, turli mamlakatlarga mansub kontragentlar qatnashuvchi bitim) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda hisob-kitobning bu uslubi tanlangan bo'lsa, unda mazkur operatsiyani bajarish jaraYonida, odatda, ikkita bank: eksportchi banki va importchiga xizmat ko'rsatuvchi bank ish olib boradi.

Inkasso operatsiyasining amalga oshirilishida bank o'z mijozining topshirig'iga ko'ra uning biznes bo'yicha sherigidan yuklab jo'natilgan tovar Yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni oladi. Bank bu mablag'larni eksportchining hisobvarag'iga o'tkazadi. Ushbu hisob-kitoblarning amalga oshirilishi uchun iqtisodiy kontragentlar muayyan tovarlarni tovar xaridorining manziliga yuklab jo'natishga doir bitimni tuzishi zarur. SHundan so'ng sotuvchi o'ziga xizmat ko'rsatadigan bankka bu bitimni tasdiqlovchi va bankni iqtisodiy kontragentlar tuzgan bitimning muddatlari, shartlari va hajmlari haqida xabardor qiladigan hujjatlarni taqdim etadi. Bankka taqdim etilishi zarur bo'lgan hujjatlarning muayyan turkumi mavjud. Bunday ro'yxat aniq bankning talablariga va shu davlat bank tizimining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Turli banklar hududida joylashgan bir necha banklar haq to'lashni amalga oshirishida boshqa davlatdagi banklar qo'yadigan talablarni hisobga olish zarur. Bunday talab shu bilan bog'liqki, ushbu inkasso operatsiyasini o'tkazishning navbatdagi bosqichi xaridor banki bilan sotuvchi banki o'rtasida tegishli hujjatlarning berilishidan iborat. SHundan keyin xaridor banki hujjatlarga muvofiq summani sotuvchi bankiga o'tkazadi, sotuvchi banki pul mablag'larini bevosita tovarni sotuvchining hisobvarag'iga o'tkazadi.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblar ikki turda: oddiy inkasso va hujjatli inkasso bo'ladi.

Oddiy inkasso to'lovning shunday tizimiki, unda to'lovning undirilishi inkasso shartlari asosidagi bitimning tuzilganligini tasdiqlaydigan moliya hujjatlari olinganida amalga oshiriladi.

Hujjatli inkasso to'lovning oluvchiga haqi to'langan tovarning etkazib berilishi yuzasidan ayrim kafolatlar beriladigan tizimga kiradi. Bunday kafolatlar to'lovning o'tkazilishi amalga oshirilishida faqat inkasso shartlari asosidagi bitimning tuzilganligini tasdiqlaydigan tegishli hujjatlar va yuk bilan birga yuboriladigan tijorat hujjatlari olinganida beriladi. SHunday qilib, inkasso bo'yicha hisob-kitoblarning amalga oshirilishi shartlari amaliy sheriklarning bir-biriga ishonishi darajasiga qarab o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari, tovarning o'ziga xos xususiyati ham faqat tovar yuk bilan birga yuboriladigan hujjatlar xaridorga etib kelganidan keyin to'lashning ob'ektiv zarurligini keltirib chiqarishi mumkin. Bu ushbu tovarni saqlash muddatlarining cheklanganligi va tashish sharoitlarining og'irligi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, tovar etkazib beriladigan Yo'l o'tadigan hududda jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lganida shunday qilinishi mumkin.

Banklararo hisob-kitoblar

Banklararo hisob-kitoblar moliya tizimida asosiy o'rin tutadi, chunki ko'pchilik moliya operatsiyalarini amalga oshirish va iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi hisob-kitoblarning barcha shakllarini o'tkazishga imkon beradi. Holbuki, banklararo hisob-kitoblar Yopiq tizim hisoblanadi, chunki ularga mustaqil tashkilotlar sifatidagi banklarning tijorat siriga rioya qilish zarurati yuklanadi.

Milliy iqtisodiyotlar integratsiyasining o'sib borishi va turli mamlakatlarga mansub va har xil banklar xizmat ko'rsatadigan sheriklar o'rtasidagi bitimlar sonining ko'payishi sababli jahon valyuta bozorida banklararo hisob-kitoblarning yagona tizimini shakllantirish zarurati oshmoqda.

Bugungi kunda banklararo hisob-kitoblarning global tizimi joriy etilmoqda. Yangi tashkil etilgan tizimdagi markaziy rol' dunyoning 36 ta etakchi banklari

ta`sischilari bo'lgan N'yu-Yorkda maxsus ta`sis etilgan «uzluksiz bog'langan hisob-kitoblar» banki zimmasiga yuklangan. Yangi hisob-kitob markazi ettita markaziy bank, AQSH Federal zaxira tizimi, Evropa markaziy banki, Tokio banki va Angliya banki bilan bevosita bog'langan. Bunday tizim valyutaning oldi-sotdi operatsiyalariga doir hisob-kitoblar vaqtini 5 soatgacha qisqartiradi. U jahon bozoridagi valyuta savdosining an`anaviy sxemasi o`rnini bosadi: eski sxemaga ko`ra boshqa mamlakat valyutasiga oid bitimlar bo'yicha barcha hisob-kitob operatsiyalariga vakil-bank vositachiligida 2 kunga yaqin muddat talab qilinardi.

Banklararo hisob-kitoblar nafaqat xalqaro operatsiyalarda, shu bilan birga mamlakat ichidagi operatsiyalarda ham muhim bo'g'in hisoblanadi. Banklararo hisob-kitoblarga zarurat boshqa banklar bilan o'zaro ishlarni maksimal qisqa muddatlarda amalga oshirishga imkon beradigan dasturiy ta`minotga ehtiyojni shakllantiradi. SHakllantirilaYotgan kichik tizimlar to'lovni ishlash bosqichiga muvofiq keladigan hisob amallarining bajarilishini o'z ichiga oladigan erkin formatdagi elektron to'lov hujjatlari bilan almashinish uchun vositalarni beradi.

Asosiy funktsional imkoniyatlari:

- 1) ko'p valyutali ish rejimi;
- 2) milliy va chet el valyutalaridagi hisob-kitoblar uchun vakil-banklar bildirgichini yuritish;
- 3) har bir xabarning parametrlarini sozlash imkoniyatiga ega xabarlar shakllari bildirgichini yuritish;
- 4) ko'pgina mintaqalar va MDH mamlakatlari XKMLari formatlaridagi xabarlar bilan almashinish;
- 5) SWIFT(Payments, ing. SWIFT-Society for World-Wide Interbank Financial Telecommunications)-to'lovlarni pozitsiyalashtirish formatlarida xabarlar bilan almashinish;
- 6) jo`natilgan va qabul qilingan to'lov hujjatlarini vakillik hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmalari bilan birga avtomatik va qo'lda kvitovkalash;

- 7) tranzit to'lovlar bilan ishlash;
- 8) komissiyalar summalarini avtomatik belgilash;
- 9) buxgalterlik o'tkazmalarini avtomatik shakllantirish;
- 10) hisobga olish operatsiyalarini to'lovlar bilan ishlash bosqichlari bo'ylab joylashtirish;
- 11) barcha buxgalterlik o'tkazmalarini ko'zdan kechirish;
- 12) vakillik hisobvaraqlari va pozitsiyalar hisobvaraqlari holatini nazorat qilish;
- 13) kirib keladigan va chiqib ketadigan to'lovlar arxivini yuritish;
- 14) xabarlar eksporti va importi seanslari jurnalini yuritish.

SHunday qilib, banklararo hisob-kitoblar hisob-kitob va o'tkazish operatsiyalarini tartibga solish va takomillashtirish yuzasidan banklar o'rtasidagi o'zaro amal qilish tizimi hisoblanadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish istiqbollari.

Iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi hisob-kitoblarning pul mablag'larini o'tkazishning naqd pulsiz tizimlari Yordamida amalga oshirilishi bir qator Yorqin afzalliklarga ega bo'lib, ulardan biri ushbu operatsiyani pul mablag'larini tashishga ortiqcha xarajatlar sarflamasdan ancha tez o'tkazishdan iborat. Dinamik rivojlanaYotgan bozor naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish sifatini oshirishni va bunday operatsiyani o'tkazish tezligini pasaytirishni talab qiladi. Nafaqat yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi va shu tariqa bevosita tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lgan banklar, shu bilan birga jismoniy shaxslar o'rtasida pul mablag'larining naqd pulsiz o'tkazilishini amalga oshiruvchi bank tashkilotlari ham bunday ehtiYojlarni tobora ko'proq hisobga olishi kerak bo'lmoqda.

Mamlakatimizdagi bunday ehtiYoj o'z faoliyatini yuridik shaxsni tashkil etmasdan yurituvchi tadbirkor sifatida ish olib boraYotgan tadbirkorlar sonining o'saYotganligi va o'zining pul mablag'larini nafaqat saqlash, shu bilan birga pul mablag'larini o'tkazish jaraYonlarini faollashtiraYotgan aholining daromadlari

darajasining oshaYotganligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, chegaralarning ochilishi iqtisodiy sub`ektlarning butun dunYo bo'ylab faol ko'chib yurishiga sabab bo'ladiki, bu chet ellardagi banklar bilan vakillik munosabatlarini Yo'lga qo'yish zaruratini keltirib chiqaradi.

Natijada naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimida ikkita printsiptial muhim vazifa shakllanadi:

- 1) naqd pulsiz operatsiyalarni o'tkazish muddatlari hajmining kamayishi;
- 2) potentsial sheriklar sonining ko'payishi.

Bunday vazifalar asosan zamonaviy texnika yutuqlarini qo'llanib hal etiladi, ixtisoslashgan va hamma foydalanishi mumkin bo'lgan elektron aloqa tizimlari ana shunday yutuqlarga kiradi.

Turli xildagi aloqa tizimlari vujudga kelmoqda va faol ishlamoqdaki, ular axborotlarni shunchaki uzatib qolmasdan, bunday axborotlarni barcha zarur himoya vositalari bilan birgalikda etkazishga imkon beradi. 1963 yildan beri SWIFT(SWIFT-Society for World-Wide Interbank Financial Telecommunications) hisob-kitob tizimi amal qiladi. Bu tizim butunjahon banklararo tizimi bo'lib, unda banklar o'rtasidagi moliyaviy operatsiyalar nisbatan xavfsiz amalga oshirilishi mumkin. SHuni hisobga olish kerakki, bu tizimdan tashqari hozirgi vaqtda ko'pgina bank operatsiyalari bevosita Internet tarmog'ida bajarilishi mumkin. Internetda bitimlarni amalga oshirishdagi minus jihatlardan biri undan hammaning ham foydalanishi mumkinligi va tijoratchilik siriga rioya qilinadigan qandaydir maxfiy fayllarni o'rnatib bo'lmasligidir. SHundan kelib chiqib, Internet global tarmog'i vositasida bitimlarning tuzilishini o'tkazishda tegishli axborotning kodlashtirilishi tijoratchilik sirini himoyalashning eng istiqbolli usuli bo'ladi. Bunday usul aloqa kanali har qanday darajada ochiq bo'lganida ham har qanday hajmdagi axborotlarni shifrlashtirish va ularni o'z sherigiga etkazishga imkon beradi.

Naqd pullik aylanish tushunchasi

Iqtisodiyotda amal qiladigan umumiy to'lov aylanishining tarkibiy qismlaridan biri naqd pullik aylanish hisoblanadi. Ko'pincha pul mablag'lari aylanishining bu qismini pul muomalasi deyiladi.

Pul muomalasi pul aylanishining naqd pul mablag'larining muomalasi, pul belgilarining bir yuridik va jismoniy shaxslardan boshqa shaxslarga doimiy tarzda o'tib yurishi bilan bog'liq qismidir. Boshqacha aytganda, bu iqtisodiy sub`ektlar o'rtasidagi pullar muomalasi jaryonining faqat naqd shaklda bo'ladigan qismidir. Naqd pul aylanishi, odatda, tovarlar va xizmatlarga haq to'lanishi ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, boshqa tijoratchilik bitimlarining tuzilishi va ularga haq to'lanishi jaryonlari bilan bog'liq emas. Boshqacha aytganda, naqd pul aylanishi jaryonida har safar mablag'larning nisbatan kichik summasi qatnashadi. Bu qo'shimcha kafolatlarning ta'minlanishi, pul mablag'larining yirik summalarini bir xo'jalik yurituvchi sub`ektdan boshqa sub`ektga o'tkazishdagi tashishning murakkabligi va transaktsion xarajatlarni tejashning zarurligi bilan bog'liqdir. SHunday qilib, naqd pullar muomalasi iqtisodiyot sub`ektlarining maishiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan tovar almashinishi jaryonini pul mablag'larining nisbatan kichik summasini ishlatgan holda ta'minlaydi. Odatda, pul aylanishining ushbu tipi xizmatlar uchun haqni bevosita u yoki boshqa tashkilotning kassasiga to'laydigan uy xo'jaliklari va kichik korxonalarda asosiy o'rin tutadi. Har bir kishi naqd pul aylanishi bilan bog'liq, chunki hamma ham har kuni naqd pul belgilari yordamida tovarlar va xizmatlar uchun haq to'lab turadi. Iqtisodiyotning boshqa sub`ektlari pul aylanishining ushbu tipidan juda kam foydalanishadi va, odatda, bunday tip faqat faol qo'llaniladigan naqd pulsiz aylanishga qo'shimcha shaklida amal qiladi.

SHuni qayd qilish kerakki, naqd pullik aylanish bir qator afzalliklarga ega:

- 1) mablag'larning tez etkazib berilishi;
- 2) hisob-kitoblarning o'tkazilishi to'g'riligini zudlik bilan tekshirish mumkinligi;
- 3) mavjud resurslar miqdori yuzasidan aniq axborotning mavjudligi;

4) qarzlarning paydo bo'lishi imkoniyatining istisno qilinishi.

Bundan tashqari, ushbu hisob-kitob vositasining to'lov aylanishining umumiy tarkibidagi ulushi iqtisodiy tizim rivojlanganligining Yorqin ko'rsatkichi hisoblanadi. Masalan, natura xo'jaligi hukmronlik qilganida naqd pullik hisob-kitoblar kichik ulushni egallaydi va hisob-kitobni amalga oshirishning ushbu turining o'sib borishi bozor iqtisodiyotiga o'tish va tovar iqtisodiyotidan uzoqlashishdan dalolat beradi. Bozor iqtisodiyoti hukmronlik qilganida hisob-kitobni amalga oshirishning bu turi eng ustun o'rinni egallamasa-da, lekin to'lov vositalaridan foydalanishning umumiy hajmining katta qismini tashkil etadi. Va, nihoyat, postindustrial iqtisodiyotga o'tishda naqd pul mablag'lari aslida iqtisodiyotda amal qilmay qo'yadi, ularning o'rnini hisob-kitoblar hamma joyda elektron pul vositalaridan foydalanish orqali bajariladigan naqd pulsiz shakl egallaydi. SHunday qilib, hozirgi vaqtda mamlakatlarning ko'pchiligi iqtisodiy kontragentlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirishning bu shaklidan sekin-asta voz kechish jaraYonini boshdan kechirishmoqda.

Iqtisodiyotda naqd pullar aylanishini tashkil qilish tamoyillari va naqd pullar oqimlari harakatining sxemasi

Naqd pul aylanishini tashkil qilish aslida moliya tizimining qurilishi bilan chambarchas bog'liq. Masalan, hisob-kitob vositalari ushbu shaklining to'liq faoliyat yuritishi uchun nafaqat bu to'lov vositalaridan foydalanishga tayyor bo'lgan sub`ektlar mavjudligi, shu bilan birga buni amalga oshirishga imkon beradigan muayyan tuzilma ham zarur bo'ladi. Xususan, naqd pul mablag'lari emissiya qilinishi (bosilishi) kerak. Odatda, emissiya jaraYonida har bir pul belgisiga nafaqat muayyan tashqi ko'rinish, shu bilan birga soxta belgilar yasalishidan himoyalash uchun o'zining himoya vositalari qo'yiladi. Bunday himoya vositalari ikki xildagi ahamiyatga ega. Bir tomondan, ular bank uchun ortiqcha, unga mansub bo'lmagan pul belgilarining paydo bo'lmasligiga kafolat bo'ladi, boshqa tomondan – iqtisodiy sub`ektga haqiqiy pul belgilarini soxta belgilardan ajratib faqat haqiqiy pul belgilaridan foydalanish imkonini beradi.

SHundan keyin naqd pul aylanishini tashkil etish uchun emissiya tizimining barcha bo'g'inlari: markaziy bank va hisob-kitob-kassa markazlarining (Yoki naqd pul mablag'larini aylanishga chiqarishga imkon beradigan boshqa tuzilmalarning) amal qilishi zarur.

Naqd pullar aylanishining amal qilishiga doir quyidagicha asosiy tamoyillar ajratib ko'rsatiladi:

- 1) moliya muassasalari-emitentlarning mavjudligi;
- 2) bozor qatnashchilarining mablag'larni sarflash yuzasidan iqtisodiy erkinligi;
- 3) ta`sis etilgan milliy pul birligining amal qilishi;
- 4) nazorat qiluvchi organlar oldida tushumlar va xarajatlar hajmlari uchun hisobotchilikni amalga oshirish mumkinligi;
- 5) pul mablag'lariga egalik qilishning legitimligi.

Naqd pul mablag'larining to'laqonli aylanishi imkoniyatiga ega bo'lish uchun iqtisodiy tizim rivojlanishning muayyan darajasiga erishgan bo'lishi kerak. Xo'jalikda naqd pullar oqimlari harakatining muayyan kanallarini ajratish mumkin:

1) pul mablag'larining markaziy bankdan mintaqalardagi hisob-kitob-kassa markazlariga va u erdan yana markaziy bankka ko'chirilishi. Bunday ko'chirish pul mablag'larini emissiya qilish, ularni muomaladan olib qo'yish Yoki yaroqsiz holga kelgan kupyuralarni yangilari bilan almashtirish jaraYonlarini amalga oshirish zarurligi bilan bog'liq;

2) pul mablag'larining hisob-kitob-kassa markazlari kassalaridan banklarga Yoki korxonalar kassalariga ko'chirilishi. Bu ish haqini naqd pullar bilan berish Yoki boshqa operatsiyalarning bajarilishi bilan bog'liq. Odatda, bunday ko'chirishdan oldin ushbu tashkilotlarning hisobvaraqlari bo'yicha pul mablag'larining naqd pulsiz o'tkazilishi amalga oshiriladi;

3) pul mablag'larining korxonalar kassalari, banklar va boshqa muassasalardan iqtisodiyotning boshqa sub`ektlariga: uy xo'jaliklariga ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar, nafaqalar Yoki korxonalariga xizmatlar, tovarlar uchun haq to'lash sifatida ko'chirilishi;

4) naqd pul mablag'larining tovarlar sotib olinganligi Yoki xizmatlar ko'rsatilganligi, shuningdek, muayyan moliyaviy operatsiyalarning (birjadagi o'yin, sug'urtaning xarid qilinishi, xususiy pensiya fondlariga ajratmalar va hokazo) o'tkazilganligi munosabati bilan uy xo'jaliklaridan korxonalar va muassasalarga ko'chirilishi;

5) naqd pul mablag'larining resurslarning qayta taqsimlanishi, ularning oilaning turli a`zolari o'rtasida yanada samarali foydalanilishi uchun bir xo'jalik ichida ko'chirilishi.

Pul tizimi pul muomalasini tashkil etishning tarixiy jihatdan qaror topgan va qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan shaklidir. Boshqacha aytganda, bu pul muomalasining aniq bir mamlakatda muayyan vaqt ichida qo'llaniladigan qoidalari va normalari majmuidir.

Milliy valyuta tizimi pul tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Pul mablag'lari iqtisodiyotda amal qiladigan shaklga qarab pul mablag'larining ikki tipi: metall pullar muomalasi tizimi va pul belgilari muomalasi tizimi farqlanadi.

Metall pullar muomalasi tizimlari pullik tovar (oltin va kumush) bevosita muomalada bo'lgan sharoitda amal qilgan. Bunda mazkur metall pullarning barcha funksiyalarini bajargan, mavjud kredit pullar esa metallga erkin almashtirilgan.

Metall pul belgilarining muomalasi tizimida bimetallizm davri va monometallizm davri farqlanadi. Bunday holda bimetallizm iqtisodiy jaryonlarda ikkita asl metallarning bir vaqtda foydalanishi bilan tavsiflanadi, monometallizm esa umumiy ekvivalent sifatida bir metallga o'tishni anglatadi. Bunda bimetallizm holatida quyidagicha xillar ajratib ko'rsatiladi:

1) parallel valyuta tizimi – oltin bilan kumush o'rtasidagi o'zaro nisbat bozorda stixiyali ravishda belgilanadi;

2) qo'shaloq valyuta tizimi – ikki metall o'rtasidagi o'zaro nisbat davlat tomonidan ushbu metallarga bo'lgan talabga, shuningdek, ushbu davlatdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga qarab belgilanadi;

3) nuqsonli valyuta tizimi – metallar iqtisodiy tizimda mavjud bo'ladiyu, lekin teng huquqlarga ega bo'lmaydi. Odatda, davlat kumush valyutaning zarb qilinishi va foydalanishiga cheklashlar kiritadi.

Faqat bir metallning amal qilishi tizimi sifatidagi monometallizm ham ayrim o'zgarishlar yuz berdi:

1) oltin tangali standart – to'laqonli oltin valyutaning amal qilishi, unda tovarlarning qiymati ham ushbu valyuta bilan hisoblanadi;

2) oltin Yombili standart – oltin muomalada bulmaydi, lekin unga katta miqdorlardagi (Yombi miqdorida) almashinish amalga oshiriladi;

3) oltin valyutali (oltin devizli) standart – pullarning almashinishi faqat oltin Yombili standartli mamlakatlarning valyutalariga amalga oshiriladi.

Hamma ko'rinishlardagi oltin standartning bekor qilinganidan keyin kredit belgilari muomalasi tizimi o'rnatiladi va **Bretton-Vudc** va **Yamayka tizimlari** izchillik bilan shakllantiriladi. Asosiy farq potentsial oltin tarkibga ega valyutalarning bilvosita aloqasining idrok etilishidadir. **Bretton-Vuds tizimi** yana oltin zaxiralarining nominal rolini ham hisobga oladi va xalqaro hisob-kitoblarda oltinga ekvivalent rolini bag'ishlaydi, **Yamayka tizimi** esa oltin metallga nisbatan har qanday bog'lanishni mutlaqo inkor qiladi. Pullar bo'yicha o'zaro munosabatlarning yangi tizimi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) o'zlashtirish bo'yicha maxsus huquqlarning (O'MH) jahon pullari va jahon hisobga olish birligi sifatida e`lon qilinishi;

2) O'MH kursini hisob-kitob qilish tizimida AQSH dollarining katta rol' o'ynashi;

3) oltin o'zining pullik rolini butunlay Yo'qotadi, lekin davlatning zaxirasi va boshqa mamlakatlarning valyuta birliklarini sotib olish usuli sifatida qoladi.

Qisqa hulosalar.

Pul - bu shunday maxsus tovar, u hamma boshqa tovarlar uchun ekvivalent vazifasini bajaradi. Pul umumiy tovarlarni ayirboshlashda asosiy vazifani bajaradi.

Tijorat banklar tomonidan o'z mijozlariga beradigan kreditlar iqtisodiyotda yangi pulni yaratishga ya'ni naqd pul xajmini ko'payishiga olib kelmaydi. Lekin tijorat banklarida o'z majburiy zaxiralari orqali mamlakatdagi muomalada mavjud bo'lgan naqd pul xajmini o'zgarishga ta'sir eta oladi.

Pul massasini o'lchov ko'rsatgichlari bo'lib pul agregatlari hisoblanadi.

Har bir mamlakatdagi pul agregatlari soni hamda ularning tarkibi mamlakatdagi kredit tizimiga va uning moliya bozorini rivojlanishi bilan belgilanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul nima?
2. Pul funktsiyalari va ularga tavsif.
3. Pul mul'tiplikator qanday hisoblanadi?
4. Pul massasi va uning tuzilishi.
5. Pul tizimlari, turlari va ularning elementlari.
6. Pulning nominal nazariyasi nima?
7. Jamg'arma nima?
8. Barter nima?
9. Pul nazariyasi nimadan iborat?
10. Pul agregatlari va ularni tuzilishi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari.-T.: "O'zbekiston", 2009. 56 b.
2. Don Patinkin. Dengi, protsent i tseni. –M.: Ekonomika, 2004. – 375 str.
3. Milyakov N.V. Finansi. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2004. – 543 str.
4. Molyakov D.S., SHoxin E.I. Teoriya finansov predpriyatij. Ucheb. posob. – M.: FiS, 2001. – 300 str.

5. Rashidov O.YU. va boshqalar. Pul, kredit va boshqalar.-T.: «Maxptint». 2008. 454 b.

6. Sviridov O.YU. Finansi, denejnoe obraçenie, kredit. Ekspress spravochnik dlya stud. vuzov. –M.: IKTS Mart, Rostov n/D. izd. Sentr Mart, 2004. – 179 str.

II-BOB. KREDIT NAZARIYASI

1.1. Kredit zarurligi va moxiyati

Jamiyat faoliyatining uta muxim jixati - bu ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish jaraYonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi, maxsulotlar va xizmatlardan iborat xaYotiy ne`matlar yaratiladi.

Ishlab chiqarish jaraYonining uzluksizligini moddiy va mexnat omillari ta`minlaydi. Ishlab chiqarish bu omillar bilan xar doim ham bir tekisda ta`minlana olmaydi.

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi va fondlarning bir marta aylanishidagi kiymatning xarakati kiska muddatli kredit munosabatlari paydo bo`lishining iqtisodiy asosidir.

Bizga ma`lumki, pul mablag`lariga kup xollarda kreditlarga olingan mablag`lar, korxonalarining hisob varakasida mablag`lar va nakd pullar, aylanma mablag`lar va moliyaviy mablag`lar kiradi.

Bu iqtisodiy kategoriyalar tashki tomondan uxshagani bilan, ularni ichki xususiyatlari juda xilma-xil va bir-biriga uxshamaydi.

Kredit-bu vaqtincha bush turgan pul mablag`larini ma`lum muddatga, xak tulash sharti bilan qarzga olish va kaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yigindisidir.

Kredit Yordamida tovar - moddiy boyliklari, turli mashina va mexanizmlar sotib olinadi, iste`molchilarni mablag`lari etarli bulmagan sharoitda to`lovni kechiktirib tovarlar sotib olishlari va boshqa xar-xil to`lovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

Kredit iqtisodiy kategoriya bo`lib, ishtimoiy munosabatlarning anik bir ko`rinishi sifatida yuzaga chikadi.


Kredit xar kandy ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish maxsuli, qiymatning xarakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o`rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir.

Kreditning moxiyati uning ichiki beliglarini ochib berishga karatilgan. Kreditning moxiyatini ochish - bu uning sifatlarini, kreditning muxim tomonlarini, uning iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida kursatuvchi asoslarni bilish demakdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning moxiyati kuppina iqtisodchi olimlar tomonidan urganilib chikilgan va ular tomonidan kreditning moxiyati buyicha fikrlar bildirilgan.

Kreditning moxiyatini tushunish uchun avvalom bor, uning tarkibi nimadan iborat ekanligini tushunib olish zarur. Kredit munosabat bo`lishi uchun uning zarur munosabatlari - kreditning ob`ekti va sub`ektini bilish zarur.

1-chizma⁴.



Respublikamizning kuzga ko`ringan olimalaridan biri SH. Abdullaeva uzining "Pul, kredit va banklar"⁵ nomli kitobidan kredit munosabatlarida sub`ektlari ikki xil bo`lishini kursatib utadi:

kredit (qarz beruvchi)

⁴ Ш.З. Абдуллаева. "Пул кредит банклар". Тош.: "Молия" -2000 й. 121 бет.

⁵ Ш.З. Абдуллаева. "Пул кредит банклар". Тош.: "Молия" -2000 й. 121 бет.

qarzdor

Bundan tashkari, kredit kredit munosabatlari tarkibining elementi sifatida kreditning ob`ekti yuzaga keladi.

Bunda qarzga berilgan mablag' uz qiymatini saklab kolishi kreditning asosiy xususiyati hisoblanadi. Kredit tarkibi uning elementlari birligini ifodalaydi.

Kreditning xarakat bosqichlari ham uni muxim belgisi hisoblanadi. Qarzga beriluvchi qiymat xarakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$B_k - O_{kz} - I_k - V_r - +_k - F_{ks}$$

B_k - kreditning berilishi;

O_{kz} - kreditni qarz oluvchi tomonidan uning vaqtinchalik extiYojini kondirish uchun olinishi;

I_k - kreditni ishlatilishi qarz oluvchining kreditni nima maksadda olinganligi bilan uzviy boglik bo'ladi;

V_r - qarz oluvchining xujaligida qarzga olingan qiymatning aylanishi tugallanishini resurslarning aylanishdan chiqarilishini ifodalaydi;

Q_k - kreditni kaytarish;

F_{ks} - vaqtinchalik berilgan qiymatni kreditor kuliga kaytib kelishi (foiz bilan).

Kredit moxiyatining taxlili uzluksiz jaraYon. Bunda taxlil jaraYonida yangidan yangi beligilar, xususiyatlar yuzaga chikishi mumkin.

2.2.Ssuda kapitali manbasi va xarakat kilish shakllari

Ssuda kapitali- bu faoliyat kursatuvchi kapital aylanishiga xizmat kiluvchi va foiz keltiruvchi ssudaga (qarzga) beriladigan pul kapitalidir.

Ssuda kapitalining manbalari- bu sanoat va savdo kapitallari aylanishi jaraYonida bush koladigan pul kapitalidir. Pul kapitalining bushashi quyidagi omillarga asosan yuzaga keladi:

- asosiy kapital oborotining (aylanishining) xarakteridan. Tovarlarini sotgandan sungen asosiy kapitalning eskirgan kismi amortizatsiya zaxirasi sifatida asosiy kapitalning yangilanish muddati kelgunga kadar yigilib turadi;

- oborot (aylanma) kapitalning doimiy kismi aylanish xarakteridan. Tayyor tovarlarini sotish va xom ashyo va materiallarini yangi tovarlar ishlab chiqarish maksadida xarid qilish oraligida ma`lum bir muddat utadi. SHuning uchun tayyor tovarlarini sotishdan tushgan pul tushumi vaqtinchalik bosh pul kapitali sifatida bosh bo`lib koladi;

- tovarlarini sotish davri (vaqti) bilan shu xakini tulashtirish davri orasidagi vaqtinchalik uzilishning mavjudligi;

- ishlab chiqarish hajmini kengaytirish talablarini darajasida zarur bulgan pul shaklidagi kushimcha qiymatni jamg`arish (yigish) zarurati va boshqa xolatlar.

SHunday kilib vaqtinchalik pul kapitalining boshashi ob`ektiv zaruriyatdir. Birok bunday xolda bekor turadigan pullar doimiy xarakatda bo`ladigan kapital qiymatini talabiga qarshi ishtirok etadi. Bunday karama-karshilik kreditlarini berish orqali xal kilinadi, ya`ni vaqtinchalik bulmaydigan pul kapitalini qarzga beriladi.

2.3.Kreditning asosiy funktsiyalari va tashkil kilish asoslari

Xar kandy iqtisodiy kategoriya uzining funktsiyalariga ega bulgani kabi kredit ham uzining bir kator funktsiyalariga ega. Ijtimoiy iqtisodiy tizimida kreditning urni va roli u bazarayotgan funktsiyalari bilan ianiklanadi. Kreditning funktsiyasi - bu kreditning iqtisodiyotda faoliyatning muayan ravishda namoyon bo`lishidir.

Kreditni taxlil kilishda, uning funktsiyasi mohiyati va roli o`rtasidagi oralik bugun sifatida kurib chikiladi.

Kredit tomonidan bajariladigan funktsiyalar turli adabiyotlarda turlicha beriladi. Kungina adabiyotlarda kreditning 4ta funktsiyasi kursatilgan va asoslangan bo`lib ular quyidagilar:

- kapitallarni kayta taksimlash va foyda normasini tekislash (tenglashtirish);

- muomala xarajatlarini tejash;
- kapitalni markazlashuvi;
- kapitalni yigilishi va jamgarish funksiyasi.

Birok boshqa kurgina kitoblarda kreditning boshqa 4ta funksiyasi kursatilgandir.

Bu funksiyalar;

- kayta taksimlash funksiyasi;
- kayta takror ishlab chiqarish funksiyasi;
- muomaladagi xakikiy nakd pul mablag'larini kredit muomala vositalari bilan almashtiradi;
- rag'batlantirish funksiyalaridir.

Bu yuqorida ko'rib utilgan funksiyalar Yordamida kredit mamlakatdagi taksimlangan va bush turgan moddiy va pul mablag'lari uz egalaridan vaqtinchalik boshqa mulk egalariga xarakat kilishlari uchun imkon yaratadi . Kreditrning kayta taksimlash funksiyasi 2 ko'rinishda pul va tovar shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

Kreditning takror ishlab chiqarish funksiyasida esa kredit 2 xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar ularga kerakli kapital xajmini ta'minlaydi, tadbirkorlik faoliyatini olib borishiga imkon yaratiladi.

- turli korxonalariga kredit berilishi natijasida jamiyat miqyosida ishlab chiqarish uchun yaxshi va Yomon xolatlar (sharoitlar) vujudga kelishi mumkin. (sifat, tannarx, baho)

Muomaladagi xakikiy va nakd pul mablag'larini kredit to'lov vositalari bilan almashtirish funksiyasida xakikiy (oltin) pullar pul belgilari (banknotalar) bilan almashtiriladi. Bu uz navbatida davlatni qarz majburiyatini bildiradi hamda oltin kiymat belgalarini belgilaydi. SHu bilan birga nakd pul

belgilari aylanishi jaraYonida pul belgilari uz navbatida kredit muomala vositalari- veksel', chek, plastik kartochkalari bilan almashtirilishi mumkin.

Kreditning rag'batlantirish funksiyasida- kredit ishlab chiqarish va muomalaga mikro va makro darajada ta'sir kursatadi. Buning natijasida mablag'lardan tejimli foydalanishga asos yaratadi. Kredit qarz oluvchidan olgan kreditlarining samarali, daromad oladigan darajada foydalanishiga, uz vaqtida ishlatib tulik kaytarilishiga majbur kiladi.

Davlat mikiYosida esa kredit mikdorini kupaytirish Yoki kamaytirish orqali iqtisodiYotga salbiy uki ijobiy ta'sir o'tkazishi mumkin. CHunki kredit mikdorpini kamayishi, kupayishi uning ikki tomonlama ta'sirini bildiradi.

Kreditning bu funksiyalari xakida olimlar o'rtasida yagona fikr yuk.

Masalan Rossiya iqtisodchisi O.I. Lavrushinning fikricha, kreditning funksiyalarini taxlil kilishda ikkita echilmagan muammo mavjud:

funktsiyani tushunishning uslubiy asoslari;

funktsiyalarning tarkibi va strukturasi.

Kreditning tarkibiy kismidan kelib chiqqan xolda unga quyidagi munosabatlar xosdir.

kreditorning qarz oluvchi va qarzga beraYotgan kiymat bilan munosabati orqali;

qarz oluvchining kreditor va qarzga beriluvchi kiymat bilan munosabati orqali;

qarzga beriluvchi kiymat bilan kreditor va qarz oluvchining munosabati orqali.

Kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi munosabat shunday aniklanadiki, bunda kreditor qarz oluvchiga resurslarni taklif kiladi, qarz oluvchi bu resurslarni ishlatiladi va bunda qarzga beriluvchi kiymat kreditor va qarz oluvchi o'rtasida aylanadi. Bu erdan kreditning birinchi funksiyasi kelib chikadi:

Qarzga beriluvchi qiymatni vaqtincha foydalanishga berish funksiyasi.

Kredit va pul mablag'lari o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan xolda, kreditning xakikiy pullarni kredit pullari bilan almashtirish funktsiya oldinga surilgan. Lekin bu funktsiya xozirgi kunda iqtisodiy munosabatlar "saxnasidan" chikib ketgan.

Kreditning tashki muhit bilan aloqasi uning ikkinchi funktsiyasini keltirib chiqaradi.

Qayta taqsimlash funktsiyasi.

Kredit kayta ishlab chiqarish jaraYonining barcha tarmoqlariga - ishlab chiqarish, taksimlash, muomala va iste`moga xizmat kursatadi.

Qayta ishlab chiqarish jaraYoni bilan boglik xolda kredit, ishlab chiqarish, taxksimlash Yoki iste`mol jaraYonida kechadigan funktsiyalardan farkli ularok kayta taksimlash funktsiyasini bajaradi.

Bozor iqtisodiYoti sharoitida ssuda kapitali bozori vaqtincha bush turgan moliyaviy resurslarni bir faoliyat jabxasidan boshqasiga yunaltiruvchi va natijada kechadigan funktsiyasini bajaradi.

Qayta taksimlash funktsiyasi Yordamida korxonalar, tashkilotlar, davlat va shaxsiy sektorning bush pul mablag'lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, davlat va shaxsiy sektorning bush pul mablag'lari va daromadlari ssuda kapitaliga aylantiriladi va vaqtincha foydalanishga, muayyan to'lov asosida beriladi. Bu funktsiya Yordamida ishlab chiqarishdagi proporsiyalar va pul kapitali xarakati boshqarilib turiladi.

Turli tarmoqlardagi darajasiga kura, kredit iqtisodiy stixiyali makroboshqaruvchisi sifatida namoYon bo'ladi. Ba`zi xollarda bu funktsiyaning amalga oshirilishi bozor tizimiga nomutanosiblikni chukurlashuviga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday xolat MDX davlatlarida bozor iqtisodiga utish bosqichida namoYon bulmokda shuning uchun kredit tizimini davlat tomonidan boshqarishning muxim vazifalaridan biri bu iqtisodiy ustunlikni okilona tavsiflash va kredit resurslarini u Yoki bu tarmoqqa jalb kilishni ragbatlantirishdan iborat.

Muomala xarakatlarini tejash funktsiyasi.

Kredit vujudga kelishi davridan boshlab xakikiy pullarni (oltin, kumush) kredit pullari - veksellar, banknotalar, cheklar bilan almashishini ta`minlab kelgan. Lekin, oltinning monetar roli yukolishi tufayli kredit bu funktsiyasi Yordamida nakd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirib, hisob-kitoblarni tezligini va kam xarajatliligini ta`minlamokda. Kapitalning muomalada bo`lish vaqtining tejalishi uning ishlab chiqarishda bo`lish vaqtini oshiradi va bu ishlab chiqarishni kengaytirishga, foydaning ortishiga olib keladi.

Bu funktsiyaning amalga oshishi kreditning iqtisodiy moxiyatidan kelib chiqqan. Uning manbai sanoat va savdo kapitalining doiraviy aylanishi jaraYonida vaqtincha bushagan moliyaviy mablag`lar hisoblanadi. Xujalik sub`ektlari pul mablag`larining kelib tushishi va ishlatilishi o`rtasidagi vaqt buyicha fark fakatgina ortikcha mabalaglar xajmini emas, balki moliyaviy mablag`larning etishmovchiligini ham aniklab beradi. SHuning uchun korxonalar va tashkilotlarning uz aylanma mablag`larining vaqtinchalik etishmovchiligini tuldirish uchun ssudalar olish keng tarkalib borgan.

Kapital tuplanishining jadallashuvi va kontsentratsiyalashuvi funktsiyasi.

Kapital tulanishi jaraYoni iqtisodiy rivojlanishning barkarorlashuvi va xujalik yurituvchi xar bir sub`ektning uz maksadiga erishishning muxim sharti hisoblanadi. Bu ishlab chiqarishni kengaytirishga, shu bilan birga kushimcha foyda olishga qarz mablag`laridan foydalanish imkonini yaratadi. SHuni ta`kidlab utish zarurki, iqtisodiy inkiroz davrida bu resurslarning qimmatligi kupchilik xujalik faoliyati jabxalarida kapital tuplanishini jadallashtirish masalasini xal kilishda tuskinlik kiladi. SHunga karamasdan, kurib chikilaYotgan funktsiya xozirgi sharoitda rejali iqtisodiYot davrida rivojlanmagan va mablag`lar bilan ta`minlanmagan faoliyat jabxalarini moliyaviy mabalaglar bilan ta`minlash jaraYonini sezilarli tezashtiradi.

Muomala to`lov vositalarini chiqarish funktsiyasi.

Bu funktsiyaning amalga oshish jaraYonida kredit fakatgina tovar emas, balki pul muomalasining jadallashuviga, undan nakd pullarni sikib chiqarib,

to'lovlar aylanishining tezlashuviga ijobiy ta'sir kursatadi. Kredit tufayli pul muomalasi doirasiga veksellar, chek, kredit kartochkalari kabi vositalar kiritilib, nakd pulli hisob-kitoblarni nakd pulsiz operatsiyalar bilan almashtiradi. Bu esa ichki va xalqaro bozordagi iqtisodiy munosabatlar mexanizmini osonlashtiradi va tezlashtiradi. Bu masalani xalqaro etishda tijorat krediti zamonaviy tovar almashishining kerakli elementi sifatida muxim urin tutadi.

Fan texnika tarakkiyotining jadallashuvi ham kredit orqali samarali amlaga oshirilishi mumkin. Urushdan keyingi yillarda fan-texnika tarakkiyoti xar bir mamlakat Yoki aloxida xujalik yurituvchi sub`ekt iqtisodiy rivojining xalq kiluvchi omiliga aylangan. Kreditning fan texnika tarakkiyotini jadallashtirishdagi rolini fan-texnika bilan shugullanuvchi tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirishda kredit resurslari ishlatilishi mumkin. Ilmiy tadkikot ishlarini olib boruvchi markazlarning normal ishlab turishini ta`minlash uchun ham, ular faoliyatini moliyalashtirishda kredit resurslari ishlatilishi mumkin. SHuningdek, kredit innovatsion jaraYonlarda ishlab chiqarishga ilmiy tadkikot natijalarini joriy kilish va ishlab chiqarish texnologiyasini uzgartirish jaraYonlarini amalga oshirish uchun zarur.

2.4. Kreditning asosiy tamoyillari

Kredit munosabatlari iqtisodiyotda mavjud anik uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bulgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma`lum tamoyillar asosida olib boriladi. Bu tamoyillar kredit rivojlanishining birinchi bosqichida kuzga tashlangan edi. Keyinchalik esa ular umumdavlat va xalqaro kredit konunchiligida yakkol uz aksini topdi. Iqtisodiy kategoriya sifatida kredit bir necha tamoyillarga ega. Bular kreditning kaytarib berishlilik, kreditning muddatliligi, kreditning ta`minlanganligi, maksadlilik va to'lovlilik tamoyillaridir.

Kreditning kaytarib berishlilik tamoyili.

Bu tamoyil kreditning mustakil iqtisodiy kategoriya ekanligi shartidir, kaytib berishlilik kreditning umumiy belgisi hisoblanadi, kaytib berishlilik uz-uzidan

vujudga kelmaydi: u moddiy jaraYonlarga, qiymatning aylanishini tugashiga asoslanadi. Ammo doiraviy aylanishning tugashi – bu kaytarib berishi emas, fakat kaytarib berish uchun zamin tayYorlashdir. Kreditni kaytarish aylanishdan chiqqan mablag'lar qarz oluvchiga pul mablag'larining kaytarish imkoniyatini bergan takdirda kaytariladi, kaytarib berishlilik ikki Yoklama jaraYonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muximdir.

Qiymatni kaytaruvchi xarakatida xukukiy tomoni ham muximdir. Muayyan bir muddatga beriladigan qiymatga egalik xukuki kreditoridan qarz oluvchiga utmaydi.

Qarzga beriladigan qiymat fakat muayyan bir muddatgina uz egasi kulidan uzoklashadi, lekin egasini uzgartirmaydi.

Bush turgan resurslarni akkumulyatsiya kiluvchi banklar bu resurslardan uz resurslari sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablag'ning egasi bo'lib korxonona, tashkilot, aloxida shaxslar hisoblanadi.

Qaytarib berishlilik muayyan shartnomada uzining urnini topadi.

Qaytarib berishlilik ob`ektiv belgi hisoblanadi. Kreditni kaytarib berishlilik tomoni uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan, moliyadan fark kilish imkonini beradi.

Kreditdan samarali foydalanish asosidagi kaytarib berishlilik – butun bank faoliyatining markaziy punkti hisoblanadi. Kreditning bu tamoyili amaliYotda kredit va undan foydalanganlik uchun foiz summasini kredit bergan muassasa hisobiga kuchirish yuli bilan tulanadi. SHu yul bilan banklar kredit resurslarining kayta tiklanishini ta`minlaydilar. Sobik ittifok davrida markazlashgan rejali iqtisodiYot sharoitida kreditlashning «kaytarilmagan ssuda» deb ataladigan norasmiy tushunchasi bor edi. Kreditlashning bu shakli xalk xujaligining kup tarmoqlarida ayniksa kishlok xujaligi soxasida keng tarkalgan edi. Kredit davlat banki tomonidan qarz oluvchining moliyaviy axvolini hisobga olmagan xolda berilar edi. O'zining iqtisodiy moxiyatiga kura kaytarilmaydigan ssudalar byudjet subsidiyalarini kushimcha shakli sifatida namoYon bo'ladi. Bozor iqtisodiYoti

sharoitida «kaytarilmas kredit» tushunchasi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga Yot bo'lib bunday kreditning amaliyotda bo'lishi iqtisodiyot uchun juda xavfli hisoblanadi.

Kreditning muddatliligi.

Bu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni uz vaqtida kaytarib berish muddatini, ya'ni kreditning kandy muddatga berilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda shu muddatlilik tamoyiliga kura uzok va kiska muddatli kreditlarga bulinadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun kulay bulgan xar kandy vaqtda emas, balki kredit bitimida kursatilgan ma'lum muddatda kreditni kaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi xar ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muximdir. Agar kreditor foizni bilan uz vaqtida kaytarib olsa, uni egasiga kaytarish Yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni uz vaqtida kreditorga kaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan kutulishidan manfaatdor. Kreditning muddati buyicha kredit shartnomada kursatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit buyicha foiz darajasini oshirish, kreditni muddatini kiskartirish va boshqa) ni kullash mumkin. Bu choralar ham Yordam bermagan xollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xujalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklar tejimli va kayta ishlash muddatiga, ishlab chiqarilgan maxsulotni junatish muddatiga, tovarlarni sotish muddatiga va pirovard natijada aylanma fondlarning doiraviy aylanishining tezligiga boglikdir.

Kreditning ta'minlanganligi.

Bu ta'moyil Yordamida xalk xujaligining rivojlanishida kiymat va moddiy ishlab chiqarish o'rtasida bo'lishi zarur bulgan proportsiyalarning bir meYorda bo'lishi ta'minlanadi. Bu tamoyilning asosiy moxiyati shundaki, bunda xujalik aylanishida ishtirok etuvchi bank mablag'larining xar bir sumiga muayyan boyliklarning bir sumi karama-karshi turishi kerak. Banklar tomonidan xalk

xujaligi tarmoqlariga berilgan kreditlar tulik tovar moddiy boyliklari va ma`lum xarajatlar bilan ta`minlangan bo`lishi kerak. Tarmoqlarga ta`minlanmagan kreditlarning berilishi bank kreditlarining bankka kaytib kelmasligiga asos hisoblanadi. Bu uz navbatida bankning likvidliligiga va pul muomalasiga katta ta`sir kursatadi. SHuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar tomonidan beriladigan kreditlarning tovar moddiy boyliklar va xarajatlar bilan ta`minlangan bo`lishiga aloxida e`tibor berilmokda. Hozirgi sharoitda bu jaraYonning amalga oshirilishini quyidagicha ifodalash mumkin.

Kredit olayotgan korxonaga bankka tovar Yoki tovar xujjatlarini, boshqa biror shakldagi mulkni garovga kuyadi va bank bergan kredit qarzi urnini qoplash xukukiga ega bo`ladi. Ba`zida kredit warrant asosida ham berilishi mumkin (Warrant – garov uchun xizmat kiluvchi xujjat). Bunda kreditorning beraYotgan krediti tovar-moddiy boyliklar bilan ta`minlanganligiga ishonch xosil kilish kerak.

Bank ssudalarini tovar-moddiy boyliklar bilan tulik ta`minlanganligi pul muomalasini barkarorligini ta`minlaydi chunki bankda pullarning nakd pulga va aksincha aylanishi transformatsiyalanib turadi.

Xulosa kilib aytganda, kreditning ta`minlanganlik ta`moyili qarzi oluvchi uziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarzi beruvchining mulkdorlik manfaatlarini ximoya kilishni ta`minlaydi va uzining amaliy aksini kreditni biror garov Yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiy iqtisodiyot barkarorlikka erishish davrida ayniksa muximdir.

2008 yilda yuzaga chiqqan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabablaridan biri ham aynan kreditning ta`minlanganlik tamoyilini buzilishi hisoblanadi. Ushbu holatga e`tiborini qaratgan O`zbekiston Prezidenti Karimov I.A.:"Bu Bu inqiroz Amerika Qo`shma SHtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro`y bergan tanglik holatidan boshlandi. So`ngra bu jaraYonning miqYosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya`ni to`lov

qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi”⁶ deb alohida ta’kidlaganlar. Albatta bu omil kreditning ta’minlanganlik tamoyilini ahamiyatini yanada oshiradi.

4. To’lovlilik tamoyili.

Bu tamoyil aylanma fondlarning doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jaraYonini ta’minlovchi to’lov resurslari summasini avanslashtirish zaruriyatidan kelib chikadi.

Bu tamoyilga asosan korxonalar foydalanilgan qarz mablag’lari uchun kreditorga foiz shaklida to’lovni o’tkazadilar. Kreditning to’lovligi uni tulik summada uz egasiga kaytarilishinigina emas, shu bilan kredit uchun foiz shaklidagi to’lov bilan kaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor uz mablag’larini xech vaqt uz xajmida kaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag’ni qarzga berganligi uchun muayyan to’lov talab kiladi. (foizsiz imtiYozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to’lovliligi nafakat banklar faoliyatining maksadiga, balki korxonalarning bevosita foydasiga boglik bo’ladi va ijobiy ta’sir kursatadi.

Kredit uchun xak tulashning iqtisodiy moyiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o’rtasidagi kushimcha olingan foydaning taksimlanishini kayd kilishda namoYon bo’ladi. Kurib chikilaYotgan tamoyilning amaliYotida uchta asosiy funktsiyasini bajaruvchi bank foizi normasini urnatish jaraYonida namoYon bo’ladi:

Hukukiy shaxslar foydasining va jismoniy shaxslar daromadining taksimlanishi;

Ishlab chiqarishni tartibga solish va ssuda kapitalining taksimlanishi orqali tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro mikiYosda aylanish;

IqtisodiYot rivojlanishining inkirozli bosqichida bank mijozlarining pul mablag’larini inflyatsiyadan ximoyalash va boshqalar;

⁶ И.Каримов. Жахон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. Т.: “Ўзбекистон”, 2009. 4 б.

Ssuda foizining stavkasi ssuda kapitalidan olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan aniklanib, kredit resurslarini bahosi sifatida namoyon bo'ladi.

5. Kreditning maksadliliigi.

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar anik bir maksadni amalga oshirishga yunaltirilgan bo'lishi zarur. Kreditning kaysi maksadga yunaltirilganligi, masalan, tovar moddiy boyliklar sotib olishga Yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va xakozo anik biror ob`ektga maksadli yunaltirilganligi korxonalar bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomada kursatilgan bo'ladi. Korxonalar olgan kreditini fakatgina kredit shartnomada kursatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak.

Bunda kredit muayyan, anik ob`ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor maxsulotga, junatilgan tovarlarga, hisob-kitob xujjatlariga va xakozolarga beriladi.

Yukorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud bo'lishi va xarakat kilishining muxim tomonlarini uzida ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning yukorida keltirilgan tamoyillaridan tashkari, kreditdan okilona foydalanishni ifodalovchi tamoyil kreditning samaradorligi tamoyilini kiritishimiz zarur. Bu tamoyil nafakat kredit va foiz summasini bankka kaytarib tulashni, undan tashkari shu kredit Yordamida kreditlanadigan Yoki moliyalashtiriladigan soxa, tarmoq, korxonalar kancha samaradorlikka erishishini ifodalashi zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida beriladigan kreditlar ma`lum bir loyixalarining bajarilishiga yunaltirilgan bo'ladi. Banklar loyixalarni kreditlash Yoki moliyalashtirishdan oldin loyixani bajarish uchun yunaltiriladigan mablag'larni samaradorligini hisoblab chikishlari zarur. Agar biz bozor iqtisodiyoti yukori rivojlangan mamlakatlarda kreditlash va loyixalarni moliyalashtirish amaliyotiga e`tibor beradigan bulsak, bu mamlakatlarda korxonalar, tashkilotlarga kredit berishdan oldin ajratiladigan mablag'larning samaradorligi hisob-kitob kilib chikiladi. Agar loyixaga

quyiladigan mablag'lar samara beradigan bulsagina, shu loyixa uchun mablag' ajratiladi.

Kreditning samaradorligini ta'minlash maksadida dunYoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi koidasi kullaniladi. Bu koida kreditlashda «5 «S» lar koidasi» deb yuritiladi.

«5 «S» lar koidasi» ga asosan xar bir «S» buyicha korxonaning faoliyati taxlil kilib chikiladi va korxonaga faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. +oidaga asosan «S» xarflari korxonaning xujalik faoliyatini quyidagi jixatlarini ifodalaydi.

Character – qarz oluvchining xarakterini baholash, hamda bozordagi obrusi;

Capacity – qarz oluvchining boshlagan ishini oxiriga etkaza olish, tegishli daromad olish, hamda bank kreditlarini kaytarib berish kobiliyati;


Capital – qarz oluvchining sarmoyasini etarliligi;

Conditions – shartlar. Bunda iqtisodiy muxim va mazkur biznesni rivojlanishi nazarda tutiladi.

Collateral – garov (kafolat, kafillik, sugo'rta polisi, tovar moddiy boyliklar) va boshqalar.

SHunday kilib banklar tomonidan beriladigan kreditlarning asosiy tamoyillarini quyidagi sxemada kursatish mumkin.

2 - chizma.⁷



2.5.Ssuda foizi: moxiyati, turlari va ularga ta'sir kiluvchi omillar

⁷ Ш.З. Абдуллаева. “Пул кредит банклар”. Тош.: “Молия” -2000 й. 134 бет.

Ssuda kapitali uziga xos tovar sifatida gavdalanar ekan, u xolda undan foydalanishda tulanadigan foiz kapital «baho»si bo'lib ishtirok etadi. Ammo bu uziga xos baho, tovarning pul shaklidagi qiymatini aks ettirmaydi, balki kapitalni tovar shaklidagi iste`mol qiymatini- foyda keltirish kobilyatini aks ettiradi.

Foiz normasi- ssuda kapitaliga olinadigan yillik daromadni, qarzga (ssudaga) berilgan kapital summasiga nisbatidir. Masalan, 100 ming sumlik kapital ssudaga berilgan bolsa, yillik foiz daromadi 4 ming sumga teng bolsa, u xolda foiz normasi 4% foizga teng bo'ladi.

2.6. Kreditning asosiy shakllari va turlari

Kapitalistik formatsiyaga kadar kreditning sudxurlik shakli keng tarkalgan bo'lib- bu qarz oluvchiga ma`lum foiz asosida kaytarib berish sharti asosida beriladigan pullik ssudadir. Sudxurlik kreditining ob`ekti bo'lib sudxurlik kapitali hisoblanadi.

Sudxurlik krediti ibtidoiy tuzilmaning yukolib (tarkab) ketishi va ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilikni paydo bo'lishi, hamda jamiyatda mulk differentsiyatsiyasi natijasida tovar- pul munosabatlarining rivojlanishi davrida vujudga kelmasdir.

Sudxurlar krediti er garovi asosida natura va pul shaklida berganlar. Kreditorlik tuzumi davrida ssudxurlik krediti yanada rivojlandi. Feodalizm davrida esa kreditning pul shakliga utishi tula-tukis amalga oshirildi. Pul boyliklarini sudxurlar kulida tuplanishi kapitalning birlamchi jamgarilishiga turtki (sababchi) bo'ldi. Sudxurlik kreditida qarz oluvchilar bo'lib - asosan maxalliy tovar ishlab chiqaruvchilar- dexkonlar va xunarmandlar, ya`ni kreditdan uzlarining zaruriy iste`mol tovarlarini va ishlab chiqarish vositalariga bulgan talablarini, kreditor va savdogarlarga soliklarni va qarzlarni tulash jaraYonida foydalanganlar. Bu qarz va to'lovlar xramlarga, monastirlarga,

cherkovlarga tulanagan. Sudxurlik kapitalining xarakterli belgisi bo'lib- qarzdorlar tomonidan ssudalarni noishlab chiqarish ko'rinishida foydalanish ustivor yunalish bo'lib hisoblangan va ssuda foiz yukori darajada bulgan. Undan sung kreditning boshqa shakllari (ko'rinishlari), ya`ni pul shaklidagi ko'rinishlari rivojlana boshlagan. Kreditning bu shakllari ssuda kapitalining xarakatini bildirib- pul kapitali sifatida namoYon bulgan. Pul kapitali kaytarib berishlik, to'lovlilik va foiz stavkasi asosida berilgan. Bunday kreditlarning xususiyatlari bo'lib:

- qarzdorlar bo'lib savdo - sanoat ishlab chiqaruvchi shaxslar ishtirok etganlar;

- qarz mablag'lari- kapital sifatida, ya`ni kushimcha kiymat olish vositasi sifatida foydalanilgan;

- ssuda foizi manbasi bo'lib- Yollanma ishchilarning xak tulanmagan mexnati kiymati hisoblanadi.

Bu davrda kredit turli shakllarni egallaydi (oladi). Ular asosan katnashuvchilarning turiga, ssuda ob`ektiga, kredit foizi xajmiga va xarakat kilish muhitiga karab farklanadi (guruxlanadi). SHunga kura kredit bir necha shakllarga bulinadi.

Tijorat krediti. Tijorat krediti- bu faoliyat kursatuvchilar tomonidan bir-birlariga uzaro to'lovni kechiktirish sharti bilan tovar shaklida beriladigan kreditdir.

Tijorat kreditini ob`ekti- tovar kapitali hisoblanadi.

Tijorat kreditida kreditor va qarzdorlar bo'lib faoliyat kursatuvchilar (ishlab chiqaruvchilar) hisoblanadilar.

Tijorat kreditining cheklanishlari mavjud bo'lib ular:

- faoliyat kursatuvchilarning zaxira kapitallari xajmi bilan cheklanganligi, ya`ni unga xozirgi davrda oborot (muomala) uchun zarur bulmagan kapital bilan cheklanganligi;

- yunalishiga kura, uni ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ishlab chiqarish vositalarini iste`mol kiluvchilarga berishi mumkin, ammo teskarisi bo`lishi mumkin emas.

Tijorat kreditidan farkli ularok bank krediti nafakat tovarlar muomalasiga xizmat kursatadi, balki yanada kengrok muhitda faoliyat kursatadi.

Bank krediti - pul egalari, banklar va boshqa kredit institutlari tomonida ishlab chiqaruvchilarga, hamda boshqa qarz oluvchilarga pul shaklida beriladigan ssudalardir.

Bank kreditining ob`ekti- pul kapitalidir.

Bank kreditida ishlab chiqaruvchi shaxslar (faoliyat kursatuvchilar) fakat qarz oluvchi sifatida ishtirok etadilar, kreditorlar bo`lib esa ssuda kapitali egalari hisoblanadilar.

Bank krediti jamiyat barcha sinflarini pul daromadlari va jamgarmalarini kapitalga aylantirib kapitalni jamgarilishiga sababchi bo`ladi.

Tijorat krediti veksel` bilan xujjatlashtiriladi. Tijorat kreditining foizi, tovarlar pagonasiga va veksel` summasiga kushiladi va u bank krediti foizidan past bo`ladi. Bank kredit foizining maksadi ssudalar hisobiga daromad (foyda) olishdir.

Tijorat krediti va bank kreditining ba`zi bir umumlashtirilgan tomonlarini uzida aks ettiruvchi kredit bu iste`mol kreditidir.

Iste`mol krediti - asosan tovarlarni sotish jaraYonida ularni to`lovini kechiktirib tulash xukuki berilishidir. SHu bilan birga iste`mol krediti banklar Yoki maxsus kredit institutlari tomonidan iste`mol tovarlarni sotib olish va xizmatlarni tulash xollarida beriladi.

Uning ob`ekti - uzok muddatli foydalaniladigan tovarlar va xizmatlar hisoblanadi. Iste`mol krediti - tovar va pul shaklida namoYon bo`lishi mumkin. Iste`mol krediti foizi - uzining yukori darajada ekanligi bilan ajralib turadi va milliy daromadni kayta taksimlashning ikkilamchi shakli sifatida axoli daromadlari hisobidan tulanadi.

Davlat krediti va xususiy kredit. Davlat kreditida qarz oluvchi Yoki kreditor bo'lib davlat ishtirok etadi. Davlat krediti davlat zaYomlari shaklida kaziachey (gazna) majburiyatlarini chiqarish orqali, jamgarma tashkilotlari jamgarmalari koldiklarini Davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat zaYomlari (qarzlari) Davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy usuli bo'lib xazmat kiladi. Davlat zaYomlarini ishlatishning yakuniy natijasi bo'lib davlat qarzining usishi, yangi zaYomlarni chiqarish xajmiga nisbatan foiz summasining kaytarish xajmi usib ketadi.

Davlat krediti mablag'lari ishlab chiqarish kapitali takror ishlab chiqarishda ishtirok etmaydi, ya`ni u moddiy kiymatliklar ishlab chiqarishda katnashmaydi, fakat byudjet taqchilligini qoplash maksadida foydalaniladi.

Xususiy kredit davlat kreditidan tamomila fark kiladi. CHunki xususiy kreditida kreditor va qarz oluvchilar bo'lib xususiy yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadilar.

Xalqaro kredit. Bu kreditlarni paydo bo'lishiga ob`ektiv asos bo'lib xujalik xaYotining baynalminallashuvi va xalqaro davlat shakllarining vujudga kelishi sabab bo'ldi.

Xalqaro kredit- bu ssuda kapitalini xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi xarakatidir. Bunda bir davlat tomonidan ularning banklari, yuridik shaxslari tomonidan boshqa davlat xukumatiga, banklariga Yoki boshqa yuridik shaxslariga muddatli, hamda to'lovlilik asosida beriladigan kreditlar teshiniladi.

Xalqaro kredit quyidagi belgilari bilan ajralib turadi;

-kreditorlar va qarz oluvchilar bo'lib xususiy yuridik shaxslar (banklar, kompaniyalar va firmalar), davlat tashkilotlari va xalqaro valyuta krediti institutlari bo'lishi mumkin;

-qarz mablag'lari qarz oluvchi mamlakatda foiz keltiruvchi kapital sifatida ishlatiladi;

-ssuda foizi bo'lib manbasi bo'lib qarzdor-mamlakatdagi Yonlanma ishchilar mexnati hisoblanadi.

Xalqaro kredit ichki kredit bilan uzviy aloqalar bo'ladi va qiymat shakllarini almashinish jaraYonidagi kapital xarakatining barcha bosqichlarida ishtirok etadi.

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar muhitida ssuda kapitalining xarakatidan kelib chiqqan xolda uziga xos funksiyalarni bajaradi;

-kengaytirilgan takror ishlar chiqarishni ta`minlash maksadida mamlakatlar orasida kapitalni kayta taksimlaydi;

-turli valyutalarga asoslangan nakd pulsiz to'lovlarni rivojlantirish orqali xalqaro hisob-kitoblar muhitida muomala xarajatlarini tejaydi.

Kapitalni markazlashuvi va jamgarilishini kuchayishiga xizmat kiladi.

Xalqaro xususiy va firma kreditlari xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi tijorat kreditlarining bir ko'rinishi bo'lib bir mamlakat firmasi tomonidan ikkinchi mamlakat firmasiga tovarlarni kechiktirib tulash xukukini beradi. Bunday kredit o'tkazuvchan veksel' (tratta) bilan xujjatashtiriladi. Firma kreditlari ochik rakam olrkali ham hisob-kitob kilinishi mumkin. Bugungi kundagi firma kreditlari zamonaviy shakli eksportYorlardan importerlariga beriladigan kredit shakli hisoblanadi.

Firma kreditlarining foiz stavkalarini bozor stavkalariga nisbatan past bo'ladi, chunki eksportni kreditlash tizimi davlat tomonidan subsidiya kilinadi.

Xalqaro bank krediti - bir mamlakat tomonidan boshqa bir mamlakatga (davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga) kiska va o'rta uzok muddatga vaqtinchalik foydalanishga beriladigan kredit shaklidir. Bank kreditlar qarz oluvchilar tomonida hohlagan maqsadlariga ishlatilishi mumkin. Bugungi kunda xalqaro bank kreditining ko'rinishlaridan biri bu eksport bank kreditidir. Bundan tashqari xalqaro kreditlarning xalqaro davlat krediti ko'p tarmoqli xalqaro zaYom va kreditlar, evro kreditlar, evro bozorlar va xalqaro moliya kredit institutlarining turli kreditlari mavjuddir.

2.7. Kredit nazariyalari tanqidi

Turli davrlardagi yashab ijod qilgan iqtisodchilar kreditni iqtisodiyotda, hamda takror ishlab chiqarish jarayonidagi urniga turlicha baho berib kelganlar, ularning ayrimlari kreditga yuksak baho berganlar, ikkinchi gurux iqtisodchilari uni urnini keyingi darajaga quyib kelganlar.

Kredit tushmasidagi nazariyalarni ikki guruxga bo'linadi. Ularning birinchisi kreditning naturalistik nazariyasi deb nomlanadi. Bu nazariyaning asoschilari bo'lib A.Smit va D.Rikardolar hisoblanadilar.

Bu nazariyaga asosan kreditning ahamiyati pasaytiriladi, ya'ni kredit fakat jamiyatda taksimlangan kapitalni alohida ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kayta taksimlash shakli bo'ladi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish omili bula olmaydi.

Bu nazariyaning asosiy yunalishlari quyidagilardan iborat:

- kredit moddiy qiymatliklarni bir kuldandan ikkinchisiga o'tkazishda texnik vosita (kuro) bo'lib hisoblanadi.

- kredit ob'ekti bo'lib natural (ishonchsiz) sharoitdagi boyliklar hisoblanadi;

- ssuda kapital xakikiy kapitalga tenglashtiriladi va uni xarakati ishlab chiqarish kapital xarakatiga mos keladi;

- banklar moddiy qiymatliklarni bir mulk egasidan ikkinchi mulkdorga o'tkazib beruvchi vositachi sifatida ishtirok etadi.

Yuqorida kurib utilgan kredit nazariyasi yunalish namoyandalari tomonidan kredit tushmasida va uni takror ishlab chiqarish jarayonida notugri xulosaga kelganliklarini bildiradi. Chunki ular kreditni (ssuda kapitalini) xarakatini, ishlab chiqarish kapitali, tovar kapitalini xarakatini notugri kursatib beradilar. Xattoki kreditni kayta taksimlash funksiyasini ham oxirigacha olib bera olmaydilar. Bu nazariya tarafdorlarining kamchiligi shunki ular kreditni ishlab chiqarishga bevosita bog'liq, lekin ishlab chiqarish u hech qanday ijobiy

ta`sirini kursatib bera olmaganlar. Xakikatda esa kredit ssuda kapitalining xarakatini natijasi bo`lib, ikki xususiyatga ega, ya`ni kredit kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga ta`sir kursatishi, Yoki unda karama- karshiliklarni ham vujudga keltirishi mumkin.

Ammo naturalistik nazariYotchilarning kamchiliklariga karamay ularning karashlarida ham nozitiv fikrlar (muloxazalar) bor. Masalan, bu nazariya tarafdorlari fikriga kura kredit xakikiy kapitalni yaratmasligi, balki fakat ishlab chiqarish jaraYoniga ta`sir kursatishi, ya`ni kreditni bevosita ishlab chiqarish bilan boglik ekanligini bilib bera olganlar.

Kreditni rolini (urnini) burttirib kursatadigan nazariya bu- kreditni kapitalini yaratish nazariyasidir. Bu nazariya asoschilari- ingliz iqtisodchilari Dj. Lo (XVIII) va G. Makleod (XIX) hisoblanadilar. Bu nazariyaning negizi shuki- kredit xech kanday ishlab chiqarish jaraYoniga boglik emas va u iqtisodiYotda xal kiluvchi urinni egallaydi. Ular kreditni pul va boyliklar bilan bir katorga kuyadilar. Kapitalni yaratish nazariyasining asl ma`nosi buyicha banklar kreditni berish orqali kapital yaratadilar, kredit xajmi banklarning uzlari ishlab chiqaradigan kredit siYosatiga boglik. SHuning uchun banklar kanchalik chegaralanmagan mikdorda kreditni kengaytirishlari va bu yul bilan ishlab chiqarishni kengaytirishga asos yaratishlari mumkindir.

Banklar «kredit fabrikasi» degan tushuncha shu nazariya tarafdorlari tomonidan vujudga keltirilgandir.

Kreditning kapitalini yaratish nazariyasi tarafdorlari banklar tomonidan berilaYotgan kredit xajmi bank xoxishiga emas balki, takror ishlab chiqarish jaraYonining ob`ektiv zaruriyatidan (xoxishidan) kelib chikishi, hamda kreditni xakikiy kapital bilan almashtirib yuboradilar.

Kreditning bu nazariyasining davomchilari bo`lib, avstraliya professori I. SHumeter, nemis bankiri A. Tan va ingliz iqtisodchilari Dj. M.Keyns va R. Xoutri hisoblanadilar.

SHumeter va Tanlar banklarning kuch- kudratini oshirib yuboradilar, va xech kandy chegarasiz beriladigan kreditlar takror ishlab chiqarish jaraYonini hamda iqtisodiy usishning asosiy kapitali bo'lib hisoblanadilar deb karaydilar. SHunga kura bu karashlar kreditning «ekspaitsion kredit nazariyasi» nomi bilan olamga mashxurdir. Ushbu nazariya orqali iqtisodchilar mamlakatdagi inflatsiyani oklamokchi bo'ladilar.

Birok kreditning bu nazariya buyicha davomchisi bulgan Dj. Keyis uzida kerakli bulgan karashlardan yaxshi (ijobiy) tomonlarini olgan xolda kreditni iqtisodiYotni tartibga solish vositasi deb karaydi va isbotlab beradi. CHunki banklar tomonidan kreditlash iqtisodiYot talabiga asosan berilishi, talab osha taklif ham oshishi mumkinligini e'tirof etadi. Bunga tarixiy misollar etarli. Masalan, mamlakatda iqtisodiy rivojlanish o'zgarishi natijasida kreditga bulgan talab ham oshadi va aksinchadir. Kreditning ortikcha berib yuborilishi bozor iqtisodiYoti sharoitida kushimcha kreditlarning inflatsiyaning vujudga kelishiga sababchi bo'lib kelishi mumkindir.

Qisqa hulosalar.

Kredit tovar-pul bozor munosabatlari mavjud sharoitidagi takror ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi.

Kredit-bu vaqtincha bush turgan pul mablag'larini ma`lum muddatga, xak tulash sharti bilan qarzga olish va kaytarib berish yuzasidan kelib chiqqaniqtisodiy munosabatlar yigindisidir.

Ssuda kapitali- bu faoliyat ko'rsatuvchi kapital aylanishiga xizmat kiluvchi va foiz keltiruvchi ssudaga (qarzga) beriladigan pul kapitalidir.

Kredit munosabatlari iqtisodiYotda mavjud aniq uslubiy asoslarga tayanadi. Uning asosiy elementlari bo'lgan ssuda kapitali bozori operatsiyalari ma`lum tamoyillar asosida olib boriladi.

Ssuda kapitali o'ziga hos tovar sifatida gavdalanar ekan, u holda undan foydalanishda to'lanadigan foiz kapital "baho"si bo'lib ishtirok etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kredit nima?
2. Kreditning mohiyati.
3. Kreditning zarurligi.
4. Kredit funksiyalari.
5. Kredit ittifoqlari.
6. Kreditning muddatliligi.
7. Kreditning ta`minlanganligi.
8. Tijorat kredit.
9. Ippoteka krediti.
10. Xususiy kredit nima?

Tavsiya etiladigan adabiYotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari.-T.: "O'zbekiston", 2009. 56 b.
2. Don Patinkin. Dengi, protsent i tseni. –M.: Ekonomika, 2004. – 375 str.
3. Molyakov N.V. Finansi. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2004. – 543 str.
4. Molyakov D.S., SHoxin E.I. Teoriya finansov predpriyatiy. Ucheb. posob. – M.: FiS, 2001. – 300 str.
5. Rashidov O.YU. va boshqalar. Pul, kredit va boshqalar.-T.: «Maxptint». 2008. 454 b.
6. Sviridov O.YU. Finansi, deneznoe obra`nenie, kredit. Ekspress spravochnik dlya stud. vuzov. –M.: IKTS Mart, Rostov n/D. izd. Sentr Mart, 2004. – 179 str.

3-BOB. MOLIYA VA MOLIYA TIZIMI

3.1. Moliyaning ijtimoiy iqtisodiy mohiyati

Aksariyat hollarda aholi o'rtasida va ayrim mutaxassislar ham «moliya» tushunchasini «pul» tushunchasi bilan aralashtirib yuboradilar. Haqiqatda esa bunday emas, ammo pulsiz moliyaning ham bo'lishi mumkin emas. Ushbu savolni hal etish uchun moliya kategoriyasining tarixiy rivojlanish bosqichlarini Yoritish kerak bo'ladi.

Moliya tarixiy kategoriya sifatida davlatning funksiyalari va ehtiyojlari ortib borishi ta'sirida tovar-pul munosabatlari sharoitida yuzaga chiqdi. «Moliya» tushunchasi lotincha «financia» so'zidan olingan bo'lib, bitimlardan undiriladigan to'lov, daromad ma'nosini anglatadi. Ilk bor moliya tushunchasi XIII-XV asrlarda Italiyaning yirik savdo va bank xizmatlari markazi hisoblangan – Florentsiya, Venetsiya va Genuyada muomalaga kirgan. Keyin ushbu tushuncha xalqaro ko'lamda keng ishlatila boshlanib, u davlat zimmasiga yuklatilgan siyosiy va iqtisodiy funksiyalarni bajarishi uchun mamlakat aholisi o'rtasida pul resurslarini jalb qilish bilan bog'liq pul munosabatlari tizimini o'zida mujassamlashtira boshladi. Ushbu omil esa moliya kategoriyasining o'zida quyidagi maxsus xususiyatlarning aks ettirishini ta'minlaydi:

-moliya ikki sub'ekt o'rtasidagi pul munosabatlari hisoblanadi, ya'ni pul ushbu munosabatlarning moddiy asosi bo'lib xizmat qiladi;

-moliyaviy munosabatlar jaraYonidagi ishtirokchi sub'ektlar turlicha huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi, ulardan biri hisoblangan davlat o'ziga xos bo'lgan hukmronlik vakolatiga egadir;

-moliyaviy munosabatlar jaraYonida umumdavlat pul mablag'lari fondi hisoblangan byudjet shakllanadi;

-davlat byudjetining daromad qismiga etarli mablag'larning muntazam va to'liq kelib tushishini ta'minlash maqsadida soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlarga davlat majburiy xarakteri berildi hamda buni amalga oshirish uchun

davlatning huquqiy faoliyatini amalga oshiradigan maxsus vakolatlarga ega fiskal apparat tashkil etildi. Ushbu holatni hozirgi vaqtdagi O'zbekistonga taqqoslasak, unda O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasini ko'rsatishimiz mumkin.

Moliya umumiy iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy asosni tashkil etadi. Moliya davlatga yuklatilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish, jamiyatda kengaytirilgan ishlab chiqarishni ta'minlash uchun kerakli pul mablag'larini etkazib beradi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda soliqlar, to'lovlar, bojlar, davlat kreditini jamlagan moliya davlat uchun ob'ektiv va zarur xususiyatga ega bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan xususiyatlarning barchasi moliyaning tarixiy kategoriya sifatida vujudga kelishiga bevosita ta'sir etgan omillardan hisoblanadi. Bu omillarni o'ziga xos xususiyatlari asosida guruhga ajratsak ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

- jamiyatda mehnat taqsimotining amalga oshirilishi va jamiyatni turli ijtimoiy guruhlarga bo'linib ketishi;

- tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va shu asosda ishlab chiqarishning o'sishi hamda, yalpi ichki mahsulot hajmining ko'payishi;

- jamiyatda kerakli pul mablag'larini yaratuvchi turli mulk shaklidagi mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik sub'ektlarining yuzaga kelishi;

- markazlashgan davlatning tashkil topishi.

Moliya munosabatlarida pulning mustaqil harakati natijasida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlari tashkil topadi. Bu holat esa moliyaning moddiy mohiyatini anglatadi. Lekin moliya pul munosabatlarini o'zida aks ettirsada, jamiyatdagi barcha pul munosabatlari moliyaga tegishli bo'lmaydi. Biz quyida moliya va pul munosabatlarini taqqoslab, ular o'rtasidagi farqlarni ko'rsatishga harakat qilamiz:

1. Pul jamiyatda umumiy ekvivalent rolini o'ynaydigan maxsus tovar hisoblanib, uning Yordamida barcha xarajatlar hisobga olinadi. Moliya yalpi

ichki maxsulot va milliy daromadni taqsimlaydigan, qayta taqsimlaydigan iqtisodiy dastak bo'lib, u orqali pul mablag'lari fondlarining tashkil etilishi hamda sarflanishi nazorat qilinadi;

2. Pul o'ziga xos beshta funktsiyani: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arma vositasi, to'lov vositasi va jahon puli funktsiyalarini bajaradi. Moliya bu funktsiyalardan sifatlan va miqdoran farq qiluvchi o'ziga xos funktsiyalarni bajaradi. Biz keyin bu funktsiyalarni to'liq Yoritamiz;

3. Pul moliyadan oldin paydo bo'lgan, moliya esa tarixiy kategoriya sifatidan puldan keyin paydo bo'lgan;

4. Pul moliyaga nisbatan keng iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

Moliya markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq nisbatan tor doiradagi iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

Moliyaning puldan farqini soddaroq qilib ochib berishga harakat qilamiz. Xodim o'zi ishlayotgan tashkilotdan mehnat haqi oldi. Bu erda moliya munosabati yuzaga chiqadi. Chunki tashkilot mehnat haqini berish jaryonida davlat soliqlarini va byudjetdan tashqari jamg'arma uchun to'lovlarni hisoblab, uni undirib oladi. Demak, xodim va davlat o'rtasidagi moliya munosabati amalga oshdi. Keyingi misol, talabaga dadasi pul berdi. Bu erda pul munosabati amalga oshdi, lekin moliya munosabati amalga oshmadi. Chunki, bu pul munosabatini davlat tartibga solmaydi va nazorat etmaydi. Bunday pul munosabatlarini xaridorlar va sotuvchilarning bozorda yuzaga chiqadigan munosabatlari misolida ko'rsatishimiz mumkin.

SHunday qilib, moliya –doimo pul munosabatlaridir, lekin jamiyatdagi barcha pul munosabatlari moliya munosabatlarini tashkil etmaydi. Pul munosabatlariga nisbatan moliya munosabatlarini ajratib turadigan ko'rinishlar mavjud. Moliya munosabatlari huquqiy asosga ega va tartibga solib turiladigan pul munosabatlaridir. Pul munosabatlari esa bunday huquqiy asosga ega emas. Bunday jaryon ishtirokchilari miqdor va shartlarni o'zaro kelishilgan holda belgilaydi.

Ishlab chiqarish sub`ekti o`zining ishlab chiqarishini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida muomalaga obligatsiya chiqardi. Bu jaraYonda sub`ekt amaldagi qimmatli qog`ozlar to`g`risidagi qonunga asosan faoliyat olib boradi. Muomalaga esa o`zining shakllangan ustav kapitalining 100 foizi miqdorida obligatsiya chiqarish huquqiga ega. Muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan pul mablag`lari jalb qiladi. Bu erda pul munosabatlari yuzaga kelgan, lekin moliya munosabati yuzaga chiqmadi. Ikkinchi misol, xuddi shu sub`ektning ishlab chiqarish mahsulotining eksport hajmini orttirish maqsadida davlat byudjeti xarajatlari qismidan subsidiya ajratiladi. Bu erda moliya munosabatlari yuzaga chiqdi. CHunki, xo`jalik sub`ektiga davlat tomonidan davlat byudjetida tasdiqlangan va maqsadli subsidiya berildi. Bu pul munosabatlari moliya qonunchiligi asosida tartibga solinib turiladi.

Jamiyatdagi pul munosabatlarining asosiy qismi ekvivalent xususiyatlarga ega bo`ladi. Bu munosabatlarda bir tomondan pul resurslari oqimi, ikkinchi tomondan tovarlar Yoki xizmatlar oqimi harakat qiladi. Bu munosabat orqali ishtirokchilar o`zlarining iqtisodiy ehtiYojini qondiradilar. Moliya munosabatida pul harakati noekvivalent xarakterga ega bo`ladi. Bu erda, bir tomondan pul oqimi, ikkinchi tomondan tovar Yoki xizmatlar harakati oqimi qarshi chiqolmaydi. Masalan, bunga misol qilib quyidagini keltiramiz. Ma`lumki, davlat byudjeti taqchilligini qoplashning halqaro amaliYotda quyidagi Yo`nalishlari mavjud:

- 1) Markaziy bank tomonidan qo`shimcha pul emissiyasini amalga oshirish;
- 2) Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirish;
- 3) Davlat byudjeti daromadlarini ko`paytirish (soliqlar stavkasini oshirish, yangi soliq turlarini kiritish);
- 4) Muomalaga qimmatli qog`oz chiqarish Yordamida davlat kreditini olish.

Bu holatlarni O'zbekiston Respublikasiga taqqoslasak, yuqoridagilardan to'rtinchi Yo'nalishni amalga oshirilaYotganining guvohi bo'lamiz. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hozirgi vaqtda hukumat nomidan muomalaga davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini va davlat o'rta muddatli g'azna majburiyatlarini chiqarib, ularni yuridik shaxslar orasida joylashtirishni amalga oshirmoqda. Bu orqali mavjud davlat byudjeti taqchilligi qisqarmoqda, inflyatsiya sur`ati past holda saqlanib turibdi, lekin bir tomondan tovar oqimi emas, balki davlat qarz majburiyati yuzaga chiqmoqda.

Umuman olganda, moliya – hamisha pul munosabatlarini tashkil etib, ushbu munosabatda ishtirok etuvchi tomonlardan biri albatta markaziy davlat, mahalliy hokimiyat Yoki uning vakolatiga ega biron bir organ bo'lishi shart.

Moliyaning ijtimoiy- iqtisodiy mohiyatini ochish uchun unga quyidagi ta`rifni berish mumkin. Moliya - davlat tomonidan tashkil etiladigan pul munosabatlarining yig'indisi bo'lib, unda umumdavlat pul mablag'lari fondlarini tashkil etish va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siYosiy vazifalarini bajarish uchun taqsimlanish hamda sarflanish amalga oshiriladi.


Davlatning markazlashgan pul mablag'i fondlarini tashkil etishda soliqlarning ahamiyati kattadir. Soliqlar Yordamida esa davlat jamiyatda yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashni amalga oshiradi. SHuni alohida ta`kidlash lozimki, soliqlar davlatning qaysi tuzumga ega bo'lishidan qat`iy nazar mavjud bo'ladi. CHunki, davlat jamiyatni boshqarish (u davlat demokratik tizim, totalitar tizim bo'lishidan qat`iy nazar) uchun o'zining oldida turgan vazifalarini bajarish maqsadida zarur bo'lgan moliya mablag'larini aynan soliqlar hamda soliq funksiyalarini bajaruvchi boshqa majburiy to'lovlar Yordamida shakllantiradi.

IqtisodiYotning bozor munosabatlari sharoitida hech qanday davlat soliqlarni bekor qila olmaydi. Faqatgina asosiy muammo soliq turlari, ularning stavkalari va soliqqa tortish ob`ektlarini belgilash hisoblanadi. Oqilona va puxta ishlab chiqilgan soliq siYosatigina jamiyatda soliq to'lovchilar o'rtasidagi

kelishmovchiliklarning oldini oladi. HaYot tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ko'p turdagi va yuqori stavkalar amal qilishi natijasida soliq to'lashdan qochish hamda turli Yo'llar bilan soliq ob'ektlarini yashirish holatlari yuzaga keladi va kuchayishi amalga oshadi.

Biz bu holatni AQSHlik iqtisodchi olim Ar. Leffer egrisi Yordamida Yoritishimiz mumkin.

Ar. Leffer o'z izlanishida mamlakatdagi soliq stavkalari yuqoriligi va davlat byudjetiga ular orqali kelib tushadigan soliqlar miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan. Tahlil natijasida Ar. Leffer quyidagilarning guvohi bo'lgan: davlat tomonidan soliq stavkasini oshirishning dastlabki bosqichida byudjetga soliq tushumlari miqdori ortadi. Lekin soliq stavkasi ma'lum chegara M dan ortgandan so'ng, byudjetdasoliq tushumlarining kamayishi kuzatiladi. Chunki, soliq stavkasining ortishi ishlab chiqarishni rivojlantirishni qanoatlantirmaydi. Buning natijasida davlat byudjetiga kelaYotgan soliq tushumlari kamayadi.



1-chizma. Leffer egrisi.⁸

Ar Leffer egrisiga asosan, yuqori stavkadagi N nuqtasidan soliq tushumlari miqdori bilan L past stavkadagi soliq tushumlari miqdori bilan teng. Lekin N nuqtadagi soliq stavkalari ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirmaydi va buning aksi L nuqtadagi soliq stavkalari ishlab chiqarishni kengaytirishga asos yaratadi va buning natijasida mamlakatda yaratilayotgan milliy daromad ortadi. O'zbekiston Respublikasida ham bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida soliq stavkalarining pasaytirilishi hamda ba'zi soliq turlarining bekor qilinishi amalga oshirilmoqda. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu soliq stavkalarining pasaytirilishiga qaramay, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining taqchilligi qisqarmoqda.

Mamlakatimizda 2005 yildan boshlab davlat byudjeti belgilangan taqchillik o'rniga profitsit bilan bajarilib kelinmoqda. Ushbu holat Prezidentimizning asarlarida quyidagicha tarzda yoritib berilgan. "Davlat byudjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profitsitga erishildi"⁹.

Tarixan davlat o'zining rivojlanish bosqichlarida xarajatlarning sarflanishida asosan to'rt Yo'nalishga, ya'ni, davlatning boshqaruv xarajatlari, xarbiy xarajatlar, iqtisodiyotni rivojlantirish xarajatlari hamda ijtimoiy soha xarajatlariga Yo'naltirilgan. Xarajatlar tarkibida u Yoki bu Yo'nalish xarajatlarining egallagan ulushi davlatdagi mavjud siyosiy tuzumga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga, texnik, tabiiy, demografik holatiga hamda uning chegaradosh mamlakatlar va umumjahon hamjamiyatidagi hodisalarga asosan turlicha bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Davlatning shakllangan, markazlashgan bu mablag'lari fondlarini alohida hudud, iqtisodiyotning alohida olingan tarmog'i

⁸ Манба: Мамедов О.Ю. Современная экономика. –Ростов Д.: Феникс. 1998.

⁹ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этининг йўллари ва чоралари. –Т.: "Ўзбекистон". 2009. 15 б.

Yoki xo'jalik sub`ektlari iqtisodiy manfaatlarini qondirish maqsadida sarflamasdan, balki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini to'liq mos keladigan xarajatlarini moliyalashtirishga sarflanadi. Ushbu Yo'nalishda hududlarda aholini ish joylari bilan ta'minlash, demografik holatni hisobga olgan holda aholini ijtimoiy himoya qilish, hududlarni iqtisodiy rivojlantirish kabi umumjamiyat ehtiyojlar hisobga olinadi. Xarajatlar adresli bo'lishini amalga oshirish maqsadida markazlashgan pul mablag'lari fondlarining turli tadbirlarni moliyalashtirishga mo'ljallangan fondlarga ajratish amaliyoti mavjud. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuniga asosan mamlakatimizda quyidagi markazlashgan maqsadli pul fondlari tashkil etiladi: Davlat byudjeti, Respublika Yo'l jamg'armasi, davlat bandlik jamg'armasi, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk qo'mitasining maxsus fondi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu maqsadli markazlashgan pul fondlarini yana bir o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ulardagi harajatlarning sarflanishi faqat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining to'liq ixtiyorida bo'ladi.

Jamiyatda markazlashgan pul fondlaridan tashqari markazlashmagan pul fondlari tashkil etiladi. Markazlashmagan pul fondlarining markazlashgan pul fondlaridan asosiy farqi shuki, ular ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ish bajarish faoliyatini amalga oshirayotgan xo'jalik sub`ektlarining ixtiyorida shakllantiriladi, hamda faqatgina ana shu xo'jalik sub`ektlarining ijtimoiy - iqtisodiy xarajatlarini moliyalashtirishga Yo'naltiriladi. Markazlashgan pul fondlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ish haqi fondi, amortizatsiya fondi, fan -texnikani rivojlantirish fondi, moddiy rag'batlantirish fondi, zaxira fondi va boshqalar.

Moliyaning iqtisodiy kategoriya sifatida boshqa iqtisodiy kategoriyalardan ajratib turuvchi o'ziga xos bo'lgan belgilari quyidagilardan iborat:

- moliya-huquqiy asosga ega va tartibga solib turiladigan pul munosabatlari;
- moliya-pul munosabatlari ishtirokchilaridan biri turli huquqiy vakolatga ega davlat organi bo'lgan munosabatlar;
- moliya-pul mablag'lari fondlarini (markazlashgan va markazlashmagan) tashkil etuvchi pul munosabatlari;

-moliya-jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari;

-moliya-iqtisodiy jihatdan doimo noekvivalent xususiyatga ega munosabatlar.

Ushbu yuqorida ta'kidlab o'tilgan belgilar moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini va uning mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan xususiyatlar hisoblanadi. Ular har bir jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jaraYonida u Yoki bu ko'rinishda yuzaga chiqadi hamda amal qiladi. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yanada kengroq ochishda uning bajaradigan funktsiyalarining tahlili Yordam beradi. Biz quyida moliyaning funktsiyalarini Yoritishga harakat qilamiz.

3.2. Moliyaning funktsiyalari

Har qanday iqtisodiy kategoriya sifatida moliya ham o'z funktsiyalariga ega. Iqtisodiy kategoriya bajaradigan funktsiyalar ushbu kategoriyalar mohiyati va u bajaradigan majburiyatlarda namoYon bo'ladi. Funktsiyalar ob'ektiv va mo''tadil (stabil) bo'lib, u iqtisodiy kategoriyalarni jamiyatdagi maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Moliyaning ham tub moxiyati u bajaradigan funktsiyalar orqali namoYon bo'ladi. SHuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy adabiYotlarda olimlar o'rtasida hozirga qadar moliyaning funktsiyalari miqdori va uning tuzilishi to'g'risida tortishuvlar mavjud, hamda ushbu asosda masala to'g'risida yagona bir qaror Yo'q. Masalan, moliya fanida etakchi va mashxur iqtisodchi olimlar hisoblangan professorlar E.A. Voznesenskiy va A. Aleksandrovlar moliyaning quyidagi uch funktsiyasini ajratib ko'rsatadilar:

1. Pul daromadlari va fondlarini shakllantiradi.

2. Pul daromadlari va fondlaridan foydalanadi.

3. Nazorat.

Akademik G.B. Polyak va L.A. Drobozinalarning ta`kidlashicha¹⁰, moliya quyidagi uchta funktsiyani bajaradi:

1. Taqsimlash funktsiyasi;

2. Nazorat funktsiyasi;

3. Tartibga solib turish funktsiyasi.

Moliyaning bajaradigan funktsiyalari to'g'risida professor A.I. Arxipovning¹¹ fikricha moliya quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1. Taqsimlash funktsiyasi;

2. Nazorat funktsiyasi;

3. Rag'batlantirish funktsiyasi.

Moliyaning funktsiyalari to'g'risida O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ham qarashlari mavjud. Masalan, iqtisod fanlari doktori N. Xaydarovning fikricha, hozirda moliyaning ikki funktsiyasi, ya'ni taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi hamda nazorat funktsiyalari mavjuddir.¹²

Biz yuqoridagi qarashlarni tahlil etsak, u holda moliya funktsiyalari miqdori to'g'risidagi qarama-qarshiliklarga qaramasdan, moliyaning quyidagi umumiy xususiyatlari to'g'risida tortishuv Yo'q:

-moliya iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish jaraYoni bilan bevosita bog'liqdir;

-moliya jamiyatdagi tovar-pul munosabatlari va davlat bilan bog'liqdir;

-moliya bu qiymat(pul) ko'rinishidagi kategoriyadir;

-moliya Yordamida yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad taqsimlanishi hamda qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi;

-moliya haqiqiy pul mablag'lari fondlarida namoYon bo'ladi. Biz moliyaning tub mohiyatini to'liq ochib bera oladigan taniqli iqtisodchi olimlar

¹⁰ Поляк Г.Б. и др. Финансы. Денежное обращение. Кредит - М.: ЮНИТИ, 2004.

¹¹ Сенчагов В.К. Финансы, денежное обращение и кредит -М.: Проспект, 2004.

¹² Н.Хайдаров. «Молия» Т.: «Академия». 2001.

va etakchi amaliyotchilar fikrlaridan tahliliy xulosa chiqarib, hozirda moliya asosan uch funktsiyani bajaradi deb hisoblaymiz. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi;
- 2) nazorat funktsiyasi;
- 3) tartibga solib turish funktsiyasi.

Moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi jamiyatning barcha sohalarida: moddiy ishlab chiqarish, nomoddiy ishlab chiqarish va muomala sohalarida amalga oshadi. Ushbu funktsiyaning bo'lib, mamlakatda yaratilayotgan va pul shaklidagi yalpi ijtimoiy mahsulot hamda milliy daromad hisoblanadi. Taqsimlash va qayta taqsimlash sub'ektlari mikrodarajada mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub'ektlari va aholi hisoblansa, makrodarajada-davlat hisoblanadi.

Moliyaning bu funktsiyasi Yordamida mamlakatda yaratilayotgan yangi qiymat mikrodarajada taqsimlanadi va ushbu qiymat makrodarajada qayta taqsimlanadi. Biz fikrimizni kengroq bildirsak, ya'ni taqsimlash ob'ektining mikroiqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib tushum, daromad va foyda hisoblansa, makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad hisoblanadi.

Moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasi o'zaro bog'liq bo'lgan uch bosqichni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat: 1. Mamlakatda turli pul mablag'lari fondlarining tashkil topishi. Bu jaryonda mikroiqtisodiy darajada xo'jalik sub'ektlarining faoliyati uchun zarur bo'lgan moliya resurslari va makrodarajada davlatning markazlashgan pul mablag'lari fondlari tashkil etiladi.

2. Tashkil etilgan pul mablag'lari fondlarining turli moliya dastaklari Yordamida taqsimlanadi. Mikrodarajada taqsimlanishda xo'jalik sub'ektlarining markazlashmagan pul mablag'lari fondlari (ustav fondi, ish haqi fondi, amortizatsiya fondi, moddiy rag'batlantirish fondi va boshqalar) tashkil etiladi.

Taqsimlanishning makrodarajasida davlatning turli darajadagi byudjetlari hamda byudjetdan tashqari fondlari shakllanadi.

3. Tashkil etilgan pul mablag'lari fondlarining taqsimlanishi va sarflanishi. Bu jaraYonda mikrodarajada xo'jalik sub`ektlari faoliyatini rivojlantirish va jamoa a`zolarining ijtimoiy ehtiYojlarini qondirishga sarflanadi. Makrodarajada esa mamlakat iqtisodiYoti tarkibiy tuzilmasini optimal darajada saqlab turish va axolining umumdavlat tomonidan ijtimoiy ehtiYojlarini qondirishga sarflanadi. Mamlakatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi natijasida jamiyatning daromadlari shakllanadi. Mikrodarajadagi birlamchi taqsimlanishda asosiy Yoki birlamchi daromadlar vujudga keladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasida birlamchi daromatlarga quyidagilar kiradi:

- xo'jalik sub`ektining foydasi (daromadi);
- xo'jalik sub`ekti ishchi va xizmatchilarining daromadlari (ish haqi, mukofot va turli to'lovlar);
- ijtimoiy va byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar.

YUqoridagi birlamchi taqsimlanishni O'zbekiston Respublikasiga nisbatan ko'rib chiqamiz. Xo'jalik sub`ekti o'z ixtiYoriga kelib tushgan tushumni ish haqi va moddiy xarajatlarni qoplashga sarflaydi. Amaldagi qonunchilikka asosan mehnat haqini hisoblashda turli byudjetdan tashqari fondlarga, ya`ni davlat bandlik fondi, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi va ijtimoiy sug'urta fondiga majburiy to'lovlarni ajratadi. Bu to'lovlar va ajratmalarni to'lagandan so'ng xo'jalik sub`ekti ixtiYorida foyda qoladi. Ushbu foydadan o'rnatilgan soliqlar va to'lovlarni davlat byudjetiga to'laydi. Taqsimlanish amalga oshgandan so'ng birlamchi taqsimlanish o'rniga makrodarajada qayta taqsimlanish Yordamida milliy daromadning qayta taqsimlanishi amalga oshadi.

Mamlakatda yaratilgan milliy daromadning qayta taqsimlanishi quyidagi omillarga bevosita bog'liqdir:

1. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning daromadlari va jamg'armalaridan oqilona va samaradorlik bilan foydalanish maqsadida milliy daromadni

iqtisodiyotning tarmoqlararo va hududlararo qayta taqsimlanishiga ehtiyojining mavjudligi. Respublikamizda iqtisodiy, siyosiy va demografik sabablar tufayli hududlarning rivojlanish darajasi turlicha. Baʼzi hududlarda, yaʼni Qoraqalpogʻiston Respublikasida, Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi sust rivojlangan va aksincha, Toshkent shahri, Fargʻona, Toshkent va Navoiy viloyatlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori darajada. Bu omil esa byudjet daromadlarining etarliligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Iqtisodiy tomondan sust rivojlangan hududlarda istiqomat etuvchi aholining ijtimoiy neʼmatlar bilan taʼminlash hamda ijtimoiy himoya qilish xarajatlari bu hududda yaratilgan daromaddan koʻpdir. Bunday xolatni oldini olish maqsadida mamlakatimiz davlat byudjetidan bu hududlarning mahalliy byudjetlariga etarli mablagʻlar (subvensiya, dotatsiya shaklida) beriladi;

2. Jamiyatda ikki sohaning, yaʼni moddiy va nomoddiy soha (sogʻliqni saqlash, maorif, fan, ijtimoiy taʼminot, mudofaa, boshqaruv) larning mavjudligi. Maʼlumki, nomoddiy sohada milliy daromad yaratilmaydi, lekin nomoddiy sohaning zarurati va uni jamiyat uchun kerakligini hech kim inkor eta olmaydi. SHuni alohida taʼkidlash lozimki, keyingi vaqtlarda Oʻzbekiston Respublikasida sogʻliqni saqlash va maorifni rivojlantirishga juda katta eʼtibor berilmoqda. Bunga mamlakatimizda 2005 yilning «Sihat salomatlik yili» deb eʼlon qilinganligi, 2009 yilni esa “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb eʼlon qilinishi mamlakatimizda qishloqlarni va qishloq aholisini ijtimoiy taʼminlashga keng imkon yaratilganligidan darak beradi;

3. Jamiyatda, yaʼni aholi oʻrtasida turli ijtimoiy guruhlarning mavjudligi. Insoniyat rivojlanishi, yaʼni demografik holati aholining ijtimoiy guruhlariga boʻlinishiga ham taʼsir koʻrsatadi. Buning natijasida jamiyatda koʻp farzandli oilalar, nafaqahoʻrlarning mavjudligi obʼektiv omildir. Bunday guruhlarni ijtimoiy tomondan himoya qilish davlatning burchi hisoblanadi. Buni amalga oshirishda davlat eng avvalo byudjet mablagʻlaridan foydalanadi.

Jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni moliya Yordamida qayta taqsimlanishi natijasida umumdavlat fondlari, ya`ni byudjetlar hamda byudjetdan tashqari fondlar shakllantiriladi. Bunday qayta taqsimlash natijasida nomoddiy sohada band bo'lgan shaxslar moliya mablag'lari bilan ta`minlanadi.

Jamiyatda yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlash natijasida iqtisodiyot tarmoqlari tarkibining manfaatlari hisobga olinadi. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (qishloq xo'jaligi, energetika, transport) jadal rivojlantirishga e`tibor qaratiladi. Ushbu holatni O'zbekiston Respublikasiga taqqoslasak, hozirda mamlakatimizda 60 foiz aholi qishloq joylarida istiqomat qilishi va eksport tarkibida qishloq xo'jalik mahsulotlari asosiy ulushni egallashi sababli qishloq xo'jalik sohasini rivojlantirishga alohida e`tibor beriladi.

YUqoridagi fikrlarimizni umumlashtirib, moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi quyidagilarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi deb xulosa qilishimiz mumkin:

- xo'jalik sub`ektlari va davlat miqYosida pul fondlari tashkil etiladi;
- faqat maqsadli pul fondlari tashkil etiladi;
- iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar o`rtasida moliya mablag'larining qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi;
- mamlakat aholisining turli ijtimoiy guruhlar o`rtasida moliya mablag'lari qayta taqsimlanadi;
- xo'jalik sub`ektlari va davlat miqYosida zarur zaxira fondlari tashkil etiladi.

Moliyaning nazorat funksiyasi esa jamiyatda yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni tegishli fondlar bo'yicha taqsimlanishi hamda maqsadli fond mablag'larining sarflanishini nazorat qilish bilan bog'liqdir. Nazorat funksiyasi moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi bilan uyg'unlashgan holda amal qiladi. Moliya nazorati milliy daromad yaratiladigan moddiy ishlab chiqarish sohasini va nomoddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab

oladi. Moliya nazoratining maqsadi moddiy, mehnat va moliya resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish hamda xo'jasizlikning oldini olishdir. Moliya nazoratining asosiy vazifasi xo'jalik sub`ektlarining o'zaro hisob-kitoblari majburiyatlarini, qonunchilikdagi byudjet tizimini va soliq xizmatlari oldidagi moliya majburiyatlarini bajarishga rioya etilishini ta`minlash hisoblanadi. Ushbuning yuzaga chiqishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni boshlanishidan avval turli byudjetlar va moliya dasturlarini ishlab chiqishda;

- shakllantirilgan turli pul mablag'lari fondlarini, ya`ni byudjet, smeta va moliya rejalarini sarflanishida;

- pul mablag'lari fondlarining bajarilishini baholashda va faoliyat natijalarini yakuniy hisob-kitob qilishda.

Moliya nazoratini amalga oshirish sub`ektlari nazorat etish ob`ektlari, mulkchilik shakli va faoliyatidan kelib chiqqan holda turlicha bo'ladi. Moliya nazoratining kim tomonidan olib borilishiga qarab quyidagi shakllari mavjud:

- 1) umumdavlat moliya nazorati;
- 2) tarmoq moliya nazorati;
- 3) xo'jalik ichidagi moliya nazorati;
- 4) jamoat moliya nazorati;
- 5) mustaqil (auditorlik) moliya nazorati.

Umumdavlat moliya nazoratini vakolatli davlat organlari amalga oshiradi. Moliya tizimi va soliq xizmati xodimlari davlat byudjeti daromadlari hamda xarajatlarning bajarilishi nazoratini olib boradilar. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi xuzuridagi nazorat taftish departamenti va uning viloyatdagi bo'limlariga davlat byudjeti mablag'larining maqsadli va to'liq sarflanaYotganligini nazorat qilish vakolati berilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi va uning joylardagi bo'linmalariga

mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar va tushumni nazorat etish vakolati berilgan.

Tarmoq moliya nazorati iqtisodiyotning ma'lum tarmoq miqyosidagi (vazirlik, kontsern, kompaniya, xolding) nazoratini o'z ichiga oladi. Ushbu nazorat ma'lum olingan tarmoq boshqaruvi tashkil etilgan maxsus moliya boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu boshqarma tarmoq tarkibiga kiruvchi xo'jalik sub'ektlarining amaldagi byudjet-soliq qonunchiligiga va ichki me'yoriy nizomlarga rioya etilganligini nazorat qilib boradi.

Xo'jalik ichidagi moliya nazoratini alohida olingan xo'jalik sub'ektlari qoshida tashkil etilgan moliya bo'linmalari amalga oshiradi. SHuni ta'kidlash lozimki, keyingi vaqtlarda davlat mulkini xususiylashtirish va aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni natijasida ko'plab turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va tashkilotlar tashkil etilmoqda. Bu holat xo'jalik ichidagi moliya nazoratining ahamiyati oshishiga olib kelmoqda. Ushbu korxonalarda ishchi-xizmatchilar sonining kamligi, ishlab chiqarish hajmining kamligi (masalan, kichik biznes sohasi) sababli ularda moliya nazoratini olib borish vakolati bosh hisobchi zimmasiga yuklatilgan. Bunday korxonalarda moliya nazoratini olib boruvchi bosh hisobchining asosiy vazifasi moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat etish, byudjet soliq qonunchiligiga rioya etish hamda boshqa korxonalar bilan o'zaro to'lov majburiyatlarini olib borish hisoblanadi.

Jamoat moliya nazoratini aktsiyadorlik jamiyatlarida aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan alohida jismoniy shaxslar olib boradi. Ayrim boshqa mulkchilik shaklidagi xo'jalik sub'ektlarida ushbu nazoratni ixtiyoriy ravishda mas'uliyatni olgan jismoniy shaxslar olib boradi. Jamoat nazoratining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat aniq bir korxonaning xo'jalik – moliya faoliyatini nazorat qiladi.

Moliya nazoratining yana bir shakli mustaqil (auditorlik) nazorat hisoblanadi. Ushbu nazoratning eng asosiy xususiyati shundaki, auditorlik faoliyatini olib boruvchi firma o'z faoliyati uchun maxsus litsenziyaga ega

bo'lishi bilan birga unda ishlovchi xizmatchilar ham maxsus shaxodatnomaga ega bo'lishi shart. Auditorlik moliya nazoratining ob'ekti barcha xo'jalik sub'ektlarining xo'jalik-moliya faoliyati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka asosan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har bir faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ekti yillik xo'jalik-moliya faoliyatining auditorlik moliya nazoratini o'tkazishi shart.

Moliyani tartibga solib turish funksiyasining mohiyati davlat tomonidan mavjud moliya dastaklari orqali jamiyat uchun zarur alohida olingan korxonalar va ba`zan butun iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirishga ta`sir etilishi hisoblanadi. SHuni alohida ta`kidlash lozimki, bu funktsiyada moliyaning rag'batlantirish Yoki so'ndirish Yo'nalishi ham mavjud. Davlat moliya dastaklari orqali iqtisodiyotdagi ayrim sohalarni rivojlantirishga va o'z vaqtida ayrim sohalar faoliyatini cheklab turishga erishadi. Fikrimizcha, moliyani tartibga solib turish funktsiyasi quyidagi ko'rinishda yuzaga chiqadi:

4. Davlat byudjeti orqali. Byudjet mablag'larining ayrim soha, Yoki korxonalarini rivojlantirishga (subsidiya) ajratilishi orqali amalga oshiriladi.

5. Soliqlar orqali. Davlat iqtisodiyot faoliyatini tartibga solib turishdagi eng ta`sirli dastak soliqlar hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati uchun past darajadagi soliqlarning o'rnatilishi ushbu faoliyatni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi va buning aksi yuqori darajadagi soliq stavkalarining o'rnatilishi bu soha faoliyatining rivojlanishini cheklab turadi. Bu sohaga yaqqol dalil sifatida 1994-1998 yillarda mamlakatimizda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish maqsadida, ular soliqlardan ozod etilib, hisoblangan soliqlar tijorat banklarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga sarflanganligini keltirishimiz mumkin.

6. Baholar va tariflar orqali. Iqtisodiyotning bozor munosabatlari sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotning ayrim sohalari narx-navo va tariflarning belgilanishida faol ishtirok etadi. Bu omil esa iqtisodiyotning ayrim sohalariidagi xo'jalik sub'ektlarining moliya holatiga turlicha ta`sir ko'rsatadi.

4. Eksport- import bojlari orqali. Ushbu Yo'nalishda davlat tomonidan xo'jalik sub`ektlari olib boradigan eksport-import operatsiyalariga o'rnatilgan past Yoki yuqori darajadagi boj stavkalari ushbu faoliyatning rivojlanishiga Yoki to'xtatib qo'yilishiga olib kelishi mumkin.

YUqorida ta`kidlab o'tilganlarni umumlashtirgan holda, moliyaning tartibga solib turish funksiyasi quyidagi darajada yuzaga chiqadi:

-mikroiqtisodiy darajada (xo'jalik sub`ektlari darajasida). Bunda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub`ektlari ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida turli pul fondlarini tashkil etadi;

-makroiqtisodiy darajada (davlat darajasida). Bunda davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlat byudjeti xarajatlaridan soliqlar, bojlar, tariflar orqali foydalanish amalga oshiriladi.

YUqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, davlat moliya dastaklarining xar bir turini Yoki bir nechtasi qo'llanishi Yordamida iqtisodiyotning barcha sohalariga kuchli ta`sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Fikrimizcha, bu omil moliyaning tartibga solib turish funksiyasini mustaqil funktsiya deb mulohaza qilinishiga asos bo'la oladi.

3.3. Moliya siYosatining mohiyati va mazmuni

Har bir davlat o'ziga yuklatilgan siYosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun eng avvalo iqtisodiy siYosatdan, shu jumladan ushbu siYosatning poydevori bo'lgan moliya siYosatidan samarali foydalandilar. Moliya siYosatining mohiyati va mazmuni to'g'risida iqtisodiy adabiyotlarda turli iqtisodchi olimlar o'rtasida har xil ilmiy fikrlar mavjud. Akademik G.B. Polyak va V.V. Karchevskiylarning fikricha¹³ moliya siYosati - davlat zimmasiga yuklatilgan funtsiyalarni bajarish uchun moliya munosabatlaridan foydalanish yuzasidan tashkil etiladigan chora-tadbirlarining yig'indisi. Ushbu fikrni rivojlantirgan holda va «moliya munosabatlari» atamasi kengaytirilgan

¹³ Поляк Г.Б. и др. Финансы. Денежное обращение. Кредит.- М.: ЮНИТИ, 2004.

holda i.f.d., RTFA akademigi V.K. Senchagov¹⁴ moliya siYosatiga o'z fikrini bildiradi. Uning fikricha moliya siYosati - davlat iqtisodiy siYosatining tarkibiy qismi sifatida amaldagi qonunchilikka asosan iqtisodiy siYosatining strategiyasi va taktikasiga asosan davlat moliya resurslarini shakllantirish hamda ularning sarflanishi yuzasidan vakolatga ega davlat moliya tizimi institutlari byudjet-soliq va boshqa moliya dastaklarining yig'indisidan iboratdir. Olimning fikricha moliya siYosati mexanizmida davlat moliya dastaklarining yagonaligi ta'kidlanadi. Buning asosiy omili sifatida jamiyatda moliya dastaklarini faqatgina vakolatli davlat moliya institutlari amalga oshirishi keltiriladi.

Mohiyati jihatdan moliya siYosati juda murakkab hamda nozikdir. Moliya siYosatini ishlab chiqishda mamlakatdagi pul-kredit siYosati, valyuta munosabatlari hamda fond bozoridagi faoliyat ham hisobga olinadi. Agar moliya siYosatidagi turli tamoyillar umumlashtirilsa, u holda asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat bo'ladi:

-har bir jamiyatda ob`ektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligi va ularning doimiy ravishda harakatda bo'lishi;

-moliya siYosatining umumiy kontseptsiyasini ishlab chiqish, uning asosiy Yo'nalishlari, maqsadi va vazifalarining aniqlab olinishi;

-davlat moliya faoliyatini va iqtisodiyotning boshqa sub`ektlari faoliyatini boshqarish hamda bu soxada yuksak rivojlangan davlatlarning tajribasi va maxalliy tajribani oqilona uyg'unlikda olib borilishga erishishni ta'minlash;

-adekvat moliya mexanizmini tashkil etish.

YUqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, moliya siYosati iqtisodiy siYosatining tarkibiy qismi bo'lishi bilan bir qatorda uning har bir tamoyili maqsadliligi bilan ajralib turadi. SHuning uchun moliya siYosatining asosiy vazifalarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

¹⁴ Сенчагов В.К. и др. Финансы, денежное обращение и кредит- М.: Проспект, 2004.

-jamiyatda imkoniyat darajasida ko'p miqdordagi moliya resurslarini shakllantirishga erishish;

-davlat miqYosida moliya resurslarining taqsimlanishi va sarflanishida oqilona hamda samarador tizimini shakllantirish;

-jamiyatdagi iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy jaraYonlarni tartibga solib turish hamda rag'batlantirishda moliya usullaridan keng foydalanishni tashkil etish;

-jamiyatdagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirish maqsadida moliya resurslarining markazlashuvini amalga oshirish;

-moliya tizimida barcha bo'g'indagi byudjetlarning daromad va xarajatlarini muvozanatlantirish hamda byudjet profitsitiga erishish;

-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat siYosatidagi strategiya va maqsadlarning o'zgarishi asosidagi faol moliya mexanizmini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

-moliya tizimidagi o'zgarishlarni o'z muddatida anglab oladigan, ishchan va tajribali mutaxassislar tayYorlash hamda qayta tayYorlash orqali samarador moliyani boshqarish tizimini tashkil etish.

Moliya siYosati davlat iqtisodiy siYosatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu siYosatda iqtisodiYotni rivojlantirish Yo'nalishlari aniqlashtiriladi, moliya resurslarining umumiy miqdori, uni tashkil etadigan manbalari, shakllangan moliya resurslarining taqsimlanishi va sarflanishi hamda ushbu jaraYonda moliya usullaridan foydalanish o'z aksini topadi. SHuni ta'kidlash lozimki, moliya siYosati davlatning faoliyat ko'rsatishida nisbatan mustaqil soha hisoblanadi.

Amalga oshirishda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning xususiyati hamda yuzaga chiqarish muddatlariga asosan moliya siYosatini ikki Yo'nalishdagi siYosatga ajratish mumkin:

1. Strategiya Yo'nalishidagi moliya siYosati.
2. Taktik Yo'nalishidagi moliya siYosati.

Moliya siYosatining asosini strategik Yo'nalishdagi moliya siYosati tashkil etadi. Ushbu siYosat moliya siYosatini uzoq va o'rta muddatli Yo'nalishi hisoblanib, u davlatning iqtisodiy rivojlanish faoliyati hamda mamlakat ijtimoiy sohasining xususiyatlaridan kelib chiqib kelajakda ko'zda tutilgan asosiy vazifalarning amalga oshirilishini moliya resurslari bilan ta'minlanishi yuzasidagi moliya chora-tadbirlarining yig'indisidir.

Davlat o'z vaqtida moliya siYosatining strategik Yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida moliya munosabatlarining taktik Yo'nalishlaridan foydalanadi. Moliya siYosatining taktik Yo'nalishi o'z mohiyatiga ko'ra qisqa muddatli bo'lib, uning Yordamida davlat moliya resurslarini jalb etishlik, ushbu resurslardan oqilona va tejamkorlik bilan sarflanishini, iqtisodiy va ijtimoiy jaraYonlarni tartibga solib turish hamda iqtisodiyotning ayrim sohalarini rivojlantirishni o'z ichiga oluvchi chora-tadbirlarning yig'indisidir. Bu chora-tadbirlar o'zaro bir-birini to'ldirib turuvchi hisoblanadi.

Davlat moliya siYosatini ishlab chiqishda jamiyatdagi tarixiy rivojlanishning aniq xususiyatlaridan kelib chiqmog'i shart. Moliya siYosatining strategik Yo'nalishida davlatning mavjud haqiqiy iqtisodiy va moliya imkoniyatlari hamda xalqaro holatlar hisobga olinishi lozim. Joriy xususiyatlar esa moliya siYosatining taktik Yo'nalishida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar orqali bosqichma-bosqich, samarali hamda tejamkorlik Yo'lidan foydalanib amalga oshiriladi.

Biz moliya siYosatidagi strategik va taktik Yo'nalishlarning uzviy bog'liq holda olib borilishini O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish tajribasida ko'rishimiz mumkin. Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida g'oyat muhim va birinchi darajali chora-tadbirlar hamda ustuvor Yo'nalishlar sifatida quyidagilar ilgari surildi.

Moliya va soliq siYosati sohasida:

-qattiq moliyaviy siYosatni amalga oshirish, davlat byudjetidagi taqchillikni iloji boricha kamaytirish, byudjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarning barcha turlarini bosqichma-bosqich qisqartirib borish;

-byudjet mablag'lari daromad tushganidan keyingina taqsimlashtiriladigan Yo'ldan og'ishmay borish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiYojlari uchungina byudjetdan mablag' ajratish;

- iqtisodiYot tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun byudjetdan pul bilan qaytarilmaydigan qilib ta`minlash amaliYotidan voz kechish va ana shu maqsadlar uchun investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;

- soliq tizimini takomillashtirish, byudjet daromadlari barqaror sur`atda to'ldirib turilishini ta`minlaydigan, kichik va xususiy korxonalarining, chet el kapitali ishtirokidagi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan va xalq iste`moli mollarini ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarining rivojlanishini rag'batlantiradigan pishiq puxta soliq siYosatini olib borish.

Albatta, bu yuqorida ta`kidlab o'tilgan chora-tadbirlar, iqtisodiYotning o'sha davridagi rivojlanish holatiga, mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilish maqsadida mablag'larni shakllantirish uchun soliqlar stavkalarining yuqoriligi, hamda sifatan yangi iqtisodiYot tarmoqlarini tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlarni kerakli moliya mablag'lari bilan ta`minlash uchun zarur bo'lgan majburiy chora-tadbirlar edi.

IqtisodiYotning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishining keyingi bosqichlarida iqtisodiYotning ustuvor sohalari hisoblangan Buxorodagi «Qorovulbozor» neftni qayta ishlash birlashmasi, Asakadagi «UzDEU» engil avtomobillar ishlab chiqarish korxonasi, Samarqanddagi «Samko'chavto» yuk va Yo'lovchi tashuvchi avtomobil' ishlab chiqarish korxonasi, Qashqadaryodagi «SHo'rtangaz» kimYosanoat komplekslarining ishga tushirilishi natijasida, davlat byudjetiga qo'shimcha pul mablag'larini kelib tushishini ta`minladi. O'zbekistonning g'alla mustaqilligiga erishishi natijasida esa xorijdan g'alla mahsulotlari import qilish salmog'i keskin kamaydi va bu

omil valyuta mablag'larini tejashga olib keldi. Mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tez sur'atlar bilan rivojlanishi nafaqat davlat byudjetiga qo'shimcha mablag'larning kelib tushishi bilan birga aholini qo'shimcha ish o'rinlari bilan ta'minladi.

Bu yuqoridagi omillar bilan bir qatorda davlat byudjeti sarflarining omilkorlik va manzilli sarflanishi jaryonlari ham amalga oshirila boshladi. Ushbu ijobiy o'zgarishlar davlatimizning moliya siyosatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 2007 yil 30 noyabrda tasdiqlangan va 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan «O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi» va 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni mamlakatimizdagi moliya siyosatining sifatlan yangi darajaga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Davlat olib borayotgan moliya siyosati jamiyat iqtisodiy manfaatlari va aholining ayrim ijtimoiy guruhlarining talablaridan kelib chiqadigan maqsad hamda vazifalar hal etilishi bilan bog'liqdir. SHuning uchun moliya siyosatini olib borishda moliya mexanizmining ahamiyati kattadir. Biz mazkur o'quv qo'llanmamizning keyingi paragrafida moliya siyosatini amalga oshirishda moliya mexanizmining mohiyati va o'rnini Yoritishga harakat qilamiz.

3.4.Moliya siyosatini amalga oshirishda moliya mexanizmining mohiyati va o'rnini

Davlat moliya siyosatini tashkil etuvchisi moliya mexanizmi hisoblanadi, chunki u orqali davlatning moliya munosabatlari sohasidagi butun faoliyati amalga oshiriladi.

Moliya mexanizmi o'zining mohiyatiga ko'ra davlat tomonidan jamiyatda moliya munosabatlari tashkil etishdagi shakl, turlar hamda usullarning yig'indisi hisoblanadi. Moliya mexanizmi–moliya amaliyotida yuzaga chiqadigan moliyaning tarkibidagi elementlarni mujassamlashtirgan. Moliya resurslarining shakllari, ularni shakllantirish usullari, qonunchilik asosidagi

me`Yor va ularning tizimi, byudjet tizimini tashkil etish, xo`jalik sub`ektlarining moliyasi hamda qimmatli qog`ozlar bozori ushbu elementlarga kiradi. SHuni ta`kidlash lozimki, moliya mexanizmining elementlari o`zaro bog`liqlikda faoliyat ko`rsatadi.

Moliya mexanizmi bu moliya siYosatining aksari hollarda o`zgarib turuvchi qismi hisoblanadi. Davlat tomonidan jamiyatdagi joriy iqtisodiy holatni hamda mamlakat ijtimoiy holatini hal etishdagi qo`yilgan taktik vazifalarning hal etilishi xususiyatlariga asosan moliya mexanizmi o`zgarib turadi. Davlat qonun chiqaruvchi va ijrochi organ sifatida moliya munosabatlarini turlicha tashkil etishi mumkin. Masalan, bunday moliya munosabatlari vakolatli davlat organlari hamda faoliyat ko`rsataYotgan xo`jalik sub`ektlari o`rtasida davlat byudjetining daromadlarini shakllantirish maqsadida ulardan turli soliqlar to`lovlarini undirish asosida tashkil etilishi mumkin. Davlat tomonidan soliq tizimini tashkil etishda umumdavlat va mahalliy soliqlarni, bevosita va bilvosita soliqlarning turlarini, har bir soliq turi bo`yicha ob`ekti, sub`ekti, soliq stavkalari, soliqlar bo`yicha imtiYozlarning ro`yxatini hamda amaldagi soliq qonunchiligining o`zgarish yuzasidagi boshqa elementlarni hisobga olishi zarur. Buning uchun davlat organlari barcha iqtisodiy qonunlarni juda puxta o`rganishi hamda moliyaning rivojlanishini mukammal aniqlashi lozim.

Moliya mexanizmi o`z mohiyatiga ko`ra asosan ikkiga bo`linadi: direktiv moliya mexanizmi; tartibga solib turuvchi moliya mexanizmi.

Direktiv moliya mexanizmida asosan davlatning vakolatli organlari tomonidan moliya munosabatlari ishlab chiqiladi. Ushbu moliya munosabatlariga soliqlar, yig`imlar, davlat krediti, byudjet xarajatlari, byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tuzilmasini tashkil etish, byudjet jaraYoni, byudjetlararo munosabatlar hamda moliyaviy rejalashtirish kiradi.

Direktiv moliya mexanizmidavlatning vakolatli organlari jamiyatda moliya munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan tartib-qoidalar tizimini juda puxta va mukammal holda ishlab chiqadi.

SHuni ham ta'kidlash lozimki, ba'zi holatlarda ishlab chiqilgan direktiv moliya mexanizmi davlat bevosita ishtirok etmaydigan moliya munosabatlarini o'z tarkibiga kiritishi mumkin. Bu holat jamiyatda moliya siYosatini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan sohalarning faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bunday sohaga korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tartibga solib turuvchi moliya mexanizmi davlat manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydigan moliya munosabatlarining aniq segmentida faoliyatni tartibga solib turadi. Ta'kidlab o'tganimizdek, moliya mexanizmi tuzilishi jihatdan murakkab tizim hisoblanib, uning tarkibiy qismi xilma-xil moliya munosabatlaridan tashkil etishi hisoblanadi. Bunday holatlarda davlatning vakolatli organlari tomonidan bunday xo'jalik sub'ektlari uchun ular barcha soliqlar va yig'implarni to'lab bo'lganidan so'ng ular ixtiYorida qoladigan moliya resurslaridan foydalanishning faqat umumiy tartib-qoidalarini o'rnatadi. Ho'jalik sub'ektlari esa ixtiYorida qolgan moliya resurslaridan foydalanishning shakllari, pul jamg'armalari turlarini mustaqil tarzda ishlab chiqadilar.

Moliyani boshqarishda davlat tomonidan puxta va mukammal ishlab chiqilgan faoliyat olib borishlikni, hamda bu faoliyatda moliya mexanizmidan oqilona foydalanishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiYotining bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tishi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi hamda mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jaraYoni natijasida moliya mexanizmi bir qator o'zgarishlarni amalga oshirdi. Bunga quyidagi omillar bevosita ta'sir ko'rsatdi:

1. Byudjetlararo munosabatlar sifatida o'zgarishining amalga oshirilishi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarning sarflanishida katta vakolatga ega bo'lishdi, ulardagi mavjud byudjet taqchilligi (defitsiti) davlat byudjeti tarkibiga kiritildi.

2. Davlat byudjetining taqchilligi asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan muomalaga davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari va davlat o'rta muddatli g'azna majburiyatlarini chiqarish Yordamida qoplanishi amalga oshirilmoqda.

3. Davlat byudjetidan tashqari maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etildi (Respublika Yo'l jamg'armasi, davlat bandlik jamg'armasi, pensiya jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qo'mitasining maxsus fondi).

4. Mamlakatda moliyani boshqarishda o'zgarishlar amalga oshirildi. (O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi, Hisob palatalari tashkil etildi).

5. Davlat va xususiylashtirilgan xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar soliq to'lash asosiga o'tkazildi.

6. Milliy qimmatli qog'ozlar bozorining tashkil etilishi natijasida xo'jalik sub'ektlarini muomalaga korporativ qimmatli qog'ozlarni chiqarish tartib-qoidasi o'zgardi va bu jaraYon qattiq nazoratga olindi.

YUqoridagi omillar esa iqtisodiyotning bozor munosabatlari sharoitiga o'tish davrida bu jaraYonlar talabiga javob beradigan oqilona moliya siYosati olib borishlikni talab etadi. Moliya siYosati olib borilishida moliya mexanizmi moxiyatining juda kattaligiga guvoh bo'ldik. Oqilona tashkil qilingan moliya mexanizmi xo'jalik sub'ektlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga va mamlakat mintaqalarining moddiy manfaatdorligini oshirishga hamda byudjet mablag'lari tejamkorlik bilan sarflanishini to'g'ri Yo'lga qo'yishiga xizmat qiladi.

3.5. Moliya tizimi va uning bo'g'inlariga tasnif

Iqtisodiy adabiyotda «moliya tizimi» tushunchasi ikki xil ma'noda talqin etiladi. Ulardan birinchisi asosan pul operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlari (tijorat banklari, investitsiya fondlari va kompaniyalari) faoliyatining yig'indisidan iboratligini anglatadi. Ikkinchisi esa butun moliya munosabatlari tizimidan iboratligini anglatadi, lekin bu «tizim» tushunchasi o'zaro bog'liqlikni bildiradi. Bunga asosan alohida olingan moliya munosabatlari, uning ishtirokchilari va bo'g'inlariga vaholanki moliya tizimiga ta'rif berish mumkin. Moliya tizimi - turli moliya munosabatlarining yig'indisi hisoblanib, bu munosabatlar jaryonlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlatning pul mablag'lari jamg'armalari turli shakllar hamda usullar yordamida shakllanadi, taqsimlanadi va sarflanadi.


Moliya tizimini moliya munosabatlari ishtirokchilarining o'ziga xos xususiyatiga asosan quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin. Chizma keyingi betda berilgan.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, moliya tizimi ikki asosiy va o'zaro bog'langan bo'g'inostidan iborat. Birinchisiga, markazlashgan moliya kirib, u iqtisodiyot miqyosida kengaytirilgan ishlab chiqarishning ehtiyojlarini va jamiyat aholisining ijtimoiy guruhlarini ijtimoiy himoya qilish uchun kerakli moliya mablag'lari bilan ta'minlash vazifasini amalga oshiradi. Ikkinchisiga xo'jalik sub'ektlarining moliyasi kirib, u alohida olingan sub'ektlarning ishlab chiqarish jaryonlarini pul mablag'lari bilan ta'minlashni amalga oshiradi.

Moliya tizimining markazlashmagan moliya bo'g'inosti moliya tizimining asosi hisoblanadi, chunki xo'jalik sub'ektlarining moliyasida, ya'ni asosan moddiy ishlab chiqarish sohasida moliya resurslarining asosiy qismi shakllanadi. Xo'jalik sub'ektlarining moliyasi, moliya tizimining bo'g'ini sifatida mamlakatdagi pul mablag'lari jamg'armalarining manbai hisoblangan milliy daromad yaratiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, markazlashmagan moliya pul mablag'larining holatidan mamlakatning moliya holati bevosita

bog'liqdir. Chunki markazlashmagan moliya bo'g'inostida yaratilgan milliy daromadning miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, markazlashgan moliya bo'g'inostiga ko'p mablag' tushishi amalga oshadi.

chizma

O'zbekiston Respublikasida Moliya tizimi¹⁵.

¹⁵ Чизма муаллиф томонидан тузилган

Xo'jalik sub`ektlari o'zining faoliyati asosida o'ziga xos guruhlardan, ya`ni sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardan tashkil topgan. O'z vaqtida ho'jalik sub`ektlari o'zlarining mulkchilik shakliga asosan guruhlarga bo'linib ketadi, ya`ni davlat korxonalari, davlat unitar korxonalari, ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari, Yopiq aktsiyadorlik jamiyatlari, xorijiy sarmoya ishtirokidagi qo'shma korxonalar, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar va xususiy korxonalar moliyasidan iboratdir. Agar biz xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning tarmoq sohasiga va tashkil etilishining mulkchilik shakli bo'yicha emas, ularni faoliyatini tijorat asosida yuritishiga ko'ra asosida guruhlarga bo'lsak, bu holatda:

- tijorat asosida faoliyat yuritilgan sub`ektlarning moliyasi;
- notijorat asosida faoliyat ko'rsatilgan sub`ektlarning moliyasi;
- jamoat (xomiylik asosida) sub`ektlarning moliyasiga ajratishimiz mumkin.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida juda ko'p xo'jalik sub`ektlari o'z faoliyatini tijorat asosida tashkil etadilar. Ularning moddiy xarajatlari, mehnat jamoalarini ijtimoiy rivojlantirish xarajatlarini qoplashning yagona manbai foyda hisoblanadi. Bunday omillar ta`sirida davlat vakolatli organlarining asosiy manfaati foyda ko'rib faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik sub`ektlarini rivojlantirishga Yordam berish hisoblanadi. Ushbu xo'jalik sub`ektlarining faoliyati natijasida milliy daromad yaratiladi. Ular ixtiyorida juda katta pul mablag'lari jamg'armalari aylanishi amalga oshirildi. Natijada markazlashgan moliya bo'g'inlari kerakli pul mablag'lari (soliqlar, turli yig'imlar shaklida) bilan ta`minlanadi.

Moliya tizimining asosiy bo'g'ini, markazlashgan moliya hisoblanadi. Bunda moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash hamda qayta taqsimlash natijasida markazlashgan pul mablag'lari resurslari shakllantiriladi. Davlat ixtiyorida bunday markazlashgan pul mablag'lari resurslarining jamlanishi eng avvalo uni

mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish faoliyati bilan bog'liqdir. Markazlashgan pul mablag'lari resurslarining shakllari byudjet, byudjetdan tashqari har xil jamg'armalar hamda davlat krediti hisoblanadi.

Davlat byudjeti butun moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Davlat byudjeti to'liq davlat mulkchiligi hisoblanib, u O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni va «O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi» asosida tashkil etiladi. Davlat byudjeti o'zaro bog'liq ikki qismdan, daromadlar va xarajatlardan iborat. Davlat byudjetining daromadlar qismida pul mablag'larining manbalari hamda ularning miqdoriy tasnifi ko'rsatiladi. Daromadlar tarkibiy tuzilishida asosan soliqlar, turli yig'imlar, bojxona bojlari va boshqa tushumlar aks ettiriladi. Davlat byudjetining xarajatlar qismida byudjet mablag'larining sarflanishi sohasi va ularning miqdoriy tasnifi beriladi. Xarajatlar tarkibida iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, davlat organlarini saqlash hamda mudofaa xarajatlarini ko'rsatishimiz mumkin. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibidagi u Yoki bu sohaning ulushi bu davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, aholining moddiy haYoti holatiga bevosita bog'liqdir.

Davlat byudjetining tarkibiy tuzilishi esa har bir davlatning konstitutsiyaviy tizimiga bog'liq. Federal davlatlarda (AQSH, GFR, Rossiya, Xindiston, SHveysariya va boshqalar) uch bo'g'inli byudjet tizimi tashkil etilgan, unitar davlatlarda (YAponiya, O'zbekiston, Qozog'iston va boshqalar) esa ikki bo'g'inli byudjet tizimi amal qiladi.

Har bir mamlakatda turli darajadagi byudjetlardan tashqari maqsadli jamg'armalar tashkil etiladi. Ushbu byudjetdan tashqari jamg'armalar soliq to'lovchilarining majburiy ajratmalar hisobidan tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan quyidagi byudjetdan tashqari jamg'armalar mavjud:

-Respublika Yo'l jamg'armasi;

-Davlat bandlik jamg'armasi;

- Respublika pensiya jamg'armasi;
- maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qo'mitasining maxsus fondi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular moliya zahirasi hisoblanadi. Chunki ularning mablag'lari faqatgina aniq maqsadga sarflanadi. Masalan, Respublika pensiya jamg'armasidan faqatgina pensiyalar to'lashga, nogironlik nafaqasiga, boquvchisini Yo'qotgani uchun nafaqaga, ijtimoiy nafaqalar to'lashga sarflanadi. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning daromad qismi ham aniq ajratmalar hisobiga shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasining 2006 yil uchun tasdiqlangan byudjetida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslar mehnatga haq to'lash jamg'armasiga nisbatan quyidagi ajratmalarni to'laydilar:

- Respublika pensiya jamg'armasiga-24,2 %;
- Davlat bandlik jamg'armasiga-0,5 %;
- O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushma kengashiga-0,3 %.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida yildan-yilga yuridik shaxslar va aholidan olinadigan soliqlar va yig'imlarning stavkalari pasaytirib kelinmoqda. Bunga misol qilib, 2000 yilda Respublika pensiya jamg'armasiga ajratma stavkasi 37,3 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2006 yilda 25,0 % ni tashkil etdi va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Markazlashgan moliyaning asosiy qismi davlat krediti hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, keyingi vaqtda davlat kreditining ahamiyati o'sib bormoqda. Buning asosiy sababi har bir alohida olingan davlatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji hisoblanadi. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatining Yo'qligi, byudjet taqchilligining mavjudligi natijasida davlat katta miqdordagi pul mablag'lariga ehtiyoj sezadi. Yuzaga chiqqan salbiy holatning oldini olish maqsadida, vakolatli davlat organlari pul

emissiyasining oldini olish, inflyatsiyani zarur darajada ushlab turish maqsadida davlat kreditidan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasida mavjud byudjet taqchilligini qoplash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi muomalaga davlat kreditining shakli hisoblangan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DKMO) va davlat o'rta muddatli g'azna majburiyatlari (DO'MHM) chiqarmoqda va ularni faqatgina yuridik shaxslar o'rtasida joylashtirishni amalga oshirib kelmoqda.

3.6. Moliyani boshqarishning hozirgi zamon tizimi

Moliyani boshqarish tizimi muhim ahamiyatga ega bo'ladi, chunki u mamlakat iqtisodiyotini boshqarishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi davrda iqtisodiyotning muvaf-faqiyatli rivojlanishi oqilona Yo'lga qo'yilgan va boshqarilib turuvchi moliya tizimi hamda fond bozorisiz mumkin emas. Moliya tizimi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladigan real iqtisodiyot negizida faoliyat ko'rsatadi. O'z vaqtida moliya tizimi bu real iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatish shart-sharoitlarini belgilab beradi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishda, moddiy va nomoddiy resurslarni taqsimlashda hamda pul oqimlari oqilona sarflanishida moliya tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda moliya tizimi real iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, dastaklar hamda moliya institutlarining barcha bo'g'inlari faoliyatining yig'indisidan iborat. SHuning uchun jamiyatni jamoat – siYosiy haYotida oqilona muvozanatni saqlab turish, uni rivojlantirishda, davlat organlarining barcha bo'g'inlari o'rtasida munosabatlarni Yo'lga qo'yishda moliyani boshqarish juda murakkab hamda puxta ishlab chiqilgan moliya tizimini talab etadi.

Mamlakatimizda moliyani boshqarish eng avvalo davlatimizning oliy qonunchilik organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan moliyani boshqarish oliy qonunchilik organlari hisoblangan Oliy Majlisning ikki palatasiga, ya'ni Senat va Quyi Qonunchilik Palatasiga yuklatilgan. Bunday boshqaruv eng avvalo davlat byudjetini ko'rib chiqish, uni tasdiqlash hamda byudjet ijrosini tasdiqlashda yuzaga chiqadi. Oliy Majlis bundan tashqari soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi qonunlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Moliyani boshqarishda oliy qonunchilik organlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka asosan Prezident devoni tomonidan mamlakatdagi moliya siyosatini olib borish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarini qabul qilish uchun takliflar kiritadi.

Moliyani boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi muhim o'ringa ega. Ushbu organga asosan davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining harakatini maqsadli nazorat qilish yuklatilgan. Bundan tashqari qabul qilingan qonunlarni moliyaviy nuqtai nazardan ekspertiza qilishni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan mamlakatimizda moliyani boshqarishda juda katta vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. Ushbu vakolatli organ tomonidan davlat byudjetini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat etish hamda mamlakatimizda moliya, pul, kredit va fond bozorida yagona siyosat olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mamlakatdagi barcha vazirliklar va idoralarning moliya faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib turadi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan moliyani boshqarishdagi umumiy boshqaruvdan tashqari uni aniq amalga oshiruvchi tezkor (operativ boshqaruv) moliya apparati mavjud. Mamlakatimizda moliyani boshqarishni joylarda ijro etuvchi barcha tashkiliy tuzilmalarning jamlamasi moliya apparatini tashkil etadi. Agar biz moliyani boshqarishning umumiy va tezkor sohalarini

umumlashtirsak, u holda moliyani boshqarish tizimini shakllantirib uni quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.


Moliya tizimida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi muhim o'rinni egallaydi. Buning asosiy sababi, Moliya vazirligi nafaqat moliya siyosatini ishlab chiqib, uni amalga oshiradi, balki o'z vaqtida davlat ijroiya organlari tomonidan bajarilishini bevosita nazorat etadi. Moliyani boshqarishda Moliya vazirligiga amaldagi qonunchilikka asosan quyidagi vazifalarni bajarish yuklatilgan:

-manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yuzasidan qisqa hamda uzoq muddatli reja-taxminlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

-mamlakat oliy ijroiya organlari bilan birgalikda davlatning markazlashgan pul mablag'lari resurslariga bo'lgan ehtiyojini aniqlaydi va uni davlat va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlash yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

4-chizma

O'zbekiston Respublikasida moliyani boshqarish tizimi



Majlisining ikki Palatasi

Davlat Soliq Qo'mitasi va uning joylardagi bo'g'inlari

O'zbekiston Respublikasining Hisob Palatasi

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo'mitasi va uning joylardagi bo'g'inlari

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi moliya xizmati (bo'limlari)

Manba. CHizma muallif tomonidan tayYorlangan.

-davlat byudjetining loyihasini tayYorlash yuzasidan ishni tashkil etadi, mahalliy byudjetlar uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalari me`Yorlari loyihasini ishlab chiqadi, ajratiladigan subventsiya hamda dotatsiyalarning miqdorini belgilaydi;

-davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalarning ijrosini ta`minlaydi;

- Davlat Soliq Qo'mitasi bilan birgalikda soliq tizimi va soliq siYosatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

-manfaatdor vazirliklar, idoralar va kompaniyalar bilan birgalikda narx-navo siYosatini (tariflar, imtiYozlar) aniqlashda ishtirok etadi;

- Davlatning qisqa hamda uzoq muddatli obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ularni joylashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- milliy qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;


- mamlakatda sug'urta faoliyatini takomillashtirish yuzasidan olib boriladigan ishlarda ishtirok etadi va nazorat qiladi;

- Vazirlar Mahkamasining topshirig'i va vakolati bo'yicha halqaro moliya tashkilotlari (Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro Tiklanish va TaraqqiYot Banki va boshqalar) bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasining tashqi davlat qarzidorligi yuzasidan dasturlar loyihasini ishlab chiqadi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'zining tarkibiy bo'g'inlari orqali amalga oshiradi. Biz bu tarkibiy tuzilishni quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarkibiy tuzilishi.



Manba. CHizma muallif tomonidan tayyorlangan.

SHuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning joylardagi bo'g'inlari o'z faoliyatini «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuniga asosan tashkil etadi hamda amalga oshiradi.

Mamlakat yangi soliq qonunining qabul qilinishi natijasida davlat daromadlarida soliqlar va yig'implarning ahamiyatini oshirishga ta'sir ko'rsatdi. Soliq qonunchiligini takomillashtirish va davlat byudjetiga daromadlar tushumini oshirish maqsadida Moliya vazirligi tarkibidan maxsus vakolatga ega bo'lgan markazlashgan soliq organlari tizimini tashkil etishga katta ehtiyoj sezildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991 yil 14 iyunda «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari to'g'risidagi nizom»ni tasdiqladi. Ushbu nizomga asosan Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 12 avgustida 217-sonli «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari to'g'risida»gi qarori qabul

qilindi. Ushbu qonunchilik asosida soliq organlarining mustaqil davlat soliq xizmati sifatidagi faoliyati boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining maqomi, uning asosiy vazifalari, funktsiyalarining doirasi va faoliyatining kengayishi natijasida 1994 yil 14 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat bosh soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 18 martda «O'zbekiston respublikasi Davlat soliq qo'mitasini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi masalalari to'g'risida»gi 114-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu me`Yoriy hujjatga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi mamlakatimizda soliq va bojxona siYosatini amalga oshirish hamda davlatning iqtisodiy manfaatlarini va mulkiy huquqlari himoyasini ta`minlash sohasidagi davlatning vakolatli organi ekanligi belgilab qo'yildi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy isloxlarning chuqurlashib borishi va bu o'zgarishlarga soliq siYosatini moslashtirish hamda takomillashtirish maqsadida 1997 yil 29 avgustda «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi 474-I sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 12 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 14-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu me`Yoriy hujjatlarda mamlakatimizdagi davlat soliq organlarining amalga oshiradigan asosiy funktsiya va vazifalarining doirasi kengaytirildi hamda aniqlashtirildi.

Moliyani boshqarishda Davlat Soliq Qo'mitasiga amaldagi qonunchilikka asosan quyidagi vazifalarni bajarish yuklatilgan:

-mamlakatda soliq qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, soliqlar to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

-solliq qonun hujjatlariga rioya etishda zarur shartlarni ta`minlash, solliq majburiyatlarini bajarishda solliq to'lovchilarga Yordam ko'rsatish;

-mamlakatda solliq siYosatini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish;

-solliqqa tortish sub`ektlari va ob`ektlarini to'liq va o'z vaqtida hisobga olishni ta`minlash;

-solliqqa doir huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va bartaraf qilish;

-nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishlarning hammasini muvofiqlashtirish;

-jismoniy va yuridik shaxslarni, byudjetga solliqlar va boshqa to'lovlarni to'lovchilarni, yuridik va jismoniy shaxslarning solliqqa tortish ob`ektlarini hisobga olishning to'laqonli bazasini yaratish;

-yagona telekommunikatsiya tizimini yaratish;

-tashkiliy hamda kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish va kuchaytirish;

-me`Yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, solliq sohasida huquqbuzarlikning oldini olish, solliqlarni yig'ish va majburiy tarzda undirish funksiyalarini birlashtirish;

-belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga muvofiq byudjetga to'lovlarning to'liq tushishini ta`minlash;


-solliq tizimining unumdorligi va samaradorligini oshirish, salbiy ta`sir va xatar darajasini pasaytirish;

-o'tkaziladigan iqtisodiy islohotlarning borishiga xufiya iqtisodiYotning roli va ta`sirini kamaytirish.

YUqorida ta`kidlab o'tgan vazifalarni Davlat Solliq Qo'mitasi quyida keltirilgan chizmada o'zining tarkibiy bo'g'inlari orqali amalga oshiradi.

6-chizma

O'zbekiston Respublikasi Davlat Solliq Qo'mitasining tarkibiy tuzilishi



Manba. CHizma muallif tomonidan tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, «O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi» va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalariga amal qilgan holda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng u o'zining bojxona chegarasiga ega bo'ldi. Mustaqil Hamdo'stlik

Davlatlari va uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarning faollashuvi, mamlakatlararo eksport-import hajmining ortishiga olib keldi. Ushbu omillar asosida bojxona ishini tashkil etishni takomillashtirish, yagona bojxona siyosatini o'tkazish, respublika bojxona organlari faoliyatining tezkorligi va ta'sirchanligini oshirish, ularning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashdagi rolini kuchaytirish, shuningdek bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 8 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasining tashkil etish to'g'risida»gi PF-1815-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1997 yil

30 iyulda 374-sonli «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasining faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi tashkil etildi.

YUqorida ta'kidlangan qonunchilikka asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasiga mamlakatimizdagi bojxona bojlarini undirish majburiyati yuklatilgan. Ushbu majburiyatni amalga oshirish maqsadida Davlat Bojxona Qo'mitasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

-mamlakatdagi bojxona organlari tomonidan soliqlarning to'g'ri va o'z muddatida undirish yuzasidan soliq tekshiruvlarini o'tkazish;

-joylardagi soliq organlari tomonidan soliqlarni hisoblash va undirish bo'yicha barcha hujjatlarni tekshirishdan o'tkazish;

-soliq to'lovlarining amaldagi soliq va bojxona qonunchiligini buzganligi Yoki majburiyatlarini bajarmaganligi sababli ularning tijorat banklaridagi hisobvaraqlari bo'yicha barcha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish;

-amaldagi soliq va bojxona qonunchiligida ko'zda tutilgan soliqlar bo'yicha boqimandalar hamda jarimalarni undirish.

Umuman olinganda, bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasidan o'tadigan tovarlar yuzasidan amaldagi bojxona soliqlari, valyuta hamda bojxona qonunchiligiga amal qilinishi, bojxona bojlarining to'g'ri hisoblanishi, undirilishini nazorat qiladi.

Moliyani boshqarishda o'ziga xos o'rinni xo'jalik yurituvchi sub`ektlardagi moliya xizmati egallaydi. Bunday boshqaruvni olib borishda davlatning vakolatli organlari ishtirok etmaydi va boshqaruvni manfaatdor tomonlar olib boradi. Moliya boshqaruvini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- ichki(korporativ);
- aktsiyadorlar boshqaruvi;
- tijorat banklari tomonidan;
- auditor firmalari tomonidan olib boriladigan boshqaruvlardir.

1. Ichki boshqaruv. Bunday boshqaruvni xo'jalik yurituvchi sub`ektlaridagi tashkil etilgan moliya xizmati, moliya bo'limlari, moliya menejmenti va moliya faoliyatiga taalluqli boshqa xizmatlar olib boradilar. Bundan faoliyatda o'zlik va jalb etilgan pul mablag'lardan maqsadli hamda samaradorlik bilan foydalanishni nazorat etish, moliyaviy holatni taxlil etish, davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar, tijorat banklari va boshqa mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarish, debitorlik-kreditorlik qarzdorlarni nazorat qilish va bajarish amalga oshiriladi.

2. Xo'jalik sub`ektlarining aktsiyadorlari, asosan yirik aktsiyadorlar kuzatuvchi o'z sarmoyalarini samadorlik bilan foydalanishini hamda shu asosda dividend olish maqsadida moliyani boshqarishda bevosita ishtirok etadi.

3. Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga kredit berish va uning o'z muddatida qaytarilishida moliyaning maqsadli boshqaruvida ishtirok etadilar.

4. Auditor firmalari xo'jalik yurituvchi sub`ektlar xo'jalik-moliya faoliyatini nazorat qilish vaqtida va shartnoma asosida moliya boshqaruvida Yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishda ishtirok etadilar.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatidagi ijobiy moliyaviy natijalar bu erda moliyani boshqarishda samarador qoida va uslublardan foydalaniladi. Yotganidan dalolat beradi. Buning aksi, xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatidagi salbiy moliyaviy natijalar (zararlar) bu erda moliyani boshqarishda samarasiz uslublardan foydalaniladi. Yotganligidan dalolat beradi hamda qat'iy chora-tadbirlar ko'rilishini talab etadi.

3.7. Moliyaviy boshqaruvda moliyaviy nazoratning modellari, shakllari va usullari

Moliyaviy nazorat moliyani boshqarish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u moliyani taqsimlash va qayta taqsimlash hamda nazorat funksiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Uning mohiyati barcha xo'jalik

yurituvchi sub`ektlar tomonidan amaldagi qonunchilikda belgilangan qonuniy-huquqiy me`Yorlarga amal qilishlik, bo'lajak moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish va mamlakat moliya tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta`minlash bilan izohlanadi. CHunki mamlakatda yaratilaYotgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jaraYonida yuzaga chiqadigan ulkan pul oqimlarining maqsadli sarflanishi uning ustidan nazoratni talab etadi. Ushbu nazoratni amalga oshirish esa maxsus ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni va ulardagi yuqori malakali hamda tajribali mutaxassislarning jalb qilinishini talab etadi. Bularni umumlashtirsak moliyaviy nazorat tushunchasi yuzaga keladi. Moliyaviy nazorat -maxsus vakolatga ega tekshiruv tashkilotlari va tekshiruvchilarning (auditorlar) iqtisodiYotdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyatini amaldagi moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya etilishi yuzasidan turli shakl hamda usullarni qo'llash orqali olib boriladigan faoliyati hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat uning ob`ektlari, sub`ektlari, o'tkazish muddatlari, o'tkazish reglamentiga asosan turli modellar, shakllar va usullarga bo'linib ketadi. Biz quyida ularni Yoritishga harakat qilamiz.

Ma'lumki har qanday moliyaviy nazoratning mahsuldorligi va ta`sirchanligi unda aniqlangan turli moliyaviy qonunbuzarlik holatlariga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralariga bog'liqdir. Xalqaro amaliYotda moliyaviy nazorat orqali qo'llaniladigan jazo choralar darajasiga asosan ikki model shakllangan:

1. Moliyaviy nazoratning anglosakson modeli.
2. Moliyaviy nazoratning frantsuz modeli.

Moliyaviy nazoratning anglosakson modeli qo'llaniladigan mamlakatlardagi nazorat organining faoliyatida o'zi olib borgan moliyaviy nazoratning yakunlari hamda unda aniqlangan qonunbuzarlik to'g'risida faqatgina hisobot tayYorlash bilan cheklangan. Ushbu nazoratda aniqlangan moliyaviy qonunbuzarlikka Yo'l qo'yilgan shaxslarga nisbatan qanday

moliyaviy jazo qo'llanilishi masalasi ma'muriy va sud organlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu organlarning rasmiy jazo to'g'risidagi hukmiga jazoning qo'llanilishiga asos bo'ladi.

Moliyaviy nazoratning frantsuz modelini qo'llayotgan mamlakatlardagi nazorat organining faoliyatida o'zi olib borgan moliyaviy nazorat yakunlarida aniqlangan moliyaviy qonunbuzarlikka Yo'l qo'ygan shaxslarning aybdorlik darajasini aniqlash hamda ulardan Yo'l qo'yilgan zararni qoplashni talab qilish huquqi berilgan. Bu mamlakatlarda moliyaviy qonunbuzarlikka Yo'l qo'ygan shaxslarga jazo qo'llash uchun sud organlarining xukmi kerak emas.

Moliyaviy nazoratning olib borilishi, muddatlari, reglamenti, nazorat ob'ekti va sub'ektiga asosan quyidagi asosiy shakllarda tasniflash mumkin:

1. Moliyaviy nazoratning sub'ektiga asosan–davlat vakolatli organlari, xo'jalik sub'ekti ichidagi, tarmoq, jamoa va auditorlik nazorati.

2. Moliyaviy nazoratning ob'ektiga asosan–soliq, kredit, valyuta, bojxona, byudjetdan tashqari fondlar va sug'urta.

3. Moliyaviy nazorat o'tkazilishi reglamentiga asosan–ichki va tashqi (majburiy) nazorat.

4. Moliyaviy nazoratning o'tkazilish muddatiga asosan–dastlabki, joriy va davriy nazorat.

Davlat moliya nazoratini umumdavlat boshqaruv organlari va tezkor moliya boshqaruv organlari (O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi) tomonidan amaldagi qonunchilikka asosan olib boriladi.

Xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat alohida olingan xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichida tashkil qilingan moliya xizmati, moliya bo'limi Yoki buxgalteriya xodimlari tomonidan olib boriladi.

Moliyaviy nazoratning tarmoq nazorati turli vazirliklar, kompaniyalar, assotsiatsiyalar va xoldinglarning tarkibida tashkil etilgan maxsus moliya taftish organlari tomonidan olib boriladi.

Moliyaviy nazoratning jamoa nazorati aktsiyadorlik jamiyatlarida aktsiyadorlar orqali tashkil etilgan maxsus moliya taftish organlari tomonidan olib boriladi.

Moliyaviy nazoratning mustaqil, ya`ni auditorlik nazorati esa o`z faloiyati uchun maxsus litsenziyaga ega hamda malakali auditorlari mavjud auditorlik firmalari tomonidan olib boriladi.

Moliyaviy nazoratning ob`ektini asosan amaldagi qonunchilikka asosan xo`jalik sub`ektining alohida olingan faoliyat turini faqat vakolatli nazorat organi nazorat etadi. Masalan, soliq organlari soliq qonunchiligiga rioya etilishini, tijorat banklari berilgan kreditlar bo`yicha olib boradi.

Moliyaviy nazoratning o`tkazilish reglamentiga asosan har bir xo`jalik yurituvchi sub`ekt doimiy ravishda ichki nazoratni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyatini tashqi (majburiy) nazoratining o`tkazilishi amaldagi qonunchilikda belgilab qo`yilgan. Masalan, yuridik shaxslar xo`jalik-moliya faoliyatining yillik yakunlari majburiy tarzda auditor firmalari va soliq organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Dastlabki moliyaviy nazorat xo`jalik yurituvchi sub`ektlar o`zlarining xo`jalik moliya faoliyatining boshlanishidan oldin olib boriladigan nazorat shaklidir. Bu nazorat shakli yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, unda ularning moliya rejalari, kassa rejalari, smetalarni ishlab chiqish va uni ko`rib chiqish hamda tasdiqlash jarayonini o`z tarkibiga oladi. Dastlabki moliyaviy nazorat orqali kelajakda amaldagi byudjet-soliq qonunchiligi va boshqa me`yoriy hujjatlarda keltirilgan tartib va qoidalar buzilishining oldi olinishiga xizmat qiladi.

Joriy moliyaviy nazorat xo`jalik yurituvchi sub`ektlar xo`jalik-moliya faoliyatida moliyaviy operatsiyalar va pullik bitimlar tuzilayotgan vaqtida

amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning ushbu shakli ma`lum hisobot davri (masalan har dekada, oy, kvartal) nazorat qilinadigan jaraYon, muomala va xatti-harakat tugagandan so`ng uning miqdor va sifat tavsifiga muvofiq bajariladigan nazoratdan iborat. Joriy moliyaviy nazorat uchun ma`lumot manbai rejadagi tezkor-texnik, statistika va buxgalteriya axboroti xizmat qiladi. Joriy moliyaviy nazorat xo`jalik yurituvchi sub`ektlar xo`jalik-moliya faoliyatida moliyaviy intizom buzilishining oldini olish hamda pullik bitimlarni o`z vaqtida tuzilishini ta`minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Davriy moliyaviy nazorat-muayyan hisobot davri uchun tuzilgan rejalar, smetalar, me`Yorlar va buxgalteriya hujjatlari, ishlab chiqarish, hisobotlarning ma`lumotlari, hisob registrlari, hisobotlar hamda boshqa manbalardagi ma`lumotlar asosidagi tekshirishdir. Amaldagi qonunchilik, shu jumladan soliq to`g`risidagi qonunlardagi talablarga rioya etilaYotganini, xo`jalik muomalalari to`g`ri, o`z muddatida va maqsadga muvofiq olib borilaYotganligini aniqlash, nazorat etilaYotgan ob`ekt (jismoniy, yuridik va mansabdor shaxs) faoliyatidagi kamchiliklar va qonunbuzarliklarni ochib tashlash hamda ularni bartaraf etish bo`yicha chora-tadbirlarini ko`rish mazkur nazorat shaklining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Moliya nazorati o`zining amalga oshirish usullari bo`yicha ham turli guruhlariga ajratiladi, ular quyidagilardan tashkil topgan:

1. Hujjatli va kameral tekshirish.
2. O`rganib chiqish.
3. Nazorat.
4. Moliyaviy holatini taxlil etish.
5. Monitoring (kuzatish).
6. Taftish.

Hujjatli va kameral tekshirish jaraYonida alohida olingan xo`jalik sub`ektlarining balansi, hisoboti va xarajat xujjatlari asosida ma`lum muddatdagi xo`jalik-moliya faoliyatining alohida masalalari ko`rib chiqiladi.

Ushbu tekshirish jarayonida xo'jalik sub'ektining xo'jalik-moliya faoliyatida moliya intizomining Yo'l quyilgan nuqsonlari aniqlanadi hamda bu nuqsonlarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Moliyaviy nazoratning o'rganib chiqish usuli hujjatli va nameral tekshirish usuliga nisbatan keng masalalarni qamrab oladi. Ushbu usulda xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, uning iqtisodiy potentsiali ko'rsatkichlari chuqur o'rganib chiqiladi hamda kelajakda bo'lajak rivojlantirish Yo'nalishlari belgilanadi.

Iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi ayrim sub'ektlarning faoliyatini tartibga solib turish uchun maxsus litsenziyalar talab etiladi. Bunga misol qilib, auditorlik faoliyati uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, bank faoliyati uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus litsenziyalarini keltirish mumkin. Maxsus litsenziya olgan xo'jalik sub'ektlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida hamda me'yorlarga amal qilinishi ushbu litsenziya bergan organlar tomonidan nazorat qilinadi. SHuni ta'kidlash lozimki, o'rnatilgan tartib-qoidalar va me'yorlarga amal qilmagan xo'jalik sub'ektlarining maxsus litsenziyasi qaytarib olinadi va u faoliyatini to'xtatishi shart.

Moliyaviy holatni tahlil etish moliya nazoratining eng keng tarqalgan hamda ustuvor usulidan biri hisoblanadi. Ushbu usulda xo'jalik yurituvchi sub'ektning davriy va yillik moliyaviy hisobotlari chuqur o'rganib chiqiladi. Bundan asosiy maqsad xo'jalik-moliya faoliyatining natijalariga umumiy baho berish, o'z kapitali bilan ta'minlanganlik darajasi hamda undan omilkorlik va samaradorlik bilan foydalanish Yo'nalishlari belgilanadi. Bu esa kelajakda xarajatlarni imkoni boricha kamaytirish va foydani ko'paytirishga xizmat qiladi.

Monitoring (kuzatuv) usuli kreditorlar, asosan tijorat banklari tomonidan qo'llaniladi. Tijorat banklari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga berilgan kreditlarni o'z muddatida va foizi bilan qaytarilishi maqsadida kreditni maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan doimiy nazorat-monitoring olib boradilar. Monitoring

jaraYonida xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan olinayotgan kreditdan samarasiz foydalanishi aniqlangan holatda kredit shartnomasidagi shartlar o'zgartirilishi Yoki kreditni muddatidan oldin qaytarilish talabi qo'yilishi mumkin.

Taftish moliya nazoratining eng chuqur va keng qamrovli usuli hisoblanadi. Ushbu usulda xo'jalik yurituvchi sub`ekt xo'jalik-moliya faoliyatining amaldagi qonunchilikka mosligi, maqsadlilik, to'g'riligi va samaradorligi Yo'nalishlari kompleks ravishda to'liq o'rganib chiqiladi. SHuni ta'kidlash lozimki, taftish bu juda mas'uliyatli va murakkab moliya nazorati hisoblanadi. SHuning uchun amaliyotda taftishni o'tkazish uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi va u oldindan ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida amalga oshiriladi. Dasturda o'tkaziladigan taftishning maqsadi, taftish ob`ekti va ko'riladigan asosiy masalalarning ro'yxati aks ettiriladi. O'tkaziladigan taftish maqsadiga ko'ra to'liq va to'liq bo'lmagan, reja asosida va rejadan tashqari, mavzuli va kompleks bo'lishi mumkin.

Amalga oshirilgan taftish yakunlangandan so'ng uning natijalari asosida dalolatnoma tuzilib u rasmiylashtiriladi. Dalolatnomada xo'jalik yurituvchi sub`ektning xo'jalik-moliya faoliyatidagi aniqlangan kamchiliklar, amaldagi qonunchilikda belgilangan moliya intizomi buzilganligi uchun qo'llaniladigan jazolar, yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rsatiladi. Rasmiylashtirilgan dalolatnoma asosida xo'jalik yurituvchi sub`ektning rahbariyati o'zlarini vakolatlari doirasida zarur qarorlarni qabul qiladilar.

3.8. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

DunYoning har bir davlatida, u qanday siyosiy tizimga asoslangan bo'lmasin, turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyati natijasida yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad yaratiladi. Jamiyatning moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan milliy daromad keyingi bosqichlarda doimiy ravishda taqsimlanish va qayta taqsimlanish jaraYonidan

o'tadi. Xuddi shu yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash hamda uning maqsadli sarflanishida juda muhim o'rinni davlat byudjeti egallaydi. Milliy daromadning qayta taqsimlanishi jaraYoni natijasida uning ma`lum qismi pul shaklida davlat byudjetiga kelib tushadi va markazlashgan moliya mablag'larining foizini tashkil etadi.

Iqtisodiy adabiYotda davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga, uni iqtisodiYotning rivojlanishidagi o'rni yuzasidan juda ko'plab iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari mavjud. Rossiyalik iqtisodchi olim, iqtisod fanlar doktori, professor Pogosov I.A.ning fikri- «davlat byudjeti mamlakatning asosiy moliya rejasi hisoblanadi va har qanday davlatning faoliyat yuritishi uchun majburiy shartlar asosida markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarining tashkil etish, taqsimlash va uni sarflashni ta`minlashdan iboratdir».¹⁶ Rossiyalik etakchi iqtisodchi olim, iqtisod fanlari doktori, akademik Polyak G.B. ning fikricha «davlat byudjeti – davlatga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirishnimoliyaviy ta`minlashga mo'ljallangan pul mablag'lari fondlarini tashkil etilish va sarflanishi shaklini ifoda etadi».¹⁷

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Jumaev N.S. va Burxonov U.A.larning fikricha «Davlat byudjeti–umumjamiyat xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida tuziladigan, hokimiyatning qonun chiqaruvchi oliy organi tomonidan tasdiqlanadigan davlatning markazlashtirilgan pul fondlaridir»¹⁸

O'zbekiston Respublikasida 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan 158-II sonli «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunga asosan, «Davlat byudjeti – davlat pul malag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining), markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlarning manbalari va ulardan tushumlarning miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar sarfining Yo'nalishlari va miqdorini nazarda tutadi».

¹⁶ Сенчагов В.К. Финансы, денежное обращение и кредит - М.: Проспект, 2004.

¹⁷ Поляк Г.Б. и др. Финансы. Денежное обращение. Кредит.-М.: ЮНИТИ, 2004.

¹⁸ Жумаев Н., Бурханов У. Молиянинг долзарб муаммолари–Т.: Янги аср авлоди. 2003.

Har bir davlatning moliya tizimida davlat byudjeti etakchi o'rinni egallaydi. Byudjet o'zida moliya mablag'larining umumdavlat jamg'armalarini shakllantirish va ishlatilishi bilan bog'liq bir tomondan vakolatli davlat hamda ikkinchi tomondan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar va aholi o'rtasidagi taqsimlash munosabatlarining asosiy qismini ifodalaydi.

Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati har qanday jamiyat tarixiy rivojlanishining ma`lum bosqichida davlat bajaradigan vazifalar va funktsiyalarga bevosita bog'liqdir. Byudjetning shakllanishi esa bevosita mamlakatdagi milliy daromadning rivojlanganlik hamda uni qayta taqsimlanish darajasiga bog'liqdir. Mamlakatda yaratilgan milliy daromadning qayta taqsimlashning asosiy moliya uslublari quyidagilardan iborat:

1. Turli pul jamg'armalarining (foyda, daromad, aktsiz soliqlari, qo'shilgan qiymat solig'i, byudjetdan tashqari jamg'arma to'lovlar) tashkil topishi va ularning sarflanishi;
2. Soliqlar va soliqqa tortishni tashkil etish;
3. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish;
4. Umumjamiyat iste`mol jamg'armalari, sug'urta va zaxira jamg'armalarining tashkil topishi va ularning sarflanishi.

Biz yuqorida qayd etgan jarayonlarning barchasida davlat byudjetining ahamiyati va o'rnini kattadir. Davlat byudjeti orqali markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari boshqaruv apparatini saqlab turish, ijtimoiy-madaniy chora-tadbirlarni amalga oshirish, iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar bilan o'z muddatlarida ta`minlaydilar.

Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga asosan uni ma`lum iqtisodiy mohiyatiga asosan uni ma`lum iqtisodiy munosabatlarini o'zida ifoda etadigan iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Davlat byudjeti orqali o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bevosita moliyaviy mablag'lar bilan ta`minlashning dastagi sifatida foydalanish bilan

bir vaqtda mamlakatda iqtisodiy hamda ijtimoiy siYosatni amalga oshirishda ham muhim dastak sifatida foydalaniladi.

Byudjet munosabatlari iqtisodiy kategoriya sifatida mamlakatdagi moliya munosabatlarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, ushbu omilga asosan davlat byudjeti moliyaning asosiy funktsiyalariga o'xshash quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatdagi milliy daromadni qayta taqsimlash;
- milliy iqtisodiYotni davlat tomonidan tartibga solib turish va rag'batlantirish;
- mamlakatda ijtimoiy sohani moliyaviy ta`minlash va davlatning ijtimoiy siYosatini amalga oshirish;
- mamlakatda markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarini tashkil etish va uning sarflanishi ustidan nazorat olib borish.

Davlat byudjetining milliy daromadini qayta taqsimlash funktsiyasi markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarini markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari darajasi me`Yorida tashkil topishi va ularning sarflanishida namoYon bo'ladi. SHuni ta`kidlash lozimki, dunYo iqtisodiYoti rivojlangan mamlakatlarida (AQSH, Germaniya, Frantsiya, YAponiya va boshqalar) turli darajadagi byudjetlar orqali milliy daromadning 30 % -50 % qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Har bir mamlakatda markaziy hukumat davlat byudjeti Yordamida milliy iqtisodiYotning faoliyatini, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turadi hamda iqtisodiYotning ayrim tarmoqlarini, hududlarni rivojlantirish maqsadida byudjet mablag'larini Yo'naltiradi. Iqtisodiy munosabatlarni ushbu tartibda ushlab turish orqali davlat maqsadli ravishda ishlab chiqarishni rivojlantirish Yoki sekinlashtirish, kapitallar va xususiy jamg'armalarning o'sishiga hamda taklif va talab tarkibini tubdan o'zgartirishga erishishi mumkin.

Mamlakatda milliy daromadning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash jaraYoni bir vaqtning o'zida amalga oshadigan va uzluksiz faoliyat

ko'rsatadigan ikki o'zaro uzviy bog'liq jaraYonlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- a) davlat byudjetining daromadlarini tashkil etish;
- b) davlat byudjetining xarajatlarini amalga oshirish.

Mamlakatda davlat byudjeti daromadlarining tashkil topishi va byudjet mablag'larining sarflanishi jaraYonlarida milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turish va rag'batlantirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining daromadlari – bir tomonda vakolatli davlat organlari va ikkinchi tomondan turli mulkchilik shaklida xo'jalik yurituvchi sub`ektlar hamda mamlakat aholisi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yig'indisi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida davlat byudjetining daromadlari – markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlarining ixtiyoriga kelib tushadigan pul mablag'lari hisoblanadi. Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi jaraYonlarida mamlakatda yaratilgan milliy daromadning ma`lum qismi majburiy tarzda davlat foydasiga undiriladi, natijada davlat va ho'jalik yurituvchi sub`ektlar hamda mamlakat aholisi o'rtasida moliyaviy munosabatlar vujudga keladi.

Davlat byudjeti mamlakatda faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning foydasini taqsimlashda faol ishtirok etadi. SHuni ta`kidlash lozimki, xo'jalik sub`ektlarining foydasidan davlat byudjetiga undirilish shakli, hajmi hamda korxonalar faoliyatining natijalariga moddiy manfaatlari o'rtasida ma`lum o'zaro bog'liqlik mavjud. Foydadan davlat byudjetiga undiriladigan shaklning rivojlanganligi va hajmiga asosan xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning ishlab chiqarish zaxiralaridan oqilona foydalanishi, rentabellik darajasining oshishi hamda eng asosiysi foydaning ko'payishi amalga oshadi.

Davlat byudjeti xarajatlari – bir tomondan davlatning vakolatli organlari va ikkinchi tomondan tashkilotlar, muassasalar hamda mamlakat aholisi o'rtasidagi mamlakatdagi markazlashgan pul mablag'lari jamg'armalarining

ishlatilishi jaraYonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarning yig'indisidir. Mamlakatning Markaziy hukumati davlat byudjeti orqali unda moliyaviy mablag'larini markazlashgan tarzda shakllantirish va u orqali umumdavlat ehtiYojlari hisoblangan – milliy iqtisodiYotning ustuvor tarmoqlarini jadal sur`atlar bilan rivojlantirish, malakali ishchi kuchlarini vujudga keltirish, ilm-fanni rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda mamlakat mudofaa qudratini saqlab turishni pul mablag'lari bilan etarli miqdorda hamda belgilangan muddatlarda ta`minlab turadi.

Mamlakatda davlat byudjeti orqali yaratilgan milliy daromadning hududlar bo'yicha, shu jumladan jamiyatning moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari bo'yicha qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Buning natijasida davlat byudjeti hisobidan saqlab turish va mudofaa ehtiYojlarini pul mablag'lari bilan moliyalashtirish maqsadida jamg'armalar tashkil etiladi. Davlat byudjeti orqali moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasida ularning oqilona va samarali rivojlanishi maqsadida byudjet moliyalashtirishi Yordamida moliya mablag'larining qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Mamlakatda yaratilgan milliy daromadni qayta taqsimlashda asosiy qurol hisoblangan davlat byudjeti Yordamida Markaziy hukumat iqtisodiYotning ustuvor tarmoqlariga va iqtisodiy hududlarga moliyaviy mablag'larni Yo'naltiradi, bundan tashqari davlat byudjeti Yordamida hududlararo va tarmoqlararo milliy daromadning qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Bu bilan esa, mamlakatning iqtisodiy rivojlantirishdagi manfaatlari va hududlarning tamoyillariga rioya etiladi.

Mamlakatda davlat byudjeti orqali yangi texnika va texnologiyalarni vujudga keltirish hamda fanni rivojlantirish Yo'nalishlarida faoliyat ko'rsataYotgan ilmiy-tadqiqot muassasalarini moliyalashtirish amalga oshiriladi. Mamlakatning Markaziy Hukumati davlat byudjeti orqali ilm-fanning

eng zamonaviy va ustuvor tarmoqlarini moliyalashtirish hisobiga milliy malakali ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishni ta`minlaydi. Ushbu holat esa davlat iqtisodiy haYotini muqobillashtirish, iqtisodiYotning barcha tarmoqlari o`rtasida pul va moddiy resurslarni oqilona joylashtirish, shu asosda texnik taraqqiYotni rivojlantirishga hamda mamlakat iqtisodiy qudratini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakat hududlarida iqtisodiy va madaniy qurilishda katta o`rinni byudjet mablag`lari orqali tartibga solib turish asosida juda keng ma`noda mablag`larni hududlararo taqsimlash, mahalliy davlat boshqaruv organlarining moliyaviy asosi hisoblangan mahalliy byudjetlarni kerakli daromadlar manbai bilan ta`minlash amalga oshiriladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti Yordamida jalb etilgan mablag` umumjamiyat iste`mol jamg`armalarini (umumjamiyat iste`mol jamg`armalari umumiy summasining 85 % gacha) tashkil etish va ularning sarflanishida birinchi navbatdagi ahamiyatga egadir.

Davlat byudjeti mamlakatda markazlashgan pul fondlarini tashkil etish va uning sarflanishi ustidan nazorat funksiyasini bajaradi. Bu funktsiyani bajarishda davlat byudjetiga byudjet mablag`larining kelib tushishi hamda ularning maqsadli sarflanishi ustidan davlat vakolatli organlarining imkoniyatlari va majburiyatlari asosiy o`rinni egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, davlat byudjeti har bir mamlakatning asosiy moliya rejasi hisoblanadi va u markaziy hamda mahalliy davlat boshqaruv organlariga boshqaruv vakolatlarini amalga oshirishlari uchun haqiqiy iqtisodiy imkoniyat yaratib beradi. Davlat byudjeti o`zida davlat faoliyati uchun kerakli bo`lgan moliya resurslarining hajmini ifoda etadi va shu orqali mamlakatda olib boriladigan soliq siYosatini belgilab beradi. Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning qayta taqsimlanishi, byudjet mablag`larining aniq maqsadlarga sarflanishi qayd etiladi va buning natijasida mamlakatdagi

iqtisodiy hamda ijtimoiy jaraYonlarning tartibga soluvchisi sifatida maydonga chiqadi.

3.9. Byudjet tuzilmasi va byudjet tizimi

Byudjet tuzilmasi o'z mohiyatiga asosan – davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimini tashkil etish, byudjet tizimiga kiruvchi alohida byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, turli darajadagi byudjetlarning faoliyat ko'rsatishini huquqiy jihatdan ta'minlash, byudjetlarning tuzilishi va tarkibi, byudjetlarning daromadlarini shakllantirish hamda byudjet mablag'larining sarflanishi jaraYonlarini o'zida aks ettiradi.

Har bir davlatda davlat byudjeti tuzilmasining asosi , ushbu davlatning siYosiy tizimi, undagi asosiy qonunchilik hujjatlari va jamiyatning qayta ishlab chiqarish hamda ijtimoiy jaraYonlaridagi davlat byudjetining egallagan mavqei hisoblanadi. Byudjet tuzilmasining asosiy tarkibiy qismi byudjet tizimi hisoblanadi.

Byudjet tizimi – turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, byudjet jaraYonida ular o'rtasida, shuningdek byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi. O'z vaqtida byudjet tizimi davlatning moliya tizimining eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Har bir mamlakatda byudjet tizimining tashkil topishi eng avvalo davlatning siYosiy tizimi va uning ma'muriy-hududiy tuzilmasiga bevosita bog'liqdir. Xalqaro amaliYotda hukumat boshqaruv vakolatlarining markaziy hukumat hamda ma'muriy-hududiy bo'limlari o'rtasida taqsimlanishi asosida barcha davlatlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- unitar tizimdagi davlatlar;
- federativ (ittifoq) tizimdagi davlatlar;
- konfederativ tizimdagi davlatlar.

YUqorida qayd etilgan barcha tizimdagi davlatlarning mohiyatini ko'rib chiqamiz.

Unitar (yagona) tizimdagi davlat – davlatning siYosiy tizimida ma`muriy – hududiy bo'linmalaridan hech biri mustaqil davlatchilik Yoki avtonomiya huquqiga ega bo'lmagan davlat tizimi hisoblanadi. Bunday davlatlarda yagona Konstitutsiya amal qiladi, barcha tizim uchun umumiy huquqlar, yagona davlat boshqaruv organlari mavjud hamda mamlakatdagi siYosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jaraYonlarni markazlashgan tartibda boshqaruv amalga oshiriladi. Unitar tizimdagi davlatda byudjet tizimi ikki bo'g'indan, ya`ni markaziy va mahalliy byudjetlardan tashkil topadi. DunYoning unitar davlatlari qatoriga YAponiya, CHexiya, Pol'sha, Bel'giya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqa davlatlarni kiritish mumkin.

Federativ tizimdagi davlat – davlat tizimida ba`zi ma`muriy-hududiy bo'linmalar o'zlarining mustaqil davlatchiligiga ega va ular davlat boshqaruvida markaziy Hukumat o'rtasida vakolatlarning bo'linishida bir qator siYosiy mustaqillikka ega bo'lgan davlatlardir. Federativ tizimdagi davlatlarda byudjet tizimi uch bo'g'indan, ya`ni federal byudjet, federatsiya a`zolarining byudjetlari va mahalliy byudjetlardan iborat bo'ladi. DunYoning federativ tizimidagi davlatlar qatoriga AQSH (shtatlar va munitsipalitetlar), Germaniya (erlar), Rossiya (respublikalar va o'lkalar), Hindiston (shtatlar) va boshqalarni kiritish mumkin.

Konfederativ tizimdagi davlat – yagona iqtisodiy, siYosiy va harbiy maqsadlarga erishish uchun mustaqil davlatlarning doimiy ittifoqiga asoslangan davlat hisoblanadi. Ushbu davlatda byudjet tizimi konfederatsiyaga kiruvchi a`zo davlatlarning byudjetlaridan tashkil topadi. SHuni ta`kidlash lozimki, hozirgi vaqtda dunYoda konfederativ tizimdagi davlatlar juda kam uchraydi. Bunga Yorqin misol qilib SHveytsariyani keltirishimiz mumkin. SHveytsariya davlat tizimi uning bo'linmalari hisoblangan kantonlardan iborat bo'lib davlat

byudjeti esa konfederatsiyaga a`zo bo'lgan kantonlarning badal ajratmalari hisobiga tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi siYosiy tuzilmasiga asosan unitar davlat hisoblanadi. Unda yagona Konstitutsiya amal qiladi va barcha uchun bir xil qonunlar mavjud. Mamlakatimizda byudjet tizimi tashkil topishining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni tashkil etadi. Ushbu qonunchilikka asosan respublikamizning byudjet tizimi ikki bo'g'indan iborat:

1. Respublika byudjeti.
2. Mahalliy byudjetlar.



O'zbekiston Respublikasining hozirgi davr byudjet tizimini quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin. Bunda biz O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimini «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonuniga asosan va unda ko'zda tutilgan moddalarning tasnifi bo'yicha chizmani tayYorladik va uni tahlil etishga harakat qildik.

Quyidagi chizma ma`lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va mahalliy byudjetlardan tashqari bir necha byudjetdan tashqari jamg'armalarni: respublika Yo'l jamg'armasini, davlat bandlik jamg'armasini, respublika pensiya jamg'armasini va O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasining maxsus fondini o'z tarkibida birlashtiradi. Byudjet tizimi to'g'risidagi qonunga asosan mahalliy byudjetlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti Toshkent shahar va viloyatlarning byudjetlari kiradi. Viloyatlar byudjeti o'z tarkibiga viloyat byudjeti, tumanlar byudjeti va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarning byudjetini oladi.

7 chizma

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tizimi

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti



Manba. CHizma muallif tomonidan tayyorlandi.

«Byudjet tizimidagi» Qonunga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va viloyatlarning byudjeti o'z tarkibiga viloyat byudjeti, tumanlar byudjetlari va ular hududidajoylashgan yirik sanoat markazlari hamda respublika ahamiyatiga ega shaharlarning byudjetlarini o'z ichiga oladi.

3.10. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari

Davlat o'ziga yuklatilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun doimiy ravishda pul mablag'lariga ehtiyoj sezadi. Xuddi shu ehtiyoj davlat byudjetining daromadlari hisobidan qondiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunga asosan davlat byudjeti daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

1. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va qonunchilikda o'rnatilgan boshqa majburiy to'lovlar.

2. Davlatning moliya va boshqa aktivlarining joylashtirishi, foydalanishga berilishi va sotishdan kelgan daromadlar.

3. Amaldagi qonunchilikka asosan meros, sovg'a qilish huquqi asosida davlat mulkchiligiga o'tgan mulkchilikdan pul tushumlari.

4. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy davlatlar, tomonidan beg'araz beriladigan tarzdagi pul tushumlari.

5. Rezident- yuridik shahslar va xorijiy davlatlarga berilgan byudjet ssudalari hisobidan tushumlar.

6. Qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslardan quyidagi soliqlar undirilmoqda:

-daromad (foyda) solig'i –stavkasi 12 %;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq - stavkasi 7 %;

-jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq-amaldagi foiz stavkalariga asosan undiriladi;

-qo'shilgan qiymat solig'i – stavkasi 20 %;

-aktsiz solig'i – aktsiz solinadigan mahsulotlar bo'yicha differentsial stavkalarda;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

-er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;

-er solig'i;

-mol-mulk solig'i;

-ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirganlik uchun soliq;

-mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Biz quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlarining tarkibida bilvosita soliqlarning (qo'shilgan qiymat solig'i,

aktsiz solig'i) ulushi yuqori bo'lib, 2005 yilda davlat byudjetining daromadlarida ularning ulushi 13,9 % ni tashkil etgan. Bevosita soliqlarning egallagan ulushi 8,0 % ni, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 5,3 % ni, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 0,6 % ni va boshqa soliqlar 1,3 % ni tashkil etgan.

1- jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlar tarkibi
(YAIMga nisbatan foizlarda)

T.R	Ko'rsatkichlar	2000 y.	2001 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.
1	Daromadlarning jami shu jumladan:	28,5	26,0	22,5	22,6	20,7	21,8
2	bevosita soliqlar	7,5	7,4	6,4	6,5	6,0	6,2
3	bilvosita soliqlar	16,0	13,5	12,6	10,5	9,7	10,3
4	resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	2,8	2,4	2,6	4,5	3,5	3,5
5	ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	0,3	0,3	0,5	0,4	1,4	0,7
6	boshqa soliqlar va yig'imlar	1,9	2,4	0,9	1,1	1,4	1,7

Manba. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunga asosan davlat byudjetining xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1. Byudjet mablag'larini oluvchilar uchun joriy xarajatlar;

2. Joriy byudjet transfertlari;

3. Kapital xarajatlar. Ushbuga quyidagilar kiradi:

- davlat ehtiyojlari uchun xorijda er va boshqa mol-mulkni sotib olish;

- davlat ehtiyojlari uchun erga va boshqa nomoddiy aktivlarga huquqlarni sotib olish;

- davlat zahiralarini tashkil etish.

4. Yuridik shaxslar uchun kapital maqsadidan xarajatlarni qoplashga Yo'naltirilgan byudjet transfertlari:

- rezident-yuridik shaxslar va xorijiy davlatlarga byudjet ssudalari;

- byudjet dotatsiyalari va davlat maqsadli jamg'armalariga byudjet ssudalari;

- amaldagi qonunchilikda man etilmagan boshqa xarajatlar.

Biz O'zbekiston Respublikasida 2008 yildagi davlat byudjeti xarajatlarning tarkibida ijtimoiy soha (ta'lim, fan, madaniyat, sport) xarajatlari asosiy o'rinni egallab turibdi. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarning ulushi esa 2,2 % ni tashkil etmoqda. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xarajatlarning ulushi 3,4 % ni tashkil etmoqda va markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari ulushi 3,7 % ni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi

(YAIMga nisbatan foizda)

T.R.	Ko'rsatkichlar	2000y.	2001y.	2004y.	2005y.	2006y.	2007y.
1.	Xarajatlar jami SHu jumladan:	29,5	27,0	25,8	24,6	24,6	26,2
2.	ijtimoiy soha	10,4	10,2	9,8	9,3	9,3	9,2
3.	ijtimoiy himoya	2,3	2,1	2,0	2,1	1,8	2,2
4.	iqtisodiyotni rivojlantirish xarajatlari	3,0	2,3	2,3	3,0	3,1	3,4
5.	markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	6,0	5,0	4,7	3,3	2,7	3,7
6.	Davlat boshqaruv organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash xarajatlari	0,6	0,6	0,5	0,5	0,5	0,5
6.	boshqa xarajatlar	7,2	6,8	6,5	6,4	5,6	6,1

*Manba. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida mahalliy byudjetlar taqchilligiga Yo'l qo'yilmaydi, shuning uchun davlat byudjeti uchun byudjet taqchilligi ko'zda tutiladi. Masalan, mamlakatimizda 2005 yil uchun davlat byudjeti taqchilligi yalpi ichki maxsulotga nisbatan 1,0 % qilib belgilangan edi. O'zbekistonda olib borilgan oqilona byudjet-soliq siyosati natijasida 2005 yilda davlat byudjeti yalpi ichki maxsulotga nisbatan 0,1 % profitsid (daromadlarning xarajatlardan ko'pligi) bilan bajarildi, byudjetning daromad qismi esa prognoz ko'rsatkichlaridan 39 % ziyod bo'ldi. Biz quyidagi jadvalda O'zbekiston

Respublikasi davlat byudjetining 2000-2005 yillardagi ijro darajasini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi

(YAIMga nisbatan foizlarda)

№	Ko'rsatkichlar	2000y.	2001y.	2002y.	2003y.	2004y.	2005y.
1.	Byudjet taqchilligi	- 1,0	- 1,0	- 0,8	- 0,4	- 0,4	-
2.	Byudjet profitsiti	-	-	-	-	-	+0,1

*Manba. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda davlat byudjetining taqchilligi 2005 yilgacha doimiy ravishda saqlanib kelingan. Agar 2000 yilda davlat byudjetining taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,0 % miqdorida tashkil topgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2004 yilda 0,4 % miqdorini tashkil etdi. Faqatgina, mamlakatimiz iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlar, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7,0 % ni tashkil etishi, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishi 7,3 % ga, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 6,2 % ga o'sishi natijasida, hamda inflyatsiya darajasi 7,8 % ni tashkil qilishi tufayli 2005 yilda davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 % profitsit bilan bajarildi.

2006 yilda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberalizatsiya va modernizatsiya qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish yo'nalishida aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu holat esa, mamlakatimizda davlat byudjetining daromadlari ko'payishiga hamda soliq to'lovchilar soni ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaymiz.

3.11. Soliq tushunchasi va uning ob'ektiv zarurligi.

Insonlardan soliqlar undirish, bizning fikrimizcha asrimiz kabi uzoq o'tmishga egadir. U Yoki bu shakllarda soliqlar to'g'risidagi tushunchaning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi birinchi ming yillikka borib taqaladi, ya'ni quldorlik tuzumidan boshlab mavjuddir. O'tmishning klassik davlatlari hisoblangan Rim, Afina va Spartada, odatda soliqlar undirilmagan va ularni undiruvchi doimiy muassasa bo'lmagan. Ozod fuqorolar o'z shaxsiy mablag'larini sarflaganlar. Lekin shuni ta'kidlash lozim-ki, u davlatlarda bozorlarda, shahar darvozasi oldida va portlarda barchadan turli yig'imlar va bojlar undirish mavjud bo'lgan.

Soliqlarning yuzaga kelishini odatda davlatning paydo bo'lishi: davlat organlarining tashkil etilishi, davlat apparatiga jamiyatni boshqarish bo'yicha ijtimoiy-siyosiy vazifalarni yuklanishi, davlat xarajatlarini ortishi va markazlashgan moliyaviy resurslarni shakllanishi kabi omillar bilan izohlanadi. Davlat o'ziga yuklatilgan ijtimoiy-siyosiy vazifalarni bajarish uchun ma'lum xarajatlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyojni qondirishda esa soliqlar asosiy o'rinni egallagan.

Soliq mohiyati hamda soliq tushunchasini ochishda, bizning fikrimizcha eng avvalo asosiy ikki aspekt muhim ahamiyatga egadir. Ulardan birinchisi bo'lib, soliq bu – ob'ektiv iqtisodiy kategoriya hisoblanadi va soliq o'zining ichki (ob'ektiv tomondan) mohiyatiga ega. Ikkinchisi bo'lib, soliqlarni haqiqiy iqtisodiy hayotda foydalanish jarayonida uning ichki mohiyatining aniq huquqiy shakllarda yuzaga chiqishidir. Biz ta'kidlab o'tgan bu ikki aspekt o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi, hayotda ular yagonalikda qo'llaniladi. Lekin ushbu aspektlar o'rtasidagi tafovutlarni ajrata bilish lozim.

Soliqlar ob'ektiv iqtisodiy kategoriya sifatida soliqlarning asosiy mohiyatlarini o'zida aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Asosiy kategoriya sifatida u o'zida ob'ektiv iqtisodiy munosabatlar yig'indisining hosilasi hisoblanadi. Soliqlarning ob'ektiv tomonidan aniq iqtisodiy hayot holatiga

bog'liqligi emas, balki ushbu kategoriyani vujudga keltirgan omillar bilan aniqlanadi.

Soliqlarning sub`ektiv tomonidan, ya`ni ularning aniq shakillari, stavkalari va boshqalar, soliqlarning amal qilishining tashqi tomonidan ko`rinishi bilan aniqlanadi. Bu erda juda muhim ahamiyatga ega omillar mavjud. Ushbu omillarga quyidagilar kiradi: davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi; ma`lum davlatdagi soliq tizimidagi milliy an`analar; jamiyatni ma`lum vaqt doirasida hal etiladigan vazifalar maqsadi hamda kengligi va boshqalar. Demak, soliqlarning sub`ektiv tomonidan ko`rinishi uning haqiqatda qo`llanilishi jaraYonida yuzaga chiqadi.

Davlatning rivojlanishi, unga yuklatilgan vazifalarni doirasini kengayishi natijasida soliqlarning ahamiyati oshib bordi. Davlat o`z faoliyatida endi nafaqat soliqlar va ular bilan bir qatorda turli yig`imlardan ham foydalana boshladi. Biz soliqlar va yig`imlar tushunchasiga ta`rif berib, ular o`rtasidagi farqni Yoritishga harakat qilamiz.

Soliq deyilganda tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo`jalik yuritish Yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo`lgan pul mablag`larini davlat va (Yoki) munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta`minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to`lov tushuniladi.

Yig`im deganda to`lanishi yig`im to`lovchilar manfaatlarini ko`zlab davlat organlari, maxalliy o`z-o`zini boshqaruv organlari, boshqa vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yuridik ahamiyatga molik hatti-harakatlar amalga oshirilishining shartlaridan biri bo`lib hisoblanadigan, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy badal tushuniladi, bunga muayyan huquqlarni taqdim etish Yoki maxsus ruxsatnomalar (litsenziyalar) berish ham kiradi.

Demak soliqlar bu pul munosabatlarini ifoda etuvchi va ushbu munosabatlar bir tomondan vakolatli davlat organlari va ikkinchi tomondan soliq to'lovchilar, ya'ni mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hamda aholi turadi. Bu munosabatlarning asosiy ko'rinishi hisoblangan majburiylikdan tashqari qaytarib olmaslik ham yuzaga chiqadi.

Soliqlarning mohiyatini ochishda biz eng avvalo uning majburiy to'lov ekanligini yuqorida e'tirof etdik. Lekin bu majburiylik demokratik tamoyilga egadir. Har bir mamlakatda soliqning har bir shakli davlatning qattiq talablari va jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy holatni e'tiborga olgan holda faqatgina yuqori davlat organi (senat, parlament, дума va boshqalar) tomonidan qabul qilinadigan qonun bilan amaliyotga kiritiladi va tartibga solib turiladi. Bu omil esa soliqlarning huquqiy asosga va demokratik me'yorlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

SHuni ta'kidlash lozim-ki, soliqlar o'z mohiyatiga asosan hamda yig'implardan farqli ravishda uzoq yillar faoliyat ko'rsatishi mo'ljallangan majburiy munosabatlar hisoblanadi. Amaliyotga kiritilgan har bir soliq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholi uchun tushunarli bo'lishi hamda soliq to'lovchilar bu soliqlarni to'lashni bilishligini talab etadi. Soliq to'lovchilar har bir soliq bo'yicha ma'lum muddat o'tgandan so'ng muayyan tajriba va tushunchaga ega bo'ladi.

Biz soliqlarning mohiyatini ochishda uning demokratik to'lov ekanligiga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Davlat tomonidan amaliyotga kiritilayotgan soliq eng avvalo uni kim tomonidan va qancha miqdorda to'lanishiga asoslanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyat turiga qarab soliq turi va uning stavkasi ajratiladi. Mulchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bir xil soliq va bir xil stavkada to'lamaydi. Demokratik to'lov sifatida soliq turi ularning faoliyat turiga qarab undiriladi. Masalan qishloq xo'jalik sohasi uchun bir xil soliq turi, tijorat banklari uchun boshqa xil soliq turi va stavkasi qo'llaniladi. Mamlakat aholisi uchun ham soliq undirishda demokratik

tamoyillar mavjud. Agar fuqarolarning daromadi kam bo'lsa unga nisbatan rast soliq stavkasi va buning aksi fuqaroning daromadi yuqori bo'lsa yuqori soliq stavkasi qo'llaniladi. Bundan tashqari soliq undirilishida turli soliq bo'yicha imtiyozlar tizimidan foydalaniladi va bu omil ham soliqlarning demokratik to'lov ekanligidan dalolat beradi.

Soliq to'langandan so'ng soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o'z majburiyatlarini bajaradilar. Ushbu majburiyatni bajargandan so'ng har qanday soliq to'lovchi davlat tomonidan soliqlarni qaytarib berish majburiyatini bajarish yuzasidan faoliyatiga hech qanday huquqiy asosga ega bo'lmaydilar. SHuni ta'kidlash lozim-ki, davlat byudjeti tomonidan soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga u Yoki bu ko'rinishda to'lovlarni to'lanib kelinishi biz ta'kidlab o'tgan soliqlarni qaytarib bermaslik tamoyili mohiyatini o'zgartirmaydi. Bu holatlarda soliq to'lovchi amaldagi qonunchilik asosida davlat byudjetidan belgilangan to'lovlarni o'lih bilan bir vaqtda belgilab qo'yilgan soliqlarni o'z muddatida hamda to'liq miqdorda to'lashi majburiydir. Soliqlarni ma'lum qismini har xil ko'rinishdagi to'lovlar shaklida qaytarib berishlik bu doimiy iqtisodiy munosabatlar emas, balki jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan va ma'lum muddatga mo'ljallangan holat hisoblanadi.

Soliqlar ob'ektiv taqsimlash munosabatlari orqali jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha jabhalarida ishtirok etish va ishlab chiqarish munosabatlariga aylanadi. Bu holat esa, soliqlar o'z mohiyatiga asosan iqtisodiy bazisni ifodalaydi. SHu asosda iqtisodiyotda turli soliqlar Yordamida ishlab chiqarishni qiziqtirish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va iste'molni kengaytirish Yoki buning aksi, ba'zi sohalar faoliyatini cheklash maqsadida foydalanish mumkin bo'ladi. Bu esa eng avvalo davlatning ma'lum davrdagi soliq siyosatidan keliyu chiqadi.

Soliqlar o'z mohiyatiga asosan faqatgina davlat ixtiyoridagi to'lov hisoblanadi. SHuning uchun har bir davlatda amaliyotga kiritilgan soliqlar

faqatgina davlat markazlashgan pul fondlari hisoblangan davlat (respublika va maxalliy byudjetlar) byudjetiga kelib tushadi. Soliqlar boshqa byudjetdan tashqari fondlarga tushmaydi. Davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar esa byudjet daromadlar qismida asosiy ulushni egallaydi.

Soliqlar mohiyatini chuqurroq ochishda ular bajaradigan funktsiyalarni Yoritish lozim bo'ladi. Biz quyida soliqlar bajaradigan funktsiyalar haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

3.12. Soliqlarning funktsiyalari

Ma'lum-ki, har qanday iqtisodiy kategoriyaning faqat o'zi bajaradigan funktsiyalari mavjud bo'ladi. Amaliyotda funktsiyasiz, ya'ni bajaradigan funktsiyasi bo'lmagan iqtisodiy kategoriya bo'lmaydi. Chunki funktsiya iqtisodiy kategoriyaning amaliyotdagi xarakati hisoblanadi va u orqali kategoriyaning mohiyati chuqur ochib beriladi. Shuning uchun iqtisodiy adabiyotda iqtisodiy kategoriya funktsiyasi deyilganda, ushbu kategoriyaning haqiqiyotda ko'p marta qaytarilib turiladigan va takrorlanib turiladigan xatti-xarakatlari tushuniladi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida soliqlarning ham faqat o'ziga xos funktsiyalari mavjud. Shuni ta'kidlash lozim-ki, birinchi navbatda soliqlarning qiymat dastagi sifatida daromadlarni taqsimlash va kayta taqsimlashi amalga oshiriladi. Iqtisodiy adabiyotda iqtisodchi olimlar o'rtasida soliqlarning funktsiyalari to'g'risida yagona fikr mavjud emas. Lekin ularning barchasini soliqlarning fiskal' (g'azna) funktsiyasi to'g'risida yagona fikr mavjud. Soliqlarning boshqa funktsiyalari esa hozirgi davrda davlat bajaradigan funktsiyalarni ko'payganligi bilan bevosita bog'liqdir. Bunga Yorqin misol qilib, hozirda davlat o'zining an'anaviy funktsiyalaridan tashqari jamiyatda, birinchi navbatda iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solib turish funktsiyasini ko'rsatishimiz mumkin.

Hozirda ko'p iqtisodchi olimlar soliqlarning quyidagi funktsiyalarini ajratib ko'rsatadilar: fiskal', tartibga solib turuvchi, taqsimlovchi, rag'batlanturuvchi (so'ndiruvchi) va nazorat funktsiyalari. Bu sohada O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar esa soliqlarning ikki funktsiyasini ajratib ko'rsatadilar: taqsimlash va nazorat funktsiyalari. Iqtisodiy adabiYotda soliqlar bajaradigan funktsiyalar to'g'risida iqtisodchi olimlarning fikrlarini o'rganish va hozirgi vaqtdagi soliqlarni iqtisodiYotdagi o'rnini yangicha taxlil etgan holda soliqlar bajaradigan funktsiyalar to'g'risida o'z fikrimizni bildiramiz. Bizning fikrimizcha soliqlar quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1. Fiskal' (hazina) funktsiyasi;
2. Taqsimlash funktsiyasi;
3. Rag'batlantirish (so'ndirish) funktsiyasi;
4. Nazorat funktsiyasi.

Soliqlarning fiskal' (hazina) funktsiyasi orqali davlat o'ziga yuklatilgan vazifalar: iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqalarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni davlat byudjeti daromadlari qismida jamlanishi amalga oshiriladi. Soliqlarning fiskal' funktsiyasining asosiy maqsadi bu – davlat moliyaviy resurslarini o'z muddatida va to'liq shakllantirish hisoblanadi. Bu funktsiyani yuqori darajada amalga oshirilishi, ya`ni soliq tushumlarini ko'payishi davlat faoliyati uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyat yaratadi. Buning natijasida soliqlar o'zlarining fiskal' funktsiyasi Yordamida davlatning iqtisodiy qudrati ortishi amalga oshadi.

Soliqlarning taqsimlash funktsiyasi Yordamida davlat iqtisodiYotni boshqarish va tartibga solib turishni amalga oshiradi. Bu funktsiyani amalga oshirishda soliqlar daromadlar, baholar, foizlar, aktsiyalar kursi dinamikasi va tariflar bilan o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Ushbu jaraYonda soliqlar mamlakat milliy daromadini, xo'jalik yurituvchi sub`ektlar hamda aholi daromadlarini taqsimlash va qayta taqsimlashda asosiy dastak bo'lib hisoblanadi. Soliqlarning taqsimlash funktsiyasi nafaqat daromadlarni

taqsimlashda, balki kapitallar va investitsiya resurslarini taqsimlashda ham ishtiroq etadi. SHuni ta`kidlash lozim-ki, soliqlar taqsimlash funksiyasida ba`zi soliqlar stavkasini yuqori darajada o`rnatilishi orqali amalga oshiradi. Soliqlarning taqsimlash funksiyasi Yordamida davlat mamlakat iqtisodiyotidagi hamda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Masalan, davlat soliqlar Yordamida yuqori rentabellik faoliyat turlaridan ma`lum daromadlarni undirib, ularni iqtisodiyotni paYo rentabellik Yoki zarar ko`rib faoliyat ko`rsatuvchi lekin o`z faoliyat bilan jamiyat xarajoti uchun zarur bo`lgan sohalarga sarflashi mumkin. Mamlakat aholisi uchun daromadlari bo`yicha progressiv shkala Yordamida yuqori daromad topadigan toifadan yuqori stavka Yordamida ularni daromadlarini qayta taqsimlash imkoniyatiga ega bo`ladi.

Soliqlarning rag`batlantirish (so`ndirish) funksiyasi o`z mohiyatiga asosan .qorida qayd etilgan fiskal` va taqsimlash funksiyasining hosilasi hisoblanadi. Soliqlarning bu funksiyasini ko`p iqtisodchi olimlar makroekonomik darajada tartibga solish deb hisoblashadi, chunki bu funktsiya barcha xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va fuqorolarning hamda davlatning iqtisodiy manfaati bilan bevosita bog`liqdir.

Amaliyotga kiritiladigan har bir soliq o`z kiritilishi maqsadidan qat`iy nazar o`z mohiyatiga asosan bir vaqtning o`zida soliqqa tortilmaydigan faoliyat turlari uchun rag`batlantiruvchi va aksincha soliqqa tortiladigan faoliyat turlari uchun so`ndiruvchi sifatida ta`sir ko`rsatishi mumkin. Iqtisodiyotga yangi soliq turini kiritilishi xo`jalik yurituvchi sub`ektlar hisobida ba`zi qonunbuzarlikka sabab bo`lishi ham mumkin.

Har bir rag`batlantiruvchi (so`ndiruvchi) funktsiya sifatida u o`ziga xos rag`batlantiruvchi shakllar va elementlar hisoblangan soliq bo`yicha imtiyozlar tizimi va rag`batlantirish, cheklovchi stavkalar hamda faoliyatni to`xtatib qo`yish kabi dastaklardan foydalanadi.

SHuni ta`kidlash lozim-ki, ba`zi iqtisodchi olilar soliqlarning rag`batlantirish (so`ndirish) funksiyasini doimiy xarakterda emas degan qarash asosida uni mustaqil funktsiya sifatida tan olishmaydi. Ularni fikricha, mamlakatda davlat byudjeti taqchilligi (defitsiti) sharoitida soliqlarning bu funktsiyasi amal qilmaydi. Biz iqtisodiyotni rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tajribasini tahlil etgan hamda O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlanish 'osqichlarini o`rganib chiqib yuqoridagi fikrga o`z e`tirozimni bildirishga asos mavjud deb hisoblaymiz. Bunga misol qilib O`zbekiston Respublikasida 1994-1997 yillarda bank tizimini rivojlantirish maqsadida tijorat banklari bir necha soliq turi to`lashdan ozod etilib, hisoblangan soliq summalari tijorat banklarini moddiy-texnika bazasini takomillashtirishga Yo`naltirildi. Xuddi shu yillari mamlakatimizda davlat byudjeti taqchilligi (defitsiti) mavjud edi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermer xo`jaliklarni rivojlantirish uchun soliqlar bo`yicha berilgan imtiyozlar bizning fikrimizcha qo`shimcha asos hisoblanadi.

Soliqlarning nazorat funktsiyasi o`z mohiyatiga ko`ra ximoya funktsiyasini, ya`ni davlat va soliq to`lovchilar o`rtasidagi soliq munosabatlarini olib borilishini ta`minlash hamda vakolatli davlat organlarining amaldagi qat`iy faoliyatini bajarilishini amalga oshiradi. Soliqlarning nazorat funktsiyasiz uning boshqa funktsiyalarini amalga oshirilishi o`z ma`nosini Yo`qotadi.

SHuni ta`kidlash lozim-ki, soliqlarning nazorat funktsiyasi amaldagi qonunlar va huquqlarga asoslangan holda soliq to`lovchilarni qonunchilikka bo`ysunishiga, unga rioya qilinishini qonun kuchi ostida majburiy amalga oshiradi. Mamlakatda davlat hokimiyatini kuchsizlanishi soliqlarning nazorat funktsiyasini kuchsizlanishiga olib keladi. O`z navbatida, soliqlarning nazorat funktsiyasini kuchsizlanishi davlat hokimiyatini kuchsizlanishiga omil bo`lishi mumkin.

Soliqlarning nazorat funktsiyasi aniq ko`rinishida soliq to`lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qonunchiligiga qat`iy amal qilinishida, soliqlarni

o'z muddatida va to'liq davlat byudjetiga to'lanishida, moliyaviy jazo choralarini samaradorligida namoyon bo'ladi.

Soliqlarning nazorat funksiyasi Yordamida vakolatli davlat organlari mamlakatdagi yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad qiymatini hamda undagi soliqlarning ulushini hisob-kitobi va nazoratini olib boriladi. Ushbu nazorat orqali davlat byudjetiga soliq tushumlarini kelib tushushini miqdoriy o'lchovi amalga oshadi, ularni davlatni moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojiga taqqoslanish bajariladi hamda shu asosda amaldagi soliq qonunchiligiga, ya'ni soliqlar kiritilishi, soliq stavkalarini o'zgartirilishi va imtiyozlar tizimiga qo'shimchalar kiritilishiga imkoniyat yaratiladi. Bulardan xulosa qilish mumkin-ki, soliqlarning nazorat funksiyasining qonuniy kuchliligi va uning samaradorligi uning boshqa funksiyalari amal qilishini aniqlab beradi. SHuning uchun, agar soliqlarning nazorat funksiyasi amalda kuchsizlansa, o'z navbatida uning boshqa funksiyalari samaradorligi pasayishi mumkin.

3.13. Soliqlarning turlari va ularga tasnif.

Ma'lum-ki, hozirda dunyo mamlakatlarida juda xilma-xil va ko'p miqdordagi soliqlar amal qiladi. Har bir alohida olingan mamlakatda o'ziga xos soliqlar amal qiladi. Ba'zi mamlakatlarda amal qilayotgan soliqlar boshqa mamlakatlar soliqlariga o'xshab ketadi, boshqalarga umuman farq qiladi. Soliqlarni amal qilishi mamlakatning tarixiy, geografik, iqtisodiy va ijtimoiy holatidan kelib chiqadi.

Halqaro amaliyotda soliqlarni tasniflash uchun turli mezonlardan foydalaniladilar. Xozirgi zamon soliqqa tortish amaliyotida soliqlarni guruxlarga ajratishda quyidagi tamoyillardan keng foydalaniladilar.

Soliqlarning undirilishi darajasiga (byudjet tizimi bo'g'iniga o'tkazish) asosan – umumdavlat va maxalliy soliqlar. 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi to'g'risida»gi qonuniga asosan umumdavlat soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
2. jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
3. qo'shilgan qiymat solig'i;
4. aktsiz solig'i;
5. er osti boylikoaridan foydalanganlik uchun soliq;
6. ekologiya solig'i;
7. suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Maxalliy soliqlar va yig'implarga quyidagilar kiradi:

1. mol-mulk solig'i;
2. er solig'i;
3. reklama solig'i;
4. avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq;
5. savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari;
6. yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im;
7. avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im;
8. obodonchilik ishlari uchun yig'im.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, soliq tizimi doimo rivojlanib va takomillashib boradi. Davlat o'z manfaatlaridan kelib chiqib ba'zi soliq turlarini bekor qiladi va o'z vaqtida maqsadli yangi turlarini amaliyotga kiritadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish darajasiga asosan va byudjet daromadlarini ko'paytirish maqsadida amaliyotga quyidagi yangi soliq turlari kiradi:

1. ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish uchun soliq;
2. jismoniy shaxslardan benzin, dizel' yoqilg'isi va transport uchun gaz iste'moli uchun olinadigan soliq;
3. maktab ta'limi fondi uchun majburiy ajratmalar.

Bu yuqorida kiritilgan soliqlar va yig'implar sababli quyidagi soliqlar va yig'implar bekor qilindi:

1. reklama solig'i;
2. avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq;
3. ekologiya solig'i;
4. savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im (bu yig'im faqatgina alkogol maxsulotlar bilan ulgurji savdo-sotiq va qimmatbaho tosh hamda qimmatbaho metal maxsulotlari bilan savdo-sotiq huquqi uchun saqlanib qolgan).

Umumdavlat soliqlari O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bilan joriy etiladi va respublikaning butun hududida undiriladi. Maxalliy soliqlar va yig'implar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari tomonidan joriy etiladi. Bu maxalliy soliqlar va yig'implar stavkalarining eng .qori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka asosan maxalliy byudjetlar daromad va xarajatlarini tenglashtirish maqsadida umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibga belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Soliq solish ob`ekti bo'yicha – bevosita va bilvosita soliqlar. Bu erda muallif soliqlarning bu atamasi bo'yicha o'z fikrini bildiradi. Iqtisodiy adabiYotda soliqlarni ob`ekti bo'yicha guruhlashda ko'p iqtisodchi olimlarimiz to'g'ri va egri soliqlar degan atama tarafdorlari hisoblanadi. Bizni bunga o'z e'tirozimiz mavjud. Buni isbotlashga harakat qilamiz. Rossiya Federatsiyasida iqtisodchi olimlar soliqlarni soliq solish ob`ekti bo'yicha guruhlaganlarida soliqlarni «pryamie i kosvennie nalogi» degan atamadan foydalanadilar.agarda bu atamalarni ruschadan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'girsak u holda haqiqatda to'g'ri va egri soliqlar degan atama yuzaga chiqadi. Lekin bizning fikrimizcha bir tomondan o'zbek tili juda boy til va ikkinchi tomondan soliqlar o'z moxiyati jihatidan to'g'ri Yoki egri bo'lmaydi. Agarda soliq to'lovchi o'zi

to'laydigan soliqning nomini, uning stavkasi, to'lash muddatlarini bilgan holda to'lasa, ya'ni soliq ob'ektini anglab etsa bu soliqlarni, bizning fikrimizcha bevosita soliqlar deb atalsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agarda soliq to'lovchi o'zi to'laydigan soliqni nomini, uning stavkasini, to'lash muddatlarini bilmagan holda, ya'ni soliq ob'ektini anglamasdan to'lasa bunday soliqlarni bilvosita soliqlar deb atalsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. SHuni ta'kidlash lozim-ki, bilvosita soliqlarning oxirgi navbatdagi va haqiqiy to'lovchisi mamlakat aholisi o'zi sotib olayotgan iste'mol tovarlarini qaysi birida va qancha miqdorda soliq mavjudligini bilmaydi. Albatta bu bildirgan fikrlar muallifning shaxsiy fikrlari hisoblanadi, shuning uchun biz o'z fikrimizni isbotlashga xarakat qilamiz.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan soliqlardan quyidagilar bilvosita soliqlar hisoblanadi: qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona bojlari, jismoniy shaxslardan yagona bojxona to'lovi va jismoniy shaxslardan benzin, dizel' yoqilg'isi va transport uchun gaz iste'moli uchun olinadigan soliq. Respublikamizda amal qilayotgan barcha boshqa soliqlar soliq solish ob'ekti asosan bevosita soliqlar hisoblanadi. Bevosita soliqlarning ob'ekti bo'lib yalpi daromad, er maydoni, mol-mulki qiymati va boshqalar hisoblanadi.

Soliq solish sub'ekti bo'yicha-yuridik va jismoniy shaxslar. Zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq tegishli soliqlar va (Yoki) yig'implarni to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar soliq to'lovchilar va yig'im to'lovchilar deb topiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasiga asosan o'z mulkida, xo'jalik yuritishida Yoki operativ boshqarishda alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy Yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxs mustaqil balans Yoki smetaga ega bo'lishi kerak. Amaldagi qonunchilikka asosan yuridik shaxslar turli mulkchilik shaklida tashkil etilishi

mumkin. Ular ochiq aktsiyadorlik jamiyatlari, Yopiq aktsiyadorlik jamiyatlari, xususiy korxonalar, qo'shma korxonalar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar, unitar korxonalar va davlat korxonalari shaklida bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 16-moddasiga asosan jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Jismoniy shaxsning huquq laYoqati fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo'lish laYoqatidir. Ular barcha fuqarolar uchun teng darajada e'tirof etiladi. Soliqqa oid huquq laYoqatini shaxslarning o'z xarakatlari bilan soliq solishga imkon yaratadigan, ya'ni daromad olish sharoitini yaratish laYoqati deb belgilash mumkin. Yuridik me'yorlarga muvofiq bu laYoqat 18 Yoshda ya'ni balog'at Yoshiga etganda yuzaga keladi.

Jismoniy shaxslar o'z navbatida ikki guruxga bo'linadi: rezident va norezident jismoniy shaxslar. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 45 moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan Yoki moliya yiliga boshlanadigan Yoki tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun Yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lish jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatidan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Soliqlarning maqsadli sarflanishi bo'yicha umumiy (byudjet xarajatlariga funktsional bog'liq emas) va maqsadli (byudjet xarajatlariga funktsional bog'liq). Soliqlarning bunday guruhlanishi soliqlarni davlat byudjetining ma'lum xarajatlarini moliyalashtirish bilan izohlanadi. SHuni ta'kidlash lozim-ki, hozirda O'zbekiston Respublikasida amal qilaYotgan barcha

solliqlar o'z mohiyatiga asosan umumiy solliqlar hisoblanadi va ular fiskal' funktsiyani, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini shakllantiradilar. Maqsadli yig'imlar va ajratmalar mavjud, ya'ni byudjetdan tashqari nafaqa jamg'armasiga, byudjetdan tashqari er fondi va byudjetdan tashqari bandlik fondlari. Bu fondlar uchun ajratma va yig'imlar o'z maqsadiga muvofiq sarflanadi.

Soliq to'lash manbaiga asosan – daromad, foyda, er maydoni, sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymati Yoki mavjudligi sababli soliq to'lovchida soliq to'lash majburiyat paydo bo'ladigan, qiymatga oid, miqdoriy Yoki jismoniy tavsiyaga ega bo'lgan boshqa iqtisodiy asos soliq solish manbaari bo'lib hisoblanishi mumkin.

Mamlakatimizda amaliyotga kiritilgan har bir soliq O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga muvofiq belgilanadigan mustaqil soliq solish manbaiga egadir.

Soliq to'lanish usuliga asosan – manbaiga asosan va soliq deklaratsiyasiga asosan. Soliq to'lovchilar soliq bazasini har bir soliq davrining yakunlari bo'yicha buxgalteriya hisobi registrlari ma'lumotlari asosida va (Yoki) soliq solinadigan Yoki soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar to'g'risidagi boshqa xujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida hisoblab chiqadilar.

Jismoniy shaxslar bir joyda ishlasalar, ularning ish haqidan (soliq manбайдan) buxgalteriya tomonidan avtomat tarzda hisoblanib byudjetga o'tkazadi. Jismoniy shaxslar ikki Yoki undan ko'p ish joyida ishlasalar, bundan tashqari daromad olish (savdo, ish, xizmat) bilan bog'liq bir galgi operatsiyalarni amalga oshirganda, fuqorolarga maxalliy hokimiyat organlarida yakka mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar sifatida ro'yxatga turmay, daromad to'g'risidagi bir galgi deklaratsiya topshirish huquqi beriladi.

DunYoning ba'zi davlatlarida fuqorolarning daromadlari soliqqa tortishda turli usullaridan foydalanadilar. Buyuk Britaniyada fuqorolarni daromad shedulyar (shedule) tizim asosida, ya'ni daromadni manbaiga nisbatan

alohida to'lanadi. SHedulyar tizim besh sheduldan A, B, C, D, E va F dan iborat. SHeduldagi A – ko'chmas mulkdan keladigan daromad, B – o'rmonlardan tijorat maqsadida foydalanganlikdan daromad, C – davlat qimmatli qog'ozlaridan daromad, D – savdo va sanoatdan foyda, E – mehnat daromadlar, ish haqi, nafaqa va F – Britaniya kompaniya qimmatli qog'ozlardan dividendlar. Britaniya fuqorolari har bir shedul' buyicha aloxida daromad solig'i to'laydilar, ya'ni bu davlatda fuqorolar jami daromadidan soliq to'laydilar.

Soliqlarning bunday guruhlanishi har bir soliq turini davlat byudjeti daromadlarini shakillantirishdagi o'rni, ularning soliq tizimidagi maqsadli Yo'nalishini hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Bundan tashqari, soliqlarni tasniflashni zaruriyati soliq tizimini murakkablashib borishi va soliqqa solish jarayonlarining boshqarishni takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

3.14. Soliq elementlari va ularga tasnif.

Soliqning mohiyatini ochishda uni tarkibiga kiruvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan elementlarni Yoritish lozim bo'ladi. Faqatgina qonunchilikda barcha soliq elementlarini ko'zda tutilishigina soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lash majburiyatini yuklaydi. Har bir soliq o'zida majburiy elementlarni ifoda etadi. Iqtisodiy adabiyotda soliq elementlarini quyidagi turlari ajratiladi:

1. Soliq huquqi – moliya huquqining huquqiy institutlaridan biri hisoblanib, O'zbekiston Respublikasida soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi va nazorat qiladi. Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ushbu faoliyat mahsus iqtisodiy qonunlar bilan belgilangan, ular sifatida yangi mazmundagi soliq siyosatini o'tkazish zaruriyatini shart qilib qo'ydi.

Soliq huquqi o'z ichiga huquqiy me'yorlari soliq tizimini borpo qilishning asosiy qoidalarini mustaxkamlagan qonunlar va qonunosti me'Yoriy

xujjatlarini, soliq huquqlari, majburiyatlari va ma`suliyatlarini, to'lov turlari, shuningdek nazariy qoidalar, holatlar va atamalarni oladi.

2. «Kim» soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi, ya`ni soliq solish sub`ekti. Soliq to'lovchilar bu – zimmasiga soliqlar, turli yig'imlar va bojlar to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan merosxorlar hisoblanadi. Soliq agentlari bu amaldagi qonunchilikka asosan soliq to'lovchilardan soliqlarni hisoblash, undirish va tegishli byudjetga o'tkazib berish majburiyati yuklatilgan shaxslar hisoblanadi. Demak, vakolatga ega bo'lgan soliq idoralari va soliq to'lovchilar munosabatlar sub`ektlaridir.

3. Soliq solish ob`ekti bo'lib «nima» hisoblanadi. Soliq to'lovchilarning daromadlari, muayyan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar, qilingan ishlar), mol-mulk qiymati, tabiiy resurslardan foydalanganlik, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar, meros va hokazolar, ya`ni pul va mol-mulk shakllarida mavjud bo'lgan moddiy ne`matlar soliq elementining ob`ekti hisoblanadi.

4. Soliq qaysi «manbaiga» asosan to'lanadi. Har bir soliq amaldagi qonunchilikka asosan aniq belgilab qo'yilgan manbaiga asosan to'lanadi. Soliq solish manbai bo'lib ishchi-xizmatchilarning ish haqlari, devidendlar, foyda, daromad va boshqalar bo'lishi mumkin.

5. Soliq bazasi bu - soliq ob`ektining miqdoriy ko'rsatqichini ifoda etadi. Soliq bazasi soliq solish ob`ektining qiymatiga oid, jismoniy Yoki boshqa tavsifidan iborat. Soliq bazasini o'rnatish uchun soliq bazasini o'lchov birligini bilish zarur bo'ladi.

6. Soliq bazasini o'lchov birligi soliq bazasini miqdoriy ifodasini aniqlaydi. O'lchov birligi soliq solish ob`ektining mohiyatidan kelib chiqadi va u pul Yoki moddiy shakllarda mavjud bo'lishi mumkin. Masalan . jismoniy shaxslardan daromad solig'i, xo'jalik yurituvchi sub`ektlardan daromad Yoki foyda solig'i – mamlakat pul birligida, cheklar, sotix – er solig'ida qo'llaniladi.

7. Soliq stavkasi bu – soliq solish bazasining birligiga nisbatan soliq hisoblashning miqdori hisoblanadi. Soliqlarni hisoblashda soliq stavkasi muhim

o'rinni egallaydi. Amaliytda soliq stavkalari qat'iy belgilangan va foizlarda belgilanishi mumkin. Soliq stavkasining qat'iy belgilangan stavkasi soliq solish ob'ektidan undiriladigan absolyut summadagi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu stavka asosan aktsiz solig'i va er solig'ini undirishda keng qo'llaniladi.

Soliq stavkasini foizlarda belgilanishi soliq solish ob'ektining qiymatiga nisbatan belgilangan soliq ulushlarida namoyon bo'ladi. Soliqning foiz stavkalari o'z mohiyatiga asosan qu'ridagi turlarga bo'linadi: baravar, proporsional, progressiv va regressiv stavkalar. Soliqlarning foiz stavkalarini o'zgarishi asosan soliq bazasini ortishi asosida belgilanadi.

Soliq stavkasini baravar soliq solish stavkasi usulida har bir soliq to'lovchi uchun bir hil summadagi soliq to'lovchining moddiy holati hisobga olinmaydi va faqatgina favqulotdagi hollarda amaliyotga kiritiladi. Masalan, jon solig'i Yoki eng kam ish haqiga nisbatan foizlarda belgilangan maqsadli soliqlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Soliq solishning proporsional stavkasi usulida har bir soliq to'lovchi uchun yagona soliq stavkalari o'rnatiladi. Belgilangan proporsional soliq stavkasi soliq solish bazasi miqdoriga bog'liq emas. Masalan, xo'jalik yurituvchi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni ko'rsatishimiz mumkin. Bunda soliq stavkasi mol-mulkni qiymatiga nisbatan yagona foiz stavkasida ko'rsatiladi.

Soliq solishning progressiv usulida soliq bazasi ko'payishi bilan soliq stavkasi ham ortib boradi. Bunga misol qilib fuqorolarning daromad solig'iga nisbatan qo'llaniladigan progressiv soliq stavkasini keltirishimiz mumkin. Ushbu usulda fuqorolar daromadi ko'payishi asosida soliq stavkasi ham ko'tarilib boradi.

Soliq solishning regressiv stavkasi o'z mohiyatiga asosan progressiv stavkaning teskarisi hisoblanadi. Bu usulda soliq bazasini ko'payishi bilan soliq stavkasi miqdori pasayadi. Soliq stavkasining regressiv stavkasi asosan bilvosita

soliqlarni, ya`ni qo`shilgan qiymat solig`i, aktsiz solig`i va bojxona bojlarini undirishda qo`llaniladi.

8. Soliq davri soliqlarni ma`lum davrida amal qilishini ta`minlaydi. Soliq davri bu – har bir soliqlarga nisbatan qo`llaniladigan, uni tugashi bilan soliq bazasi belgilanadigan va to`lanishi kerak bo`lgan summa hisoblanadigan kalendar` davri tushuniladi.

9. Xar bir soliq uchun ularni hisoblash va to`lash muddatlari o`rnatiladi. Soliqlarni hisoblash va to`lash muddatlari kalendar` yil, kvartal, oylar, dekada, xafta va kunlar bilan hisoblanadigan vaqt davri tugashi bilan, shuningdek boshlanishi Yoki yuz berishi kerak bo`lgan Yoki sodir etilishi kerak bo`lgan voqeani ko`rsatish bilan belgilanadi. Soliqqa oid huquqiy munosabatlarning ishtiroqchilari tomonidan harakatlarni amalga oshirish muddatlari amaldagi soliq qonunchilikka asosan belgilanadi.

10. Soliq okladi – bunda soliq organlari tomonidan soliq to`lovchi uchun har bir soliq turi bo`yicha amalda belgilangan stavkalar asosida hisoblab chiqilgan soliq bo`yicha davlat byudjeti oldidagi majburiyatlardir. Soliq okladi bu – soliq to`lovchi tomonidan bir soliq turi bo`yicha davlat byudjetiga to`langan soliq summasi hisoblanadi. Soliq okladida majburiy shart bo`lib soliq organlari tomonidan soliq to`lovchilarga o`z muddatida o`rnatilgan va hisoblangan soliq okladi bo`yicha kerakli xujjatni (hisob-fakturani, talabnomani va boshqalar) topshirish hisoblanadi.

Biz yuqorida ta`kidlab o`tgan soliq elementlaridan tashqari iqtisodiy adabiYotda fakul`tativ elementlar ham mavjud. Soliqlarning fakul`tativ elementlariga soliqlar bo`yicha imtiYozlar, noto`g`ri undirilgan soliq summasini hisoblash va qaytarib berish hamda soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma`suliyat va javobgarlik kiradi. O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga asosan soliqning fakul`tativ elementlari har bir soliq bo`yicha qonunlarda belgilab qo`yiladi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar amaldagi soliq qonunchiligiga asosan mavjud soliq solish ob'ekti bo'yicha soliqlar to'lashdan to'liq Yoki qisman ozod etish hamda soliq solish bo'yicha ayrim yumshatishlarni qo'llanilishi hisoblanadi. Soliq bo'yicha imtiyozlar har bir soliqning muhim elementi hisoblanadi va u faqatgina o'ziga xos tasnifga egadir.

Soliq bo'yicha imtiyozlarning asosiy maqsadi bo'lib soliq to'lovchi uchun soliq majburiyatini qisqartirish Yoki uni bo'lib-bo'lib to'lash muayyan asoslar, ya'ni markaziy hukumatning maxsus qarorlari mavjud bo'lganida soliq to'lash muddatini o'zgartirishni belgilaydi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar deganda soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilar to'g'risidagi qonun xujjatlarida tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan soliqni to'lamaslik Yoxud kam hajmda to'lash imkoniyati tushuniladi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar bo'yicha tasnif mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Soliq elementi tarkibiga asosan, ya'ni soliq ob'ekti, soliq bazasi, soliq okladi va soliq solish bo'yicha imtiyozlar uch guruxga ajratiladi: soliqni undirish, soliqlar bo'yicha chegirmalar (skidka) va soliq bo'yicha kreditlar;

2. Soliq ishlab chiqarishda uning sub'ektlariga va boshqa elementlariga asosan to'rt guruhga ajratiladi: soliq ob'ekti (undirish, chegirmalar) bo'yicha, soliq to'lashning muddatlari bo'yicha (muddatni kechiktirish, soliq krediti), soliq sub'ektlari alohida toifalari bo'yicha va soliq stavkalari bo'yicha (stavkalarni pasaytirilishi).

Soliq bo'yicha imtiyozlarning soliq sub'ektlarini alohida toifalari bo'yicha guruhi faqatgina ba'zi soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llaniladi va unda soliq stavkasini pasaytirilishi hamda soliq to'lash muddatini kechiktirilishi hamda soliq bo'yicha ta'tillar berish usullaridan foydalanishlik mumkin. Soliq

bo'yicha imtiyozlarning qolgan uch guruhi barcha soliq to'lovchilarga nisbatan hamda baravar shartlar asosida qo'llanishi mumkin.

Soliq bo'yicha imtiyozlar quyidagi shakllarda berilishi mumkin: ba'zi soliq to'lovchi shaxslarni soliq solishdan ozod etish, soliq bo'yicha ta'tillar, soliq stavkalarini aniq shartlar asosida pasaytirish. Soliqqa tortilmaydigan eng kam daromadni o'rnatish (bu erda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda eng kam ish haqqi miqdorida soliqqa tortilmaydigan daromad nazarda tutiladi), soliq solinadigan bazalar soliq to'lovchilarning ayrim xarajatlarini chegirib tashlash, soliq to'lash muddatini kechiktirish va oldin to'langan soliq summasini qaytarib berishlik qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida har bir soliq turi bo'yicha biz yuqorida qayd etilgan imtiyozlarning zarur shakllarini qo'llanishi qonun belgilab qo'yilgan. Soliq bo'yicha imtiyozlar har yili mamlakatimiz hokimiyatini yuqori organi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yangi kalendar yili uchun davlat byudjeti qabul qilinaYotgan va tasdiqlanaYotganda qayta ko'rib chiqiladi hamda u qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Soliq to'lovchilar o'rtasidagi ijro intizomi soliqlarni barqaror tarzda yig'ib olish va davlatimiz moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda eng muhim omil hisoblanadi. Ushbu Yo'nalishda muvaffiqiyatga erishish soliq qonunchiligi huquqiy me'yorlari ustidan nazoratning yagona tizimi, soliqlarning to'g'ri hisoblanishi, respublika byudjet tizimi bo'g'inlariga o'z muddatida va to'liq miqdorda kelib tushishi bilan belgilanadi. Soliq to'lovchilar tomonidan amaldagi soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi tomonidan Davlat Soliq Qo'mitasi tomonidan «Davlat Soliq hizmati to'g'risida», «Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish to'g'risida» gi qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi va boshqa me'voriy va qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilar tomonidan amaldagi qonunchilikka asosan ular uchun

belgilangan majburiyatlarni buzganliklari uchun soliq idoralari moliyaviy jazo choralari qo'llashga haqlidar.

Qisqacha xulosalar

Moliya –davlat tomonidan tashkil etiladigan pul munosabatlarining yig'indisi bo'lib, unda umumdavlat pul mablag'lari fondlarini tashkil etish va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siYosiy vazifalarini bajarish uchun taqsimlanish hamda sarflanish amalga oshadi.

Moliya siYosati – davlat zimmasiga yuklatilgan funktsiyalarni bajarish uchun moliya munosabatlaridan foydalanish yuzasidan tashkil etiladigan chora-tadbirlarning yig'indisi.

Moliya tizimi real iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, dastaklar hamda moliya institutlarining barcha bo'g'inlari faoliyatining yig'indisidan iborat

Davlat byudjeti- davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining), markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar sarfi Yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi

Nazorat uchun savollar

1. Moliya kategoriyasining qanday xususiyatlari mavjud?
2. Moliyaning qanday funktsiyalari mavjud?
3. Moliya siYosatining mohiyati nimadan iborat va uning o'ziga xos xususiyatlari nima?
4. Moliya siYosatining asosiy tamoyillariga tavsif bering.
5. Moliya siYosatini olib borishning qanday Yo'nalishlari mavjud?
6. Moliyani boshqarish mohiyati nimalardan iborat?
7. O'zbekiston Respublikasi moliyani boshqarish tizimining tarkibi nimalardan iborat?

8. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini Yoriting
9. Davlat byudjeti daromadlarining xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Davlat byudjeti xarajatlarining xususiyatlari nimalardan iborat?

Tavsiya etiladigan adabiYotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo‘llari va choralari. -T.: O‘zbekiston, 2009. 56 b.
2. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. -T.: O‘zbekiston, 2005.
3. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007.
4. KovalYova A. Finansi i kredit.- M.: Finansi i statistika, 2006.
5. Jumaev N., Burxonov U. Moliyaning dolzarb muammolari -T.: YAngi asr avlodi, 2003
6. Mamedov O.YU. Sovremennaya ekonomika. - Rostov-na Donu. Feniks, 1998.
7. Polyak G.B. i dr. Finansi. Deneznoe obraçenie. Kredit.-M.:YUNITI, 2004.
8. Senchagov V. K dr. Finansi, deneznoe obraçenie i kredit.-M.: Prospekt, 2004.
9. Sokolova O. i dr. Finansi, den‘gi i kredit. –M.: YURIST, 2001.
10. Sabanti B. Teoriya finansov. – M.: Finansi i statistika, 2004.
11. Xaydarov N. Moliya. -T.: Akademiya, 2001.
12. YAxYoëv K. O‘zbekiston soliq tizimi.-T.: Mehnat, 1998.
13. “WWW. Phoenix.ic.ru”- «Feniks» nashriYoti sayti.
- 12 “WWW. Prospekt.ru.” – «Prospekt» nashriYoti sayti.
13. “WWW. Finstat.ru” – «Finansi i statistika» nashriYoti sayti.
14. .“WWW.m.f.uz” Moliya Vazirligining sayti

IV BOB. KORXONALAR MOLIYASI

4.1. Korxonalar moliyasining mohiyati

Moliya umumiy iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy asosni tashkil etadi. Moliya davlatga yuklatilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish, jamiyatda kengaytirilgan ishlab chiqarishni ta'minlash uchun kerakli pul mablag'larini etkazib beradi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda soliqlar, to'lovlar, bojlar, davlat kreditini jamlagan moliya davlat uchun ob'ektiv va zarur xususiyatga ega bo'ladi. Ushbu jaryonda korxonalar moliyasi alohida o'rin egallaydi.

Korxonalar moliyasi mamlakat moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va u yalpi ijtimoiy mahsulot hamda milliy daromadni yaratilishi, taqsimlanishi va sarflanishi bilan bog'liq jaryonlarni o'z ichiga oladi. Korxonalar moliyasi yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning asosiy qismi yaratiladigan moddiy sohada faoliyat ko'rsatadi.

Korxonalar moliyasi o'z mohiyatiga ko'ra korxonaning tadbirkorlik faoliyati natijasida xususiy kapital, maqsadli markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllanishi, ularni taqsimlanishi hamda sarflanishi bilan bog'liq moliyaviy yoki pul munosabatlaridan iboratdir.

Korxonalar moliyasining iqtisodiy mohiyatiga asosan barcha moliyaviy munosabatlarning yo'nalishlarini quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1) Korxonalarni tashkil etishda xususiy kapitalni va ustav kapitalini shakllantirishdagi ta'sischi o'rtasidagi munosabatlar. Ustav kapitalini shakllantirishning aniq usullari korxonalar faoliyat ko'rsatishining tashkiliy-huquqiy shakliga bevosita bog'liqdir. Bu erda korxonalar ochiq hissadorlik jamiyati, Yopiq hissadorlik jamiyati, ma'suliyati cheklangan jamiyat, hususiy korxonalar va boshqa mulkchilik shaklida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Korxonalar ustav kapitali ishlab chiqarish fondlarini, moddiy va nomoddiy aktivlarni shakllantirishdagi birlamchi moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi;

2) Mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotish bilan bog'liq bo'lgan alohida korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar. Ushbu moliyaviy munosabatlarga xom-ashYo, materiallar va tayYor mahsulotlar etkazib beruvchi ta`minotchi hamda sotib oluvchi korxonalar o'rtasidagi, investitsiya faoliyatini olib borishdagi quruvchi tashkilotlar o'rtasidagi, yuklarni etkazib berish bilan bog'liq transport tashkilotlari o'rtasidagi, aloqa va bojxona muassasalari o'rtasidagi munosabatlarni kiritish mumkin. Ushbu munosabatlar korxonalar moliyasini tashkil etish va uning tijorat faoliyatidagi moliyaviy natijasining asosi hisoblanadi;

3) Korxonalar va uning tashkiliy bo'g'inlari (filiallar, tsexlar, brigadalar, bo'limlar) o'rtasidagi xarajatlarni moliyalashtirish, foydani va aylanma mablag'larni sarflanishi bilan bog'liq munosabatlar. Ushbu munosabatlar korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va uning bir maromda faoliyat ko'rsatishiga bevosita ta`sir etadi;

4) Korxonalar va uning ishchilari o'rtasidagi ish haqini to'lash, soliqlarni to'lash, foydani taqsimlash va sarflanishi, aktsiyadorlik jamiyatida aktsiyalarni chiqarish va ularni joylashtirilishi, aktsiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash, jarimalarni to'lash bilan bog'liq munosabatlar. Ushbu munosabatlar ularda mavjud mehnat resurslaridan samaradorlik bilan foydalanishga ta`sir ko'rsatadi;

5) Korxonalar va yuqori tashkilotlar, moliya-sanoat birlashmalari, xoldinglar, uyushmalar va assotsiatsiyalar o'rtasidagi munosabatlar. Ushbu munosablar korxonalar o'zlari a`zo hisoblangan yuqori tashkilotlar o'rtasidagi markazlashgan maqsadli pul fondlarini va zahiralarini shakllantirishi, taqsimlanishi va ularni sarflanishi, ilmiy-tadqiqot ishlarini tarmoq bo'yicha marketing tadqiqotini o'tkazish, investitsiya faoliyatini olib borishda qaytarib berish sharti asosidagi moliyaviy Yordam ko'rsatish, aylanma mablag'larini to'ldirish bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi. Munosabatlarning ushbu guruhi tarmoq ichidagi korxonalrni ishlab chiqarishini rivojlantirishni qo'llab-

quvvatlash bilan bevosita bog'liq pul mablag'larini qayta taqsimlash hamda ularni ishlatilishi bilan bog'liq munosabatlardan iborat;

6) Tijorat tashkilotlari va korxonalar o'rtasidagi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va ularni joylashtirish, o'zaro kreditlashtirish, qo'shma korxonalarni tashkil etishda muassis sifatida ishtiroq etish bilan bog'liq munosabatlar. Ushbu munosabatlar korxonalarni o'z faoliyatini moliyalashtirishdagi qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish bilan bog'liq faoliyatga bevosita bog'liqdir;

7) Korxonalar va davlat moliya tizimi o'rtasidagi byudjetga soliqlar va yig'imlarni to'lash, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar o'tkazish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish, moliyaviy jazo choralarini qo'llash hamda byudjetdan moliyalashtirish bilan bog'liq munosabatlar;

8) Korxonalar va tijorat banklari o'rtasidagi banklarda pul mablag'larini saqlash, kreditlar olish va ularni to'lab berish, bank kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lash, xorijiy valyutalarni sotish va sotib olish, turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlar;

9) Korxonalar va sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi mol-mulkni, xodimlarini ayrim toifalarini, tijorat va tadbirkorlik qaltisiliklarini (risklarni) sug'urta qilish bilan bog'liq munosabatlardan iborat;

10) Korxonalar va investitsiya institutlari o'rtasidagi qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish, investitsiyalarni joylashtirish, xususiylashtirish bilan bog'liq- munosabatlar.

YUqorida ta'kidlab o'tilgan moliyaviy munosabatlarning har bir guruhi o'ziga xos xususiyatlariga ega va qo'llanishi sohasi bo'yicha ajralib turadi. Lekin ularning barchasi ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, ularning moddiy asosi bo'lib pul mablag'larining xarakati tashkil etadi. Korxonaning pul fondlari mablag'larini xarakati ustav kapitalini shakllantirishi bilan boshlanadi va foydani shakllanishi, taqsimlanishi hamda uni sarflanishi bilan tugaydi.

Korxonalar moliyasi bajaradigan funktsiyalar umumdavlat moliyasi bajaradigan funktsiyalariga o'xshash va ular quyidagilardan iborat:

- 1) taqsimlash funktsiyasi;
- 2) nazorat funktsiyasi.

Ushbu yuqorida qayd etilgan funktsiyalar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi. Biz quyida moliyaning funktsiyalarini to'liq Yoritishga xarakat qilamiz.

Umumdavlat moliyasi o'zining taqsimlash funktsiyasini makrodarajada amalga oshirsa, korxonalar moliyasi o'zining taqsimlash funktsiyasini mikrodarajada amalga oshiradi. Korxonalar moliyasi taqsimlash funktsiyasi Yordamida birlamchi kapitalni shakllantirish, ishlab chiqarishni moliyaviy manbalar bilan ta'minlash, daromadni va moliyaviy resurslarni taqsimlash, majburiyatni o'z muddatida hamda to'liq bajarish, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarining va davlatning manfaatlarini oqilona darajada saqlab turish amalga oshiriladi. Taqsimlash funktsiyasi orqali korxonaning daromadlarini taqsimlash natijasida maqsadli pul fondlari va zahiralari shakllantiriladi. Bunday fondlarga ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zahira fondi, jamg'arma fondi, iste'mol fondi, valyuta fondi va boshqalarni kiritish mumkin.

Korxonalar moliyasining taqsimlash funktsiyasi o'z mohiyatiga asosan nafaqat jamiyatning umumiy manfaatlarini, balki o'z vaqtida alohida olingan xo'jalik sub`ektlarining, ta'sislarning, turli aktsiyadorlarning, ishchi-xodimlarning, kredit va sug'urta institutlarining manfaatlarini oqilona o'zida jamlashi lozim.

Korxonalar doirasida shakllantiriladigan moliyaviy mablag'larning xajmi, kerakli kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish, aylanma mablag'larni to'ldirib turish va ko'paytirish, hamma turdagi moliyaviy majburiyatlarni amalga oshirish, ijtimoiy xarakterdagi ehtiyojlarni ta'minlash imkoniyatlarni aniqlaydi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda uning xo'jalik-moliya faoliyatini taxlil etish asosiy ahamiyatga egadir.

Korxonalar moliyasining nazorat qilish funksiyasini ob`ektiv asosi bo`lib mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xizmatlar ko`rsatish, ishlarni bajarishdagi xarajatlarning qiymat tomondan hisobga olinishi va buning natijasida daromadlarni shakllanishi hamda pul fondlarini taqsimlanishi tashkil etadi. Moliya taqsimlash munosabatlari sifatida ishlab chiqarishni moliyalashtirishni moliya manbalari bilan ta`minlaydi va shu asosda u ishlab chiqarishning barcha sohalarini, ya`ni ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste`molni o`z ichiga oladi. SHuni ta`kidlash lozimki, korxonalar maxsulot ishlab chiqarish, ishlarni amalga oshirish, xizmatlar ko`rsatish natijasida kelib tushadigan daromadning miqdoridan ortig`ini taqsimlay olmaydi. Olinadigan daromadning miqdorini oshirish uchun esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishga bevosita bog`liqdir. Xuddi shu jaraYonlarda nazorat funksiyasi alohida ahamiyatga egadir. Korxonalar moliyasining nazorat qilish funksiyasi quyidagi Yo`nalishlarda amalga oshiriladi:

1) Korxonalar tomonidan bevosita moliyaviy ko`rsatqichlarni har tomonlama tahlil etish, moliya rejalarini bajarilishi yuzasidan tezkor nazoratni olib borish, tovar-moddiy qiymatlarini etkazib beruvchilar, buyurtmachilar, tijorat banklari, davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar va boshqa kontragentlar oldidagi majburiyatlarni bajarish jaraYonida olib boriladi;

2) Korxonalarining ta`sischilari va aktsiyadorlari oldida pul mablag`larini samaradorlik bilan joylashtirish, foyda topish hamda dividendlar to`lash yuzasidagi nazorat olib boriladi;

3) O`zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo`mitasi vakolatidagi davlat soliq inspektorlari tomonidan byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga soliqlar, bojlar, yig`imlar hamda to`lovlarni o`z muddatida to`liq to`lanishi yuzasidan nazorat olib boriladi;

4) O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi vakolatidagi moliya bo`limlari tomonidan o`zlarining moliya-xo`jalik faoliyatida davlat byudjeti

mablag'laridan foydalana Yotgan korxonalarda ushbu mablag'larni maqsadli foydalana Yotganligini nazoratini olib boradilar;

5) Tijorat banklari tomonidan korxonalarga kreditlar berish, uni o'z vaqtida va foizi bilan qaytarilishini hamda boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan nazorat olib boradilar;

6) Mustaqil auditorlik firmalari tomonidan korxonaning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish orqali olib boradilar.

Korxonalar ichidagi moliya nazoratini alohida tashkil qilingan moliya bo'limlari amalga oshiradi. Korxonalarda ishchi-xizmatchilar sonining kamligi, ishlab chiqarish hajmining kamligi sababli ularda moliya nazoratini olib borish vakolati bosh hisobchi zimmasiga yuklatilgan. Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatida ijobiy moliyaviy natijalarning mavjudligi ushbu korxonada moliya nazoratini yuqori darajada tashkil etilganligidan hamda moliya resurslarini boshqarishda samarador shakl va uslublardan foydalanila Yotganligidan dalolat beradi. O'z vaqtida buning aksi, korxonada moliya-xo'jalik faoliyatida salbiy moliyaviy natijalarning mavjudligi, ushbu korxonada moliya nazoratini sust darajada tashkil etilganligidan dalolat beradi hamda ushbu holat korxonaning moliyaviy tomonidan «sinishi»ga olib kelishi mumkin.

4.2. Korxonalar moliyasining tashkil etishning tamoyillari

Korxonaning moliyaviy munosabatlari ularning xo'jalik yuritish faoliyati asosida ma'lum tamoyillarga asosan tashkil etiladi. Ushbu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- xo'jalik yuritish faoliyatidagi mustaqillik;
- o'z-o'zini moliyalashtirish;
- moddiy manfaatdorlik;
- moliyaviy zahiralari bilan ta'minlanganlik.

Xo'jalik yuritish faoliyatidagi mustaqillik tamoyili korxonaning moliya sohasidagi mustaqilliksiz amalga oshirilishi mumkin emas. Ushbu tamoyil

mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining iqtisodiy faoliyat sohasini, uning moliyalashtirishni manbailarini, daromad olish maqsadida pul mablag'larini kapital qo'yilmalariga Yo'naltirishni mustaqil tarzda belgilashlarida amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishchi-xodimlarining moddiy farovonligini yanada oshirishdan iborat bo'ladi.

Bozor munosabatlari korxonalaridan iste'molchilarning talablariga asosan samarador va oqilona ishlab chiqarishni tashkil etishga, mahsulot va xizmatlarning sifatini oshirishga undaydi. Korxonalar o'z faoliyatida qo'shimcha daromad olish uchun asosiy faoliyatdan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida davlatning, boshqa xo'jalik sub'ektlarining qimmatli qog'ozlariga qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar qilishlari mumkin.

SHuni ta'kidlash lozimki, korxonalarining xo'jalik yuritish faoliyatidagi mutloq mustaqillik to'g'risida fikr yuritish mumkin emas, chunki vakolatli davlat organlari tomonidan ularning faoliyat yuritishlarining ayrim tomonlari qonun asosida tartibga solinib turiladi. Masalan, korxonalar va turli darajadagi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qonun asosida qat'iy belgilab qo'yiladi. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar o'z faoliyati asosida qonun asosida berilgan soliqlarni, o'rnatilgan stavkalarda to'lab borib turli darajadagi byudjetlarni shakllantiradilar. Davlat tomonidan korxonalar uchun amortizatsiya siyosatini belgilaydi. Aktsiyadorlik jamiyatlari uchun esa moliyaviy zahiralarni tashkil etish va ularning miqdori qonun bilan belgilanadi.

O'z-o'zini moliyalashtirish tamoyilini amalga oshirish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatining asosiy shartlaridan kelib chiqadi. O'z-o'zini moliyalashtirish tamoyili korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish xarajatlarini to'liq qoplash, ishlab chiqarishni shaxsiy pul mablag'lari bilan ta'minlash hamda zarur bo'lganda tijorat banklari kreditlaridan foydalanishni anglatadi.

Iqtisodiyotni rivojlangan mamlakatlarda korxonaning o'z-o'zini moliyalashtirish sohasida ularni shahsiy mablag'lari juda yuqori darajada ya'ni 70% dan ortig'ini tashkil etadi. Korxonalar faoliyatining moliyalashtirishni asosiy shahsiy manbalariga foyda, amortizatsiya ajratmalari va ta'mirlash jamg'armalari kiritiladi.

Moddiy manfaatdorlik tamoyilining ob'ektiv zarurligi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalarining pirovard maqsadi bo'lib daromad topishligidan kelib chiqadi. Korxonalar tomonidan o'z faoliyatining ijobiy natijalariga erishishlikdagi manfaatdorlik nafaqat uni ishtiroqchilari uchun emas, shu jumladan davlat ham manfaatdordir. Korxonalarining ishchi-xodimlari doirasida ushbu tamoyil yuqori darajadagi ish xaqi miqdori bilan amalga oshiriladi. Moddiy manfaatdorlik tamoyili korxonalar miqyosida davlat tomonidan oqilona soliq siyosatini olib borishi natijasida ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish va pirovard natijada daromadni ko'paytirish bilan amalga oshiriladi.

Korxonalar tomonidan ushbu tamoyilni amalga oshirilishi yangi yaratilgan qiymat, shahsiy kapital o'rtasida oqilona taqsimotni olib borish va jamg'arma hamda iste'mol fondlarini shakllantirish asosida yuzaga chiqadi. Davlatning manfaatdorligi esa korxonalar faoliyatida rentabellikni ta'minlash, ishlab chiqarishni o'sishi va soliq intizomiga qat'iy rioya etishliklari asosida yuzaga chiqadi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishda korxonalar faoliyatida moliya-xo'jalik yuritish va uning pirovard natijalari hamda shahsiy kapital saqlashlari uchun moddiy javobgarlikni mavjudligi bilan amalga oshiriladi. Moddiy javobgarlik uchun moliyaviy usullar respublika qonunchiligi asosida tartibga solinib turiladi va amalga oshiriladi. Xo'jalik yuritish faoliyatida shartnoma majburiyatlarini, to'lov intizomini, soliq qonunchiligini buzgan korxonalar uchun turli moliyaviy choralar qo'llanishi mumkin. Rentabelsiz faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar uchun esa ular o'z majburiyatlariga javob

bera olmaydigan holatlarda davlat organlari tomonidan bankrotlik jaraYoni qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga asosan amaldagi soliq qonunchiligini buzgan korxonalarining rahbarlariga nisbatan ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilgan korxonaning ishchi-xodimlari uchun mehnat intizomini buzgan, ishlab chiqarishda brakga Yo'l qo'yilgan holatlarda mukofotdan mahrum qilish, ish haqidan ushlab qolish, zarur holatlarda ishdan bo'shatish ko'zda tutilgan. Ushbu Yo'nalish juda ko'p korxonalarda amaliYotga kiritilgan.

Bozor iqtisodiYoti sharoitida korxonalarining tadbirkorlik faoliyatida ma'lum qaltisliklar (risklar) tufayli biznes uchun qo'yilgan mablag'larni qaytmasligi holatlarining mavjudligi ular tomonidan moliyaviy zahiralarni tashkil etishlarini talab etadi. Xozirgi sharoitda barcha qaltisliklar o'z nomidan va o'z hisobidan ixtiYoriy ravmishda o'z faoliyatini olib boraYotgan tadbirkorlar zimmasiga tushadi. Xaridorlar uchun iqtisodiy raqobat shart-sharoitlarida tadbirkorlar ba`zi holatlarda o'z maxsulotlarini, xizmatlarini oldindan to'lovsiz etkazib beradilar. Korxonalar tomonidan qimmatli qog'ozlarga qilgan kapital qo'yilmalari nafaqat daromad keltirishi balki kapitalni Yo'qotish qaltisligi bilan bog'liq. Nihoyat, korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy dasturlarda samarasiz hisob-kitoblar ham mavjud. Bu salbiy holatlarni oldini olish, juda zarur holatlarda moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy zahiralarni tashkil etish zaruriyati yuzaga chiqadi.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga barcha soliqlar, majburiy to'lovlarni to'lagandan qolgan sof foyda hisobidan moliyaviy zahiralarni shakllantirishlari mumkin. Aktsiyadorlik jamiyatlari uchun esa imtiYozli aktsiyalarga dividend to'lashlari uchun moliyaviy zahiralarni shakllantirish qonunda belgilab qo'yilgan.

Hozirgi vaqtda amaliyotda ko'plab korxonalar o'zlarining moliyaviy imkoniyatlarini cheklanganligi sababli barqaror moliyaviy holatni saqlab turishlari uchun kerakli miqdorda moliyaviy zahiralarini tashkil eta olmayaptilar.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan korxonalar moliyasining tashkil etuvchi tamoyillar doimiy ravishda va uzviy bog'liqlikda rivojlanishdadir. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, ishchi kuchlarini holati, iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishiga asosan tamoyillarining turlarini amaliyotda qanday miqdorda, qaysi shakl hamda usullarda qo'llanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4.3. Korxonaning moliya resurslari

Korxonaning moliya resurslari bu korxonalar ixtiyorida bo'lgan pul tushumlari va pul daromadlaridan iboratdir. Ularning qo'llanilishini maqsadi bo'lib davlat byudjeti, tijorat banklari, sug'urta va boshqa korxonalar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini pul mablag'lari bilan ta'minlash hisoblanadi. Moliya resurslari ishlab chiqarishni barqarorligini saqlab turish, uni kengaytirish va korxonada ishchi-xodimlarining moddiy rag'batlantirish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Korxonalarining moliya resurslarini manbai bo'lib ularning xususiy mablag'lari va turli manbalardan jalb etilgan mablag'lar tashkil etadi.

Moliya resurslarini birlamchi resurslarini shakllantirilishi korxonaning tashkil etish jarayonida uning ustav fondini shakllantirishda amalga oshadi. Bunda korxonada tomonidan muomalaga oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarib, ular aksiyadorlar orasida joylashtiriladi. Ustav fondining miqdori tashkil etilayotgan korxonaning mol-mulki, asosiy va aylanma fondlarning miqdoriga bevosita bog'liqdir.

Korxonada moliya resurslarining shakllanishining keyingi jarayonni foyda va amortizatsiyadan ajratmalar hisobiga amalga oshiriladi. Amaliyotda ushbu ajratmalardan tashqari korxonalar moliya resurslarining manbalari bo'lib quyidagi xizmat qiladi:

- ishlab chiqarishga yaroqsiz mol-mulkni sotishdan kelgan tushum;

- qurilishda ichki resurslarni jalb qilish;
- xorijiy valyuta kurs o'zgarishidan keladigan tushum;
- boshqa tushumlar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar moliya resurslari tarkibida moliya bozorida muomalaga turli qimmatli qog'ozlar chiqarish yordamida (obligatsiyalar) mablag' jalb qilish ham alohida o'rin egallashi mumkin. Korxonalar moliya resurslarini shakllantirishda jalb etilgan mablag'lar, ya'ni tijorat banklaridan olingan kreditlardan ham foydalanishlari mumkin.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan moliya resurslaridan tashqari korxonalar o'zlari kiradigan assotsiatsiyalar, kontsernlar, xoldinglar o'rtasida foydani qayta taqsimlanishi, sug'urta kompaniyalar tomonidan zararni qoplash uchun to'lovlarni to'lash orqali ham qo'shimcha mablag'larni olishlari mumkin. Biz korxonalar moliyasining resurslari va manbalarini chizma yordamida yoritishga harakat qilamiz. CHizmada xalqaro amaliyotda korxonalar moliya resurslar va ularni tashkil etishning barcha manbalarini keltiramiz.

Korxonalar turli manbalari hisobiga jalb etilgan moliya resurslaridan ishlab chiqarishni kengaytirish, uni texnikaviy qayta jihozlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanadilar.

Korxonalar moliya resurslarining tartibi va uning manbalari.



Манба. CHizma muallif tomonidan tayyorlangan.

Korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini moliyaviy ta'minlash quyidagi uch shaklda amalga oshirilishi mumkin:

1. O'z-o'zini moliyalashtirish;
2. Kreditlash;
3. Davlat tomonidan moliyalashtirish.

O'z-o'zini moliyalashtirish korxonalar o'z faoliyatini xususiy resurslaridan foydalanishga asoslanadi. Ushbu holatda korxonalar mablag'lar etishmay qolganda moliya bozorida qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali qo'shimcha mablag'lar jalb etishlari mumkin.

Kreditlash shaklida korxonalar o'zlarining ishlab chiqarishda yuzaga chiqqan vaqtinchalik moliya resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini tijorat banklaridan maqsadlilik, ta'minlanganlik, to'lovlilik, qaytarib berishlik va muddatlilik tamoyillari asosida kredit olish natijasidan qondirishlari mumkin.

Davlat tomonidan moliyalashtirishda korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar hisobidan qaytarib bermaslik asosida pul mablag'lari bilan ta'minlanishi amalga oshiriladi. Moliyalashtirishning ushbu shakli Yordamida davlat maqsadli ravishda iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy sohalari, tarmoqlar, xududlar, xo'jalik sub`ektlari va aholining ayrim toifalari o'rtasida moliya resurslarini qayta taqsimlanishini amalga oshiradi.

Amaliyotda korxonalar moliya resurslarini tashkil etishda moliyalashtirishning uch shaklidan birdaniga foydalanish mumkin. Bundan asosiy maqsad ular o'rtasidagi oqilona muvozanatni saqlash hisoblanadi. Bunday oqilona muvozanatga erishish korxonalar moliya xizmatining faol moliya siyosatini olib borishga bevosita bog'liqdir.

Korxonalar moliya resurslarining sarflanishi turli Yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu Yo'nalishlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- kapital qo'yilmalar, ishlab chiqarishni kengaytirish, texnikaviy qayta jixozlash xarajatlari;
- moliya va bank tizimidagi tashkilotlar oldidagi moliya majburiyatlarini bajarish (davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari fondlariga soliqlar to'lash, kreditdan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish);
- moliya bozorida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish xarajatlari;
- korxonalar ishchi-xodimlariga ish haqi, mukofotlar to'lash;

- moliya resurslaridan xomiylik uchun mablag'lar ajratish va boshqalar.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini uzluksizligini ta'minlashda moliyalashtirishni amalga oshirishda ular tomonidan moliyaviy zahiralarni tashkil etishlari muhim ahamiyatga egadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy zahiralarning ahamiyati yanada oshadi. Korxonalar faoliyatida ko'zda tutilgan omillar natijasida yirik miqdorda zarar ko'rish holati yuzaga chiqqanda ishlab chiqarishni uzluksizligini zarur moliya resurslari bilan ta'minlashda moliyaviy zahiralari katta ahamiyatga egadir. Moliya zahiralari korxonalar tomonidan foydadan ajratmalar hisobiga, yuqori tashkilotlariga normativ ajratmalar hisobiga, sug'urta tashkilotlariga badallar to'lash hisobiga va davlat tomonidan zahira fondlari tashkil etish Yordamida shakllantirilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini moliya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash va ularni oqilona boshqarishda moliya xizmati faoliyati qanday saviyada tashkil etilishi juda muhim ahamiyatga egadir. O'zlik va jalb etilgan moliya resurslaridan moliya xizmati tomonidan faoliyati xalqaro amaliyotda «moliyaviy menejment» deb nomlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligi aynan moliyaviy menejmentning qanday Yo'lga qo'yilganligiga bevosita bog'liqdir.

4.4. Korxonalar asosiy faoliyatining tahlili

Hozirgi zamon korxonalari doimiy ravishda o'zgarib turuvchi bozor munosabatlar sharoitida va raqobat asosida o'z faoliyatini olib boradilar. Korxonalar asosiy faoliyatining pirovard maqsadi nafaqat daromad olish va shuning bilan bir qatorda shaxsiy kapitalni saqlab turish, uni ko'paytirish hamda tadbirkorlikning bir maromda ushlab turish hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini olib borish jaryonida korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot sotish, ishlarni amalga oshirish, xizmatlar ko'rsatish, shaxsiy moliya resurslarini shakllantirish, tashqi manbailaridan mablag'lar jalb qilish, uni taqsimlash va sarflanishi bilan bevosita bog'liq

moliyaviy munosabatlar yuzaga chiqadi. Bu ta`kidlab o`tilgan barcha moliyaviy munosabatlar O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug`iga va O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 24 yanvarda 1209-son bilan ro`yxatga olingan 1-sonli shakl «Buxgalteriya balansida» aks ettiriladi.

Korxanalarning buxgalteriya balansini o`z mohiyatiga ko`ra aniq bir muddatdagi korxonaning mulkiy va moliyaviy holatida aks ettirgan jadvaldan iborat. Buxgalteriya balansini asosan ikki qismdan aktiv va passiv qismdan tashkil topgan. Balansning aktiv qismida korxonaning mol-mulki, nomoddiy va joriy aktivlari, passiv qismida esa korxonaning o`z mablag`lari manbailari hamda majburiyatlari aks ettiriladi. Biz quyida korxonaning buxgalteriya balansini tarkibini Yoritamiz.

Quyida keltirilgan jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, korxonaning aktivlarining tartibda tovar-moddiy zahiralar asosiy o`rinni egallab turibdi. Ularning aktiv tarkibidagi ulushi yil boshida 92,8 % ni tashkil etgan bo`lsa, ushbu ko`rsatqich yil oxirida 88,6 % ni tashkil etdi. Balans tarkibida asosiy vositalarning egallagan ulushi yil boshiga 4,1 % ni tashkil etgan bo`lsa, yil ohiriga kelib ushbu ko`rsatqich 2,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar buxgalteriya balansining aktiv qismini tarkibi

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar nomi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili ohiriga
Aktivlar		
Uzoq muddatli aktivlar	-	-
Asosiy vositalar	9230	4354
Nomoddiy aktivlar	1290	944
Uzoq muddatli investitsiyalar	-	-
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari	-	465
1 bo'lim bo'yicha jami	10520	5763
Joriy aktivlar		
Tovar-moddiy zahiralalar	211318	194113
Debitorlar	1736	9309
Pul mablag'lari	4072	9990
2 bo'lim bo'yicha jami	217126	213412
Balans aktivi bo'yicha jami	227646	219175

Manba: Tanlab olingan korxonalar balansi.

Korxonaning pul mablag'larining aktivlar tarkibidagi ulushi yil boshiga 1,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich yil ohoriga 4,6 % ni tashkil etdi. Korxonalar balansining aktivlar tarkibi unig asosiy faoliyat turiga bevosita bog'liqdir. Biz tahlil etgan korxonaning asosiy faoliyati – ulgurji savdo bo'lganligi sababli, uning aktivlari tarkibida tovar-moddiy zahiralarning ulushi asosiy o'rinni egallab turibdi. Ulgurji savdoning asosiy maqsadi tovar-larni sotib olish. Uni saqlash va uni xaridorlarga qayta sotish hisoblanadi. SHuni ta'kidlash lozimki, ulgurji savdo korxonalari o'zlarining faoliyatini amalga oshirishda shaxsiy va ijara olingan asosiy vositalardan faol foydalaniladilar.

Korxonada o'z faoliyatini olib borishda moliya resurslarini shakllantirishlari lozim. Korxonada balansning passiv qismida korxonaning o'z mablag'lari va uning majburiyatlari aks ettiriladi. Biz tanlab olingan korxonaning buxgalteriya balansi passiv qismini tahlil etamiz.

2 jadval

Korxonada buxgalteriya balansining passiv qismini tarkibi (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar nomi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili ohiriga
Passivlar		
1. O'z mablag'lari manbalari	-	-
Ustav kapitali	12448	12448
Qo'shilgan kapital	11206	11523
Rezerv kapital	3112	3112
Taqsimlangan foyda	90378	6491
Maqsadli tushumlar	3954	3565
1 bo'lim bo'yicha jami	121098	37139
2. Majburiyatlar		
Joriy majburiyatlar shu jumladan:	106548	182036
Joriy kreditorlik qarzlari	106548	182036
Mol etkazib beruvchilarga qarz	93213	158526
SHo''ba korxonolarga qarz	8715	4875
Olingan	2220	2555
Byudjetga to'lovlar uchun qarz	1400	750
Qisqa muddatli qarzlar	-	10000
Boshqa kreditorlik qarzlar	1000	5330
2 bo'lim bo'yicha jami	106548	182036
Balans passivi bo'yicha jami	227646	219175

Manba: Tanlab olingan korxonada balansini.

YUqoridagi jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, korxonaxona buxgalteriya balansining passiv qismining asosiy o`rinni joriy majburiyatlar egallab turibdi. Ularning passiv qismidagi egallagan ulushi yil boshiga 46,8 % ni tashkil etgan bo`lsa, ushbu ko`rsatqich yil ohiriga kelib 83,0 % ni tashkil etdi. Korxonaning joriy majburiyatlari tarkibida esa mol etkazib beruvchilarga bo`lgan qarzdorlik asosiy o`rinni egallab turibdi. Bu ko`rsatqichning passiv qismidagi ulushi yil boshiga 40,9 % ni tashkil etgan bo`lsa, ushbu ko`rsatqich yil oxirida 72,3 % ni tashkil etdi. O`z majburiyatlarini bajarish uchun korxonaxona tijorat bankidan 10000,0 ming so`m miqdorida kredit olgan. Korxonaxona passiv qismida ustav kapitali yil boshiga 5,5 % ni tashkil etgan bo`lsa, yil oxiriga kelib bu ko`rsatqich 5,6 % ni tashkil etdi. Biz tanlab olgan korxonaxona davlat byudjeti oldidagi qarzdorligi yil boshiga 1400,0 ming so`mdan yil ohiriga kelib 750,0 ming so`mgacha kamaygan. Biz yuqorida ta`kidlab o`tkanimizdek, korxonaxona buxgalteriya balansining asosiy faoliyati bilan bevosita bog`liq. Agarda korxonaxona asosiy ishlab chiqarish bo`lgan taqdirda balansning asosiy qismini asosiy vositalar egallagan bo`lar edi. Biz tanlab olgan korxonaxona asosiy faoliyati ulgurji savdo bo`lganligi sababli, uning balansining passiv qismida asosiy o`rinni joriy majburiyatlar, ya`ni mol etkazib beruvchilarga bo`lgan qarzdorlik egallab turibdi.

4.5. Korxonaxona moliyaviy natijalarining tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko`rsatish jarayonida yangi qiymat yaratiladi. Ushbu qiymat mahsulotni sotish, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlar uchun baho asosida aniqlanadi. Korxonaxona hisob raqamiga mahsulotni sotishdan, ko`rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun kelib tushadigan mablag` tushum deb ataladi. Amaldagi qonunchilikka asosan korxonaxona uchun tushumning hisobotini olib borishda ikki usul mavjud:

1. tayYor mahsulotni jo'natish (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish) asosida xaridorlarga hisob xujjatlarini taqdim etishlik;

2. tayYor mahsulot uchun (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish) xaridorlardan kelib tushgan mablag'lar asosida.


Korxonalar o'z faoliyatida soliqqa tortishni amalga oshirish uchun yuqorida qayd etilgan usullardan birini mustaqil tarzda tanlaydilar va uni amalga oshiradilar.

Korxonada mahsulot sotishdan (xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish) kelgan tushumning taqsimotini quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.

Mahsulot sotishdan (ishlarni bajarishdan, xizmat ko'rsatishdan) kelgan tushumning asosiy manbai bo'lib xaridorlardan kelib tushgan pul mablag'lari va bo'lgan to'lovlari hisoblanadi. Korxonalar hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'lari o'zining dastlabki taqsimlanishi amalga oshiriladi. Korxonada o'ziga kelib tushgan tushumdan eng avvalo xom-ashYo, materiallar, Yoqilg'i, elektroenergiya uchun to'lovlarni amalga oshiradi. Tushumdan mahsulot tannarxidagi bilvosita soliqlar hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsizni davlat byudjetiga o'tkazadilar. Ushbu xarajatlarni to'lagandan so'ng korxonada

ixtiYorida yalpi daromad qoladi. Korxonada yalpi daromadidan ish haqi, unga to'lovlarni, foydadan soliqni va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq boshqa to'lovlarni amalga oshiradilar.

Mahsulot sotishdan, ishlarni bajarishdan va xizmat ko'rsatishdan kelgan tushumning taqsimlanishi.



Manba. CHizma muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu xarajatlarni amalga oshirgandan so'ng korxonada ixtiyorida sof foyda qoladi. Amaldagi qonunchilikka asosan korxonada sof foydadan o'rnatilgan soliqlarni to'laydi, muomalaga chiqarilgan aksiyalar uchun

dividendlarni to'laydilar. Barcha ta'kidlab o'tgan to'lovlarni amalga oshirilgandan so'ng korxonada qoldiq sof foyda qoladi.

3 jadval

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot

(ming so'mda)

	Ko'rsatqichlar nomi	Daromadlar	Xarajatlari
1	Mahsulot tovar, ish va xizmatlarni sotishdan sof tushum	137750	-
2	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxi	-	134376
3	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishda yalpi foyda	3374	-
4	Davr xarajatlari jami	-	79800
	shu jumladan:	-	12573
	a) sotish xarajatlari	-	39719
	b) ma'muriy xarajatlari	-	27508
	v) boshqa operatsion xarajatlari	-	-
5		10214	-
6	Asosiy faoliyatning boshqa daromadi	-	66212
7	Asosiy faoliyatining zarari	91816	-
	Moliyaviy faoliyat daromadlari		
	SHu jumladan:	1437	-
	a) valyuta kursidan olingan daromad	90379	-
8	b) moliyaviy faoliyatining boshqa daromadlari	-	14763
	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari	-	14338
	SHu jumladan:	-	425
	a) valyuta kursidan farqlangan zararlar	-	-
9	b) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlari	10841	-
10	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi	-	4350
	Daromad (foyda) solig'i		
	Hisobot davrining sof foydasi		

Manba : Tanlangan korxonaning balansi.

Korxonalar ushbu sof foydani taqsimlashda maxsus jamg'armalarni tashkil qilish asosida taqsimlashlari mumkin. Bu fondlarga jamg'arma va iste'mol fondlarini hamda zahira jamg'armalarini kiritish mumkin.

Ushbu fondlar korxonalarining xo'jalik-moliya faoliyati natijalariga asosan tashkil etiladi.

Biz korxonaning moliyaviy natijalarini yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, biz tanlangan korxonaning moliya natijalari tarkibida mahsulot (tovar, ish, xizmat) larni sotishning yalpi foydasi 3374,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, moliyaviy faoliyatning daromadi 31816,0 ming so'mni tashkil etgan. Biz quyidagi jadvalda korxonaning pul oqimlarini tahlil etamiz.

4 jadval

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

(ming so'mda)

	Ko'rsatqichlar nomi	Kirim	CHiqim
	Operatsion faoliyat:		
1	Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan pul	171963	-
2	mablag'lari		
	Tovar va mahsulot etkazib beruvchilarga	-	154152
3	to'langan pul mablag'lari	-	16631
4	Ishchi –xodimlarga to'langan pul mablag'lari	5220	5301
	Operatsion faoliyatining boshqa tushumlari	1099	-
5	Operatsion faoliyatdan sof pul kirimi		
	Investitsion faoliyat		
6	Asosiy vositalarni sotish va sotib olish	-	150
	Moliyaviy faoliyat		
7	Qisqa muddatli bank krediti	10000	-
	Soliqqa tortish		
8	To'langan daromad (foyda) solig'i	-	5014
9	To'langan boshqa soliqlar	6032	11243
	Jami moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi	722	-
10	Yil boshidagi pul mablag'lari	-	1012
11	Yil ohiridagi pul mablag'lari	-	1734

Manba: Tanlangan korxonalar balansi.

Korxonaning pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yil moliyaviy natijasiga asosan korxonaning operatsion

faoliyatidan sof pul kirimi 1099,0 ming so'mni tashkil etgan. Natijada korxonada o'zining moliya faoliyatini olib borish maqsadida tijorat banklarida 10000,0 ming so'mlik kredit olgan. Biz quyida korxonaning davlat byudjeti bilan munosabatlarini tahlil etamiz.

5 jadval

Byudjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumot

(ming so'mda)

	Ko'rsatqichlar nomi	Hisob bo'yicha to'lanadi	Haqiqatdan to'langan
1	Daromad (foyda) solig'i	-	-
2	Jismoniy shahslardan daromad solig'i	3636	3636
3	YALpi daromad solig'i	4350	3617
4	Mol-mulk solig'i	281	285
	Jami byudjetga to'lovlar	8267	7538

Manba: Tanlangan korxonada balans

YUqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, biz tanlangan korxonada o'zining faoliyati asosida byudjetga yalpi daromad to'laydi. Ushbu soliq bo'yicha yil natijalariga asosan 4350,0 ming so'mlik yalpi daromad solig'i hisoblangan. Amalda esa byudjetga 3617,0 ming so'm o'tkazgan va buning natijasida byudjetdan 733,0 ming so'm qarz bo'lib qolgan. Ishchi-xodimlardan 3636,0 ming so'mlik daromad solig'i hisoblangan va u to'liq byudjetga o'tkazilgan. Korxonada o'zining mol-mulki uchun 281,0 ming so'mlik soliq hisoblangan holda byudjetga 285,0 ming so'm o'tkazib bergan.

4.6. Korxonalarda moliya ishlarini tashkil etishning xususiyatlari

Bozor munosabatlarining rivojlanishiga bevosita bog'liq holda korxonalarda moliya ishlari sifat jihatdan yangi mazmunga ega bo'lmoqda. Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining takomillashib borishi bilan korxonalar moliya xizmatining muhim vazifasi bo'lib nafaqat davlat byudjeti, tijorat banklari, xaridorlar, mol etkazib beruvchilar, boshqa xo'jalik yurituvchi

sub`ektlar va o`zlarining xodimlari oldidagi majburiyatlarini bajarishni amalga oshirish bilan bir qatorda o`zlarida moliyaviy menejmentni oqilona tashkil etish ham hisoblanadi. Moliya menejmenti o`z mohiyatiga asosan olinadigan foyda ko`paytirish maqsadida korxonaning moliya-xo`jalik faoliyati jaraYonida yuzaga keladigan pul oqimlarini oqilona va samaradorlik bilan boshqarishni anglatadi. Moliya menejmentida boshqaruvning ob`ekti bo`lib korxonalarining pul aylanmalari hisoblanadi. Moliya menejmenti moliyaviy hisobotlarni chuqur tahlil etish, xo`jalikning aktivlari va passivlari tarkibini o`zgarishiga asosan pul oqimlarining (tushumlar va to`lovlar) istiqbolini belgilash asosida korxonaning moliyaviy strategiya va taktikasini ishlab chiqadi. Ushbu omillar ma`lum korxonaning umumiy boshqaruvi tizimida moliya xizmatining tarkibi va uning ahamiyati to`g`risidagi tushunchaga o`zgartirishlar kiritadi. Moliya xizmatining aniq tarkibiy tuzilmasi va bajaradigan vazifalari aniq olingan korxonaning xo`jalik yuritishdagi tashkiliy-huquqiy shakliga, korxonaning ishlab chiqarish hajmi, pul aylanmasining miqdori va ishchi xodimlarining soniga bevosita bog`liq.

Xalqaro amaliYotda korxonalarining moliya xizmati quyidagi asosiy vazifalarini bajaradilar:

- korxonada biznes-rejasini ishlab chiqish va uni bajarishda ishtiroq etish;
- asosiy, moliya va investitsiya faoliyati natijasida yuzaga keladigan pul oqimlarini boshqarish;
- korxonani rivojlantirishning moliyaviy dasturini ishlab chiqish;
- oqilona kredit siYosatini ishlab chiqish;
- moliyaviy rejalashtirish;
- mol etkazib beruvchilar, xaridorlar, byudjet, tijorat banklari va boshqa xo`jalik sub`ektlari hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- moliyaviy va boshqa qaltisliklardan (risklar) sug`urtalashni ta`minlash;
- korxonaning moliya-xo`jalik faoliyatini doimiy ravishda chuqur tahlil etish;

- pul mablag'laridan maqsadli va samarador foydalanishni qat'iy nazorat qilish va boshqalar.

Korxonalarining miqdori, xodimlar soni, tarmoq sohasi, ishlab chiqarishda oldinga qo'yilgan maqsadlar asosida biz yuqorida ta'kidlab o'tgan vazifalari kengaytirilishi va yanada aniqlashtirilishi mumkin.

Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ko'plab xodimlar ishtiroq etadilar. Eng muhim moliyaviy qarorlar faqatgina korxonaning yuqori boshqaruvi rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

6 jadval

Moliya xizmati boshlig'i va bosh hisobchi majburiyatlarining taqsimoti

No	Moliya xizmati boshlig'i	Bosh hisobchi
1	Tijorat banklari bilan ishni tashkil etish	Buxgalteriya hzisobi va hisobotini olib borish
2	Pul mablag'lari hisobraqamlarini boshqarish	Moliyaviy hisobotlarni tayYorlash
3	Moliyalashtirish manbalarini jalb qilish	Ichki auditni amalga oshirish
4	Kredit va valyuta siYostaini olib borish	Ish haqini berishni amalga oshirish
5	Dividend siYosatini olib borish	Smetalarni tuzish
6	Sug'urtani amalga oshirish	Hisobotlarni tartibga soli shva saqlash
7	Soliqlarni rejalashtirish	Soliqlarni to'lash

Manba: Muallif tomonidan tayYorlandi.

SHuni ta'kidlash lozimki, korxonalarda muhim moliyaviy qarorlarni ishlab chiqish va ularni qabul qilishda eng faol xodimlar bo'lib moliya xizmati boshlig'i va bosh hisobchi hisoblanadi.

Korxonada moliya-xo'jalik faoliyatini yuritishda moliya xizmati boshlig'i va bosh hisobchi o'z vakolatlari doirasida vazifalarni o'zaro taqsimlab oladilar. Korxonalarda ular o'rtasidagi vazifalar taqsimotidan umumlashtirgan holda

guruhlarga ajratish mumkin. Biz buni yuqorida keltirilgan jadvalda keltirib o'tdik.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan taqsimot ishlab chiqarish xajmi yirik korxonalarda uchraydi. Bunday korxonalarda o'z xizmat majburiyatini amalga oshirishda bosh hisobchi moliya xizmati boshlig'iga bevosita bo'ysunadi. Amaliyotda ishlab chiqarish xajmi kichik, xodimlar soni kam bo'lgan kichik biznes sub'ektlarida moliya xizmati tashkil etilmaydi. Moliya-xo'jalik faoliyatini yuritishdagi barcha moliyaviy vazifalarni bajarish bosh hisobchi zimmasiga yuklatilgan.

Qisqacha xulosalar

Korxonal moliyasi o'z mohiyatiga ko'ra korxonaning tadbirkorlik faoliyati natijasida xususiy kapital, maqsadli markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllanishi, ularni taqsimlanish hamda sarflanishi bilan bog'liq moliyaviy Yoki pul munosabatlaridan iborat.

Korxonalar moliyasi taqsimlash va nazorat funksiyasini bajaradi.

Korxonalar moliyasini tashkil etishning xo'jalik yuritish faoliyatidagi mustaqillik, o'z-o'zini moliyalashtirish, moddiy manfaatdorlik va moliyaviy zahiralar bilan ta'minlanganlik tamoyillari mavjud.

Tayanch so'zlar

Pul, korxonalar moliyasi, taqsimlash va nazorat funksiyasi, xo'jalik yuritish faoliyatida mustaqillik, o'z-o'zini moliyalashtirish, moddiy manfaatdorlik, moliyaviy zahiralar, pul resurslari, xususiy kapital, jalb etilgan mablag'lar, moliyaviy hisobot, buxgalteriya balansi, moliyaviy menejment.

Nazorat uchun savollar

1. Korxonalar moliyasining mohiyati nima?
2. Korxonalar moliyasi qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Korxonalar moliyasini tashkil etishning qanday tamoyillari mavjud?
4. Korxonalar moliyaviy resurslari tarkibi nimalardan iborat?
5. Korxonalarni moliyaviy ta'minlashning qanday shakllari mavjud?

6. Korxonalar buxgalteriya balansining aktiv qismini tarkibi nimalardan iborat?
7. Korxonalar buxgalteriya balansining passiv qismini tarkibi nimalardan iborat?
8. Korxonaning maxsulot sotishdan kelgan pul mablag'lari qanday taqsimlanadi?
9. Korxonada moliyaviy menejmentning mohiyati nima?

Tavsiya etiladigan adabiYotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
2. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
3. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007.
4. KovalYova A. Finansi i kredit. – M.: Finansi i statistika, 2006.
5. Milyakov N.V. Finansi. Uchebnik. – M.:INFRA-M, 2004.
6. Molyakov D.S., SHoxin E.I. Teoriya finansov predpriyatiy. Uchebnoe posobie. – M.: Finansi i statistika, 2001.
7. Senchagov V.K. i dr. Finansi, denejnoe obraçenie i kredit. Uchebnik. – M.: PROSPEKT, 2006.
8. Rashidov O.YU va boshqalar. Pul, kredit va banklar.-T.: “Max-PRINT”. 2009. 456 b.
9. Polyak G.B. i dr. Finansi. Denejnoe obraçenie. Kredit. – M.: YUNITI, 2004.
10. “WWW. Prospekt. Ru” – «Prospekt» nashriYoti sayti.
11. “WWW. Finstat. Ru” – «Finansi i statistika» nashriYoti sayti.

V-BOB. BANKLAR VA ULARNING OPERATSIYALARI

5.1. Banklarning mohiyati va asosiy funksiyalari

Kredit - bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi - iqtisodiy isloxlarni amalga oshirilishining ajralmas belgilaridan (xususiyatlaridan) biridir. Bu shu bilan ta'kidlanadiki, bank tizimi xar kandy turdagi iqtisodiyotning markaziy tizimini tashkil kiluvchi unsurlaridan hisoblanadi. Bank tizimi vaqtinchalik bush turgan pul mablag'larini akkumulyatsiya kilish funksiyasini amalga oshiradi. Bank tizimining muvoffakiyatli ishidan iqtisodiyotni samarali faoliyat kursatishi, umuman olganda mamlakatdagi iqtisodiy usish boglik bo'ladi.

«Bank tizimi» tushunchasi birinchi navbatda «Bank va tizim» kabi tashkiliy tuzilmani tashkil kiluvchi tushunchalarni aniklashni talab etadi.

Bank nima? degan savol oldindan karalganda oddiy hisoblanadi, biroq u oddiy tushunchadan iborat emas. Xalk orasida bank bu - pul ombori degan tushuncha bilan yuradi. Xakikatda esa bankni bu tushuncha bilan mohiyatini ochib bulmaydi va bankning xalk xujaligidagi tulik urnini kursatish mumkin emas. Birok yanada kengrok ma'noda bank mohiyatini bilish uchun bank tushunchasining turli karashlarini urganishni talab kiladi.

Uzbekiston Respublikasi konunlariga asosan bank - tijorat muassasasi bo'lib, jismoniy va xukukiy shaxslarning bush turgan pul mablag'larini jalb kilish va ularni uz nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, kaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank operatsiyalarini bajaradi.

Ba'zi adabiyotlarda «bank - bu korxon», deb ham izox beriladi. Ma'lumki, bank yaxlit olingan korxon sifatida ishlab chiqarish jaraYonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxon faoliyatiga shu jixatdan uxshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari uz faoliyatini, uz daromadini kupaytirishga va shu asosda birinchidan, uz asoschilari - aktsiyadorlarining manfaatlarini, ikkinchidan, uz mijozlarining manfaatlarini ximoya kilishni ta'minlashdan iborat.

Tijorat banklarini bizning fikrimizcha shunchaki «korxonona» emas, «maxsus korxonona» deb karash zarur. ×unki tijorat banklari ssuda kapitali xarakatini amalga oshiradi va shu asosda bank uz aktsiyadorlariga, paychilariga foyda olishni ta`minlaydi.

Tijorat banklari bank tiziminining muxim bugini bo`lib, kredit resurslarning asosiy kismi shu banklarda yigiladi va bu banklar xukukiy, jismoniy shaxslarga uz xizmatlarini kursatadi.

Banklar - tovar-pul xujaligining ajralmas atributidir. Tarixan bular Yonma-Yon rivojlanib keldilar. SHuning uchun kiymatning pul shaklining muomalasining boshlanishi bank ishining boshlanishi deb hisoblash, hamda bank faoliyatining rivojlanishidagi etukligi doimo iqtisodiyotdagi tovar-pul aloqalarining rivojlanish darajasiga mos kelgan.

Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir kismi bulgan kredit tashkiloti bo`lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bush turgan pul mablag`larini jamgarish, yigish, jamlangan (akkumulatsiya kilingan) mablag`larni uz nomidan kaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish hamda mijozlarning topshirigiga kura, to`lovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar.

Bu «bankning ilk» belgilari bo`lib, ular aslida tarixan banklarning shakllanishidagi 3 asosiy yunalishni uzida aks ettiradi. Ma`lum bir shartlar asosida ushbu yunalishlarga cherkovlarning uzlariga topshirilgan pul mablag`larini saklab berishni ta`minlash faoliyatini, ssudxurlik kreditlarini, keyinchalik ularning tijorat kreditiga aylanishini, almashtiruv (menyali) «stollarining» idoralarining «hisob-kitob» va valyuta bilan faoliyatlarini mumkin. Xakikatda esa oxirgi yunalish bu tashkilotlarga nom berish uchun asos bo`lib xizmat kildi.

Kupgina mamlakatlarning konuniy aktlarida (xujjatlarida) «bank» tushunchasi-jamgarmalarni kabul kiluvchi, hisob-kitoblarni amalga oshirish va kiska muddatli kreditlar beruvchi tashkilotdir. Birok bankning yagona umumiy

kabul kilingan tushunchasi mavjud emas. Masalan, Frantsiyada 1984 yildan boshlab kredit tashkilotlari orasida farqlar kiritilgan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir. Kredit tashkilotlari ikki guruxga bulingan, birinchi toifa kredit tashkilotlariga talab kilib olguncha depozitlarni va ikki yilgacha muddatli depozitlarni kabul kilish xukukiga ega bulgan, hamda bu xukukdan maxrum kredit tashkilotlaridir.

Buyuk Britaniya xukumati esa 1979 yildan banklar va boshqa kredit tashkilotlari, hamda «litsenziyali depozit tashkilotlari»ni farqlashga ya`ni ularni uzaro ajratishga xarakat kildilar. Ammo eng avvalidan boshlab institutlarni tasniflashda barcha mumkin bulgan cheklashlarni amalga oshirishga xarakat kildilar. 1986 yildan esa bu tizimdan xakikatda voz kechishlariga tugri keldi, chunki bu tizim nafakat samarasiz, balki kredit tizimi va moliyaviy bozorlar ustidan Markaziy bank nazoratini amalga oshirishda ishonchsiz, asossiz hamda nokulayliklarga olib keldi.

Uzbekistonda tijorat banklarini yaratish va faoliyat kursatishi Uzbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelida kabul kilishcha «Banklar va bank faoliyati tugrisida»gi Konunga binoan olib boriladi. Ushbu konunga asosan bank- bu tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar kabul kilish hamda kabul kilingan mablag'lardan tavakkal kilib kredit berish Yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

- to'lovlarni amalga oshirish.

Bankning tarixan anik paydo bulgan sanasi yuk. Bank faoliyati unsurlarining u Yoki bu mikdorda rivojlanishi Italiyada, Gretsiyada, Misrda va boshqa mamlakatlarda yangi davrga kadar kayd kilingan. Barlamchi banklar tangalarni sotish, sotib olish, almashtirish, muddatli kelguncha majburiyatlarni hisobga olish, mijozlarning mulklarini (moliyasini) boshqarish, kreditlarni berish, ipoteka va lombard operatsiyalarni, dalolatnomalarni tuzish hamda boshqa operatsiyalarni amalga oshirganlar. Keyinchalik esa uz mijozlarining farmoishiga asosan kreditorlar hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishni boshladilar.

Ishlab chiqarish va muomalaning usishi munosabatda barcha mamlakatlarda banklarni ahamiyati kutarildi. YUkorida kurib utilgan funktsiyalarga yangilar, masalan, foiz keltiriradigan kapitalni boshqarish funktsiyalari kushildi.

SHunday kilib banklar-bu kreditning rivojlanishi natijasidir. SHuning uchun kredit bankga nisbatan asos bo'lib hisoblanadi.

Ta`kidlash mumkinki -bank bu kredit ishining shunday rivojlanish bosqichiki, unda kredit, pul va hisob-kitob operatsiyalari majmuasida bir markazda yigiladi. Umuman olganda yakun kilib aytish mumkinki:

Bank - bu pul mablag'larini jamlash va ularni uz nomidan kaytarib berishlik, to'lovlilik va muddatlilik asosida tarkatish uchun yaratilgan tashkilotdir.

Banklarning asosiy maksadi pul mablag'larini kreditorlardan qarz oluvchilarga va sotuvchilardan xaridorlarga o'tkazishda vositachilik kilishdir. Banklar bilan bir katorada, bozorlarda pul mablag'larni o'tkazishni boshqa moliyaviy va kredit - moliyaviy tashkilotlar: investitsion fondlar, sugo'rtta kompaniyalari, brokerlar, demir firmalari va xokozolar bajarilishlari mumkin. Birok banklar, moliyaviy bozor sub`ekti sifatida boshqa sub`ektlardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi.:

Birinchidan, banklar uchun qarz majburiyatlarining ikki tomonlama almashtirish xarakterlidir (xosdir): ular uzlarining majburiyatlarini (depozit) shakllantiradilar va jalb kilingan mablag'larni qarz majburiyatlariga, qimmatli qog'ozlarga (boshqalarning chiqargan qog'ozlariga) joylashtiradilar;

Ikkinchidan banklar uzlariga yuridik va jismoniy shaxslar oldidagika`tiy belgilangan summa buyicha shartsiz majburiyatlarni oladilar.

Ammo shuni nazarda tutish zarurki, bugungi kunda anik olingan bank tashkiloti amaliYotida barcha sanab utilgan bank operatsiyalari amalga oshirilmaydi Yoki deyarli mavjud emas.

YUkorida kurib utilganlarga asosan , aytish mumkinki banklarni norma faoliyat kursatishi va yashashi uchun anik asosiy faoliyat «tuplami» mavjuddir.

Bunday operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- Depozitlarni kabul kilish
- Pul to'lovlari va hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- Kreditlarni berish.

Bank moxiyatini tulikrok (tularok) uning funksiyalarini ochib beradi.

Tijorat banklarining iqtisodiy roli uning faoliyat doirasining keng bo'lishiga olib keladi.

Tijorat banklari quyidagilarni bajaradi:

-vaqtincha bush turgan pul mablag'larni yigish va ularni kapitalga aylantirish;

-korxonalar, tashkilotlar va axolini kreditlash;

-muomalaga kredit pullar (muomalaning kredit vositalari) ni chiqarish;

-xalk xujaligida hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish;

-moliya - valyuta bozorida faoliyat kursatish;

-iqtisodiy-moliyaviy axborotlar berish va maslaxat xizmatlarini kursatish.

Bankning birlamchi va asoaiy funksiyasi byuulib, vaqtinchalik bush pel mablag'larini akkumlyatsiya qilish, yigish funksiyasi hisoblanadi. Akkumlyatsiyasining uziga xos tamoyillarni hisobga olish zarurdir. Banklar bush pul mablag'larini yigish va ularni kapitalga aylantirish funksiyasini bajara turib mavjud bush pul daromadlari va jamgarmalarni yigadi. CHunki banklar nafakat uzlarining, balki begonalarning vaqtinchalik bush pul mablag'larini yigadilar. Jamlangan pul mablag'lari banklarning uzlarining is`meliga emas, balki begonalarning (boshqa) is`temol uchun foydalaniladi. Jamgaruvchi (bush pul mablag'i egasi) uz mablag'larini bankka ishonib topshirgani uchun va bank bu mablag'lardan foydalangani uchun ma`lum foiz hisobida daromad oladilar. Jamlanadigan va kayta taksimlanadigan mablag'larining mulk xukuki birlamchi kreditor (bank mijoz) da saklanib koladi. Bush pul mablag'lari hisobidan ssuda kapitali fondi vujudga keladi va bu fond xalk xujaligi tarmoqlarini kreditlash uchun ishlatiladi


Banklarning ikkinchi funksiyasi- pul muomalasini tartibga solish funksiyasi. Banklar turli xujalik sub`ektlar orqali utadigan to'lov muomalasi (oboroti) ning markazi sifatida chikadilar. Hisob-kitoblar tizimi orqali banklar uzlarining mijozlariga ayirboshlashni amalga oshirishni, pul mablag'lari va kapitalni aylanishi uchun sharoit yaratib beradilar. Banklar orqali aloxida olingan sub`ektlar va bir butun mamalakat iqtisodiYotidagi oborot(aylanishi) utadi. Muomalaga kredit pullarni chiqarish funksiyasi tijorat banklarni boshqa

moliya institutlaridan ajratib turadi. Tijorat banklari depozit-kredit emissiya qilganida, ssudalar berganida pul massasi oshadi va ssuda bankka kaytarilganda muomalada pul massasi kamayadi.

Tijorat banklari kredit pullarni yaratishning emitenti hisoblanadi. Tijorat bank tomonidan mijozga berilgan kredit uning hisob rakamiga o'tkaziladi va bankning qarz majburiyati ortadi. Mijoz bu mablag'ning ma'lum kismini nakd pul shaklida hisob rakamidan olishi mumkin.

1-chizma

Zamonaviy tijorat banklarining funktsiyalari.¹⁹



Bu xolda muomalada pul massasining miqdori oshadi. SHuning uchun ham tijorat banklar faoliyati ustidan Markaziy bank nazorat olib boradi.

Tijorat banklarning muxim funktsiyalaridan biri-hisob-kitoblarni olib borishdir. Hisob-kitoblarni olib borishda bank mijozlar o'rtasida vositachi bo'lib xizmat kiladi. Banklarning bu funktsiyasi- vositachilik funktsiyasi bo'lib, bunga asosan banklarning to'lovlaridagi vositachiligi faoliyati tushiniladi. Banklar orqali korxonalar, tashkilot va axolining to'lovlari o'tkaziladi. Iqtisodiy xayot markazida joylashgan banklar bu funktsiyasi orqali bu xujalik talablaridan kelib

¹⁹ Роуз Питер «Банковский менеджмент», М. Дело ЛТД. 1995

chiqqan xoldi kapitalni muddati, xajmi va yunalishini uzgartirishga imkon oladi. Banklarning bu funktsiyasi kuprok mablag'larni o'tkazish funktsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari yana qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish bilan shugullanishi mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiy axvolni nazorat kila borib, mijozlarga xar-xil axborotlar, maslaxatlar berishi mumkin. Juda katta uz sarmoyasiga ega bulgan tijorat banklari yirik investor sifatida chikishlari, ya'ni umuman xalk xujaligi rivojiga bevosita ta'sir kursatishlari extimol tutilgan tarkibiy kayta kurish ishlariga aralashishlari va xatto iqtisodiet shu`balarining istikbollarini belgilashlari mumkin.

Mulknı boshqarish va sarmoya xosil kilishning ancha xatto mikYoslardagi aktsiyadorlik-xukukiy shakli makomini tijorat banklari olar ekan, moliya bozorlariga jiddiy ta'sir kursatishi kuplab xoldinglar shu`ba firmalar va korxonalar tashkil etish, shuningdek katnashuvchining turli shakllarini rivojlantirish asosida uz faoliyatini ancha diversifikatsiyalashi mumkin bo'ladi.

SHunday kilib, bank, bu xukumat, korxonalar, axoliga va boshqa banklarga pullik va qimmatli qog'ozlar bilan turli operatsiyalarni amalga oshiruvchi hamda moliyaviy xizmatlarni kursatuvchi moliyaviy tashkilotdir.

Banklar ma'lum tamoyillar asosida faoliyat kursatadi. Banklarni birinchi va asosiy tamoyili bu ularni xakikiy (real) mavjud bulgan mablag'lar xajmida faoliyat kursatishidir. Bu tamoyil banklarni uz mablag'larini nafakat mikdori beriladigan mikdori buyicha kredit xajmiga tugri kelishini, balki bank aktivlarini xususiyatlari bilan jalb kilinadigan mablag'lar xususiyatlarini tugri kelishini ta'minlashlari zarurdir. Eng avvalo bu ularnin muddatlari buyicha mos kelishidir. Birok tijorat bankida kup foyda olish cheklangan. Birinchidan katta marja ketidan kuvish mijozlardan maxrum bo'lib kolishiga olib kelishi mumkin, chunki ular xaddan tashkari katta quyilgan stavkali kreditdan voz kechishlari mumkin, ikkinchidan banklararo rakobat sharoitida boshqa tijorat banklari

orasidan bir kadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etilishi mumkin. Daromadlilik (foйда kurish) koidasi sifatida shuni anglatadiki busiz bank mavjud bula olmaydi. Bank tijoratining bu koidasi asosan "Arzonrok sotib olish, qimmatrok sotish" formulasi orqali amalga oshadi. Birok bu koidaga madaniy Yondashmok lozim. U konunchilikka tayanish, unga aslo zid kelmasligi, binobarin, bunda shunday shart-sharoit yaratilishi kerakki xar bir bank uzining tijorat ishlarini amalga oshira Yotganda bank xizmati bozori xakida bab-baravar axborot olish.

Banklarning tayanadigan ikkinchi zaruriy tamoyili, bu ularning tulik iqtisodiy mustakilligidir. Banklar uz faoliyat natijalari uchun uzlari tulik mustakil va javobgardirlar. Bu uz navbatida banklarni uz mablag'larini jalb kilgan pul mablag'larini mustakil boshqarish, mijozlar va jamgarmachilarni erkin tanklash, daromadlarni boshqarish, soliklarni tulash kaba xukuklarini beradi. Tijorat nuktai nazaridan karaganda bekor Yotgan resurslar bulmasligi kerak. Boshqacha aytganda bankning hamma pullari, barcha resurslari imkon kadar ishlashlari lozim. Birok xakikiy axvol shundan iborat bo'ladiki, mablag'larni bir kismi zaxiraga quyiladi, u muomalada kamrok katnashadi eki umuman ishtirok etmaydi, yana bir kismi esa iqtisodietni kreditlash uchun muljallanadi. Uz-uzidan ravshanki bank biznesi nuktai nazaridan karaganda, bu gayritabiiy, shuning uchun ham birlamchi va ikkilamchi zaxiralarga nisbatan kreditlar salmogi kanchalik katta bulsa, foйда ham shunchalik kup kelishini bilib kuygan ma`kul.

Uchinchi asosiy tamoyil, bu tijorat banklarni uz mijozlari bilan munosabatlari oddiy bozor munosabatlariga mos kuruladi. (urnatiladi). Bank kreditlarini bekrish jaraYonida bozor munosabatlariga tayangan xolda ularni foydalilik, risk va likvidlilik nuktai naziridan kelib chikadi. Bank faoliyatining muxim koidalaridan yana biri shuki, bank iqtisodiy korxonona sifatida uz mablag'i, uz foydasi ustidan tavakkal ish tutishi mumkin, ammo zinxor mijoz mablag'i yuzasidan emas. Muvaffakiyatsiz bank tijoratidan bankning uzi jabr

tortishi mumkin. Lekin mijoz xech kachon jabrlanmasligi kerak, chunki kredit muassasi uning uchun yaratilgan.

Bank tijorati "Hamma narsa mijoz uchun hamma narsa uning foydali faoliyatini ta`minlash uchun" koidasi asosida xarakat kilishi lozim. Bankning amaliy faoliyatida eng muximi mijozning foyda kurishi, undan keyingina bankning foydasidir. Tijorat bankning mijozlarga nisbatan sheriklik munosabati uzaro manfaatdorlik koidasiga asoslanishi lozim. Bank uchun ham mijoz uchun ham hamkorlik tufayli kozonilgan ishonch ular o`rtasidagi sheriklik munosabatlarini mustaxkamlaydigan jiddiy omilga aylanadi. YAxshi sherik bo`lishni istagan bank uz mijozlarini xizmatlar "majmuasi" bilan ta`minlashi zarur.

Tijorat banklarining turtinchi tamoyili bu ular faoliyatining nazorat kilish va tartibga solishda fakat bevosita iqtisodiy usullardan foydalanishligidir.

Milliy bank tizimi faoliyatiga o`zining doimiy e`tiborini qaratib kelaYotgan O`zbekiston Respublkasi Prezidenti I.A.Karimov :”Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimo e`tiborimiz markazida bo`lib kelmoqda va bu o`zining ijobiy natijalarini bermoqda. Biroq, bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish kerak. Nega deganda, aynan banklar, ta`bir joiz bo`lsa, butun iqtisodiYotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko`p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog`liq”²⁰ deb alohida ta`kidlab o`tgan. Ushbu omil xozirgi vaqtda bank tizimining ahamiyatini yanada oshiradi.

5.2. Bank tizimi va uning operatsiyalari.

Agar mamlakatda etarli darajadi bank faoliyatini kursataYotgan banklar, kredit tashkilotlar hamda iqtisodiy tashkilotlar mavjud bulsa u xolda bank tizimi mavjudligi tugrisida gap yuritsa bo`ladi. Ushbe sharoitda banklar va kredit

²⁰ Каримов И.А. Жаҳон молиявий –иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Т.: Ўзбекистон, 2009. 53 б.

tashkilotlari turli shakllarida hamda doimo uz mijozlari- iqtisodiyot sub`ektlari, Markaziy bank, boshqa organlar, davlat xokimiyatlari va davlat boshqaruv organlari, uzaro Yoki Yordamchi tashkilotlar bilan mulokotda (munosabatda) bo`lib turadilar.

Bank tizimi - tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim bo`lib - mamlakatning iqtisodiy tizimiga kiradi. Bu shuni bildiradiki, banklarning faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy ne`matlarni ishlab chiqarish, muomala va iste`mol kilish bilan boglik xolda kurib chikish zarurdir. Uzining amaliy faoliyatida banklar xujvalik xatini tartibga solish mexanizmi bilan uzviy ravishda boglik.

SHu bilan birga banklar solik tizimi, baho tizimi, baho va daromad siYosati, tashki faoliyat iqtisodiy faoliyat shartlari bilan uzviy aloqada bo`lishlari shartdir. Bu shunday darak beradiki mamlkatdagi ijtimoiy-iqtisodiy uzgarishlar kup xollarda bank tizimi faoliyatiga boshqa ijtimoiy - xujalik mexanizmi bilan aloqadorligidagi xarakatiga boglikdir.

Bank tizimi- bu mamlakat xududida tarixan shakllangan va konkn bilan mustaxkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat kursatish shaklidir. Xuddi pul va moliya tizimi kabi bank tizimi uziga xos milliy belgilariga egadir. SHu belgilar shu xududning, geografik shartlari ob-xavo axoli milliy tuzilishi, ularni nima bilan mashgulligi, kushnilar bilan munosabati, savdo yullari va omillar asosida shakllanadi.

Bank tizimi - yagona ma`noga ega emas. Uni turli tamoyillarni kurish, turli xolatlariga karab guruxlash mumkin. Masalan, ularni tashkiliy tuzilishiga kura intitutsional chizma ko`rinishida kurib chikish mumkin. Bundan tashkari bank tizimini bajaradigan funktsiyalari, uzaro aloqadorligi, mavkei, maxsus yunalishi, bajaradigan operatsiyalarga va ularni taxbex etilishiga karab ham guruxlash mmumkin.

Tijorat banklarini belgilariga karab quyidagi turlarga bo`lish mumkin. Mulkchilik shakliga karab banklar: davlat bankiga, aktsiyador banklarga,

kooperativ, xususiy, mintakaviy, aralash mulkchilikka asoslangan bankka bulinadi. Aktsiyador banklar aktsiyador jamiyat kabi ochik turdagi Yoki Yopik turdagi aktsiyador banklar bo'lishi mumkin. Aktsiyadorlar safiga kirish aktsiyalarni sotib olish yuli bilan amalga oshiriladi. Hukukiy va jismoniy shaxslar banklarning aktsiyalarini sotib olishi va aktsiyadorlar bo'lishi mumkin.

Aktsiyador tijorat banklarining yukori organi - aktsiyadorlarning umumiy yigilishi hisoblanadi. Har yili aktsiyadorlarning yigilishi ustavdagi va ustav kapitalidagi uzgarishlarni, yillik faoliyat va uning natijalarini, bank daromadlarini tasdiklash, Bank Kengashi tarkibini saylash bankning shu`ba muassasalarini tashkil kilish va bekor kilish kabi masalalarni kurib chikishi mumkin.

Ba`zi tijorat banklari paylar (badallar) hisobidan tashkil kilinishi mumkin. Bu turdagi banklarning katnashchilari ham xukukiy va jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

Xususiy banklar - jismoniy shaxsning pul mablag'lari hisobidan tashkil kilingan banklar hisoblanadi.

Joylashish belgisiga karab tijorat banklar: xalqaro, respublika, mintakaviy, viloyat banklariga bulinishi mumkin.

Bajaradigan operatsiyalariga karab tijorat banklar - universal va maxsus banklarga bulinadi.

Universal banklar xilma-xil operatsiyalar bajarish, xar xil xizmatlar amalga oshirish xususiyatiga ega bo'ladi. Maxsus banklar ma`lum yunalishlarga xizmat kursatib, uz faoliyatini shu yunalishlarda yutuklarga, samaradorlikka erishishga bagishlaydi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat kursatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalarini olib boruvchi banklar, investitsiya banklari, ipoteka-zamin banklari kirishi mumkin.

Banklarni instutitsional tuzilishi bilan buyicha guruxlari bir kancha unsurlarni majmuini bevosita va bilvosita bank faoliyati bilan

shugullanuvchilarni, ularni tuzilishini, vazifalari, funktsiyalari, muhitdagi operatsiyalarini uzaro aloqadarlikda uz ichiga oladi. (tashkilot va korxonalar).

Tashkiliy tuzilish buyicha guruxlash ushbu davlatda faoliyat olib boradigan kredit turlari va shakllarini, bunda ishtirok etadigan banklarning turlarini uz ichiga oladi. Tuzilma kredit shakllari va bank ishtiroki belgilariga karab tuziladi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda mavjud bulgan bank tizimlarini shartli ravishda universal va segmentlangan turlarga ajratish mumkin. Sunggi paytlarga kadar Germaniya, Frantsiya, Gollandiya, SHveytsariya kabi rivojlangan mamlakatlarga universal banklar xos edi. Xozirda universal banklar asosiy mamlakatlarda mavjuddir.

Segmentlangan bank tuzilmasi tijorat va nobank kredit tashkilotlariga faoliyat muhitini (operatsiyalarini) kat`iy konuniy tomonidan chegaralab quyilishini bildiradi. Bunday xolat xozirda AKSH, YAponiya, Kanada kabi davlatlarda mavjud bo`lib ularda korporativ mijozlarning qimmatli qog`ozlarni chiqarish va joylashtirish operatsiyalari bilan shugullanishlari takiklanadi. Birok bugungi kunda AKSH 1933 yilda kabul kilingan Glass-Steagal konuni bekor kilinishi kutilmokda.

O`zbekiston Respublikasi tijorat banklari Markaziy bankdan litsenziyani olgandan sungina davlat qimmatli-qog`ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirilishi mumkin. Ularga qimmatli qog`ozlar bilan operatsiyalar kilish uchun, to`lov xarajatlari funktsiyasini bajaruvchi qog`ozlar uchun (veksel`-chek) Yoki pul mablag`larini jamgarmalarga va bank rakamlariga jalb kilishlarini tasdiklovchi qog`ozlar (depozit va jamgarma sertifikatleri) uchun maxsus litsenziya olishlari shart emas.

Bugungi kunda banklarni va boshqa moliya-kredit tashkilotlari orasidagi farkini yukotishni mamlakatdagi kapital xarakatini markazlashuvuni va jamgarlishi bilan bevosita boglikdir.

Bunday xarakat natijasida uzaro yakin va uxshash bulmagan kredit tashkilotlarini yukolib ketishi Yoki kushilishi jaraYoni amalga oshirilishi mumkin.

SHu bilan birga banklarning universallashuvi makroiqtisodiy omillariga boglikdir. Ammo bu faoliyat uzok muddatni uz ichiga oladi. Xozirgi kunda farqlarning yukolishi va banklar tomonidan funktsional va yuridik xususiyatlarni bekor bo'lishi asosan yirik tijorat banklarida sezilarli amalga oshmokda. SHu kayd kilish lozimki yirik banklarning universallashuvi va global yunalishlarining olib borilishi kichik banklarning, maxsus kredit tashkilotlariga ya`ni ma`lum turdagi operatsiyalarga moslashgan tashkilotlarga aylanishiga sabab bulmokda. Bu esa kupgina mamlakatlarda faoliYot kursataYotgan kup bosqichli bank tizimiga xos xususiyatdir.

Bugungi kunda banklarning kup pogonali bo'lishi ularning tashkiliy tuzilishiga boglik.

Ammo, rivojlangan mamlakatlarga bir Yoki ikki pogonali bank tizimi xosdir

Bir pogonali bank tizimi varianti mamlakatda yagona markaziy bank xali mavjud bulmasa Yoki bitta markaziy bankdan iborat bulsagina rsal (xakikatda) mavjud bo'lishi mumkin.

Ammo tsivilizatsiya darajasidagi bozor iqtisodiYoti sharoitiga ikki pogonali bank tizimi xos. Bunda birinchi pogona banklari-bu Markaziy bank, ikkinchi quyi pogona esa-tijorat banklari va kredit tashkilotlaridir.

Markaziy bank-bank tizimi mavjud bulgan barcha davlatlar pul-kredit tizimining asosini tashkil kiladi. Markaziy bankning moliya bozoridagi urni mamlakatda bozor munosabatlarning rivojlanish darajasiga va xususiyatiga boglik.

Bu esa uz navbatida ikki pogonali bank tizimini shakllanishiga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. CHunki buning tepasida Markaziy bank bo'ladi.

Ikki pogonali bank tizimining zarurli bozor munosabatlarining karama-karshiliklaridan kelib chikadi. Bir tomondan, bu xususiy moliya mablag'laridan erkin foydalanish xukukini talab kiladi. Bu quyi pogona banklar-tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, bu munosabatlarni ma`lum mikdorda tartibga solish nazorat kilish maksadli yunaltirish zarur. Bunday maxsus institut sifatida Markaziy bank yuzaga chikadi.

YUkorida kurib utganimizdek bank faoliyatini maxsus litsenziya asosida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Biz aytganimizdagi Uzbekiston Respublikasi Tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida faoliyat olib boradilar. Ularga kushimcha retsenziya zarur emas (fakat valyuta operatsiyalaridan tashkari).

Bozor iqtisodieti va jaxon xujaligi rivojlanishi bilan bank tizimi ham rivojlana bordi. Xozirgi sharoitda banklar tobora kuprok fakat sof bank operatsiyalarini bajaradigan emas.

Tijorat banklari quyidagi operatsiyalarni bajaradi:

- passiv operatsiyalar;
- aktiv ssuda operatsiyalari;
- bank xizmatlari va vostitachilik operatsiyalari;
- bankning uz mablag'lari hisobidan amalga oshiradigan operatsiyalar va boshqalar.

SHu bilan birga banklar moliyaviy xizmatlar kursatadigan moliyaviy muassasalarga aylanmokda, bu bank balansida aks ettirilmaydi, lekin juda katta daromad keltiradi. Masalan: banklar valyuta operatsiyalarini bajarganda sarroflar-brokerlar sifatida maydonga chikadilar va katta mikdorda vositachilik xaki oladilar. Lekin bu operatsiyalar bank balansida aks ettirilmaydi. Xozirgi paytda yirik tijorat banklari kariyib 350 turdagi moliyaviy xizmat kursatmokda.

SHuni ta`kidlash lozimki Respublika Tijorat banklarining moliyaviy xolati bugungi kunda barkaror emas. SHu sababli Respublikada bir kancha

banklarning litsenziyasi chakirib olindi, bu esa ularni xakikatda bankrotlikga uchraganligidan darak beradi.

Bank retsenziyasi chakirib olinish jaraYonidan likviditsion komissiya tuziladi. Ular kiyin va uzok muddatli murakkab faoliyat olib boradilar.

5.3. Markaziy bank va uning funktsiyalari.

Kredit moliya-tizimining barkarorligining ta`minlash, uning aloxida buginlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barkarorligini ta`minlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi. Markaziy bankning yana bir asosiy vazifalaridan kredit organlarini (tizimini) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Uzok yillar mobaynida tijorat banklari va emission banklarining bajaradigan funktsiyalari kushilib ketdi. Bular katoriga banknotlarni emissiya kilishning markazlashuvi bir kulda Yoki bir necha banklarning kulida ya`ni davlatning maxsus konuniy dalolatnomalari bilan kullab-kuvvatlanadigan banklar kulida ushlab turishi, keyinchalik esa ular orasidan yiriklarini ajratib sung emissiya chiqarish xukukini berilishini, Yoki aloxida markaziy emission banklar deb nomlanuvchi banklarning paydo bo`lish jaraYonlarini misol kilib keltirish mumkin.

Zamonaviy ikki pogonali bank tizimi kup sonli tijorat banklari va yagona Markaziy bankga asoslangan bank tizimi shu yul bilan vujudga keldi. Odatda Markaziy bank - bu davlat banki, masalan, Angliya banki, Frantsiya banki, Bundes bank, YAponiya banki, SHvetsariya milliy banki, Finlyandiya banki va x.z. yagona banklardan tashkil topadi. Birok AKSH Markaziy bank 12 xududiy Federal banklardan, ya`ni federal zaxira tizimi (FRS) boshqaruv kengash tomonidan boshqariladigan bulimlardan iboratdir.

Markaziy bank kapitaliga bulgan mulk shakliga kura ular Davlat (kapital davlatga tegishli) aksioner va aralash kapitalli turlariga bulinadi.

Ba`zi Markaziy banklar Davlat banklari ko`rinishlarida shakllanadilar. Ularga Nemis Federal Banki (Germaniya Bundes banki). 1957 yilda Rexs bankning davomchisi (1975 yilda paydo bulgan) sifatida shakllandi. Ba`zi Markaziy banklar- oldin xususiy bank masalan, Angliya banki (1694), Frantsiya banklari (1800y.) sifatida keyinchalik esa milliylashtirilib davlat bankiga aylantirilgan.

Aktsioner turidagi Markaziy bank katoriga AKSH FRT (Federal zaxira tizimi) kiritish mumkin. FRS 1913 yildagi Federal Rezerv asosida paydo bulgan aralash turdagi Markaziy banklar jumlasiga kapitalida davlat, aktsioner va xususiy va kapital ishtirok etgan banklar kiradi. Bu guruxlar katoriga kiruvchi YAponiya banklar (1882y.) misol kilinib keltirilishi mumkin. Konun buyicha 1942yilda 55% ustav kapitali davlatga tegishlidir. Deyarli barcha mamlakatlarda Markaziy bank xukukiy me`Yorlarini tartibga soluvchi . aniklovchi (belgilovchi) konunlar mavjuddir. Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga turli funktsiyalarni belgilab berilishi mumkin. Lekin Markaziy bank doimo Davlat va bank belgilarini uzida mujassamlashtirilgan uzida Davlatning tartibga soluvchi organi bo`lib koladi.

Mamlakatning Markaziy Banki - shu davlat bank tizimining asosiy kismi bo`lib hisoblanadi. Markaziy bank- birinchi urinda davlat va iqtisodiYot o`rtasida vositachi bo`lib xizmat kiladi. Ammo Markaziy bank uz oldiga foyda olishni maksad kilib kuymaydi.

Markaziy bank funktsiyalari uzok yillar mobaynida deyarli uzgarmay anik modifikatsiyalangan ko`rinishga egadir.

Turli iqtisodiy adabiYotlarda va ukuv darsliklarida Markaziy bank funktsiyalari turlicha talkin kilinadi.

Masalan V.M. Usoskinining fikriga kura Markaziy bank funktsiyalariga:

- kredit pullari (banknotlar) emissiyasi;
- banklar uchun va boshqa kredit tashkilotlari uchun turli xizmatlarni amalga oshirish;

- xukumatning moliyaviy agenti funksiyasi;
- markazlashgan oltin-valyuta zaxiralarini saklash;
- pul-kredit siyosati tadbirlarini o'tkazish kabilar kiradi.

«Moliya, pul muomalasi, kredit» kitobining mualliflari fikricha Markaziy bankning asosiy funksiyasi:- «muomalaga kredit pullari- banknotalarni chiqarish va pul muomalasini tartibga solishdan iboratdir».

SHunday kilib, Markaziy banklar- «banklar banki»ga aylantirib yuborildi, ya`ni ularning mijozlari bo`lib tijorat banklari hisoblanadilar. Markaziy banklar uzlarining joriy (depozit) rakamlarida tijorat banklarining pul mablag`larini aks ettiradilar, ularning nakd pullarini tuldirishga boglik operatsiyalarni amalga oshiradilar, tijorat banklariga kreditlar beradilar. Markaziy banklar kup xollarda Davlatning bankirlari hisoblanadilar. SHu bilan barcha emission banklarning yana bir asosiy funksiyalariga ochik bozordagi operatsiyalar va deviz operatsiyalari kiradi. Ular davlatning qimmatli qog`ozlarini sotish va olish, xorijiy valyutalarni hamda milliy valyuta kurslarini ushlab turish maksadida sotadi va sotib oladi.

Lekin, umuman olganda Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi turt guruxga (turga) bulinadi:

1. Banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank- “banklar banki” hisoblanadi;
3. Markaziy bank- “xukumat bankiri” hisoblanadi;
4. Markaziy bank pul- kreditni tartibga soladi va bank nazoratini amalga oshiradi.

Markaziy banklarga davlat vakili sifatida konuniy tarzda banknotlarni monopol ravishda emissiya kilish biriktirilgan, ya`ni umummilliy kredit pullarini bosib chiqarish yuklatilgan. Ta`kidlash kerakki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda banknotalar pul massasining sezilarsiz kismini tashkil etadi, shuning uchun Markaziy bankning monopol emissiya funksiyasi birmuncha pasaytirilgan. Birok banknotalarni chiqarish funksiyasi mamlakatdagi pul

zaxiralarini tashkil kiluvchi, chakana pul muomalasini nakd banknotalar bilan ta`minlash va kredit tizimini likvidligini ta`minlash vositasi hisoblanadi. Bu funktsiyalar nakd pul muomalasi ulushi sezilarli bulgan mamlakatlarda katta ahamiyatga egadir.

Markaziy bank bevosita tadbirkorlar va axoli bilan xech kanday faoliyat olib bormaydi. Uning asosiy mijozlari bo`lib tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklari Iqtisodiyot va Markaziy bank orasida (o`rtasida) vositachi sifatida faoliyat kursatadilar. Markaziy banklar banki sifatida tijorat banklarining zaxiralarini saklaydi, jumladan, majburiy zaxira talablari shaklidagi pul mablag`larini saklaydi, ularning kreditorlari sifatida ishtirok etadi, tijorat banklarining Markaziy bankda ochadigan hisob varaklari orqali (Uzbekiston Respublikasi- hisob-kassa markazi) mamlakat miqyosida nakd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradilar; banklar va boshqa kredit institutlari ustidan nazoratni olib boradilar.

Kapitalidagi mulk shaklidan kat`iy nazar Markaziy bank davlat bilan uzviy boglikdir. Xukumat bankiri sifatida- Markaziy bank xukumat gazinachisi urnida va kreditori sifatida, vakili (agenti), Moliyaviy maslaxatchisi sifatida faoliyat olib boradi.(ishtirok etadi). Bu urinda Markaziy bank xukumat tashkilotlarining va korxonalarining hisob rakamlarini yuritadi, soliklarni va boshqa tushumlarni yigadi, to`lovlarni amalga oshiradi. Markaziy bank, koidaga binoan, davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshiradi. Davlatga soliklar va zaYomlardan (obligatsiyalardan) tushgan daromadlar xukumat xarajatlarini qoplovchi Markaziy bankdagi kaziacheyliklikning foizsiz rakamiga o`tkaziladi. (Moliya vazirligi).

Xukumatning kreditori sifatida, Markaziy bank davlat zaYomlarini yangilarini muomalaga chiqarish, joylashtirish, uzining portfelini tuldirish uchun davlat qog`ozlarini sotib olish, davlatga (xukumatga) tugri gazna kreditlarini berish bilan shugullanadi.

Davlat byudjetining taqchilligi sharoitida kurgina mamlakatlarda Markaziy bankning xukumatni kreditlash va davlat qarzini boshqarish funksiyalari kuchayadi. Markaziy bank davlat qarzini boshqarish uchun usullardan foydalanadi. Masalan, davlat majburiyatlarining kurslariga ta'sir kursatish maksadida ularni sotadi va sotib oladi, sotish shartlarini uzgartiradi, turli yullar bilan xususiy investorlar uchun ularni jozibadorligini oshiradi.

Davlatning vakili (agenti) funksiyasida, Markaziy bank mamlakatning oltin-valyuta zaxiralaridan foydalanadi, milliy pul birligi kursini ushlab turish uchun valyuta bozorlarida valyuta intervitsiyasi kabi vositalardan foydalanadi. Markaziy bank xalqaro valyuta-kredit tashkilotlarda uz mamlakati nomidan katnashadi.

YUkorida aytib utilganlardan, umuman olganda, Markaziy bankning barcha funksiyalari uzaro boglikdir. Davlatga kredit berish orqali, markaziy bank kredit muomala vositalarini yaratadi. Xukumatning majburiyatlarini chiqarish va qoplash orqali, u ssuda foiziga ta'sir kursatadi. Sanab utilgan funksiyalari orqali Markaziy bank uzining asosiy mamlakat pul-kredit tizimini tartibga solish funksiyasiga asos yaratadi va iqtisodiyotni tartibga soladi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati umumiy iqtisodiy infratuzilmalarni tartibga solishning, bozor kon'yukturasini yukori darajada ushlab turish, bandlikka ta'sir o'tkazish, inkirozli tushumlarni oldini olishning ajralmas kismi sifatida namoyon bo'ladi.

SHunday kilib- pul-kredit siyosati- muomaladagi pul mablag'lari mikdorini, bank kreditlari xajmini, foiz stavkalarini, valyuta kurslarini, to'lov balansini va uz navbatida bevosita mamlakat iqtisodiyoti xolatini uzgartirish uchun yunaltirilgan tadbirlar majmuasidir.

Pul-kredit siyosati usullari umumiy bo'lishi mumkin, ya'ni mamlakatdan kredit munosabatlar xolatiga umumiy ta'sir kursatuvchi, Yoki selektiv, ya'ni aloxida olingan kredit turlariga ta'sir kursatish uchun yunaltirilgan hamda

aloxida korxonalar, jumladan tarmoqlarni kreditlash uchun yunaltirilgan bo'lishi mumkin.

Pul-kredit siyosatining umumiy usullariga:

- Markaziy bankning hisobga olish siyosati Yoki foiz stavkalarini tartibga solish siyosati;

- ochik bozordagi operatsiyalar, Yoki davlat qimmatli-qog'ozlarini sotib olish va sotish;

- majburiy zaxira normalarini uzgartirishlar kiradi.

Hisobga olish siyosati Markaziy bankning tijorat banklari uchun oxirgi navbatdagi zaxirasi sifatida kreditoriga aylanishi bilan bog'liq.

Majburiy zaxira normalarini tartibga solish bu xukumat talabi asosida tijorat banklarining belgilangan miqdordagi pul mablag'larini Markaziy bankdagi foizsiz hisob varagiga o'tkazilishidir.

Ochik bozordagi operatsiyalar-bu markaziy bankning tijorat va gazna obligatsiyalari va boshqa qimmatli-qog'ozlarni bozor kursi Yoki oldindan e'lon kilingan kurs buyicha sotib olish va sotish, hamda kayta kelishuvlaridir.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati selektiv usullariga:

- limitlar, kvotalar urnatish orqali kredit miqdorini Yoki vekselarini hisobga olishni tugridan-tugri kiskartirishdir;

- kredit operatsiyalarini ushish darajasini pasaytirish;

- aloxida olingan turdagi kreditlar ustidan nazoratni urnatish, is'mol krediti ustidan ;

- aloxida olingan jamgarmalarga yukori foizlarni urnatish Yoki umuman foiz stavkalarini tartibga solish va boshqalardir.

Kurib utilgan funktsiyalar Markaziy bankni iqtisodiyotdagi, xususan bank tizimini boshqarishdagi urnini kursatib beradi. Ushbu funktsiyalar orqali Markaziy banklar bank tizimini boshqaradi, islohotlarini olib boradi va ularni tartibga soladi.

5.4. Uzbekiston banklarning rivojlanish yullari va isloxlari

Bozor iqtisodi sharoitida banklarining roli, ularning iqtisodga ta'siri usib bormokda.

Banklar va uning krediti Yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala soxasida taksimlanadi va kayta taksimlanadi.

Sanoat, transport, kishlok xujaligi soxasida kushimcha investitsiyaga bulgan talablarni moliyalashtirib, banklar xalk xujaligida progressiv yutuklarga erishishni ta'minlashi mumkin. Oxirgi yillarda tijorat banklarining soni, ular bajaradigan operatsiyalar, ularning ustav fondi va quyilmalar salmogi oshib bormokda. Xozirgi kunda O'zbekistonda 29 ta tijorat banklari faoliyat kursatmokda. Tijorat banklarni tashkil kilishdagi ustav kapitali mikdori 2008 yil 1 yanvardan faoliyat kursatuvchi xususiy banklar uchun 2,5 mln. Evro so'm ekvivalenti mikdoridagi mablag'ga ega bo'lishi kerak, qolgan tijorat banklari uchun 5,0 mln. evro so'm ekvivalenti bo'lishi lozim.

Uzbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati tugrisida»gi konunda tijorat banklarining quyidagi operatsiyalari kayd kilingan:

1. Mijozlarning hisob varakalarini olib borish:
2. Mijozlarga kassa xizmati kursatish:
3. Mijozning topshirigiga binoan nakd pulsiz hisob-kitoblarni bajarish:
4. Kiska Yoki uzok muddatli kreditlar berish:
5. SHartnoma Yoki pullik asosida buyurtmachining topshirigiga binoan kapital quyilmalarni mablag' bilan ta'minlash:
6. Bush pul mablag'lari-depozitlarini muomilaga jalb kilish:
7. Axolidan omonatlarni kabul kilish:
8. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish:
9. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish:
10. Tijorat banki davlatning hamda boshqalarning qimmatli qog'ozlarini xarid kilish va sotish:
11. Xorijiy valyuta va qimmatli metallarni xarid kilish va sotish:
12. Uz mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar berish:
13. Byudjetning kassa ijrosini bajarish:

14. Bank operatsiyalari buyicha maslaxatlar berish va boshqa operatsiyalar.

Banklarning operatsiyalari ularning bevosita faoliyati orqali (vazifasi) amalga oshiriladi. Bunday vazifalar yukorida kurib utganimizdek uzaro boglik ikki turga bulinadi.

Passiv (bank resurslarini shakkilantirish buyicha operatsiyalar).

Aktiv (bunday resurslarni joylashtirish hamda foydalanish bilan boglik operatsiyalar).

Bank resurslari uziga tegishli va jalb etilgan mablag'lardan vujudga keladi. Uziga tegishli mablag'lar odatda banklar tasarrufidagi barcha resurslarning fakat unga katta bulmagan kismalarini tashkil etadi. Ularning asosiy kismi depozitlar Yoki banklarning mijozlariga karashli omonatlardan iborat.

Bankning aktiv operatsiyalariga avvalo beriladigan, foizli, ssudalar Yoki (kreditlar) kiradi.

Ular orasida eng kup tarkalgani veksellarni hisobga olish usulidir. Bank veksel saklovchidan nakd hisob-kitob kilish yuli bilan veksel sotib oladi. Unda kayd etilgan summadan hisobga olish foizini - kursatilgan xizmat uchun xak ushlab koladi. Veksel buyicha to'lov muddati kelganida bank uni vekselni sotgan veksel' saklovchiga emas, balki vekselni bergan shaxsga takdim etadi.

Qimmatli qog'oz garovga olinib, beriladigan ssudalar, shuningdek mana shunday qog'ozlarni xarid kilish buyicha operatsiyalar fond operatsiyalari deb yuritiladi.

Tovar evasiga beriladigan ssudalar omborlar yuldagi va savdo aylanmasidagi bulgan tovarlarni garovga olib takdim etildi. Ssudalar uz muddati tulanmagan hamma xollarda garovga quyilgan qimmatli qog'ozlar va tovar moddiy boyliklari bank ixtieriga mulk bo'lib utadi. To'lov kobiliyatiga shubxa yuk yirik mijozlarga bank xech kandy ta`minotsiz ssudalar eki bank kreditlari deb ataladigan qarzar beradi.

Tovarlarni sotish bilan boglik kreditlarni ko'rinishlaridan biri ist`emol krediti eki tovarlarni bevosita ist`emolchilarga to'lov muddatini uzaytirgan xolda sotish hisoblanadi.

Davlat tomonidan zaem obligatsiyalarini chiqarish yuli bilan olinadigan kreditlar davlat kreditlari deb yuritiladi. Bunday toifadagi qarzlarga davlat odatda davlat byudjetidagi kamomadni qoplash uchun majbur bo'ladi. Ana shunday xolatlarda kupincha banklar va sugo'rta kompaniyalari kreditorlar sanaladi. Davlat zaemlarining obligatsiyalari banklar vositaligida tarkatiladi, buning uchun vositalik xaki olinadi.

Tijorat banklari uz faoliyati bilan bozor iqtisodieti talablariga mos ravishda ishlay oladigan tashkilotlarni uz vaqtida mablag' bilan kullash va bunday tashkilotlarni aniklash kabi muxim bir vazifani amalga oshirmokda. Tijorat banklari kreditlash jaraenlari orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga ham juda katta xisa kushmokda.(jadval 1).

1-jadval

Uzbekiston bank tizimining kursatkichlari²¹

Kursatkichlar	01.01.98	01.01.99	01.01.00	01.01.01	01.01.02	1.01.06
UzResp. tijorat banklar soni	28	30	28	33	38	28
Filial umumiy soni	509	536	570	791	791	893
Fondlarning umumiy summasi	382,5	1768	8627	668436	640420	952458
Tulangan Ustav fondarining umumiy summasi	6223,1	9765	13975	27690	63848	92601
Korxonalar va tashkilotlar depozitlarining umumiy summasi	2836,3	4782	4799	-	-	-
Tijorat banklar tomondan korxonalar va tashkilotlar va axoliga berilgan kreditlar summasi	17936	31069,8	50016	343276	343276	529159
SHu jumladan kiska muddatli kreditlar.	17269,8	26371,4	33429	150665	150666	228937

²¹ «Бозор, пул,кредит» журналы №2, 2003 й.

Uzok muddatli kreditlar	666,6	4695,4	16587	161266	161267	249724
O'rta muddatli	-	-	-	30554	30554	50043

Tijorat banklarining yana bir muxim funksiyasidan biri bu hisob to'lovlarini amalga oshirish funksiyasidir. Bugungi kunda korxonalar va xujaliklarni o'rtasidagi hisob-kitoblarning asosiy qismi pul o'tkazish yuli bilan amalga oshirilmokda. Bu jaraenlarda tijorat banki vositachi sifatida to'lovlar o'tkazish jaraenini bajarmokda. To'lov xujjatlarining uz vaqtida utishi hamda hisob-kitob jaraenlarining uzluksizligini ta'minlash zaruriyati bugungi kunda banklardan hisob-kitoblarni tashkil kilish va nazorat kilishning mukammal metodlarini ishlab chikishni talab etmokda.

Hisob-kitoblarni tezlashtirish, jaraenlarni ishonchligini ta'minlash hamda bu jaraenlar bilan bogliq xarajatlarni kamaytirish maksadida tijorat banklari bugungi kunda komp'yuter texnikasi bilan jixozlanmokda.

Tijorat banklarining to'lovlarini amalga oshirish funksiyasi orqali bugungi kunda yuridik shaxslarning davlat byudjetiga bulgan majburiyatlari nazorat kilinmokda.

Bugungi kunda tijorat banklari etarli darajada texnik jixozlanganligi hamda kerakli axborot bazalariga va malakali kadrlarga egaligi banklari uz navbatida qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy ishtirokchilaridan biri kilib kuymokda. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar bir vaqtning uzida ham investor ham emitent sifatida katnashmokda. Banklarning boshqa xujalik sub`ektlariga nisbatan stabil moliyaviy xolatga egaligi qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarda katnashishga imkon bermokda. Respublikada tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida aktiv ishtirok etishini sabablaridan yana biri banklarning nizom kapitalini oshrish soxasida uz aktsiyalarini sotishga bulgan intilishdir.

Bugungi kunga kelib tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida aktsiyalardan tashkari depozit va jamgarma sertifikatlar bilan ishlashni ham

yulga kuymokdilar. Bundan tashkari banklar uz mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat kursatmokda. Banklarning bunday funktsiyalarni bajarishlari korxonalar tashkilotlarning qimmatli qog'ozlar bozori operatsiyalarida katnashishlari uchun kulay sharoit yaratmokda.

Bugungi kunda, Respublika davlat mulkini xususiylashtirish bilan boglik jaraenlar keng urin olganligi sababli, korxonalariga tegishli, qimmatli qog'ozlar bozoriga nisbatan, davlat qimmatli qog'ozlar bozori aktiv xarakat kilmokda. Bu bozorda asosiy katnashchilar sifatida tijorat banklari maydonga chikmokda. Bu bozorda tijorat banklari uzlarining brokerlik funktsiyalarini amalga oshirish bilan bir katorda mavjud resurslarini xech kandy tavakalchilikka bormagan xolda kiska muddatlarga joylashtirish imkoniyatiga ega bulmokdalar.

Respublika iqtisodiyatiga kirib kelaetgan «Lizing» jaraenlari bugungi kunda ishlab chiqarishni texnika va texnologiya ta`minlash hamda kayta jixozlashda muximligini kursatmokda. Agar biz lizing xizmatlariga tulanadigan foiz bilan bank krediti buyicha tulanadigan foiz o`rtasidagi bogliklikka e`tibor beradigan bulsak, u xolda lizing xizmatlarini bugungi kunda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishini yulga quyish kulay hamda muximdir. CHunki tijorat banklari lizing xizmatlari uchun boshqa lizing tashkilotiga kredit berishidan kura bank krediti foizi darajasida mijozlarga xizmat kursatishi va shu bilan lizing xizmatlari bahosini kamaytirish mumkin. Bundan tashkari kerakli mablag`ni jalb kila olish imkoniyatiga ega va shu bilan bir katorda texnik jixatdan etarli darajada jixozlangan.

Tijorat banklari tomonidan olib borilaetgan bank faoliyatiga bugungi kunda «Trast» xizmatlari ham kirib kelmokda. Trast xizmatlari respublika banklari uchun yangi hisoblansada uni uzlashtirish soxasida kuplab ishlar olib borilmokda.

CHet el bank tajribasida bizga ma`lumki firmalar buyurtmaga ega bo`lishliklari uz navbatida bank ta`minot xatlari deb ataluvchi firmaning moliyaviy kobilyatini kafolatlovchi xizmatlarga boglik bulmokda.

Jaxon banklari ish faoliyatida axborotlarni sotish va moliyaviy maslahatlar kabi xizmatlar ham keng urin olgan. Bizning oldimizda turgan masalalardan biri ham bu soxani urganishdir.

YAngi iqtisodiy sharoit uz navbatida tijorat banklarining rivojlanishini ular kursataetgan xizmatlarga va bu xizmatlarning kay darajada tashkil kilinganliga bogladi. CHunki ishlab chiqarishdagi kabi bank soxasida ham rakobat ertami-kechmi uz ishini bajaradi.

Qisqa hulosalar.

Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir qismi bo'lgan kredit tashkiloti bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini jamg'arish, yig'ish, jamlangan (akkumulatsiya qilingan) mablag'larni o'z nomidan qaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish hamda mijozlarning topshirigiga ko'ra, to'lovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar.

Bank tizimi- bu mamlakat hududida tarixan shakllangan va qonun bilan mustahkamlangan kredit tashkilotlarining faoliyat ko'rsatish shaklidir.

Kredit moliya-tizimining barqarorligini ta'minlash, uning alohida bo'g'inlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta'minlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Banklar va uning krediti Yordamida mavjud kapital tarmoqlar o'rtasida, ishlab chiqarish va muomala soxasida taksimlanadi va kayta taksimlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bankning mohiyati.
2. Bankning aktiv operatsiyalari.
3. Tijorat bank va Markaziy bank orasidagi munosabat.
4. Markaziy bank nima?
5. Naqd pul muomalasini tashkil etish xususiyatlari.
6. Markaziy bankning funktsiyalari.
7. To'lov tizimini tashkil etish xususiyatlari.
8. Majburiy zaxira nima?

9. Ochiq bozordagi operatsiyalar qanday tashkil etiladi?
10. Banklararo korrespondent munosabatlar tizimi.
11. O'zbekiston bank tizimi necha pogonali?

Tavsiya etiladigan adabiYotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
2. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
3. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007.
4. Sviridov O.YU. Finansi, deneznoe obraçenie, kredit. Ekspress spravochnik dlya stud. vuzov. –M.: IKTS Mart, Rostov n/D. izd. Sentr Mart, 2004. – 179 str.
5. Dengi, kredit, banki. Uchebnik pod red. V.V. Ivanova, B.I. Sokolova. – M.: Ekonomika, 2004. – 370 str.

VI BOB. QIMMATLI QOG'OZLARNING MOHIYATI VA SHAKLLARI

6.1. Qimmatli qog'ozlarning mohiyati va ularning asosiy turlariga tasnif

O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori modeli tamoyillariga asoslangan ijtimoiy Yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining yaxlit ekanligi hozirgi kundagi haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori bozor iqtisodiyoti tizimining moliyaviy mexanizmi bo'lib axoli va xo'jalik sub`ektlarini vaqtincha bo'sh mablag'larining aylanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, qimmatli qog'ozlarning xar bir egalari u fuqaro Yoki yuridik shaxs bo'lishidan qat'iy nazar tadbirkorlar xarakteriga taaluqli shaxs bo'lib qoladi. Ushbu bozorga kirishda motivatsiya mexanizmlari, turtkilari bo'lib iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy masalalarning hal qilinishi, qimmatli qog'ozlarning kurs qiymati dinamikasi, tijorat banklarini fondlarining miqdori, qimmatli qog'ozlar bo'yicha taklif etilayotgan foydaning miqdorlari xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 27 iyundagi qabul qilingan «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, «Qimmatli qog'ozlar – bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni Yoki zaYom munosabatlarini tasdiqlovchi dividend Yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu xujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul xujjatlaridir».²² Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan Qonunga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi qimmatli qog'ozlar amal qilishi ko'zda tutilgan:

1. Aktsiyalar;
2. Obligatsiyalar;
3. Kazna majburiyatlari;

²² Ўзбекистон Республикасининг «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги Қонуни. Т.: «Ўзбекистон». 2008. – 5 б.

4. Depozit sertifikatlari;
5. Veksel’;
6. Qimmatli qog’ozlarning hosilalari (options, f’yuchers, warrant).

Qimmatli qog’ozlar – blankalar, sertifikatlar shaklida Yoki shYotlardagi Yozuv shaklida bo’lishi va hisob-kitobni amalga oshirishda, shuningdek kreditlar bo’yicha garov sifatida foydalanishi mumkin. Qimmatli qog’ozlar yuridik va jismoniy shaxslar o’rtasida ixtiyoriylik asosida tarqatiladi

Kiritilgan ulush shaklidan qat’iy nazar, qimmatli qog’ozlarning qiymati O’zbekiston Respublikasi milliy pul birligi «so’m»da, ularni chiqarish shartlarida nazarda tutilgan hollarda esa – chet el valyutasida (aktsiyalar bo’yicha – mulkni o’tkazib berish Yo’li bilan ham) ifodalanadi va to’lanadi.

Mamlakatimiz xududida muomalaga chiqarilishi mumkin bo’lgan qimmatli qog’ozlarni mulkchilikka munosabatiga (ulushli), qarz munosabatiga qarab va qimmatli qog’ozlarning hosilalariga bo’lish mumkin. SHuni ta’kidlash lozimki, qimmatli qog’ozlar ichida faqatgina aktsiyalar ulushli qimmatli qog’ozlarning tarkibiga kiradi. Uning qolgan turlari hisoblangan obligatsiyalar g’azna majburiyatlari, depozit sertifikatlari va veksel’ qarz majburiyatli qimmatli qog’ozlar tarkibiga kiradi. Qimmatli qog’ozlarning hosilalariga esa options, f’yuchers va warrant kiradi. Biz bu tasnifni mazkur darslikni quyidagi chizmasida ko’rishimiz mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning tasnifi*




* Chizma muallif tomonidan tayyorlangan.

Bundan tashqari qimmatli qog'ozlarning amal qilish muddati bo'yicha tasniflash mumkin. Buni quyidagi chizmada ko'rish mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar amal qilish muddati, mulkka munosabati asosida bo'linib ketmoqda.

Agar biz O'zbekiston Respublikasi «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonunni tahlil etsak, u qonunda qimmatli qog'ozlarga quyidagicha ta'rif beriladi.

Qimmatli qog'ozlarning muddatlari bo'yicha tasnifi*



*Chizma muallif tomonidan tayyorlangan.

Qimmatli qog'ozlar – bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni Yoki zaYom munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend Yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda Ushbu hujjatlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul xujjatlaridir. Demak qimmatli qog'ozlarni harakat shakli bo'yicha tavsiflash mumkin. Biz bu tasniflashni quyidagi chizma ko'rinishida Yoritib berishga harakat qilamiz.

3 chizma

Qimmatli qog'ozlarning harakati bo'yicha tasnif*



*Chizma muallif tomonidan tayyorlangan.

YUqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, qimmatli qog'ozlar o'zlarining muomalada bo'lishi shakliga asosan nomi Yozilgan va egasiga taqdim etiluvchi turlarga ajratiladi.

SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, qimmatli qog'ozlar puldan farqli o'z xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Likvidlik (samaradorlik);
2. Foydalilik;
3. Ishonchlilik darajasi;
4. Kapitalni oshirish manbai;
5. Risk (xatar, qaltislik)

Biz quyida uni bu hususiyatlarini har bir qimmatli qog'ozlarning tahlilida Yoritamiz.

Aktsiyalar – aktsiyadorlik jamiyatining ustav fondiga yuridik Yoki jismoniy shaxs muayyan hissa qo'shganidan guvohlik beruvchi, aktsiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi hamda unga dividend olish va qoida tariqasida, ushbu jamiyatni boshqarishda qatnashish xuquqini beruvchi, amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'ozdir.

Aktsiyalar chiqarish to'g'risida qaror aktsiyadorlik jamiyati muassasalari tomonidan Yoki aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Sotib olingan aktsiya uni chiqargan aktsiyadorlik jamiyatiga, basharti bu narsa jamiyat ustavida nazarda tutilmagan bo'lsa, sotilishi mumkin emas.


Aktsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Oddiy- egasi Yozilgan aktsiyalar;
2. ImtiYozli- egasi Yozilgan aktsiyalar;
3. Oddiy-taqdim etuvchiga aktsiyalar;
4. ImtiYozli- taqdim etuvchiga aktsiyalar.

Aktsiya turlarini quyidagi chizmada ko'rish mumkin.

4 chizma

Aktsiya turlarining tasnifi*



*SHizma muallif tomonidan tayyorlangan.

Oddiy aksiyalar o'z egasiga aksiyadorlarning umumiy majlisida masalalarni hal qilishda ovoz berish huquqini va belgilangan tartibda (jamiyat sof foyda olgan yillik hisobot umumiy yig'ilishiida dividend berish bo'yicha qaror qabul qilsa) dividend olish xuquqini beradi.

Imtiyozli aksiyalar – o'z egalariga aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy xolatidan qat'iy-nazar birinchi navbatda dividend olish, jamiyat tugatilaYotganda o'z ulushiga mutanosib mablag' olish xuquqini beradi.

O'zbekiston Respublikasi xududida muomalaga chiqarilgan aksiyalar ularning emitentlariga asosan quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari;
2. YOpiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari.

Amaldagi qonunchilikka asosan har bir aktsiya quyidagi rekvizitlarga ega bo'lishi lozim:

- aktsiyadorlik jamiyatining to'liq nomi va manzili;
- aktsiya deb nomlangan qimmatli qog'oz nomi;
- aktsiyaning muomalaga chiqarilgan muddati, seriyasi, tartib raqami;
- aktsiyaning nominal qiymati;
- aktsiya egasining nomi (nomi Yozilgan aksiyalar uchun);
- aktsiyalar chiqarilishi davridan aksiyadorlik jamiyati nizom jamg'armasining hajmi;

- dividendlarni to'lash muddati;
- muomalaga chiqarilgan aktsiyalar miqdori;
- aktsiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi va bosh buxgal-
terning imzolari;

-ro'yxatga oluvchi davlat organi tomonidan berilgan aktsiyalarning kodi va sanasi aks ettirilgan bo'lishi shart.

Aktsiya rekvizitlari aktsiyalarning yaxlitligini solishtirish, muomalaga chiqargan emitent va uni egasining emissiyada belgilangan shartlarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Qonunchilik asosida aktsiyaning eng kam nominal qiymati 100 so'm, uning eng yuqori nominal qiymati esa qonunda ko'zda tutilmagan. Aktsiyalar bo'linmasdir.

Obligatsiyalar muddati belgilangan qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular ulushga egalikni tasdiqlamaydi. Obligatsiya egasining ma'lum miqdorda pul mablag'larini qo'yganini va ma'lum muddatdan so'ng unga belgilangan foiz miqdorini qo'shib, qimmatli qog'ozlar bahosini qaytarish lozimligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Obligatsiyalar amaldagi qonunchilikka va ularning nizomiga asosan mulkchilikning barcha shakldagi korxonalar tomonidan (korxonalar obligatsiyalari), shuningdek, davlat xokimiyatlari xomonidan chiqarilishi mumkin. Demak, obligatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Markaziy hukumatning obligatsiyalari;
2. Korxonalar obligatsiyalari.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra korxonalarning obligatsiyalari quyidagi turlarda chiqarilishi mumkin;

- odatdagi;
- yutuqli;
- foizli;
- foizsiz (maqsadli).

Obligatsiyalar cheklanmagan miqdordagi investorlar orasida erkin muomalada bo'lishi mumkin (ochiq joylashtirish), Yoki chegaralangan doirada avvaldan ma'lum cheklangan miqdordagi investorlar o'rtasida muomalada bo'lishi mumkin (Yopiq joylashtirish).

Odatdagi obligatsiyalar - qimmatli qog'ozlarning boshqa turiga ayirboshlash huquqiga ega bo'lmagan obligatsiyalar bo'lib, ularga opsiya bilan o'tkazilishi mumkin, ya'ni obligatsiya egasi emitentga avvaldan kelishilgan muddatda qaytarish imkoniyatini ta'minlaydi, emitent uni nominal miqdorida qaytarishi shart.

Yutuqli obligatsiyalar – obligatsiyalar bo'yicha daromad, doimo o'tkazilib turadigan tirajga asosan yutuq tarzida to'lanib turadigan obligatsiyalardir.

Foizli obligatsiyalar- obligatsiya egasiga vaqti – vaqti bilan belgilangan daromadni olib turish va tugatilaYotganda obligatsiyaning nominal qiymatini olish xuquqini beruvchi obligatsiyalardir. To'lovlar muddati obligatsiyalar chiqariluvchining shartlarida belgilanadi.

Foizsiz (maqsadli) obligatsiyalar – ushbu obligatsiyalar bo'yicha foiz to'lanmaydi, obligatsiya bo'yicha daromad nominaliga nisbatan belgilangan diskont hisobiga paydo bo'ladi (emissiya bahosi nominaliga nisbatan past bahoda belgilanadi) va faqat obligatsiya tugatilaYotganda to'lanadi. Maqsadli obligatsiyalarda ularni chiqarishga asos qilib olingan mahsulot (xizmat) majburiy rekvizitlari qilib belgilanadi

Obligatsiyalar emitentning o'z mulkining kafolati bilan ta'minlanishi mumkin Yoki emitentga chiqarish uchun uchinchi shaxslar tomonidan ta'minlanishi mumkin.

Agar obligatsiyalarni chiqarish o'z mulkining kafolati bilan ta'minlanaYotgan bo'lsa korxonalar (aktsiyadorlik jamiyatlaridan tashqari) chiqaraYotgan obligatsiyalar miqdori emitentning nizam kapitali miqdoridan oshmasligi lozim.

Agar obligatsiya chiqarish uchinchi shaxs tomonidan ta`minlanayotgan bo'lsa, korxonada ta`minlanish darajasida obligatsiyalarni chiqarishi mumkin.

Obligatsiyalarni emitent- korxonada nizam fondini shakllantirish va xo'jalik faoliyatidan keltirilgan zararni qoplash uchun chiqarilishiga Yo'l qo'yilmaydi.

Aktsiyadorlik jamiyati obligatsiyalarni emitent nizam fondini 20 foizi miqdorida va avval chiqarilgan aksiyalarni to'la joylashtirgandan keyingina chiqarishi mumkin.

Obligatsiyalarni chiqarishga nizam fondi to'lanib to'la shakllangandan keyingina ruxsat etiladi.

Obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror aktsiyadorlik jamiyatlarining ijroiya organi tomonidan qabul qilinadi va baYon bilan rasmiylashtiriladi. +arorda emitent, obligatsiyalarning chiqarilish shartlari (agarda maqsadli obligatsiyalar chiqarilsa, ularni chiqarishga asos qilib olingan maxsulot, xizmatning turi va miqdori) joylashtirish tartibi belgilanishi lozim.

Korxonalar obligatsiyalarning muomalaga chiqarishni ro'yxatga olish, aksiyalar chiqarishni ro'yxatga olish tartibiga asosan amalga oshiradi.

Naqd holda chiqariladigan obligatsiyalar kamida olti darajadagi himoyaga ega bo'lishi kerak.

Boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarning rekvizitlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik asosida belgilanadi.

Depozit sertifikatlari – bu pul mablag'lari- omonat qo'yilganli to'g'risidagi- omonatchi Yoki uning huquqiy vorisining belgilangan muddati tugaganidan keyin omonat summasini va unga tegishli foizlarini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi bank- emitent guvohnomasidir.

Depozit sertifikatlarini chiqarish va ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi.

Depozit sertifikatlari ikki turda chiqariladi.

1. Depozit sertifikatlari, yuridik shaxslar uchun chiqariladi.
2. Depozit – jamg'arma sertifikatlari, jismoniy shaxslar uchun chiqariladi.

Depozit sertifikatlari uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy pul birligi «so'mda» to'lanadi.

Depozit sertifikatlari muomalaga bir marotabalik va seriya holatida chiqarilishi mumkin va ularning egasi Yozilgan va taqdim etuvchiga bo'lishi mumkin. Depozit sertifikatlari ko'rsatilgan xizmatlar va tovarlar uchun to'lov vositasi bo'lib xizmat qilmaydi.

Tijorat banklari depozit sertifikatlarini quyidagi shaklda chiqarishi mumkin.

- naqd (blankali) shaklda, jismoniy shaxslar uchun;
- naqd bo'lmagan (depo hisob raqami ochish) shaklda, yuridik shaxslar uchun.

Depozit sertifikatlarini «depo» shaklida olib borilishi tijorat banklarini maxsus depozitariy bo'limlarida amalga oshiriladi.

Egasi Yozilgan depozit sertifikatining egasi o'zgargan holda, uning orqa tomonida xuquqni beruvchi va xuquqni oluvchi o'rtasida o'zgartiriladi.

Depozit sertifikatlari muddati bo'yicha, ular sotilgan muddatdan boshlab:

- depozit sertifikatlari – 1 yil muddatgacha;
- depozit – jamg'arma sertifikatlari- muddati 3 yilgacha amal qiladi.

Agarda sertifikatning muddati o'tib ketgan holda egasi tomonidan taqdim etilsa, tijorat banki darhol depozit va uning foiz summasini to'lab berishi shart.

Naqd holda chiqariladigan depozit jamg'arma sertifikatlari kamida olti darajada ximoyaga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari –ularning egalari byudjetga pul mablag'lari berganliklarini tasdiqlovchi hamda bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida qayd etilgan daromadni olish xuquqini beruvchi, taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog'oz turidir*.

Mamlakatimizda g'azna majburiyatlarining quyidagi turlari chiqarilishi ko'zda tutilgan;

-qisqa muddatli (BILL)-bir yilgacha bo'lgan muddatga mo'ljallangan g'azna majburiyatlari;

-o'rtacha muddatli (NOTE) – bir yildan besh yilgacha muddatga mo'ljallangan g'azna majburiyatlari;

-uzoq muddatli (BOND) – besh yil va undan ko'proq muddatga mo'ljallangan g'azna majburiyatlari.

Uzoq va o'rtacha muddatli g'azna majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Qisqa muddatli g'azna majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qaror esa O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan qabul qilinadi.

G'azna majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qarorlardadaromadlarni hamda majburiyat qarzlarini to'lash shartlari belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan veksel' bu – veksel' beruvchining Yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel' egasiga muayyan summani to'lash yuzasidan qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Veksellarni chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish qoidalari, ularni chiqarish va muomalada yuritish shartlarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan birgalikda belgilaydilar.

Veksellar quyidagi turlarga bo'linadi:

-oddiy veksel' (solo);

-o'tkazma veksel' (tratta).

Veksel' beruvchining muayyan summadagi pulni veksel' oluvchiga Yoxud uning buyrug'iga binoan belgilangan muddatda Yoki uning talabiga ko'ra to'lashdan iborat qat'iy majburiyatini o'z ichiga olgan xujjat oddiy veksel' hisoblanadi. Oddiy vekselda ikki shaxs ishtirok etadi, ya'ni veksel' beruvchi va uni birinchi oluvchi. Boshqa qarz qog'ozlardan oddiy vekselni ajratib turadigan xususiyatlari mavjud bo'lib ular quyidagilar hisoblanadi:

-veksel' o'tkazma Yozuv asosida qo'ldan - qo'lga o'tadi;

-veksel' bo'yicha majburiyat ikkala ishtirokchi o'rtasida hamkorlikda bo'ladi;

-imzo va muxrlarni notarial tasdiqlash shart emas;

-veksel' garov bilan ta'minlanmagan abstrakt pul xujjatidir;

-to'lov muddati kelib to'lanmagan veksel' uchun notarial da'vosini amalga oshirishi lozim.

Vekselning ikkinchi turi bo'lib o'tkazma veksel' hisoblanadi. Veksel' oluvchining muayyan summadagi pulni oluvchiga Yoxud uning buyrug'iga binoan boshqa shaxsga belgilangan muddatda Yoki uning talabiga ko'ra to'lash to'g'risidagi qat'iy buyrug'idan iborat to'lovchiga qaratilgan xujjat o'tkazma veksel' hisoblanadi. Bunda to'lovchi veksel' bo'yicha belgilangan muddatda to'lovlarni amalga oshirishga (aktseptni bajarishga) roziligini Yozma ravishda tasdiqlashi shart.

Oddiy (solo) veksel dan farqli ravishda o'tkazma (tratta) veksel da uchta ishtirokchi qatnashadi; veksel' beruvchi (trassant), veksel' birinchi oluvchi (remitent) va veksel' bo'yicha to'lovchi (trassat). Trassat veksel ga veksel da ko'rsatilgan muddatda va summani to'lashga roziligini bildirishi, ya'ni aktsept qilishi shart.

Trassat veksel ga aktsept (to'lashga roziman) belgisini qo'ygandan so'ng bu veksel' muomalaga kiradi.

Veksel da qo'yiladigan majburiy rekvizitlar 1930 yil 7 iyunda Jenevada veksel' to'g'risidagi xalqaro konventsiya asosida olib boriladi. Davlatlar o'zlaridagi veksel' munosabatlarini ushbu konventsiya shartlariga asosan unifikatsiya qilishlari lozim.

Veksel' bo'yicha foiz to'lovlari «diskont» deb atalib, uning miqdori veksel' summasiga kiritilishi Yoki aloxida ko'rsatilishi mumkin. Veksel ni o'tkazish uni orqa tomonidagi Yozuv (indossament) va qo'shimcha rasmiy varaq orqali olib boriladi. Indossamentdagi Yozuvlar albatta beruvchi va oluvchining imzosi va ularning muxri bilan tasdiqlanadi.

Xalqaro amaliyotda vekselning iqtisodiy moxiyatiga qarab quyidagi turlari mavjud;

-tijorat vekseli;

-moliyaviy veksel’;

-fiktiv veksel’;

-bank vekseli.

Tijorat vekselining asosini aniq tovar bo’yicha oldi – sotdi bitimi tashkil etadi.

Moliyaviy vekselning asosida esa ma’lum miqdordagi pulning xarakati Yotadi, ya’ni veksel’ Yordamida qo’shimcha kredit beriladi.

Fiktiv veksel’ asosida na tovar oldi – sotdi bitimi, na pul xarajati Yotadi. Fiktiv (soxta) vekselga bronza, do’stona va kutib olish veksellari kiradi. Bronza veksel’ xech qanday xaqiqiy ta’minotga ega emasdir. Bu erda veksel’ bo’yicha to’lovchi oldindan to’lovga qobiliyatli emas.

Do’stona vekselda oldindan kelishilgan sxemada to’lovga qobiliyatli shaxs to’lovga qobiliyatsiz shaxsga to’lov vositasi sifatida Yoki vekselda ko’rsatilgan summani bankdagi hisobi asosida undirib olish tushuniladi.

Bank vekseli bu bank-emitentning bir tomonlama vekselde ko’rsatilgan muddatda va undagi summani to’lash xaqidagi so’zsiz majburiyatdir.

6.2. Qimmatli qog’ozlarning hosilalari va ularning turlari

O’zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog’ozlar bozori to’grisida»gi qonunning 3-moddasiga asosan «Qimmatli qog’ozlarning hosilalari – daromadi (zarari) bir Yoki bir necha bozor ko’rsatgichlari (indekslari) mazmuniga bog’liq bo’lgan qimmatli qog’ozlardir»* Amaldagi qimmatli qog’ozlar to’g’risidagi qonunchilikka asosan qimmatli qog’ozlar hosilalarining quyidagi turlari muomalada bo’lishi mumkin:

1. Optsion;
2. F’yuchers;
3. Varrant.

O’zbekiston Respublikasida muomalaga qimmatli qog’ozlarning hosilalarini chiqarishning o’ziga xos xususiyatlari mavjud, ya’ni mamlakatimiz xududida

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish tartib- qoidasiga ko'ra qimmatli qog'ozlarning hosilalari faqatgina aktsiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari (asosan aktsiyalar) asosida muomalaga chiqarilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarning hosilalari emissiyasi amaldagi qonunchilikka asosan tegishli davlat organida davlat ro'yxatidan o'tishi lozim.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari emitenti bo'lib, ushbu qimmatli qog'ozni o'z nomidan va bu bo'yicha kelib chiqadigan barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga oluvchi yuridik shahs hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini muomalaga chiqarish to'g'risidagi qarorni emitentning (dilerning) bu sohaga vakolati mavjud organi tomonidan qabul qilinadi. Ushbu organ qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlarning hosilalari emissiyasi prospektini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan agarda qimmatli qog'ozlarning hosilalarini bazis aktivi 1 mln. so'm va undan sal ko'prok bo'lsa, u holda qimmatli qog'ozlarning hosilalarini shartnomasi fond birjasining joylardagi filiallarida ro'yxatdan o'tadi. Agarda qimmatli qog'ozlarning hosilalarini bazis aktivi 1 mln. so'mdan ko'prok bo'lsa, u holda bu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi tomonidan o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari muomalaga naqd va naqd bo'lmagan ko'rinishda chiqarilishi mumkin. Naqd bo'lmagan ko'rinishda chiqarilishda global sertifikat, ya'ni qimmatli qog'ozlarning hosilalari shartnomasiga asosan bazis aktivini sotib olish Yoki sotishni tasdiqlovchi, qog'oz chiqariladi va bu sertifikat depozitariyda o'rnatilgan tartib-qoida asosida saqlanadi.

Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan qimmatli qog'ozlarning hosilalari klass va seriyalar bo'yicha tasdiqlanishi mumkin.

1. Klass bo'yicha – bu xolatda qimmatli qog'ozlarning hosilalari shartnomasining bazis aktivida bir turdagi qimmatli qog'oz (ko'p xolatda aktsiya) tashkil etadi.

2. Seriya – bu xolatda bir klassdagi va bir xil narxdagi hamda bir hil muddatda to'lov muddati kelgan bazis aktiv tashkil etadi.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari shartnomasida qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi muddatini uzaytirish, sotuvchining mulki bo'lmagan qimmatli qog'ozlarni sotish hamda muddati o'tgan qimmatli qog'ozlarning hosilalari sotuvga qo'yish amalga oshirilmaydi.

Optсион (nemischa “option” so'zidan olingan) – shartnoma bo'lib, uning egasiga qimmatli qog'ozlarni Yoki tovarlarni bitimda qayd etilgan narxda belgilangan muddatda xarid qilish xuquqini beradi.

Optсионning xususiyati shundaki, uning egasi qimmatli qog'ozning o'zini emas balki uni sotib olish Yoki sotish xuquqini optсион mukofoti evaziga sotib oladi. SHuni ta'kidlash lozimki, optсион egasi vaziyatga qarab optсион yuzasidan sotib olish Yoki sotish xuquqidan foydalanish Yoki undan voz kechishi mumkin.

Optсион shartnomasida ikki tomon ishtirok etadi – birinchi tomon optсионni sotib oluvchi (saklovchi), ya'ni ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish Yoki sotish xuquqini xarid etuvchi va ikkinchi tomon – optсионni sotuvchi, ya'ni shartnomada ko'rsatilgan ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish Yoki sotish majburiyatini oluvchi shaxs ishtirok etadi.

Xalqaro amaliyotda barcha optсионlar ikki turga bulinadi:

- sotib olish uchun optсион (xaridor optсион) “koll” optсион (call);
- sotish uchun optсион (sotuvchi optсион) “put” optсион (put).

Sotib olish uchun optсион uni egasiga kelajakda kelishilgan shart va mukofot evaziga bazis aktivini sotib olish xuquqini beradi.

Sotish uchun optсион esa uni egasiga kelajakda kelishilgan shart va mukofot evaziga bazis aktivini sotish xuquqini beradi.

Opsionlarni amalga oshirish muddati bo'yicha ikki turga bo'linadi:

1. "Evropa opsi" – ushbu shartnomada kelishilgan opsi shartlari faqatgina unda ko'rsatilgan muddatda amalga oshiriladi.

2. "Amerika opsi" – ushbu shartnomada kelishilgan shartlarni opsi egasi hohlagan muddatda amalga oshirishi mumkin.

Opsion bo'yicha mukofot – bu opsi"ni xarid etib olgan shaxs tomonidan uni sotgan shaxsga opsi sertifikatini imzolagan uchun beriladigan bahodir.

Opsionning ichki qiymati – bu opsi egasiga opsi shartnomasi amalga oshganda oladigan daromadidir. Uning miqdori esa bazis aktivining joriy bahosi va opsi amalga oshgandagi ijro bahosi o'rtasidagi farqdan iborat.

Opsionning tashqi qiymati – opsi"ning ichki qiymati va mukofot o'rtasidagi farqdan iborat bo'lib uning miqdori shartnomaning muddatligi, kursning barqarorligi va foiz stavkalarining dinamikasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Opsion bo'yicha bazis aktivi quyidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi lozim:

- qimmatli qog'ozning turi (tip, kategoriya);
- qimmatli qog'ozlarning nominali (qiymati);
- har bir dona qimmatli qog'oz uchun baho;
- qimmatli qog'ozlarning soni;
- qimmatli qog'ozlarning emitenti;
- umumiy qiymati;

-qimmatli qog'ozlarning turiga qarab boshqa qo'shimcha ma'lumotlar talab etiladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, opsi shartnomalari asosida qimmatli qog'ozlarning kursini ko'tarilishi Yoki uning aksi, pasayishi hisobiga daromad olishligi uchun opsi bo'yicha "chayqovchilik" manfaati Yotadi.

Endi biz “ sotib olish”ni amalga oshirish mexanizmini ko’rib chiqamiz. Ushbu shartnomaga asosan opsiyon egasi uning sotuvchisidan ma`lum miqdordagi qimmatli qog’ozlarni ma`lum muddatdan keyin kelishilgan bahoda sotib olish xuquqini sotib oladi. Opsiionni sotuvchisi esa shartnomada ko’rsatilgan qimmatli qog’ozlarni mukofot evaziga opsiyon egasi ko’rsatmasiga asosan kelishilgan bahoda sotish majburiyatini oladi.

Masalan, “RIAAAL XJ” aktsiyalarining opsiyon operatsiyasidagi joriy kursi 1000 so’m. Opsiyon egasi bunday aktsiyalarining 1 lotini (100 dona aktsiya) sotib oldi deylik. Opsiyon shartnomasiga asosan uning egasi ma`lum muddatdan keyin ushbu lotni, ya`ni xar bir aktsiyani 1100 so’mdan sotib oladi. SHartnomaga asosan uning egasi sotuvchiga xar bir aktsiya uchun 20 so’mdan mukofot to’laydi. Opsiyon kontragentlari “ RIAAAL XJ” ning aktsiyalarining kursiga mutlaqo teskari manfaatda bo’ladi. Opsiyon egasi aktsiya kursi ko’tarilishi tarafdori, uning hisobi bo’yicha “ RIAAAL XJ” aktsiyasining kursi kelajakda 1200 so’mni tashkil etsa, u o’z xuquqini amalga oshiradi va xar bir aktsiyadan 80 so’m ($1200 - 1100 - 20$) daromad oladi. Opsiyon egasining lot bo’yicha daromadi 8000 so’mni tashkil etadi. Agar opsiyon egasi yanglishgan bo’lsa, ya`ni “ RIAAAL XJ” aktsiyalari kursi faqatgina 1100 so’mgacha ko’tarilgan bo’lsa, hamda opsiyon amalga oshirilgan taqdirda uning egasi har bir aktsiyadan 20 so’mdan va jami lotdan 2000 so’m zarar ko’radi. SHuning uchun bunday holatlarda opsiyon egasi o’z huquqidan foydalanmaydi va opsiyon shartnomasini bekor qiladi. Ikkinchi tomondan opsiionni sotuvchi “ RIAAAL XJ” aktsiyalari kursining o’zgarmay qolishi Yoki ko’tarilganda ham pastroq ko’tarilishidan manfaatdor. Agar opsiyon muddati kelganda “ RIAAAL XJ” aktsiyalarining kursi 1100 so’mni tashkil etsa, yuqorida ta`kidlangandek opsiyon egasi o’z xuquqidan foydalanmaydi, natijada opsiionni sotuvchi har bir aktsiya uchun 20 so’m mukofot va jami 2000 so’m daromad oladi, undan tashkari bazis aktividagi qimmatli qog’ozlar uning o’zida qoladi.

Biz endi “sotish uchun” (put)ni amalga oshirish mexanizmini ko’rib chiqamiz. Ta’kidlash lozimki, ushbu opsiyonning amalga oshirilish mexanizmi “sotib olish uchun opsiyon” mexanizmining teskarisidir. “Sotish uchun” opsiyon egasi bazis aktiv aksiyalarini kursning pasayishi manfaatida, opsiyonni sotuvchi esa ushbu kursning ko’tarilishi manfaatida bo’ladi. Opsiyon sotuvchisi opsiyon shartnomasini imzolaganda uning egasidan “RIAAAL XJ aksiyalarini joriy narxi 1000 so’m, opsiyon sharti bo’yicha kelajakda “RIAAAL XJ” xar bir aksiyasini donasini 1000 so’mdan sotib olish majburiyatini oladi. Natijada har bir aktsiya uchun (1 lot 100 dona aktsiya) 20 so’mdan, ya’ni jami 2000 so’m mukofot puli oladi. Bu erda opsiyon sotuvchisi kursning saqlanib qolishi Yoki o’sishidan manfaatdor, chunki bu holatda opsiyon egasi shartnomadagi xuquqidan voz kechadi. Bu holatda opsiyon sotuvchisi hech qanday xarajatsiz 2000 so’m mukofot puli oladi. Agarda “RIAAAL XJ” aksiyasining bozor kursi kelajakda tushib ketsa, u holda opsiyon egasi o’z xuquqidan foydalanadi. Masalan, “RIAAAL XJ” aksiyalarining bozor kursi pasayib 900 so’mni tashkil etdi. Bunda opsiyon egasi o’z xuquqidan foydalanadi va “RIAAAL XJ” aksiyalarini opsiyon sotuvchisiga shartnomadagi kelishilgan baho 1000 so’mgga sotadi. Bu holatda u har bir aksiyadan 80 so’mdan daromad topadi, ya’ni (1000 – 900 – 20).

Har bir davlatda opsiyonning o’ziga xos kotirovkasining tasnifi mavjud. Masalan, AQSHda xar bir opsiyon uchun quyidagi tasnif bor:

1. Opsiyonning turi – “sotib olish” uchun (“s”) Yoki “sotish uchun opsiyon (“p”)
2. Opsiyonning klassi opsiyon shartnomasidagi bazis aktividagi qimmatli qog’ozlar turi.
3. Opsiyon lotidagi xar bir qimmatli qog’ozga mukofot miqdori.

Masalan, an’anaviy opsiyon kotirovkasi quyidagicha ifodalanadi:

bu erda

6 – opsiyon asosida Yotuvchi 100 aksiyadan iborat shartnomalar soni;

MMB – aksiyadorlik jamiyatining qisqartirilgan nomlanishi;

OST – opsiyon shartnomasining tugash muddati;

45 – opsiyonni amalga oshirish bahosi;

Cal – opsiyon turi (bu erda “Call” “sotib olish uchun opsiyon”)

1 – “opsionda ko’zda tutilgan mukofot”

YUqoridagi kotirovkaga asosan, ushbu opsiyon egasi MMB aksiyadorlik jamiyatining 600 dona (6x100) aksiyasini 45 AQSH dollari bahosida oktyabr oyida sotib olish xuquqini olgan va buning uchun 600 AQSH dollari miqdorida (1x6x100) mukofot pulini to’lagan.

O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan “sotib olish uchun opsiyon” va “sotish uchun” opsiyonlarning bazis aktivlari emitentlarining avval muomalaga chiqargan o’zlik qimmatli qog’ozlari va avval muomalaga chiqargan uchinchi shaxsning qimmatli qog’ozlari tashkil etishi mumkin. Amaldagi qonunchilikka asosan opsiyonning bazis aktivi bo’lib emitentning o’zlik birlamchi muomalaga chiqarilgan qimmatli qog’ozlari xizmat qilishga Yo’l qo’yilmaydi.

Opsiyonlar egasi Yozilgan va taqdim etuvchiga bo’lishi mumkin. O’zbekiston Respublikasida opsiyonning barcha turlarida bazis aktivining shartnomada kelishilgan muddatda Yoki opsiyon egasining hohlagan muddatida sotib olish Yoki sotish xuquqidan foydalanishlari mumkin. SHuni ta’qidlash lizimki, opsiyon shartnomasi bo’yicha operatsiyalar birja va birjadan tashqari bozorda ham amalga oshirilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan f’yuchers – qimmatli qog’oz (shartnoma) bo’lib, muayyan qimmatli qog’ozlar va boshqa moliyaviy vositalarni Yoki tovarlarni shartnomalarda belgilab

quyilgan narxda belgilangan kelgusi sanada xarid qilish Yoki sotishdan iborat majburiyatni so'zsiz tasdiqlaydi.

F'yuchers shartnomasi bo'yicha bazis aktivining emitentning avval muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlari va avval muomalaga chiqarilgan uchinchi shaxsning qimmatli qog'ozlari tashkil etishi mumkin. Amaldagi qonunchilikka asosan f'yuchersning bazis aktivi bo'lib emitentning o'zlik birlamchi muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlari tashkil etishiga yul qo'yilmaydi.

F'yuchers shartnomasining asosiy xususiyati shundaki, unda bahoning aniqligi va shartnoma bajarilishining majburiyigidir. F'yuchersga asosan bazis aktividagi qimmatli qog'ozlar darhol qo'ldan-qo'lga berilmaydi, balki qat'iy belgilangan muddatda etkazilishi zarur. F'yuchers shartnomasi Yordamida fond qimmatliklarini kelajakda olish Yoki etkazib berish majburiyati qonun asosida rasmiylashtiriladi. F'yuchersning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, shartnoma imzolanaYotgan vaqtda shartnomadagi bazis aktivdagi qimmatli qog'ozlar uning sotuvchisida umuman bo'lmasligi ham mumkin.

F'yuchersning opsiyon bilan o'xshashlik tomoni shundaki, ikkala shartnoma asosida kelajakda fond qiymatlarini xarid etish Yoki sotish imkoniyati mavjud. F'yuchersning opsiyondan farqi quyidagilardan iborat:

1. F'yuchers oldi-sotdi bitimi emas, balki u fond qiymatlarini etkazib berish to'g'risidagi qat'iy majburiyatdir;
2. F'yuchers shartnomadagi muddat kelganda hisob-kitoblarni qat'iy tartibda amalga oshirish to'grisidagi majburiyatdir;
3. F'yuchers bo'yicha havf hatar risk yukori darajadadir, chunki opsiyondan farqli ravishda f'yuchers egasi salbiy vaziyatda nafaqat mukofot summasini, balki undan ko'prok summani yuqotishi mumkin.

F'yuchers shartnomasidagi shartlar birja auktsionidagi qimmatli qog'ozlarga talab va taklifni chuqur o'rgangan holda tuziladi. F'yuchers bitimidagi hisob-kitoblar esa fond birjasidagi hisob-kliring palatasi orqali

amalga oshiriladi. Buning uchun hisob-kliring palatasida f'yuchers shartnomasi ishtirokchilarining (sotuvchi va oluvchi) maxsus hisob raqamlari ochiladi.

F'yuchers shartnomasi shartlarini amalga oshirish mexanizmini ko'rib chiqamiz. F'yuchers shartnomasida bazis aktivdagi aksiyalar kursining pasayishi hisobiga manfaat yuzaga keladi. Odatda f'yuchers shartnomasida qimmatli qog'ozlar ta'minlanmagan holda sotiladi, ya'ni bu qimmatli qog'ozlar sotuvchining mulki bo'lmasligi ham mumkin. F'yuchers shartnomasiga asosan sotuvchi brokerdan ma'lum miqdordagi aksiyalarni sotib oladi. Lekin sotib olingan paket aksiyasining faqat 60 foizinigina to'laydi, qolgan 40 foizini esa brokerdan joriy narxda qarzga oladi. Investor sotib olingan paket aksiyani to'liq sotadi. F'yuchers shartnomasiga asosan investor brokerga belgilangan muddatda kelishilgan qimmatli qog'ozlarni etkazib berishi lozim. Ushbu holatda investor bazis aktivdagi aksiyaning narxini tushishidan manfaatdor, chunki muddat kelganda u qarzga olingan aksiyalarni arzon narxda oladi va brokerga shartnomada eski yuqori narxda etkazib beradi. Natijada investor qo'shimcha daromad olishi mumkin. Lekin olingan aksiyalarning narxi oshib ketsa, investor aksiyalarni yuqori narxda xarid etib, uni brokerga shartnomadagi eski narxda etkazib berishga majbur. Natijada investor katta zarar ko'rishi mumkin. SHuning uchun f'yuchers shartnomasini tuzuvchi shaxslar fond bozorini, uning hozirgi va kelajakdagi xolatini hamda narx-navo qanday bo'lishini chuqur o'rganishi va uning bilishi lozim bo'ladi.

1. **Varrant** (warrant) qimmatli qog'ozlarning hosilalarini o'ziga xos turi bo'lib hisoblanadi. Varrant – belgilangan muddat davomida (Yoki anik belgilangan sanada), avvaldan kelishilgan narxlarda oddiy aksiyalarni sotib olish xuquqini beruvchi hujjatdir. Varrantning imzolanishi va amalga oshirilishi uni bazis aktivini tashkil etuvchi qimmatli qog'ozning muomalaga chiqarilishi bilan uzviy bog'liq. SHuni ham ta'kidlash lozimki, varrant aktivini tashkil etuvchi qimmatli qog'ozni bir martalik emissiyasi natijasida varrant ham bir martalik hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan warrant shartnomasini tuzishda quyidagilar ta`qiqlanadi:

- avval muomalaga chiqarilgan, uning shaxs mulkida bo'lgan va emitentning o'zi sotib olgan qimmatli qog'ozlar bazis aktivi hisoblanmaydi;
- bazis aktividagi qimmatli qog'oz nominalidan warrant nominali past bo'lmasligi shart (obligatsiya bundan mustasno).

Varrant emitentlari uning birinchi egalari uchun qimmatli qog'ozlarini xarid etishlarida bir xil narx sharoitlarini ta`minlashi lozim, bu esa warrantning birinchi egalari uchun qimmatli qog'ozlarni sotib olish xuquqini beradi. Varrantning egalari uchun qimmatli qog'ozlarni joylashtirish narxi boshqa investorlar, ya`ni warrantning ishtiroqchilari bo'lmaganlardan farq qilishi mumkin.

YUqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, fond bozorida optsiya, f'chers va warrant bitimlarining amalga oshirilishi ushbu bozor ishtirokchilariga qo'shimcha daromad topish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston fond bozorining Yosh bo'lishiga qaramay unda optsiyalar va f'yucherslar bo'yicha bitimlarni amalga oshirish qonundan ko'zda tutilgan hamda bunday bitimlar amalga oshirilib turibdi. Ushbu omil mamlakatimiz milliy fond bozori rivojlangan xorijiy davlatlarning fond bozorlari darajasiga etish uchun intilishdan dalolat beradi.

6.3. Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati va uning tarkibiy tuzilmasi

Har qanday iqtisodiyotda bo'lganidek, ba`zi tarmoqlarda ma`lum davr mobaynida pul mablag'larini etishmasligi, boshqa tarmoqlarda esa pul mablag'lari vaqtincha bo'sh turib qolishi mumkin. SHu bilan birga, pul mablag'lari etishmasligidan qiynalayotgan soha muayyan davrdan so'ng ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lib qolishi mumkin va aksincha. SHu bois ortiqcha pul mablag'lari egalarini shu pulga muhtoj bo'lib turganlarga uchrashtirib qo'yishga imkoniyat yaratadigan mexanizm bo'lishi kerak.

Vaqtincha ortiqcha pul mablag'lari egalari (yuridik va jismoniy shaxslar) va shu pul mablag'larining iste'molchilari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan maxsus bozor, ya'ni moliya bozorida uchrashadilar. Bu bozor juda murakkab tuzilishga va yuqori- past pog'onalarga ega bo'lgan maxsus bozor bo'lib, unda juda katta miqdordagi pul mablag'lari bir vaqtning o'zida turli Yo'nalishlarda aylanib turadi va bu jaraYon harakatlari iqtisodiYotning mikrodarajadan tortib, makrodarajagacha bo'lgan holatiga ta'sir ko'rsatadi.

IqtisodiYotni bozor munosabatlariga o'tishi natijasida moliya bozori sifatdan yangi ma'noga ega bo'ladi. Vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb etishda, hamda ulardan foydalanishda moliya bozorining ahamiyati beqiYos katta bo'ladi. Moliya bozorining asosiy tarkibiy qismiga quyidagi bozorlar kirishi mumkin:

1. Tijorat banklarining kapitallarining bozori;
2. Qimmatli qog'ozlar bozori;
3. Valyuta bozori;
4. Sug'urta va investitsiya fondlari bozori.

Tijorat banklari kapitallarining bozori, valyuta bozori va sug'urta hamda investitsiya fondlari bozorlarini alohida o'rganuvchi fanlar mavjud. Biz asosiy e'tiborni nisbatan Yosh hamda nozik xususiyatlarga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozoriga qaratamiz.

Moliya bozorini o'rganishda uni turli tomondan, ya'ni institutsional jihatdan Yoki bozor qatnashchilari tomonidan, emitentlar va investorlar, investitsiya institutlari, moliya dastaklarini turlari nuqtai nazaridan boshlash bizning fikrimizcha, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moliya bozorining asosiy tarkibiy qismi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozorining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu bozorda tovar boshqa bozorlardagiga nisbatan o'ziga xosdir. Bu tovar turli shakldagi qimmatli qog'ozlardir.

Qimmatli qog'ozlar- bozori bu yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarish , uning aylanishi hamda ularni to'lab berilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Qimmatli qog'ozlar bozorining eng muhim tomonlaridan biri shuki , u yuqori daromad keltiradigan iqtisodiyotning faolligi bilan shakllanib boradi va qimmatli qog'ozlar bozori sarmoyalari ning safarbar etilishini rag'batlantirib, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlanishini, taqsimlaganda ham rivojlanib borayotgan istiqbolli tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlanishini ta'minlaydi. Rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori ishlab chiqarish taraqqiyotini rag'batlantiradigan kuchli manba bo'lib hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori har bir mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy qismidir. Qimmatli qog'ozlar bozori asosini tovarlar bozori, pul va pul kapitali tashkil qiladi. Bular birinchisini asosi bo'lsa, qimmatli qog'ozlar bozori ularning hosilasi hisoblanadi.

Halqaro amaliyotda qimmatli qog'ozlar bozorini quyidagicha tavsiflanadi:

1. Halqaro va mintaqaviy qimmatli qog'ozlar bozori;
2. Milliy va hududiy qimmatli qog'ozlar bozori;
3. Qimmatli qog'ozlarning aniq shaklidagi bozori;
4. Davlat va korporativ (nodavlat) qimmatli qog'ozlar bozori;
5. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi va hosilaviy bozori.

Qimmatli qog'ozlar bozorining bunday tavsiflanishi qimmatli qog'ozlarning amaliy ahamiyatidan kelib chiqadi. Halqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga dunyoning ko'p mamlakatlari rasman tan olgan fond birjalari (N'yuyork, London, Frankfurt, Tsyurix, Tokio) kiradi. Mintaqaviy qimmatli qog'ozlar bozoriga dunyoning ma'lum mintaqalari (Lotin Amerikasi, SHarqiy Osiyo, Markaziy Osiyo) uchun shakllangan bozorlar kiradi. Milliy bozor esa aniq bir mamlakatda shakllangan va faoliyat ko'rsatayotgan bozor hisoblanadi.

Hududiy bozor esa aniq bir mamlakatning milliy qimmatli qog'ozlar bozorining ma'lum hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan bozorini tashkil etadi va h.k.

Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar va emitentlar o'rtasidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'lari harakati, uning miqdori juda ko'p omillarga bog'liq. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Qimmatli qog'ozlar bozorining daromadlilik darajasi;
2. Qimmatli qog'ozlar bozorining soliqqa tortilish darajasi;
3. Qimmatli qog'ozlar bozorida kapital va u keltiradigan foydani Yo'qotilish xatari darajasi;
4. Qimmatli qog'ozlar bozorida sarmoyadorlar haq-xuquqlarini himoya qilish darajasi;
5. Qimmatli qog'ozlar bozori to'liq, aniq va oshkora ma'lumotlarning mavjudlik darajasi va boshqalar.

Bu ta'kidlab o'tilgan omillar qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishiga Yoki aksincha, uning inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

Har qanday bozor singari qimmatli qog'ozlar bozorining ham bajaradigan vazifalari mavjud. Biz bu vazifalarni asosan ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruhni umumbozor ya'ni har bir bozorga tegishli vazifalar tashkil etsa, ikkinchi guruhni faqat qimmatli qog'ozlarga taaluqli bo'lgan vazifalar tashkil etadi.

Umumbozor Yoki an'anaviy bozor vazifalariga quyidagilar kiradi:

-tijorat vazifasi, ya'ni bozorda faoliyat ko'rsatishdan asosiy maqsad ma'lum miqdorda foyda topish hisoblanadi;

-ma'lumotlar etkazish vazifasi, ya'ni bozor o'z ishtirokchilariga tovarlar harakati, ularning hajmi va ular bo'yicha shakllanayotgan narx- navo to'g'risida ma'lumot etkazib turadi;

-tashkil etish vazifasi, ya'ni bozor o'z ishtirokchilariga savdo- sotiqni olib borish uchun maxsus joylarni tashkil etadi;

-tartibga solib turish vazifasi, ya`ni har bir bozor o`z ishtirokchilari uchun savdoni tashkil etish tartib- qoidalari, muddati, nizolarni hal etish shartlari, nazorat qilish va boshqaruvni amalga oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining an`anaviy vazifalaridan tashqari faqatgina o`ziga xos bo`lgan vazifalari ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- mamlakat aholisining, korxonalarining va davlatning vaqtincha bo`sh pul mablag`larining jamlanishi ta`minlanadi. Buning natijasida kapital istemolchilari kerakli miqdordagi pul mablag`larini oladi va sarmoyadorlar o`z mablag`larini saqlash hamda ularni ko`paytirish imkoniyatiga ega bo`ladi;

- qimmatli qog'ozlar bozori kapitalning jamlanishi va markazlashuvi jaraYonining tezlashishini ta`minlaydi. Bozor Yordamida iqtisodiYot tarmoqlari o`rtasida kapitalning og`ib o`tishi amalga oshiriladi;

- qimmatli qog'ozlar bozori tarmoqlararo to`siqlarni olib tashlashga xizmat qiladi. IqtisodiYot tarmoqlaridagi vaqtincha bo`sh pul mablag`lari ishlab chiqarishni boshqa tarmoqlariga og`ib o`tadi. Kapitalning bu oqimi buyruq Yoki ko`rsatma asosida emas, balki aniq bir iqtisodiy manfaat munosabatlari asosida amalga oshiriladi. Vaqtincha bo`sh pul mablag`lari zamonaviy va daromad keltiruvchi ishlab chiqarish korxonalariga investittsiya qilinadi va shu asosda iqtisodiYot tarmoqlari tarkibida sifat siljishlari yuzaga keladi;

- qimmatli qog'ozlar bozori sarmoyadorlarining ya`ni mamlakat aholisining, korxonalarining va davlatning vaqtincha bo`sh pul mablag`larini jamlab, uni kapitalga aylantirib, bu kapitalning oqilona va samarali harakatini ta`minlaydi;

- qimmatli qog'ozlar bozori qimmatli qog'ozlarga bozorda shakllangan talab va taklif asosida haqiqiy bozor bahosini belgilaydi. SHuning uchun fond birjasi mamlakat iqtisodiYotining barometri hisoblanadi;

- qimmatli qog'ozlar bozori aniq bir kapitalni (bank, savdo, sanoat) harakatini faollashuviga imkoniyat yaratadi. Buning natijasida iqtisodiYotda u Yoki bu muammolarni hal etish imkoniyati paydo bo`ladi;

- qimmatli qog'ozlar bozori Yordamida davlat byudjeti taqchilligi (defitsit) qoplanadi. SHuni ta'kidlash lozimki, bu jaraYonda muomalaga qo'shimcha pul massasi emissiya qilinmaydi va shu asosida mamlakatda inflyatsiyani tartibga solib turish imkoniyati tug'ildi;

- qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantiradi. Ulushli qimmatli qog'oz (aktsiyalar) xarid etib olgan aktsiyador korxonaning mulkdoriga aylanadi. SHu asosda aktsiyadorlar korxonaning samarador ishlashidan manfaatdor bo'ladi, chunki korxonaning daromad topishi aktsiyadorga dividend keltiradi. SHuning uchun aktsiyadorlar korxonalarning boshqaruvida faol ishtirok etadilar.

Qimmatli qog'ozlar bozorining qanchalik rivojlanlanganligi va samaradorligi u bajaradigan vazifalarni amalga oshirishi bilan uzviy bog'liqdir.

Qimmatli qog'ozlar bozori juda murakkab hamda nozik tuzilmadir. Ushbu bozorda u Yoki bu turdagi qimmatli qog'oz bilan savdo qilish, savdoni tashkil qilish , uni olib borish va hisob- kitoblarni amalga oshirish asosida qimmatli qog'ozlar bozorining quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

1. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozori;
2. Qimmatli qog'ozlarning uyushgan va uyushmagan bozori;
3. Qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozori;
4. Qimmatli qog'ozlarning an'anaviy va komp'yuterlashtirilgan bozori;
5. Qimmatli qog'ozlarning muddatli va kassa bozori.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori – bu qimmatli qog'ozlarning birlamchi emissiyasi va uning birinchi egalari o'rtasida joylashtirish jaraYonidagi bozordir. Bu bozor uchun ma'lum tartib-qoidalar belgilangan. Emitent birlamchi emissiyada chiqarilgan barcha qimmatli qog'ozlarni birlamchi investorlar o'rtasida to'liq joylashtirishi shart. O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka ko'ra birlamchi emissiyaning birlamchi investorlar tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mehnat jamoasi ulushi;

2. Davlat ulushi;
3. Horijiy sarmoyadorlar ulushi;
4. Erkin savdo ulushi.

Biz yuqorida ta`kidlab o'tgan investorlarning birlamchi emissiyadagi egallagan salmog'i xo'jalik sub`ektining iqtisodiyotda egallagan o'rni hamda ahamiyatiga bog'liqdir.

Agarda emitent muomalaga chiqarilgan aktsiyalarni to'liq joylashtira olmasa, u bu aktsiyalar risolasini (prospektini) bekor qilishi lozim. Masalan, emitent muomalaga yuz dona aktsiya chiqardi deylik. Belgilangan muddatda u to'qson dona aktsiyani joylashtirdi. +olgan o'n dona aktsiyani joylashtira olmadi. Demak emitent bu birinchi aktsiya risolasini bekor qilishi va muomalaga ikkinchi to'qson dona aktsiyani o'z ichiga olgan risolasini amalga oshirishi shart.

SHuni ta`kidlash lozimki, birlamchi bozorda to'liq joylashtirilgan aktsiyalargina ikkilamchi bozorda savdoga qo'yiladi. Ustav kapitalini oshirish maqsadida ikkinchi Yoki uchinchi emissiya risolasini amalga oshirish qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozoriga kiradi.

Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori- bu avval muomalaga chiqarilgan va hech bo'lmaganda bir marta olib sotilgan qimmatli qog'ozlar bozoridir. Ushbu bozorlarda qimmatli qog'ozlarlar oldi-sotdisi natijasida qimmatli qog'ozlar amal qilish muddati bo'yicha o'z egasini o'zgartiradi, ya`ni erkin ravishda qo'ldan-qo'lga o'tadi. Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorining asosiy xususiyati uning likvidligidir. Bu bozorda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan haqqoniy talab va taklif asosida baho belgilanadi. Qimmatli qog'ozlar bu asosda o'z nominal qiymatidan bir necha marta yuqori narxda sotilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlari o'rtasidagi nisbat bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanganligi va fond bozori samaradorlik darajasiga bog'liqdir.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori –bu qimmatli qog'ozlar bilan savdolarni savdo ishtirokchilari va uni tashkil etuvchi uchun o'rnatilgan qat'iy tartib-qoidalar bilan amalga oshirilishidir. Bu bozorda qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi bitimlari ma'lum, aniq joyda, belgilangan muddatda va uning malakali ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan bozori-bu qimmatli qog'ozlar bilan savdolarni savdo ishtirokchilari o'rtasida qat'iy belgilangan tartib-qoidalarsiz amalga oshirilishidir. Bu bozor ma'lum belgilangan joyda, ma'lum muddatda oldi-sotdini amalga oshirmaydi. Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan bozorida sotuvchi va xaridor oldi-sotdisi fond birjasidan tashqarida o'zaro olib boriladi.

Qimmatli qog'ozlarning birja bozori – bu fond birjasida o'zi o'rnatgan tartib-qoidalar asosida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish bozoridir. Birja bozori o'ziga xos investitsiya institutlari tomonidan tashkil etilgan bozor bo'lib, unda qimmatli qog'ozlar bilan savdo bitimlari bu bozorning malakali ishtirokchilari tomonidan qat'iy o'rnatilgan tartib- qoidalar asosida olib boriladi. SHuni ta'kidlash lozimki, birja bozorida o'zi tomonidan qo'yilgan talablarga javob beradigan likvid va ishonchli qimmatli qog'ozlar savdoga qo'yiladi. Birja bozorining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq aniq vaqtda va belgilangan joyda amalga oshiriladi;

-qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq belgilangan aniq ishtirokchilar, ya'ni fond bozorining malakali mutaxassislari tomonidan olib boriladi;

-qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq tartib-qoidalarining qat'iy belgilanganligi va bozor ishtirokchilarining unga amal qilishligi;

-qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiqni tashkil etilishining bunday faoliyatini vakolatli davlat organi tomonidan maxsus litsenziyaga ega bo'lgan muassasa olib borishligi.

Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlarning birja bozori "Toshkent" Respublika fond birjasi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlar markazlaridagi bo'limlaridan iborat.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozori- bu qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq fond birjasidan tashqarida olib boriladigan bozordir. Birjadan tashqari bozor tashkil etilishiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- uyushgan birjadan tashqari bozor;
- uyushmagan birjadan tashqari bozor;

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan birjadan tashqari bozori deganda uning tashkilotchilar tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalar va savdoga qo'yish shartlari asosida tuzilgan maxsus komp'yuter tizimi tushuniladi. Bu bozorda asosan o'rta va kichik emitentlarning qimmatli qog'ozlari savdoga qo'yiladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda uyushgan birjadan tashqari bozorning o'z tizimi shakllangan. AQSHda bu bozorni NASDAQ- National Association of Securities Dealers Automated Security, Kanadada COATC-Canadian Over-the-counter Automated, Singapurda SESDAQ-Singapore Stock Exchange And Automated Quotation System (sistema avtomaticheskoy kotirovki i dilinga pri Singapurskoy fondovoy birji) va Rossiyada RTS (Rossiyskaya trgovaya sistema) (Rossiya savdo tizimi) olib boradi. O'zbekistonda uyushgan birjadan tashqari bozorni «Elsis-Savdo» investitsiya instituti olib bormoqda. SHuni ta'kidlash lozimki, qimmatli qog'ozlarning uyushgan birjadan tashqari bozori zamonaviy komp'yuter texnologiyasi hamda yuqori kommunikatsiya vositalari asosida tashkil etilgan.

Qimmatli qog'ozlarning uyushmagan birjadan tashqari bozorida esa fond birjasida kotirovkaga javob bermagan va savdoga qo'yilmagan qimmatli qog'ozlar savdo-sotig'i amalga oshiriladi. Bu bozorda kerakli moliyaviy bazaga ega bo'lmagan emitentlarning qimmatli qog'ozlari hamda kam daromadli qimmatli qog'ozlar savdoga qo'yiladi. Bunday bozorda alohida olingan brokerlik va dilerlik firmalari faoliyat ko'rsatadi. Fond birjalari tomonidan

qimmatli qog'ozlarga qo'yiladigan talablarning qattiqligi va savdoga cheklangan miqdorda qimmatli qog'ozlarning qo'yilishi natijasida uyushmagan birjadan tashqari bozorlar tashkil topgan. Bu bozor turli mamlakatlarda turlicha, masalan Londonda «uchinchi bozor», Parijda «ikkinchi bozor», Amsterdamda «parallel bozor» deb nomlanadi. SHuni ta'kidlash lozimki, ba'zi kichik aktsiyadorlik kompaniyalari o'z qimmatli qog'ozlarini avvalo bu bozorda savdoga qo'yib, uni kotirovka qilib, ko'p hollarda rasmiy fond birjasida savdoga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Qimmatli qog'ozlarning an'anaviy bozori – bu ma'lum belgilangan joyda (birjada), o'rnatilgan tartibda qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq qilishdir. Har bir davlatda fond birjalarining an'anaviy sifatlari mavjud. Masalan, Tokio fond birjasida savdo-sotiq ovoz hamda imo-ishora asosida olib boriladi. N'yu-York fond birjasida broker va dilerlar o'zlari egallagan mavqega qarab turli rangdagi kostyum kiyadilar va xakazo.

Qimmatli qog'ozlarning komp'yuterlashtirilgan bozori bu - qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq komp'yuter tizimi orqali olib boriladi. Bu bozorning quyidagi xususiyatlari mavjud:

-qimmatli qog'ozlarni sotuvchilar va xaridorlar uchrashadigan jismoniy joyning Yo'qligi, demak, ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot mavjud emas;

-qimmatli qog'ozlar bilan savdo sotiq jaraYonini to'liq avtomatlashtirilganligi, shuning uchun ham uning ishtirokchilari qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish uchun bu tizimga talabnoma kiritish bilan cheklanadilar.

AQSHdagi komp'yuterlashtirilgan bozorda 3700 ta qimmatli qog'ozlar kotirovkasi bo'lib, bu tizimga 3300 ta malakali agentlar birlashgan.

Qimmatli qog'ozlarni kassa bozori -bu qimmatli qog'ozlar bilan savdo bitimidagi hisob-kitobni birdaniga Yoki 2-3 kun ichida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bozordir. Bu bozor xorijiy davlatlarda «kesh-bozor», «spot-bozor» deb

nomlanadi. «Toshkent» Respublika fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan savdo bitimlari bo'yicha hisob-kitoblar «kassa bozor» tamoyiliga asoslanadi.

Qimmatli qog'ozlarning muddatli bozori-bu qimmatli qog'ozlar bilan savdo bitimlaridagi hisob-kitoblar turli muddatlarda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bozordir. Bu bozorda qimmatli qog'ozlar uchun hisob-kitoblar 3 ishchi kunidan 3 oy muddatgacha amalga oshirilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarning muddatli bozori asosan, hosilaviy qimmatli qog'ozlar (options, f'yuchers) oldi-sotdisidan daromad topish uchun qo'llaniladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarini ushbu bozorda faoliyat ko'rsatish xususiyatiga asosan ikki tizimga ajratish mumkin:

- qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy infratuzilmasi;
- qimmatli qog'ozlar bozorining maxsus infratuzilmasi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy infratuzilmasi tarkibiga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda ko'maklashuvchi muassasalar kiradi. Bunday muassasalar faoliyatisiz qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini amalga oshirishi Yoki umuman mumkin emas Yoki juda qiyinchilik bilan amalga oshiriladi. Bunday muassasalarga nashriYotlar, informatsion agentliklar, gazeta va jurnallar, televizion va radiokompaniyalar, tijorat banklari, auditor tashkilotlari, notarial va advokat kontoralari hamda sug'urta kompaniyalari kiradi. Qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatish uchun bu muassasalar maxsus malaka shahodatnomalari va litsenziyaga ega bo'lishi talab etilmaydi. Bu muassasalar qimmatli qog'ozlar bozorida o'zining asosiy faoliyatini yuritishlari uchun o'zlariga tegishli vakolatli davlat organidan maxsus ruxsatnomaga ega bo'lishlari lozim. Asosiy faoliyat ko'rsatish uchun notarial va advokat kontoralari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan, auditor va sug'urta kompaniyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan, tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan, hamda nashriYotlar, gazeta va jurnallar O'zbekiston Respublikasi Davlat NashriYot Qo'mitasidan maxsus ruxsatnoma olishlari lozim. Qimmatli qog'ozlar bozorida bu

ko'maklashuvchi muassasalarning faoliyatiga ushbu bozordagi bitimlar ishtirokchilarining hisob- kitoblarini amalga oshirish, emitentlar hisobotlarini tekshirish va uni rasmiy tasdiqlash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha o'rnatilgan tartibda oldi-sotdi, almashtirish, hadya etish, rasmiylashtirish, bo'lajak sarmoyadorlarga kerakli ma'lumotlarni etkazish, fond bozoridagi faoliyatni oshkora etish va boshqalar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining maxsus infratuzilmasiga qimmatli qog'ozlar bozorida o'z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi maxsus malakali investitsiya institutlari kiradi. Bunday maxsus investitsiya institutlariga quyidagilar kiradi:

1. Investitsiya maslahatchisi;
2. Investitsiya vositachilari(broker, diler);
3. Investitsiya fondlari;
4. Investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi ;
5. Depozitariylar;
6. Transfer-agent;
7. Hisob-kliring palatasi;
8. Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Biz yuqorida sanab o'tgan investitsiya institutlari qimmatli qog'ozlar bozorida amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan va bu faoliyatni amalga oshirish uchun maxsus litsenziya olgandan so'ng ish yuritishi mumkin. O'z faoliyatida vakolatiga kirmagan operatsiyalarni amalga oshirish qonunan ta'qiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan investitsiya institutlari qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat olib borishlari uchun vakolatli davlat organlaridan maxsus litsenziyaga hamda kontingentida maxsus malaka shahodatnomalariga ega bo'lgan mutaxassislariga ega bo'lishi shart hisoblanadi.

YUqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, qimmatli qog'ozlar bozori mamlakatda bir Yo'la ikki vazifani amalga oshirmoqda. Birinchidan, u iqtisodiyotning amal qilish samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, ikkinchidan qimmatli qog'ozlar bozori Yordamida ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qator muammolar hal etilmoqda. Bu omillar esa qimmatli qog'ozlar bozorini, uning mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

6.4. Fond birjasi – bozor iqtisodiyotining eng muhim instituti sifatida.

Har qanday iqtisodiyotda ham ba'zi tarmoqlarda ma'lum vaqtlarda pul mablag'lari etishmay turgani holda, uning boshqa tarmoqlarida mablag'lar vaqtincha bo'sh turib qoladi. SHu bilan birga, mablag'larning ortiqchaligi Yoki etishmay qolib turishi ma'lum vaqt mobaynida navbatlashib borishi, ya'ni pul mablag'lari etishmasligidan qiynaladigan tarmoq muayyan vaqtdan keyin ortiqcha pul mablag'lariga ega bo'lib qolishi mumkin va aksincha. SHu boisdan ortiqcha pul mablag'lari egalarini shu mablag'larga muxtoj bo'lib turganlarga uchrashtirib qo'yishga Yordam bera oladigan mexanizm bo'lishi kerak. Ortiqcha pul mablag'larining egalari va shu mablag'larning iste'molchilari alohida xususiyatga ega bo'lgan moliya bozori, ya'ni fond birjasida uchrashadilar.

«Birja» so'zi nemischa «borge» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u «hamYon» ma'nosini anglatadi. Xalqaro amaliyotda birjaning vujudga kelishi Niderlandiyalik Bryugge shaxri bilan bog'lanadi. Bu shaxarda besh yuz yil muqaddam yirik savdogar Van der Burs uyi oldidagi maydonda turli mamlakatdan kelgan savdogarlar to'planishgan. Ushbu yig'inlarda savdogarlar o'zaro ma'lumotlar bilan almashinishgan, xorijiy veksellar oldi-sotdisi bilan shug'ullanishgan. Van der Bursning rasmiy oilaviy gerbida uch dona hamYon aks ettirilgan va xuddi shu hamYonlar birja so'zini vujudga keltirgan.

Birja bevosita bozorga olib chiqilmaydigan, hujjatlar bilan tasdiqlanadigan aniq sifat va miqdoriy xususiyatlarga ega bo'lgan hamda talab

va taklif asosida rasman belgilanadigan narxlarga ega bo'lgan muayyan tovarlar bilan savdo qilish bo'yicha muntazam ravishda amal qiluvchi bozor sifatida yuzaga keldi. Birjada oddiy tovarlar bilan emas, balki faqat alohida talablarga javob bera oladigan tovarlar bilan savdo-sotiq amalga oshiriladi, chunki tovarlar sifat jihatidan bir hil bo'lishi, miqdoriga ko'ra soni, hajmi 1 kg og'irligi bilan belgilangan bo'lishi, ushbu turkumdan istalgan boshqa tovar bilan almashtirilishi mumkin bo'lishi lozim edi. 1531 yilda Antverpenda, 1566 yilda Londonda va 1608 yilda Amsterdamda tovar birjalari tashkil etildi. Tovar birjalarining o'sishi ularning safidan alohida birjalarning ajralib chiqishiga olib keldi. Ushbu birjalarda faqat o'ziga xos xususiyatli tovar hisoblangan qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq qilindi. Xalqaro amaliyotda dastlab bunday turdagi birjalar tovar birjalarining Yordamchi bo'limlari shaklida faoliyat ko'rsatdi. Biroq, valyuta ayirboshlash operatsiyalarining kengayishi, muomalada tijorat veksellarining paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq qilishga ixtisoslashtirilgan muassasa-fond birjalarining tashkil etilishiga zamin yaratdi. Birinchi fond birjasi 1592 yilda Antverpenda birjaga taqdim etilgan qimmatli qog'ozlar narxlarining ro'yxati e'lon qilingan vaqtdan hisoblanadi. 1773 yilda Londonda, 1792 yilda N'yu-York fond birjasi tashkil etildi. Birjalarning tashkil topishi va rivojlanishining dastlabki bosqichi 200 yil davom etdi.

Halqaro amaliyotda fond birjalarining huquqiy jihatdan tashkil etilishi asosan uch guruhga ajratiladi:

- xususiy fond birjalari;
- ochiq-huquqiy fond birjalari;
- aralash mulkchiligidagi fond birjalari.

Xalqaro amaliyotda xususiy fond birjalari aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Bu jamiyatlarning aksiyadorlari bo'lib xususiy kompaniyalar hisoblanadi. Bunday mulkchilik shaklidagi fond birjalari qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini tashkil qilishda mustaqil hisoblanadilar. Birja savdolari mamlakatdagi mavjud qonunchilik asosida tashkil etiladi va olib

boriladi. Amaldagi qonunchilikni buzganlik uchun ko'zda tutilgan huquqiy majburiyat asosida javobgarlikka tortiladi. Xususiy fond birjalari faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda davlat organlari tomonidan o'z zimmalariga birja savdolari va savdo bitimlari bo'yicha qat'isliklar yuzasidan hech qanday majburiyatlarni olmaydilar. Birjalarning bunday shakllari AQSH dagi fond birjalari, ya'ni N'yu-York fond birjasi (New York Stock Exchange) va Buyuk Britaniyada London fond birjasi (London Stock Exchange) shakllangan va ular o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Xalqaro amaliyotda ochiq-huquqiy fond birjalari o'z faoliyatini davlat tashkiloti maqomida olib boradilar va ular doimiy ravishda davlatning vakolatli organlari tomonidan nazorat etib boriladi. Bunday birjalar faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda davlatning vakolatli organlari qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq qilish tartibini ishlab chiqishda ishtirok etadi, bu tartibning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qilib boradi, fond birjasi faoliyat ko'rsatish uchun birja maklerlarini tayinlaydi, ularni ishdan chetlaydi va boshqalar. Fond birjalarining bunday shakllari Germaniyadagi Frankfurt fond birjasi (Frankfurter Wertpapier bourse), Nemis muddatli shartnomalar birjasi (Deutsche Termin bourse) va Frantsiyadagi Parij fond birjasi (Paris Bourse) shakllangan va o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

Aralash mulkchiligidagi fond birjalari aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi, lekin ustav kapitalining 50 foizidan kam bo'lmagan ulushi davlatga tegishli bo'ladi, qolgan qismi esa yuridik hamda jismoniy shaxslarga tegishli bo'ladi. Fond birjalarining bunday shakllari SHveytsariyadagi TShurix fond birjasi (Zurich Stock Exchange), Italiyadagi Milan fond birjasi (Borsa Valori di Milano), Avstriyadagi, SHvetsiyadagi fond birjalari shakllangan va ular o'z faoliyatini olib bormoqdalar. Fond birjalari iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mustaqil davlatlarda ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur mamlakatlarda fond birjalari iqtisodiyotni hususiy lashtirish va korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Aynan fond birjasi savdo maydonlarida xususiylashtirilgan davlat korxonalari negizida tashkil etilgan kompaniyalar aksiyalarining birlamchi sotilishi amalga oshiriladi. Birja brokerlari korxonani butun xususiylashtirish jaraYoni davomida kuzatgan holda aksiyalashtirish bo'yicha operatorlar vazifasini o'z zimmasiga oladi. Ushbu mamlakatlardagi aksiyalarning birja bozori, odatda, birlamchi bozor bo'lib u xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarning narxlarini belgilab beradi. SHuni ta'kidlash lozimki, o'zlarining fond birjalarini barpo etishni boshlaYotgan mamlakatlarda, odatda, dastlabki vaqtlarda aksiyalar katta qismining sotilishi tasodifiy xususiyatga ega, ya'ni bir hafta Yoki bir oy mobaynida bir aksiyalarning o'zi bo'yicha bitimlarning barqaror qayd etilgan miqdori kuzatilmaydi. Bu axborotga ega bo'lmaslik, bir tranzaksiyaning yuqori qiymati qimmatli qog'ozlarning yuqori likvidligi, sarmoyadorlarning iqtisodiy salohiyatining zaifligi kabi qator omillar bilan bog'liq. Mamlakatimiz fond bozori O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng 90 yillar boshlarida yuzaga chiqdi. Mamlakatimizda fond bozorini shakllantirish va uning faoliyatini tashkil etish uchun kerakli bo'lgan bilim va tajribalarning Yo'qligi sababli davlat hamda bozor ishtirokchilarini fond bozorini rivojlanishining xalqaro tajribasini chuqur o'rgangan holda va xo'jalik yuritishning yuzaga kelgan ichki o'ziga xos amaliYotining umumlashtirgan holda olib borishni talab etdi. Bunda Xalqaro Tiklanish va TaraqqiYot banki (Jahon banki), Evropa Tiklanish va TaraqqiYot banki, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi, «O'ttizlik guruhi» (o'zlarining qimmatli qog'ozlar bozorlarini tashkil etishni boshlaYotgan barcha mamlakatlarga yagona bo'lgan Yondashuvlar va qoidalarni tavsiya etuvchi xalqaro tashkilot) kabi turli yirik xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari inobatga olindi. Mazkur tavsiyalarning bajarilishini O'zbekistonga rivojlangan mamlakatlar o'zlarining fond bozorlari tizimini yaratishda Yo'l qo'ygan xatolarini takrorlamaslik imkonini beradi. Ushbu tamoyilning bosqichma-bosqich va izchil haYotga tadbiiq etilishi sezilarli natijalarga erishish imkonini berdi. Mamlakatimizda 1991 yilning bahor oylarida O'zbekiston Respublikasi

hukumatining qarori bilan mamlakatning eng yangi tarixida birinchi «Toshkent» O'zbekiston Respublikasi tovar hom-ashYo birjasi tashkil etildi. SHu yilning Yoz oylarini boshida birja savdolarining shiddat bilan o'sishi birja ustav sarmoyasining oshirilishi, uning ishtirokchilari tarkibining kengaytirilishi zaruratini keltirib chiqardi. 1991 yilning avgustida «O'zbekiston tovar hom-ashYo birjasi» ma`suliyati cheklangan jamiyat «Toshkent» O'zbekiston Respublika universal tovar-fond birjasi (qisqartirilgan nomi – «Toshkent» fond birjasi)ga aylantirildi va uning tarkibida qimmatli qog'ozlar bozorining dastlabki rasmiy tashkiloti – fond bo'limi ochildi. Ushbu fond bo'limi zimmasiga qimmatli qog'ozlarning uyushgan respublika bozorini tashkil etish (fond boyliklari bilan birja savdolarini tashkil qilish), birjaning ustav sarmoyasini shakllantirish maqsadida uning aktsiyalarini joylashtirish vazifalari yuklatildi.

1992 yilning yanvar' oyida «Toshkent» birjasining fond bo'limi O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan muntazam savdolarini o'tkazishga kirishdi. 1992 yilda «Toshkent» birjasini fond bo'limining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha aylanmasi 26,0 mln. rublni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasining dongdor fond birjalarining xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadigan darajada edi. Fond bozorining mamlakat miqiYosidagi dastlabki yirik muassasa bo'lgan fond bo'limi nafaqat dastlabki emitentlar va sarmoyadorlarning, balki O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining ham e`tiborini tortdi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi o'sha vaqt endigina fond bozoriga nisbatan o'z munosabatlarini belgilay boshlab, uni tartibga solib turishga urinib ko'rdi.

O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bilan savdo hajmlarining mumtazam ravishda o'sib borishi natijasida mamlakatimizda 1993 yil 2 sentyabrda «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 17 moddasida ilk bor fond birjasi tushunchasiga ta`rif berildi. Unga asosan «Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bilan bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta`minlash, ularning bozor

bahosini (qimmatli qog'ozlar talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir».

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq xizmatlarni amalga oshirishning ichki qoidalariga amal qiladi.

Mamlakatimizda ushbu qonunni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 aprelida «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkchiligining ximoya etishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. Bu farmonni haYotga tadbqiq qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 iyundagi «Toshkent» Respublika fond birjasining samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlash va qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qonunchilik xujjat-lariga asosan uning negizida, uning nomini, avvalgi rasmiy belgisini – bir o'rkachli tuya (matonatlilik va chidamlilik ramzi), fond birjalari faoliyat ko'rsatishining mumtoz tamoyillariga asoslangan operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga amal qilish an`analarini saqlab qolgan Yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati shaklidagi «Toshkent» Respublika fond birjasi tashkil etildi.

O'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab «Toshkent» Respublika fond birjasi tarmoq dasturiy mahsulotlarini yaratishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni jalb etish bilan birga savdolarning elektron birja tizimini barpo qilish, shuningdek, aktsiyalashtirish va aktsiyalarni xarid qilish orqali mablag'larning milliy iqtisodiYotga investitsiya qilishni tashviq qilish bo'yicha faol ishlarni boshlab yubordi.

Barcha fond birjalarida bo'lganligi kabi «Toshkent» Respublika fond birjasida ham birja savdolarida ishtirok etish uchun faqat O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus litsenziyaga ega bo'lgan birja a`zolariga ruxsat etildi. Faoliyatining dastlabki yilida «Toshkent» Respublika fond birjasi o'z qo'li ostiga 250 nafar a`zolarini, shu jumladan AQSH, Germaniya, Rossiya, Pokiston davlatlarining vakillarini birlashtirdi, ularning deyarli to'rtidan bir qismini xususiy shahslar tashkil etdi. Birja a`ziligiga kirish shartlari brokerlik joylarining sotib olinishini va muntazam a`zolik badallarining to'lanishini nazarda tutdi.

Hozirgi paytda «Toshkent» Respublika fond birjasi mamlakatimiz moliya tizimining tez rivojlanaYotgan tuzilmalaridan biri bo'lib, sarmoya bozorining fond ulushi o'zgarishlariga katta ta`sir ko'rsatdi. SHuni ta`kidlash lozimki, «Toshkent» Respublika fond birjasining faol pozitsiyasi sababli qisqa muddatda rivojlangan qimmatli qog'ozlar savdo tizimining tashkiliy-texnik, huquqiy va iqtisodiy asoslari yaratildi. Hozirda birja O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'z filiallariga ega. Biz quyidagi chizmada «Toshkent» Respublika Fond birjasining tarkibiy tuzilishini ko'rishimiz mumkin.

YUqoridagi jadval ma`lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizning barcha xududlarida «Toshkent» Respublika fond birjasining filiallari tashkil etilgan va ular o'z faoliyatini olib bormoqda.

Xalqaro amaliYotda xorijiy mamlakatlarning yirik birjalari faoliyatini integratsiya jaraYonlari kuchayib bormoqda.

Bunday jaraYonlarda birja faoliyatini rivojlantirishda yagona xalqaro savdo tizimiga ulanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. «Toshkent» Respublika fond birjasida ham jahon qimmatli qog'ozlar bozoriga integratsiya Yo`nalishida faoliyat amalga oshirilmoqda. 1995 yilda xalqaro tashkilotning qarorgohi Istambul shahrida joylashgan EvroosiYo federatsiyasiga (FEAS) qo'shildi. 1999 yilning sentyabr oyida Frankfurt fond birjasi bilan o'zaro hamkorlik va ma`lumotlar ayirboshlash yuzasidan shartnoma imzolandi. 2004 yilning 23

iyulida «Toshkent» Respublika fond birjasi va London fond birjasi o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bundan tashqari hozirgi vaqtda «Toshkent» Respublika fond birjasi va +uvayt fond birjasining +uvayt avtomatlashtirilgan savdo tizimi (Kuwait Automated Trading System) departamenti bilan o'zaro hamkorlik qilish yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda. An'anaviy fond birjasi bu uning malakali tashkilotchilari tomonidan savdoning maxsus tamoyillariga asoslangan va eng yaxshi qimmatli qog'ozlarning savdosini olib boradigan doimiy ulgurji bozordir.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli qog'ozlarning talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir.

Fond birjasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, birja ustaviga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qonun - qoidalariga amal qiladi.

Fond birjasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi va u qimmatli qog'ozlarga doir birja faoliyati yuritish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi qimmatli qog'ozlar va foiz birjalari davlat komissiyasidan litsenziya oladi. Qimmatli qog'ozlarga doir birjada faoliyat yuritish uchun litsenziya olmagan tashkilot bunday faoliyat yuritishga haqli emas.

Qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar fond birjasining muassislari bo'lishlari mumkin.

Birjada brokerlik joyini sotib olgan yuridik shaxslar, shu jumladan xorijlik yuridik shaxslar ham fond birjasining a'zolari bo'lishi mumkin. Fond

birjasi a`zolarining miqdorini boshqaruv organlari tartibga solib turadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv, prokuratura va sud organlari, ularning mansabdor shaxslari hamda mutaxassislari fond birjasi a`zolari bo'lishga haqli emaslar.

Fond birjasining a`zolari qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirish uchun ruxsatnomalarga ega bo'lgan hamda investitsiya instituti maqomini olgan taqdirdagina qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan savdolarga qo'yiladi. Birjadan rasmiy brokerlik o'rnini sotib olgan va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus malaka shaxodatnomasini (attestatini) olgan jismoniy shaxs uni davlat hokimiyati mahalliy organlarida ro'yxatdan o'tkazganidan va bankda hisob-kitob raqamini ochganidan keyingina qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdiga qo'yilishi mumkin edi. O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 22 sentyabrida qabul qilingan «tadbirkorlik sub`ektlarining faoliyati tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunga asosan jismoniy shaxslarning brokerlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlandi.

Amaldagi qonunchilikka asosan qimmatli qog'ozlar bozorining malakali mutaxassislari qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi malaka shahodatnomasiga ega bo'lishi shart. Malaka shahodatnomasining muomalada amal qilish muddati – uch yil qilib belgilangan.

«Toshkent» Respublika fond birjasida 70 ga yaqin brokerlik idoralari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ular respublikaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarida joylashgan. Birjada haftada besh kun soat 10.00 dan 13.00 gacha va 15.00 dan 15.30 gacha quyidagi sho`balar bo'yicha savdolar o'tkaziladi: listing, listing-oldi, listingdan tashqari va xususiy lashtirila Yotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori va erkin muomaladagi valyutada (SKV) chet el sarmoyadorlariga sotiladigan savdo maydonchalari faoliyat ko'rsatadi.

«Toshkent» Respublika fond birjasida savdolar anʻanaviy «kim oshdi» texnologiyasi boʻyicha oʻtkaziladi va bu eng maqbul usul hisoblanadi. 2000 yildan boshlab birjada sifat jihatidan yangi elektron savdo tizimi tadbiiq qilingan.

«Toshkent» Respublika fond birjasida listing tartibi joriy etilgan. Unga asosan likvid va ishonchliroq, yaʻni moliyaviy tomondan mustahkam aktsiyadorlik jamiyatlari oʻz aktsiyalari bilan maxsus, obroʻga ega listing maydonchasida savdo qilish huquqiga ega boʻladilar.

«Toshkent» Respublika fond birjasida eamonaviy yangi texnika va texnologiyalarni tadbiiq etish dasturi bosqichma-bosqich amalga oshirilmogda. Internat tarmogʻida «www.uzse.com» adres boʻyicha birja rasman oʻz saytini ishga tushirdi. Ushbu saytning qoʻllanilishi bilan umumjahon kompʻyuter tarmogʻi orqali birjada savdogo qoʻyilgan aktsiyalarni dunYodagi barcha boʻlajak sarmoyadorlarga taklif qilish imkoniyati vujudga keldi. Xorijiy sarmoyadorlar esa bu aktsiyalar bilan haqqoniy muddat sharoitida tanishib «videolisting» uslubi orqali korxonalarini va ulardagi mavjud ishlab chiqarish jaraYonini oʻz koʻzi bilan koʻrish imkoniyatiga ega boʻldilar.

«Toshkent» Respublika fond birjasi qimmatli qogʻozlar bilan savdoni tashkil etish, uni olib borish uchun quyidagi huquqlarga ega:

- investitsiya institutlarining birja aʻziligiga kirishida ularga qoʻyiladigan eng kam majburiy talablarni belgilash;

- birja oldi-sotdilarida birja aʻzolari vakillarining malakasiga qoʻyiladigan talablarni belgilash;

- birja yigʻilishlarini chaqirish va uni oʻtkazish;

- ekspert, malaka va baholash komissiyalari, maslahat va maʼlumotnoma beruvchi shoʻbalar hamda ularning ishlashi uchun kerakli boshqa muassasalar, shuningdek, qimmatli qogʻozlar muomalasini amalga oshirishdagi nizolarni hal qiladigan komissiyalarni taʼsis etish;

- birja oʻz ustaviga muvofiq birja aʻzolari toʻlaydigan kirish va joriy badallarni belgilab, undirib olish, bitimlarni roʻyxatga olganlik, texnik xizmat

ko'rsatganlik uchun, doimiy va bir galgi mijozlardan birjadagi savdoda qatnashganlik uchun haq belgilash, undirib olish, shuningdek birja ustavini, birja yig'ilishlari qoidalarini buzganlik, ro'yxatdan o'tkazish yig'imini vaqtida to'lamaganlik uchun jarima va penyalar undirib olish;

- birja bukletlari, ma'lumotnomalari va to'plamlarini chop etish;
- nazorat qiluvchi organlarning qonunga xilof xatti-xarakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haqlidir.

«Toshkent» Respublika fond birjasi qimmatli qog'ozlarga doir birja amallari qoidalarini mustaqil ishlab chiqadi va birjaning yuqori boshqaruv organini tasdiqlaydi.

Birja amallari qoidalarida quyidagi tartib-qoidalar nazarda tutilmog'i lozim:

- mazkur birjada qimmatli qog'ozlar savdosining tamoyillari;
- birja savdosini malakali qatnashchilarining tarkibi hamda ularga qo'yiladigan talablarning majmui;
- birja yig'ilishlari o'tkaziladigan joyi va vaqti to'g'risidagi axborot;
- qimmatli qog'ozlarni birja savdosiga chiqarish tartibi;
- birja bitimlarining tasnifi;
- mijozlar brokerlarga beradigan topshiriq (buyruq)ning turlari;
- qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish;
- bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish va ularni rasmiylashtirish tartibi;
- qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirishda foydalaniladigan shartnoma, hisobot, buyurtma va xabarnomalar hamda birjaga oid boshqa hujjatlarning namunalarini chiqarish;

«Toshkent» Respublika fond birjasi Yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyati bo'lib, u o'z faoliyatini mablag' bilan o'zi ta'minlaydi. Fond birjasi faoliyatining pul ta'minoti quyidagi manbalardan iborat:

- fond birjasining aktsiyalari va paylarini sotish;
- fond birjasidagi brokerlik o'rinlarini sotish;

- fond birjasi a`zolarining muntazam to`lab boradigan a`zolik badallari;
- birja bitimlarini ro`yxatdan o`tkazishda olinadigan yig`imlar;
- qimmatli qog`ozlar muomalasi vositachilik qilishda olinadigan komission haq;

- birja ustavida nazarda tutilgan axborot hizmati va boshqa xizmatlarni ko`rsatishdan keladigan daromadlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga asosan fond birjasi faoliyati quyidagi holatlarda:

- birja muassislari umumiy yig`ilishining qaroriga binoan;
- sud organlarining qarorlari asosida;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda to`xtatiladi.

6.5. Listing va delisting jaraYonlari hamda ularga qo`yiladigan talablar

2008 yilda boshlangan va bugungi kunda ko`lami tobora kengayib va chuqurlashib boraYotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar ekan, ko`pgina xalqaro ekspert va mutaxassislar bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog`liq prognozlarida javoblardan ko`ra ko`proq savollarga duch kelishmoqda. Ushbu inqirozning kelib chiqishida fond birjalarining katta nuqsonlar sabab bo`ldi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablariga Prezidentimiz I.Karimov quyidagicha baho berib: “Ikkinchidan, avj olib boraYotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko`rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o`z korporativ manfaatlarini ko`zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog`ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliYotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan etarli darajada nazorat Yo`qligini ham tasdiqladi”²³.

²³ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.:“Ўзбекистон”. 2009. 5 б.

«Toshkent» fond birjasida amaldagi qonunchilikka asosan birja talablariga javob beradigan va birja rasmiy ro'yxatiga kiritilgan qimmatli qog'ozlar savdoga qo'yiladi. Emitentning xo'jalik-moliyaviy xolatining barqarorligi, bozorda faolligi va uni qimmatli qog'ozining likvidligiga asosan qog'ozni ma'lum toifaga kiritish jaraYoni listing jaraYoni deyiladi. Birjada qimmatli qog'ozlar listingi uchun maxsus listing komissiyasi tuzilgan. Uning tarkibi rais va kamida 4 ta a`zodan iborat bo'lib listing komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-emitentning moliyaviy xolatini ekspertiza qilish:

-qimmatli qog'ozlarni birja rasmiy ro'yxatiga kiritish imkoniyati to'g'risida xulosa chiqarish:

-qimmatli qog'ozlarni listing toifasiga ajratish va boshqalar.

Emitent o'zining qimmatli qog'ozini listingga kiritish uchun listing komissiyasiga quyidagi xujjatlarni taqdim etadi:

1. Listing jaraYoniga kiritish to'g'risida rasmiy ariza.
2. Ta`sis xujjatlari (unga kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan birga).
3. Korxonani davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qo'mitasining buyrug'i (agarda aktsiyadorlik jamiyati davlat korxonasi asosida tashkil etilgan bo'lsa).
5. Qilinadigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar, litsenziya talab etiladigan bo'lsa bu to'g'risidagi lizentsiyalar.

1. Qo'shimcha qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qabul qilingan qarordan ko'chirma.

2. Oldingi emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarning ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi emissiya risolasi.

3. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha depozitar xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning nusxasi

4. Aktsiyadorlik jamiyatining oldingi qimmatli qog'ozlar emissiyasi to'g'risidagi ma'lumotnoma
5. YAkunlangan oldingi uch moliya yili uchun Buxgalteriya balansi (1-shakl) va unga tushuntirish xati.
6. YAkunlangan oldingi uch moliya yili uchun Moliyaviy natija to'g'risidagi hisobot (2 - shakl).
7. Oxirgi yakunlangan moliya yili uchun Asosiy vositalarning xarakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl).
8. Oxirgi yakunlangan moliya yili uchun Pul oqimlari bo'yicha hisobot (4-shakl).
9. Oxirgi yakunlangan moliya yili uchun O'zlik kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl).
10. Oxirgi yakunlangan moliya yili va ariza berilgan muddat bo'yicha balansga debitorlik – kreditorlik qarzdorlik to'g'risidagi ilova (2-shakl).
11. Birja rasmiy ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi ariza berilgan muddatda oxirgi kvartal uchun Buxgalteriya balansi (1-shakl).
12. YAkunlangan oxirgi moliya yili va joriy yilning hisobot muddati uchun rasmiy auditorning xulosasi.
13. Birja rasmiy ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi ariza berilgan muddatda oxirgi kvartal uchun Moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobot (2 shakl).
14. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi natijasida jalb etilgan mablag'larning sarflanishi to'g'risidagi biznes reja Yoki texnik- iqtisodiy asosning loyixasi (agarda qo'shimcha emissiya bo'lsa).
15. Qimmatli qog'ozlarni reestr saqlovchisi to'g'risida ma'lumot.
16. Aktsiyadorlik reestri bo'yicha umumiy ma'lumot.
17. Aktsiyadorlik jamiyati boshqaruv organiga kirgan shaxslarning ro'yxati va ularni ustav kapitalidagi ulushi to'g'risida ma'lumot.
18. Yirik aktsiyadorlarning ro'yxati (ustav kapitalidagi ulushi 5 foizdan ortiq bo'lsa).

19. Davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobot.

20. YAkunlangan oxirgi moliya yili uchun vakolatli davlat organi tasdiqlagan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi yillik hisobot.

21. Taqdim etilgan xujjatlarni ekspertizadan o'tkazish xarajatlarini to'lash bo'yicha to'lov topshiriqnomasining nusxasi.

22. Emitentning moliyaviy holati to'g'risidagi boshqa xujjatlar.

Listing komissiyasi tomonidan emitentning qimmatli qog'ozini ekspertizadan o'tkazib, uni birjaning rasmiy ro'yhati va listing guruhiga kiritish to'g'risidagi xulosasidan so'ng komissiya hamda emitent o'rtasida maxsus shartnoma imzolanadi.

«Toshkent» Respublika fond birjasida qimmatli qog'ozlarni delisting jaraYonining tartibi ham mavjud. Delisting bu –emitentning qimmatli qog'ozini birja rasmiy ro'yxatiga kiritilgan toifadan vaqtincha Yoki butunlay chiqarishdir. Birjaning maxsus komissiyasi quyidagi holatlarda emitentga nisbatan delistingni qo'llaydi:

-davlatning vakolatli organini emitentning qimmatli qog'ozlari emissiyasini to'xtatish to'g'risidagi qarori asosida;

-listing shartlarida S guruhi uchun ko'zda tutilgan bironta ko'rsatkichlarning pasayishi holati asosida;

-emitentning qimmatli qog'ozlar reestrini yuritishdagi o'rnatilgan tartibni buzishi asosida, shu jumladan qimmatli qog'ozlar emissiyasini takroriy ro'yhatdan o'tkazish tartibini ham buzishi asosida;

-«Toshkent» Respublika fond birjasi va emitent bilan listing shartnomasidagi qoidalarni buzganligi asosida;

-«Toshkent» Respublika fond birjasi va emitentning listing oldi shartnomasidagi qoidalarni buzganligi asosida;

-listingdan tashqari emitentlarni fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishda o'rnatilgan barcha qoidalarni buzganligi asosida;

-birja rasmiy ro'yhatidan korxonalarining qimmatli qog'ozlar reestrini yuritish tartib- qoidalarni buzganligi asosida.

«Toshkent» Respublika fond birjasida emitentga nisbatan delisting jaraYoni uch xil shaklda qo'llanilishi mumkin:

-vaqtincha delisting:

-doimiy delisting:

-mutloq delisting.

Vaqtinchalik delisting jaraYonida emitentning qimmatli qog'ozini vaqtinchalik listingdan listingoldi toifaga o'tkazib qo'yiladi. Doimiy delisting jaraYonida emitentning qimmatli qog'ozini listingdan tashqari toifaga o'tkaziladi. Mutloq delisting jaraYonida esa emitentning qimmatli qog'ozini birjaning rasmiy ro'yhatidan chiqarib tashlanadi.

Listing komissiyasi emitentga nisbatan delisting jaraYonini qo'llashdan oldin unga rasmiy ogohlantirish beradi.

Qisqacha xulosalar

Qimmatli qog'ozlar-bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy xuquqlarni Yoki zaYom munosabatlarni tasdiqlovchi, dividend Yoki foiz ko'rinishidagi daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul xujjatlaridir.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari – daromadi (zarari) bir Yoki bir necha bozor ko'rsatgichlari (indekslari) mazmuniga bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlardir.

Qimmatli qog'ozlar- bozori bu yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarish , uning aylanishi hamda ularni to'lab berilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

«Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar bilan bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta'minlash, ularning bozor bahosini (qimmatli

qog'ozlar talab va taklifi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) belgilash va ularga doir ma'lumotlarni keragicha tarqatish, qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish faoliyatining alohida sohasi bo'lgan tashkilotdir»

Moliya bozorlari - bu, pul oqimlarini mulk egalaridan qarz oluvchilarga qarata Yo'naltira oladigan bozor institutlarining yig'indisidir.

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy vositachilar sifatida maydonga odatda brokerlar va dilerlar chiqadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining u Yoki bu shaklda tasniflanishining ma'zmunini uning amaliy ahamiyati bilan belgilanadi.

Qimmatli qog'oz - bu, kapitalni mavjud bo'lish shakli bo'lib, u kapitalni tovar, ishlab chiqarish va pul shakllaridan farq qilib, uning evaziga (kapitalni) berilishi, bozorda tovar sifatida muomalada bo'lishi va daromad keltirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra fond birjasi - bu qimmatli qog'ozlar bir maromda muomalada bo'lishining zarur shart-sharoitini ta'minlash.

Tayanch so'zlar

Qimmatli qog'ozlar, likvidlik, foydalilik, ishonchlilik darajasi, risk, aktsiya, obligatsiya, depozit sertifikatlari, depozit jamg'arma sertifikatlari, hazina majburiyatlari, veksel', opsiyon, sotib olish uchun opsiyon, f'yuchers, muddat, warrant, qimmatli qog'ozlar bozori, halqaro va mintaqaviy qimmatli qog'ozlar bozori, milliy va hududiy qimmatli qog'ozlar bozori, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar bozori, qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy infratuzilmasi, qimmatli qog'ozlar bozorining maxsus infratuzilmasi, birja, fond birjasi, brokerlar, dilerlar,

Nazorat uchun savollar

-
1. Qimmatli qog'ozlarning qanday turlari mavjud?

2. Qimmatli qog'ozlarning qanday xususiyatlari mavjud?
3. Qimmatli qog'ozlar hosilalarining mohiyati nima?
4. Qimmatli qog'ozlar hosilalarining turlarini Yoriting.
5. Optsionning mohiyati nimalardan iborat?
6. Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati nima?
7. Qimmatli qog'ozlar bozorining vazifalari nimalardan iborat?
8. Fond birjasining mohiyati nima?
9. Fond birjasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Qimmatli qog'ozlar listingi nima?

Tavsiya etiladigan adabiYot

1. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi Qonuni. T.: «O'zbekiston» 2008.
- 2 Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
3. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
4. Butikov I.L. «Qimmatli qog'ozlar bozori» T.: «Konsauditinform» 2001.
5. Galanov V.A., Basov A. I. «Ro'nok tsenno'x bumag». M; «Finansi i statistika», 2006.
6. Kilyachkov A.A., CHaldaeva L.A. «Ro'nok tsenno'x bumag» M.: «Ekonomist`». 2005.
7. Rashidov O.YU. va boshialar. Pul, kredit va banklar. –T.: “Max-PRINT”. 2008. 454 b.

VII BOB. INFLYATSIYA

7.1. Inflyatsiyaning mohiyati va uning yuzaga chiqish shakllari

Inflyatsiya XVIII asrning o'rtalarida muomalaga ta'minlanmagan juda ko'p miqdorda pul chiqarishi natijasida pul tizimidagi inqiroz holat asosida yuzaga chiqqan. Inflyatsiya (lotincha «inflation» so'zidan olingan va shishish, ko'pchish, ko'tarilish ma'nosini anglatadi) o'z mohiyatiga asosan pulning qadrsizlanishi, tovar va xizmatlarga bo'lgan baholarning muntazam ravishda oshib borishi jaraYonini anglatadi. SHuni ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlar tajribasi inflyatsiya nisbatan me'Yor darajasidagi pul massasi holatida ham yuzaga chiqishi mumkin.

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarni muntazam o'sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jaraYonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi. Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg'arma va iste'mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Xalqaro amaliYotda iqtisodchi olimlar inflyatsiyaning yuzaga chiqadigan omillar asosan ikki guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratadilar. Biz ushbu omillarning mohiyatini Yoritishga xarakat qilamiz.

1. Ichki omillarni mohiyatiga asosan pullik (monetar) va pulsiz omillarga ajratish mumkin. Pullik omillarga davlat moliyasining inqirozi, byudjetning taqchilligini mavjudligi, davlat qarzdorligini ortishi, pul emissiyasi, kredit dastklarining aylanishini ko'payishi, pul aylanmasining tezligi va boshqalar kiradi. Pulsiz omillarga milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi


nomutanosiblik, tarmoqlar iqtisodiy rivojlanishdagi bir maromsiz daraja, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida monopoliyaning (oligopoliya) mavjudligi, narx shakllantirishdagi davlat monopoliyasi, markaziy bankning kredit ekspansiya va boshqa omillarni kiritish mumkin;


2. Tashqi omillar o'z mohiyatiga asosan biron aniq davlat rivojlanishiga ta'sir etadigan dunYoda amalga oshaYotgan jaraYonlarni aks etadi. Ushbu omillarga dune mamlakatlarda yuzaga chiqadigan soha inqirozlari hisoblanadigan xom-ashYo, energetika, neft', valyuta inqirozlarni kiritish mumkin. Ushbu omillardan tashqarii biron-bir davlatning boshqa davlatlarga nisbatan olib boradigan davlat miqiYosidagi valyuta siYosatini, yashirin holatda valyuta, oltinni eksportini amalga oshirilishini ham kiritish mumkin.

Biz quyidagi chizmada inflyatsiyani yuzaga chiqish shakllarini tahlil etamiz. Ushbu chizma tahlilidan ko'rinib turibdiki, inflyatsiya asosan uch Yo'nalishda yuzaga chiqadi. Birinchi Yo'nalishda maxsulotlar, ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narxlarni asossiz ravishda o'sib ketishi tufayli pul qadsizlana boshlaydi. Buning natijasida milliy valyutaning xarid qilish qobiliyati tushib ketadi. Ikkinchi Yo'nalishda, xorijiy valyutalarga nisbatan milliy valyutanign kursi pasayib ketadi. Buning natijasida xo'jalik yurituvchi sub`ektlar va mamlakat aholisi erkin muomaladagi xorijiy valyutalari (AQSH dollari, evro, shveytsariya franki va boshqalarni) jamg'ara boshlaydi. Uchinchi Yo'nalishda oltinga bo'lgan milliy pul birligida ifodalangan narx ko'tarilib ketadi. Buning natijasida mamlakat aholisi o'rtasida oltinning to'planib qolishi, ya`ni tezavratsiya amalga oshadi.

1 chizma

Inflyatsiyaning yuzaga chiqish shakllari.





CHizma muallif tomonidan tayyorlandi.

7.2. Inflyatsiyaning shakllari va turlari

Xalqaro amaliyotda inflyatsiyaning narxlarini o'sishi, ya'ni pullarning miqdori o'sishi jihatidan asosan uch shaklini ajratiladi:

1. Sokin (polzuchaya, umerennaya) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 3% dan 10% gacha oshishi mumkin. Bu mamlakatlarda muomaladagi pul massasi saqlanib turadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati saqlanib turadi.

2. SHiddatli (galopiruyuhaya) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya iqtisodiy rivojlanaYotgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ushbu holatda mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga o'rtacha 10% dan 100% gacha ba`zi holatlarda 200% gacha oshishi mumkin.

Buning natijasida muomaladagi pul massasi ko'payadi va milliy pul birligining xarid qilish qobiliyati tushadi. Mamlakat aholisi o'rtasida pulning moddiylashtirish, ya'ni milliy pul birligini jamg'arishi emas, balki oltin, ko'chmas mulk holatida jamg'arishi jaraYoni kuchayadi.

3. Jilovlanmagan (giperinflyatsiya) inflyatsiya. Ushbu inflyatsiya holatida mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolar yiliga 1000% dan ortiq Yoki oyiga 100% dan ortiq darajada oshadi. Ushbu holatda milliy iqtisodiyotda inqiroz yuzaga chiqadi. Buning natijasida ishlab chiqarish va bozor boshqaruvsiz faoliyat ko'rsataditi, narx-navo va ish haqi o'rtasidagi farq ortadi. Mamlakat aholisi qo'lidagi qog'oz pullarga tovarlar sotib oladi. Bu holat esa muomalada tovar massasi bilan tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmagn ortiqcha qog'oz pullarni to'lib-toshishiga olib keladi.

YUqorida ta'kidlab o'tganimizdek, inflyatsiyaning asosiy sababi odatda bir emas, balki bir nechta bo'lib o'zaro mahkam bog'langan bo'ladi va narx-navoning ko'tarilib borishi bilangina namoyon bo'lib qolmaydi, balki narx-navoni boshqarilishiga ham bog'liq bo'ladi. Ushbu jixatdan quyidagi inflyatsiya shakllari ajratiladi:

1. Oshkora inflyatsiya. Talab tomoniga qaragan makroiqtisodiy tengsizlik doimiy ravishda narx-navoning ko'tarilib borishi bilan ifodalanadigan bo'lsa, bunday inflyatsiya oshkora inflyatsiya deb ataladi. Oshkora inflyatsiya bozor mexanizmini buzmaydi: narx-navo ba'zi bozorlarda ko'tarilishi bilan bir vaqtda boshqa bozorlarda pasayib borishi mumkin. Buning asosiy sababi shundan iboratki, bozor mexanizmlari o'z ta'sirini davom ettirib, milliy iqtisodiyotga baholar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkora etkazib turadi, investitsiyalarni ilgari surib, ishlab chiqarishning kengayishi bilan taklifni rag'batlantirib boradi.

2. YAshirin inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turi shunday ko'rinishda bo'ladiki, bunday holatda ba'zi bir iste'mol mahsulotlariga narx-navo ma'muriy tarzda davlat tomonidan o'rnatiladi va tartibga solib turiladi. Bundan asosiy maqsad, davlat tomonidan ba'zi mahsulotlarga narx-navoni «ijtimoiy past»

darajada belgilaydi. Yashirin inflyatsiya sharoitida narx-navoning keskin o'sishi kuzatilmasligi mumkin. Lekin milliy pul birligining qadrsizlanishi, mahsulotlar aholi pul mablag'lariga kerakli mahsulotlarni harid qilib bo'lmasligi holatlari paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotda yashirin inflyatsiya yuzaga chiqqanda mahsulotlarning narx-navosi hamda aholini daromadlarini o'sishi vaqtincha to'xtatiladi. Yashirin inflyatsiyani vujudga kelishini asosiy sabablaridan biri bu narxlar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatishdir. Buning natijasida bozor mexanizmi deformatsiyalanadi. Uning qaysi darajada va o'zgarganligi darajasi va davomiyligi davlat tomonidan olib boriladigan siyosatga hamda tartibga solish shakliga bevosita bog'liq bo'ladi. Ushbu inflyatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki, inflyatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi.

Xorijiy va milliy iqtisodiy nazariyaning qarashlariga asosan milliy iqtisodiyotning balansini buzilishi va uning oqibatida inflyatsiyaning yuzaga chiqishining quyidagi o'rtta omillari mavjud:

- qog'oz pullarning emissiya qilishda va tashqi savdoda davlatning mutloq monopoliyasi;
- hozirgi zamon davlat funktsiyalarini bajarish uchun davlat xarajatlarini ortishi;
- kasaba uyushmalari tomonidan byudjet muassasalari ishchi-xodimlarining ish haqlarini oshirish bo'yicha faoliyati;
- iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish sohasida ayrim xo'jalik sub'ektlarining monopoliya (oligopoliya) holatining mavjudligi.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan omillar nafaqat o'zaro bog'liq, balki ular talab va takliflarning o'sishi yoki pasayishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy amaliyotda inflyatsiyaning yuzaga chiqishini usullariga asosan quyidagi turlarga ajraniladi: taklif inflyatsiyasi, talab inflyatsiyasi, xarajatlar

inflyatsiyasi, kredit inflyatsiyasi, import bilan bog'liq inflyatsiyasi, kutilayotgan inflyatsiyasi.

Taklif inflyatsiyasida ishlab chiqarish xarajatlarini oshishi natijasida mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navoning o'sishi yuzaga chiqadi. Ushbu inflyatsiya turida monopol holatdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarishda asosiy vositalarni modernizatsiya qilish bilan bir vaqtda ulardan to'liq foydalanmaslik natijasida xarajatlar ortadi. Buning natijasida barcha ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan kam chiqarilgan mahsulotlarning narx-navosini o'sishi amalga oshiriladi.

Talab inflyatsiyasi. Inflyatsiyaning ushbu turi mamlakat aholisi va xo'jalik sub`ektlarning daromadlari haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar miqdoridan tez o'sadi. Odatda, talab inflyatsiya aholining to'liq ish bilan ta'minlangan holatda yuzaga chiqadi. Aholining daromadlarinig tez sur`atda o'sishi natijasida mahsulotlarga, bajarilgan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlari bo'lgan narx-navo oshadi. Bunday holatda talabning har qanday o'sishi narx-navoning o'sishiga olib keladi.

Xarajatlar inflyatsiyasi. Inflyatsiyaning ushbu turi xom-ashYo va energetik resurslarga bo'lgan xarajatlarning o'sishi tufayli ishlab chiqariladigan mahsulotlar va bajariladigan ishlarning narx-navosini o'sishi natijasida yuzaga chiqadi. Xom-ashYo va energetik resurslarga bo'lgan dunYo narxlarini ko'tarilishi hamda xorijiy valyutaga nisbatan milliy valyuta kursini pasayishi xarajatlar inflyatsiyasining yuzaga chiqishini asosiy sabablari hisoblanadi. Xarajatlar inflyatsiyasida ma`lum bir mahsulotning narx-navosini o'sishi avtomat ravishda boshqa mahsulotlar narx-navoni o'sishiga olib keladi. Masalan, neft' mahsulotlariga bo'lgan dunya bahosinig o'sishi natijasida unga bevosita bog'liq mahsulotlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar narx-navosi o'sib ketadi. Xarajatlar inflyatsiyasi taklif inflyatsiyasiga o'xshash, lekin bu inflyatsiyada ba`zi xarajatlarning o'sishi aniq olingan mamlakat iqtisodiyotiga bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarda yuzaga chiqishi mumkin.

Kredit inflyatsiyasi. Ushbu inflyatsiya turi mamlakat markaziy, baʼzi mamlakatlarda milliy banklari tomonidan olib boriladigan kredit ekspansiyasi natijasida yuzaga chiqadi. Markaziy bank tijorat banklari uchun. Yuqori darajadagi qayta moliyalashtirish stavkasining oʻrnatilishi natijasida xoʻjalik subʼektlariga beriladigan kredit qimmatlashadi. Xoʻjalik subʼektlari olingan kredit va u boʻyicha foizlarni oʻzlari ishlab chiqaradigan mahsulot tannarxiga kiritadi hamda ushbu holat mahsulotlar narx-navosini koʻtarilishiga sabab boʻladi.

Import bilan bogʻliq inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turi aniq olingan mamlakatga tashqi omillar asosida yuzaga chiqadi. Ushbu holatda import qilinadigan mahsulotlarga boʻlgan narx-navoning koʻtarilishi natijasida baʼzi mahsulotlarga boʻlgan narx-navolar zanjir tarzida koʻtarilishi mumkin.

Kutilayotgan inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turida davlat tomonidan olib borilayotgan pul-kredit va byudjet siyosati natijasida joriy yil uchun inflyatsiyaning tahliliy darajasi belgilanadi va u daraja tartibga solib turiladi.

7.3. Inflyatsiya nazariyalari

Hozirgi vaqtda inflyatsiya tabiatini oʻrganishda iqtisodchi olimlar uning monetar sabablarini, yaʼni tovar masasiga nisbatan pul massasining xajmini oʻzgarishini asos qilib koʻrsatadilar. Inflyatsiya bilan olib boriladigan faoliyatda uning darajasini oʻlash uchun dastak lozim boʻladi. Ushbu dastak boʻlib baholar indeksi hisoblanadi. Baholar indeksi joriy umumiy isteʼmol narxlarining bazis davridan narxlarga nisbatan oʻsishi (pasayishi) bilan aniqlanadi. Ushbu indeksni aniqlashda mamlakat fuqorolarining isteʼmol savatiga kiritilgan mahsulotlar va xizmatlarning chakana narxlaridan foydalanadilar. Ushbu formula quyidagicha hisoblanadi:

$$PK_t$$

$$IPTS = \frac{\text{-----}}{\text{-----}} \times 100 \%$$

PKb

Bu erda: IPTS – iste`mol narxlarining indeksi;

PKt - iste`mol savatining joriy narxi;

Pkb - iste`mol savatining bazis narxi.

Inflyatsiya darajasining o`shishini bir bahosini o`shishi bilan aniqlash mumkin. Masalan 1 litr benzinning bazis davridagi narxi 500 so`m bo`lgan va uning joriy davrdagi narxi 585 so`mga teng. Demak, biz kuzatgan davr ichida 1 litr benzinning narxi 117 % ga ortgan.

$$1 \text{ litr benzin} = \frac{585 \text{ so`m}}{500 \text{ so`m}} \times 100 \% = 117 \%$$

Baholar indeksidan tashqari inflyatsiyani boshqarishda yalpi ichki mahsulot indeksi ko`rstakichidan foydalaniladi. YAlpi ichki mahsulot – bu ma`lum bir davr mobaynida, odatda bir yilda mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlarning umumiy miqdorining puldagi ifodasidir. YAlpi ichki mahsulot baholar indeksini umumiy darajasini o`lchash uchun deflyatordan foydalaniladi. Deflyator – bu pul ifodalangan iqtisodiy ko`rsatqiyalarni o`tgan davrdagi baholar darajasiga nisbatan taqqoslash maqsadida qo`llaniladigan koeffitsientdir. Deflyator Yordamida aniq bir muddatdagi haqiqiy ish haqi darajasini aniqlash mumkin.

Xalqaro amaliyotda inflyatsiyaning mohiyatini o`rganish va uni oqilona boshqarish bo`yicha turli nazariyalar mavjud. ulardan biri bo`lib Angliyalik taniqli iqtisodchi olim Djon Meynard Keyns yaratgan nazariya hisoblanadi. Dj.M.Keyns bozor iqtisodiyoti faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvini bilvosita dastakini ishlab chiqdi. Ushbu dastak Yordamida davlat tomonidan faol

moliya siYosati olib borish, talabni rag'batlantirish va ommaviy ishsizlikni pasaytirishni amalga oshirishi imkoniyatiga ega bo'ladi. Keynes tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy mexanizm quyidagi asosiy nizomlardan iborat:

1. mamlakat aholisining ish bilan ta'minlanganligi darajasi ishlab chiqarish xajmi bilan aniqlanadi;
2. umumiy talab taklifga to'g'ri kelmaydi, chunki ma'lum pul mablag'lari jamg'arishga sarflanadi;
3. ishlab chiqarishning xajmi oqilona talab darajasidagi tadbirkorlikka asosan aniqlanadi;
4. investitsiyalar va jamg'armalar barobarligi holatidagi investitsiya hamda jamg'arma aktlari mustaqil faoliyat ko'rsatadi.

Dj. Keynsning asosiy fikri quyidagilardan iborat: qo'shimcha pul emissiyasi aholining to'lovga qobiliyatlilik talabini oshiradi. Buning natijasida tovarlar va xizmatlarni ko'payishi uchun asos yuzaga keladi. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan xaridorlarning pullarini olish maqsadida ishlab chiqarish hajmini ko'paytiradilar va muomaladagi ortiqcha pul emissiyasi massasini mahsulotlar va xizmatlar bilan to'ldiradilar. Xalqaro amaliYotda Dj. Keynes tomonidan ilgari surilgan nazariya «tartibga solinib turiladigan inflyatsiya» nomini olgan.

O'tgan asrning 60 yillarida inflyatsiya nazariyasining yangi maktabiga asos solindi. Ushbu maktabga AQSHlik mashxur iqtisodchi, Nobel' mukofatining laureati, «CHikago iqtisodiy maktabi»ning boshlig'i Milton Fridmen asos soldi. Xalqaro amaliYotda ushbu maktab «monetarizm» deb nomlanadi. Monetarizm maktabining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) «Pullar ahamiyatga egadir», ya'ni kredit – pul sohasidagi o'zgarishlar mamlakat iqtisodiYotining umumiy holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi;
- 2) Mamlakat Markaziy banki iqtisodiYotdagi xo'jalik holatidan qat'iy nazar pul massasining barqaror o'sishini ta'minlab turishi lozim.

M. Fridmenning asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat: mamlakat ig'tisodiYotining rivojlanish darajasi davlat byudjetining holati, ishsizlik

darajasi va boshqa makroekonomik ko'rsatqichlardan qat'iy nazar davlatning pul siYosatidagi asosiy vazifasi o'rtacha 3-5 % ga oshirishi lozim. Ushbu g'oya Dj. Keynes g'oyasiga qarama-qarshidir. Dj. Keynes pul massasini o'sishidagi cheklovlar va talabni oldinga surgan bo'lsa, M. Fridmen esa taklif va pul massasining doimiy o'sishini oldinga surgan.

Monetarizm maktabi tarafdorlari inflyatsiyaga qarshi quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydilar:

- tadbirkorlikning to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirish (foydaga investitsiya qilingan qismidan soliqlarni pasaytirish);
- davlat xarajatlarini qisqartirish;
- investitsiyaga Yo'naltirilgan jamg'armalarning o'sishini rag'batlantirish (mamlakat aholisining jamg'armalarini tijorat banklariga va qimmatli qog'ozlarga joylashtirish).


O'z mohiyatiga asosan monetaristik siYosat qat'iy siYosat bo'lib, uni amalga oshirishda qattqlik va turli demogogiyaga nisbatan befarqlikni talab etadi. SHuni ta'kidlash lozimki, Dj. Keynes va M. Fridmen yaratgan nazariyalari inflyatsiya bilan oqilona kurash olib borishda mutloq to'liq javob bermaydi. Har ikkala nazariya o'zining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlarga ham egadir.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shundan dalolat bermoqdagi inflyatsiya qaysi shakl va turda yuzaga chiqmasin, u doimo ishsizlik muammosi hal etishlikni, ularning o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil etgan avstraliyalik iqtisodchi olim A. Fillips grafiklar Yordamida inflyatsiya va ishsizlik haqiqatda ular o'rtasida teskari aloqa mavjudligini isbotlaydi. Uning fikricha aniq olingan mamlakatda aholi o'rtasida ishsizlik darajasi past darajada bo'ladi. O'z vaqtida uning aksi inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan holatda, ishsizlik darajasi past bo'ladi. Biz buni quyidagi grafikda ko'rishimiz mumkin. A. Fillipsning fikricha, inflyatsiya darajasi yuqori darajadagi mamlakatlarda haqiqiy ish haqi qiymati tushib boradi. Ushbu holat aholining turli toifalari narx-navo ko'tarilishi natijida Yo'qotilgan haqiqiy ish haqini kompensatsiya qilish

maqsadida ishlashga majbur bo'ladi. Buning natijasida, mamlakat aholisi o'rtasida ishsizlik darajasining pasayishi kuzatiladi.

1- chizma

Fillips egrisi.



Ishsizlik darajasi % da

Manba: Mamedov O.YU. i dr. Sovremennaya ekonomika.-Rostov na Donu. 1998.-604 b.

7.4. Inflyatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari

Har bir mamlakatda inflyatsiya mavjudligi undagi iqtisodiy holatnig Yomonlashuviga sabab bo'ladi. Ushbu salbiy holatlar quyidagi Yo'nalishlarda yuzaga chiqadi:

1) Ishlab chiqarish xajmi qisqaradi, chunki narx-navolarning doimiy tarzda tebranib turishi ishlab chiqarishni rivojlantirishga bo'lgan istiqbollarga ishonchni Yo'qotishga olib keladi;

2) Ishlab chiqarish sohasidagi kapital savdo va vositachilik operatsiyalariga oqib o'tishi kuzatiladi. CHunki savdo va vositachilik sohalarida kapital aylanishi tez amalga oshadi va katta foyda keltiradi. Inflyatsiya yuqori bo'lgan davrda

aholi o'rtasida puldan qochish holati kuzatiladi, ya'ni kishilar qo'llaridagi pullardan imkoniyat darajasida tezroq sarflashga harakat qiladilar. Ular pullarga turli tovarlar sotib oladilar. Buning natijasida savdo va vositachilik do'konida tovarlar tez sotiladi;

3) Narx-navoning keskin va notekis o'zgarishi natijasida chayqovchilik kengayadi. Inflyatsiya natijasida tovar tanqisligi (defitsit) yuzaga chiqadi. Ushbu taqchillik narx-navoning keskin ko'tarilishiga olib keladi;

4) Davlat moliya resurslari qadrsizlanadi. Davlat byudjeti daromadlari byudjet xarajatlari amalga oshirilguncha qadar davrda qadrsizlanadi. Byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash qiyinlashadi va buning natijasida byudjet taqchilligi (defitsiti) yuzaga chiqadi;

5) Mamlakatda kredit operatsiyalari cheklanadi. Chunki inflyatsiya darajasi tufayli yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklaridan beriladigan kreditlarning foiz darajasini yuqori darajada o'rnatiladi. Ushbu salbiy holat ishonchni pasaytiradi.

Inflyatsiyaning eng asosiy ijtimoiy oqibati bo'lib daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlanishi amalga oshishi hisoblanadi. Ushbu qayta taqsimlanishi quyidagi omillar natijasida amalga oshadi:

- mamlakat aholisining daromadlari indeksatsiya qilinmasligi;

- tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar baholar indekslarining o'zgarishini hisobga olinmagan holda berilishligi.

Inflyatsiya shart-sharoitlarida mamlakatda ichki mahsulot va milliy daromad quyidagi Yo'nalishlarda qayta taqsimlanadi:

1) Milliy iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish sohalari va mamlakat hududlari o'rtasida narx-navoning notekis o'sishi natijasida;

2) Mamlakat aholisi va davlat o'rtasida. Bunda davlat tomonidan muomaladagi ortiqcha pul massasidan qo'shimcha daromad sifatida foydalanadi. Xalqaro amaliyotda bu inflyatsion soliq deb nomlanadi;

3) Mamlakat aholisining sinflari va turli toifalari o'rtasida. Maxsulotlar va xizmatlarga bo'lgan narx-navoning notekis o'sib ketishi natijasida aholi o'rtasida ijtimoiy toifalarga bo'linishini (boylar, kambag'allar, qashshoqlar), mulkiy holatidagi farqni chuqurlashuviga, jamg'armalar va joriy iste'molning keskin o'zgarishi yuzaga chiqadi. Inflyatsiyaning ijtimoiy salbiy ta'siri eng avvalo qat'iy belgilangan daromadlari oluvchi shaxslar hisoblangan – nafaqaxo'rlar, nogironlar, ko'p farzandli oilalar va davlat xizmatchilari (o'qituvchilar, vrachlar, bog'cha xodimlari va boshqalar) uchun juda og'ir kechadi;

4) Debitorlar va kreditorlar o'rtasida. Ushbu holatda olingan qarzlarni pul qadrsizlanishi natijasida debitorlar daromad oladi va buning aksi, kreditorlar qo'shimcha zarar ko'radi.

Biz yuqorida keltirgan inflyatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlarini qo'shimcha ravishda mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarga ham faol ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasi yuqori mamlakatlar bilan qo'shimcha sug'urta va turli kafolatlar asosida o'zaro munosablar olib boradilar. Xalqaro amaliyotda ushbu munosabatlar savdoning kamsitilishi Yoki diskriminatsiya deb nomlangan.

Mamlakat iqtisodiyotiga ayniqsa jilovlanmagan (giperinflyatsiya) juda salbiy ta'sir etadi. Buning natijasida iqtisodiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklar keskinlashadi, aholi o'rtasida xukumatga bo'lgan norozilik kuchayadi. SHuning uchun, xukumat qarama-qarshiliklarni ijobiy hal qilish, milliy pul tizimining barqarorlashtirish uchun oqilona ishlab chiqilgan inflyatsiyaga qarshi choratadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi.

7.5. Inflyatsiyaning barqarorlashtirish usullari

Jaxonning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida inflyatsiyaga qarshi kurash olib borishda juda katta nazariy va amaliy tajriba to'plangan. Inflyatsiyani butunlay Yo'qotish imkoniyati Yo'q. CHunki uni yuzaga

chiqishiga sabab bo'lgan omillarni (ichki va tashqi, pullik va pulsiz) to'liq Yo'qotish mumkin emas. SHuning uchun hozirgi davrda eng asosiy maqsad inflyatsiyaning butunlay Yo'qotish emas, balki uni boshqaruvchan qilish va uning salbiy iqtisodiy – ijtimoiy oqibatlarini zaiflashtirish hisoblanadi.

DunYoning turli mamlakatlarida xukumat tomonidan mavjud iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda inflyatsiyaga qarshi turli antiinflyatsion siYosatni ishlab chiqaradilar va uni amalga oshiradilar. Davlat tomonidan antiinflyatsion siYosatni olib borishda turli chora-tadbirlar hisoblangan byudjet, ijtimoiy, soliq, baho, kredit-moliya, sanoat-investitsiya, tashqi iqtisodiy va emissiyani amalga oshiradilar.

Byudjet siYosati – bu davlatning asosiy iqtisodiy siYosati hisoblanadi va uning asosiy maqsadi mamlakatning aniq belgilangan muddat mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor Yo'nalishlari belgilanadi va amalga oshiriladi. Byudjet siYosati Yordamida soliqlar va yig'imlar assoida yig'ilgan davlat moliya resurslarini umummilliy vazifalarini bajarish uchun qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi. Byudjet siYosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib ijtimoiy siYosat hisoblanadi. CHunki mamlakatdagi ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirish asosan davlat byudjeti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq siYosati – bu davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siYosiy vazifalarini bajarishi uchun zarur moliya mablag'larini yig'ish uchun xo'jalik yurituvchi sub`ektlar va mamlakat aholisidan soliqlar, to'lovlar hamda majburiy ajratmalarni belgilash, ularni undirish yuzasidan qonun asosida belgilangan tizimdir.

Baho siYosati – bu mahsulotlar, xizmatlar va to'lovga qobiliyatli talab o'rtasidagi mutanosiblikga erishish hamda uni tartibga solib turish bilan bog'liq siYosatdir.

Kredit-moliya siYosati – bu Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasi, majburiy zahiralar me`Yori va ochiq bozordagi

operatsiyalar orqali mamlakat bank-kredit tizimini boshqarish hamda tartibga solib turishdan iborat.

Sanoat-investitsiya siYosati – bu yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minlovchi mamlakat sanoat-texnologik qudratini rivojlantirishga qaratilgan siYosatdan iborat.

Tashqi iqtisodiy faoliyat siYosati – bu davlat tomonidan xorijiy mamlakatlar bo'lib tashqi iqtisodiy faoliyatni boj-tarif dastaklari Yordamida tartibga solib turishdan iboratdir.

Emissiya siYosati – bu Markaziy bank tomonidan milliy iqtisodiyotning holatiga asosan muomalaga qog'oz pul chiqarish, ularning aylanishini tartibga solish va muomaladagi ortiqcha pullarni aylanmadan chiqarib turishdan iborat siYosatdir.

DunYoning har bir mamlakatidan xukumat tomonidan antiinflyatsion siYosati mavjud inflyatsiyani tartibga solishga hamda uni o'sish sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunday siYosatni olib borishda asosan ikki shakllardan foydalaniladi:

- 1) Pul islohotlarini amalga oshirish;
- 2) Inflyatsion jaraYonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish;

Pul islohotlari – bu mamlakatdagi pul muomalasini tartibga solish va kuchaytirish maqsadida davlat tomonidan mavjud pul tizimini to'liq Yoki qisman o'zgartirishlarini amalga oshirishdir. Mamlakatning iqtisodiy rivojlangan holati, pullarning ta'minlanganligi darajasiga asosan pul islohotlarining reval'vatsiya, deval'vatsiya va denominatsiya usullaridan foydalaniladi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardan Germaniya Federativ Respublikasi, Isroil va boshqalarda reval'vatsiya usulidan foydalanildi. Reval'vatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valyutaga nisbatan kursini ko'tarib qo'yishdan iborat. Pul islohotining ikkinchi usuli bo'lib deval'vatsiya hisoblanadi. Deval'vatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligini xorijiy valyutaga nisbatan tushirib qo'yishdan iborat. Deval'vatsiya

usulidan asosan iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda keng foydalaniladi. Pul islohotining uchinchi usuli bo'lib denominatsiya hisoblanadi. Denominatsiya o'z mohiyatiga asosan milliy pul birligidagi ortiqcha nollarni olib tashlab muomalaga yangi pullarni chiqarishdan iborat. Denominatsiya usulida Rossiya (3 dona nolni olib tashladi) va Turkiya (liradan 6 dona nolni olib tashladi) hukumatlari foydalanishdi.

Inflyatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solib turish o'z mohiyatiga asosan mamlakatda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan narx-navolarni o'sib borishini cheklash va pul tizimini barqarorlashtirish masadida davlat tomonidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu chora-tadbirlar ikki Yo'nalishda olib boriladi:

1) Deinflyatsion siyosat. Ushbu siyosat mamlakatda pulga bo'lgan talabni pul-kredit va moliya mexanizmlari yordamida tartibga solib turiladi. Deinflyatsion siyosat davlat xarajatlarini qisqartirish, kreditlar uchun foiz stavkalarini oshirish, soliq yukini kuchaytirish (soliqlar soni va ularni foiz stavkalarini ko'tarish) va pul massasini cheklashni o'z ichiga oladi. SHuni ta'kidlash lozimki, deinflyatsion siyosat mamlakatdagi iqtisodiy o'sishni sekinlashuviga sabab bo'ladi;

2) Daromadlar siyosati. Ushbu siyosat olib borishda davlat tomonidan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlarga bo'lgan narx-navo va ish haqi ustidan birdaniga nazorat etiladi hamda ularni o'sishini ma'lum chegarasi o'rnatiladi Yoki butunlay «muzlatib» qo'yiladi. Daromadlar siyosati o'z mohmiyatiga ko'ra qat'iy siyosat hisoblanadi va u aholi o'rtasida norozilikni kelib chiqarishi mumkin. Lekin inflyatsiya bilan kurashishda ayrim mamlakatlarda daromadlar siyosatidan foydalaniladi.

Xalqaro amaliyotda rivojlanaYotgan mamlakatlarda inflyatsiyaga qarshi karash olib borish tajribasida biz ta'kidlab o'tgan ikki Yo'nalishdan oqilona birgalikda foydalanilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab yurtboshimiz rahnamoligida mamlakatimizda qat'iy pul-kredit siyosati olib borilmoqda. Olib borilayotgan bunday siyosat natijasida inflyatsiya sur'ati belgilangan me'yorlarda ushlab turishga erishilmoqda. Prezidentimizning bu jaryonlar haqidagi quyidagi gaplari juda o'rinalidir." Puxta o'ylangan qat'iy pul-kredit siyosatini izchil olib borish tufayli inflyatsiya ko'zda tutilgan prognoz ko'rsatkichlari chegarasida, ya'ni yillik 7,8 foiz darajasida saqlab qolindi"²⁴. Ushbu omil mamlakatimizda inflyatsiya sur'atlarini aholi turmush darajasiga kam darajada ta'sir etayotganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyoti bozor munosabatlari o'tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaga qarshi kurashish va milliy pul tizimini mustaxkamlash uchun asosan quyidagi choratadbirlar amalga oshirilmoqda:

- milliy iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, investitsiya faoliyatining tushib ketishini bartaraf etish va iqtisodiy rivojlanishning oqilona darajasini ta'minlash;
- raqobatbardosh, yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil etish va uni rivojlantirish maqsadida davlat strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish;
- xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish fondlarining tarkibini o'zgartirish va unda zamonaviy texnika hamda texnologiyalarni joriy etish;
- tijorat banklarining investitsiya va kredit faoliyatini rag'batlantirish;
- soliq tizimini takomillashtirish va ushbu yo'nalishda asosiy e'tiborni soliqlarning rag'batlantiruvchi funktsiyasiga qaratish;
- davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- mamlakat ichida mahsulotlar, valyuta, kredit er, ko'chmas mulk, mehnat va qimmatli qog'ozlarining yagona bozorini shakllantirish hamda uni rivojlantirish;

²⁴ Каримов И.А. Жаҳон молиявий –иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Т.: Ўзбекистон, 2009. 15 б.

- pul-kredit siYosatini iqtisodiyotning rivojlanishi holatiga asosan o'zgartirib turish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni eksport qilishni rag'batlantirish;
- erkin bozor baholarini saqlagan holda daromadlar, xarajatlar va narx-navoni davlat tomonidan tartibga solish va uni nazorat qilish;
- davlat byudjet taqchilligini noinflyatsion Yo'llar bilan qisqartirish;
- davlatning strategik oltin-valyuta zahiralari chuqur tahlil etish va ulardan oqilona foydalanish.

YUqorida ta'kidlab o'tilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish ma'lum muddat talab etadi. Oqilona ishlab chiqilgan antiinflyatsion siYosatni amalga oshirish pirovard natijada milliy pul birligini mustahkamlanishiga va pul tizimini barqarorlashuviga olib keladi.

Qisqacha xulosalar

Inflyatsiya o'z mohiyatiga asosan pulning qadrsizlanishi, tovar va xizmatlarga bo'lgan baholarning muntazam ravishda oshib borishi jaraYonini anglatadi.

Inflyatsiya deb shunday jaraYonni tushunish kerakki, unda muomalada tovarlar xajmiga keragidan ortiqcha naqd pul paydo bo'lib, narx-navo o'sib, qog'oz pullarni qadrsizlanishiga olib keladi va shu tufayli pul o'z harid qobiliyatini pasaytiradi.

Inflyatsiya yuzaga chiqishiga asosan sokin, shiddatli va jilovlanmagan inflyatsiyaga ajratiladi.

Inflyatsiya ikki tarzda yuzaga chiqadi: ochiq inflyatsiya va yashirin inflyatsiya.

Inflyatsiyaning salbiy tomoni shundan iboratki, inflyatsiya davrida ishsizlik darajasi oshadi, chunki ishlab chiqarish rivojlanmaydi.

Antiinflyatsion siYosatni olib borishda ikki Yo'nalishdan: pul islohotlarini amalga oshirish va inflyatsion jaraYonlarni davlat tomonidan tartibga solib turishlikdan foydalaniladi.

Antitinflyatsion chora-tadbirlar ranba-rang bo'lib, ular har bir mamlakatni o'z xususiyatlaridan hamda xukumatning oqilona antiinflyatsion siYosat ishlab chiqishga hamda uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Tayanch iboralar

Inflyatsiya, ichki omillar, tashqi omillar, sokin inflyatsiya, shiddatli inflyatsiya, jilovlanmagan inflyatsiya, oshkora inflyatsiya, yashirin inflyatsiya, talab inflyatsiyasi, deflyator, Dj. Keyns nazariyasi, M. Fridmen nazariyasi, deval'vatsiya, reval'vatsiya, denominatsiya, soliq siYosati, baho siYosati, byudjet siYosati, kredit moliya siYosati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Inflyatsiya nima?
2. Inflyatsiyaga ta'sir etuvchi omillar.
3. Pul bozorini tartibga solish yullari.
4. Talab inflyatsiyasi nima?
5. Taklif inflyatsiyasi nima?
6. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siYosati.
7. Giperinflyatsiya nima?
8. Yashirin inflyatsiya nima?
9. Iqtisodiyotni emission tartibga solish.
10. Antiinflyatsion siYosat nima?
11. Baholar indeksi nimadan iborat?
12. Deflyatorning mohiyati nima?
13. Inflyatsiya to'g'risidagi Dj. Keynsning qarashlari nimalardan iborat?

14. Inflyatsiya to'g'risidagi M. Fridmenning qarashlari nimalardan iborat?

15. Inflyatsiyaning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini Yoriting.

16. Inflyatsiyaga nisbatan antiinflyatsion siyosatining mohiyatini Yoriting.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
2. Koval'ova A. i dr. Finansi i kredit. – M.: Finansi i statistika, 2006.
3. Mamedov O.YU. i dr. Sovremennaya ekonomika. – Rostov na Donu. 1998.
4. Senchagov V.K. i dr. Finansi, deneznoe obraçenie i kredit. Uchebnik. – M.: PROSPEKT, 2006.
5. Sokolova O.V. i dr. Finansi, den'gi, kredit. Uchebnik.- M.: YUrist`.2004
6. Polyak G.B. i dr. Finansi. Deneznoe obraçenie. Kredit. – M.: YUNITI, 2004.
7. “WWW. Finstat. Ru” – «Finansi i statistika» nashriyoti sayti.

VSH-BOB. XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI VA VALYUTA TIZIMI

8.1. Valyuta munosabatlari va valyuta tizimi

Valyuta - jahon bozorida, davlatlar o'rtasida pul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklaridir. Masalan, Amerika Qo'shma SHtatlari "dollari", Buyuk Britaniya "funt sterlingi", Kanada "dollari", YApon "ienasi" va boshqa shu kabilar.

Muayyan bir davlatning milliy puli - uning milliy valyutasi bo'ladi. SHu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa - xorijiy valyutalardir. Masalan, AQSH "dollari", Buyuk Britaniya "funt sterlingi", Kanada "dollari", "Evro", YAponiya "ienasi", Turkiya "lira"si va shu kabi erkin muomalada yuradigan valyutalar O'zbekiston Respublikasida xorijiy valyuta bo'ladi, o'z navbatida O'zbekiston "so'm"i bu davlatlar uchun xorijiy valyuta bo'lib hisoblanadi.

Xorijiy valyuta bilan deviz tushunchasi bog'liqdir. Deviz - bu, xorijiy valyutadagi har qanday vositadir.

Qabul qilingan Xalqaro qoidalariga asosan har bir davlatning valyutasi 3 harf bilan belgilanadi. Bunda ushbu harflarning birinchi 2 tasi mamlakatni, 3- esa valyuta nomini belgilaydi. Masalan, US - Qo'shma SHtatlari, D - dollar Yoki GB - Buyuk Britaniya, P - paund. Ushbu belgilanishlar valyutalar kodlari deb ataladi.

Valyutalar jahon bozorida o'zlarining muomalada bo'lish xususiyatlariga ko'ra erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman Yoki butunlay cheklangan, Yopiq Yoki ekzotik valyutalarga bo'linadi. Ba'zi bir davlatlarning milliy pul birliklarini mazkur davlatlarda valyuta munosabatlari borasida mavjud va harakatda bo'lgan qonun-qoidalariga asosan xorijga chiqishi hamda u erda muomalada bo'lishi chegaralanadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari - bu, valyutani jahon xo'jaligida amal qilishi borasida shakllanadigan va milliy xo'jaliklar faoliyat natijalarining o'zaro almashuviga xizmat ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir.

Xalqaro valyuta munosabatlari moddiy ishlab chiqarish jaraYoniga, ya'ni birlamchi ishlab chiqarish munosabatlariga hamda taqsimot, almashuv va iste'mol jaraYonlariga aloqador bo'lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Valyuta munosabatlari va takror ishlab chiqarish o'rtasida bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) hamda oqibat xarakteridagi (qaytma) aloqalar mavjud. Ularning ob'ktiv asosi bo'lib tovarlar, kapitallar, xizmatlar bilan xalqaro almashuvni vujudga keltiruvchi ijtimoiy ishlab chiqarish jaraYoni hisoblanadi.

Valyuta munosabatlari - bu, valyutani jahon xo'jaligi muomalasida amal qilish jaraYonida va xalqaro aloqalar sohasiga xizmat ko'rsatishda o'ziga hos pul munosabatlarining yig'indisidir, Yoki davlatlar, jahon valyuta bozorining sub'ktlari, muayyan davlatning rezident Yoki norezident shaxslari o'rtasida valyutalarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish hamda boshqa shu kabi jaraYonlarda vujudga keladigan munosabatlardir.

Valyuta munosabatlari - bu xalqaro aloqalarga xizmat ko'rsatuvchi va jahon xo'jaligida valyuta muomalasi jaraYonida vujudga keladigan o'ziga hos pul munosabatlarining majmuidir. Valyuta munosabatlari jahon valyuta tizimining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ularning shakllanish jaraYonlarini o'rganish O'zbekiston uchun nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

Valyuta munosabatlarining paydo bo'lishi, o'zgartirilishi Yoki tugatilishining huquqiy asoslari bo'lib xalqaro kelishuvlar va ichki davlat qonun-qoidalarini hisoblanadi.

Valyuta munosabatlari nisbatan mustaqil munosabatlar bo'lgani holda to'lov balansi, valyuta kursi, hisob-kitob operatsiyalari orqali dunYo iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta munosabatlarining ahvoli quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

-milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga;

-siYosiy ahvolga;

-jahon bozorida davlatlararo munosabatlar borasidagi muammolarga va ushbu muammolarning rivojlanish tendensiyalariga.

Valyuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va norezident shaxslari maydonga chiqadi.

Rezident shaxs - bu muayyan davlat hududida yashaYotgan va ushbu davlat fuqarosi bo'lgan hamda mazkur davlat hududida faoliyat ko'rsataYotgan yuridik Yoki jismoniy shaxsdir.

Norezident shaxs - bu muayyan davlat hududida yashab faoliyat ko'rsataYotgan, ammo shu davlat fuqarosi bo'lmagan yuridik Yoki jismoniy shaxsdir. Masalan, elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va korxonalarining bo'linmalari hamda shu kabilar.

Valyuta tizimi - bu, mamlakatlar o'rtasida valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir.

Valyuta tizimi - bu, xo'jalik aloqalarini baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan, valyuta amali bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valyuta tizimi davlat, rezident va norezident shaxslarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Sub`ktlarning ushbu faoliyati amalga oshishida valyuta qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Valyuta qonunchiligi - bu, mamlakat ichkarisida valyuta qimmatliklari bilan bir mamlakat tashkilotlari va fuqarolari hamda boshqa mamlakat tashkilotlari va fuqarolari o'rtasidagi shartnomalarni hamda mamlakat ichkarisidan xorijga va xorijdan mamlakat ichkarisiga milliy hamda xorijiy valyutalar va boshqa valyuta qimmatliklarini olib kirish, olib chiqish, o'tkazish Yo'li bilan amalga oshirilishini tartibga soluvchi qonuniy me`Yorlar yig'indisidir.

Maxsus adabiYotlarda valyuta tizimlarining 3 ko'rinishi farqlanadi, ya`ni milliy, jahon va hududiy valyuta tizimlari.

Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valyuta munosabatlarining yig'indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarni faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valyuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi birinchi navbatda valyuta tizimi elementlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Milliy valyuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

Milliy valyuta va uning nomi;

Milliy valyuta paritetini belgilash;

Milliy valyutaning konvertatsiya shartlari;

Milliy valyuta kursining rejimi;

Xalqaro kredit muomala quollaridan foydalanishni tartibga solish (reglamentatsiya);

Xalqaro zahira aktivlari tarkibiy qismlari (komponentlari) o'rtasidagi nisbatni aniqlash;

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga solish (reglamentatsiya);

Milliy valyuta va oltin bozorlari faoliyatining rejimi;

Valyuta cheklanishlarining o'rnatilish tartibi;

Valyuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi.

YUqorida zikr etilgan elementlar yig'indisi xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valyuta mexanizmidir.

Milliy valyuta va uning nomi milliy valyuta tizimining asosi bo'lib hisoblanadi, u qonun asosida davlatning pul birligi sifatida belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishlatiladigan milliy pullar valyutaga aylanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda odatda xorijiy valyuta, ya`ni boshqa mamlakatlarning

erkin muomalada yuradigan valyuta maqomiga ega pul birliklari ishlatiladi. Ushbu pul birliklari bilan deviz tushunchasi bog'liq.

Deviz - bu, xorijiy valyutadagi har qanday to'lov vositasidir. Xorijiy valyuta valyuta bozorida oldi-sotdi ob'kti bo'ladi, xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi, banklarda hisob-varaqlarda saqlanadi, ammo ushbu davlat hududida qonuniy hisob-kitob vositasi bo'lib hisoblanmaydi (kuchli inflyatsiya davrlarini hisobga olmagan holda). Mamlakatda kuchli inflyatsiya va inqiroz holatida milliy valyutani nisbatan barqaror bo'lgan xorijiy valyuta siqib chiqaradi, zamonaviy sharoitda bu AQSH dollari va Evrodir.

"Valyuta" kategoriyasi, milliy va yahon xo'jaliklarining o'zaro aloqasi hamda munosabatlarini ta'minlaydi.

Milliy valyuta paritetini belgilash. Valyuta pariteti - bu, ikki valyuta o'rtasidagi, qonuniy asosda belgilangan nisbat. Monometalizm davrida (oltin Yoki kumush) valyuta kursining asosi bo'lib tanga pariteti hisoblangan. Tanga pariteti - bu, turli mamlakatlar pul birliklarini o'zidagi metall sig'imiga ko'ra o'zaro solishtirishdir. Tanga pariteti tushunchasi valyuta pariteti tushunchasi bilan mos keladi.

Oltin monometalizmi davrida valyuta kursi oltin paritetiga asoslangan edi. Bunda valyutalar zaminidagi rasmiy oltin miqdorlari bo'yicha o'zaro solishtiriladi. Bu sharoitda valyuta kursi ushbu oltin pariteti atrofida, oltin nuqtalar chegarasida, tartibsiz asosda tebranadi. Oltin nuqtalarning klassik mexanizmi 2 shart mavjudligi holatida amal qiladi, ya'ni oltinning erkin asosdagi oldi-sotdisi va uning chetga cheklanmagan miqdorda erkin olib chiqilishi. Valyuta kursining tebranish chegaralari oltinni xorijga olib chiqish xarajatlari bilan belgilangan va amalda paritetdan +/- 1%-dan oshiq bo'lmagan. Oltinni xorijga olib chiqish xarajatlariga fraxt, sug'urta, kapitalga foiz Yo'qotishlari, probani aniqlash va boshqa shu kabi xarajatlar kirgan. Oltin standartini bekor qilinishi bilan oltin nuqtalar mexanizmi o'z harakatini to'xtatdi.

Oltin almashmaydigan kredit pullar sharoitida valyuta kursi asta-sekin oltin paritetidan uzoqlasha boshladi, chunki oltin muomaladan g'aznaga siqib chiqarilgan edi.

Xalqaro Valyuta Fondining o'zgargan Ustaviga muvofiq valyutalarning paritetlari SDR(Special Drawing Rights) Yoki boshqa xalqaro valyuta birligida belgilanishi mumkin. 1970 yilning o'rtalaridan boshlab yangilik sifatida paritetlar valyuta savati (korzina) asosida belgilana boshlandi. Bu bir valyutaning o'rtacha tortilgan kursini boshqa bir qator valyutalar yig'masiga solishtirish uslubidir. Valyuta savatining (korzina) AQSH dollari o'rniga ishlatilishi dollar standartidan ko'p valyutali standartga o'tish tendensiyasini aks ettiradi.

Milliy valyutaning konvertatsiya shartlari. Konvertatsiya - bu, milliy valyutani xorijiy valyutalarga almashinishidir. Konvertatsiya shartlariga ko'ra milliy valyutalar:

-erkin konvertatsiya qilinadigan. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda valyuta cheklanishlari Yo'q bo'lib, milliy valyutalar xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilinadi. Xalqaro Valyuta Fondining yangi tahrirdagi Ustaviga (1978 y.) "erkin foydalaniladigan valyuta" tushunchasi kiritilgan. Xalqaro Valyuta Fondi ushbu toifaga AQSH dollari, Germaniya markasi, YApon ienasi, Buyuk Britaniya funt sterlingi va Frantsiya frankini kiritdi. Hozirgi vaqtda SDR korzinasini AQSH dollari, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Evro va YAponiya yenasi kiritilgan.

Haqiqatda olganda erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalar deb to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha valyuta cheklanishlari mavjud bo'lmagan davlatlar valyutalari hisoblanadi (bular asosan rivojlangan davlatlar va jahon moliyaviy markazlari shakllangan Yoki Xalqaro Valyuta Fondi oldida valyuta cheklanishlarini kiritmaslik majburiyatini o'z zimmasiga olgan ayrim rivojlanib boraYotgan davlatlar);

-qisman konvertatsiya qilinadigan valyutalar, valyuta cheklanishlari saqlanib qolgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, milliy valyutaning xorijiy valyutalarga konvertatsiyasi davlat iqtisodiy siYosatidan kelib chiqqan holda birmuncha cheklanadi.

-xorijiy valyutalarga konvertatsiya qilinmaydigan (Yopiq) valyutalarga bo'linadi. Ba`zi davlatlarda siYosiy sabablarga ko'ra milliy valyutalar xorijiy valyutalarga umuman konvertatsiya qilinmaydi, SHimoliy Koreya, Kuba davlatlari), ya`ni rezident va norezident shaxslar uchun valyuta almashtirishga ruxsat Yo'q.

Milliy valyuta kursining rejimi. Valyuta kursining quyidagi rejimlari mavjud:

- qat`iy belgilangan kurslar rejimi. Davlat o'z iqtisodiy siYosatidan kelib chiqqan holda ma`muriy tarzda milliy valyuta kursini qat`iy belgilab qo'yishi mumkin. Masalan, Bretton-Vuds sharoitidagi qat`iy belgilangan kurslar rejimi;

- kichik chegaralarda tebranadigan kurslar rejimi. Bu holatda davlat o'z iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, milliy valyuta kursini ma`lum bir chegaralarda tebranishidan manfaatdor bo'ladi va valyuta siYosatining instrumentlaridan foydalangan holda ushbu maqsadga erishadi;

- valyutaga bo'lgan bozor talab va taklifining o'zgarishi asosida erkin suzadigan (tebranadigan) kurslar rejimi hamda ularning turli ko'rinishlari. Bunga YAmayka valyuta tizimi sharoitidagi erkin suzuvchi valyuta kurslari rejimini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Xalqaro kredit muomala quollaridan foydalanishni tartibga solish (reglamentatsiya). Xalqaro kredit muomala quollaridan foydalanish qoidalari soddalashtirilgan Xalqaro me`Yorlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu Xalqaro me`Yorlarga Jenevaning veksel va chek konventsiyalari kiradi.

Xalqaro zahira aktivlari tarkibiy qismlari (komponentlari) o'rtasidagi nisbatni aniqlash. YUqorida qayd etilganidek, xalqaro zahira aktivlari to'rt qismdan (komponent) iborat, ya`ni mamlakatning rasmiy oltin va valyuta

zahiralar, xalqaro hisob-kitob pul birliklaridagi hisobvaraqlar, Xalqaro Valyuta Fondidagi zahira pozitsiyasi. Albatta mamlakatning xalqaro likvidligini ta'minlash uchun ushbu komponentlar o'rtasida muvofiq nisbat saqlanishi kerak.

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga solish (reglamentatsiya).

Xalqaro hisob-kitoblarning tartibga solinishi milliy va jahon valyuta tizimlari darajasida Dokumentar akkreditivlar hamda inkasso uchun soddalashtirilgan qoida va udumlar asosida amalga oshadi. Milliy valyuta va oltin bozorlari faoliyatining rejimi, valyuta va oltin bozorlarining rejimi milliy hamda xalqaro muvofiqlashtirishning ob'kti bo'lib hisoblanadi.

Valyuta cheklanishlarining o'rnatilish tartibi. Valyuta cheklanishlarining mavjud bo'lishi Yoki bo'lmasligi davlatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga bog'liq bo'lib, valyuta tizimining elementi hisoblanadi. Valyuta cheklanishlari hukumat tomonidan qonuniy asosda milliy iqtisodiyot manfaatlarni himoyalash maqsadida kiritiladi.

Valyuta qimmatliklari bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarga cheklashlar Xalqaro Valyuta Fondi orqali davlatlararo muvofiqlashtirish ob'ktiga kiradi.

Valyuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlarning maqomi. Bu valyuta tizimining muhim institutsional elementidir. Gap mamlakat valyuta munosabatlarini boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi milliy organlar (Markaziy bank, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, ba'zi mamlakatlarda valyuta nazorat organlari) faoliyati haqida bormoqda. Milliy valyuta qonunchiligi ushbu davlat hududida milliy va xorijiy valyutadagi (egallik huquqi, olib kirish va olib chiqish, oldi-sotdi) operatsiyalarni muvofiqlashtiradi.

Jahon valyuta tizimi - bu, jahon bozori (xo'jaligi) ning rivojlanishi asosida shakllangan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Jahon valyuta tizimining tashkiliy asosi

bo'lib, milliy valyuta tizimi hamda ushbu tizimga kirayotgan har bir mamlakat valyuta mexanizmini tashkil etilishining davlat-huquqiy shakli hisoblanadi.

Jahon valyuta tizimi XIX asrning o'rtalariga kelib shakllandi. Jahon valyuta tizimi milliy valyuta tizimi elementlari bilan yaqindan aloqada bo'lgan ma'lum bir elementlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar:

Zahira valyutalari, xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligi (SDR);

Valyutalarning o'zaro konvertatsiya qilinish shartlari;

Valyuta paritetlarining soddalashtirilgan (unifikatsiya) rejimi;

Valyuta kurslari rejimlarini tartibga solish (reglamentatsiya);

Valyuta cheklanishlarini davlatlararo muvofiqlashtirish;

Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish;

Xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanish qoidalarini soddalashtirish (unifikatsiya);

Xalqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiya);

Jahon valyuta va oltin bozorlari rejimi;

Davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar.

Zahira valyutalari, xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligi (SDR). Jahon valyuta tizimi jahon pullarining amal qiluvchi shakllariga asoslangandir. Jahon puli deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat ko'rsatuvchi pullarga aytiladi. Jahon pullari amaldagi shakllarining evolyutsiyasi birmuncha kechikib bo'lsa-da, oltin pullardan boshlab to kredit pullargacha bo'lgan milliy pullarning rivojlanish yo'lini qayta bosib o'tadi. Bunday qonuniyat asosida jahon valyuta tizimi XX asrga kelib jahon etakchi mamlakatlarning bir yoki bir nechta milliy valyutalariga (an'anaviy yoki Evrovalyuta shaklida) yoki xalqaro valyuta birligiga (SDR) asoslanadi.

Xalqaro hisob-kitob valyuta birligi xalqaro talab va majburiyatlarni o'zaro solishtirish, valyuta pariteti hamda kursni belgilash uchun shartli masshtab va xalqaro to'lov hamda zahira vositasi sifatida ishlatiladi. Oltinning

demonetizatsiyasi jaraYoni, ya`ni YAmayka (1976-1978 y.y.) valyuta islohoti natijasida oltinning yuridik jihatdan pul funksiyasini Yo`qotishi, jahon puli sifatida muvozanatsiz milliy pullar ishlatilishining salbiy oqibatlari valyuta tizimiga SDRni (qarz olishning maxsus huquqlari), EKYUni (Evropa hisob-kitob pul birligi) tadbiq etishga sharoit yaratib berdi. Jahon pullarining ushbu yangi shakllari mamlakatlarning maxsus hisob-varaqlarda Yozuvlarni amalga oshirish Yo`li orqali naqdsiz xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatilgan: SDR - Xalqaro Valyuta Fondida, EKYU - valyuta hamkorligining Evropa fondida, 1994 yildan boshlab Evropa Ittifoqining Evropa valyuta institutida. SDR va EKYUning shartli qiymati o`rtacha tortilgan qiymat hamda valyuta savatiga (korzina) kirgan valyutalar kurslarining o`zgarishi asosida hisoblanadi. Evropa Markaziy banki dastlab 1999 yilning boshidan naqdsiz hisob-kitoblar uchun, 2002 yildan boshlab esa naqdli shaklda EKYU o`rniga Evroni muomalaga kiritdi.

SDR kursini AQSH dollariga Yoki savat tarkibiga kirgan boshqa bir valyutaga nisbatan hisoblanishi 3 asosiy elementni o`z ichiga oladi:

1) taalluqli valyuta birliklaridagi valyuta komponentlari. Ular quyidagicha aniqlanadi: (valyutaning savatdagi solishtirma og`irligi) h (uning AQSH dollariga nisbatan so`nggi 3 oy ichidagi o`rtacha bozor kursi) bundan oldingi SDR kursiga muvofiqlashtirilgan holda;

2) valyutalarning AQSH dollariga nisbatan bozor kurslari;

3) valyuta komponentlarining dollarli ekvivalenti. U quyidagicha hisoblanadi: (valyuta komponenti) / (valyuta kursi) funt sterlingdan tashqari, (funtning valyuta komponenti)*(dollarga nisbatan valyuta kursiga).

Keltirilgan hisob-kitoblardan ko`rinib turibdiki, ushbu sanaga 1 SDR = 1,34 AQSH dollariga teng ekan. Valyuta kursining SDR birliklarida ifodalanishi rasmiy xarakterga ega va u faqatgina valyutalarni AQSH dollariga, dollar orqali esa boshqa valyutalarga bo`lgan bozor kurslarini ro`yhatga oladi.

Erkin suzuvchi valyuta kurslari va ularning muvozanatsizligi sharoitida turli mamlakatlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan valyuta savati uslubi qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib (valyuta kursini aniqlash, xalqaro valyuta birligini yaratish, baho valyutasi va qarz valyutasini indeksatsiya qilish), valyutalarni turli to'plamidan foydalangan holda ishlatilmoqda.

Evropa valyuta ittifoqida valyuta paritetlarining asosi sifatida Evropa Ittifoqi mamlakatlarining 12 valyutasidan iborat EKYU valyuta savati ishlatilgan. 1999 yildan boshlab Evropa valyuta ittifoqining yagona valyutasi Evrodir. Bundan tashqari bir qator mamlakatlar (hozirda 16 ta davlat) o'z valyutalari kursini saqlash maqsadida yakka tartibdagi valyuta savatidan foydalanmoqda.

Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish. Xalqaro valyuta likvidligini muvofiqlashtirish valyuta tizimining elementi sifatida xalqaro hisob-kitoblarni zarur to'lov vositalari bilan ta'minlashdan iborat.

Xalqaro valyuta likvidligi - bu, mamlakatning (Yoki bir guruh mamlakatlarning) vaqtida o'z Xalqaro majburiyatlarini kreditor uchun muqobil bo'lgan to'lov vositalarida so'ndirilishini ta'minlashdan iborat. Jahon xo'jaligi nuqtai nazaridan Xalqaro valyuta likvidligi jahon to'lov muomalasini moliyalashtirish va kreditlash manbalarining yig'indisini bildiradi hamda u jahon iqtisodiyotining Xalqaro zahira aktivlari bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir.

Xalqaro valyuta likvidligi 4 asosiy qism (komponent)dan iborat:

- mamlakatning rasmiy oltin zahiralari;
- mamlakatning rasmiy valyuta zahiralari;
- Xalqaro hisob-kitob pul birliklaridagi hisobvaraqlar;
- Xalqaro Valyuta Fondidagi zahira pozitsiyasi (a'zo mamlakatning o'z kvotasining 25 foizi chegarasida, xorijiy valyutada, so'zsiz kredit olish huquqi).

Xalqaro valyuta likvidligining ko'rsatkichi bo'lib, odatda mamlakat rasmiy oltin-valyuta zahiralari uning yillik tovar importining summasiga

nisbati hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning qimmatligi cheklangandir, chunki u mamlakat oldida turgan barcha joriy to'lovlarni, xususan notijoriy xizmatlar hamda kapital va kreditlarning xalqaro harakati bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni hisobga olmaydi.

Xalqaro to'lovlar bilan bog'liq masalalar doimo Prezidentimizning diqqat e'tiborlarida bo'ladigan Yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda davom etib kelayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi xalqaro kreditlar bo'yicha to'lovga qodirlik masalasini nazorat qilish bugungi kundagi dolzarb muammolardandir. Bu to'g'risida yurtboshimiz o'zlarining asarlarida: «Hozirgi vaqtda respublikamiz bank tizimining umumiy joriy likvidligi dollar hisobida 1,5 milliard dollardan ortiqdir. Bu tashqi nodavlat qarzlari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar hajmidan 10 barobar ko'pdir. Bu esa bizda likvidlik, ya'ni to'lovlarga qodirlik darajasi bo'yicha muammo Yo'q, deb aytish uchun asos beradi.... SHu o'rinda 2009 yilning 1 yanvarigacha O'zbekistonning jami tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 13,3 foizini tashkil etishini va bu ko'rsatkich, xalqaro mezonlar bo'yicha, "Har jihatdan maqbul holat" deb hisoblanishini ta'kidlash joiz"²⁵ deb alohida ta'kidlab o'tganlar..

Xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanish qoidalarini soddalashtirish (unifikatsiya). Milliy valyuta tizimiga qaralsin.

Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiya). Milliy valyuta tizimiga qaralsin.

Jahon valyuta va oltin bozorlari rejimi. Jahon valyuta bozori er kurrasi bo'ylab joylashgan jahon moliyaviy markazlarida mavjuddir. Zamonaviy jahon valyuta bozori elektron telekommunikatsiya tizimidagi bozor desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu bozor operatsiyalar hajmi bo'yicha moliyaviy bozorlar ichida eng yirigi bo'lib, "Spot", "Forvard", "F'yuchers", "Optson", "Svop" va boshqa moliyaviy hosilalar bozorlaridan iboratdir.

²⁵ Каримов И.А. Жаҳон молиявий –иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Т.: Ўзбекистон, 2009. 30 б.

Oltin bozorlari - bu, oltin savdosining maxsus markazlari. Ushbu bozorlarda sanoat-maishiy iste`mol, xususiy iste`mol, investitsiya, tavakkalchilik, chayqovchilik, xalqaro hisob-kitoblar uchun zarur bo`lgan valyutani sotib olishni sug`urtalash maqsadida oltinni bozor bahosidagi muntazam oldi-sotdisi tashkil etilgan.

Jahon valyuta tizimining amal qilish xarakteri va muvozanatligi uning tamoyillarining jahon xo`jaligi tarkibiy tuzilishi, kuchlarning joylashishi va etakchi mamlakatlar manfaatlariga mosligi darajasiga bog`liqdir. Ushbu sharoitlarning o`zgarishi natijasida jahon valyuta tizimining davriy inqirozi vujudga keladi. Bu inqiroz zikr etilgan valyuta tizimining emirilishi va yangi valyuta tizimining barpo etilishi bilan yakunlanadi.

Hududiy valyuta tizimi - bu, hududiy birlashma a`zolari bo`lmish mamlakatlarning davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etishning shaklidir. Bunga yaqqol misol sifatida Evropa valyuta ittifoqini keltirish mumkin.

Hududiy valyuta tizimining elementlari jahon valyuta tizimi elementlariga o`xshashdir.

Jahon va hududiy valyuta tizimlari o`zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, egiluvchan bo`lishi hamda alohida davlatlar va butun jahon manfaatlarida muvozanatni saqlash xususiyatiga ega bo`lmoq lozim. Faqatgina shunday sharoitlarda valyuta tizimi uzoq muddat davomida muvaffaqiyatli amal qilishi mumkin.

Davlatlararo kelishuvlar bilan o`rnatiladigan valyuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-huquqiy shakli sifatidagi valyuta tizimi bir vaqtning o`zida paydo bo`lgani Yo`q. Uning pul tizimidan ajrab chiqishi va mustaqil kategoriyaga aylanishi qiymat pul shaklining uzoq rivojlanishi hamda pul o`rnini bosuvchilar paydo bo`lishi jaraYonida sodir bo`lgan.

Pul tizimi qiymatning pul shakli pul vazifasining noYob metallarga va so`ng oltinga o`tishi bilan vujudga keladi. Bunda pul tizimini tashkil etish

asoslari barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan. Bu birinchi navbatda pul metalidan tangalarning erkin zarb etilishi, qiymat belgilarini to'sqinliksiz oltinga almashtirilishi va oltinning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga erkin harakatidan iboratdir.

Valyuta tizimi o'zining zamonaviy shakliga kelguncha uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan. Birinchi jahon valyuta tizimi stixiyali ravishda sanoat inqilobidan so'ng oltin monometalizmi asosida oltin-tanga standarti shaklida shakllangan. Yuridik jihatdan esa mazkur tizim 1867 yil Parij shahrida bo'lib o'tgan konferentsiyada, davlatlararo kelishuv sifatida rasmiylashtirilgan. Ushbu jahon valyuta tizimi jahon pulining yagona shakli sifatida oltinni rasmiy tan olgan edi.

XIX asrda xalqaro savdoning rivojlanishi bilan ko'pchilik davlatlar o'zlarida "oltin standarti"ni kiritdilar, ya'ni shu davrdan boshlab mazkur davlatlar valyutalarining kursi va qiymati shu valyutalar zaminida Yotgan oltin miqdorining qiymati bilan belgilanadigan bo'ldi. Davlatlarning markaziy (milliy) banklari o'z navbatida milliy qog'oz pullarni taalluqli oltin miqdoriga (baho masshtabiga asosan) almashtirishga majbur edilar.

Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari orasidagi jahon valyuta tizimini "oltin-deviz standarti" tizimi deb atasa bo'ladi. Bu davr ayniqsa davlatning iqtisodiyotga kuchli aralashuvi bilan xususiyatlidir. Deyarli barcha davlatlarda bojxona to'siqlari kiritilib, oqibatda kapitalga, ishchi resurslariga bo'lgan talab va taklifning erkin aloqasi jahon bozorida chegaralandi.

Ikkinchi Jahon valyuta tizimi 1922 yilda Genuya shahrida bo'lib o'tgan konferensiyada davlatlararo kelishuv sifatida yuridik jihatdan shakllangan edi. Mazkur xalqaro konferensiya arafasida jahonning 30dan ziyod davlatlarining pul tizimlari oltin-deviz standartiga asoslangan edi. Davlatlarning milliy kredit pullari xalqaro to'lov va zahira vositalari sifatida ishlatila boshlandi. Biroq Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari orasidagi davrda zahira valyutasi maqomi rasmiy ravishda biror-bir valyutaga hali birlashtirilmagan edi.

Bretton-Vuds valyuta tizimining asl mohiyati qat'iy Yoki barqaror, o'zgaruvchanligi sezilmas valyuta kurslarini joriy etishdan iborat edi. Ikkinchi jahon urushidan ham siYosiy, ham iqtisodiy jihatdan nihoyatda charchab chiqqan davlatlar jahon bozorida davlatlararo valyuta munosabatlarida hukm suraYotgan tartibsizlikka barham berish maqsadida 1944 yilda AQSHning Bretton-Vuds nomli joyida xalqaro valyuta-moliya konferentsiyasini chaqiradilar.

Jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan Bretton-Vuds xalqaro valyuta-moliya konferentsiyasi 1944-47 yillar mobaynida bo'lib o'tgan. Mazkur konferentsiyada qabul qilingan Kelishuv moddalari urushdan so'nggi jahon valyuta tizimining tamoyillarini belgilab berdi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat edi:

1.Oltin va ikki zahira valyutasiga, ya`ni AQSH dollari hamda qisman Buyuk Britaniya funt sterlingiga asoslangan davlatlararo oltin-deviz standarti tizimi o'rnatildi. Bunda oltin-deviz standarti faqatgina davlatlararo munosabatlarda saqlanib qolgan bo'lib, mamlakatlarning pul tizimlari esa oltin almashmaydigan kredit pullarga asoslangan edi.

Oltinni, jahon valyuta tizimining asosi sifatida ishlatilishining quyidagi asosiy 4 shakli ko'zda tutilgan edi:

a) valyutalarning oltin paritetlari saqlanib, Xalqaro Valyuta Fondida ularni qayd etish tartibi kiritilgan edi;

b) oltin xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha qoldiqni so'ndirish vositasi va ijtimoiy boylikning ramzi, Xalqaro valyuta likvidligining muhim komponenti sifatida ishlatila bordi;

v) AQSH o'zining o'sgan valyuta-iqtisodiy qudratiga va kapitalistik dunYoda o'zining eng yirik oltin zahiralari taYangan holda AQSH dollariga asosiy zahira valyutasi maqomini biriktirib qo'yish maqsadida dollarni oltin tenglashtirib qo'ydi;

g) shu maqsadda AQSH g'aznaxonasi xorijiy davlatlar markaziy (milliy) banklari va hukumat tashkilotlariga AQSH dollarlarini oltinga, bir untsiya oltin 35 AQSH dollari rasmiy baho asosida almashtirishni davom ettirdi. Oltinning bunday rasmiy bahosi 1934 yilda AQSH dollarining baho masshtabi asosida kiritilgan edi.

2. Valyutalarni o'zaro solishtirilishi va o'zaro almashuvi, Xalqaro Valyuta Fondi a'zolari bo'lmish davlatlar o'rtasida rasmiy ravishda o'zaro kelishib olingan hamda qat'iy belgilangan, AQSH dollarlarida ifodalangan, valyuta paritetlari asosida amalga oshadigan bo'ldi. O'zaro kelishib olingan bunday paritetlarning o'zgartirilishi faqat Fondning ruxsati bilan amalga oshishi mumkin edi.

3. Valyutalarning qat'iy belgilangan kurslar rejimi kiritildi. Valyutalarning bozor kurslari paritetidan kichik miqdorlarda oqishi mumkin edi, Xalqaro Valyuta Fondining Nizomiga muvofiq valyuta kurslarini bunday oqishi paritetidan +/- 1%, Evropa valyuta kelishuviga asosan esa +/- 0,75% (ya'ni, taxminan 1,5%)ni tashkil etishi mumkin edi. Valyuta kurslari tebranishining bunday chegaralarini saqlash maqsadida mazkur shartnomaga kirgan davlatlar markaziy (milliy) banklari AQSH dollarlarida Yoki o'z milliy valyutalarida valyuta intervensiyasini amalga oshirishga majbur edilar.

Bretton-Vuds valyuta tizimi ma'lum bir davr mobaynida o'ziga yuklatilgan funksiyalarni yaxshi bajarib keldi. Biroq bu mazkur valyuta tizimining nuqsonsiz ekanligidan dalolat emas albatta.

Bretton-Vuds valyuta tizimi, boshidanoq AQSH, AQSH dollari manfaatlari uchun xizmat qilishga mo'ljallangan valyuta tizimi edi. Bu tizim AQSH dollarini boshqa davlatlar valyutalari ustidan hukmronligini ta'minlagan. Ammo jahon valyuta bozoridagi bunday ahvol, AQSHning jahon iqtisodiyotidagi ulushini qisqarib borishi va Evropa Iqtisodiy hamjamiyati davlatlari hamda Yaponiya rolining o'sib borishi jaryonida saqlanib qolishi amri mahol edi.

Bretton-Vuds valyuta tizimining inqirozi jahon valyuta bozoridagi tartibsizliklarga olib keldi. Ammo bunday tartibsizliklar uzoqqa cho'zilmadi. 1976-78 yillarda AQSHning Kingston (Yamayka) shahrida bo'lib o'tgan xalqaro moliya-kredit konferentsiyasida to'rtinchi jahon valyuta tizimiga asos solindi.

To'rtinchi jahon valyuta tizimining asosiy tamoyillari quyidagilar:

a) oltin-deviz standarti o'rniga SDR standarti kiritildi. Ushbu xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligining yaratilishi (O. Emminger loyihasi bo'yicha) haqidagi kelishuv 1967 yilda XVF a'zolari bo'lmish davlatlar tomonidan imzolandi. SDRning muomalaga kiritilishi munosabati bilan XVF Ustaviga kiritilgan birinchi o'zgartirish 1969 yilning 28 iyulida kuchga kirdi;

b) oltinning demonetizatsiya jaraYoni yuridik jihatdan yakunlandi. Uning rasmiy bahosi, oltin paritetlari va AQSH dollarlarini oltinga almashinishi bekor qilindi. YAmayka kelishuviga asosan endi oltin qiymat o'lchovi va valyuta kurslari uchun boshlanqich hisob nuqtasi bo'la olmaydi;

v) a'zo mamlakatlarga har qanday valyuta kursi rejimini tanlab olish huquqi berildi;

g) XVF yangi sharoitlarda davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini jonlantirishi lozim edi.

SHu bilan birgalikda YAmayka valyuta tizimi sharoitida valyutalar kurslarining rejimi erkin suzuvchi bo'lib, AQSH dollari standarti o'rniga ko'p valyutali standart qabul qilindi.

SDRning 1970 yildan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan muomalasiga nazar tashlansa, ushbu valyuta (pul) birligi jahon puli bo'lishidan hali yiroqligi bevosita ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari mazkur davr mobaynida quyidagi bir qator muammolar paydo bo'ldi: 1) emissiya va taqsimot; 2)ta'minot; 3)kursni aniqlash uslubi; 4)SDRdan foydalanish jaraYonlari.

1998 yilning may oyida SDRga 4 valyuta biriktirilgan, holbuki 1980 yilda ularning soni 15ta edi. SDR asosan XVFning operatsiyalarida milliy valyutalar

qayta hisob-kitob koeffitsienti, valyutalarni solishtirish masshtabi sifatida ishlatiladi. Kvotalar, kreditlar, daromadlar va xarajatlar ushbu valyuta hisob-kitob birligida ifodalangan.

XVFdan tashqarida SDR cheklangan jaraYonlarda ishlatiladi:

1) masalan, Frantsiya franki franki va SHveytsariya franki o'rniga turli xalqaro konventsiyalarda;

2) jahon ssuda kapitallari bozorida ayrim hisobvaraqlar, obligatsiyalar, sindikatsiyalashgan kreditlarning nominali SDRLarda ifodalangan;

3) o'ndan ziYod xalqaro tashkilot SDRLarda hisobvaraqa ochish huquqiga ega bo'ldi; 80-yillarda ushbu cheklovlar "svop", muddatli shartnomalar, kreditlar, kafolatlar, sovg'alar taqdim etilishi kabi operatsiyalar amalga oshaYotgan hisobvaraqlar bo'yicha bekor qilindi. SDRLar rasman banklar, korxonalar, xususiy shaxslar tomonidan ishlatilishi mumkin.

SHu sababli o'ta muvaffaqiyatli bo'lmasa-da EKYUdan, 1999 yildan boshlab esa Evrodan farqli o'laroq xususiy SDRLar rivojlanib bormoqda. Xususiy SDRLar bozori asosan bank depozitlari, qisman depozit sertifikatlari va Xalqaro obligatsiyalar shaklida o'nlab milliard dollarlar hajmida baholanadi.

Zamonamizga xususiyatli bo'lgan narsa - iqtisodiYot va valyuta borasidagi hududiy integratsiyaning avvalambor g'arbiy Evropada rivojlanishidir. Integratsion jaraYonlarning rivojlanish sabablari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik haYotining baynalmilallashuvi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va birlashuvining kuchayishi, kapitallarning o'zaro aralashib ketishi;

- raqobatdosh markazlarning jahon bozorlaridagi o'zaro kurashi va valyuta barqarorsizligi.

EVI - bu, xalqaro (hududiy) valyuta tizimidir, ya`ni iqtisodiy integratsiya doirasida valyuta amali bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir; valyuta kurslarini barqarorlashtirish va integratsiya jaraYonlarini rag'batlantirish

maqsadida "Umumiy bozor" davlatlari valyuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-huquqiy shaklidir.

EVI - jahon valyuta tizimining (YAmayka) tizim ostisidir. g'arbiy Evropa integratsiya maymuasining xususiyatli tomonlari YAmayka valyuta tizimidan farqli o'laroq EVI tarkibiy tuzilish tamoyillarini belgilab beradi. EVI Evropa valyuta birligi bo'lmish EKYUga asoslangan. EKYUning shartli qiymati EI mamlakatlarining 12 valyutasini o'z ichiga olgan valyuta savati uslubi asosida aniqlangan. EKYU savatidagi valyutalarning ulushi EIga a'zo-davlatlar YAIM va ularning o'zaro tovar almashuvidagi mamlakatlarning ulushi hamda qisqa muddatli qo'llab-quvvatlash kreditlaridagi ishtirokiga bog'liq edi. SHu sababli EKYUning eng salmoqli komponenti bo'lib (taxminan 1/3) GFR markasi hisoblanar edi. 1993 yilning sentyabr oyida Maastrixt kelishuviga binoan valyutalarning EKYUdagi "absolyut og'irligi" muzlatilgan, biroq "nisbiy og'irligi" valyutalarning bozor kursiga muvofiq tebranar edi. Xususan, 1993 yilning oktyabr` oyida GFR markasining ulushi 32,6%, Frantsiya frankiniki 19,9%, Buyuk Britaniya funt sterlingi 11,5%, Italiya lirasi 8,1%, Daniya kronasi 2,7% va boshqa shu kabilarga teng edi.

8.2. Valyuta kursi

Valyuta kursi - bu, bir valyutani boshqa bir valyutadagi ifodasi Yoki bahosidir. Masalan, 1 AQSH dollari = 1250 O'zbekiston Respublikasining so'mi Yoki 1 AQSH dollari = 27,75 Rossiya Federatsiyasining rubli.

YAgona tilda o'zaro munosabatda bo'lish uchun valyuta savdosining barcha ishtirokchilari ma'lum bir davr mobaynida shakllangan Xalqaro standartlar va qoidalarni tan oladi hamda ularga itoat etadi. Masalan, barcha Yozma tarzda tuziladigan shartnomalarda valyutalarni belgilash hamda ularni tasdiqlash uchun ISO-kodlardan (ISO-standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot) foydalaniladi. SHu bilan birgalikda ular Xalqaro to'lovlar bilan ham bog'liq.

Davlat va xo'jalik yurituvchi sub`ktlarning tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta kursi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu faoliyat natijasida davlatlar hamda turli sub`ktlar o'rtasida majburiyatlarni bajarish, hisob-kitoblarni amalga oshirish zarurati tug'iladi, ularni hal etish uchun esa albatta muayyan bir valyutani boshqa bir valyutaga nisbatan o'lchash zarurati tug'iladi. SHu sababli azaldan jahon amaliYotida Buyuk Britaniya va Irlandiya funt sterlinglari, Avstraliya hamda Kanada dollarlari singari AQSH dollarining kursi dollarning bir birligi uchun belgilangan.

Evropa valyutasini boshqa Evropa valyutalarida baholash uchun (Britaniya va Irlandiya funtlaridan qat'iy nazar) ko'p qollarda "100", Italiya lirasi uchun esa "1000" standart birligi ishlatiladi. YApon ienasi Evropa valyutalariga nisbatan 100 birligida kotirovka qilinadi.

Kurslar kotirovkalari, valyutalarni o'lchanishi ikki, uch va to'rt o'nlik xonalarigacha aniqlangan holatlarda ham farqlanadi.

Valyuta kursi pullarning xalqaro harakati jaraYoniga taalluqlidir va umumiy asosda milliy iqtisodiYotning jahon xo'jaligi bilan aloqalarini ifodalaydi.

Oltin-deviz standarti sharoitida valyuta kursi aniqlanganda qog'oz pullar zaminida Yotgan oltin miqdorlari solishtirilgan. Masalan, Buyuk Britaniya 1 funt sterlingi zaminida 1821 yilda 7,322385 gramm oltin Yotgan, 1 nemis markasi zaminida esa 1873 yilda 0,385422 gramm oltin Yotgan. Bunga ko'ra 1 funt sterling 20,43 nemis markasiga teng bo'lgan ($7,322385/0,385422$). YOki, 1 AQSH dollari zaminida 1971 yilda 0,888671 gramm oltin Yotgan. 1961 yildagi baho masshtabiga ko'ra SSRIning 1 rubli zaminida 0,987412 gramm oltin Yotgan. Bundan, 1 AQSH dollari 0,90 SSSR rubliga teng bo'lgan ($0,888671 / 0,987412$).

Oltin-deviz standarti sharoitida 1929/36 yillargacha davlatlarning milliy qog'oz pullari baho masshtabiga asosan oltinga almashtirilar edi. 1936 yildan so'ng davlatlar milliy qog'oz pul birliklarini oltinga almashmaydigan bo'ldi,

ya`ni muomalada oltinga almashmaydigan kredit qog'oz pullar yura boshlagan. Bunday sharoitda, ya`ni Bretton-Vuds valyuta tizimi sharoitida ham, valyuta kurslari ularning zaminida Yotgan oltin miqdorlarini solishtirish orqali aniqlanar edi.

Yamayka valyuta tizimi (1976-78 yillar) sharoitida rasmiy asosda oltin demonetizatsiyasi e`lon qilindi va oltin yuridik jihatdan o`zining pul sifatidagi harakatini to`xtatdi. Jahon bozorida valyuta kurslari ularga bo`lgan talab va taklif asosida, valyutalarning tarixiy masshtabi atrofida tebrana boshladi. Bunday muvozanatsiz sharoitda valyutalarning kursi qisqa vaqt ichida tez o`zgaradigan bo`lib qoldi.

Ko`p qollarda barcha davlatlar milliy valyutalarining kursi AQSH dollari Yoki Buyuk Britaniya funt sterlingiga nisbatan belgilanadi. Ammo tashqi savdo munosabatlarida albatta biror bir valyutaning boshqa bir valyutadagi kursiga zarurat tug`ilib turadi. Masalan, YAponiya eksportYor Germaniya importYor bo`lsa, unda albatta 1 Nemis markasi qancha YApon ienasiga to`g`ri keladi, degan savol tug`iladi. Bunga javob berish uchun kross-kurs uslubidan foydalaniladi. Kross-kurs to`g`risida ushbu darslikning 5-mavzusida batafsil gaplashiladi.

Milliy valyuta savdo qilinaYotgan, xorijiy valyuta esa kotirovka valyutasi bo`lgan holdagi kotirovka turi teskari kotirovka bo`ladi.

To`g`ri kotirovkada "Bid" sotib oluvchi kursi banklar tomonidan savdo qilinaYotgan valyutani sotib olish va milliy valyutani sotish kursi bo`ladi. "Offer" kursi banklar tomonidan savdo qilinaYotgan valyutani sotish va milliy valyutani sotib olish kursi hisoblanadi. "Bid" va "Offer" kurslarining farqi sifatidagi miqdor "spred" deb ataladi.

Valyuta kurslarining quyidagi turlari mavjud: "spot" kurs, sotuvchi va sotib oluvchi kurslari, forvardli kurs, kross-kurs, "autrayt" kursi. "Spot" kurs - bu, naqdli (kassa) shartnomasi kursidir. U "spot" shartnomalari ijrosi paytida qayd

etiladigan bir mamlakat valyutasining bahosini boshqa mamlakat valyutasidagi ifodasidan iborat.

"Spot" kurslar erkin suzadigan Yoki qat`iy belgilangan bo`lishi mumkin. Ular milliy valyutani mamlakat tashqarisida shartnomani amalga oshirish paytiga sotib olish qobiliyatini ko`rsatadi.

Ba`zi davlatlar valyutalarining ichki va tashqi qiymati mavjudligiga qaramasdan valyuta nazorati sharoitida oddiy tijorat operatsiyalarini amalga oshirishda, asosan tovar hamda xizmatlar importida valyuta va "spot" kurslari bir xilda qo`llanilishi mumkin.

Forvardli kurs - bu, muddatli valyuta shartnomalari kursidir. U kelgusida ma`lum bir sanaga valyutani etkazib berish sharti bilan sotish Yoki sotib olish bahosidan iboratdir. Bunda muddatli valyuta operatsiyasida kurs uning ijrosi ma`lum bir muddat o`tganidan so`ng amalga ohsa ham shartnoma tuzilish paytida qayd etiladi.

Valyuta kursiga ta`sir etuvchi omillar juda ko`p, ularning ichida eng muhimlarini ko`rib chiqamiz.

Pul birliklarini sotib olish qobiliyatlari va inflyatsiya sur`ati. Valyutalarni sotib olish qobiliyati bo`yicha bir biriga nisbatan o`lchanishi (sotib olish qobiliyatining pariteti) qiymat qonunini aks ettirgan holda valyuta kursining asosi bo`lib xizmat qiladi.

Valyuta kursi va pul birligining sotib olish qobiliyati o`rtasidagi muvofiqlik hamma vaqt ham kuzatilmaydi. Masalan, 1980 yil ichida AQSH dollarining kursi Doych markaga nisbatan 2%ga o`sgan, ammo shu bilan birgalikda ichki bozorda dollarni sotib olish qobiliyati 13%ga, doych markaniki esa 6%ga pasaygan. Buning sababi shundaki, valyutalarning kunlik kurslar kotirovkasi ularni sotib olish qobiliyatlariga nisbatan korrektirovka qilinmasligida va valyuta kurslariga boshqa omillarning ta`siridadir.

Mamlakat to`lov balansining ahvoli valyutaga bo`lgan talab va taklifga, valyuta kursining darajasiga bevosita ta`sir etadi hamda uning u Yoki bu tarafga

og'ib ketishiga olib keladi. Mamlakatning aktiv to'lov balansi milliy valyuta kursining o'sishiga olib keladi, chunki xorijiy qarzdorlar tomonidan unga bo'lgan talab oshib boradi. Aksincha, passiv to'lov balansi esa milliy valyuta kursining pasayishiga olib keladi.

Turli mamlakatlardagi foiz stavkalarining bir biridan farqi. Mamlakatdagi hisob yuritishning o'rtacha foiz stavkasini ko'tarilishi xorijiy kapitallarni mamlakatga oqib kelishini rag'batlantiradi. Ushbu foiz stavkalarining pasayishi esa aksincha kapitallarni, shu jumladan milliy kapitallarni ham mamlakatdan chetga oqib ketishiga olib keladi.

Kapitallar ayniqsa "qaynoq" (chayqov) pullarning harakati (oqimi) mamlakatlar to'lov balanslari muvozanatsizligini kuchaytirib yuboradi.

Foiz stavkalari valyuta bozorlari operatsiyalari va ssuda kapitallari bozorlaridagi operatsiyalarga ta'sir etadi. Operatsiyalarni amalga oshirishda banklar maksimal foyda olish maqsadida milliy va Xalqaro bozordagi foiz stavkalari farqlarini hisobga oladilar. Ular arzonroq kreditlarni xorijiy ssuda kapitallari bozorida sotib olib, xorijiy valyutani milliy ssuda kapitallari bozorida nisbatan yuqoriroq foiz ustidan joylashtirishga harakat qiladilar.

Valyuta bozorlari faoliyati va chayqov valyuta operatsiyalarining valyuta kursiga kon'yunktura ta'siri. Agarda biror bir valyutaning kursi pasayib borsa, bozor ishtirokchilari uni nisbatan muvozanatliroq valyutaga almashtiradilar va bu bilan ular uning qadrsizlanishini tezlashtirib yuboradilar.

Valyuta bozorlari mamlakat iqtisodiyotida va siyosatida bo'layotgan o'zgarishlar, kurslar nisbatining tebranishiga ta'sir ko'rsatadi.

Evrobozorda u Yoki bu valyutadan foydalanish darajasi uning kursiga bevosita ta'sir etadi. Masalan, 2000 yilgacha Evrobanklar operatsiyalarini 70-75% AQSH dollarida amalga oshishi AQSH dollariga bo'lgan talab ko'lamini belgilaydi. Hozirgi kunda ushbu banklar operatsiyalarida asosiy o'rinni Evro egallagan.

Evrobozorda va Xalqaro hisob-kitoblarda muayyan bir valyutadan foydalanish darajasi. Masalan, muomalaga Evro kiritilgunga qadar Evrobanklar operatsiyalarining 60%i AQSH dollarlarida amalga oshirilgan va ushbu omil mazkur valyutaga bo'lgan talab hamda taklifni belgilagan. Valyuta kursiga undan xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish darajasi ham ta'sir etadi. Masalan, 90-yillarda AQSH dollari zimmasiga xalqaro hisob-kitoblarning 50%i, tashqi qarzдорlikning 70%i (asosan rivojlanib boraYotgan mamlakatlarning) to'g'ri kelgan. SHu sababli jahon baholarining, davlatlar qarzдорliklari bo'yicha to'lovlarning muntazam ravishda o'sishi dollar kursini, uni sotib olish qobiliyatini pasayishi sharoitida ham o'sishiga ko'maklashadi.

Valyutalar kurs nisbatlariga yana xalqaro to'lovlarning tezlashishi Yoki sekinlashishi ham ta'sir etadi. Masalan, muayyan valyutaning pasayishini ko'zda tutgan holda qarzдорlar zarar ko'rmaslik uchun kontragentlarga bu valyutadagi to'lovlarni tezlashtirishga harakat qiladilar. Agarda valyuta qadrlining ko'tarilishi kutilsa aksincha ushbu valyutadagi to'lovlarni amalga oshirishni kechiktirilishi kuzatiladi. Jahon bozoridagi bunday taktika "lidz end legz" nomini olgan va u mamlakat to'lov balansi hamda valyuta kursiga ta'sir etadi.

Jahon va ichki bozorlarda mamlakat milliy valyutasiga ishonch darajasi. Ushbu ishonch mamlakat iqtisodiyotining ahvoli va siyosiy holat hamda yuqorida ko'rib chiqilgan valyuta kursiga ta'sir eta oladigan omillar bilan belgilanadi. SHu bilan birgalikda dilerlar iqtisodiy o'sish va inflyatsiyaning mazkur sur'atlaridan, valyutani sotib olish qobiliyatining o'sishidan, talab hamda taklifning o'zaro nisbatidan tashqari ularning dinamikasi istiqbolini ham hisobga oladilar. Ba'zida, mamlakatning savdo va to'lov balanslari holati Yoki saylovlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni matbuotda chop etilishini kutish talab hamda taklifning o'zaro nisbatiga va valyuta kursiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayrim holatlarda valyuta bozorida imtiyozli Yo'nalishlar vazirlar iste'fosi haqidagi mish-mishlar singari va boshqa shu kabi siyosiy yangiliklar foydasiga o'zgaradi.

Agarda mamlakatning iqtisodiy holati jahonda yuqori baholanaYotgan bo'lsa, unda uning valyutasi kuchli hisoblanadi va iqtisodiy jihatdan kuchsizroq hisoblangan davlat valyutasiga nisbatan yuqoriroq bahoda sotilishi mumkin.

Valyuta siYosati. Valyuta kursining davlat va bozor tomonidan muvofiqlashtirilishini o'zaro solishtirish uning dinamikasiga ta'sir etadi. Valyuta kursining valyutaga bo'lgan talab va taklif mexanizmi orqali valyuta bozorlarida shakllanishi odatda kurs nisbatlarini keskin o'zgarishi bilan xususiyatlidir. Iqtisod, pul muomalasi, moliya va kredit holatining ko'rsatkichi hamda muayyan bir valyutaga bo'lgan ishonch darajasi bo'lmish aniq (real) valyuta kursi bozorda shakllanadi. Valyuta kursini davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi mamlakatning valyuta-iqtisodiy siYosati vazifalaridan kelib chiqqan holda uning ko'tarilishi Yoki pasayishiga qaratilgandir. Ushbu maqsadda ma'lum bir valyuta siYosati amalga oshiriladi.

SHunday qilib, valyuta kursining shakllanishi - bu, milliy va jahon iqtisodiYotlari hamda siYosatlarning o'zaro munosabatlari bilan asoslangan murakkab ko'p omilli jaraYondir. SHu sababli valyuta kursini prognozlashda yuqorida ko'rib chiqilgan kursni shakllantiruvchi omillar hamda ularni valyutalarning o'zaro nisbatiga bir xilda bo'lmagan ta'siri aniq bir vaziyatdan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Valyuta kursi milliy va jahon bozorlari qiymat ko'rsatkichlari o'rtasida aloqa instrumenti sifatida maydonga chiqqan holda xalqaro iqtisodiy munosabatlar hamda takror ishlab chiqarishda faol rol o'ynaydi. Tadbirkor valyuta kursidan foydalangan holda o'z ishlab chiqarish xarajatlarini jahon bozoridagi baholar bilan taqqoslaydi. Ushbu tadbir alohida korxonada Yoxud butun bir mamlakatning tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijasini aniqlash imkonini beradi. Jahon bozorida tovar sotilganda milliy mehnat mahsuli bo'lmish tovar qiymat o'lchovining baynalmilallashgan birligi sifatida jamoatchilik tomonidan tan olinadi. Jahon valyuta bozorida esa valyutalarning baynalmilallashgan qiymatining pariteti aniqlanadi. Valyutalar kurslari nisbati

asosida ushbu mamlakatning jahon savdosidagi solishtirma og'irligini hisobga olgan holda samarali valyuta kursi hisoblanadi. Valyuta kursi eksport va import baholarining nisbati, firmalarning raqobatdoshligi, korxonalar foydasiga ma'lum bir darajada ta'sir etadi.

Valyuta kurslarining keskin tebranishi xalqaro iqtisodiy, shu jumladan valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlar muvozanatsizligini kuchaytiradi hamda salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga, ayrim davlatlarni zararlarga, ayrimlarini esa yutuqlarga olib keladi.

Boshqa omillarning aks ta'siri bo'lmagan paytda milliy valyuta kursi pasayganda eksportYorlar tushum sifatida olingan va qimmatlashgan xorijiy valyutani nisbatan arzonlashgan milliy valyutaga almashuvi hisobiga eksport mukofotini oladilar hamda tovarlarni o'rtacha jahon baholaridan past darajada sotish imkoniga ega bo'ladilar.

Milliy valyuta kursining pasayishi, yuqorida baYon etilgan imtiYozlardan tashqari, bir vaqtning o'zida importning qimmatlashishiga olib keladi. Bu esa mamlakat ichkarisida baholar o'sishiga, tovar olib kirish va iste'mol qilishni qisqarishiga hamda milliy tovar ishlab chiqarishni o'sishiga olib keladi. Valyuta kursining pasayishi milliy valyutada ifodalangan real qarzdorlikni kamayishiga, xorijiy valyutada ifodalangan tashqi qarzlar og'irligining kuchayishiga olib keladi. Xorijiy investorlar tomonidan mamlakat milliy valyutasida olinayotgan foyda, foizlar va dividendlarni chetga olib chiqish manfaatsiz bo'lib qoladi. Ushbu foyda reinvestitsiya qilinadi Yoki mamlakat ichki baholari asosida tovarlar sotib olish hamda ularni eksport qilish uchun ishlatiladi.

Valyuta kursi ko'tarilsa mamlakat ichkarisidagi baholarning raqobatdoshligi hamda eksportning samaradorligi pasayadi. o'z navbatida ushbu jaraYonlar eksport tarmoqlari hamda yalpi milliy ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Import esa aksincha kengayadi. Mamlakatga xorijiy hamda milliy kapitallarni oqib kelishi rag'batlantiriladi, xorijiy kapital qo'yilmalariga olingan foydalarni olib chiqilishi o'sadi. Qadrsizlanib

boraYotgan xorijiy valyutada ifodalangan mamlakat tashqi qarzining real summasi kamayadi. Valyutaning ichki va tashqi qadrsizlanishidagi, ya`ni uning kurs dinamikasi hamda sotib olish qobiliyati orasidagi uzilish xalqaro iqtisodiy munosabatlar uchun katta ahamiyatga ega. Agarda pulning ichki inflyatsion qadrsizlanishi valyuta kursining qadrsizlanishidan sur`ati bo'yicha o'zib ketsa, o'zga shartlarning tengligi sharoitida milliy bozorda yuqori baholarda sotish maqsadida tovarlar importi rag'batlantiriladi. Agarda valyutaning tashqi qadrsizlanishi inflyatsiya hisobiga vujudga keladigan, uning ichki qadrsizlanishidan o'zib ketsa unda valyuta dempingi uchun sharoit etiladi. Boshqacha qilib aytganda, tashqi bozorlarda raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida tovarlarni o'rtacha jahon baholaridan past darajada ommaviy ravishda eksport qilish uchun sharoit tug'iladi.

Valyuta dempingi uchun quyidagilar xususiyatlidir: 1) eksportYor tovarlarni ichki bozorda inflyatsiya ta`sirida ko'tarilgan baholarda sotib olgan holda tashqi bozorda o'rtacha jahon baholaridan pastroq darajada ularni nisbatan muvozanatli bo'lgan valyutaga sotadi; 2) eksport baholarini pasaytirish manbasi bo'lib, tushum sifatida olingan nisbatan barqaror valyutani qadrsizlangan milliy valyutaga almashtirgan paytida hosil bo'ladigan kurslar farqi hisoblanadi; 3) tovarlarni ommaviy ravishda chetga olib chiqilishi eksportYorlarga nihoyatda yuqori darajadagi foydani ta`minlaydi. Demping bahosi ishlab chiqarish bahosidan Yoki tannarhdan ham past bo'lishi mumkin. Biroq eksportYorlar uchun juda ham pasaytirib yuborilgan baho manfaatli emasdir, chunki xorijlik kontragentlar tomonidan tovarlar reeksporti natijasida milliy tovarlar bilan raqobatchilik vujudga kelishi mumkin.

Erkin suzadigan valyuta kurslari rejimi sharoitida kapitallar, ayniqsa qisqa muddatli kapitallar harakatiga ular o'zgarishining ta`siri kuchaydi. Ushbu omil esa o'z navbatida ayrim davlatlarning valyuta-iqtisodiy holatiga o'z ta`sirini o'tkazadi. Valyutasining kursi ko'tarilib boraYotgan mamlakatga xorijiy kapitallarning oqib kelishi natijasida ssuda kapitallari va kapital

qo'yilmalarining hajmi vaqtincha oshib ketishi mumkin. Ushbu o'sgan sarmoyalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish hama davlat byudjeti taqchilligini qoplash maqsadlariga ishlatilishi mumkin. Kapitallarni mamlakatdan oqib ketishi esa ularning kamomadini, investitsiyalar qisqarishini va ishsizlik kuchayishini keltirib chiqaradi.

Valyuta kursi tebranishining oqibatlari mamlakatning valyuta-iqtisodiy mavqeiga, uning eksport kvotasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rniga bog'liq. Valyuta kursi mamlakatlar, milliy eksport va import o'rtasidagi kurash ob'ekti hamda davlatlararo nizolarning manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu sabablarga ko'ra valyuta kursining muammolari iqtisodiy fanda ahamiyatli o'rinni egallaydi.

8.3. To'lov va hisob-kitob balanslari

Barcha mamlakatlar zamonaviy jahon xo'jaligining ishtirokchilari bo'lib hisoblanadi. Alohida mamlakatlarning jahon xo'jaligiga integratsiyalashganlik darajasi turlicha bo'lib hisoblanadi. Mamlakatning hamkorlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari, milliy iqtisodiyotlarni jahon xo'jaligiga birlashtiradigan Xalqaro iqtisodiy aloqalardan iborat. Iqtisodiy munosabatlardan tashqari mamlakatlar o'rtasida pul to'lovlari va tushumlarini vujudga keltiruvchi siyosiy, harbiy, madaniy hamda boshqa munosabatlar ham mavjud.

Mamlakatning ko'p qirrali xalqaro munosabatlari uning xalqaro operatsiyalari balans hisobvarag'ida o'z aksini topadi. Ushbu balans an'ana bo'yicha to'lov balansi deb ataladi.

To'lov balansi - bu, xalqaro operatsiyalarning balans hisob-varaqidir. Ya'ni, bu mamlakatning tovarlar, xizmatlar, kapitallar olib kirish va olib chiqish ko'rsatkichlarini nisbati shaklidagi xalqaro xo'jalik aloqalari kompleksining qiymat ifodasidir.

Xalqaro operatsiyalarning balans hisob-varaqi mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalarining ko'lamlari, tarkibi va xarakterini qiymat jihatidan miqdoriy

hamda sifat ifodasidir. Amaliyotda odat sifatida "to'lov balansi" atamasidan foydalanish, barcha operatsiyalar bo'yicha valyuta oqimlarining ko'rsatkichlarini esa to'lov va tushumlar sifatida belgilash qabul qilingan.

Matbuotda chop etilgan to'lov balanslari nafaqat amalga oshirilgan Yoki ma'lum bir sanaga ijro etilishi kerak bo'lgan to'lov va tushumlarni balki xalqaro talablar hamda majburiyatlar bo'yicha kursatkichlarni ham qamrab oladi.

To'lov balanslarining zamonaviy jadvallari barcha qimmatliklarni mamlakatlararo harakati haqida etarli ma'lumotlarga ega. Bunda majburiyatlarning joriy davrda to'lanmaydigan va kelgusi davrga o'tkazilib yuboriladigan qismi kapital Yoki kreditlar harakatini aks ettiruvchi to'lov balansi moddalariga kiritiladi.

So'nggi paytlarda to'lov balansiga qo'shimcha sifatida mamlakatlararo qimmatliklar harakati to'g'risidagi ma'lumotga ega mamlakatning xalqaro aktivlar va passivlar balansi tuziladi. Ushbu balans mamlakatning zahira toifasidagi xalqaro moliyaviy holatini aks ettiradi va mamlakat jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining qanday bosqichida (pog'onasida) turganligini ko'rsatadi.

Mazkur balansda ushbu davrga mamlakat tomonidan taqdim etilgan va olingan kreditlar, investitsiyalar, boshqa moliyaviy aktivlar qiymatining nisbati aks etadi. Ayrim davlatlarda olingan resurslar hajmi xorijdagi aktivlariga nisbatan katta. Boshqa mamlakatlarda bu ikkala ko'rsatkich ham katta, ham turlichadir. Xorijiy moliyaviy resurslarni netto-import Yori sifatida AQSH alohida o'rin egallaydi. Xalqaro moliyaviy pozitsiya va to'lov balansi ko'rsatkichlarining o'zlari bir-biri bilan bog'liqdir.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ma'lum bir sanaga bo'lgan to'lov balansi va ma'lum bir davr to'lov balansi farqlanadi. Ma'lum bir sanaga bo'lgan to'lov balansini statistik ko'rsatkichlar shaklida qayd etishning ilojisi Yo'q.. Chunki u kundan-kunga o'zgarib turuvchi to'lov va tushumlarning nisbat shakli sifatida mavjuddir.

To'lov balansining ahvoli, ushbu davrga milliy va xorijiy valyutaga bo'lgan talabni belgilab beradi hamda valyuta kursini shakllantiruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lum bir davr uchun to'lov balansi (oy, chorak, yil) ushbu davr mobaynida amalga oshirilgan tashqi iqtisodiy shartnomalar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar asosida tuziladi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarida, uning jahon xo'jaligidagi ishtiroki ko'lamlarida hamda xarakterida sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil etish imkoniyatini beradi.

Davr uchun to'lov balansining ko'rsatkichlari iqtisodiy rivojlanishning agregat ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir (yalpi ichki mahsulot, milliy daromad va shu kabilar) va davlat tomonidan muvofiqlashtirish ob'kti bo'lib hisoblanadi.

Davr uchun to'lov balansining ahvoli milliy valyutaning uzoq muddatdagi davrga bo'lgan holati, uning barqarorligi Yoki valyuta kursining o'zgarish xarakteri bilan uzviy bog'liqdir.

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan to'lov balansi doimo muvozanatda bo'ladi. Ammo o'zining asosiy bo'linmalari bo'yicha agar tushumlar to'lovlardan ko'p bo'lsa aktiv sal'doga, aksincha bo'lganda passiv sal'doga ega bo'ladi. SHu sababli to'lov balansini tuzish va sal'dosini o'lchash uslublari mamlakat tashqi iqtisodiy operatsiyalarini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni to'g'ri tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

To'lov balansi tuzishning nazariyasi va amaliyoti jahon iqtisodiyotida bo'layotgan o'zgarishlarga muvofiq ravishda rivojlanib, takomillashib bormoqda. "Balans" atamasi xalqaro to'lov munosabatlarida bir qator tushunchalarni xususan balans hisobvarag'i, sal'do Yoki hisobvara qoldiqi, hisobvara ahvoli, muvozanat va boshqalarni ifoda etish maqsadida ishlatiladi. SHu sababli to'lov balansi - bu, nafaqat ikki tarafi bir-biriga teng bo'lgan mamlakat Xalqaro operatsiyalari hisobvarag'i, balki o'z ichiga uning asosiy elementlarining sifat va tarkibiy xarakteristikalarini olgan, ushbu operatsiyalarning ma'lum bir ahvalidir.

To'lov balansining tarkibiy tuzilishi. To'lov balansi quyidagi asosiy bo'limlardan iborat:

- savdo balansi, tovarlarni olib kirish va olib chiqish o'rtasidagi nisbat;
- xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi ("ko'zga ko'rinmaydigan" operatsiyalar balansi);
- o'z ichiga tovarlar, xizmatlar va bir tomonlama o'tkazmalarni olgan joriy operatsiyalar balansi;
- kapitallar va kreditlar harakati balansi;
- rasmiy valyuta zahiralar bilan operatsiyalar.

Savdo balansi. Tashqi savdo tarixan milliy xo'jaliklarni jahon xo'jaligiga bog'lovchi tashqi iqtisodiy munosabatlarning birlamchi shakli sifatida maydonga chiqadi. Tashqi savdo tufayli xalqaro mehnat taqsimoti shakllanadi. Xalqaro mehnat taqsimotining o'zi esa tashqi savdo va boshqa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan chuqurlashib hamda takomillashib boradi.

Tashqi savdo ko'rsatkichlari an'anaviy ravishda to'lov balansida muhim o'rinni egallaydi. Tovarlar eksporti va importining o'zaro nisbati savdo balansini tashkil etadi. Tashqi savdoning katta hajmi kredit hisobiga amalga oshirilganligi sababli haqiqatda shu davrda amalga oshirilgan savdo, to'lovlar va tushumlar ko'rsatkichlari o'rtasida tafovutlar mavjud. Ushbu tafovutlar tufayli turli so'ndirilish muddatlariga ega, taalluqli talab va majburiyatlarni vujudga keltiruvchi umumiy savdo balansidan farqli o'laroq, o'z davrida amalga oshirilgan pul to'lovlari hamda haqiqatda olingan tushumlarning nisbati sifatida to'lov balansi tushunchasi paydo bo'ldi. Biroq tashqi iqtisodiy operatsiyalar bo'yicha ma'lumot yig'uvchi organlar hech qachon haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlar va olingan tushumlarni umumiy savdo ko'rsatkichlaridan ajratish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Ular savdo balansiga kiritiladigan tashqi iqtisodiy bitimlar bo'yicha bojxona ma'lumotlaridan foydalanadilar. Aynan shu ma'lumotlar davlat iqtisodiy siYosati nuqtai nazaridan asosiy qiziqish ob'kti

bo'lib hisoblanadi. Ular va real to'lovlar orasidagi farqlar to'lov balansining kredit operatsiyalarida aks etgan.

Savdo balansining aktiv Yoki passivligini iqtisodiy mazmuni aniq mamlakatga nisbatan aloqador hamda uning jahon xo'jaligida tutgan o'ri, hamkorlari bilan aloqalarining xarakteri va umumiy iqtisodiy siYosatiga bog'liqdir. Etakchi davlatlardan iqtisodiy o'sish sur`atlari bo'yicha orqada bo'lgan mamlakatlar uchun aktiv savdo balansi litsenziyalar importiga, xorijiy investitsiyalar yuzasidan daromadlarni to'lash va boshqa Xalqaro majburiyatlar bo'yicha haq to'lash uchun valyuta mablag'lari manbasi sifatida zarur. Bir qator sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar (YAponiya, Germaniya va boshqalar) uchun savdo balansining aktiv sal`dosi kapitallar eksporti, xorijda ikkinchi iqtisodiYotni barpo etish uchun ishlatiladi.

Passiv savdo balansi keraksiz hisoblanib, mamlakatning jahon xo'jaligidagi o'ri kuchsizligini bildiradi. Bu asosan valyuta tushumi taqchilligini sezaYotgan, rivojlanib boraYotgan mamlakatlar uchun hosdir. Sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar uchun esa bu boshqacha ma`noga ega bo'ladi. Masalan, AQSH savdo balansining kamomadi (1991 yildan boshlab) AQSH bozoriga intellektual tovarlarni ishlab chiqaruvchi Xalqaro raqobatchilarni (harbiy Evropa, YAponiya, Tayvan`, Janubiy Korea va boshqa mamlakatlar) kirib borishi bilan xarakterlanadi. Bunday xalqaro mehnat taqsimotining shakllanib borishi oqibatida AQSH va jahon miqYosida resurslar nisbatan samaraliroq ishlatiladi. AQSH tashqi savdosining kamomadi yuqorida zikr etilgan hamkor-mamlakatlarning ushbu operatsiyalar bo'yicha aktiv sal`dosida o'z aksini topadi. o'z navbatida, ushbu hamkor-mamlakatlar o'zining valyuta tushumlari hisobiga xorijiy kapital qo'yilmalarni shu jumladan AQSHda ham amalga oshiradi.

Xizmatlar balansi transport yuk tashuvlari, sug'urta, elektron, telekosmik, telegraf, pochta va boshqa aloqa turlari, Xalqaro turizm, ilmiy-texnik hamda ishlab chiqarish tajribalari bilan almashish, ekspert xizmatlari, diplomatik, savdo va xorijdagi boshqa xizmatlar xarajatlarini ko'tarish, ma`lumotlarni uzatish,

madaniy hamda ilmiy aloqalar, turli vositachilik yig'implari, reklama, yarmarka va boshqa shu kabilar bo'yicha to'lov hamda tushumlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar xalqaro iqtisodiy aloqalarning bir maromda rivojlanib boraYotgan sektorini tashkil etadi. Xizmatlarning to'lovlar va tushumlarning hajmi hamda tarkibiy tuzilishidagi roli va ularga ta`siri muntazam ravishda o'sib bormoqda.

An`anaviy xizmat turlari (transport, sug'urta) savdo bo'yicha tovarlarni etkazib berishning hajmi va turli-tumanligini o'sib borishi, ularning tarkibida Xalqaro kooperatsiya hamda ixtisoslashuvning rivojlanishi tufayli yarim tayYor mahsulotlar, butlovchi qismlar ulushining ortib borishi bilan o'z boshidan katta qayta qurish jaraYonini kechirmoqda.

Rivojlangan davlatlarda aholining yashash darajasi o'sib borgani sari zamonaviy ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi natijasida tarkibida katta ulushga ega bo'lmish xizmat yuzasidan safarlar sifatidagi Xalqaro turizm ko'lamlari ham keskin o'sdi.

Xalqaro ishlab chiqarishning o'sishi ilmiy-texnik inqilob va xo'jalik haYoti baynalmilallashuvining boshqa omillari, lisenziyalar, nou-hau, ilmiy-texnik hamda ishlab chiqarish tajribasining boshqa turlari, lizing operatsiyalari, ishbilarmon maslahatlar va ishlab chiqarish hamda alohida xususiyatga ega boshqa xizmatlar bilan savdo qilishni rag'batlantirdi.

Jahon amaliYotida qabul qilingan qoidalarga muvofiq "xizmatlar" bo'limiga investitsiyalar va xalqaro kreditlar bo'yicha foiz daromadlaridan olingan to'lov hamda tushumlar kiradi, modomiki iqtisodiy mazmuniga ko'ra ular kapitallar harakatiga yaqinroqdir. To'lov balansida quyidagi moddalar ajratilib ko'rsatiladi: xorijiy davlatlarga harbiy Yordam ko'rsatish, xorijdagi harbiy xarajatlar. Ushbu xarajatlar xizmatlar operatsiyalariga mansubdir.

Xalqaro Valyuta Fondining (XVF) uslubiYotiga muvofiq to'lov balansida alohida pozitsiya sifatida bir tomonlama o'tkazmalarni ko'rsatish qabul qilingan. Ularning tarkibida: 1)davlat operatsiyalari - boshqa mamlakatlarga iqtisodiy

Yordam Yo'nalishi bo'yicha subsidiyalar, davlat nafahalari, Xalqaro tashkilotlarga badallar; 2) xususiy tushdagi operatsiyalar - xorijdagi ishchilar, mutahassislar, qarindosh-urug'larning mamlakatga pul o'tkazmalari. Operatsiyalarning ushbu turi katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Italiya, Turkiya, Ispaniya, Gretsiya, Portugaliya, Pokiston, Misr va boshqa davlatlar o'z fuqarolarini pul ishlab kelishga xorijga chiqish masalalarini muvofiqlashtirishga katta e'tibor beradi. Chunki ushbu davlatlar mazkur valyuta tushumlari manbasidan o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirish maqsadida foydalanadilar.

Xorijiy ishchilar va mutahassislarni vaqtincha jalb etadigan GFR, AQSH, Frantsiya, Buyuk Britaniya, SHveytsariya, JAR va boshqa mamlakatlar uchun esa aksincha ushbu pul o'tkazmalari to'lov balansi ushbu moddasining kamomad manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida zikr etilgan xizmatlar bo'yicha operatsiyalar investitsiyalar bo'yicha daromadlar harakati, harbiy tushdagi kelishuvlar va bir tomonlama o'tkazmalar, tovarlar (sezilarli qimmatliklar) importi hamda eksportiga aloqasi bo'lmagan holda "ko'zga ko'rinmas" operatsiyalar deb ataladi. Ularning tarkibida 3 toifadagi kelishuvlarni, ya'ni xizmatlar, investitsiyalardan olingan daromadlar, bir tomonlama o'tkazmalarni ajratib ko'rsatish mumkin. "Xizmatlar va notijorat to'lovlari" atamasi ham ishlatiladi. Ushbu atamaga mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning muhim mazmunini tovarlar bilan savdo tashkil etgan paytdan qolgan an'anaga bildiriladigan hurmatday haraladi.

Joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi savdo balansi va "ko'zga ko'rinmas" operatsiyalarni o'z ichiga oladi. To'lov balansi tuzishning ba'zi bir usullari bir tomonlama davlat o'tkazmalarini alohida moddaga ajratib ko'rsatadi va uni joriy operatsiyalar sal'dosiga qo'shmaydi. Ushbu operatsiyalarni tovarlar va xizmatlar bilan jahon savdosini kapital hamda kreditlar shaklidagi moliyaviy resurslar Xalqaro harakatidan ajratib olish uchun joriy operatsiyalar deb ataylab atay boshladilar.

Kapitallar va kreditlar harakati balansi davlat hamda xususiy kapitallar, taqdim etilgan va olingan Xalqaro kreditlarning davlatga olib kirilishi hamda olib chiqilishi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ushbu operatsiyalar quyidagi ikki toifaga bo'linadi: tadbirkorlik va ssuda kapitallarining xalqaro harakati.

Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (xorijda korxonalarini sotib olish va qurish) va portfel` investitsiyalarini (xorijiy kompaniyalar qimmatli qog'ozlarini sotib olish) o'z ichiga oladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uzoq muddatli kapitalni olib chiqishning eng muhim shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi va to'lov balansiga sezilarli ta'sir etadi. Ular mulk sotib olinishi bilan bog'liq bo'lgan holda qarz majburiyatlarini vujudga keltirmaydilar. Ushbu investitsiyalar natijasida milliy iqtisodiyotlarni savdoga nisbatan yuqoriroq darajada va mustahkamroq jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga ko'maklashuvchi Xalqaro ishlab chiqarish rivojlanadi. 1997 yilda har yilgi qo'yilmalarni qo'shib borish va qoldiqi ko'payib boruvchi uslubi bilan hisoblangan mamlakatlarning barcha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini to'plangan qiymati 3 trln. AQSH dollaridan ko'p summani tashkil etdi. Tadbirkorlik kapitalining xorijga olib chiqilishi ishlab chiqarish va tashqi savdoning o'sishiga nisbatan tez sur'atlarda amalga oshadi. Bu esa o'z navbatida xo'jalik faoliyatining baynalmilallashuvi va globallashtirishida uning roli etakchi ekanligini isbotlaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qiymatining uchdan ikki qismidan ziyodini rivojlangan davlatlarning o'zaro kapital qo'yilmalari tashkil etadi. Bu degani, ular o'rtasidagi xo'jalik aloqalari boshqa davlatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalariga nisbatan yuqoriroq darajada mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Ssuda kapitalining xalqaro harakati muddatlilik alomatiga ko'ra tasniflanadi.

1. Uzoq va o'rta muddatli operatsiyalar bir yildan ziyod muddatga taqdim etilgan davlat hamda xususiy zaYomlar va kreditlarni o'z ichiga oladi. Ushbu

davlat va xususiy zaYomlar hamda kreditlarning oluvchilari bo'lib odatda iqtisodiy rivojlanish bo'yicha ilg'or davlatlardan orqada qolgan mamlakatlar hisoblanadi. Ilg'or, rivojlangan davlatlar esa bu erda kreditorlar sifatida maydonga chiqadi. Xususiy, uzoq muddatli zaYomlar va kreditlar bo'yicha holat esa butunlay boshqacha ko'rinishga ega. Bu erda ham rivojlanib boraYotgan davlatlar rivojlangan davlatlarning xususiy moliya-kredit institutlaridan qarz oladilar. Biroq rivojlangan davlatlarda ham korporatsiyalar uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish Yoki jahon bozoridan resurslarni bank krediti shakllarida aktiv jalb etadilar.

2. Qisqa muddatli operatsiyalar milliy banklarning xorijiy banklardagi joriy hisobvaraqlari (avuarlar), pul kapitalini banklar o'rtasidagi harakati kabi bir yilgacha muddatga bo'lgan Xalqaro kreditlarni o'z ichiga oladi. So'nggi 20 yil ichida jahon pul bozoridagi banklar aro qisqa muddatli operatsiyalar katta hajmga ega bo'ldi. Agarda 60 va 70-yillarda Bretton Vuds valyuta tizimi inqirozini kuchaytirib yuboruvchi kapitallar oqimida "qaynoq" pullarning stihiyali oqimi nisbatan katta ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 80 hamda 90-yillarga kelib, qisqa muddatli pul kapitallarining asosiy oqimi Evrovalyuta bozori orqali amalga oshadigan bo'ldi.

To'lov balansi statistik ko'rsatkichlarini yig'ish va qayta ishlash uslubini takomillashishiga qaramasdan ushbu balans ko'rsatkichlaridagi xatoliklar sezilarli bo'lib holmoqda. SHu sababli statistik xatoliklar va hisobga olinmagan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar kiritiladigan "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasi ajratib ko'rsatiladi. Mutahassislarning ta'kidlashicha, qisqa muddatli pul kapitali harakatining hisobini yuritish ayniqsa iqtisodiy inqiroz paytida nihoyatda qiyin. SHu sababli "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasi to'lov balansining kapitallar va kreditlar harakatini aks ettiruvchi bo'limiga qo'shiladi hamda inqiroz holatlarida uning ko'rsatkichlari keskin oshib ketadi.

To'lov balansining yakuniy moddalari davlat valyuta organlari ishtirok etuvchi, likvid valyuta aktivlari bilan operatsiyalarni aks ettiradi. Ushbu operatsiyalar natijasida markazlashtirilgan rasmiy oltin-valyuta zahiralarning hajmi va tarkibi o'zgaradi.

To'lov balansi takror ishlab chiqarish bilan to'g'ri va teskari aloqaga ega. Bir tomondan, u takror ishlab chiqarishda ro'y beraYotgan jaraYonlar oqibatida shakllanadi, boshqa tomondan esa unga aks ta'sir ko'rsatadi, chunki valyutalar kursi oltin-valyuta zahiralari, valyuta holati, tashqi qarz, valyuta va iqtisodiy siYosat Yo'nalishlari, jahon valyuta tizimi holatiga ta'sir etadi.

To'lov balansi mamlakatning jahon xo'jaligidagi ishtiroki, tashqi iqtisodiy aloqalarining ko'lamlari, tarkibi va xarakteri to'g'risida ma'lumot beradi. To'lov balansida quyidagilar aks ettiriladi:

1) eksportning turli imkoniyatlarini va tovarlar, kapitallar, xizmatlar importiga ehtiYojni belgilovchi iqtisodiYotning tarkibiy disproporsiyalari;

2) iqtisodiYotni bozor va davlat tomonidan muvofiqlashtirish uslublarining o'zaro nisbatidagi o'zgarishlar;

3) kon'yunktura omillar (xalqaro raqobat, inflyatsiya, valyuta kursi va boshqalarning o'zgarish darajasi).

To'lov balansi holatiga bir qator omillar ta'sir etadi. Bular quyidagilar:

a) Mamlakatlar iqtisodiy va siYosiy taraqqiYotining notekisligi, xalqaro raqobat. To'lov balansi asosiy moddalarining evolyutsiyasi jahon iqtisodiYotidagi raqib-markazlar kuchlarining o'zaro nisbatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng harbiy Evropa va YAponiya davlatlari to'lov balanslarining yirik kamomadi sharoitida AQSHning aktiv to'lov balansi shakllandi. Bu o'z navbatida, AQSHning 1950-yillarning oxirigacha monotsentrik hukmronligi tizimida o'z aksini topdi, ya'ni to 1960 yilgacha g'arbiy Evropa va YAponiya davlatlarining savdo balanslari odatda passiv edi, shu davrlardagi AQSHning savdo balansi esa amerika monopoliyalarining jahon bozoridagi mavqei hamda dollarning barqarorligi

tufayli juda katta aktiv sal`do bilan Yopilar edi (1947 yilda 10 mlrd. AQSH dollari). AQSHning xalqaro investor va kreditorga aylanishi ushbu mamlakatga xorijdan yirik miqdordagi dividendlar hamda foizlarning oqib kelishiga sabab bo`ldi. Biroq keyinchalik to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarning yillik o`simidagi AQSHning ulushi g`arbiy Evropa va YAponiya davlatlari ulushining o`shishi hisobiga 1967 yildagi 50 foizdan 1980 yildagi 4 foizgacha pasayib ketdi. 1985 yildan boshlab esa AQSH kapitalning netto-importYoriga aylandi. AQSHning jahon sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini, harbiy xarajatlarining o`shishi sharoitida, 1948 yildagi 54,6 foizdan 1984 yilda 37,8 foizgacha, tovarlar eksportida 33 foizdan 12,7 foizgacha, kapitallar eksportida 70- yillar ichida 20 foizga pasayishi mamlakat to`lov balansi joriy operatsiyalarining muntazam kamomadiga olib keldi. AQSHning 1990 yillardagi uzoq muddatli iqtisodiy ko`tarilishi AQSHga yana jahon iqtisodiYoti va Xalqaro moliyadagi iqtisodiy peshqadamlikni qaytarib olish imkonini berdi. YUqorida zikr etilgan uch markaz, ya`ni AQSH, g`arbiy Evropa va YAponiya o`rtasidagi qarama-qarshilik ularning to`lov balanslari holatida o`z aksini topadi;

b) IqtisodiYotning tsiklii tebranishlari. To`lov balanslarida mamlakat xo`jalik haYotidagi tebranishlar, ko`tarilishlar va tushkunliklar o`z aksini topadi. CHunki mamlakat ichki iqtisodYotiining holatiga tashqi iqtisodiy operatsiyalar bog`liq. Sanoat sikllari mexanizmi bilan bog`liq to`lov balansining tebranishlari mamlakat ichki iqtisodiy siklli jaraYonlarini bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga o`tib ketishiga ko`maklashadi. Ishlab chiqarishning o`shishi Yoqilg`i, hom ashYo, jihozlar importining o`shishiga, pasayishi esa tovarlar olib kirish hajmining qisqarishiga olib keladi. Tovarlar, kapitallar, xizmatlar eksporti jahon bozori sharoitlarining o`zgarishiga molik bo`ladi. Xo`jalik rivojlanishining sustligida kapitalning chetga chiqishi ko`payadi. IqtisodiYotning jadallab rivojlanishida, ya`ni foydalar o`sgan, mamlakatda kredit ekspansiyasi kuchaygan, foiz stavkasi ko`tarilgan paytda kapitalning chetga chiqishi pasayadi. Zamonaviy iqtisodiy tsiklning asinxronligi sababli uning tebranishlari

to'lov balansiga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki egri ta'sir etadi. Jahon iqtisodiy inqirozlari u Yoki bu mamlakatlar to'lov balanslarining yirik ko'lamdagi kamomadlariga olib keladi;

v) Davlatning xorijdagi xarajatlarining o'sishi. To'lov balansi uchun og'ir yuk bo'lib, turli siYosiy va iqtisodiy maqsadlarga qaratilgan, hukumatning tashqi xarajatlari hisoblanadi;

g) Iqtisodiyotning militarizatsiyasi va harbiy xarajatlar. AQSHning to'lov balansida aks etadigan, xorijdagi xarajatlarining asosiy qismi harbiy maqsadlarga mo'ljallangan. Harbiy xarajatlarning to'lov balansiga egri ta'siri birinchi navbatda ularni ishlab chiqarish sharoitlari va iqtisodiy o'sishning sur'atlariga bo'lgan ta'sirida, harbiy bo'lmagan tarmoqlardan yulib olinayotgan resurlarda o'z aksini topadi. Agar eksport tarmoqlari harbiy buyurtmalar bilan bosib yuborilgan, tovarlarni chetga olib chiqishni kengaytirishga mo'ljallangan mablag'lar harbiy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lsa, mamlakatning eksport qobiliyati qisqaradi. Qurollarning o'sishi harbiy-strategik tovarlar shu jumladan, tinchlik vaqtidagi iste'mol me'yorlaridan ortiq bo'lgan hajmda ko'p turdagi hom ashYolar (neft, kauchuk, rangli metallar) importini oshiradi;

d) Xalqaro moliyaviy bog'liqlikning kuchayishi. Zamonaviy sharoitlarda moliyaviy oqimlarning harakati xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakllaridan biriga aylandi. Bu esa o'z navbatida chetga kapitallarni olib chiqishni, ssuda kapitallari jahon bozorining (Evrobozorlarni o'z ichiga olgan holda) rivojlanishini, shartnoma shartlarining erkinlashishi sharoitida moliyaviy bozorlarning o'sishi bilan asoslanadi. Natijada mamlakatlarning moliyaviy o'zaro bog'liqligi ularning o'zaro tijorat bog'liqligidan ustunroq bo'lib qoldi. Bu esa valyuta va kredit tavakkalchiliklarini, birinchi navbatida qarz oluvchining to'lovga laYoqatsizligini kuchaytirib yuboradi. 1980-90 yillardagi jahon qarzlar inqirozi va 1997-98 yillardagi valyuta-moliya inqirozlari ushbu tavakkalchiliklar xavfliligini ochib tashladi;

e) Xalqaro savdodagi o'zgarishlar. Ilmiy texnik inqilob, xo'jalik rivojlanishining sur'atlarini o'sishi, yangi energetika bazasiga o'tilishi Xalqaro iqtisodiy aloqalarda tarkibiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. TayYor mahsulotlar bilan, shu jumladan intellektual tovarlar, neft va energo resurslar bilan savdo qilish sur'ati oshdi. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshida neftga baholarning tusatdan 18 barobar oshib ketishi neft importYori bo'lmish mamlakatlar to'lov balansi joriy operatsiyalarining kamomadiga olib keldi. Tovarlar oqimining geografiyasida rivojlangan davlatlar orasidagi almashuvning kengayish tarafiga qarab o'sishi, rivojlanib boraYotgan mamlakatlar ulushining ularning tashqi savdosida qisqarib borishi holatida yuzaga keladi (jahon savdosining 70%, Evropa Ittifoqi mamlakatlari-38%). Rivojlangan davlatlarning o'zaro savdosi ular eksportining 80 foizini o'z ichiga oladi (Evropa Ittifoqi mamlakatlari-58%), rivojlanib boraYotgan mamlakatlar orasidagi savdo esa ular eksportining 1/4 qismini tashkil etadi. Bunday hol jahon bozoridagi raqobat kurashini kuchaytirib yuboradi;

j) To'lov balansiga valyuta-moliyaviy omillarining ta'siri. Deval'vatsiya odatda eksportni, reval'vatsiya esa importni rag'batlantiradi. Jahon valyuta tizimining barqarorsizligi Xalqaro savdo va hisob-kitoblar sharoitlarini Yomonlashtiradi. Milliy valyuta kursining pasayishi kutilgan holda eksport va import bo'yicha to'lov muddatlarining o'rnidan siljishi ro'y beradi, ya'ni importYorlar to'lovlarni tezlashtirishga, eksportYorlar esa aksincha xorijiy valyutadagi tushumni olishni kechiktirishga harakat qiladilar ("lidz end legz" siYosati). Xalqaro hisob-kitoblar muddatlaridagi kichik bir qisqa uzilish mamlakatdan kapitallarni chetga oqib ketishiga olib kelishi mumkin. Baho va to'lov valyutasi sifatida ishlatilaYotgan etakchi valyutalar kurslarining tebranishi ko'pchilik davlatlarning to'lov balanslariga ta'sir etadi;

z) inflyatsiyaning to'lov balansiga salbiy ta'siri. Bunday holat, ya'ni baholarni pasayishi milliy tovarlarning eksportini qiyinlashtirib,

raqobatdoshligini pasaytirgan, tovarlar importini rag'batlantirgan va kapitallarni xorijga chiqib ketishiga imkon bergan paytda vujudga keladi;

i) Favqulodda holatlar - hosilning bo'lmasligi, tabiiy ofatlar, haloqatlar va shu kabilar to'lov balansiga salbiy ta'sir etadi.

8.4. Valyuta siYosati

Valyuta siYosatining Yo'nalishlari va shakllari mamlakatlarning valyuta-iqtisodiy holati, jahon xo'jaligining evolyutsiyasi, jahon arenasidagi kuchlar joylashishi bilan belgilanadi. Turli tarixiy bosqichlarda birinchi qatorga valyuta siYosatining aniq vazifalari chiqadi: valyuta inqirozini bartaraf etish va valyuta barqarorligini ta'minlash; valyuta cheklovlari, valyutani erkin ayirboshlanishiga o'tish, valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish hamda shu kabilar. Valyuta siYosati mamlakatlar o'zaro aloqalari tamoyillarini aks ettiradi: nisbatan kuchsiz (birinchi navbatda rivojlanib boraYotgan) hamkorlar kamsitilishini keltirib chiqaruvchi hamkorlik va kelishmovchiliklar, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashuv.

Valyuta siYosati maqsad va shakllariga ko'ra tarkibiy hamda joriy siYosatlarga bo'linadi. Tarkibiy valyuta siYosati - bu, jahon valyuta tizimida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga Yo'naltirilgan uzoq muddatli choratadbirlar yig'indisidir. U barcha mamlakatlar manfaatida valyuta tamoyillarini takomillashtirish maqsadida valyuta islohotlari shaklida amalga oshiriladi va muayyan valyutalarga imtiYozlar berilishi uchun kurash bilan hamoxang olib boriladi. Tarkibiy valyuta siYosati joriy siYosatga ta'sir ko'rsatadi. Joriy valyuta siYosati - bu, valyuta kursi, valyuta operatsiyalari, valyuta bozori va oltin bozori faoliyatini kunlik, tezkor muvofiqlashtirishga qaratilgan qisqa muddatli choratadbirlar yig'indisidir.

Valyuta siYosatining shakllari. Valyuta siYosatining quyidagi shakllari qo'llaniladi: diskont, deviz siYosati va uning turlaridan biri bo'lmish valyuta intervensiyasi, valyuta zahiralarning diversifikatsiyasi, valyuta cheklanishlari,

valyutalarni almashinish darajalarini muvofiqlashtirish, valyuta kursi rejimi, deval'vatsiya, reval'vatsiya.

Diskont (hisob yuritish) siYosati - bir tomondan kapitallarni xalqaro harakatiga valyuta kursi va to'lov balansini, ikkinchi tomondan ichki kreditlar, pul massasi, baholar, yalpi talab dinamikasini ta'sir etishi orqali muvofiqlashtirishga Yo'naltirilgan Markaziy bank hisob yuritish stavkasining o'zgarishi. Masalan, passiv to'lov balansida kapitallarni nisbatan erkin harakatlana olishi sharoitida hisob yuritish stavkasining ko'tarilishi foiz stavkalari nisbatan past bo'lgan mamlakatlardan kapitallar oqib kelishini rag'batlantirishi va milliy kapitallarni mamlakatdan oqib ketishini oldini olishi mumkin. Bu esa o'z navbatida to'lov balansi holatining yahshilanishi va valyuta kursining ko'tarilishiga olib keladi. Rasmiy stavkani pasaytirgan holda Markaziy bank to'lov balansi aktiv sal'dosini va o'z milliy valyutasi kursini pasaytirish maqsadida milliy hamda xorijiy kapitallarni oqib ketishiga ishonadi.

Zamonaviy sharoitda diskont siYosatining samaradorligi pasaydi. Bu esa uning ichki va tashqi maqsadlarining o'zaro qarama-qarshiligini kuchayganligi bilan izohlanadi. Agar foiz stavkalari kon'yunkturani jonlantirish maqsadida pasaytirilaYotgan bo'lsa, bu kapitallarni oqib ketishini keltirib chiqargan holda to'lov balansiga salbiy ta'sir etadi. To'lov balansi holatini yahshilash maqsadida hisob yuritish stavkasini ko'tarilishi, agarda u tushkunlik holatida bo'lsa, mamlakat iqtisodiYotiga salbiy ta'sir etadi. Diskont siYosatining mahsuldorligi mamlakatga xorijiy kapital oqib kelishiga bog'liqdir, ammo barqarorsizlik sharoitida foiz stavkalari hamma vaqt ham kapitallar oqimini belgilab beravermaydi. Kapitallar va kreditlar xalqaro harakatini muvofiqlashtirish ham hisob yuritish siYosatini to'lov balansiga bo'lgan ta'sirini birmuncha pasaytiradi. Bu erdan diskont siYosatining qisqa muddatliligi va nisbatan past samaradorliligi kelib chiqadi. Etakchi davlatlar, birinchi navbatda AQSHning diskont siYosati milliy manfaatlariga zid ravishda foiz stavkalarni ko'tarish Yoki

pasaytirishga majbur bo'lgan raqobatchilarga salbiy ta'sir etadi. Natijada vaqti-vaqti bilan foizlar urushi paydo bo'lib turadi.

Deviz siYosati. Bu, milliy valyuta kursiga davlat organlari tomonidan xorijiy valyutani (deviz) oldi-sottisi orqali ta'sir etish uslubidir. Milliy valyuta kursini ko'tarish maqsadida Markaziy bank xorijiy valyutani milliy valyutaga sotadi, pasaytirish uchun esa aksincha sotib oladi. Deviz siYosati asosan valyuta intervensiyasi shaklida amalga oshadi. Valyuta intervensiyasi rasmiy oltin-valyuta zahiralarini Yoki markaziy banklarning banklararo "svop" kelishuvlariga asosan milliy valyutadagi qisqa muddatli o'zaro kreditlari hisobiga amalga oshiriladi.

Valyuta intervensiyasi XIX asrdan boshlab qo'llanila boshlandi. Masalan, Rossiyaning Davlat banki, Avstro-Vengriya banki o'z milliy valyutalari kursini-qo'llab quvvatlash maqsadida intervensiyadan foydalangan. Oltin monometalizmi bekor qilinishidan so'ng valyuta intervensiyasi keng qo'llanila boshlandi. 1929-1933 yillar jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida valyuta intervensiyasidan markaziy banklar valyuta dempingiga ko'maklashish uchun o'z valyutalari kursini pasaytirish maqsadida foydalangan.

Valyuta intervensiyalarini o'tkazishning moddiy asosi bo'lib AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Kanada va boshqa mamlakatlarda 1930-yillarda tashkil etilgan valyuta barqarorlashtirish fondlari xizmat qildi. Valyuta barqarorlashtirish fondlari - bu, valyuta kursini muvofiqlashtirish maqsadida valyuta intervensiyasida ishlatiladigan oltin, xorijiy va milliy valyutalardagi davlat fondlaridir. Zamonaviy sharoitda ayrim mamlakatlarda ushbu fondlarning belgilanishi va roli o'z xususiyatlariga ega. Frantsiyada yuqorida zikr etilgan fond maqsadli fond bo'lib rasmiy oltin-valyuta zahiralarini doirasida ajratiladi. Frantsiya banki o'z intervensiya operatsiyalarining xarakteri va ko'lamini oshkora etmaslik uchun ushbu fondning hajmini matbuotda e'lon qilmaydi. AQSHda esa valyuta barqarorlashtirish fondi o'z ahamiyatini Yo'qotdi (uning 2 mlrd. AQSH dollaridagi hajmi barpo etilish paytidan boshlab, ya'ni 1934 yildan

o'zgarmasdan kelmoqda), chunki federal zahira banklari valyuta intervensiyasini asosan "svop" kelishuvining shartlari asosida xorijiy markaziy banklar kreditlari hisobiga amalga oshiradilar. Buyuk Britaniyada hozirgi kunda valyuta barqarorlashtirish fondi mamlakatning barcha rasmiy oltin-valyuta zahiralari o'zida birlashtiradi.

Deviz siYosati bevosita valyuta kursiga ta'sir etadi, ammo ushbu ta'sir muvaqqat va cheklangan ko'lamlardadir. Valyuta intervensiyasiga bo'lgan yirik xarajatlar, agarda kurs shakllanishining bozor omillari davlat muvofiqlashtirishidan ustunroq bo'lsa, hamma vaqt ham valyuta kurslari barqarorligini ta'minlay olmaydi. Masalan, YAponiya Banki 1998 yilni aprelida valyuta bozorida 21 mlrd. AQSH dollarini (valyuta zahiralari 10 foizi) sotdi, Biroq so'nggi 8 yil ichida eng yuqori (1AQSH dollari uchun 1380 iena), rekordli iena kursi tushishining oldini ololmadi va YAponiya valyuta intervensiyasini cheklashga qaror qildi.

Valyuta zahiralari diversifikatsiyasi - davlatlar, banklar, TMKlarning Xalqaro hisob-kitoblar, valyuta intervensiyasini amalga oshirish va valyuta Yo'qotishlaridan o'zini himoyalashni ta'minlash maqsadida valyuta zahiralari tarkibiga turli valyutalarni kiritish orqali tarkibiy tuzilishini muvofiqlashtirishga Yo'naltirilgan siYosatidir. Ushbu siYosat odatda barqarorsiz valyutalarni sotish va nisbatan barqaror hamda xalqaro hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan valyutalarni sotib olish orqali amalga oshiriladi. AQSH dollarining barqarorsizligi uning kapitalistik dunYo rasmiy zahiralariidagi ulushini tebranishiga sabab bo'ldi (1973 yilda-84,5 foiz, 1982 yilda-71,4 foiz, 1990 yilda-60 foizga yaqin).

Valyuta paritetlari va valyuta kurslari rejimi milliy hamda davlatlararo muvofiqlashtirish obe`kti bo'lib hisoblanadi. Bretton Vuds kelishuvi shartlariga muvofiq mamlakatlar o'z milliy valyutalari kurslarini bozor bahosi asosida AQSH dollariga nisbatan XVFda qayd etdilar va oltinning rasmiy bahosi (1 troya untsiyasi - 35 AQSH dollari) asosida ularning zaminidagi oltin

miqdorlarini belgiladilar. Fond a`zolari bo`lmish mamlakatlar o`z valyutalari bozor kurslarini paritetidan +,-1 foizdan oqib ketishiga Yo`l qo`ymaslik majburiyatini o`z zimmalariga oldilar.

Deval`vatsiya va reval`vatsiya valyuta siYosatining an`anaviy uslublaridir. Deval`vatsiya - bu, xorijiy valyutalar Yoki Xalqaro valyuta birliklariga, oltinga nisbatan milliy valyuta kursining pasayishi. Uning ob`ktiv asosi bo`lib rasmiy valyuta kursining bozor kursiga nisbatan yuqoriroq qo`yilishi hisoblanadi. Reval`vatsiya - bu, xorijiy valyutalar Yoki Xalqaro valyuta birliklariga, oltinga nisbatan milliy valyuta kursining ko`tarilishidir.

Kurslar farqi nuqtai nazaridan funt sterling deval`vatsiyasi oqibatida AQSH dollarining haqiqiy reval`vatsiyasidan AQSHning yutuq va Yo`qotishlari shartli hisob-kitoblarini ko`rib chiqamiz.

1. Tashqi savdo. AQSH-ning Buyuk Britaniyaga eksporti bo`yicha bajarilmagan shartnomalar summasi 20 mln. funt sterlingni tashkil etadi deb faraz qilamiz. Amerika eksportYorlarining zararlari (himoya shartlashuvi Yo`qligi paytda) 8 mln. dollarga etadi, chunki ular tushum sifatida olingan funt sterlinglarni AQSH dollarlariga 1 funt uchun 2,8 dollar kursi o`rniga 2,4 dollar kursi bo`yicha almashtiradilar, ya`ni:

$20 \text{ mln. f. st.} * (2,8 - 2,4) \text{ q } 8 \text{ mln. dollar.}$

Buyuk Britaniyadan import bo`yicha bajarilmagan shartnomalar summasi - 15 mln. f. st. Amerikalik eksportYorlar qo`shimcha 6 mln. dollar oladilar, chunki deval`vatsiya qilingan valyutani nisbatan qimmatlashgan o`z valyutalariga sotib olganda ular yutadilar.

$15 \text{ mln. f. st.} * (2,8 - 2,4) \text{ q } 6 \text{ mln. dollar.}$

2. Xalqaro kredit. Amerikalik qarzdorlarga qarzlari bo`yicha hisob-kitoblarni funt sterlinglarda qilish qulay, chunki qarzni so`ndirish uchun ular nisbatan kam miqdorda dollar sarflaydilar. Agar 5 mln. f. st. hajmida qarz so`ndirilsa 2 mln. AQSH dollari tejaladi (5 mln. f. st. 0,4 dollar miqdoridagi kurslar farqiga ko`paytiriladi). Ammo Amerikalik kreditorlar zarar ko`radilar,

chunki ular nominal jihatdan avvalgi hajmda, lekin deval'vatsiya qilingan valyutada real jihatdan kamroq miqdordagi summani oladilar. YA`ni, AQSHlik kreditorning 10 mln. f. st. talabi mavjud bo'lgan paytda Yo'qotishlar hajmi 4 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. SHu bilan birgalikda deval'vatsiya qilingan naqd valyuta va sterlingli hisobvaraqa egalari ham zarar ko'radilar. Bunda agressiv va mudofaali deval'vatsiya hamda reval'vatsiyalar farqlanadi.

Deval'vatsiya va reval'vatsiya natijalari aniq shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi hamda ta`siri, agar boshqa omillarning aks ta`siri bo'lmasa, ma`lum bir vaqtdan (lag) so'ng o'zini namoyon etadi. Xususan, AQSH dollarining 1971 yildagi deval'vatsiyasi faqat 1973 yildagina AQSH to'lov balansining aktivlashishiga ko'maklashdi. Dollar kursini ko'tarishga qaratilgan AQSHning valyuta siyosati (1980-1984 yillarda haqiqatda 80%ga) ularga, inflyatsiya sur`atini pasaytirgan holda, xorijiy kapitallar va arzon tovarlarning oqib kelishi sifatida foyda keltirdi.

Deval'vatsiya baholarning o'sishiga va mehnatkashlar haYot darajasini pasayishiga, reval'vatsiya esa arzon xorijiy tovarlar raqobatini ko'tara olmayotgan tarmoqlardagi ishsizlikning ko'payishiga ko'maklashadi. Deval'vatsiya mamlakatlar o'rtasida raqobatchilik kurashini kuchaytirib yuboradi. g'arbiy Evropa davlatlarining dollarning ikki deval'vatsiyasidan Yo'qotishlari taxminan 10 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Rivojlanib boraYotgan davlatlar esa etakchi valyutalar deval'vatsiyalaridan zarar ko'radilar.

Valyuta siyosatida ikki qarama-qarshi bo'lgan tendensiya o'zaro chambarchas bog'lanib ketadi: harakatlarning muvofiqlashtirilishi, valyuta muammolarini hal etishning o'zaro Yo'llarini topish, har bir alohida mamlakatni boshqalar evaziga imtiyozga ega bo'lishga intilish oqibatidagi kelishmovchiliklar. Buning munosabati bilan vaqti-vaqti bilan mamlakatlarning valyuta siyosatining turli shakllari Yordamida iste`mol bozorlari, kapital qo'yilmalar jaraYonlari, hom ashYo manbalari uchun valyuta janglari qo'zib

turadi. Ushbu janglarda deval'vatsiya va reval'vatsiya, valyuta kurslari rejimining ko'p xilligi, valyuta intervensiyasi, valyuta cheklovlari ishlatiladi.

Valyuta cheklovlari valyuta siYosatining shakllaridan biri sifatida muntazam ravishda ishlatiladi. Valyuta cheklovlari - bu, rezident va norezidentlarning valyuta hamda boshqa valyuta qimmatliklari bilan operatsiyalarini qonunchilik Yoki ma'muriy jihatdan taqiqlash, limitlash va cheklashdir. Valyuta cheklovlari rezident va norezidentlar valyuta operatsiyalarini tekshirish orqali valyuta qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydigan valyuta nazoratining tarkibiy qismidir. Valyuta cheklanishlari mavjudligida valyuta nazorati jaraYonida litsenziya va ruxsatnomalarning bor-Yo'qligi, rezidentlar tomonidan milliy valyuta bozorida xorijiy valyutalarning sotilishi bilan bog'liq talablarning bajarilishi, xorijiy valyutadagi to'lovlarning asoslanganligi, valyuta operatsiyalari bo'yicha hisobni yuritish hamda hisobotning sifati tekshiriladi. Valyuta cheklovlari mavjudligida valyuta nazorati funksiyalari odatda Markaziy bankka yuklatiladi, ayrim davlatlarda esa buning uchun maxsus organlar tashkil etiladi (masalan, Frantsiyada ikkinchi jahon urushidan so'ng).

Valyuta siYosatining turli-tumanligi sifatidagi valyuta cheklovlari quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: 1) to'lov balansini birxillashtirish; 2)valyuta kursini qo'llab quvvatlash; 3)joriy strategik vazifalarni bajarish uchun valyuta qimmatliklarining davlat qo'lida to'planuvi. Valyuta cheklanishlari o'zining kamsitish xarakteri bilan ajralib turadi, chunki valyuta qimmatliklarini, mayda va o'rta tadbirkorlar hisobiga, ularni xorijiy valyutalar olishi uchun qiyinchiliklar tug'dirgan holda, davlat hamda yirik korxonalar foydasiga qayta taqsimlanishiga ko'maklashadi. SHu sababli monopollashmagan sektor valyuta cheklanishlari kiritilishiga odatda qarshi chiqadi. Valyuta cheklanishlari odatda hamkor savdogarlarga nisbatan qo'llaniladigan tazyiq va kamsitish siYosatining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbularni qo'llanilishida siYosiy sabablar katta rol o'ynaydi.

Valyuta cheklovlari quyidagilarni nazarda tutadi:

1) Xalqaro pul to'lovlari va kapital o'tkazmalarini muvofiqlashtirish, eksport tushumi, foyda, oltin harakati, pul belgilari hamda qimmatli qog'ozlar repatriatsiyasi;

2) xorijiy valyutaning erkin oldi-sotdisini taqiqlash;

3) xorijiy valyuta va boshqa valyuta qimmatliklarining davlat qo'lida to'planuvi. SHu jumladan, to'lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqalar), nominali xorijiy valyutada ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallarning to'planuvi.

8.5. Xalqaro hisob-kitoblar, ularning shakllari

Xalqaro hisob-kitoblardagi o'zgartirishlarning paydo bo'lishi hamda ularning yanada takomillashib borishi tovar ishlab chiqarish va muomala jaraYonining rivojlanishi hamda baynalmilallashuvi bilan bog'liqdir. Tovarlarni ishlab chiqarish va ularni sotish davrlarini o'zaro muvofiq kelmasligi hamda iste'mol bozorlarining uzoqligi tufayli xalqaro muomaladagi qiymatlar harakatining nisbatan mustaqil bo'lib qolgan shakli xalqaro hisob-kitoblarda o'z aksini topadi. Xalqaro hisob-kitoblar tovarlar va xizmatlar bilan tashqi savdo hamda notijorat operatsiyalar, kreditlar va mamlakatlararo kapitallar harakati bo'yicha hisob-kitoblarni qamrab oladi.

Xalqaro hisob-kitoblar - turli mamlakatlar fuqarolari va yuridik shaxslari o'rtasida iqtisodiy, siYosiy hamda madaniy munosabatlar tufayli vujudga keladigan pul talablari va majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni muvofiqlashtirishdir. Xalqaro hisob-kitoblar bir tomondan, amaliYotda shakllangan va Xalqaro hujjatlar hamda udumlar bilan mustahkamlangan to'lovlarni amalga oshirish shartlari va tartibini, ikkinchi tomondan ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish yuzasidan kunlik amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Hisob-kitoblarning eng katta hajmi bank hisobvaraqlarida Yozuvlarni amalga oshirish orqali naqdsiz pul o'tkazish Yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda

jahonning eng yirik banklari xalqaro hisob-kitoblarda etakchilik rolini o'ynaydi. Mazkur banklarning xalqaro hisob-kitoblarga bo'lgan ta'sir darajasi ular joylashgan mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari, milliy valyutasining ishlatilish ko'lamlari, ixtisoslashganligi, moliyaviy ahvoli, ishbilarmonlik mavqei, vakil banklar tizimiga bevosita bog'liqdir.

Banklar hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun o'zlarining xorijiy bo'limlari va xorijiy banklar bilan o'rnatilgan vakillik munosabatlaridan foydalanadilar. Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o'rnatilganda "loro" (xorijiy banklarning mazkur bankda ochgan hisobvarag'i) va "nostro" (mazkur bankning xorijiy banklarda ochgan hisobvarag'i) hisobvaraqlari ochiladi. Vakillik munosabatlari hisob-kitoblar tartibi, vositachilik haqining hajmi, ishlatilib bo'lingan mablag'larni to'latish uslublarini belgilab beradi. Xalqaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirish uchun banklar odatda kutilaYotgan to'lovlarning tarkibiy tuzilishi hamda muddatlariga muvofiq ravishda zarur bo'lgan va turli valyutalarda ifodalangan valyuta pozitsiyalarini ta'minlab turadilar hamda o'z valyuta zahiralarini diversifikatsiyalash siYosatini o'tkazadilar. Banklar nisbatan yuqori foyda olish maqsadida o'z valyuta aktivlarini jahon ssuda kapitallari bozorida, shu jumladan Evrobozorda joylashtirishni afzal ko'rgan holda "nostro" hisobvaraqlaridagi minimal qoldiqlarni ta'minlashga harakat qiladilar.

Xalqaro hisob-kitoblar borasidagi banklar faoliyati bir tomondan milliy qonunchilik bilan muvofiqlashtiriladi, boshqa tomondan esa o'rnatilgan qoidalar va udumlar Yoki alohida hujjatlar bilan mustahkamlangan ko'rinishda mavjud bo'lgan, shakllangan amaliYot bilan belgilanadi.

Xalqaro hisob-kitoblarda asosan milliy valyutalarning ishlatilishi ulardan foydalanish samaradorligini kurs tebranishlari hamda ushbu valyutalar emitentlari bo'lmish mamlakatlarning iqtisodiy va valyuta siYosatiga bog'liqligini kuchaytiradi. Xalqaro hisob-kitoblarning holati bir qator omillarga bog'liqdir: mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siYosiy munosabatlar; valyuta

qonunchiligi; Xalqaro savdo qoidalari hamda udumlari; bank amaliyotlari; tashqi savdo shartnomalari va kredit bitimlarining shartlari.

Tashqi iqtisodiy bitimlarning valyuta-moliyaviy va to'lov shartlari. Xalqaro savdo shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblar o'ta murakkab bo'lib, bank hodimlarining yuqori malakaga ega bo'lishligini talab etadi. To'lov olinishining tezligi va kafolati hamda banklar orqali operatsiyalar o'tkazishning xarajatlar summasi hisob-kitoblar shakllari va shartlarining tanloviga bog'liqdir. SHu sababli tashqi savdo bo'yicha hamkorlar muzokaralar borasida to'lov shartlarining ikir-chikirlarini kelishib oladi va so'ngra ushbu shartlarni shartnomaga kiritib rasmiylashtiradi. SHartnomalarning valyuta-moliyaviy va to'lov shartlari tuzilayotgan paytda eksportyor manfaatlarini importyor manfaatlariga teskari ekanligi odatda ko'zga tashlanadi. Bunda eksportyor valyutaning maksimal summasiga nihoyatda qisqa vaqt ichida ega bo'lishni xohlaydi, importyor esa aksincha iloji boricha kam miqdordagi valyutaning hajmini to'lash, tovarlar olinishini tezlashtirish hamda mazkur tovarlar to'la sotilgunga qadar to'lov muddatini iloji boricha kechiktirishdan manfaatdordir. Bitimlarning valyuta-moliyaviy va to'lov shartlarini tanlanishi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarning xarakteri, kontragentlar kuchlarining o'zaro nisbati, ularning ushbu sohadagi malakasi va mazkur tovar bilan savdoning an'analari hamda udumlariga bog'liqdir. hukumatlararo kelishuvlar hisob-kitoblarning umumiy tamoyillarini belgilaydi, tashqi savdo shartnomalarida esa ushbu hisob-kitoblar amalga oshirilishining batafsil shartlari ko'rsatiladi. Mazkur shartlar quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: baho valyutasi; to'lov valyutasi; to'lov shartlari; to'lov vositalari; hisob-kitob shakllari hamda ushbu hisob-kitoblarni amalga oshiradigan banklar.

Baho valyutasi va to'lov valyutasi. Baho valyutasi va to'lov valyutasi tanloviga (baho darajasi, kredit bo'yicha foiz stavkasi katta-kichikligidan farqli o'laroq) ma'lum bir darajada bitimning valyuta samaradorligi bog'liqdir. eksport va import shartnoma baholari turlichadir hamda ular ushbu shartnomalarga

kiritiladigan, tovarlarni eksportYordan importYorga etib berilishi bilan bog'liq (eksportYor mamlakat omborida saqlanishi, portgacha bo'lgan Yo'l va portdagi saqlanish, chet eldagi Yo'l, xorijdagi ombor hamda importYorga tovarlarni etkazish xarajatlari) qo'shimcha xarajatlarga bog'liqdir. Tovarlar baholarini aniqlashning quyidagi besh asosiy tamoyili mavjud:

1.SHartnomani tuzaYotgan paytda baholar qat'iy belgilanadi hamda ushbu shartnoma ijrosi mobaynida belgilangan baholar o'zgarmaydi. Ushbu uslub jahon bozorida baholarning pasayishi tendentsiyasi mavjud bo'lgan paytda qo'llaniladi.

2.SHartnomaga qo'l qo'yilaYotgan paytda bahoni (tovar etkazilish kuniga bo'lgan u Yoki bu tovar bozorining kotirovkalari asosida) belgilash tamoyili qayd etiladi, bahoning o'zi esa bitimning ijrosi mobaynida belgilanadi. Ushbu uslub odatda bozor baholarining ko'tarilishi tendentsiyasida qo'llaniladi.

3.SHartnoma tuzilaYotgan paytda baho qat'iy belgilanadi, ammo bozor bahosi shartnomadagi bahoga nisbatan aytaylik 5%dan ortiqroq hajmga o'zgarsa, u o'zgarishi mumkin.

4.Xarajatlarni tashkil etuvchi elementlar hajmini o'zgarishiga bog'liq bo'lgan sirpanuvchan baho. Masalan, jihoz (asbob-uskuna)lar etkazib berilishiga buyurtma berilganda, yuqori kon'yunktura sharoitlarida buyurtmachi manfaatlarida cheklovlar kiritiladi (baho o'zgarishining umumiy chegarasi Yoki baho "sirpanishi"ni xarajatlarning bir qismiga va qisqa muddatga tarhalishini).

5.Aralash shakli: bahoning bir qismi qat'iy belgilanadi, bir qismi esa sirpanuvchan shaklda o'rnatiladi.

Baho valyutasi bu, tovarga bo'lgan baho ifodalanadigan valyutadir. Tovarning bahosi qat'iy belgilanadigan valyutani tanlashda tovarning turi va yuqorida aytib o'tilgan xalqaro hisob-kitoblarga ta'sir etuvchi omillar, ayniqsa hukumatlararo kelishuvlarning shartlari hamda Xalqaro udumlar katta ahamiyat kasb etadi. Ba`zida shartnomaning bahosi, valyuta xavf-xatarlarini sug'urtalash

maqsadida bir nechta (ikki va undan ko'p) valyutada Yoki standart (SDR, EKYU- 1999 yilda "Evro"ga o'zgartirilgan) valyuta savatida ko'rsatiladi.

To'lov valyutasi bu, importYor (Yoki qarz oluvchi) majburiyatlari so'ndirilishi kerak bo'lgan valyutadir. Valyuta kursining barqarorsizligi sharoitida baholar nisbatan barqaror bo'lgan valyutada, to'lov esa odatda importYor mamlakat valyutasida belgilanadi. Agarda baho valyutasi va to'lov valyutasi o'zaro muvofiq kelmasa, unda shartnomada bir valyutani ikkinchi valyutaga qayta hisoblanish kursi o'zaro kelishiladi (Yoki XVF SDR negizida qayd etiladigan pariteti, Yoki valyutalarning bozor kursi bo'yicha). SHartnomada qayta hisoblanish shartlari belgilanadi:

1)ma'lum bir turdagi to'lov vositasining kursi - trattasiz to'lovlar yuzasidan telegraf pul o'tkazmasi Yoki kredit bilan bog'liq hisob-kitoblar bo'yicha vekselni;

2)ma'lum bir valyuta bozorida (sotuvchi, sotib oluvchi Yoki uchinchi tarafning) tuzatish va muvofiqlashtirishlar vaqti aniqlab olinadi (masalan, to'lov amalga oshirilishidan bir kun avval Yoki to'lov kuni);

3)qayta hisoblash amalga oshiriladigan kurs kelishib olinadi: odatda o'rtacha kurs, ba`zida valyuta bozorini ochilishiga, Yopilishiga bo'lgan sotuvchi Yoki sotib oluvchi kurslari, Yoki kunning o'rtacha kursi.

To'lov shartlari tashqi iqtisodiy bitimlarning muhim elementidir. Ularning ichida quyidagilar farqlanadi: naqdli to'lovlar, kredit taqdim etilishi bilan hisob-kitoblar, naqdli to'lov bo'yicha opsiyonli kredit (tanlov huquqi bilan).

Xalqaro hisob-kitoblardagi naqdli to'lov tushunchasi deganda eksport tovarlari sotib oluvchiga etkazib berilganidan so'ng ularga pul to'lanishi Yoki tovarlar shartnoma shartlariga muvofiq etkazib berilganligi to'g'risida guvohlik beruvchi hujjatlarga qarshi bo'lgan to'lov ko'zda tutiladi. Biroq zamonaviy sharoitlarda tovar importYor mamlakatiga ko'p holatlarda to'lov amalga oshirilishi lozim bo'lgan hujjatlardan avval etib keladi va sotib oluvchi tovarlarni ularga haq to'lanishidan avval saqlash (trast) tilxati, bank kafolati

evaziga olishi mumkin. SHunday qilib, tovarlar so'nggi manzil portiga etkazib berilganidan so'ng to'lov amalga oshiriladi, tovarlar jo'natilganligi to'g'risidagi ogohnomaga qarshi amalga oshiriladigan to'lovlar bundan mustasno. Kontragentlar kelishuviga hamda sotilaYotgan tovarlar xususiyatlariga bog'liq bo'lgan holda importYor ma'lum bir bosqichda to'lovni amalga oshiradi: jo'natilish portida tovarlarni yuklash ishlari tugaganligi tasdiqini olgandan so'ng; tovar hujjatlarining komplekti (schYot-faktura, konosament, sug'urta polisi va boshqalar)ga qarshi; ba`zida to'lovni 5-7 kunga, neft etkazib berish bo'yicha esa 30 kunga kechiktirish bilan; so'nggi manzil bo'lgan portda importYor tomonidan tovarni qabul qilib olinib bo'lgandan so'ng. Tovarining turiga bog'liq bo'lgan holda ba`zi holatlarda hisob-kitoblarning aralash shartlaridan foydalaniladi: qisman hisob-kitob- tovar hujjatlari topshirilganidan so'ng amalga oshadigan to'lov; yakuniy hisob-kitob- tovarlar qabul qilib olinganidan so'ng (tovarlar so'nggi manzil portiga etib kelganidan so'ng sotib oluvchi tomonidan qabul qilib olinadi va ularning sifat xarakteristikalari tekshiriladi, chunki transportirovka davrida ularning sifati buzilgan bo'lishi mumkin).

Xalqaro to'lovlar valyutalar o'zaro almashuvi hamda tashqi savdo ishtirokchilari tomonidan bir-biriga kreditlar taqdim etish jaraYonlari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob operatsiyalarining o'zaro bog'liqligi ushbuda o'z ifodasini topadi. SotilaYotgan tovarning turiga (masalan, mashinalar va jihozlar) hamda sotuvchilar bozorida raqobatning kuchayishi va yangi mahsulot iste`mol bozorlarini kengaytirish maqsadida ularning kreditdan foydalanishga qaratilgan intilishlariga qarab tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar tijorat kreditidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tijorat krediti tovar sotuvchisi tomonidan sotib oluvchiga bir necha oydan 5-8 yilgacha, alohida holatlarda esa bundan ham katta muddatlarga taqdim etiladi. Tashqi savdo operatsiyalarida importYor tijorat krediti evaziga uni so'ndirishga qaratilgan, oddiy veksel shaklidagi qarz

majburiyatini Yozib beradi Yoki eksportYor tomonidan berilgan o'tkaziladigan vekselar-trattalarda to'lovni amalga oshirishga Yozma tarzda rozilik (aktsept) beradi.

Tovar qiymatining ma'lum bir qismiga tijorat hujjatlari taqdim etilganidan so'ng, qolgan qismiga esa shartnomada belgilangan davrdan so'ng haq to'langanda tijorat krediti shaklidagi tovarlar uchun hisob-kitoblar naqdli to'lovlar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Tashqi savdo shartnomai ijrosining ma'lum bir bosqichida shartnomadagi taraflar, tijorat kreditidan tashqari, bir-birlarini majburan kreditlashlari mumkin. Masalan, bo'nak shaklidagi to'lovlarda importYor eksportYorni, ochiq hisobvaraq bo'yicha hisob-kitoblarda esa sotuvchi sotib oluvchini kreditlaydi.

Hisob-kitoblar shartlarining muqobil shakli naqdli to'lovning opsionli kreditidir. Agarda importYor sotib olingan tovar uchun to'lovni kechiktirish huquqidan foydalansa, unda u naqdli to'lovda taqdim etiladigan diskont (skidka)dan mahrum bo'ladi. Hisob-kitoblar xalqaro muomalada ishlatiladigan turli xil to'lov vositalari, ya'ni vekselar, to'lov topshiriqnomalari, bank o'tkazmalari (pochta va telegraf), cheklar, plastik kartochkalari Yordamida amalga oshiriladi. Xorijiy instrumentlar (Foreignitems, ingl.) - boshqa mamlakatda deponentga olingan hamda ushbu mamlakatda to'lanishi lozim bo'lgan cheklar, vekselar (oddiy va o'tkaziladigan) va muomalaning boshqa kredit vositalari. SHartnoma to'lov shartlarining eng murakkab qismi bo'lib hisob-kitob turini tanlash hamda ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish ikir-chikirlarini shakllantirib izohlash hisoblanadi. Kontragentlarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan manfaatlarini xalqaro iqtisodiy munosabatlarda o'zaro bog'lash va ularning to'lov munosabatlarini tashkil etish hisob-kitoblarning turli shakllaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro hisob-kitob shakllari

SHakllangan amaliYotga muvofiq zamonaviy sharoitda xalqaro hisob-kitoblarning quyidagi shakllari qo'llaniladi: hujjatli (dokumentar) akkreditiv,

inkasso, bank pul o'tkazmasi, ochiq hisobvaraqa, bo'nak. Bundan tashqari veksellar va cheklardan foydalanilgan holda hisob-kitoblar amalga oshiriladi. hisob-kitoblarning alohida turlari bo'yicha banklarning kafolat berish bilan bog'liq operatsiyalari xalqaro hisob-kitoblar bilan bog'liqdir (masalan, inkasso, bo'nak, ochiq hisobvaraqa). Ushbu kafolatlar tashqi savdo ishtirokchilari tomonidan shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilishining qo'shimcha ta'minoti bo'lib hisoblanadi. Xalqaro hisob-kitoblarning tarixan quyidagi xususiyatlari shakllangan:

1. ImportYor va eksportYorlar hamda ularning banklari tashqi savdo shartnomai shartlaridan tashqarida bo'lgan rasmiylashtirish, jo'natish, tovardan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlar va to'lov hujjatlarini qayta ishlash, to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq ma'lum bir munosabatlarga kiradilar. Ularning o'rtasidagi majburiyatlar hajmi va javobgarlik taqsimoti hisob-kitobning aniq bir shakliga bog'liqdir.

2. Xalqaro hisob-kitoblar me'joriy milliy huquqiy dalolatnomalar hamda Xalqaro bank qoidalari va udumlari bilan muvofiqlashtiriladi. AQSHdagi bixillashtirilgan savdo Kodeksi hisob-kitoblarga, shu jumladan xalqaro hisob-kitoblarga aloqador me'Yorlarni o'z ichiga olgan.

3. Xalqaro hisob-kitoblar soddalashtirish ob'ktidir, bu xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi hamda bank operatsiyalarining universallasuvi bilan asoslangandir. 1930 va 1931 yillarda Jenevada bo'lib o'tgan konferensiyalarda veksell va chek muomalalari borasidagi qonunchilikni soddalashtirishga hamda ulardan xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish murakkabliklarini bartaraf etishga qaratilgan Xalqaro "Veksell" va "CHek" konvensiyalari qabul qilingan. Veksell bo'yicha bixillashtirilgan qonun ko'pchilik mamlakatlarda ushbu boradagi milliy qonunchilikning zamini bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro savdo huquqi bo'yicha BMTning Komissiyasi veksell qonunchiligining yanada soddalashtirilishini amalga oshiradi. XX asrning boshida Parijda tashkil etilgan Xalqaro savdo palatasi dokumentar akkreditivlar

va inkasso uchun Soddalashtirilgan qoidalar hamda udumlarni ishlab chiqadi va chop etadi. Masalan, inkasso bo'yicha dastlabki qoidalar 1936 yilda ishlab chiqilgan hamda 1967, 1978, 1995 yillarda qayta ishlangan edi (1996 yilning yanvar oyidan boshlab kuchga kirgan). DunYo banklarining ko'pchiligi akkreditiv va inkasso bo'yicha mazkur Soddalashtirilgan qoidalarga qo'shilishi to'g'risida e'lon qildilar. Xalqaro savdo palatasi shartnoma kafolatlari bo'yicha qoidalarini ishlab chiqdi hamda to'lov kafolatlari yuzasidan qoidalarni tayyorlash yuzasidan ish olib bormoqda.

4. Xalqaro hisob-kitoblar odatda dokumentar xarakterga ega, ya'ni moliyaviy va tijorat hujjatlari mavjud bo'lgandagina ijro etiladi. Moliyaviy hujjatlarga oddiy va o'tkaziladigan veksellar, cheklar, to'lov tilhatlari kiradi. Tijorat hujjatlari tarkibiga esa: a)schYot-fakturalar; b)mahsulot jo'natilganligi Yoki uni yuklashga qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar (konosamentlar, temir Yo'l, avtomobil va aviatsiya yuk hatlari, pochta kvitantsiyalari, aralash yuk tashishlarga bo'lgan kombinatsiyalashgan transport hujjatlari); v)dengiz (darYo, okean) orqali yuk tashishlarni sug'urtalovchi sug'urta kompaniyalari Yoki ular agentlarining sug'urta hujjatlari, chunki eksportga mo'ljallangan yuklar odatda sug'urta qilinadi; g)boshqa hujjatlar - tovarlar kelib chiqishi, og'irligi, sifati Yoki tovarlar tekshirilganligi hamda ular chegarani bosib o'tganligi to'g'risida guvohlik beruvchi sertifikatlar, firibgarlik va boshqa shu kabi qonunbuzarliklarni oldini olish maqsadida importYor mamlakat bojxona xizmatlarini yukning maqsadi haqida habardor etish uchun bojxona hamda konsullik schYot-fakturalari kiradi. Bank yuqorida zikr etilgan hujjatlarning mazmuni va taxlamining butligini tekshiradi. SHu bilan birgalikda bir qator tashkilotlar (Xalqaro savdo palatasi, Parij, SVIFT va boshqalar) tomonidan elektron shartnomalari, elektron moliyaviy instrumentlar va hisob-kitoblar (shu jumladan akkreditivlar), elektron transport hujjatlari tushunchalarini o'z ichiga olgan elektron "qog'ozsiz" savdo texnologiyasi konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda.

5. Xalqaro to'lovlar turli valyutalarda amalga oshiriladi. SHu sababli ular valyuta operatsiyalari, valyutalar oldi-sotdisi bilan yaqindan bog'liqdir. Ularni amalga oshirish samaradorligiga valyuta kurslarining dinamikasi ta'sir etadi.

6. Xalqaro savdo palatasi tomonidan chop etilgan kafolatlar - (demand guarantees)ning Soddalashtirilgan qoidalari qo'llaniladi. Mazkur hujjatning matni tuzilaYotgan kafolat matniga kiritilishi zarur bo'lgan asosiy qoidalarni o'z ichiga olgan, ular quyidagilar:

1) agarda kafolat beruvchiga mukofot to'lanmagan bo'lsa kafolatni talab qilib olib bo'lmaydi;

2) bitim to'g'risida batafsil ma'lumot;

3) e'tirozni taqdim etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar (odatda benefitsiar banki tomonidan tekshiriladi);

4) kafolat muddati tugashini ko'rsatuvchi sana va benefitsiar tomonidan hujjatlarni kafolat beruvchi bankka taqdim etish sanasini qayd etilishi;

5) harakat muddati tugaganidan so'ng kafolat qaytarilgan bo'lishi lozim, chunki endi u hech qanday kuchga ega emas.

Xalqaro hisob-kitoblar turining tanloviga quyidagi omillar ta'sir etadi:

a) tashqi savdo bitimining ob'kti bo'lmish tovarning turi (hisob-kitob turlari mashina va jihozlar Yoki oziq-ovqat mahsulotlari etkazib berilishida bir-biridan farqlanadi). Ayrim tovarlarni – Yog'och, halla etkazib berilishida amaliYot tomonidan yaratilgan an'anaviy shakllar qo'llaniladi;

b) kredit bitimining mavjudligi;

v) kontragentlarning o'zaro kelisha olish xarakterini belgilovchi tashqi iqtisodiy bitimlar bo'yicha to'lov laYoqatliligi va nufuzi;

g) jahon bozorlarida ushbu tovar turiga bo'lgan talab va taklifning darajasi.

Xalqaro hisob-kitoblarning shartlari va shakllari shartnomada o'zaro kelishiladi.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli. Dokumentar akkreditivlar uchun mo'ljallangan Soddalashtirilgan qoidalar va udumlarga muvofiq akkreditiv bu

kelishuvdir hamda ushbu kelishuvga muvofiq bank mijozning iltimosiga ko'ra hujjatlarga muvofiq uchinchi shaxs (foydasiga akkreditiv ochilgan benefitsiarga) foydasiga to'lovni amalga oshirish Yoki to'lovni, benefitsiar tomonidan qo'yilgan tratta aktseptini, Yoki hujjatlar negosiatsiyasini (sotib olinishini) amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Akkreditiv bo'yicha bankning majburiyati mustaqil hisoblanib, tomonlarning tijorat shartnomai bo'yicha huquqiy munosabatlariga bog'liq emas. Ushbu qoida banklar va ularning mijozlari manfaatlarini himoyalashga qaratilgandir: eksportYorga hujjatlar rasmiylashtirilishidagi talablar cheklovini va to'lovni faqat akkreditiv shartlari asosida olinishini; importYorga esa eksportYor tomonidan akkreditivning barcha shartlarini aniq bajarilishini ta'minlaydi.

Dokumentar akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblarda quyidagi taraflar ishtirok etadi:

-importYor (buyruq beruvchi), u akkreditiv ochish to'g'risida bankka murojaat etadi;

-akkreditivni ochuvchi emitent-bank;

-avizo qiluvchi bank, ushbu bankka eksportYorga uning foydasiga akkreditiv ochilganligi to'g'risida habar berish va akkreditiv matnini, uning haqqoniyligini tasdiqlagan holda topshirish topshiriqi beriladi;

-foydasiga akkreditiv ochilgan benefitsiar-eksportYor.

Hisob-kitoblarning inkasso shakli. Inkasso bu, mijozning topshirig'iga asosan bank tomonidan importYordan unga jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovning olinishi hamda ushbu mablag'larni eksportYorning bankdagi hisobvarag'iga olgan holdagi bank operatsiyasidir. Inkasso operatsiyalari inkasso bo'yicha Soddalashtirilgan qoidalarga muvofiq ravishda eksportYordan olingan Yo'riqnomalarga asosan banklar tomonidan amalga oshiriladi. Inkasso hisob-kitob shaklida quyidagi taraflar ishtirok etadi:

1) ishonib topshiraYotgan shaxs - mijoz, o'z bankiga inkasso operatsiyasini amalga oshirishga topshiriq beruvchi shaxs;

2) inkasso qilish bo'yicha operatsiya o'tkazishni ishonib remitent-bankka topshiriq beruvi shaxs;

3) valyuta mablag'larini oluvchi hamda inkasso qilish bo'yicha operatsiyani amalga oshiruvchi bank;

4) to'lovchi bo'lmish importYorga hujjatlarni taqdim etib, eksportYor nomidan chiquvchi bank;

5) to'lovni to'lovchi.

Bankning pul o'tkazmasi. U pul o'tkazmasini oluvchi shaxsga ma'lum bir summani to'lashdan iborat bo'lgan bir bankning boshqa bir bankka topshiriqidand iboratdir. Banklar xalqaro hisob-kitoblarning ko'pgina holatlarida o'z mijozlarining topshiriqlari asosida pul o'tkazmalarini amalga oshiradilar. Ushbu operatsiyalarda quyidagilar ishtirok etadi: pul o'tkazmasini o'tkazuvchi qarzdor-shaxs; o'tkazma to'g'risidagi topshiriqni qabul qilgan o'tkazuvchi shaxsning banki; o'tkazma oluvchining hisob raqamiga o'tkazma summasini oluvchi bank; o'tkazmani oluvchi shaxs.

Bank o'tkazmasi shakli asosida inkassoga haq to'lash, yakuniy hisob-kitoblar bo'yicha to'lovlar hamda bo'nak to'lovlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari o'tkazma vositachiligida qayta hisoblashlar va boshqa operatsiyalar bajariladi.

Bank o'tkazmasi pochta Yoki telegraf orqali, tegishli pochta Yoki telegraf to'lov topshiriqnomalari bilan zamonaviy sharoitda esa SVIFT tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bank o'tkazmalari boshqa to'lov shakllari bilan bir qatorda ishlatilishi mumkin (masalan, inkasso hamda kafolatlar bilan). eksportYor o'tkazmalarni bank kafolati bilan bir qatorda ishlatishni afzal ko'radi. CHunki importYor tomonidan tovarlar uchun haq to'lanmagan taqdirda mazkur bank o'zining kafolati evaziga eksportYorga haq to'lab beradi. Sotib olingan tovarlarga pul o'tkazmasini amalga oshirishda importYor ko'p holatlarda bank kreditidan

foydalanadi. Mazkur kreditning muddati akkreditiv holatidagi kredit muddatidan qisqaroqdir.

Bank pul o'tkazmasining iqtisodiy mazmuni tovar Yoki xizmatlarga ular etkazib berilmasdan turib (bo'nak to'lovlari) Yoki ularni importYor tomonidan olinganidan so'ng (ochiq hisobvaraqa shaklidagi hisob-kitoblar) pul to'lanaYotganligiga bog'liq bo'ladi.

Bo'nak shaklidagi hisob-kitoblar. Mazkur hisob-kitoblar eksportYor uchun nihoyatda samaralidir, chunki tovarlar etkazib berilgunga qadar importYor tomonidan ularga haq to'lanadi (ba'zida tovarlar ishlab chiqarilgunga qadar). Agarda importYor tovarlarga bo'nak shaklida haq to'lasa, unda u eksportYorni kreditlagan bo'ladi. Masalan, shartnoma qiymatining bir qismiga bo'lgan bo'nak to'lovlari xorijda ob'ektlar qurilishi bilan bog'liq shartnomalar shartlariga kiritiladi. Qiymati yuqori bo'lgan hamda alohida buyurtma asosida ishlab chiqarilgan jihoz, suv kemalari, havo kemalarining importi sharoitida ham qisman amalga oshiriladigan bo'nak to'lovlari qo'llaniladi. Xalqaro amaliYot talablariga muvofiq bo'nak shaklidagi to'lovlar shartnoma summasining 10 foizidan 33 foizigachasini tashkil etadi. SHartnoma shartlarining bajarilmasligi va tovarlar etkazilmasligi holatida eksportYor banki olingan bo'nakni eksportYorning topshiriqiga asosan bo'nak to'lovi summasi hajmida, importYor foydasiga qaytarish to'g'risida kafolat beradi. Bundan tashqari bir qator tovarlarga bo'nak bilan haq to'lash tartibi qabul qilingan. Ushbu tovarlarga qimmatbaho metallar, yadro Yoqilg'isi, qurol-aslaha va boshqa shu kabilar kiradi. Zikr etilgan hisob-kitob shartlariga importYorning roziligi uning mazkur tovarlar etkazib berilishi Yoki manfaatlari kafolatlarda mavjud bo'lgan eksportYor tazyiqiga bog'liqdir.

Ochiq hisobvaraqa bo'yicha hisob-kitoblar. Ularning mohiyati tovarlar olinganidan so'ng importYorning eksportYorga bo'lgan muntazam to'lovlaridadir. Joriy qarzdorlik summasining hisobi savdo bo'yicha hamkorlarning kitoblarida yuritiladi. Xalqaro hisob-kitoblarning ushbu shakli

ochiq hisobvaraq bo'yicha kredit bilan bog'liqdir. Ochiq hisobvaraq bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish bilan bog'liq hisob-kitoblar tartibi kontragentlar o'rtasida tuzilgan kelishuv shartlari bilan belgilanadi. Odatda belgilangan muddatlardagi muntazam to'lovlar ko'zda tutiladi (tovar etkazib berilganidan so'ng Yoki oyning boshida Yoki oxirida importYor tomonidan tovarlar qayta sotib bo'linganidan so'ng). Hisob-kitoblarning solishtirma tekshiruvi amalga oshirilganidan so'ng ochiq hisobvaraq bo'yicha qarzdorlikning yakuniy so'ndirilishi banklar orqali, odatda bank o'tkazmasi Yoki chekidan foydalangan holda amalga oshiriladi. SHu sababli bank statistikasi ochiq hisobvaraq bo'yicha hisob-kitoblarni ko'p holatlarda bank o'tkazmalari sifatida hisobga oladi.

Veksellar va cheklardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish. Xalqaro hisob-kitoblarda eksportYor tomonidan importYorga qarata chiqarilgan o'tkaziladigan veksellar ishlatiladi. Tratta - bu, qonun bilan belgilangan shaklda tuzilgan hamda o'zida kreditor (trassant)ning qarz oluvchi (trassat)ga belgilangan muddatda ma'lum bir summani vekselda qayd etilgan shaxs (remitent)ga Yoki taqdim etuvchiga to'lash to'g'risidagi shartsiz buyrug'ini mujassam etgan hujjatdir. Veksel bo'yicha to'lov javobgarligi importYor Yoki bank sifatidagi aktseptant zimmasidadir. Banklar tomonidan aktseptlangan trattalarni "hisobga olish" operatsiyasi orqali naqd pulga oson aylantirish mumkin. Trattalar chiqarilishi va ularga haq to'lanishining shakllari, rekvizitlari hamda shartlari 1930 yilda Jeneva veksel konvensiyasi tomonidan qabul qilingan "Bixillashtirilgan veksel qonuni"ga asoslangan veksel qonunchiligi bilan muvofiqlashtiriladi. XVI-XVII asrlarda paydo bo'lgan va taqdim etuvchi (odatda savdogar)ga mahalliy valyutada ma'lum bir summa to'lash to'g'risidagi iltimosni o'zida mujassam etgan Yo'llanma hatlar trattalarning dastlabki shakllari edi. Tovar-pul munosabatlarining taraqqiy etishi va xo'jalik aloqalarining globallasuvi munosabati bilan veksel universal kredit hisob-kitob hujjatiga aylandi. Trattadan inkasso va akkreditivga qo'shimcha ravishda foydalanish, kredit hamda valyuta tushumini olish huquqini beradi.

Nosavdo toifadagi xalqaro hisob-kitoblarda to'lov vositasi sifatida Yo'l cheklari va Evrocheklar ishlatiladi. Yo'l (sayYohlik) cheki bu, unda ko'rsatilgan valyuta summasini chekning egasiga to'lash (buyruq) to'g'risidagi to'lov hujjatidir. Yo'l cheklari yirik banklar tomonidan milliy va xorijiy valyutalarda Yozib beriladi. Chek egasining imzo namunasi chek ustiga unga chek sotilayotgan paytda qo'yiladi.

Evrochek evrovalyutadagi chekdir. Ushbu chek, mijozning oldindan amalga oshirilgan naqdli to'lovisiz va nisbatan yirik summalarda, bir oygacha muddatga bo'lgan krediti hisobiga bank tomonidan Yozib beriladi; "Evrochek" (1968 yildan boshlab) kelishuvining ishtirokchisi bo'lmish har qanday davlatda unga haq to'lanadi. Evrocheklarning yagona (bir xildagi) shakli, ularga haq to'lash egalari tomonidan kafolat kartochkalari taqdim etilgandagina amalga oshishi, evrocheklarni qayta ishlash ustidan EHM Yordamida nazorat qilinishi xalqaro turizm bo'yicha hisob-kitoblarning takomillashishiga ko'maklashadi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab xalqaro hisob-kitoblarda kredit kartochkalaridan faol foydalanilmoqda. Kredit kartochkasi egasiga tovar va xizmatlarni naqdsiz hisob-kitoblardan foydalangan holda sotib olish huquqini beruvchi nomli pul hujjatidir. Xalqaro hisob-kitoblarda Amerikada chiqarilgan (Viza interneshnl, Masterkard, Ameriken ekspress va boshqalar) kredit kartochkalari ko'p tarqalgandir. Ushbu kredit kartochkalarini qayta ishlashda komp'yuter, elektron va kosmik aloqa vositalaridan foydalaniladi. Bank va do'konlarning komp'yuterlari telefon orqali axborotlarni qayta ishlovchi tizimning markazlashtirilgan komp'yuterlariga ulanadi. 1999 yildan boshlab Evroga o'tilishi munosabati bilan Maestro, Eurocard-Master Card (Evrocheklar, kredit kartochkalari) logotiplariga ega Europay International assosiatsiyalarining ko'p valyutali instrumentlardan foydalangan holdagi hisob-kitoblari umum Evropa valyutasiga o'tkazildi. Mijoz hisobvarag'ining qoldiqi bo'yicha beriladigan ma'lumotnomada sotib olishning Evrodagi summasi hamda bank hisobvaraqa valyutasidagi ekvivalent ko'rsatiladi. Ushbu holat turli

mamlakatlardagi tovar baholarini taqqoslash, bank hisobvaraqlarini Evroga aylantirish, Evropa valyutasidan foydalanish tajribasiga ega bo'lish imkonini beradi. Internet tizimiga Evrodagi to'lov mahsullari va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumot kiritilgan.

Valyuta kliringlari

Xalqaro hisob-kitoblar jaraYoniga davlatning aralashuvi valyuta kliringlaridan muntazam ravishda foydalanilishida o'z ifodasini topmoqda. Valyuta kliringi ikki va bundan ziyod davlatlar hukumatlarining xalqaro talab hamda majburiyatlar bo'yicha o'zaro majburiy hisob-kitob (zachYot) to'g'risidagi kelishuvidir. Valyuta kliringi banklararo ichki kliringdan farq qiladi. Birinchidan, banklararo ichki kliring bo'yicha zachYotlar ixtiyoriy asosda, valyuta kliringi bo'yicha esa majburiy tarzda amalga oshadi (mamlakatlar o'rtasida kliring bo'yicha kelishuv mavjud bo'lsa, importYor va eksportYorlar kliring yuzasidan hisob-kitoblardan bo'yin tovlashga haqi Yo'q). Ikkinchidan, ichki kliring bo'yicha zachYot qoldiqi shu zahoti pulga aylantiriladi, valyuta kliringida esa sal'doni so'ndirish bo'yicha muammo paydo bo'ladi.

8.6. Xalqaro kredit munosabatlari

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar jaraYonida valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, muddatlilik hamda foiz to'lash shartlari asosida taqdim etilishi bilan bog'liq ssuda kapitalining harakatidir. Kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida xususiy korxonalar (bank, firma)lar, davlat tashkilotlari, hukumatlar, xalqaro hamda hududiy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlar maydonga chiqadi.

Xalqaro kredit kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni dastlabki jamg'arishning richaglaridan biri edi. Ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalmilallashuvining kuchayishi, kapitalning

xalqaro jihatdan ijtimoiylashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hamda ilmiy-texnik inqilob uning rivojlanishini ob`ktiv asosi bo`ldi.

Xalqaro kreditning manbalari bo`lib: korxonalaridagi mablag`larning davriy aylanishi jaraYonida vaqtincha bo`sh bo`lib qoladigan pul shaklidagi kapitalning bir qismi; banklar tomonidan yig`ib, jamlanadigan davlat va xususiy sektorning pul jamg`armalari hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish jaraYonining ayrim joylarida xalqaro kreditga ob`ktiv zarurat tug`iladi. Ushbu zarurat: 1) mablag`larning xo`jalikdagi doiraviy aylanishi bilan bog`liq; 2) mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning xususiyatlari bilan bog`liq; 3) tashqi iqtisodiy bitimlarning hajmi va muddatlaridagi farqlar bilan bog`liq; 4) ishlab chiqarishni kengaytirishga mo`ljallangan yirik kapital qo`yilmalarini amalga oshirish zarurati bilan bog`liq.

Xalqaro kreditning tamoyillari. Xalqaro kreditning takror ishlab chiqarish bilan aloqasi uning tamoyillarida aks etadi:

1) qaytarishlilik; agarda olingan mablag`lar qaytarilmaYotgan bo`lsa, unda ushbu holat kapitalni qaytarmaslik sharti bilan berilishiga, ya`ni moliyalashtirishga aloqadordir;

2) muddatlilik; kredit kelishuvida belgilangan muddatlarda kredit qaytarilishini ta`minlaydi;

3) to`lovlilik; qiymat qonuni harakatini aks ettirgan holda kreditning har bir holatidagi alohida shartlarni amalga oshirish usulidir;

4) moddiy ta`minlanganligi; kredit so`ndirilishining kafolatida o`z aksini topadi;

5) maqsadli Yo`nalishi; ssudaning aniq bir ob`ktlarini belgilanishi.

Xalqaro kreditning tamoyillari uning bozor iqtisodiy qonunlari bilan aloqalarini ifodalaydi va bozor sub`ktlari hamda davlatning joriy hamda strategik vazifalariga erishish maqsadida ishlatiladi.

Xalqaro kreditning funksiyalari. Xalqaro kredit ssuda kapitalining tashqi iqtisodiy aloqalar jaraYonidagi harakat xususiyatini aks ettiruvchi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiYojlarini qondirish uchun ssuda kapitallarining mamlakatlararo qayta taqsimoti. Ssuda kapitali xalqaro kredit mexanizmi orqali foydalarni ta`minlash maqsadida iqtisodiy agentlar afzal ko`rgan jaraYonlarga Yo`naltiriladi. Ushbu bilan kredit milliy foydani o`rtacha foyda darajasida birxillashtirilishiga hamda uning massasini oshishiga ko`maklashadi;

2) Xalqaro hisob-kitoblar jaraYonida haqiqiy pullarni (oltin va kumush) kredit pullarga almashtirilishi hamda naqdsiz to`lovlarning rivojlanishi va tezlashtirilishi, naqdli valyuta muomalasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashtirilishi orqali muomala xarajatlarining tejalishi. Xalqaro kredit zaminida xalqaro hisob-kitoblarning veksellar, cheklar hamda bank pul o`tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqa shu singari kredit vositalari paydo bo`ldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jaraYonida ssuda kapitali muomala davrining tejalishi ishlab chiqarishning kengayishi va foyda o`simini ta`minlagan holda kapitalning unumli muomala davrini oshiradi;

3) Kapital to`planuvi va markazlashuvining tezlashishi. Xorijiy kreditlar jalb etilishi evaziga qo`shimcha qiymatning kapitalizatsiya jaraYoni tezlashadi, individual jamg`arish chegaralari kengayadi, bir mamlakat tadbirkorlarining kapitallari ularga boshqa mamlakatlar mablag`larining qo`shilishi hisobiga ko`payadi. Xalqaro kredit azaldan individual korxonalarni aktsiyadorlik jamiyatlariga aylanishi, yangi firmalar, monopoliyalar barpo etilishining omili sifatida maydonga chiqadi. Kredit boshqa mamlakatlarning kapitali, mulki va mehnatidan ma`lum bir chegaralarda foydalanish imkoniyatini beradi. Yirik kompaniyalarga taqdim etiladigan imtiYozli xalqaro kreditlar va mayda hamda o`rta hajmdagi firmalarni jahon ssuda kapitallari bozoriga chiqishining qiyinligi kapital to`planuvi va markazlashuvining kuchayishiga ko`maklashadi.

Milliy va jahon xo'jaligining rivojlanishi bilan xalqaro kredit funksiyalarining ahamiyati bir xilda bo'lmay, o'zgaruvchanlik xususiyatiga egadir. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kredit iqtisodiyotni muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi hamda bir vaqtning o'zida o'zi ham muvofiqlashtirilish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro kreditning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi roli. Xalqaro kredit o'zaro bog'liq funksiyalarni bajarish orqali ikki Yoqlama, ya'ni ijobiy va salbiy rol o'ynaydi.

Xalqaro kreditning ijobiy roli takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishi hamda uning kengayishi orqali ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tezlashishida o'z aksini topadi. Ushbuda ularning o'zaro aloqasi aks etadi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarga va pirovard oqibatda takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi bog'lovchi bo'g'in hamda uzatkich mexanizmi rolini o'ynaydi. Ishlab chiqarish o'sishining mahsuli bo'lgani holda xalqaro kredit bir vaqtning o'zida uning zaruriy sharti va katalizatori bo'lib ham hisoblanadi. U ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining baynalmilallashuvi, jahon bozorining shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi. Xalqaro kredit takror ishlab chiqarish jarayonini quyidagi Yo'nalishlar bo'yicha tezlashishiga ko'maklashadi:

Mamlakatlarning kredit siyosati jahon bozorlarida kreditor mamlakat mavqelarini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchidan, xalqaro kredit kreditor mamlakatlar mavqelarini o'stirgan holda olingan foydalarni qarzdor mamlakatlardan o'tkazish uchun ishlatiladi. SHu bilan birgalikda ssudalarni foizlar bilan qaytimining jamiyat sof daromadining ma'lum bir hajmidan oshgan yillik to'lovlari qarzdor mamlakatlarda mazkur jamg'armalarning shakllanish manbalariga salbiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit qarzdor mamlakatlarda kreditor mamlakatlar uchun qulay bo'lgan iqtisodiy va siyosiy rejimlarning yaratilishi hamda mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Ishlab chiqarish va almashuvning baynalmilallashuvi, jahon xo'jalik aloqalari yangi shakllarining paydo bo'lishi xalqaro kreditning turli shakllari rivojlanishiga ob'ktiv asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro kreditning shakllari. Xalqaro kreditning turli shakllarini kredit munosabatlarining ayrim tomonlarini xarakterlovchi bir nechta muhim omillariga ko'ra umumiy asosda quyidagicha tasniflash mumkin:

- manbalarga ko'ra tashqi savdoni kreditlash hamda moliyalashtirishning ichki, xorijiy va aralash turlari farqlanadi. Ular o'zaro yaqindan bog'liqdir hamda eksportYordan importYorgacha bo'lgan tovar harakatining barcha bosqichlariga xizmat ko'rsatadi. Tovar sotuv jaraYoniga qanchalik yaqin bo'lsa, odatda xalqaro kreditning shartlari qarz oluvchiga shunchalik Yoqimli bo'ladi;

- belgilanishiga ko'ra tashqi iqtisodiy bitimning qaysi biri qarz mablag'lari hisobiga qoplanishiga bog'liq holda quyidagilar farqlanadi:

1) tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog'liq tijorat kreditlari;

2) har qanday boshqa maqsadlarga, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalarga, investitsion ob'ktlar qurilishiga, qimmatli qog'ozlar sotib olishga, tashqi qarzni so'ndirishga, valyuta intervensiyasiga ishlatiladigan moliyaviy kreditlar;

3) kapital, tovarlar va xizmatlarni chetga olib chiqilishining aralash shakllariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan "oraliq" kreditlar. Masalan, pudrat ishlari (injiniring)ni amalga oshirish shaklida;

- turlariga ko'ra kreditlar eksportYorlar tomonidan o'z sotib oluvchilariga tovar shaklida va banklar tomonidan pul shaklida taqdim etiladigan valyuta turlariga bo'linadi. Ayrim holatlarda valyuta krediti jihozlar etkazib berish bo'yicha tijorat bitimi shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi va import jihozlar

zaminida ob`kt qurilishi yuzasidan mahalliy xarajatlarni kreditlash uchun ishlatiladi;

- qarz valyutasiga ko'ra qarzdor mamlakat Yoki kreditor-mamlakat valyutasida, uchinchi mamlakat valyutasida hamda SDR valyuta savatiga asoslangan xalqaro hisob valyutasida taqdim etiladigan xalqaro kreditlarga farqlanadi;

- muddatlariga ko'ra xalqaro kreditlar: qisqa muddatli - 1 yilgacha, ayrim holatlarda 18 oygacha (o'ta qisqa muddatli - 3 oygacha, bir sutkalik va bir haftalik), o'rta muddatli - 1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli - 5 yildan ziyod muddatlarga beriladigan kredit turlariga bo'linadi. Ba'zi mamlakatlarda 7 yilgacha muddatga berilgan kreditlar o'rta muddatli, 7 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar esa uzoq muddatli bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli kredit odatda tadbirkorlarni aylanma kapital bilan ta'minlaydi va nosavdo, sug'urta hamda chayqov bitimlariga xizmat ko'rsatgan holda tashqi savdo va xalqaro to'lovlar muomalasida qo'llaniladi. Uzoq muddatli xalqaro kredit odatda asosiy ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, mashinalar va butlovchi jihozlar eksportining 85 foizi hajmiga hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari (yirik ko'lamdagi loyihalar, ilmiy tekshirish ishlari, yangi texnika joriy etilishi)ga xizmat ko'rsatadi. Agarda qisqa muddatli kreditning muddati uzaytirilsa, unda u o'rta muddatli, ayrim holatlarda esa uzoq muddatli kreditga aylanadi. Qisqa muddatli kreditlarning o'rta va uzoq muddatli kreditlarga aylanishi jaryonlarida davlat kafil sifatida faol ishtirok etadi;

- ta'minlanganlik tamoyiliga ko'ra ta'minlangan va blankali kreditlarga farqlanadi. Kreditning ta'minoti bo'lib odatda tovarlar, tovarga egalik huquqini beruvchi va boshqa tijorat hujjatlari, qimmatli qog'ozlar, veksellar, ko'chmas mulk hamda qimmatliklar xizmat qiladi. Kredit olish uchun tovar garovi 3 shaklda amalga oshiriladi: qat'iy garov (tovarlarning ma'lum bir massasi bank foydasiga garov qilinadi); muomaladagi tovar garovi (ma'lum bir summadagi,

tegishli assortimentdagi tovarning qoldiqi hisobga olinadi); qayta ishlovdagi tovar garovi (mazkur mahsulotlarni bankka garovga bergan holda garovga olingan tovardan mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin).

Kreditor sotilishning yuqori imkoniyatlariga ega bo'lgan tovarlarni garovga olishni afzal ko'radi va ta'minot hajmini belgilashda tovar bozori kon'yunkturasini hisobga oladi. Ba'zi holatlarda kreditning ta'minoti sifatida o'rtacha bozor baholarida hisobga olingan davlat rasmiy oltin zahiralarining bir qismi ishlatiladi (1963 yilda Finlyandiyada, 1970 yillarning o'rtalarida Italiya, Urugvay, Portugaliyada).

Rivojlanib boraYotgan davlatlar (ayniqsa 1980 yillarning boshlarida) o'zlarining tashqi qarzlarni so'ndirish maqsadida olingan xorijiy kreditlarning garovi sifatida oltinni deponentga olishni keng qo'llay boshladilar. Biroq oltinning garovi ustidan ssudalar shakli ko'pchilik xalqaro kreditlar uchun xos bo'lgan "salbiy garov shartlashuvi" tufayli keng tarqalmadi. Ushbu shartlashuvning mohiyati quyidagichadir: agar qarz oluvchi boshqa kreditlar bo'yicha qo'shimcha ta'minotni taqdim etsa, unda kreditor mazkur ssuda yuzasidan ham qo'shimcha ta'minotni talab qilishi mumkin. Bundan chiqdi, agar mamlakat oltin garovi ustidan kredit olgan bo'lsa, unda avval olingan kreditlarni ham oltin bilan ta'minlashni ushbu mamlakatdan talab etishlari mumkin. SHu sababli ayrim mamlakatlar oltinni sotishni afzal ko'radilar. Garov kredit kelishuvi bo'yicha majburiyatning ta'minot usuli bo'lganligi sababli qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi holatida kreditor garov qiymatidan kompensatsiya olish huquqiga ega.

Blankali kredit qarzdorning ushbu qarzni ma'lum bir muddatda so'ndirish majburiyati ustidan beriladi. Ushbu kredit bo'yicha hujjat bo'lib odatda qarz oluvchining yagona imzosiga ega bo'lgan solo-veksel xizmat qiladi. Blankali kreditning turlari bo'lib kontokorrent va overdraft hisoblanadi.

Taqdim etilishi nuqtai nazaridan qarz oluvchi hisobvarag'iga, uning ixtiYoriga olinadigan moliyaviy (naqdli) kreditlar; importYor Yoki bank

tomonidan trattaning aktsepti shaklidagi aktseptli kreditlar; depozit sertifikatlari; obligatsiya zaYomlari, konsortsial kreditlar va boshqa shu kabilar farqlanadi. Kreditor sifatida maydonga kim chiqishiga qarab, kreditlar: 1) firmalar, banklar, ayrim holatlarda vositachilar (brokerlar) tomonidan taqdim etiladigan xususiy kreditlarga; 2) hukumat kreditlariga; 3) xususiy korxonalar va davlat ishtirok etadigan aralash kreditlarga; 4) xalqaro va hududiy valyuta-kredit hamda moliyaviy tashkilotlarning davlatlararo kreditlariga bo'linadi.

Firma (tijorat) krediti bu, odatda bir mamlakat firmasi Yoki eksportYori tomonidan boshqa mamlakat importYoriga to'lovni kechiktirish shaklida taqdim etiladigan ssudadir. Tashqi savdodagi tijorat krediti tovar operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar bilan hamrohlikda amalga oshiriladi. Firma kreditlarining muddatlari turlichadir (odatda 2-7 yilgacha) va jahon bozorlaridagi kon`yunktura shartlari, tovarlar turlari va boshqa omillar bilan belgilanadi. Mashina va murakkab jihozlar eksportining kengayishi bilan mazkur kreditlar muddatlarining uzayishi yangilik bo'ldi. Firma krediti odatda veksel bilan rasmiylashtiriladi Yoki ochiq hisobvaraqa bo'yicha taqdim etiladi.

Vekselli kredit, eksportYor tovarlarni sotish to'g'risidagi shartnomani tuzganidan so'ng o'tkaziladigan veksel (tratta)ni importYorga qarata chiqarilishini ko'zda tutadi. O'z navbatida importYor tijorat qog'ozlarini olganidan so'ng mazkur vekselni aktseptlaydi, ya'ni ushbu vekselda ko'rsatilgan muddatlarda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Ochiq hisobvaraqa bo'yicha kredit eksportYor va importYor o'rtasidagi kelishuv Yo'li orqali taqdim etiladi. Mazkur kelishuvga asosan tovarlarni etkazib beruvchi sotilgan va etkazib berilgan tovarlar qiymatini ularni sotib olgan shaxs hisobvarag'ida qarzдорlik sifatidagi Yozuvi shaklida amalga oshiradi, importYor esa olingan kreditni muddatida so'ndirish to'g'risidagi majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Ochiq hisobvaraqa bo'yicha kredit tovarlarning muntazam asosda etkazib berilishi, majburiyatlarning esa oying

o'rtasi Yoki oxirida davriy ravishda so'ndirilib borilishi sharoitlarida qo'llaniladi.

Firma kreditlarining ko'rinishlaridan biri bo'lib importYorning bo'nak to'lovi (sotib olish bo'naki) hisoblanadi. Bo'nak to'lovi shartnoma imzolanganidan so'ng importYor tomonidan odatda buyurtma berilgan mashina, jihoz va kemalar qiymatining 10-15 foizi (ba`zida bundan ortiq) miqdorida xorijlik tovar etkazib beruvchi foydasiga amalga oshiriladi. Sotib olish bo'nagi xalqaro hisob-kitoblar hamda eksportni kreditlashning va bir vaqtning o'zida xorijlik sotib oluvchi majburiyatlarini kafolatlashning shakllaridan biri bo'lib xizmat qiladi, chunki importYor buyurtma berilgan tovarlarni qaytarmasdan qabul qilishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarning importYor firmalari rivojlanib boraYotgan mamlakatlar bilan munosabatlarda sotib olish bo'naklaridan ushbu mamlakatlardan qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqish uchun foydalanadilar.

Bo'nakni taqdim etgan shaxs tomonidan shartnomaning bajarilmasligi sharoitida mazkur bo'nak, undan zararlar chegirib olinganidan so'ng, qaytariladi. Agarda shartnoma bo'nakni olgan shaxs tomonidan bajarilmasa, unda u mazkur bo'nakni, zararlarni qoplagan holda, sotib oluvchiga qaytarishi lozim. Bo'nak, shartnomadagi ikkinchi tarafga zararlarni qoplamagan holda shartnoma bo'yicha majburiyatlardan ozod bo'lish imkonini beruvchi tovon to'lovidan farqli o'laroq, shartnoma bajarilishini rag'batlantiradi. Sotib olish bo'nagi ayrim holatlarda to'lovni kechiktirish shakli bilan birgalikda teng ulushlarda va ma`lum bir intervallarda (yarim yil, yil) qo'llaniladi.

Firma krediti sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalasada, u odatda bank krediti bilan birgalikda harakatlanadi. Mashinalar va jihozlar sotuvida firma krediti uzoq muddatlarga taqdim etiladi (5 yil va undan ziYod muddatlarga), bu esa eksportYorning katta hajmdagi mablag'larini ichki muomalasidan tashqariga chiqib ketishiga olib keladi. SHu sababli eksportYor odatda bank kreditlariga murojaat etadi Yoki o'z kreditini banklarda qayta

moliyalashtiradi. Firma kreditlari mashina va jihozlar eksportini kreditlash shartlari hamda hajmi bo'yicha kreditlash muammosini hal eta olmasligi sababli bank kreditining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi roli o'sadi.

Bank kreditlari. Eksport va importni bank tomonidan kreditlash tovarlar, tovar hujjatlari, veksellar hamda trattalar hisobining garovi ustidan ssudalar berish shaklida amalga oshiriladi. Ayrim holatlarda banklar o'zlari bilan yaqindan munosabatda bo'lgan yirik eksportYor firmalarga rasmiy ta`minotga ega bo'lmagan blankali kreditni taqdim etadilar.

Aktseptli-rambursli kredit tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq bo'lganda eng ta`minlangan bo'lib hisoblanadi va eksportYor hamda importYor o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Bunda akkreditiv va o'tkaziladigan veksell vosita sifatida ishlatiladi. Aktseptli -rambursli kreditning limit, kreditning muddati, foiz stavkasi, rasmiylashtirilish, ishlatilish va so'ndirilish tartibi kabi shartlari oldindan tuzilgan banklararo kelishuvi asosida belgilanadi. Ta`minlanganligi esa tovarlar sotilishi bilan asoslangandir. Agarda mazkur kredit tovar etkazib berilishi bilan bog'liq bo'lmasa, unda u sof moliyaviy xarakterga ega bo'ladi.

Broker krediti ayrim mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya) firma va bank kreditlarining oraliq shakli sifatida harakat qiladi. Ushbu kredit tijorat tusidagi bitimlarga tijorat krediti singari hamda bir vaqtning o'zida bank kreditiga ham aloqadordir. CHunki brokerlar odatda banklardan qarz olib turadilar. Brokerlik vositachilik haqi shartnoma summasining 1/50-1/32 qismini tashkil qiladi. Broker firmalari Buyuk Britaniyada assosiatsiyaga birlashgan. Brokerlar jahon bozoridagi holat to'g'risidagi ma`lumotga egadirlar. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishdan tashqari ular sotib oluvchilarni to'lov qobiliyatlari yuzasidan kafolatlarni ham taqdim etadilar. Zamonaviy bosqichda broker kreditlarining tashqi savdodagi roli pasayib ketdi.

Tashqi savdo aylanmasining o'sishi hamda yirik hajmdagi summalarni katta tavakkalchilik asosida uzoq muddatlarga jalb etishning muammolari o'rta va uzoq muddatli xalqaro kreditlarning rivojlanishiga olib keldi. Bankirlik va aktsept faoliyati bilan shug'ullanuvchi uylar hamda tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan eksportni veksellar vositachiligida kreditlash tizimi tashqi savdoning o'sib boraYotgan talablarini qondira olmay qoldi. Bir qator (Buyuk Britaniya, Frantsiya, YAponiya va boshqa shu kabi) mamlakatlarda mashinalar va jihozlar eksportini o'rta hamda uzoq muddatli kreditlashning maxsus tizimi yaratilgan. Ushbu kreditlash turlarining shakllari qisqa muddatli (firma, bank, davlatlararo kredit va shu kabi) kreditlashning shakllariga o'xshash bo'lishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Iste`mol bozorlari uchun kurash borasida eksportYorlar muddati 1-5 yildan to 7-10 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli kreditlarni veksellar orqali rasmiylashtirgan holda taqdim etadilar.

Yirik kredit muassasalari uzoq muddatli xalqaro kreditlarni nazariy asosda 40 yilgacha, amalda esa 10-15 yil muddatga taqdim etadilar. Mazkur kreditlash turi bilan kapitalni o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish orqali jalb etuvchi davlat va yarim davlat mulkiy maqomiga ega, maxsus kredit tashkilotlari shug'ullanadi.

Banklar qiymati bo'yicha teng bo'lgan tovarlarni o'zaro etkazib berishga asoslangan kompensatsion bitimlar yuzasidan uzoq mudatli kreditlarni taqdim etadilar. Ushbu turdagi kreditlar hamma vaqt maqsadli xarakterga ega bo'ladi. Korxonani barpo etish va qayta tiklash, tabiiy resurslarni o'zlashtirish uchun mashina hamda jihozlarni 8-15 yil muddatga kreditga olgani holda qarz oluvchi mazkur kreditni qurilgan va qurilaYotgan korxonalar mahsulotlari hisobiga so'ndirilishini amalga oshiradi. Kompensatsion bitimlarning farqli tomoni, ularning keng qo'lamli va uzoq muddatli xarakteri hamda eksport va import bitimlarining o'zaro bog'liqligidadir.

AmaliYotda "uzoq muddatli kredit" atamasi kredit muassasalarining ssudalariga aloqador bo'lib qoldi. Uzoq muddatli kreditning bir qismi bo'lib

zaYomlar, ya`ni davlat va xususiy korxonalar, banklar tomonidan o`z qarz majburiyatlarini chiqarish orqali milliy hamda jahon ssuda kapitallari bozorlaridan qarz mablag`larini jalb etilishi hisoblanadi. Uzoq muddatli kredit va zaYomlar asosan asosiy kapitalni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, mashinalar, jihozlar eksporti, sanoat loyihalarini sotilishiga xizmat ko`rsatadi.

Byudjet mablag`lari hisobdan ajratiladigan uzoq muddatli (muddatlari 10-15 yil va bundan ziYod) Xalqaro kreditlarning quyidagi shakllari farqlanadi:

1) Hukumatning ikki taraflama kreditlari. Davlatlararo uzoq muddatli kredit keng ko`lamlarda birinchi jahon urushi paytida vujudga keldi va o`z rivojiga urushdan so`nggi yillarda ega bo`ldi. Bunda asosiy kreditor bo`lib AQSH maydonga chiqdi. Natijada davlatlararo ziddiyatlarni kuchaytirib yuborgan hukumatlararo qarzdorlik (11 mlrd. oltin dollarlari, foizlarni hisobga olmaganda) paydo bo`ldi. Frantsiya kreditni nemis reparatsiyalari hisobiga, Germaniya esa AQSHdan yangi kreditlarni olish hisobiga so`ndiraYotgan edi. 1929-1933 yillar iqtisodiy inqirozi davri mobaynida Germaniya va 25 ta boshqa davlatlar qarz bo`yicha to`lovlarni to`xtatib qo`ydilar. Ikkinchi jahon urushi davri mobaynida hukumatlararo qarzlarni sezilarli rol o`ynamagan edi. Harbiy va boshqa turdagi materiallarning etkazib berilishi asosan "lend-liz" (ijara) shartlari asosida, kredit majburiyatlarisiz amalga oshirilaYotgan edi;

2) Xalqaro va hududiy valyuta-kredit hamda moliyaviy tashkilotlarning kreditlari;

3) Yordam ko`rsatish Yo`nalishi bo`yicha, ushbu Yordam shakli texnik Yordam, hadyalar, subsidiyalar bilan birgalikda imtiYozli shartlar asosidagi zaYomlarni ham o`z ichiga oladi.

Ayrim holatlarda xalqaro kreditning aralash turi qo`llaniladi. Masalan, eksportni kreditlashning odatdagi shakllari Yordam ko`rsatish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Xalqaro kreditning yangi shakllaridan biri bo`lib bir nechta kredit muassasalari tomonidan yirik loyihalarni qo`shma moliyalashtirish hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari qo`shma moliyalashtirishning

tashabbuskorlari bo'lib maydonga chiqadi va ular ushbu operatsiyalarga odatda loyihaning eng ko'p foyda keltiradigan qismini imtiyozli asosda (foiz stavkasi bozor stavkasidan past) moliyalashtiruvchi, xususiy tijorat banklarini jalb etadilar.

Qo'shma moliyalashtirishning quyidagi 2 shakli qo'llaniladi:

- parallel moliyalashtirish, bunda loyiha turli kreditorlar tomonidan ular uchun o'rnatilgan kvotalar me'yorida kreditlanadigan tarkibiy tashkil etuvchilarga bo'linadi;

- o'z-o'zini moliyalashtirish, bunda barcha kreditorlar loyihaning ijro etilishi mobaynida ssudalarni taqdim etadilar. Kreditorlardan biri (menejer-bank) loyihaning tayyorlanishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qiladi.

Qo'shma moliyalashtirish qarz oluvchiga imtiyozli kreditlarni olishga Yo'l ochgani holda ma'lum bir imtiyozlarni beradi. Biroq asosiy imtiyozlarni kreditorlar oladi, chunki bunday kreditlash ssudani qarzdor tomonidan o'z vaqtida so'ndirilishining qo'shimcha kafolatini beradi.

Xususiy banklarning sindikatlari o'z kreditlarini qarz oluvchi mamlakatlarga ular tomonidan XVF Yoki TTHB (TaraqqiYot va Tiklanish Xalqaro Banki)ning kreditlarini olgan taqdirdagina taqdim etadilar. Davlat va xususiy banklar o'rtasidagi ushbu taqsimotning asosiy maqsadi iqtisodiy hamda siyosiy omillardan kelib chiqqan holda ssuda kapitallarining jahon bozoriga qarz oluvchilar chiqishini muvofiqlashtirishdir. SHu sababli xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining kreditlari ikki taraflama hukumat kreditlari hamda ayniqsa xususiy banklar kreditlari, evrokreditlarga nisbatan summalari bo'yicha kamtarona o'rin egallasa-da, katta rol o'ynaydi.

Xalqaro uzoq muddatli kreditning shakllaridan biri bo'lib qimmatli qog'ozlar emissiyasi hisoblanadi.

Loyihalarni moliyalashtirish xalqaro uzoq muddatli kreditning zamonaviy shaklidir.

Ushbu shakllardan biriga lizing ham kiradi. Lizing (inglizcha leasing, lease-ijaraga berish soʻzidan olingan) lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga moddiy qimmatliklarni turli muddatlarga ijaraga taqdim etilishidir.

Faktoring (inglizcha factoring, factor-vositachi) - ixtisoslashgan moliyaviy kompaniya tomonidan eksport Yorning import Yorga boʻlgan pul talablarini sotib olinishi hamda inkassatsiya qilinishi shaklidagi xalqaro kreditdir.

Forfeytlash (frantsuzcha "a forfait" - yalpi, umumiy summasi bilan) naqdli toʻlov evaziga maʼlum bir huquqlar taqdim etilishini bildiradi. Ushbu bank amaliyotida veksellarni hamda boshqa qarz majburiyatlarini toʻliq muddatga, oldindan belgilangan shartlar asosida sotib olinishidan iboratdir.

Qisqa hulosalar.

Valyuta tizimi – bu, milliy qonunchilik Yoki davlatlararo kelishuvlar bilan mustaxkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishning shaklidir.

Valyuta kursi – bu, bir valyutani boshqa bir valyutadagi ifodasi Yoki bahosi.

Xalqaro hisob-kitoblar - bu davlat, kompaniyalar, korxonalar, boshqa mamlakatlar xududlaridagi fuqarolarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa munosabatlari natijasida vujudga kelgan pulli talab va majburiyatlari buyicha toʻlovlarni amalga oshirish va tartibga solish tizimidir.

Xalqaro kredit ssuda kapitalining jahon oborotidagi harakati hisoblanadi.

Tayanch iboralar:

Valyuta tizimi, deviz, xalqaro kredit, jahon valyuta tizimi, toʻlov balansi, toʻlov balansini tarkibi, passiv savdo balansi, xorijiy investitsiyalar, toʻlov balansini tarkibga solish, deflyatsion siyosat, devalvatsiya, valyuta cheklovlari, valyuta kursi, spot kurs, forvard kurs, kross kurs, xalqaro hisob-kitoblar, importer, eksporter, akkreditiv, inkasso, kliring, xalqaro kredit, valyuta siyosati, deviz siyosati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Valyuta munosabatlari va ularning xukukiy asoslari

2. Valyuta operatsiyalari va ularni boshqarish tartibi
3. Xalqaro moliya va kapital bozori va ularni taxlili.
4. Valyuta munosabatlari tizimida banklarning o'ri.
5. Xalqaro valyuta qonunchiligi.
6. O'zbekiston Respublikasida valyuta tizimini rivojlanishi.
7. CHet el valyutasida kreditlash.
8. Xalqaro hisob-kitoblar va uning respublika tijorat banklari tomonidan ishlatiladigan asosiy shakllari.
9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning valyuta
10. Banklarning valyuta operatsiyalaridagi valyuta risklari va ularni boshqarish

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
2. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: O'zbekiston, 2005.
3. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007.
4. Don Patinkin. Dengi, protsent i tseni. –M.: Ekonomika, 2004. – 375 str.
5. Milyakov N.V. Finansi. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2004. – 543 str.
6. Molyakov D.S., SHoxin E.I. Teoriya finansov predpriyatiy. Ucheb. posob. – M.: FiS, 2001. – 300 str.
7. Sviridov O.YU. Finansi, denejnoe obraçenie, kredit. Ekspress spravochnik dlya stud. vuzov. –M.: IKTS Mart, Rostov n/D. izd. Sentr Mart, 2004. – 179 str.
8. Dengi, kredit, banki. Uchebnik pod red. V.V. Ivanova, B.I. Sokolova. –M.: Ekonomika, 2004. – 370s.

IX – BOB. SUG'URTALASH VA SUG'URTA ISHI

9.1. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati, uning zarurligi funksiyalari.

Bozor iqtisodiyoti chukurlashishi bilan sug'urtaning iqtisodiy tizimdagi o'rnini tubdan uzgarib, sug'urta kompaniyalari bozor sharoitida tulaqonli xo'jalik sub`ektlariga aylanadilar. Sug'urta ishlab chiqarish munosabatlarining chambarchas qismi bo'lib hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har xil risklar mavjuddir shu sababli ularni sug'urtalash kerakligi shartdir.

Sug'urta iqtisodiy tushuncha bo'lib moliya tizimi bilan bogliqdir. Moliya kabi, sug'urta pulning qiymatini o'zgarishi bilan bog'liq, chunki tegishli pul mablag'larini shakllanishi hamda ularni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishiga ta`sir ko'rsatadi.

Sug'urtalashning qo'yidagi iqtisodiy belgilarini alohida ko'rsatish mumkin:

1. Sug'urtalash jaraYonida pulning qayta taqsimlanishi paydo bo'ladi, chunki u chiqarishdagi moddiy zararni oldini olish uchun riskini sug'urtalash zaruriyatidan kelib chiqadi.

2. Sug'urtalash jaraYonida pulni kayta taksimlash munosabatlari kelib chiqadi, chunki biror bir xo'jalikda vujudga keladigan zarar oqibatini qoplash uchun boshqa zarar ko'rmagan xo'jaliklardan olingan sug'urtalash mablag'lari evaziga sug'urtalash olib boriladi.

3. Sug'urta fondida jamg'arilgan mablag'lar uz mulkini Yoki uz faoliyatini sug'urtalagan shaxsga qaytib keladi. Sug'urta to'lovlarini xajmi sug'urta tariflari asosida belgilanadi. Sug'urta to'lov tariflari esa uz navbatida ikki qismdan tashkil etiladi: birinchi qism yuz beradigan salbiy oqibatlarni qoplash uchun muljallangan.

Ikkinchi qismi esa sug'urtani tashkil etgan sug'urta tashkilotini harajatlarini qoplashga sarflanadi.

Ishlab chiqarishda risklarni ob`ektiv va sub`ektiv omillar ta`sirida muvafakiyatsizlikka uchragan, ishlab chiqaruvchiga zararli oqibat yuz berganda bu oqibatni tezroq bartaraf etilishiga, ishlab chiqarishni to`xtab qolmasdan rivojlanishiga imkon beradigan iqtisodiy hamda huquqiy vositalarning samarali turlaridan biri-bu risklarni sug`urtalashdir. Ishlab chiqaruvchini mol-mulkini intellektual va boshqa boyliklarining turli qo`shilmagan zarar, voqea-xodisalar yuz berishi tufayli vujudga kelishi mumkin bulgan zarar oqibatining oldi olinishidir.

Sug`urta ya`ni tabiiy Yoki ijtimoiy sabablarga kura shaxsninig xaYoti, sog`ligi Yoki mol-mulkiga zarar etish extimolini oldindan tutish, ana shunday zararli oqibat yuz berganida jabr qurgan tomonga zarar o`rnini sug`urtalovchi mablag`lari hisobiga tuliq Yoki qisman qoplab berish Yo`li bilan sug`urta xodisasini salbiy oqibatlari ta`sirini kamaytirishga qaratilgan faoliyati sug`urtalash deb ataladi.

SHaxsiy sug`urta inson xaYotiga, mehnat qobiliyatiga va sog`ligiga zarar etkanda turli risklardagi ximoya qilish shakli bo`lib hisoblanadi. SHaxsiy sug`urta shartnomasi fuqarolik-huquqiy bitim bo`lib, sug`urta to`lovlarini undirib olish, sug`urta xodisasi yuz berganda etkazilgan zararni qoplash Yoki sug`urta to`lovini qaytarish majburiyatini uz zimmasiga oladi.

SHaxsiy sug`urta shartnomalari majburiy va ixtiYoriy, uzoq va qisqa muddatga muljallangan bo`lishi mumkin. Har bir sug`urtaga turi buyicha shartnoma tuziladi. SHaxsiy sug`urtalash quyidagi turlardan tashkil topadi:

- a) xaYotni sug`urtalash va baxtsiz xodisalardan sug`urtalash
- b) nikoxni va boshqa tug`ilinishni sug`urtalash:
- v) bolalar xaYotini sug`urtalash:
- g) guruh. baxtsiz xodisalardan sug`urtalash
- d) guruh kasalliklardan sug`urtalash va xx.

Sug`urtalash avvalo sug`urta shartnomasi tuzish bilan boshlanadi. Sug`urta shartnomasi tuzish uchun quyidagi xujjatlar talab qilinadi: SHaxsiy

ariza, Arizada sug'urta turi, qushimcha kafolatlar, sug'urta summasi, sug'urta mukofotlarini tulab turish muddatlari ko'rsatiladi.

Sug'urtalashni amalga oshirish uziga hos muhim munosabatlarni keltirib chiqadi. Ushbu munosabatlar sug'urtalash jaraYonida ishtirok etuvchilarning har xil sug'urta manfaatlari bilan bog'liqdir. Bundan tashqari sug'urtalash jaraYonida vujudga keladigan munosabatlar har xil sug'urtalash ob'ektlari, sug'urtalash turlari va boshqa omillar bilan bog'liqdir. SHu munosabat bilan sug'urtalashda qo'llaniladigan barcha iboralarni tugri tushunish va talkin qilish katta ahamiyatga egadir. SHundan kelib chiqib, bizning fikrimizcha quyidagi muhim iboralarga ta`rif berilsa maqsadga muvofiq bulur edi deb uylaymiz.

9.2. Majburiy va ixtiYoriy sug'urtani tashkil qilish tamoyillari

O'zbekiston iqtisodiYotida qishloq xo'jaligi katta rol o'ynaydi. SHu sababli ushbu sohada majburiy va ixtiYoriy qishloq xo'jaligi sug'urtalari amalga oshiriladi. Quyidagi majburiy sug'urtalar amalga oshirilishi kerak:

-tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar qaytarilishi yuzasidan javobgarlikni sug'urtalash;

-qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish uchun va f`yuchers shartnomalari bo'yicha berilgan avanslar kaytarilishini ta`minlash javobgarligini sug'urtalash;

-qishloq joylarida yashovchi fukarolarga tegishli bo'lgan mol-mulklarni sug'urtalash;

-qishloq joylarida garovga quyilgan mulklarni sug'urtalash;

-qishloq joylaridagi transport egalari fuqaroligiga javobgarligini sug'urtalash;.

YUqorida keltirilgan majburiy sug'urtalashdan tashqari ixtiYoriy sug'urtalashni ham amalga oshiradilar. Xususan quyidagi ob'ektlar ixtiYoriy ravishda sug'urtalanishi mumkin:

-qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalash;

-ekinlarni qazib kayta ekish, qushimcha ekishni sug'urtalash;

- qishloq xo'jaligi korxonalarining chorva mollarini sug'urtalash;
- qishloq xo'jaligi korxonalari asosiy vositalarini sug'urtalash;
- tabiiy pichanzorlar, utloqlar, tutzorlarni sug'urtalash;
- pillani sug'urtalash;
- bog va uzumzorlar hosilini duldan sug'urtalash;
- qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer, dehqon xo'jaliklari mol-mulkini sug'urtalash;
- fukarolar tomorqasi va ekinzorlarini sug'urtalash va xokoza.

Majburiy sug'urtalashning yana bir turi bo'lib tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ajratiladigan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi sohasidagi loyixalarni amalga oshirishga qaratilgan kreditlarni sug'urtalash hisoblanadi. Sug'urta ob`ektlari bo'lib qishloq xo'jaligi korxonasi tomonidan olingan kredit mablag'larini tijorat bankiga o'z vaqtida kaytarilmasligi uchun yuz beradigan javobgarlik sanaladi. Sug'urta xodisasi bo'lib tijorat bankidan olingan kreditning garov bilan ta`minlanmagan qismini o'z vaqtida qaytarilmasligi hisoblanadi. Sug'urta summasi sug'urtalovchi javobgarligining shartnomada ko'zda tutilgan darajasiga ko'ra belgilanadi. Kredit o'z vaqtida to'la Yoki qisman qaytarilmaganda sug'urtalovchi Yoki uning vakili kaytarilish muddati etib kelgan kundan boshlab uch kun ichida sug'urta xodisasi yuz berganligini tasdiqlovchi xujjatlarni takdim etadi. Ushbu xujjatlar asosida sug'urta dalolatnomasi tuziladi. Banklar riski va tavakkalchilikni oldini olish, uni boshqarish maqsadlari uchun katta mablag'lar sarflaydi. Bunday tadbirlar banklarning bevosita o'zlari tomonidan Yoki riskni maxsus sug'urta kompaniyalarida sug'urta Yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalari tomonidan bank faoliyati sohasidagi g'ayri qonuniy harakatlardan sug'urtalashning asosiy qoidalari endi ishlab chiqarilmoqda. SHuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar tajribasini urganish diqqatga sazovordir. Jumladan Buyuk Britaniyaning Lloyd sug'urta

assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan banklarni kompleks sug'urtalash VVV va komp'yuter sohasidagi risklar tufayli etkazilgan zararning qoplanishi ko'zda tutilgan:

1) bank xodimlari tomonidan qaysi maqsadida sodir etilgan g'ayri qonuniy harakatlari tufayli sug'urtalanuvchiga etkazilgan zararni qoplab berilishi:

2) Qalbaki to'lov xujjat, soxta imzolar, soxta cheklar va boshqa soxta xujjatlar qabul qilinishi tufayli taqdim etilishi oqibatida sug'urtalanuvchiga etgan zararni sug'urtalash va x.k.

3) Plastik kartochkalardan foydalanish bilan bog'liq riskdan sug'urtalash. Bizning mamlakatimizda bu sohada amalda sug'urtalash kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan sug'urta xizmati turi plastik kartochkalar yuqotib quyilishini sug'urtalashdan iborat. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakatimizda tadbirkorlik sohasi rivojlanmoqda. Lekin bu soha katta risklar bilan bog'liqdir. SHuning uchun ham tadbirkorlik riskini sug'urtalash ishlarini olib borish kerak. Tadbirkorlik sohasidagi moliyaviy riskni sug'urtalash yuzasidan shartnoma to'zish paytida sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga quyidagi voqealar bilan bog'liq zararlarni tulik Yoki qisman qoplashlikni o'z zimmasiga oladi;

A) ko'zda tutilgan xodisalar tufayli ishlab chiqarishni to'xtab qolishi Yoki qisqarishi;

B) bankrotlik yuz berishi;

V) bitim bo'yicha kreditor sanaluvchi hamkor tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligi va x.k.

G) YAna bir sug'urtalashni turi bo'lib javobgarlikni sug'urtalash hisoblanadi. Bunday sug'urtalash sug'urta faoliyatining alohida sohasi bo'lib, mamlakatimiz sug'urta bozorida yangi sug'urta xizmatidir. Sug'urtaning ushbu turi ob'ekti bo'lib sug'urtalovchining shartnomasiz Yoki shartnoma asosida majburiyatlari bo'yicha uchinchi shaxslar mulkiga Yoki shaxsga etkazilgan

zarar uchun javobgarligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 918-moddasida javobgarlikni sug'urta qilishning asosiy qoidalari belgilangan. Ushbu kodeksning ko'rsatilgan moddasida aytilishicha:

“Boshqa shaxslarning xavfi, sog'ligi, Yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchining o'zining Yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin. Zarar etkazganlik uchun javobgarlik xavfi sug'urtalangan shaxs sug'urta shartnomasida ko'rsatilishi lozim. Agar bu shaxs shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchining o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalangan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 919-920 chi moddalarida shuningdek, javobgarlikni sug'urtalash ko'rinishlaridan bo'lib sanaluvchi shartnoma bo'yicha javobgarlikni hamda tadbirkorlik xavfini sug'urtalash haqidagi qoidalar ko'zda tutilgan. Bo'lardan tashqari sug'urta bozorida fuqarolik javobgarligini, kasbiy javobgarlikni, majburiyatlar bajarilmaganligi tufayli yuz bergan javobgarlikni va boshqa turdagi javobgarliklarni sug'urtalash hollari ham uchraydi. Javobgarlikni sug'urtalash ixtiyoriy shartnoma to'zish Yoki majburiy sug'urtalash Yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday sug'urta shartnomasining o'ziga hos xususiyati, bunday shartnoma zarar kurishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxs foydasiga to'ziladi va zarar sug'urta xodisasi yuz berganda talablar bevosita manfaat oluvchi shaxs tomonidan ham sug'urtalovchiga ham bildirilishi mumkin. Tibbiy sug'urtada sug'urta xodisasi yuz berganda sug'urta badallari hisobidan jamgarylган mablag'lar va oldini olish tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari hisobidan tibbiy Yordam olishlikning kafolatlashdan iborat. Tibbiy sug'urta ob'ekti bo'lib sug'urta xodisasi yuz berganda tibbiy Yordam ko'rsatish bilan bog'liq harajatlar tarzidagi sug'urta tavakkalchiligi hisoblanadi. Sug'urta xodisasi bo'lib shartnoma olganda bo'lgan davr davomida sug'urtalangan shaxsni o'tkir surunkali kasalliklar, jaroxatlanish, zaharlanish, boshqa turdagi

baxtsiz xodisalar tufayli maslaxat-profilaktik, davolash va boshqa turdagi Yordamlar olish maqsadida tibbiyot muassasasiga murojaat qilishi sabablanadi. Davlat ijtimoiy sug'urtalash mehnat munosabatlari bo'lib fuqarolarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini ruYobga chiqarilishi jaraYonida xodim hamda ish beruvchi o'rtasidagi mehnat tug'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz xodisalar Yoki kasb kasalligiga chalinish okibatida yuz bergan moddiy zarar deganda sog'likka zarar etgan holda xodim yuqotgan ish haqi, uning muayyan qismini qoplash, qushimcha harajatlarni qoplash, bir Yo'la qoplanadigan nafaqa berish, ma'naviy zararni qoplash kabilardan iborat bo'ladi. Xodim vafot etgan taqdirda esa, ushbu harajatlar uning mehnatga yaroqsiz qaramogida bo'lib kelgan oila a'zolariga to'lanadi (xotini Yoki bolalariga). Sug'urtalovchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti (badali) yillik ish haqi fondiga nisbatan foizlarda, sug'urtalovchi tomonidan belgilangan tariflarga muvofiq belgilanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, sug'urtalash jaraYoni muhim va uni tug'ri tashkil etish esa o'z navbatida mamlakatda

9.3. Sug'urtalash turlari va ularni takomillashtirish Yo'llari

Sug'urta tashkiloti-bu maxsus sug'urtalash kompaniyasi. Hozirgi kunda Uzbekistonda sug'urtalash davlat va nodavlat sug'urtalash idoralari tomonidan o'tkaziladi. Sug'urta tashkilotlari uz tarkibiga turli sug'urta jamiyatlari, kompaniyalari, xalqaro va mintakaviy moliyaviy guruhlar hamkorligidagi qayta sug'urtalovchi kompaniyalari, davlat sug'urta kompaniyalari mustakil faoliyat yurituvchi xo'jalik sub`ektlari bo'lib hisoblanadi. Huquqiy tomondan sug'urta tashkilotlari mamlakatdagi amal qilaYotgan qonunlar doirasida faoliyat yuritadi. Moliyaviy tizimning mustakil bo'lishi sifatida mamlakat iqtisodiYotining rivojlanishiga hissa qushadi. Sug'urta tashkilotlari mamlakat hududida boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish, sug'urta fondlarini shakllantirish, vaqtincha bush pul mablag'larini foyda keltiradigan sohalarga sarmoya sifatida

yunaltirish, chiqargan qimmatli qogozlarni sotish, bush pul mablag'larini foyda olish uchun kreditga berish huquqiga ega.

Sug'urtalovchi-sifatida yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi, ular sug'urta tashkilotlari bilan muayyan sug'urta munosabatlari urnatib sug'urta summasini tulaydilar.

Sug'urtalash ob`ekti va predmeti bo'lib shaxsning sog'ligi, xaYoti Yoki mol-mulki hisoblanadi.

Sug'urta bahosining ushbu ibora mol-mulkni sug'urtalash jaraYonida qo'llanidadi. Bu jaraYonda sug'urta summasini belgilash uchun avvalo sug'urta ob`ektini bahosini tugri aniklash kerak. Sug'urta summasi deb shunday mablag'larning tushishi kerakki bu summaga mol-mulk, shaxsning xaYoti Yoki sogligi sug'urtalanadi. Sug'urta tarifi deb sug'urta summasining birlik qismini tushunish lozim. Sug'urta tarifi asosida sug'urta fondi shakllanadi. Uzbekiston Respublikasi "Sug'urta tugrisidagi " qonunining 10 moddasi 2- bandiga kura "Sug'urta tariflari sug'urtaga doir to'lov miqdorlari bo'lib, ular sug'urta tashkiloti sug'urta pulini tulash (sug'urta tovon), zaxira fondi va boshqa fondlar hosil qilish uchun moliyaviy mablag' bilan ta`minlaydigan miqdorda belgilanadi. Majburiy sug'urta turlariga doir sug'urta tariflari qonun xujjatlarida belgilab quyiladi. IxtiYoriy sug'urta turlariga doir sug'urta tarifining miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Fuqarolarni ixtiYoriy va majburiy sug'urtalash, sug'urta shartnoma munosabatlari eng keng tarkalgan ijtimoiy soha bo'lib, uning vositasida moddiy va boshqa manfaatlarni kutilmagan xodisalardan muxofazalash ana shunday noxush xollar yuz bergan takdirda esa uning salbiy oqibatlari ta`sirini bartaraf etish Yoki loaqal kamaytirishni ta`minlaydi.

SHaxsiy sug'urta ommaviy bo'lib hisoblanadi. qonunda ko'rsatilgan shaxslardan sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning xaYoti, sog'ligi Yoki mol-mulkini, Yoxud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligiga o'z hisobidan, Yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug'urta

qilish majburiyati qonun bilan yuklangan xollarda sug'urta shartnomalar tuzish Yo'li bilan amalga oshiriladi. Majburiy sug'urtada sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan sug'urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun xujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzish shart. qonunda fuqarolarning xaYoti va mol-mulkini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan majburiy sug'urta qilish xollari nazarda tutilishi mumkin. Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada nazarda tutilgan voqea, sug'urta xodisasi sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta kildiruvchiga) Yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga to'zilgan bo'lsa, o'sha shaxsga bu xodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka etkazilgan zararni Yoxud sug'urtalovchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa doirasida to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi kelgusida yuz berishi extimoli bo'lgan risk tufayli vujudga keladigan zarali oqibat o'rnini sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalovchiga oldindan to'lanadigan muntazam to'lab boriladigan xak evaziga tuliq Yoki qisman qoplashning huquqiy vositasi sifatida sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati sifatida muayyan xususiyatlarga ko'ra tasniflanish mumkin. Sug'urtalash ob'ektlariga ko'ra mulkiy va shaxsiy sug'urta farqlanish lozim. Mulkiy sug'urta o'z navbatida ko'char va ko'chmas mulklar sug'urtasiga, shaxsiy shaxsiy sug'urta esa sog'likni Yoki xaYotni sug'urtalashga bo'linishi mumkin. O'z navbatida mulkiy sug'urtaning ko'plab ko'rinishlari uy-joylarni, transport vositalarini, uy-ro'zgor anjomlarini, korxonalarini va xokazo. SHaxsiy sug'urtaning xima-xil shakllari bolalarni sug'urtalash, baxtsiz xodisalardan sug'urtalash va boshqalar uchraydi. Sug'urta munosabati sub'ektlariga ko'ra jismoniy shaxslar sug'urtalanuvchi bo'lib qatnashadigan va yuridik shaxslar sug'urtalanuvchi bo'lib katnashadigan sug'urta shartnomalari o'zaro farqlanadi.

Sug'urtalovchi shaxslarga ko'ra sug'urta shartnomalari davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta shartnomalari hamda nodavlat mulkchiligi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil sug'urta tashkilotlari

tomoniga, shu jumladan O'zbekistonda sug'urta faoliyati bilan shugullanishga litsenziya olgan chet ellik sug'urta tashkilotlari ishtirokidagi sug'urta shartnomalari mavjud bo'ladi. YUqoridagilardan tashqari iqtisodiy tarmoqlariga ko'ra Yoki tadbirkorlik faoliyatining ayrim Yo'nalishlariga muvofiq tarzda to'ziladigan sug'urta shartnomalari ham ko'pgina o'ziga hos jihatlarga ega bo'ladi va bu jihatlari O'zbekiston Respublikasi Xukumati qarorlarida, ushbu sohadalarda sug'urta shartnomasini to'zishga oid maxsus qoidalarda belgilab quyiladi. Ushbu nuqtai-nazardan sug'urta shartnomalarining quyidagi turlarini qayd etish mumkin:

1. Qishloq xo'jaligi faoliyatini sug'urtalash.
2. Qurilish tashkilotchiligini sug'urtalash.
3. Eksport-import faoliyatini sug'urtalash.
4. Tadbirkorlik faoliyatini sug'urtalash.
5. Transport vositalarini sugurt
6. Tibbiy sug'urta.
7. Davlat ijtimoiy sug'urtasi.
8. SHartnomalarning bajarilishini sug'urtalash.
9. Kredit jaraYonini sug'urtalash.
10. Uy-ro'zgor buyumlarni sug'urtalash va xokazo.

9.4. O'zbekiston Respublikasi sug'urta qonunchiligi.

Sug'urta huquqini maxsus manbaalaridan bo'lib O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan maxsus "Sug'urta tug'risida" gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunda umumiy qoidalar, sug'urta shartnomasi, sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, sug'urta faoliyati ustidan davlat idoralarini nazorat qilish, sug'urtaga oid nizolarni xal qilishga oid qoidalar belgilangan. Sug'urta faoliyatini tartibga solish va ular ustidan davlat nazorati asosan ushbu qonunga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari O'zbekiston respublikasi Fukarolik kodeksi ham sug'urta huquqining

muhim manbaalaridan hisoblanadi. Unda barcha bitimlar va shartnomalarga taalluqli bo'lgan asosiy qoidalar belgilangan. Fuqarolik kodeksining 914-962 moddalarida sug'urta shartnomalash, uning turlari ishtirokchilari o'rtasidagi, sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi huquqlari hamda javobgarliklarining eng muhim qoidalari belgilangan. Sug'urta huquqi manbalari qoidalarida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, boshqa davlat boshqaruv organlarining idoraviy me'Yoriy xujjatlari muhim urin tutadi. Ushbu me'Yoriy xujjatlar "Sug'urta" tug'risidagi qonun talablarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va huquqiy qoidalarida belgilangan vazifalarning bajarilishining ta'minlashda, sug'urta faoliyatiga oid davlat siYosatini ruYobga chiqarilishida alohida kasb etadi. Sug'urta moliyaviy mablag'lar eng ko'p ko'llanadigan, munosabat ishtirokchilarining huquq va manfaatlari tuqnashadigan shu tufayli bu huquq va majburiyatlar tez-tez risk ostida qolishi mumkin bo'lgan sohalardan biridir. SHu sababli sug'urta sohasidagi munosabatlar davlatning diqqat e'tiborida bo'lib, bu munosabat ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari, javobgarliklari doirasida davlat tomonidan belgilanadi. Sug'urta oid xukumat munosabat ob'ektlari bo'lib-sug'urta tashkiloti va sug'urta qildiruvchi yuridik Yoki jismoniy shaxs o'rtasida sug'urta shartnoma aloqalari kelib chiqishiga sabab bo'laYotgan predmetlar hisoblanadi. "Sug'urta tug'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 3- moddasida ko'rsatilishicha "Fuqarolarning xaYoti, sog'ligi, mehnat qilish qobiliyati, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki, moddiy boyliklari, javobgarlik majburiyatlari, mulkiy hamda mulkka oid bo'lmagan huquqlarni Yoki manfaatlarni sug'urta ob'ektlari hisoblanadi". Biroq sug'urta ob'ektlari tushunchasi bilan sug'urta munosabatlari ob'ektlari ayni bir narsa emas. Sug'urta munosabati ob'ektlari o'z mazmuniga ko'ra sug'urta ob'ektlaridan ancha keng tushuncha bo'lib, boshqa ko'plab yuridik omillarni ham qamrab oladi. Sug'urta munosabatlari sub'ektlari o'zlarining sug'urta sohasidagi sub`ektiv huquqlari va majburiyatlarini bermalol amalga oshirishlari

uchun zarur huquq laYoqati hamda muamala laYoqatiga ega bo'lishlari lozim".Sug'urta tug'risida" gi qonunni 6-moddasida aytilishicha :

1.Sug'urtalanuvchilar va sug'urtalovchilar sug'urta munosabatlarining sub`ektlari hisoblanadi.

2.O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lib, sug'urta to'lovlari to'laYotgan va sug'urtalovchilar bilan muayyan sug'urta munosabatiga kirishaYotgan fuqarolik salohiyatiga tulik ega bo'lgan jismoniy shaxslar Yoki yuridik shaxslar sug'urtalanuvchilar deb hisoblanadi.

3. CHet ellik fuqarolarni fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellik yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslari bilan teng ravishda sug'urtalanish huquqiga egadirlar. Bo'lardan tashqari sug'urta tashkilotlari faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish, tegishli tashkiliy choralar qullash huquqi berilgan davlat tashkilotlari ham sug'urtaga oid huquqiy munosabat sub`ektlari sifatida qabul qilinishlari lozim.

4. Sug'urtalovchining faoliyatini ximoya qilish maqsadida uning moliya mablag'lari tashkil etiladi. Sug'urtalovchi manba sug'urta fondi hisobidan o'z harajatlarini qoplaydi hamda sug'urtalanuvchiga etkazilgan zararni ham qoplaydi. Bundan tashqari bozor munosabatlari sharoitida sug'urtalovchi investitsion faoliyat bilan ham shugullanadi. Buning uchun u o'z mablag'lari hamda sug'urta fondida jamgarilgan mablag'lardan foydalaniladi. Sug'urtalovchining barqarorligi u tomondan tashkil qilgan sug'urta fondini miqdoriga hamda sug'urtalovchilarning talablariga bog'liqdir. Sug'urta tashkilotining moliyaviy faoliyati birinchi navbatda sug'urta fondidagi mablag'larni aylanishi bilan bog'liq. Sug'urta tashkilotlarining asosiy daromadlari sug'urta to'lovlari hisobidan tashkil etiladi. Sug'urta to'lovlari, sarmoya va bank mablag'laridan keladigan daromadlardan tashqari sug'urta tashkiloti boshqa Yo'llar bilan daromad olishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta tug'risida" gi qonunga ko'ra sug'urtalovchilar faoliyatida ustav kapitali va zaxiralarning mavjud bo'lishi, shuningdek kayta

sug'urta qilish tizimi moliyaviy barqarorlik negizi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta tashkilotining moliyaviy holati tug'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya hisobi va boshqa hisobot materiallarida aks etadi. Sug'urta kompaniyalarining asosiy kreditorlari uning mijozlari –sug'urtalanuvchilardir. Ular sug'urta tashkiloti faoliyatining nazorat qilish imkoniyatiga ega emaslar. Sug'urta tashkilotlarining sug'urta zaxiralari va fondlari faoliyatini yuritish va rivojlantirish uchun tashkil etiladi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy faoliyatida sug'urta xodisalarining oldini olish borasidagi tadbirlar ham muhim ahamiyatga ega. Sug'urta kompaniyalari fukarolar xaYoti va salomatligini muxofaza qilishni ta`minlaydigan shart-sharoit yaratishga Yoki sug'urta xodisalarining oldini olishga qaratilgan ogoxlantirish borasidagi tadbirlarni mablag' bilan ta`minlashda katnashish uchun maxsus fondlar yaratadilar. Ogoxlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish maqsadida ajratilgan majburiy sug'urta tariflarining miqdori O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida belgilanadi. IxtiYoriy sug'urta tariflari esa ana shu tadbirlarga muljallangan qismini sug'urta kompaniyalarining o'zi belgilaydi. Ana shu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sug'urta kompaniyasining harajatlariga kiritiladi. Sug'urta zaxiralari sug'urta tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan fondlar bo'lib, sug'urtachi va sug'urtalanuvchi o'rtasida to'zilgan shartnoma majburiyatining miqdorini belgilab beradi. Sug'urta zaxiralari sug'urtalovchi majburiyatlarini bajarishiga ko'ra belgilanadi, chunki shartnomada ko'rsatilgan sug'urta xodisasi yuz berganda sug'urta tashkilotini qoplash summasini to'lash shart bo'lib hisoblanadi. Sug'urta zaxiralarning belgilanishi va yuzaga kelish tartibi turlicha bo'lishi mumkin, bu zaxiralar sug'urtalanuvchilar uchun mablag'lar sifatida ishtirok etadi va majburiyatlar bo'yicha sug'urta to'lovlari uchun yunaltiriladi. Ularning miqdori to'zilgan shartnoma to'lovlarini to'la qoplashi lozim. Buning uchun maxsus hisob-kitoblar o'tkaziladi, shunga ko'ra to'lovlar summasi belgilanadi. Sug'urta tashkilotini ustav kapitali mavjud. Ustav kapitali kompaniyaning dastlabki faoliyatini ta`minlash hamda sug'urta to'lovlari

harajatlarni qoplash uchun sarflanadi. Ustav kapitali amal qilinaYotgan qonunga va ta`sis xujjatlariga ko`ra shakllanadi. Zaxiralar foydadan ajratma ko`rinishida ham yuzaga keladi. Foydadan ajratma sug`urtalovchining o`z faoliyati natijasida olingan va soliqlar to`langandan keyingi qolgan mablag`larining bir qismidir. Foydadan ajratma uchta ko`rinishda aks etishi mumkin: qonun bo`yicha ko`rsatilgan, ustavda ko`rsatilgan hamda erkin pul mablag`lari. Sug`urta tashkilotlarining daromadlari bilan birga harajatlari ham turli maqsadlar uchun yunaltiriladi. Harajatlarning tarkibi asosan ikkita Yo`nalish bo`yicha belgilanadi:

- 1) sug`urtalanuvchilarning majburiyatini bajarish:
- 2) sug`urta kompaniyasining faoliyatini moliyalashtirish.

5. Bozor iqtisodiYoti chuqurlashganida sug`urta munosabatlari ham chuqurlashadi. Sug`urta bozori sug`urta xizmatining oldi-sotdisi bo`yicha iqtisodiy munosabatlar yigindisini aks ettiradi va sug`urta mahsulotining bir qismini sotish bo`yicha sug`urtalovchi va sug`urtalanuvchi o`rtasidagi aloqani ta`minlab beradi. Mamlakatda faoliyat olib boraYotgan sug`urta kompaniyalari sug`urta bozorining asosi bo`lib hisoblanadi. Ular moliyaviy jihatdan sug`urta fondining yuzaga kelish shakli bo`lib, sug`urta fondida tuplangan mablag`lar esa, uzoq muddatli kreditlarning manbai bo`lib hisoblanadi. Sug`urta kompaniyalarining ichida aktsiyaner sug`urta kompaniyalari asosiy urin tutadi. Sug`urta tizimida sug`urtalash maqsadini aniqlab olish uchun avvalo sug`urta turlarini aniqlab olish, uning ob`ektlari va sub`ektlarini urganib chiqish katta ahamiyatga egadir. Mol-mulkni sug`urtalash uchun avvalo mulklar xo`jalik yuritish sub`ektlari bo`yicha turkumlanishi kerak bo`ladi. Buning uchun avvalo mulkning egasini, ya`ni mulk kimga taaluksligini aniqlash lozim. O`zbekiston Respublikasi "Sug`urta tug`risida" gi qonunning 9-moddasining 2-bandida ko`rsatilishicha "Mol-mulk sug`urta qilinganda sug`urta puli mol-mulkning shartnoma to`zilaYotgan paytdagi haqiqiy qiymatidan oshmasligi lozim" deb aytilgan. Mulkni sug`urtalashda sanoat korxonalarini bo`yicha korxonaning

binolari, kurilish ob`ektlari, transport vositalari, mashina –uskunalar, tovar zaxiralari, ishlab chiqarish vositalari, eksport-import munosabatlari, umuman korxonaning barcha mol-mulki sug'urtalanadi. qishloq xo'jaligi sohasida quyidagi mulklar sug'urtalanadi:

1) qishloq xo'jaligida etishtiriladigan hosil (paxta, bugdoy va x.o);

2) CHorva mollari, uy parandalari, xonaki asalarilar, binolar, inshootlar, ishchi va boshqa turdagi mashinalar, transport vositalari, inventarlar, xomashYo zaxiralari, ko'p yillik daraxtlar. qishloq xo'jalik sohasida sug'urta xodisalariga qurgokchilik natijasida ekinlarning nobud bo'lishi, issiqlikning etarli bo'lmasligi, mo'zlashi, yashin urishi, shamol, dovul, dul, sel, suv toshqini, zararkunandalar va Yong'inlar bo'lishi kiradi. qishloq xo'jaligida asosiy va aylanma mablag'lar ham turli xodisalardan sug'urtalanadi. Sug'urta qoplash summolari mulklari zarar ko'rgan hamda dehqon va fermer xo'jaliklariga beriladi. Aholi mulkini sug'urtalashda uy-joylar, dala xovlilar, qurilish uchastkalari, mollar va boshqa uy xayvonlari, otlar sug'urtalanadi. Fuqarolarning mulklari tabiiy ofat, baxtsiz xodisalar va boshqa turli xodisalardan sug'urta qilinadi. SHaxsning sug'urtalanadigan mulklariga uy-ro'zgor buyumlari, iste`mol tovarlari, shaxsiy xo'jalikda qo'llanadigan buyumlar, shaxsiy mulk va boshqa oila a`zolarining mulklari kiradi. Fuqarolarning transport vositalari tusatdan baxtsiz xodisaga uchrash Yoki transport xaloqatining yuz berishi, transport vositalari bilan tuknashishi Yoki bir-biriga urnashib ketish, Yo'l buyidagi tusiklarga urinish, mashina oynalariga tosh tegishi va zarar kurishi va boshqa xodisalardan sug'urtalanadi. Fukarolarning mulki ularning yashash joylari bo'yicha ya`ni uy-joylari, dala xovlilar sug'urta guvoxnomasida ko'rsatilgan manzillar bo'yicha sug'urtalash amalga oshiriladi. Fuqarolarning shaxsiy transport vositalarini sug'urtalash ikki tomonning roziligi bilan sug'urta shartnomasiga ko'ra amalga oshiriladi. Sug'urta amaliYotida yuklarning transport sug'urtalash shartnomalari quyidagilarga asosan amalga oshiriladi:

-barcha tavakkalliklar uchun javobgarligi, bunda har qanday sababga ko'ra, barcha turdagi zararlarning sug'urta ximoyasi tushuniladi.

-xususiyl avariylalar uchun javobgarlik, bunda yukning to'la Yoki qisman avariyladan ko'rgan zarari qoplanadi. Qurilish va boshqa mulklarni sug'urta qilish jaraYoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

-mulkning zarar ko'rishi xodisasining dalilini belgilash:

-qurilgan zarar sabablarini aniqlash va xodisani sug'urtalash Yoki nosug'urtali xodisa ekanligini xal etish:

-zarar ko'rgan mulklarni va ob`ektlarni aniqlash:

-zarar summasi va sug'urta qoplash summasini hisoblab chiqish.

Fuqarolar xo'jaligida qurilish zarar ko'rganda sug'urta tashkiloti qurilishning tarkibini va mavjud ekanligini tekshiradi hamda kurilish barcha materiallarining sug'urta baholash varaqalarida aks etgan va etmaganligini aniqlaydi. SHularga asosan qoplash summasi to'lanadi. Uy mulklarini sug'urtalashda uydagi barcha mulklar hisobga olinadi. Kurilgan zarar summasi mulk zarar kurganda sug'urtachi tomonidan to'lanadi. Bozor iqtisodiYoti sharoitida beriladigan moliyaviy kafolatlar asosan tuziladigan moliyaviy bitimlar ya`ni bank depozitlari bilan, qimmatli qog'ozlar, sarmoya quyilmalari, ijara majburiyatlari, kreditlar, ipoteka, o'tkaziladigan turli tavakkalchilik jaraYonlari, valyuta kursidagi o'zgarishlar, mavjud miqdorlar va boshqa tijorat xizmatlari bo'yicha umuman olganda namuna bo'yicha sug'urta kompaniyasining portfelida mavjud bo'lgan aktivlar bo'lib hisoblanadi.

SHuni ta`kidlash joizki mamlakatimizda aholi omonatlarini kafolatlash tizimi yurtboshimiz tomonidan qattiq nazorat ostiga olingandir. SHuning uchun hozirgi kunda... Bank aktivlari hajmining sezilarli darajada oshganini hisobga olib, bugungi kunda respublikamizda aholining banklardagi barcha depozitlarini davlat tomonidan yuz foiz kafolatlash ta`minlanmoqda²⁶.

²⁶ Каримов И.А. Жаҳон молиявий –иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Т.: Ўзбекистон, 2009. 9 б.

YUqoridagilardan tashqari birja faoliyatini ham sug'urta qilish zarur. Birjadagi moliyaviy operatsiyalarni ximoya qilish shakllaridan biri birjalarni sug'urtalashdir. Sug'urtaning bu turi O'zbekistonda endi shakllanmoqda. Valyuta riskini sug'urtalash asosan tashqi iqtisodiy aloqalarda qo'llaniladi. Valyuta riski bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy riskning muhim elementi bo'lib hisoblanadi. Xorij mamlakatlarning valyutasi (masalan AKSH dollari) kursi sumga nisbatan o'zgarib turishi, kredit va valyuta operatsiyalaridan qurilgan zararlar shu sug'urta turini qoplash summasi hisobidan qoplanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarida qatnashuvchilar xizmat uchun belgilangan narxlar bilan bog'liq bo'lgan turlicha risklarga duch keladi:

-Risklarni sug'urtalash tizimida banklar sug'urtasi alohida urinni egallaydi. Banklar krediti va ularning sug'urtasi mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga umumiy ta'sir ko'rsatadi. Aylanma mablag'lar va sarmoya zaxiralarining etishmasligi natijasida iqtisodiyot sub`ektlari qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli kreditlar olishga majburdirlar. SHuning uchun ham berilaYotgan kreditlarni sug'urta qilish shart. SHartnoma sug'urta kompaniyasi va banklar Yoki boshqa kredit muassasalari o'rtasida to'ziladi. Bunday kredit sug'urtasida sug'urtalanuvchining kreditni to'lash qobiliyati, ya`ni kredit riski darajasini hisobga olish kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sug'urtaning mohiyati nimadan iborat?
2. Sug'urtaning funktsiyalari.
3. Kredit risklarini minimallashtirish uslublari.
4. Ixtiyoriy sug'urtalish nima?
5. Sug'urta xodisasi.
6. Xalqaro hisob-kitob operatsiyalaridagi risklarni pasaytirish Yo'llari.

7. Valyuta risklari va ularni sug'urtalash.
8. Tibbiy sug'urta ob`ekti nima?
9. Sug'urtalash turlari nima?
10. Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalash nimadan iborat?

Qisqa hulosalar.

Sug'urta iqtisodiy tushuncha bo'lib moliya tizimi bilan bogliqdir.

Sug'urta ya`ni tabiiy Yoki ijtimoiy sabablarga kura shaxsninig xaYoti, sog'ligi Yoki mol-mulkiga zarar etish extimolini oldindan tutish, ana shunday zararli oqibat yuz berganida jabr qurgan tomonga zarar o`rnini sug'urtalovchi mablag'lari hisobiga tuliq Yoki qisman qoplab berish Yo`li bilan sug'urta xodisasini salbiy oqibatlari ta`sirini kamaytirishga qaratilgan faoliyati sug'urtalash deb ataladi.

Sug'urta tashkiloti-bu maxsus sug'urtalash kompaniyasi.

Sug'urtalovchi-sifatida yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Sug'urta huquqini maxsus manbalaridan bo'lib O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan maxsus "Sug'urta tug'risida" gi qonuni hisoblanadi.

Tavsiya etiladigan adabiYotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
2. Don Patinkin. Dengi, protsent i tseni. –M.: Ekonomika, 2004. – 375 str.
3. Milyakov N.V. Finansi. Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2004. – 543 str.
4. Molyakov D.S., SHoxin E.I. Teoriya finansov predpriyatiy. Ucheb. posob. – M.: FiS, 2001. – 300 str.

5. Sviridov O.YU. Finansi, deneznoe obrašenie, kredit. Ekspress spravochnik dlya stud. vuzov. –M.: IKTS Mart, Rostov n/D. izd. Sentr Mart, 2004. – 179 str.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiYotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: "O'zbekiston", 2002.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati tug'risida"gi qonun, T.: "O'zbekiston", 1996.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Xalk suzi, 09.01.2002.
5. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni. 27.06. 2008.
6. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish tug'risida"gi qonuni, 11.12. 2003.
7. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 04.04. 2002.
8. «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 20.06.2005
9. «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor Yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.
10. «Tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan taqdim etiladigan mijasobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Toshkent. 15.06.2005.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori. «Xalq so'zi» 16.04.2005.
12. «Pul mablag'larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 05.08.2002.
13. «Pul-kredit ko'rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori.04.02.2003.
14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning Yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009. 56 b.
15. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi.11.02.2006.
16. Karimov.I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida.T.,O'zbekiston.2005 y.

17. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., O'zbekiston., 2005.y.

18. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot Yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish- asosiy vazifamizdir. Toshkent oqshomi. 13.02.2007.

19. Alimov I.I. Moliya. –T.: TDIU. 2007

20. Den'gi, kredit, banki / Pod red. Beloglazovoy G. N. Posobie dlya sdachi ekzamina. – M.: YUrayt-Izdat, 2006. – 160 s.

21. Den'gi, kredit, banki / Pod red. G.N. Beloglazovoy: Uchebnik. – M.: YUrayt-Izdat, 2006. – 620 s.

22. Galanov V.A. Finansi, denejnoe obraçenie i kredit: Uchebnik. – M.: FORUM: INFRA-M, 2006. – 416 s. 2 ekz.

23. Godin A. M., Maksimova N.S., Podporina I.V. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. – 3-e izd., ispr. i dop. – M.: Izdatel'sko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. – 568 s.

24. Klimovich V.P. Finansi, denejnoe obraçenie, kredit: Uchebnik. – 2-e izd., dop. – M.: FORUM: INFRA-M, 2006. – 256 s.

25. Finansi, denejnoe obraçenie i kredit: Uchebnik / Romanovskiy V. M. i dr.; pod red. Vrublevskiy O.V. - M.: YUrayt-izdat, 2006. - 543s.

26. Finansi, denejnoe obraçenie i kredit: uchebnik. – 2-e izd., pererab. i dop. / V.K. Senchagov, A.I. Arxipov i dr.; pod red. V.K. Senchagova, A.I. Arxipova. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 720 s. 2 ekz.

27. SHulyak P.N. Finansi predpriyatiya: Uchebnik. – 6-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatel'sko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. – 712s.

5.2. Qo'shimcha adabiYotlar

1. Rashidov O.YU., Toymuhamedov I.R., Tojiev R.R., Karlibaeva R.X. Pul muomalasi, kredit va moliya. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2005.

2. Neshitoy A.S. Finansi i kredit: Uchebnik. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Izdatel'sko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. - 572 s.

3. Finansi i kredit: uchebnik / M.L. D'yakonova, T.M. Kovaleva, T.N. Kuz'menko (i dr.); pod red. prof. T.M. Kovalevoy. - 2-e izdatel'stvo, pererab. i dop. - M.: KNORUS, 2006. – 376 s.

4. Finansi i kredit: Uchebnoe posobie. / pod red. prof. Kovalevoy. A. M – M.: Finansi i statistika, 2006. - 512s.

5. Kolpakova G.M. Finansi. Denejnoe obraçenie. Kredit: Uchebnik.pos. - 2-e izdatel'stvo, pererab. i dop. - M.: Finansi i statistika, 2005. - 496 s.

5.3. Internet saytlari

1. www.travel-library.com www.thebanker.com

2. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>

3. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>

4. <http://www.bankofengland.co.uk/coreuproses.htm>
5. <http://www.boj.or.jp/en/sirYo.htm>

O.YU. RASHIDOV, I.I. ALIMOV,
I.R. TOYMUHAMEDOV, R.R. TOJIEV

PUL, KREDIT VA BANKLAR

(Darslik)

Muharrir: Xaqberdiev B.
Texnik muharrir: G'oyibnazarov M.
Komp'yuterda sahifalovchi va dizayn: Safarov O'.

MCHJ "RAM-S" bosmaxonasida bosildi.
700096, Toshkent sh., Muqimiy ko'chasi, 178-uy.
SHartli bosma tabog'i – 10,2
Adadi 500 nusxa